


1034044  
3

# ADABIYOT

9



QOZOQBOY YO'LDOSHEV, VALIJON QODIROV,  
JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV

# ADABIYOT

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi  
umumi o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun  
darslik sifatida tavsiya etgan*

Qayta ishlangan 2-nashri

TOSHKENT  
«YANGIYO'L POLIGRAPH SERVICE»  
2010

83.3(50\*)  
Y 69

Y 69

Yo'ldoshev Qozoqboy.

**Adabiyot:** Umumiy o'rta ta'limi maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Quyta ishlangan 2-nashri. / Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov; [Mas'ul muharrirlar: V.Rahmonov, N.G'ulomova]. — T.: Yangiyo'l poligraph service, 2010. — 304 b.

1, 1,2 Muallifdosh.

BBK 83.3(50\*) ya 721

**Taqrizchilar:** H. Boltaboyev — O'zMU professori, filologiya fanlari doktori;

R. Niyorzmetova — pedagogika fanlari doktori;

U. To'laganova — Toshkent shahridagi 243- maktab o'qituvchisi;

N. Mirhabibova — Toshkent shahridagi 155- maktab o'qituvchisi;


G. Yunusova — Toshkent shahridagi 72- maktab o'qituvchisi.

**Mas'ul muharrirlar:** Vahob Rahmonov — filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Nazira G'ulomova — Respublika ta'lim markazi metodisti.

Badiiy adabiyot yoxud ma'lum bir usarning inson rubiyati va tafakkuriga ta'siri sababi haqida o'ylab ko'rgannisiz? Balki bu savolga badiiy asarlar bilan ilmiy risololarni solishtirib ko'rish orqali javob izlarsiz. Ammo siz aziz o'quvchilar mazkur darslikni diqqat bilan o'qib-o'rganib chiqsangiz, yuqoridagi savolga so'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy, mutalakkir shoir Zahiriddin Muhammad Bobur yoki o'zbek romançiligiga asos solgan Abdulla Qodiriy, otashnafas shoir Cho'lpou va boshqa ijodkorlar asarlaridan to'liq javob topasiz.

**"Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan  
ijara uchun chop etildi"**



ISBN 978-9943-361-53-9

© Yo'ldoshev Q. va boshq.

© Yangiyo'l poligraph service, 2010 - y.

## RUHIY KAMOLOT VOSITASI

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli so'zdir. O'zi ko'zga ham ko'rinnmaydigan so'z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalarini, balki boshdagи o'ylar, ko'ngil-dagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham san'at turlari orasida adabiyot alohida o'rin tutadi. Insonning o'y xayollarasi, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to'laroq aks ettiriladi. Respublikamiz Prezidentining "Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak"<sup>1</sup> degan so'zlari bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, badiiy adabiyotda tasvirlangan huyot serqirra va ta'sirli bo'ladi. Tasavvur qilaylik, siz "Alponish" dostonini o'qiyapsiz. Bilasizki, asardagi voqealar bundan minglarcha yillar oldin qayerdadir, kimlar bilandir ro'y bergan, ehtimol, hech qachon bo'limgandir ham. Asar qahramonlari sizga qarindosh ham, yuqin ham emaslar. Lekin ularning taqdiri sizning taqdiriringizga, ularning tuyg'ulari siznikiga qo'shilib ketadi, o'zingizni ulardan ayri tasavvur qilolmaysiz. Doston qahramonlari taqdirining, umuman, badiiy asarning tuyg'ularingizga bunchalar qattiq ta'sir ko'rsatishi, sizning sezimlaringizni bezovta qilishi sababi haqida beixtiyor o'ylab qolasiz.

Badiiy asarda fikr aytishi bilangina kifoyalanilmay, kishining tuyg'u va hissiyotiga ham ta'sir ko'rsatishga e'tibor beriladi. Bunga erishish uchun tasvirni muayyan ohangga bo'ysundirish, ya'ni kishi e'tiborini tortadigan shaklga solish lozim bo'ladi. Oddiy axborot berish yoki shunchaki aytib qo'ya qolish bilan inson sezimlariga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. So'zning obrazliligini ta'minlash uchun tilning imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish lozim bo'ladi. Chunonchi, hozirgi Navoiy g'azalidan olingan:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,  
Unda yo'q ibtido paydo, bunda yo'q intiho paydo,

baytida Allohning azalligi, abadligi hamda avvallining boshi bo'limganidek, oxirining adog'i yo'qligi so'zlarning joylashtirilishi va muayyan tovushlarning takrori tufayli g'oyat jozibali, kishi e'tiborini tortadigan tarzda aks elgan.

Adabiyot keng ma'noda ilmiy va badiiy singari ikki turga bo'linadi. Ilmiy adabiyot tushunchasi inson aqlining mahsuli bo'lmish ijtimoiy ahamiyatiga ega har qanday yozma asarni o'z ichiga oladi. Texnikaviy, ilmiy, ma'rifiy, publisistik, memuar, tarixiy, ensiklopedik, lug'atshunoslik va boshqa yo'nalishdagi adabiyotlar ilmiy adabiyot tushunchasiga kiradi. Ilmiy adabiyot kishining aqlini o'strib, uning

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 29- bej.

bilimlarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot tushunchasi esa o'z ichiga olamni obrazli ko'rish va tim sollar asosida aks ettirish mahsuli bo'linish badiiy asarlarni oladi. Bu xil asarlar nimanidir o'rganish, bilib olish uchun emas, balki inson qalbining toylanishlarini, tuyg'ularining rangoqligini his etish, uning quyonchu iztiroblarini tuyish uchun o'qiladi. Shu bois kishilar tomonidan o'qilib, hissiyotni boyitish, ruhiyatga singdirish ko'zda tutilib yaratilgan bitiklar badiiy adabiyot bo'ladi va adabiyot atamasini asosan shu ma'noda qo'llaniladi.

Olimlarning ko'rsalishlaricha, badiiy asarlar qanday maqsadla yaratilishiga (*kuylash* uchunmi, salinada *ko'rsatish* uchunmi yoki o'qish uchunmi) va nimanini ifoda etishiga (*tuyg'uni*, *tuyg'uning yuzaga kelishi*ga sabab bo'lgan voqeani yoki obrazlarning bevosita *harakatlarini*) qarab lirik, epik, dramatik kabi turlarga bo'linadi.

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli — xalq og'zaki ijodi (folklor) bo'lib, uning o'zi ham dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar singari qalor janrlarga ajraladi. Og'zaki adabiyot, nomidan ham anglatib turganidek, og'zaki ravishda yaratilgan bo'ladi va uning kim tomonidan dunyoga keltirilganligini aniqlab bo'lmaydi. Muallifining nom'a'lumligi, yillar mobaynida turli aytinchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib, mukammal shaklga ega bo'lish xalq og'zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir. Og'zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan. Yozuvchilar ijod sirlarini og'zaki adabiyot namunalari asosida o'rganishigan.

HAR bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror-bir vosita badiiy adabiyotga teng kelolmaydi. Shuning uchun ham adabiyoti bo'limgan millat unutilishga mahkum. Bilasizki, badiiy adabiyotning quroli so'zdir. Turkiy tilda yaratilgan asarlarda turkiy xalqlarning otashin ruhi aks etib turadi.

Ma'lumki, ruh abadiyidir. Milliy ruhi saqlab qolning millat esa yashayveradi. Negaki, millat o'z adiblari va ularning asarlariga tayanib, o'z milliy ruhini tiklab olaverdi. O'z ruhiyatiga ega millat hech qachon o'zligidan voz kechlmaydi.



### Savol va topshiriqlar

1. Badiiy hamda ilmiy adabiyotga xos xususiyallarni aytинг va qiyoslang.
2. Badiiy adabiyotning turlarga bo'linish asoslarini tushuntiring.
3. Adabiyotda inson hayoti, o'y-fikr va kechimmalari to'laroq aks ettirilishi sababini aytинг.
4. Og'zaki adabiyotga xos belgilarni ajratib ko'rsating.
5. Millat hayotida badiiy adabiyot tutgan o'rinni izohlang.

## XALQ OG'ZAKI IJODI

Hurmattli o'quvchi! Siz xalqimizning eng ulug' dostoni "Alpomish" dan olingan parcha bilan tanishasiz. Bu dostonni o'zbekning buyuk baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan. "Alpomish" dostonining boshqa baxshilar tomonidan aytigan qirqdan ortiq musxasini olimlar yozib olishgan. Lekin ular ichida voqealarning qiziqrilikligi, ifodaning ta'sirchanligi, tasvirning izchilligiga ko'ra, Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan nusxa diqqatga sazovordir.

Fozil shoir 1872- yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani Loyqa qishlog'ida tug'ilgan. Yetimlikda o'sgan bo'lajak shoir cho'ponlik qilgan vaqtlarida do'mbirja jo'rligida temra va dostonlar aytishga qiziqqan. Yigitlik chog'larida davrining taniqli baxshisi Yo'ldosh shoirdan doston aytish sirlarini o'rgangan. Ulkan iste'dodi tufayli o'zbek xalq dostonchiligidini yangi bosqichga ko'turgan.

Fozil Yo'ldosh qirqdan oshiq xalq dostonlarini to'lu yod bilgan va betakror talanti bilan aytgan dostonlarining badiiy jihatdan mukammal bo'lishiga erishgan. "Alpomish" dostoni nafaqat uning ijodida, balki o'zbek xalq dostonchiligidida alohiда alhamiyat kash etadi. Chunki "... xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu munloz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-momot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, bu asar xalqimizning ma'naviy olamini ko'rsatuvchi ko'zgudir. 1999- yilda ushbu doston yaratilganining uning yilligi mamlakatiimizda keng nishonlangan.

"Alpomish" dostonida o'zbek xalqining azal-azaldan imon-e'tiqod, or-nomus va yurt birligi yo'lida o'zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o'qish davomida o'ziga unashtirilgan qizning qalmioqlar ornsida talash, yurtdoshlarining begonalarga xor bo'lmasligi uchun jonini tikkon buyuk qahramon Alpomish, imon keltirgani va do'st tutingani uchun Hakimbekning yonida o'zining insosiz yaqinlariga qarshi kurashgan Qorajon, insoniy fazilatlari bilan ko'pehitik erkaklardan baland tura oladigan Oybarchin va Qaldirg'och timsollari millatimizga xos baland sifatlarni aks ettirganligini ko'rasiz.

Aziz o'quvchi! Agar siz o'zbek degen xalqi yuksaltirgan, uni dunyoga tanilgan axloqiy xususiyatlar nimalar ekanligini tuymoqchi, bobolariningizni olamga mashhur etgan ma'naviy fazilatlarning ildizi qayerdanligini bilmuoqchi, ajdodlarning or-nomus, so'zga egalik, bag'rikenglik va kechirrimilik singari jihatlaridan o'rnak olmoqchi bo'lsangiz, dostonni diqqat bilan o'qib chiqib tushunishga harakat qiling. Bobolarimizning shonli o'tmishiga qiladigan safaringiz xayrli bo'lsin!

<sup>1</sup> Islam Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 33- het.

## “ALPOMISH” DOSTONI

Burungi o’tgan zamonda, o’n olti urug<sup>1</sup> qo’ng’irot elida Dobonbiy degan o’tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o’g’il farzand paydo bo’ldi. Alpinbiydan tag<sup>2</sup> ikki o’g’il paydo bo’ldi: kattakanining otini Boybo’ri qo’ydi, kichkinasining otini Boysari qo’ydi. Boybo’ri bilan Boysari — ikkovi katta bo’ldi. Boysari boy edi, Boybo’ri shoy edi. Bu ikkovi ham farzandsiz bo’ldi.

Ana endi o’n olti urug<sup>1</sup> qo’ng’irot elida bir chupronto<sup>3</sup> y bo’ldi. Xaloyiqlarni, elatiyalarni<sup>1</sup> to’yga xabar qildi. Shu to’yga barcha xaloyiqlar yig’ildi. Biylar ham to’yga keldi. To’ydagi kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlanmadidi. Biylar: “Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, — deb otini o’zlar bog’lab, ma’rakai majlisga kelib o’tira berdi.

Biylarning ko’nglini xushlanmadidi, otini ushlanmadidi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi — suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko’rib, ilgari izzat ko’rib yurgan odamlar aytdi: “Bizlar o’n olti urug<sup>1</sup> qo’ng’irotning boyi ham shoyi bo’lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko’nglimizni xushlar edinglar, bu da’fa bizdan nima o’tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?”

Bu so’zni eshitib, o’n olti urug<sup>1</sup> qo’ng’irot elida paygabetdan turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: “Ey, Boybo’ri bilan Boysaril Bu to’y o’g’illining o’g’lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O’zing o’lsang, molingga har merosxo’r chiqadi og’ziga odam kirib ketadi”.

Biylar bulardan bu gapni eshitib, xafa bo’ldi. Xafa bo’lib, sakson tillani chupronga tashlab, turib keldi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uya yetti. Ikkovi qildi maslahatti. Bu so’z ikkoviga juda botib ketdi. Boybo’ri turib aytdi: “Boysari uka, qariganda bizning molimiz besohibga chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?” Boysari turib aytdi: “Tortib olib bo’lmasa, sotib olib bo’lmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!” Boybo’ri aytdi: “Shu yerdan Shohimardon pirning ravzasasi uch kunchalik yo’l kelar ekan, har kim borib tunar ekan: davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, nazru niyozimizni bersak, Shohimardon pirning ravzasini tunlab, biz ham bir farzand tilab ko’rsak”.

Shunda bu gap boylarning ikkoviga ham ma’qul tushib, bir-biriga: “Rost atasan”, — deb, nazru niyozni olib, biylar ikkovi Shohimardon pirning ravzasiga<sup>2</sup> qarab jo’namoqchi bo’lib, mindi bedov oldi, uch kun limmay yo’l tortdi. Uch kun yo’l yurib, Shohimardon pirning ravzasiga yetdi. Olib borgan nazru niyozini shayxlarga berib, biylar ravzani tunab yoldi. Oradan bir kam qirq kun o’tdi.

<sup>1</sup> Elatiya — ko’chmauchi chorvadorlar. <sup>2</sup> Ravza — 1) g’or, 2) bog’.

Bir kam qirq kun deganda, ravzadan ovoz keldi: "Ey, Boybo'riman, Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab yotibsun. Xudoning yaralgan sheri men bo'lsam, bir kam qirq kundan beri bir oyog'im bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. Yaratgan farzand bermayman dedi". Biylar bu ovozni eshitib: "Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, xudoning yaralgan sheri siz bo'lsangiz. Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg'on, xudoga sherligingiz yolg'on. Bor unday bo'lsa, biz ham dunyoning bahridan o'tdik", deb, tappa tushib, ravzada turbatning ostida yoldi. Qirq kun o'rtadan aniq o'tdi, boz ravzadan ovoz keldi: "Boybo'ri, senga Xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi. Yolg'iz emas, egiz berdi. Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi. Egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'uda qalandar bo'lib borib, bolalaringning olini o'zim qo'yib kelaman".

...Oydan oy, kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat oradan o'tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin etdi. Biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa", — deb bu o'ylnarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi.

Boybichalarga shunda to'lg'oq vaqt vaqin yetdi. Ne kampirlar kelib, tul-kini inlatgan toziday bo'lib, boybichalarni angnib, o'rtaqa olib turibdi. Biylar shu vaqtida ovdan qaytdi. Bu yodan farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar ziyoda vaqt xush bo'lib, mazgiliga kelib, joy olib, vaqt xushligidan har tarasga xabar yuborib, to'y-tomoshalar qilmoqchi bo'lib, chog'lanib, sozlanib, o'n olti urug' qo'ng'irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarini yig'dirib: to'y qilamiz, deb maslahat qildi. O'n olti urug' qo'ng'irot elining odamlari, eshitgan xaloyiqlar gurros-gurros bo'lib kelaverdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylar og'zidan to'y qilainiz, deganini eshitib, to'yning asboblarini tuzab, qancha so'qim mollarni so'yib, oshpalovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to'yib, shul alpozda o'n olti urug' qo'ng'irotning bor odami to'yni qilib, hammalari jam bo'lib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib yotdi. ...To'y tarqaydigan kun bo'ldi. Bir vaqt, shunda biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko'rinib kelaverdi. Xaloyiqlar ham ko'rdi: tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir. O'zga kishilarga u qalandarning holi-ahvoli ma'lum emas. Ravzadagi so'zlagan ovozni eshitgani sababli: "Shohimardon pirim shul kishi bo'lmasa", — deb, biylar o'rnidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon pirning etagiga soldi. Shohimardon pir Boybo'rining o'g'lini otini Hakimbek qo'ydi. O'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lini o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi.

Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarining qizini otini Oybarchin qo'ydi. Ana shunda Shohimardon pir Hakimbekka Oybarchinni atashtirib, beshikkeri qilib: "Bu ikkovi er-xotin bo'lzin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin. Omin, Ollohu akbar", — deb, fotihani betiga tortdi. Shohimardon pir turib, jo'nab ketdi, odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lib ketdi. Ana shuytib, biylarning to'yłari ham tarqab ketdi.

Shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchchovini ham mактабга qо'ydi. Ular maktabda o'qib yurib, yetti yosha kirdi. Burro savodi chiqib, xat o'qib, yozadigan mulla bo'ldi. Shunda Boybo'ribiy: "Endi o'g'lim savodi chiqib, mulla bo'ldi. O'g'limga endi shohlik, sipohlik ilmini o'rgatayin", — deb nulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo'riga taassub qildi. Bul ham Oybarchin qizini maktabdan chiqarib oldi. "Chiqarib olib, qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lzin", — dedi.

Shunda Hakimbek yetti yosha kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parti yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olaunga ketdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: "Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi. Alplarning boshlig'i Rustami Doston edi, oxiri bu Alponish alp bo'lzin. To'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tdi", — dedi. Oxiri Alponishbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tib, aplik otini ko'tardi, yetti yoshida Alponish ot qo'yildi.

Bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alponishdan: "Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?" — deb so'radi. Shunda o'g'li turib aytdi: "Vaqti-bevaqt birovnikiga mehnmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy: agar joy bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqtibevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqqiga duo o'qib o'tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o'tganda, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqqiga duo qilmay o'tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan".

Bul so'zni Boybo'ribiy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: "Men o'n olti urug' qo'ng'irot elining ham boyi bo'lsm, ham shoyi bo'lsm, men kimga zakot bera man. Mening davlatimda yolg'iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin", — deb, o'z ko'nglida: "Boysaribiy ukam menga zakot berishi kerak ekan", — deb o'yładi. O'ylab: "Boysariga boringlar, Boysari o'z rozichiligi bilan bir chichqoq

uloqni zakot deb menga bersin. Zakot o'rniga o'tarda, Boysari baxil bo'lib, baxil-likka chiqib ketmasin", — deb o'n to'rt mahramni buyurdi.

Boysaribiy o'n ming uyli qo'ng'irot eli bilan ko'chib borib, Ko'kqamish ko'lida eliboylik qilib, mollarini semirtirib, yaylovida joylab yotib edi. O'n ming uyli qo'ng'irot elining boyvachchalar bilan yig'ilib, bir yerga jam bo'lib, baxmal o'tovni tikib, shu o'tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, shag'al masl bo'lib, o'z kayf-safosi bilan o'tirib edi. Ana shunda otining bo'yniga tilla qo'tos taqil-gan o'n to'rt mahram Boybo'ridan Boysarini so'rab borib qoldi. Shundagi boyvach-chalar bularning kelganini bilib, eshikka chiqib, mahramlarning olini ushlab qoldi. Mahramlarni ichkariga olib kirdi. Boysari bulardan yo'l bo'lsin, qilib savol so'radi. Mahramlar savolga javob berib aytdi: "Biz akangdan kelgan zakotchi bo'lamic, bu-gun bizlar sening molingni zakot qilamiz. "Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib ke-linglar", deb yuborgan". — dedi.

Bu so'zlarni mahramlardan eshitib, Boysari ko'ngliga og'ir olib, aytdi: "Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'lmagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo'libdi-da". Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi o'zining odamlariga buyurdi: "Ushla, bachchag'arlarni!" — dedi. U yettovingin qulog-burnini kesib, o'zlariga yegizib, otiga chappa mingizib, otning ustiga tortlib boylab, "Mana buni zakot deb ay-tadi", — deb qo'ng'irot tarasiga haydab yubordi.

Shunchalik ishni qilsa ham, Boysaribiyga zakot degan gap nihoyatda o'tib ketgan ekan: "Endi biz o'z yurtimizda sig'indi bo'lib, o'z akamizga zakot berib yuradigan bo'lsak, bu elda bizning turgiligimiz qolmadi", — deb, o'n ming uyli qo'ng'irot eliga qarab: "Endigi maslahat nima bo'ldi?" — deb turgan ekan:

Oh urganda oqar ko'zdan selob yosh,  
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh,  
Qo'ng'irot eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!  
Qursin, Hukimbegi mulla bo'libdi,  
Bezakot mollarni harom bilibdi,  
Qo'ng'irot eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh.

Dardli qui dardimni kimga yoraman,  
Ayriliq o'tiga bag'ri poraman,  
Mina elda sig'indi bo'p turaman,  
O'z akama qanday zakot beraman?!

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!  
Mina elda men ham bekman, to'raman,

O'z akama qanday zakot beraman?!  
O'z akama o'zim zakot berguncha.  
Qalmoq borib juz'ya<sup>1</sup> berib yuraman...

Ana shunda Boysaribiy bu so'zlarni aytdi. Shu turgan xaloyiqlardan hech bir sazo chiqmadi. Shu majlisda bir Yortiboy oqsoqol degan bor edi. Majlis kun bo'lsa, to'rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kovishga joy bermay, kovish bilan aralashib, it yiqlish bo'lib, poga betda yotar edi. To'rda o'tirgan kattaman deb yurganlarning hech qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin, poga betdan Yortiboy o'rnidan turib, maslahat shulda, — deb Boysarining so'ziga javob berib, Boysariga qarab, bir so'z deb turibdi:

Maslahat bermaymiz Boysaribiya,  
Osilmaymiz Boybo'rining doriga.  
Biring — aka, biring — uka, Boysari,  
Maslahatni, shohim, o'zing bilasan.  
...Biz bilmaymiz Boybo'rining ishini,  
Maslahatga yig'ib shuncha kishini,  
Kuu maslahat bersa, kesar boshini.  
Maslahat bermaymiz Boysaribiya,  
Osilmaymiz Boybo'rining doriga.

Boysaribiy Yortiboydan bu so'zni eshitib, tag'i o'zi bu turgan odamlarga qarab, bir so'z dedi:

Quloq soling Boysarining tiliga,  
Ko'chib ketay menam Kashal eliga.  
Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,  
Semurg<sup>2</sup> qushlar salom berar qoshiga,  
Quloq soling Boysari nolishiga,  
Qalmoq borib qo'nsam Chilbir dashiga.  
Kalma shahodal musulmonning tiliga,  
Azamat boshi berar dinning yo'lliga.  
Turarin yo'q Boysun-Qo'ng'irot eliga.  
O'z elim deb yana bunda turgancha,  
O'z akama o'zim zakot bergancha,  
O'z akamdan bunday xo'rlik ko'rgancha,  
Qalmoq borib juz'ya bersam bo'lmaymi?  
Zakot degan gapni akam chiqarib,  
Mening toza ulsizligim bildirdi.

<sup>1</sup> Juz'ya — g'ayridimlarga solinadigan soliq.

Boysaridan bu so'zni Yortiboy eshitib, Yortiboy ham Boysaribiyga qarab bir so'z dedi:

Dam shu damdir o'zga damni dam dema,  
Boshing eson, davlatingni kam dema,  
Sen ketar bo'lsang Qalmoq yurtiga,  
Bul elatni qolar deb ham g'anm yema.  
Qayga ko'chsang, bizlar birga boramiz,  
Bolalarni jahongashta qilamiz...

Yortiboy oqsoqolning aylgan gapi o'n ming uyi qo'ng'irot eli katta-kichigining bariga ma'qul tushdi. Hammasi: "Boysari ko'chsa, bizlar ham ko'chib ketayik, Boysari o'lik yerda — o'lik, tirik bo'lsa — tirik; endi Boysin-Qo'ng'irot yurtini Boybo'riga bo'shatib berayik. Boysin-Qo'ng'irot yurtini bir o'zi joylab olsin", — dedi.

O'n olti urug' qo'ng'irot elidan o'n ming uyi ekin ekmoqni bilmaydigan eliboylar ayrib, Boysariga qo'shildi. Bular hammasi boy — qo'yli, tuyali. Molining soni yo'q edi. Bularning ichidan moli yo'q degan kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yining sonini, adadini o'zlar ham bilmas edi. Bir qo'ra, ikki qo'ra, o'n qo'ra deb, sanagani shul edi. Yilqi, mollarini bir uyur falon to'qayda yuribdi, ikki uyur falon to'qayda yuribdi, der edi. Sonini sanamoqni hech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini o'tkazar edi. Boysariboyning yilqisining soni shul edi: to'qson to'qay yilqisi bor edi. To'qson to'qay degani — yilqisi har yerlarda: to'qaylarda, tog'larning darasida, to'qayli yerlarda yoylab yurar edi. To'qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysariboyning to'qson to'qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining, molining sonini hech bilmas edi.

..."Boysari ko'chsa, biz ham ko'chamiz", — deb hammasi cho'ponlariga, yilqichilariga, tuyalariga hamma dalmardalariga ko'chauniz deb, odam buyurdi. "Bu Boysin yaylovidan, bu to'qaylardan qo'ylaringni, tuyalarining, yilqilarining — hammasini haydanglar. Qalmoq yurtiga, Kashal eliga qarab yo'l boshlab yura bersin", — deb xabar yubordi.

Hammasi Boysin-qo'ng'irot elini tashlab, Qalmoq yurtiga jo'nab ketmoqchi bo'lib, dobirlashib, uylarni buzib, tuyalarga ortib, ayollari ham o'z yuk-yobini bo'g'ib, bo'g'cha-bo'yalarini chog'lab, tuyalarga ortib, to'polon bo'lib, shovquin-g'alag'ul bo'lib qoldi. O'n ming uyi qo'ng'irot taloto'p bo'lib Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, "Ha!" — deb, ko'cha berdi. Hammasi birdan ko'chib, o'n ming uyi el Boybo'ridan araz urib, ...Boysari bilan birga ko'chib jo'nay berdi. Ayollarga ham yaxshi otlarni olib kelib tortdi. Bu ayollar ham otlarni minib, chog'lanib, jo'namoqchi bo'lib, Barchinoya, enasiga qarab turdi.



Ana shunda enasi Barchinoyni ham jo'natmoqchi bo'lib, Barchinoy uchun toriq yo'rg'a otni tabladan<sup>1</sup> olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab olib keldi. Ana shunda enasining bul otni yetaklab olib kelganini ko'rib, Barchinoy shunday qarasa, o'n ming uyli Qo'ng'irot elining hammasi ko'chib taloto'p bo'lib, shovqin qilib, jo'nab ketib borayotibdi.

...O'n ming uyli Boysin-qo'ng'irot elining jo'nashini Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li shunday tasvirlaydi:

Chechanlar eplaydi gapning epini,  
Shul zamonda oltmis norni cho'ktirib.  
Orta berdi Barchin suluv sepini.  
Qo'ng'irot elning shundaychaqa ko'pi bor,  
Boysarining ikki jildam lo'pi bor,  
Har ko'chkanda lo'p bo'shatib jo'nadi.  
Qalorga tirkalgan lo'k<sup>2</sup> bilan norcha<sup>3</sup>.  
Ustiga yuklangan qirmizi parcha.  
Kamlikni ko'rмаган сатта boybachcha,  
Yo'l-yo'lakay uloq chopib boradi.  
Oshiqning fahmidir qorong'u kecha,  
Yig'lasam, holima yig'lar bir necha.  
Xafa bo'lib borar Barchin oyimcha,  
Jafo tortib borayotir bir necha.  
G'am bilan sarg<sup>4</sup>ayib guldaiyin diydor,  
Ko'rgani yo'q qanday edi qalmoqlar,  
Orasida lo'qson dovon tog'i bor,  
Bellardan<sup>5</sup> oshadi ul zamon boylar.  
Qaba falak boshga soldi zulm deb,  
Eliboylar<sup>6</sup> bundan ko'chib boradi,  
Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.  
Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,  
Borayotir qalmoq elni so'roqlab.  
...Necha bir joylarga tulonlar tushdi,  
Molning oldi Qalmoq yurtga etishdi.  
To'qson tog'dan keti uzilmay mol oshdi,  
Molning oldi Chilbir cho'lga etishdi.  
Adadini kishi bilmas bu molning,  
Ko'kqamishdan keti uzilmay boradi...

<sup>1</sup> Tabla — ot boylamadigan joy. <sup>2</sup> Lo'k — yuk tashiydigan tuyu. <sup>3</sup> Nor — erkek tuyu. <sup>4</sup> Bellar — dovonlar. <sup>5</sup> Eliboylar — choryadforlar.



## Savol va topshiriqlar

1. Aku-uka biylarning to'yda izza qilinishi sababini izohlang.
2. Ularning holatini anglatishga harakat qiling.
3. Bolalarga ol qo'yilishi, ular taqdirli belgilanayotgani, keyinchalik kattalarning bu taqdirni o'zgartirmoqchi bo'lganligi va buning ogibati huqida doston matni asosida so'zlang.
4. Zakot voqeusi tasviri asosida Boybo'ri va Boysari munosabatlarni baholang. Bu aka-ukalarning xarakteri va ichki dunyosini qanday baholaysiz?
5. Boysarining zakotni noto'g'ri tushunishi sababini izohlang.
6. Yortiboy obrazi tasviriga e'tibor bering. U sizda qanday taassurot qoldirdi?
7. Doston tasviriga tayanib, elboy qo'ng'irotlarning boyligi haqidagi tasavvur ringizni aniqlashtirib oling.
8. O'z yurtidan Qalmoqqa ko'chib borayotgan Barchin, umuman, elboyarning kayfiyatni, kechinmalariga diqqat qiling.

\* \* \*

*Qo'ng'irot elidan ko'chgan o'n ming uyli boysunliklar qalmoq shohi Toychixon yurtiga horadilar. U yerda Ko'kaldish, Ko'kaman, Ko'kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo'shqulooq va Qorajon ismli yetti nomdor alp bo'lib, ular Toychixonning tayanchi edilar. Ular o'z yurtlaridagi boshqa eng baquvvat yigitlar bilan birikib, to'qson alp bo'lib, to'qayda bir-birlari bilan kurashib yotardilar. Bu yetti alpning onasi buzg'unchilik va janjalkashligi bilan tanilgan Surxayl degan kampir edi. Go'zal Barchinoyning ta'rifini eshitgan to'qson alpning hammasi uni olmoqchi bo'ladi. Ular Boysariga kelib, "Qizingni birimizga berasanmi, barimizga berasanmi?" deya tah-did qiladilar. Oybarchin otasini bu holatdan qutqarib, alplarga o'zi javob aytishini bildiradi va ulardan olti oyga muhlat so'raydi. "Mandan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa, javobimni bersin!" deya xat yozib, Qo'ng'irotga chopar yuboradi.*

*Yorini qutqarish uchun yaqinlari bilan xo'shlashib, yurtidan chiqgan Alpomishga Shohimardon pir va qirq chiltonlar hamisha homiylik qiladi. Chiltonlar qalmoqqa borishning birinchi kechasida charchab uxbab yotilgan Alpomishning ruhini Barchinniki bilan uchrashтиradilar. Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari vositasida kelajak taqdirlari bildiriladi.*

*Qorajon bilan tanishib, do'shilashgan Alpomish unikida mehmon bo'ladi va do'stini Oybarchin huzuriga xabarchi hamda sovchi qilib jo'natadi.*

Qorajon turib aytdi: "Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa — keldi, alplarning muhlati bo'lsa — bitib qoldi. Sen nima javob aytasан?". Barchin aytdi:

“Alpomish kelsa, kepti-da. Alpomish kepti deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayimmi? Bul alplar ham unid bilan olti oyga muhilat bergen. Har kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi. Har kimning o'z ko'ngli o'zida qoladi. Mening to'rt shartim bor. Shul to'rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin. Shul so'zimni xon to'ramga aytib bor”, — deb bir so'z aytib turgan ekan:

Ot chropsa, gumburlar tog'ning darasi,  
Botirni ingratar nayza yaras.  
Kelgan bo'lsa qo'ng'irot elning to'rasi,  
Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi.  
Boboxon tog'idan poyga qilaman,  
Ko'zdan yoshni munchoq-munchoq tizdirlsa,  
Qo'shqanotning quyrug'ini so'zdirsa,  
Boboxondan poyga qilib o'zdirsa,  
Oti ildam boybachchaga tegaman.  
Mendayin oyimning holin bilganga,  
Osha<sup>1</sup> yurtdan mehnat tortib kelganga,  
Dushmanlarga qora kunnii solganga,  
Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,  
Men tegaman shul yoyandoz polyonga.  
G'anim ko'rsa, qiyomat kun solganga,  
Osha yurtdan izlab halak bo'lganga,  
Ming qadimidan<sup>2</sup> tanga pulni urganga,  
Men tegaman shul qirag'ay merganga.  
Sabash bo'lsa, bul shibanib chiqqanga,  
Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga,  
Men tegaman nor bilaklı polyonga.  
Zog' ham bo'lsa, qo'na bersin gulshanga.  
Bab-barobar qildim yaxshi-yomongu,  
Men tegaman to'rt shartimni qilganga.

Bu so'zlarni Barchindan eshitib... Qorajon ottanib borayotib edi. Bir kam to'qson alp kelayotib edi, Qorajonning oldidan chiqib qoldi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytди: “O'zbakning qizining muhilati bitdi. Uchradimgmi, nima javob aytди?”. “O'zbakning qiziga uchrab kelayotirman. O'zbakning qizining aytgan so'zi shul bo'ldi: “Poya qilaman, otini o'zdirganga tegaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman. Ming qadamidan tanga pulni urganga tegaman”, — dedi.

<sup>1</sup> Osha — juda uzoq. <sup>2</sup> Qadim — qadam.

Bul so'zni eshitib, Ko'kaldosh aytdi: "O'zbakning qizining ko'ngli menda. Poyga bo'lsa, o'zib kelmoq Ko'kdo'nanning tani. Kurash bo'lsa, to'qson alpning barini qo'ymasdan yiqlmoq faqirning tani. Yo'y tortishganda ham mening yoyimi sinmay qoladi. Ming qadimdan tanga pulni ursin depti, besh yuz qadimdan tanga pulni uraman. Ming qadimga borgan so'ng, chog'lab qo'yib yuboraiyan, bu yog'ini mujmaltoq qilib olaman. Sen bu ostingdag'i olachan qayyoqdan olding?" — dedi.

— Qo'ng'irotdan Alpomish do'stimiz kelgan ekan, bul shuning oti.

— Shul yurtdan shul otni minib, xotin olib ketaman deb, ahmoq bo'lib yuribdimi?

Ko'sa sinchi degan sinchisi bor edi, sinchisiga aytdi: "Tushib, o'zbakning oti ni ko'r qani". Tushib, Boychiborni ko'rdi, qarichlab ko'rdi: sag'risining ustidan qulog'ining o'rtasigachayin to'qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvu oltmis uch qarich chiqdi. Sag'risini silab, burnidan naycha qo'yib, durbin bilan qarab ko'rdikim, qo'llig'ida to'rt yarim gaz qanoti taklam-buklam bo'lib yetir.

— Qanday ekan o'zbakning oli? — dedi.

— O'zbakning oti anday ekan. O'zbakning qiziga burilmay qo'yag'o'y", — dedi.

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alpning achchig'i kelib: "Mendan biror vaqtida sen jodirim<sup>1</sup> bo'lib, o'zbakni ilgaridan ham ko'rib, o'zbakka yo'liqib, siyosatga otimni ta'rif qil deb, senga uch-to'rt tanga bergan ekan-da, choqdan biron narsa olib ta'rif qilding", — deb achchig'i kelib, sinchingin ikki ko'zini o'yib olib qo'ydi. "Hamma vaqt o'zbakning oti mening otiidan o'zganda, ko'zingning xunini bera-man. Yuringlar, Alpomishning ustiga boranuz", — dedi.

Alpomish chodirda o'tirib edi, shunday qaradi: har qalmoqlar kelayapti kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib kelgan. Alpomish o'tirgan yerida siyosat bilan qaradi. Bir kam to'qson alp otdan tappa-lappa tashlab, qo'l qovushtirib, ta'zim qildi. Aqli shoshib, dabgiridan<sup>2</sup> adashib goldi. Ko'kaldosh alp Ko'kdo'nanning ustida bir o'zi qoldi.

...Qalmoqning yurtidan Barchinning poygasiga to'rt yuz to'qson to'qqiz ot bo'ldi. Boychibor bilan to'ppa-to'g'ri besh yuz bo'ldi. Poygachilar har kuniga otsovutib, yolg'on poyga qo'yib keladi. Boychibor otlarning changini ham ko'rmay qoladi. "O'yinda o'zgan, chinda o'zudi", — degan gap bor. Hazil poygada olning changini ko'rmay qoladi. Chin poyga bo'lgandan so'ng qanday keladi?" — deb qalmoqlar bog'onog'i ko'r bo'lgan sinchiga izza beradi.

...Hamma poygachilar jam bo'lib, Alpomishning tanidan Qorajon poygaga bormoqchin bo'ldi. ...Poygachilar yo'l yurdi. ...Zil tog'ida bir aydahar boridi:

<sup>1</sup> Jodirim — xasachilik, azyat. <sup>2</sup> Dabgir — tadbir, aql.

Aydaharga alp Qorajon doridi.  
Bunda yotgan aydaharni ko'radi.  
Ot tizginin munda tortib turadi.  
Aydar ham Qorajonni ko'radi.  
Qorajonga ajdar salom beradi.  
(Shoir so'zi shunday yolg'on bo'lami?  
Aydahar odamga salom berami?)  
Ostida mingani Boychibor edi,  
Minganlarga qutbi zamon<sup>1</sup> yor edi,  
Jilovida chiltan, pirlar bor edi,  
Pirga salom bergen aydahar edi...  
...Ostidagi Chibor otin o'ynatib,  
Qorajon chiqди Zil tog'iting ustiga.  
...Qalmoqdan ilgari ketib boradi.  
Ko'rinnaydi qalmoqlarning qorasi,  
Yaqin qoldi Boboxonning orasi.

Boboxon toqqa yetib, Qorajon otga dam berib yordi. ...Qalmoqlarning oldi  
hafta-o'n kun degandu Boboxon tog'iga yetdi. Keyini chuvalib, hati ham kela-  
yapti...

*Ko'kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning ildamligi va poygada yuti-  
shi aniqligini bilib, nomardlik yo'liga kiradilar. Kimsasiz tog'da Qorajonni  
bog'lab tashlab, otning tuyog'iga mix qoqishadi.*

...Bari qalmoq bu o'rtaqa oladi,  
Qorajon yolg'iz-da nima qiladi?  
Bu qalmoqlar ko'plik qilib turadi,  
Qalmoq bari xasta ko'nglin xushladi,  
Qorajonning bilagidan ushladi.  
O'ldirmoqqa ko'zi qiymay turadi.  
Necha so'zni bu qalmoqlar o'yлади,  
Qorajonni kulala<sup>2</sup> qip boyladи.  
Harchand chirpinib ko'rди Qorajon nomidor,  
Qalmoq ko'p-da, bo'lomadi barobar.  
Xazon bo'lsa, bog'da gullar so'lar deb,  
Ajal yelsa, paymonasi to'lar deb,  
Bo'shalsa, bir kuni o'zi borar deb,  
Shumg'ut<sup>3</sup> bo'ldi bu juvarmak o'lar deb,—  
Bosh bo'lib Ko'kaldosh boylab tashladi.

<sup>1</sup> Qutbi zamon — zamoning yetuk avliyosi. <sup>2</sup> Kulala — chandib bog'lash. <sup>3</sup> Shumg'ut — yuzi qora.

...Boylovi qolgandir Qorajon nomidor,  
Boychiborni o'rtaga oldi qalmoqlar.  
Har tarafdan unga arqon soladi,  
Boychiborni endi yiqib oladi.  
Boychiborni shunday tortib boyladi,  
Oyog'idan o'rabi, kerib tayladi.  
Ahmoq qalmoq otga zulm qiladi,  
Tuyog'iga gulmixlarni uradi,  
Urgan gulmix yalpoq tizga keladi.  
Chinqirib kishinaydi boylovli Chibor,  
Siyosatman zarb ko'rsatdi qalmoqlar.

Qorajon bilan Boychiborni shunday qilib boylab tashladi: "...bo'shalsa, bir kunlari borag'oyar, ajali yetsa, o'lag'oyar, ishqip, bizdan keyin qolsa bo'pti". — deb, poygachilar jam bo'lib, qator turib, poygani qo'yib, jo'nab ketdi. Boboxon tog'ida yolg'iz qolib, Boychibor bilan Qorajon ikkovi boylovli yotib, avliyolarni shafe keltirib, bu so'zni aytib yotir:

...Oblo, sendan boshqa yo'qdir murabbiy.  
...Kariusun, samadsan, rasuling barhaq.  
Rahm aylab yor bo'lgin nochor qullara.  
...Bu so'zlarni aytib yig'lar Qorajon  
Boychibortman munda qolib, bul zamon.  
Armonman boylangan Boychibor edi.  
Bek Alpomish o'z yurtida qo'l bergen  
Rajabxo'ja degan piri bor edi.  
Falak titrar Qorajon nolishiga,  
Banda ko'nar Tangri qilgan ishiga.  
Boboxonda yig'lab edi Qorajon,  
Rajabxo'ja piri yetdi qoshiga.  
Karomatman kelib xabar oladi,  
Qorajonning qo'llin chechib qo'yadi.  
Qorajonni pir tarbiyat qiladi,  
Qorajonbek bul o'rnidan turadi.  
Kim chechganin o'zi bilmay qoladi...

Qorajon turib, otning oyog'ini yechdi. Ot o'rnidan turdi. Eshonning ruhu-nati otning sag'risini siladi, qalmoqlarning solgansovuni jiyirilib yerga tushdi. ...Qorajon otning ustiga mindi. Ot oyog'ini bosolmay turdi. ...Eshonning ruhu-nati Qorajonga ko'rinxaydi, otning to'shida turib. Qorajonga bir so'zni aytidi:

Dam shu dandir, o'zga danni dam dema,  
Boshing eson davlatingni kam dema.  
Jabr qilgin menday hayvon joniga,  
Qamechi urgin go'sht ko'targan soniga.  
Yetkizarman Boysin-qo'ng'irot xoniga,  
Qoldim deb, Qorajon, sira g'am yema.  
Qorajonbek, eshit aytgan so'zimdi,  
Egarqoshdan ushlab yungin ko'zingdi,  
Endi bilsang, mendan xizmat lozimdi...  
Boychibor boradi suvday arqirab,  
Tuyog'ida to'rt sixi bor yarqirab.  
...Ko'z yubortib, shunday cho'lga qaradi,  
Badbaxt cho'lda poygachilar boradi.  
Kunning o'zi peshin vaqtি bo'lganda,  
Poygachining qorasini oladi.  
...Haqning yashiniday Chibor boradi,  
Qalmoqlardan to'sat-to'sat qoladi,  
Besh yuz ofning biri bo'lib boradi.  
O'zgan otni sanar Qorajon nonidor,  
Qo'qib-burkib borayotir qalmoqlar.  
...Necha otdan Chibor o'tib boradi,  
O'tgan otni sanab ketib boradi,  
Otlarning hisobin Qorajon oladi.  
Alp Qorajon otga qamechi uradi,  
Bir kecha-bir kunduz chopib boradi.  
Shunday bo'lib borayotir Boychibor.  
To'rt yuz oltmish otdan o'zdi jonivor.  
...Shunday bo'lib alp Qorajon boradi.  
O'zganin jamlab sanab ko'radi.  
Kunning o'zi ayni chashka bo'ladi.  
Poygachidan to'rt ot kam kep qoladi.  
...Jonnii sotib Chibor ketib boradi,  
Qorajonbek shunday bo'ylab qaradi.  
Mildiragan bir qorani ko'radi.  
Olis yo'ldan otni qichab boradi.  
Taqimida besh yuz botmon kaltagi.  
Qayqayib boradi badbaxt Ko'kaldosh.  
Alp Ko'kaldosh shunday burilib qaradi,  
"Chul!"— deydi Do'nanga qamechi uradi,  
Yashinday bo'p oxib ketib boradi.

“Qani endi yetib ol!” — deb boradi.  
Shopirib irg’iydi nazari Chibor,  
“Chu!” — deb qanchi urdi Qorajon qaysar,  
Quvib u Do’nanga yetdi Boychibor.  
Shamolday g’uvullab yetib boradi,  
Ko’kdo’nanning sag’risidan oladi,  
Keyin qarab siltab otib yubordi.  
Ancha yo’lga borib tushdi Ko’kdo’nan,  
Qirq ming qadam o’tib ketdi Boychibor.  
Yana ham o’zini o’ng’ardi Do’nan,  
Chiborning keynidan yetdi ul zamон.  
Qarsillatib dumg’azadan oladi,  
Ustida Qorajon bilmay qoladi.  
Keyin qarab siltab otib yubordi.  
Ancha yo’lga borib tushdi Boychibor,  
O’n ming qadam o’tib ketdi bu tulpor.  
O’zini o’ng’arib Chibor keladi,  
Ko’kaldosh ilgari ketib boradi.  
Poyganing mazgili yaqin qoladi,  
Yashinday bo’p Chibor yetib keladi.  
Alp Ko’kaldosh juda hadik oladi.  
“Chu!” — deydi, Do’nanga qamchi choladi,  
Ikki tulpor yo’l talashib boradi.  
...Ikkovi barobar yo’lda boradi,  
Bir-birini musht tashlashib uradi.  
Biri-biroviga mushti tekkanda,  
Tog’ cho’qqisi qulaganday bo’ladi.  
Qorajon qaytmaydi, navbat oladi.  
Goh yerlarda qamchitashib, savashib,  
Ko’p xarxasha qilar aqili shoshib.  
Bedov otlar horar yo’lda talashib,  
Borayotir bir-biriman tishlashib...

## Savol va topshiriqlar

1. “Oyburchinning Alpomishdan sovchi va xabarchi bo’lib kelgan Qorajonga ber-gan javobini qayta o’qing. Bu so’zlari vositasida uning yana qanday ma’naviy fazilatlari namoyon bo’layotgani to’g’risida fikr yuriting.
2. Barchinoying: “*Shul so’zimni aytib borgin to’ramga, Zog’ ham bo’lsa, qo’na bersin gulshanga. Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga*”, — degan so’zlari zamiridagi ma’noni aniqlashga urining.

3. “Yig‘ilib qalmoqlar zo‘rlik qiladi, O‘ldirmoqqa ko‘zi qiymay turadi. Necha so‘zni bu qalmoqlar o‘yladi, Qorajonni kulaband qip boyladı” tasvirida qalmoqlar holatini izohlang.
4. Matndan Alpomishning jismoniy va ruhiy qudrati namayon bo‘lgan o‘rinni toping va sharhlang.
5. Asuradagi qalmoqlar tasvirlangan lavhalarga diqqat qilang, ularning jismoniy imkoniyatlari va ma’naviy olamiga baho bering.

\* \* \*

“Bularning kelar muddatidan o‘ldi”, — deb Alpomish bir baland tapaning ustiga chiqib, durbinini olib, shunday yo‘lga qaradi. Ko‘rdi ikki ot yo‘lda yo‘l talashib kelyapti. Birini durbini bilan tanidi: Ko‘kdo‘nan. Boychibor to‘riqday bo‘p ko‘rindi. Tuyog‘idagi mixlar ozor bergan, oppoq ko‘pikka botgan, tuyog‘idan chiqqan to‘zon bilan to‘riqday bo‘p qolgan. Boychiborni tanimay: “Ham olimdan, ham yurtindan ayrıldim”, — deb behush bo‘lib yiqlidi. Barchin kelib, Alpomishning holini ko‘rib, yiqlganini ko‘rib, boshini tizzasiga olib... Barchin ham durbin olib qarab, kelayolgan ottlarga qarab, bir so‘z aytib turgan ekan:

Qurruyo-qur hayt-a, to‘ramning oti,  
Oq to‘shim — yayloving, sochim shibirtki.  
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,  
To o‘lgancha sayising bo‘p yurayin.  
Egam rahm aylasin qonli yoshima,  
Sabab bo‘lib qo‘shtin tengu to‘shima.  
Qurru yo-qur hayt-a, to‘ramning oti!  
“Qur hay!” — degan Barchinoyning dovushi  
Boychiborning qulog‘iga boradi.  
Suvluq tishlab o‘zin oldi Boychibor.  
Kalta qantarib lashlagandi qalmoqlar,  
Tizgini uzilib ketdi muqarrar.  
Ustidagi alp Qorajon bexabar.  
Ko‘kdo‘nandan o‘ldi endi jonivor.  
...Alp Ko‘kaldosh otga qamechi uradi:  
“Bul o‘zbakning oti o‘zib boradi,  
Bul Qorajon bir baloni qiladi,  
Ukam menga dushman bo‘lib boradi”.  
Qulochlab qamechi urar Do‘nan otiga...  
Boychibor g‘uvullab ketib boradi...

Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shushti bilan kelib, baxmal o‘tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to‘xtatdi. Barchinning kaniz-

lari yig'ilib yetdi. Qorajonni otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib ko'tarib, baxmal uyg'a kirdizib ketdi. Qizlar otni yelpib sovutib turibdi, opkep yakka mixga boyladi, teri qoldi. Barchin kep otni ko'rdi, ko'zlarini ipak ro'mol bilan surtdi, changi, terini ushaldi. Oyog'idagi mixlar ozor berib, xonning Chibor oti tappa tushib yoldi. Tuyog'idagi mixlarni ko'rib, Barchin bir so'z deb turibdi:

Mening uclun hayvon azob ko'ribdi,  
Shu mix bilan Boboxondan kelibdi,  
Po'latni eritar qizlarning dami.  
Barchinoyim ko'rib, o'ylab turadi,  
Urgan mixi yalpoq tizga boradi.  
Chorsisini tuyooqqa yozib soladi,  
Gulmixlarni tishlab sug'urib oladi...

Bu so'zni aytib, otga mehribonliklar qilib, banol to'rvnga yemni ilib, ko'chib borgan qo'ng'irottlar jam bo'lib, yig'ilib, poyga kelgan qalmoqlar ham kelib, bir kam to'qson alp gurullahish turib, "Alplar bilan o'zbukning polvonni yoy tortishar emish". — deb ovoza bo'lib, hanuna tomoshamonlar yig'ilib, shunda Oyna ko'ligni, Chilbir cho'ligni tomoshamon to'lib, yoyandozlik qilmoqli bo'lib, bu yoy tortishmoqdagi so'zi:

...Olis yo'lga nishonani quradi,  
Nishonani urgan odam oladi.  
Qalmoq alplar bari qator bo'ladi,  
Men urarman deydi, ko'ngil qiladi.  
Shiqirlatib endi yoyni tortadi.  
Yoning o'qi bul g'uvullab ketadi,  
Biri pastdan, biri baland ketadi.  
Bir xilining o'qi yetmay yotadi,  
Achchiqlanib, yoyni buklab tortadi.  
Ushlagan parli yoy sinib ketadi.  
Ikkam to'qson alpi tortib o'tadi,  
Ko'kaldoshga endi navbat yetadi.  
Yoyiga Ko'kaldosh o'qni soladi,  
Nishonaga qarab to'g'ri qiladi.  
"Bor urdim", — deb, endi yoyni tortadi,  
Qo'lda yoyi cho'rtta sinib ketadi.  
Endi navbat Alpomishiga yetadi.  
Parli yoyni shunday qo'lga oladi.  
Ko'rgan qalmoq bari hayron qoladi.  
"Rabbim!" - deydi, endi yoyni tortadi.  
Nishonaga o'qi to'g'ri ketadi.

Nishonani urgan shunday to'radi,  
Bekning yoyi endi omon qoladi.  
Ming qadim yerni qadamlab ko'radi,  
Tanga puldan bul nishona qiladi,  
Yoyni qo'yib, miltiq otmoq bo'ladi.  
Ko'p deb qalmoqlarga navbat beradi.  
Qalmoqlar nechovi miltiq otadi,  
Saksonman to'qsonga o'qi yetadi.  
Qaysi otsa, yo'lda qolib ketadi.  
Alp Ko'kaldosh shunday ko'zlab ko'radi,  
Besh yuz qadim yerga o'qi boradi.  
Ko'kaldoshning ko'nglidagi bo'lindi.  
Alpomishga tag'in navbat keladi.  
Bek Alpomish xasta ko'nglin xushladi,  
Anjom, miltig'ini qo'lga ushladi,  
Qarab nishonani otib tashladi.  
Ko'rib, bul qalmoqlar hayron qoladi...

Uch shart o'tdi. Kurash taraddisini qip yotibdi. O'n ming uyli qo'ng'irod odami, qancha qalmoqning odami yig'ilib, Chilbir cho'liga, Oyna ko'liga tomoshamon to'lib, qo'r tortib o'tirdi. ... Ko'kaldosh bosh bir kam to'qson alp bir tarafdan qator bo'lib o'tirdi. Alpomish bilan Qorajon bir tarafdan o'tirdi. Qalmoqlar aytdi: "O'zimizdan chiqib, Qorajon ham balo bo'ldi. Mudom o'zbakning yonini oldi". Bu yoddan Qo'shquloq degan alp maydonga kirdi.

...Qorajonning bir akasi bo'ladi.  
Taraf bo'p Qo'shquloq polvon jo'nadi.  
Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan.  
Ichida chichqonlar bolalab yotgan.  
Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan.  
Munday qalmoq qo'lin bulg'ab keladi.  
Qorajonbek xasta ko'nglin xushladi,  
Juppay qilib yoqasidan ushladi.  
Dustaman qip uni qoqib tashladi.  
Qo'shquloqning endi aqili shoshdi,  
Qumni qopib, endi yerga yopishdi.  
Yana ham bir qalmoq kirdi maydonga:  
Odam tushmas<sup>1</sup> buning aytgan tiliga,  
Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.

<sup>1</sup> Tushmas — tushmumas.

Duchor bo'ldi Qorajonning qo'liga,  
Ushlagandan oldi Chülbir cho'liga.  
Ko'tarilib tag'i qalmoq kiradi,  
Qorajonbek o'zi yolg'iz turadi,  
Bunga duchor bo'lgan qalmoq o'ladi.  
Bul qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,  
Oh ursa, olamni buzar dovushi.  
To'qson molning terisidan kavushii,  
Siyosatman kelib maydonga turdi.  
Qorajon tavakkal Tangriga qildi,  
Bu qalmoqqa endi yaqinlab qoldi.  
Kurashmoq hadisin shunday biladi,  
Alp Qorajon yotibotar qiladi.  
Ang<sup>1</sup> edi ul, sho'rli bilmay qoladi,  
Boshidan oshirib yerga uradi.  
Tushib yerga pora-pora bo'ladi.  
Achelig'lanib, tag'i qalmoq keladi,  
Qorajonning ishin bari ko'radi.  
Qorajonga pirlar quvvat beradi,  
"Xudo!" — deydi, bul maydonda turadi.  
...Qorajonbek o'zi tanho turibdi,  
Nashavand qalmoqlar alpi ko'ribdi,  
Nashasini xo'p qo'ndirib olibdi,  
Kayfin choqlab, bul maydonga kelibdi.  
Qorajonga talab qilib turibdi,  
Nashavand ta'rifi shunday bo'libdi:  
To'rt yuz lo'qson quloch qo'lda hassasi.  
Sarhovuzdan katta ekan kosasi.  
Shuning bilan o'n sakkizta nashasi,  
To'qson qari bo'zdan bo'lgan kistasi,  
Shunday qalmoq aylanadi maydonda.  
Bir-biriga qo'lin bulg'ab boradi,  
Nashavand bo'lsa ham bir zo'r balodi,  
Ikkovi ham ko'p olishib turadi,  
Misli yerlar shudgorday bo'p qoladi,  
Nashavand-da bo'g'imi bo'shab boradi.  
Bu qalmoqdir juda nomdor, xuvari.  
Yo'q edi boyqishning hadis-hunari.  
Ko'p olishib, kam-kam ketdi madori,

<sup>1</sup> Ang — soddal, abursiz.

Ko'ring endi, Qorajonday shunqori,  
Qalmoq bilmay qoldi, bo'lmay xabari.  
Alp Qorajon ko'kka otib yubordi.  
Balki bulutka ul boyqish yetishdi...  
...G'urullahshib, qolgani ko'tarilishdi,  
Qorajonbek yolg'iz qiladi ishdi.  
Ikkam to'qson alpni nobud qiladi.  
Bul alplardan bir Ko'kaldosh qoladi.  
Alp Ko'kaldosh yolg'iz o'zi qolibdi,  
Qorajon bariga g'olib kelibdi,  
Kun nomozgar, endi kech bo'p qolibdi.  
Kurashga ul zamon javob bo'libdi.

Shunda ketgan tomoshamon bari yig'ilib: "Kechagidan ham bugun qiziq bo'lar, alplarning zo'ri olishar", — deb turdi. Kecha qanday bo'lsa, bugun ham shunday bo'p o'tirdi. Qorajonga Alpomish turib aytdi: "Bugun tushmaysanni maydonga, bugun talab qilmay turibsan?" "Bugun ham tush desang, tushaman. Tushgan bilan bundan omon topinayman, lekin bu haddili zo'r. Bunga tushsam, ikki boshdan o'laman", — deb turibdi. Alpomish chechinib: "Xayr, unday bo'lsa", — deb maydonga talab qila berdi. Ko'kaldosh alp turib aytdi: "O'zbek! Sen bunday bo'yni yo'g'onlik qilma, g'aribi go'riston bo'lib o'lma. Hali ham qo'ygin. Halak bo'p kelgan yo'lingdan qolma..." Bu so'zni eshitib, Alpomish Ko'kaldoshga qarab bir so'z deb turgan ekan:

Har kim o'z eliga bekmi, to'rami,  
O'zi o'lmay, kishi yorin berami?  
Buncha so'zni lof urmagin, sen qalmoq,  
Kel endi, maydonda turgin, ey almoq.  
...Bog'bon bo'lsam, qizil gulni terayin,  
Har na qismat yozilganim ko'rayin.  
Kelgin, qalmoq, birga maydon qilayin,  
Nasib etsa, sening doding berayin.  
Sening bilan maydon qilib ko'rayin,  
Zo'rlik qilsang, taqdirga tan berayin,  
Ko'tarilma, bir olishib ko'rayin!  
Olishsang, sinaysan o'zing holingui...  
Bu so'zni Alpomish ayтиб turadi,  
Achchiqlanib, buл Ko'kaldosh turadi.  
Chechinib, shu zamon belini buvip,  
Minorday bo'p bul maydonga kiradi.

...Ikkovi kep belma-bel bo'p oladi,  
Belma-bel olishsa, ayrit bo'ladi.  
Zo'r deganing ma'lum bo'lib qoladi.  
Shunday bo'ldi anga Haqning farmoni.  
Ko'p bo'ladi g'amli qulning armoni.  
Harchandki chirpindi Boysinning xoni,  
Yiqmoqqa kelmadi bekning darmoni.  
Zo'r ekan Ko'kaldosh juda bema'ni.  
Zo'r qilib, ingranib shundayin shunqor.  
Ko'kaldosh ham bo'ldi xonga barobar.  
Shudgordayin bo'lib qoldi bu yerlar.  
Juda ham olishdi bu ikki qaysar.  
Ikkovi qaytnasdan maydon qiladi,  
Jon bozori ko'p olishib turadi.

O'n ming uqli qo'ng'irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab bir so'z deb turgan ekan:

Ko'klamda ochilar bog'larning gul,  
Gulni ko'rsa, mast bo'p sayrar bulbuli,  
Narmoda bo'libsiz, biybobom uli.  
Yiqmasangiz bizga bering navbatti,  
Juda keldi Barchin yorning g'ayrati,  
Ushlagandan ko'kka otmay ne bo'pti?  
Yiqmasangiz, to'rain, navbat tilayin,  
Erkak libosini o'zim kiyayin.  
Bor kuchimni bilagima jiyayin,  
Bul qalmoqni pora-pora qilayin.  
...Qizlar sizni narmoda deb aytadi,  
Qizlarning aytgani menga botadi.  
Mardlar olishmaydi siltab otadi.  
Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi,  
Bo'sh odamning ishi keyin ketadi.  
Bu so'zlarni aytdi gul yuzli dilbar.  
Ikki polvon bo'lib turdi barobar.  
Ko'p so'zlarni Barchin suluv aytadi,  
So'zi Alponishga botib ketadi.  
O'tdayin tutashib shunqor ketadi,  
G'ayrati g'ayratga bekning yetadi.  
Yor so'zman sherdi bo'lib ketadi,  
Chirpab Ko'kaldoshni ko'kka otadi.

Ancha yer hayoga chiqib ketadi.  
 Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi,  
 Olehi-chikka bo'lib, shunday aylanib,  
 Alp Ko'kaldosh bul osmondan keladi,  
 Kallasiman kelib yerga uradi,  
 Shunday qilib Ko'kaldosh ham o'ladi.  
 ...Haqdan kelgan ishga bo'yin iyidirdi,  
 O'n ming uyli elatini jiydirdi.  
 Xabar berdi shunda otlar choptirib,  
 Namoyishga oq o'tovlar yoptirib.  
 Barchinoya to'y qilmoqchi bo'ladi.  
 Chilbir cho'lda to'yni boshlab qoladi.  
 ...Qirq kundankay to'ylar oxir bo'ladi,  
 Bir nechalar uyg'a qarab jo'nadi.

...Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarları bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir o'lди" bo'lib, o'lganiga bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib, har zamон salom solib, uydan ichkari kirib, chimikliqqa o'tirib, oldiga dasturxon solib, ...kuyov navkarlarga lo'ppi, ro'mol, sarpoylar berib, kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning... qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, "chach siypatar", "qo'l ushlatar"ini qilib, bir necha yangalar har qaysisi o'z mazgiliga ketdi.

...Shunday bo'p bul orada qirq kun o'lди. Qirq kungacha maslahat qip yoldi. Qirq kundan keyin maslahatni bir yerga qo'yib, Boysari qoldi. O'n ming uyli qo'ng'iroq Barchin bilan ketmoqchi bo'lди. ...o'n ming uyli qo'ng'iroq bari ko'chib, yo'lga kirib, Boysari qaytib uyiga kelib, yolg'iz qolib, kallasi g'uvullab, musofirligi asar qilib qoldi...



## Savol va topshiriqlar

- “*Egam rahm aylasin qonli yoshima, Sabab bo'lib qo'shgin tengu to'shima. Qurruyo-qur hayt-a, to'ramning otif!*” tarzida nola qilayotgan Oybarchin hoklatini anglating.
- “*Qur hayt!*”- degan Barchinoyning dovushi Boychiborning qulog'iga boradi. *Suvluq tishlab o'zin otdi Boychibor, Kalta qantarib tashlagandi qalmoqlar, Tizgini uzilib ketdi muqarrar*” satrlarida tulporga xos xususiyat qanday aks etgant?
- Qalmoqlarning mubolag'ali tasvirlari berilgan o'rinnlarni qayta o'qing va hajotiylik hamda badiiylik jihatidan izohlang.

- Ko'kaldoshni yiqitolemayotgan Alpomish holati va uning ahvolidan iztirobga tushgan Oybarchin tuyg'ulari ifodasi haqida fikrlang.
- Barchinoyning Alpomishga qarata aylgan acheniq so'zlarini alpga bu qadar qattiq ta'sir qilganligi sababini izohlang.
- Otlar va odamlar tasviridagi o'xshashlik va farqlarga e'tibor qiling. Qaysi tasvirda baxshilar ko'proq mahorat ko'rsatishgan?
- Qahramonlar boshidan o'tgan shuncha qiziqarli va xavfli sarguzashtlarning asl sababi nimada deb o'ylaysiz?
- Sizningheha, "Alpomish" dostoni muhabbat haqidami, yurtsevarlik to'g'risidami, oshiqlik sha'ni haqidami, yoki yigit ori to'g'risidami?
- Dostondan o'zingizga ma'qul kelgan parchani yod oling.

### *Nazariy ma'lumot*

## **XALQ DOSTONLARI VA ULARNING TURLARI**

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shaklidir. Negaki, odamlar badiiy asarlarni dastlab og'zaki shaklda yaratishgan va ular og'izdan og'izga ko'chib yurgan. Bu asarlar qattiq ta'sir kuchiga ega bo'lganliklari uchun ham xalqning badiiy xotirasi tusayli davrlar osha avlodlarga yetib kelgan. Kim tomonidan yaratilgani noma'lum bo'lgani uchun ham bunday asarlarga xalq og'zaki ijodi namunalari deyiladi.

O'zbek folklorida xalq dostonlari alohida o'rinn tutadi. Olimlar XIX asr oxiridan XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'zbek baxshilari tomonidan kuylangan yuz elliukka yaqin doston borligini aniqlashgan va variantlari bilan qo'shib hisoblaganda, ulardan to'rt yuztacha asar yozib olingan. Folklorechi olimlarning aytishlaricha, birgina "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar yuzdan oshadi, "Alpomish"ning esa qirqdan ortiq yozib olingan varianti bor.

"Doston" forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida ham folkloрning, ham yozma adabiyotning muayyan janrini anglatadi. Xalq og'zaki ilodiga mansub asarlarni yozma dostonlardan farqlash uchun ular *xalq dostonlari* deb yuritiladi. *Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lida aralash tasvirlangan yirik hajmi, muallifi noma'lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.*

Xalq dostonlari olimlarimiz tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:  
1. Qahramonlik dostonlari. 2. Jangnomal dostonlar. 3. Romantik dostonlar.  
4. Tarixiy dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar.

Yozma dostonlar aniq muallif tomonidan she'riy yo'lida yozilib, biror personaj kechirgan hodisalar shoirning tuyg'ulari bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Bu xil asarlar adabiyotshunoslikda "**poema**" deb ham yuritiladi.

She'r bilan narsning aralashi kelishi xalq dostonlarining muhim belgisidir. Dostonlardagi she'rlar, asosan, o'n bir bo'g'inli bo'lib, barmoq vaznida aytilgan bo'ladi. Qahramonlarning o'y-nulohazalarini, uisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o'zaro so'zlashuvlari o'n bir bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi. Ba'zan dostonlarda tasvir talabiga ko'ra yetti, sakkiz bo'g'inli she'riy ifodalar ham uchraydi. Otlar chopishi, jang manzaralari, personajlarning tezkor harakatlari aks etган о'rinalar yetti-sakkiz bo'g'inli she'rlar bilan ifodalanadi. Siz 7- sinfsda o'qigan "Ravshan" dostonida o'g'lini qutqarish uchun shoshilinch ketayotgan Hasanxon tasviri aynan yetti bo'g'inli misralarda berilgan: "*Qulon yurmas yerlardan Quvib o'tib boradi, Bulon yurmas yerlardan Buvib o'tib boradi*". Sakkiz bo'g'inli misralar esa maydon talashayotgan otlar holati yoki jang ko'rinishi tasviriga qo'llaniladi: "*Dushmanlarni to'plab olib, Yetganiga qilich solib, Har dara o'likka to'lib, Bosh kesar maydon ichinda*".

Xalq dostonlaridagi nasriy tasvirlar ham juda o'ziga xos bo'lib, ko'pincha, saj' yo'lida, ya'ni qofiyali sochma ko'rinishida keladi. Nasriy tasvirlarning bu tarzda berilishi xalq dostonlarining ifoda darajasini yuksaltirib, badiiy ta'sirchanligini orttiradi. Chunonchi, "Go'ro'g'lining zo'r deb ta'risi *ketgan*, zarbasi toshdan o'tgan, qilichining ishlovi *yetgan*, tekkan onom qolmasin deb zaharning suvin *yalatgan*" nasriy parchasidagi "ketgan", "o'tgan", "yetgan", "yalatgan" so'zlari nasriy tasvirga ohangdorlik, musiqiylik baxsh etadi.

Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan ifoda va tasvirlar folklorshunoslikda "**epik qoliplar**" deyiladi. Ular xalq dostonlarida takrorlanib turadigan holatlar tasvirida qo'llaniladi. Dostonlarning boshlanish va tugallanishi, personajlarning ko'rinishi, o'zaro munosabatlari, tulporlarga berilgan ta'rislar, safar yoki jang tasvirida epik qoliplardan foydalilanadi. Misol uchun: "*Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema*" yoki: "*Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol*".

Xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yurndigan, badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy qatorlar yoki folklorshunoslar tili bilan aytganda, uslubiy formulalar ham muhim badiiy ahamiyat kash etadi.



### Savol va topshiriqlar

1. Xalq dostonlarining yozma dostonlardan farq qiladigan jihatlarini ko'rsating.
2. Xalq dostonlarining turlarini aytинг.
3. Dostondagi she'rlarda bo'g'inalr sonining oz-ko'pligi sababini tu-shuntiring.

## O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

### NOSIRUDDIN RABG'UZIY

Adibning hayoti va ijodi haqida bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelgan. U XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Raboti o'g'uz degan joyida yashlab ijod etgan. Bizga uning "Qisasi Rabg'uziy" dan boshqa asari ma'lum emas. Mazkur kitobda u o'zi haqida musulmonlarga xos kamitarimlik bilan "...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqliq, ko'p ozuqliq Raboti o'g'uz qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin..." deb yozadi. Ko'rindaniki, allomaning oti Nosiruddin bo'lib, otasi Burhoniddin Raboti o'g'uzning qozisi bo'lgan. Rabg'uziy taxallusi u yashagan joy nomi bilan bog'liq. Yetuk ulamo va din arbobining oilasida tarbiyalangan Nosiruddinning o'z zamonasida laniqli tarixchi, yetuk shoir va iste'dodli tarjimon sifatida tan olinganligidan dalolat beruvche yordamchi manbalar mavjud.

Rabg'uziyning qissalari ma'nosini anglatuvchi "Qisasi Rabg'uziy" asari olam va odalarning yaratilishi, insonning yo'ldan ozishi va komillik sari mashaqqatli yo'l bosib borayotganligi haqida g'oyat mantiqli va qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Asar musulmon dinini qabul qilgan e'tiborli mo'g'ul beklaridan Nosiruddin To'qbug'anining iltimosiga ko'ra, hijriy 709- (milodiy 1309—1310) yilda yozilgan.

Asosan payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvechi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor. Musulmon Sharqida bu mavzuda "Qisas ul-anbiyo" (Payg'ambarlar qissasi) nomi bilan mashhur ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin, asarda yozilishicha, ularning "ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (puxta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor". Shuning uchun ham bek To'qbug'a adibdan "o'qimoqg'a keraklik, o'grammakka yarog'liq" payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so'ragan edi. Mazkur vazifani ulkan salohiyat, katta mahorat bilan uddalagan adibning bu asari "Qisasi Rabg'uziy", "Qisas ul-anbiyo turkiy" nomi bilan shuhurat topdi. Rabg'uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an'anasiagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. Birinchidan, adib o'ziga yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, ularning yuluqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Uchinchidan, oldinlari nabiylar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda bitilgan qissalari turkiy xalqlarning beballo ma'naviy mulkiga aylandi.

Qissalar sujeti, bosh qahramonlari turlicha bo'lsa-da, ularni bir zot — Muhammad alayhissalom siymosi o'zaro birlashtirib turadi. Dunyoning yaratilishi haqidagi birinchi qissa da aytiganidek, Olloh taolo farishtolariga qarata "... man bilurnuankim, Muhammad Mustafao alayhissalom Odam o'g'lonlaridan bo'lg'usi, bul jahonni, ul jahonni, oyni, kunni, qamug' narsalarni aning sevukligi uchun yaratdim", — deb marhamat qiladi. Shuningdek, asarning oxirgi qissasi Muhammad alayhissalom va u zotning oilasi, avlodlari haqidadir. Ko'rindaniki, insoniyatning uzoq tarixi, nabilar va boshqa ulug' zotlarning haq va haqiqat yo'lidagi say' harakatlarining samarasi, umuman, odam zotining tom komillashuvi Muhammad alayhissalomning dunyo sahnasiga chiqishi bilan zuhur topdi.

Asrlar davomida insoularni to'g'ri yo'lga boshlagan, buyuk Olloh irodasining ifodasi bo'lmish din ham Muhammad alayhissalom(a.s.)ga berilgan Islom shariatida o'zining mukammal shakli va moliyatiga ega bo'ldi. Ming yillar davomida yuz bergen jarayonlar, inqirozlar, rivojanishlar ana shu zot (Muhammad a.s.)ning dunyoga kelishi, Islom masifikasining qaror topishi uchun tayyorlangan zamin edi. Asardagi qissalarni birlashtirib turadigan bosh g'oya ham, ulardan kelib chiqadigan xulosa ham mana shundan iborat.

Aytish muninkinki, "Qisasi Rabg'uziy" buyuk ibrat va insonga taskin, umid bag'ishloveli mo'tabar manbadir. Asarda payg'ambarlar hayoti, tarixda bo'lgan voqealar slunchaki bayon qilinmaydi. Harr gal ular zamiriga yashiringan azaliy haqiqatlar sharhlab boriladi. Uni o'qir ekansiz, bu dunyoda **hech** narsa tasodifiy, mantiqsiz yoki adolatsiz emasligiga amin bo'lasiz. Barcha vogeliklarda Parvardigorning hikmati,adolati, eng asosiyisi, ibratga to'la irodasi zulur qiladi.

Olloh Odam Ato va Momo Havvoni yaratib, avvalda jannatga kiritti. Chunki Odam avlodlari hayotlik davrida intilishlari, dunyoda yashab ezgu nom qozonishlari va odam degan nomga loyiq bo'lishlari lozim edi. Otamiz Odam hamda onamiz Havvoning bug'doy mojarosi bilan jannatdan quvilishi ham bejiz emas edi. Olloh "Odam yuratmazda ushnu (ya'ni yaratishdan oldin) yer yuzida xalifa yaraturman (deb iroda qilgan edi). Bug'doydin yedi tesalar (junnatdan yer yuziga) chiqmoqqa sabab bo'lg'usi uchun". Yoki Yusuf alayhissalomning qul qilinishini olaylik. Taqdirda bo'lgani uchun, bir vaqtlar qul bo'lgan bo'lg'usi payg'ambar Misr hukmdori bo'ldi. Qahatchilik, oeharchilik tufayli butun Misr xalqi Yusufga qul bo'lib qoladi. Shunda Tangri taolo o'z rasuliga qaratu shunday xitob qiladi: "Ey Yusuf, biz seni qulliqqa solmasaq erdi, bu kum qullar qadrin qayda bilgay erding".

"Qisasi Rabg'uziy" dagi har bir qissadan inson o'ziga shior qilib olsa arzidigan nasihatlarni istaganicha topish mumkin. Iblis o'zini ulug' sanab, kibrga botdi, Ollohga osiy bo'ldi va uning huzuridan la'natlaniq quvildi. Demak, kibr halokatga sabab bo'luechi illatdir. Yusufni ko'rolmay unga zulm qilgan akalari



qismatidan ko'rinadiki, hasad insonning ichini yondirib, uni tubanlikka boshlovchi va oxir-oqibat yuzini qora qiluvchi o't ekan. Quyidagi so'zlar har kimga eslatma bo'lishi kerak: "Ma'siyat (gunoh)dan yig'iling, xalq orasida ko'ni (to'g'ri) hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to'kmang, xiyonat qilmang".

Shuningdek, "Qisasi Rabg'uziy" o'ziga xos etnografik xarakterdagi chizgilarga ega asardir. Unda turkiy va boshqa xalqlarning ayrim rasm-rusum, urf-odatlari ham muallif nazaridan chetda qolmagan: "Rum viloyalining odati bor, teva (tuya)lari chaliqliq (beboshlik qilib) burunduqlatmasalar yangi tushgan kelinlarni keltirub, un tuzub (musiqa chaldirib) yirlayturlar (kuylatishadi). Tevalar ularning ovozlariga xushlanib o'zlaridan kecharlar (o'zlarini unutadilar) — ilikka ilinurlar (qo'lga tushadilar)". Yoki: "Xalq orasida rasm bor, do'st do'stiga safar qilib yonar (qaytar) bo'lsa, bir hadya ola borurlar".

Asar badiiyati ham o'ziga xos. Bir qator qissalar boshlanishida yoki ichida berilgan o'zbekcha hamda arabcha she'rlar Rabg'uziyning nozik ta'b zullisonayn shoir bo'lganligidan darak beradi. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagи o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, juda ko'p o'rindarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida lashbeh, tanosub, tazod, tajnis, takrir, jlonlantirish kabi tasvir vositalardan unumli soydalaugan. Xususan sa'j (nasrdagi ichki qosiya) adibning sevimli badiiy vositasi ekanligi ko'zga tashlanadi. Muallif sa'jdan asosan ta'rif va tafsif o'rindarida soy-dalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta'ifi : "...payg'ambar alayhissalom ul umri ukush, diydori ko'shish. Azroilg'a qotishg'an, rizyon birla yanashg'an, dunyodin qushtek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqq'an, Siroldin yashindek kechg'an, uchmoh qabug'in ochg'an, o'zi aziz, o'rni adiz, arig' zotlig'. Axnuh otlig' Idris yalavoch".

Hurniatli o'quvchi! E'tiboringizga "Qisasi Rabg'uziy" dan bir parchani hozirgi tilga tadbil qilunay, asliyatda qanday bo'lsa, o'sha holatda havola qilmoqdamiz. Berilgan lug'at yordamida ularni qynalnmay o'qiy olasiz. Ko'p o'rindarda muallif fikrni dalillash uchun Qur'on oyallari, Payg'ambar (a.s.) hadislari arab tilida keltirgan. Biz bu arabcha jumlalarning hozirgi o'zbek tiliga o'girilgan holatdagи mazmunini berdik. Ular matnda alohida ajratib ko'rsatilgan. Mazkur parchalar bilan tanishgach, o'zbek adapbiyotining bu beballo yodgorligiga qiziqishingiz ortadi, u sizning bir umrlik hamrohingizga aylanadi, deb umid qilamiz.



### Savol va topshiriqlar

1. Quyi sinflarda Rabg'uziy asaridagi qaysi qissalardan parcha o'rgangan edin-giz? Ulardan olgan taassurotlaringizni eslang.
2. Diniy xarakterdagи qanday usarlarni o'qigansiz? Darsdan so'ng o'qituvchelingiz rahbarligida o'rtoqlaringiz bilan ular to'g'risida suhbat uyuشتiring.

## QISASI RABG'UZIY

### RASUL ALAYHISALOM VAFOTI SO'ZLARI

Xabarda kelur, kumlardan bir kun Rasul alayhissalom tong namozini o'tab minbarg'a og'ib sahabalarqa va'z va nasihat qildi. Anda kezin aydi: "Ey mo'minlar, kim ersaning manim uza hech da'vosi va xusumali bormu?" Kim ersa javob aymadi. Ikinch so'rди, kim ersa javob aymadi. Uchunchida Ukosha ottig' sahaba qo'pti<sup>1</sup>, aydi: "Yo Rasululloh, manim bir da'vom bor". "Aytg'il", tedi. Aydi: "Bir kun siz safardin kelurda siz tevaga<sup>2</sup> minub, teva urur bo'lub, ul qish qamchi<sup>3</sup> birla uchamqa<sup>4</sup> urdingiz, yavloq<sup>5</sup> og'ridi. Yo Rasulalloh, uch qurla aymasangiz mamma aymas erdim", — tedi. Rasul alayhissalom hujraga kishi izti<sup>6</sup>, qamchi tilagali keldi. Qamchi tiladi. Xotunlar: "Na bo'ldi, na yerga borur?" — teb qazg'urdilar<sup>7</sup>. Aydi: "Safarg'a bormas, yerga borur?" — teb qazg'urdilar. Aydi: "Safarg'a bormas, ammo Ukosha qisos<sup>8</sup> tilayur", — tedi. Xotunlar yig'lashtilar. Qamchini kelturdi. Rasul ilkinga oldi. Ukoshag'a berdi. "Man netak urdum ersa san taqi andag' urg'il", tedi. Ukosha qamchi olib andag' tedi: "Bu qasos rost kelmas. Ul kun siz teva munub borur erdingiz, man yerda andog' erdim. Ustundin ingan berga birla bu rost kelurmu?" Rasul alayhissalom minbardin indi, Ukoshani minbarg'a og'durdi<sup>9</sup>. "Urg'il", tedi.

Ukosha aydi: "Yo Rasululloh, ul kun maning engimi yoling<sup>10</sup> erdi, yavloq og'ridi. To'nungni chiqargil, qisos rost kelsun", — tedi. Yig'i, cho'g'i<sup>11</sup> sahabalardin zohir bo'ldi. Rasul alayhissalom to'nun chiqardi, egnini yoling qildi. Sahobalar faryod qo'pordilar. Abu Bakr aydi: "Ey Ukosha, ul qamchini maning yuzumga, ko'zunga urg'il. Rasul alayhissalomning qutlug' taninga tegmasun". Umar va Usmon va Ali raziyallohu anhum ajma'in mundag'-o'q yig'lashib: "Meni urg'il", — tedilar. Rasul alayhissalom aydi: "Ey yoronlarim, siz kendu<sup>12</sup> shafqat qilursiz. Ammo qisos manga yarig'u<sup>13</sup> bo'lsa sizlardin ravvo bo'limg'ay", — tedi. Anda kezin Ukosha egnini yoling ko'rdi ersa, aydi: "Yo Rasululloh, manim maqsudim qisos ermas erdi, egningdag'i muhri nubuvvatni ko'rsam<sup>14</sup>. Endi dastur bergil<sup>15</sup>, ul muhri uza qubla berayin<sup>16</sup>, sandin avf qildim", — tedi. Rasul alayhissalom dastur berdi. Ukosha qubla qildi. Sahobalar qamug' sevunchluk bo'ldilar, Ukoshaga ofarin o'qidilar.

Aymishlar, qach kunda kezin vido' hajji bo'ldi. Tevaga minub tururda Rasul alayhissalomda vahy og'rig'ining asari bilgurdi. Muhojir va ansor tegrasinda turub vahy tinglayur erdilar. Rasul alayhissalom bu oyatni o'qiyur erdi: **Bugun diningiz-**

<sup>1</sup>Qo'pti — qo'zg'aldi, o'midan turdi. <sup>2</sup>Tev — tuyu. <sup>3</sup>Qishi qamchi — ejilgan qamchi. <sup>4</sup>Ucha — orqa, kurak. <sup>5</sup>Yavloq — yonou. <sup>6</sup>Izti — yubordi. <sup>7</sup>Qazg'urnioq — qayg'urnioq. <sup>8</sup>Qisos — qasos. <sup>9</sup>Og'urnioq — chiqarmoq. <sup>10</sup>Yoling — yalang'och. <sup>11</sup>Cho'g'i — faryod. <sup>12</sup>Kendu — o'zi(ngiz)cha. <sup>13</sup>Yarig'u — atalgan. <sup>14</sup>Muhri nubuvvatni ko'sum — paygamberlik muhrini ko'rnog'li edim. <sup>15</sup>Dastur bergil — ruxsat bergil. <sup>16</sup>Qubla bermoq — o'pmoq

*ni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne'matimni va to'g'ri yo'l ko'rsatadigan din bo'lsin uchun islamini sizga ravo ko'rdim.*

Ba'zi sahabalar muni eshitib sevunur erdilar. Siddiq aydi: "Sizga sevungu kun turur. Man bildugumni siz bilsa erdingiz, sevunmagan erdingiz. Bilmish bo'lung, Mustafoni<sup>1</sup> bizing oramizdin chiqargudek tururlar. Bizni aning firoqi birla mublalo qilg'utek tururlar". Abdulloh ibn Mas'ud aytur: Hijratning so'nggi yili erdikim, Rasul alayhissalom og'rig<sup>2</sup> bo'ldi. Jamoat namozig'a boru bilmadi. Abu Bakrga ijozat berdi: "Borg'il, sahabalarg'a imomatlig<sup>3</sup> qilg'il", — teb. Bilol (r.a.) azon qildi. Rasul alayhissalomning og'rig'i anchada audioq bo'ldi.

Fazl ibn Abbasqa aydi: "Mani masjidga elting". Bir qo'lini Fazl tutti, bir qo'lini Ali tutti. Masjidga eltdilar. Siddiq raziyallohu anbu Rasulni ko'rdi, yong'uga o'g'radi<sup>4</sup>. Rasul aydi: "Chiqmag'il, imomatlig<sup>5</sup> qilg'il". Rasul alayhissalom Abu Bakrga iqtido qildi<sup>6</sup>, namoz o'tadi, hujraqa yondi<sup>7</sup>. Kun kelu og'rig'i ziyoda bo'ldi. Qizil mengizi sarg'ardi, chechaktek englari so'ldi. Jabroil xoja mengizlik bo'lub ustun turur. Azroil bir badaviy arabtek bo'lub kirib keldi. Tizin cho'kub<sup>8</sup> o'llurdi. Ozin-ozin<sup>9</sup> Rasulqa yaqinroq keldi, quloqning so'zladidi. Rasul alayhissalom holi aynadi. Telim oh qildi, yig'ladi. Sahobalar qamug' yig'lashtilar.

Aydilar: "Yo Rasululloh, bu arab kim erdi, sizga ne tedi? Holingiz aznadi". Aydi: "Ey yoronlarim, aziz do'stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt — qarindoshim Azroil erdi. O'sh<sup>10</sup> qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so'zlayur: ummatining salom tegurgil, bo'g'uz uchun imonni ilikdin<sup>11</sup> chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafs-u havoni izarmasunlar<sup>12</sup>, shak va sharika insunlar<sup>13</sup>. Ko'ni imonga berk yapushsunlar<sup>14</sup>, o'lumni unutmasunlar. Hiqd<sup>15</sup> va hasaddin iroq tursunlar, shariat ahkomini berk tutsunlar. Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar. O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar — dini islam otasi bo'lsunlar. Yovuz esh qo'ldoshdin yig'ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul, kungni ezgu tutsunlar<sup>16</sup>, darvishlarga rahmi qilsunlar. O'gsuzlarga<sup>17</sup> shafqat qilsunlar, qazg'ulug<sup>18</sup> munqlug'larqa bo'lushsunlar. O'lumga anuq<sup>19</sup> tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur", — tedi.

Sahobalar qattig<sup>20</sup> yig'lashtilar. Rasul alayhissalom aydi: "Ey sahabalar man sizga yalavoch erdim". Aydilar: "Ey olamlug'larning chirog'i, san bizga otanonadin mushfiqroq erding. Xaloyiqni shari'atqa da'vat qilding, ummalqa sunnat va farz o'gratting. O'gsuzlarga otaliq qilding, za'iflarqa ektulading<sup>21</sup>". Muhojir va

<sup>1</sup> Mustafo — Muhammad (a. s.), <sup>2</sup> O'g'radi — shaylandi, yo'l oldi. <sup>3</sup> Iqtido qilmoq — ergashib namoz o'qimoq. <sup>4</sup> Youmoq — origa qaytmoq. <sup>5</sup> Tizin cho'kub — tizzalab. <sup>6</sup> Ozin-ozin — sekin-sekin. <sup>7</sup> O'sh — shu. <sup>8</sup> Ilik — qo'l. Jumlaning ma'nosi: Bo'g'iz (nafs-havo) uchun imonini qo'ldan boy bermasunlar.

<sup>9</sup> Izarmoq — o'z qoliga qo'yinoq. <sup>10</sup> Shak va sharika insunlar — shubhue va shirkdan qaytsinlar. <sup>11</sup> Ko'ni imonga berk yapushsunlar — to'g'ri (pok) imonga mahkem yopishsunlar. <sup>12</sup> Hiqd — gina, nafrat. <sup>13</sup> Qul, kungni ezgu tutsunlar — qui va xizmatkor (joriya)larga yaxshi muomalada bo'lsinlar. <sup>14</sup> O'gsuz — yetim.

<sup>15</sup> Qazg'ulug' — qayg'uga bolgan. <sup>16</sup> Amanq — tayyor. <sup>17</sup> Eklulamoq — bo'smoq.



ansorlarqa tarbiat qilding. Odamiy va parini hazratqa<sup>1</sup> undading. Yo'lsuzlarqa yo'l ko'rguzdung, bo'yntag'ularni<sup>2</sup> ko'ndurdung. Ko'nilar uza shari'at gevharin isor<sup>3</sup> qilding, shirk va fitna tug'ini yerga chalding<sup>4</sup>. Olamni ihm bila yorulding, Shaytonni adl birla surdung. Mo'jizalar ko'rguzdung: oyni ernak<sup>5</sup> birla yording; so'klumish o'g'loqni tarkida so'zlatting<sup>6</sup>; ilkingdagilarni tilga kelturding; qurug' yig'ochni<sup>7</sup> yoshartting; yemishsiz yig'ochni duo birla ne'matlig<sup>8</sup> qilding; ushoq toshni tasbihga kelturdung; tamug'g'a<sup>9</sup> boru turg'anlarni yondurub ujmoli yo'linga boshlading", — teyu ingrayu boshladilar. Uch kunda kezin Malak ul-mavt<sup>10</sup> yana keldi. Rasul alayhissalom Oyishag'a tizin yastanub yotur erdi. Fotima, Hasan va Husan katinda o'llturur erdilar. Qabiz al-arvoq qapug'qa keldi, hurmat birla aydi: "Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey payg'ambarlik va elchilik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey odamlar multoj bo'ladigan va ulug'lik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey insoniylik va saxovat uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey azizlik va sayyidlik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey marhamat va baxt saodat uyining ahllari. Dastur<sup>11</sup> bormu, kirsamiz?"

Oyisha raziyallohu anho aydi: "Bu a'robiyqa ayding, kirgu vaqt ermas. Rasul alayhissalom emganib<sup>12</sup> turur". Rasul alayhissalom Azroil unin tanudi, aydi: "Ey Oyisha, so'z birla yonar<sup>13</sup> kishi ermas, ish biturmadin ketmas, a'robiy ermas, Azroil turur, kirsun", — tedi. Kirib salom qildi. Rasul alayhissalom so'rди: "Na ishiga kelding?" Azroil aydi: "Hazratdin yorlig<sup>14</sup> andog' tururkim, Muhammadga borg'il, dastur bersa jonin olg'il. Dastur bermasa rayon yong'il teb. Endi dastur bersang jon olurman, bermasang yonarman", — tedi. Rasul alayhissalom aydi: "Yo Azroil, jon bu kun olmasang kech qolsa oqibat olurmusan?". "Olurman", tedi. "Andog' ersa ishgaga turg'il", — tedi. Azroil jon olmoqg'a o'g'radi. Rasul alayhissalom sog'din so'lga<sup>15</sup>, so'ldin sog'g'a to'lq'anub boshladi. Muborak a'zosи kuchsuz bo'ldi. Ul qutlug<sup>16</sup> ko'ngli mungluk bo'ldi. Mengizi sarg'ardi, shakkartek tili so'zlamas bo'ldi. Ko'rkluk yangoqlaridin qatra-qatra yosh toma boshladi. Aqiru-aqiru<sup>17</sup> tiling tebratib: "Iziyo, mani dunyodin ko'nilik uza chiqarg'il, to'proqqa ko'nilik uza kigurgil, qiyomat kuni tuproqdin ko'nilik uza qo'porg'il", — teyur erdi. Qanug'lari tegrasida yig'lashurlar. Hasan va Husayn raziyallohu anhumo yoling bosh bo'lub ingrashurlar. Fotima raziyallohu anho yig'lab aytur: "Ey yumshoq to'shakda yotmag'an, ey tovar to'n kizmagan, ey arpa etnug'in to'q yemagan", teb yig'layur erdi. Ev mungushidin<sup>18</sup> un keldi: Voh, qandoq chidab

<sup>1</sup> Hazrat — Olloh. <sup>2</sup> Bo'yntag'u — mag'rur, nomdor. <sup>3</sup> Isor — in'om, sochish. <sup>4</sup> Chalmoq — yigitmoq. <sup>5</sup> Ernak — barmoq. <sup>6</sup> So'klumish o'g'loqni tarkida so'zlatting — qovurilgan baliqui darrov tilga keltirding. <sup>7</sup> Yemishsiz yig'och — mevasisiz daruxt. <sup>8</sup> Tamug' — do'zax. <sup>9</sup> Malak ul mavt — Azroil. <sup>10</sup> Dastur — ruxsat. <sup>11</sup> Engamusq — qlynalmoq. <sup>12</sup> Yonar — qaytar. <sup>13</sup> Sog'din so'lga — o'ngdan chupqa. <sup>14</sup> Aqiru aqiru — sek'in-sekin, past ovozda. <sup>15</sup> Ev mungushi — uy ichkarisidun.

bo'lur Rasulullohning firoqiga. Rasul alayhissalom tekma bir soatda ilkin suvqa tegurub ko'ksunga qo'zur. "Iziyo, jon bermakni Muhammadga oson qilu bergil", — teyur erdi. Qachon jon ko'ksinga yetti ersa aydi: "Ey Azroil, bir soat tavaqquf qilg'il, jon bermakni oson qilu bergil", — teyur erdi.

"Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak qalliqliqi bor ersa ul qattiqiqlarni manga yuklagil. Ul qattig'liqlar manga bo'lsun, ummatlarimqa bo'lmasun". Azroil aydi: "Yo Rasululloh, man saning yastuqingda o'llurgandan boru izi azza va jalladin yetmish yo'li farmon yetildi. Do'stum Muhammad birla risq<sup>1</sup> mador qilg'il. Jonin yuvoshliq birla olg'il. azinlardin<sup>2</sup> olmishtek olmag'il", — teb. Onchada Oyishai Siddiq<sup>3</sup> raziyallohu anho yig'layu Rasul alayhissalomqa yapushti. "Necha ular birla so'zlashursen, bir zamon manim birla so'zlashgil. Yetti yasharda sanga ulationdi, taqi yoshim yigirmaga yetmas erkan muborak jamoltingdin azrilurman. Ey aziz jonim, se ning firoqing achig'i qamug<sup>4</sup> olam uza necha ersa, yolg'uz man za'if uza andin orluqroq turur. Azinlarning elagi kuyar, manim tanim, jonim kuyar". Ul holda Fotima raziyallohu anho Rasul alayhissalomning yuzunga boqib: "Ey odamlar quvanchi, ey muhiblar sevunchi, ey mushtoqlar umanchi, ey ummatlar inonchi, ey osiylar tayanchi, ey odamiyilar davlati, ey olamliqlar rahmati, ey haqning muslihi, ey xalqning shafi'i, man sansiz mehrob va minbarni netak ko'rayin", — teb yig'layurda Ali raziyallohu anhu Fotimani tizar<sup>5</sup> erdi. Rasul alayhissalom aydi: "Yo Ali, Fotimani tizmagil. Mantek otaning firoqinda yig'lasunlar. Qizlar yig'isi otalar yastuqi yavloq kuynukluk bo'lur". Ul holda qamug<sup>6</sup> sahabalardin yig'i va faryod va zorliq qo'pti.

Rasul alayhissalomning joni bo'g'zinga keldi ersa ko'zin ochib aydi: "Ey Azroil, bir zamon sabr qilg'il, qarindoshim Jabroil kelsun. Yana bir qurla so'ng diyordin ko'rayin", — teb tavaqquf qildi ersa Jabroil keldi. Yetmish ming muqarrab farishtalar birla yig'layu kirdi. Rasul alayhissalom aydi: "Qaydasen, ey qarindoshim Jabroil, qarindoshlar bu kun kerak bo'lur". Jabroil alayhissalom aydi: "Ey olam faxri, yetti ko'k farishtalari sanga te'ziyat tutub tururlar erdi, anda mashq

ul bo'ldum". Rasul alayhissalom aydi: "Ey Jabroil, bu soat na futuh kelturdung?" Aydi: "Ko'klar qapug'i, ujmohlar qapug'i ochildi. Hurlar yuksakka og'ib, niqob yuzlarindan ko'turub, iliklarinda nurdin tabaqlar olib, saning qutlug<sup>7</sup> joningga nazzora qilaling teb kuyub tururlar". Rasul alayhissalom aydi: "Ey qarindosh, muni so'rmasman. Manda kezin Maylo taolo manim za'if yozuqluq<sup>8</sup> ummatlarim birla na muomala qilg'ay, ani so'rarmagan". Jabroil yana yondi, bir soatda kezin yana keldi ersa aydi: "Ey sayyidi Molik al-muluk, haq taoldan ta'zim

<sup>1</sup> Risq — muloyimlik, mehriboulik. <sup>2</sup> Azin — boshqa. <sup>3</sup> Tizmak — lo'xtalmog, ushlab qolmoq.  
<sup>4</sup> Yozug'lug<sup>9</sup> — gunohkor.



yorliqlar: "Ey manim do'stum, ko'nglungni ummatdin forig<sup>1</sup> tulg'il". Saning ummatlaringni erin<sup>2</sup> lebratgani birla ul amal qilg'aymankim, Muso tayoqi Fir avn saharasi<sup>3</sup> birla qildi. Bir aso otmoqi birla qamug<sup>4</sup> kusr va sehr va tug'yon yo'q bo'zun bo'ldi. Bu kun san bir erin tebratgan birla qamug<sup>5</sup> osiy ummatlaringning daftarlarin g'ufron<sup>6</sup> suvi birla yub yo'q bo'zun qilg'ayman. Ul kun Muso onasiqa ayduq: "Bu kun o'g'lungni tengizga kemishgil<sup>7</sup>, qo'rwmag'il, qazg'urmag'il. Bu kun yosh o'g'lonni bizga bergil, yoshlig<sup>8</sup> yalavoch<sup>9</sup> qilib sanga beraling", — teduk. Senma bu kun masiyatlig<sup>10</sup> bir ovuch bulg'anuq<sup>11</sup> ummatingni bizga isborlag'il<sup>12</sup>, yorin qamug<sup>13</sup>ini yorliqab, arig'lab sanga beraling teb. Oyisha raziyallolu anho aytur: "Rasul alayhissalom azin so'zlamas bo'ldi. Boqtim, og'zinda tili lebranur. Quloq tuttum, tingladim, aytur: "Na'mozni qo'zmang, qul kungni ezzu tutung". Oxir vasiyati bu erdi, dunyodin bordi. Qirq yoshinda valy keldi, oltmish uch yoshinda rabi' ul-avval oyining o'n uchinda dushanba kun vafoti bo'ldi. Panjshanba kun tuproqqa kirdi.

Maqsud ul turur. Bu er nechuk kechar dunyoda ul ergakim, Mavlo taolo olamni, odamni aning do'stuqida yaratlikim. Agar Siz bo'Imaganingizda falaklarni yaratmagan bo'lardimi, olamluqlar rahmati erdikim, Biz Sizni olamlar uchun faqat rahmat bo'lsin deb yuborganimiz.



## *Savol va topshiriqlar*

1. Umri povoniga yetganini anglagan rasulullohning "kim ersaning manim uza hech da'vosi va xusumati bormu?" deb so'rashining sababini tushuntiring.
2. Sahoba U'koshanining maqsadi va tadbirini qanday tushundingiz?
3. Qur'onidagi: "*Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va to'kis qilib berdim sizlarga ne'matimni va to'g'ri yo'l ko'rsatadigan din bo'lsin uchun islonni sizga ravo ko'rdim*" oyatini eshitgan Abu Bakr Siddiq nima uchun yig'lagandi?
4. Malduan sahobalarining Muhammad alayhissalomga uning o'zi oldida bergen ta'rif va taysiflarini topib, izohlang.
5. "*Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak qattiqqliqi bor ersa ul qattiqqliqlarni manga yuklagil. Ul qattiq'liqlar manga bo'lsun, ummatlarimqa bo'imasun*" so'zlarini orqali rasulullohning o'z ummatiga bo'lgan mehri va mehribonligini mushohada qiling.
6. Payg'ambarimiz(s.a.v.)ning Jabroil alayhissalomga qarata: "*Ey qarindosh, muni so'rmasman. Manda kezin Mavlo taolo manim za'if yozuqluq ummatlarim birla na muomala qilg'ay, ani so'rarman*" — deb so'rashiga sabab haunda bu so'roviga olgan javobi mohiyatini angladitingizmi?

<sup>1</sup> Forig<sup>1</sup> tulmoq — xotirjam bo'lmox. <sup>2</sup> Erin — lab. <sup>3</sup> Sahara — sehrgar, afsungar. <sup>4</sup> G'ufron — kechirishlik. <sup>5</sup> Kemishmoq — tashlamox, olmoq. <sup>6</sup> Yalavoch — payg'ambar. <sup>7</sup> Bir ovuch bulg'anuq — bir hovuch gunohi bilan bulg'anang. <sup>8</sup> Isborhamoq — topshirmoq, havola qilmoq.

## ALISHER NAVOIY

(1441 — 1501)



Siz, aziz o'quehlar, quiyi sinflardan benazir inson, buyuk alloma, daho ijodkor Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishib kelmoqdasiz. Millatimiz faxri bo'l mish bu zotning ko'plab asarlari, ularning mazmun-mohiyati to'g'risida anclugina tasavvurga egasiz. Ushbu sinifa ham bobomiz Alisher Navoiy haqidagi hikoyamizni davom ettiramiz. Siz, endi uning "Xamsa" asari bilan batafsilroq tanishhasiz.

Sharqda xamsachilikning o'ziga xos tarixi va an'anasi mavjud. "Xamsa" yozishni ozarbayjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Lekin u bu asarini avvaldan niyat qilib, ma'lum bir reja asosida yaratmagan. Nizomiy 1173—1179- yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlab "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") nomli hamdnomasi yozadi. 1180—1181- yillarda Iroq hukmdori To'rg'ul II ning iltimosiga ko'ra "Xusrav va Shirin" dostonini yaratadi. 1188-yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiyiga "Layli va Majnun" dostonini yozishni buyuradi. 1196- yilda hukmdor Alovuddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan shoh Bahrom haqida "Haft paykar" ("Yetti go'zal") maydonga keldi. 1196—1201- yillarda "Iskandarnoma" yaratiladi. Shu tariqa 1173—1201- yillar oraliq'ida — 28 yil davomida muallifning besh dostoni dunyo yuzini ko'rди. Shundan so'ng adibda turli yillarda bitilgan bu dostonlarni jamlab, yagona bir nom bilan atash fikri tug'ilgan va "Panj ganj" ("Besh xazina") nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi "Xamsa" vujudga kelgan.

Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahrisabzlik turkiy urug'lar avlodidan bo'lgan Xusrav Dehlaviy (1253—1325) o'zining "Xamsa"sinи 1299—1301- yillarda yozib tugalladi. U "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning bosqlanmasi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Haft behisht" ("Sakkiz jannat"), "Oyinayi Iskandariy" ("Iskandar oynasi") dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyolda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.

Shunga ko'rnar har bir asar "Xamsa" deb atalmog'i uchun: a) besh dostonдан tashkil topmog'i; b) birinchi doston, albatta, pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmosg'i; d) ikkinchi doston Xusrov va Shirin munosabatlariga bag'ishlanmog'i; e) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i; f) to'rtinchi doston shoh Bahrom va beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart edi.

Dehlaviydan qariyb 200 yil keyin yana bir buyuk xamsanavis maydonga chiqdi. Bu Navoiy edi. Alisher Navoiyning "Xamsa"si boshqalardan farqli ravishda muallifning ona tilida — turkiy tilda yozildi. Buni o'zbek kitobxonlarining ortib borayotgan ehtiyoji, o'zbek adabiy tili va adabiyotining taraqqiysi hamda istiqboli talab qilar edi. Bunday ulkan, katta jasorat talab qiladigan mas'uliyatli ishga daho ijodkor Navoiygina jur'at qila olardi. Adibning fikrasha, xalqqa uning o'z tilida, unga manzur bo'lgan asar yaratish lozim. Shuning uchun "Layli va Majnun" dostoni xotimasida Nizomiy va Dehlaviyni ta'riflar ekan, turkiy (o'zbek) tilda "Xamsa" yozishning sababini shunday izohlaydi:

...Gar nuktalari<sup>1</sup> jahonni tutti,  
G'avg'olari ins-u jonne tutti.  
Chun forsiy erdi nukta shavqi,  
Ozroq edi andi turk zavqi.  
Ul til bila nazm bo'lidi malfuz<sup>2</sup>,

Kim forsiy anglar o'ldi mahfuz<sup>3</sup>.  
Men turkcha boshlabon rivoyat.  
Qildim bu fasonani<sup>4</sup> hikoyat.  
Kim shuhrati jahonga to'lg'ay,  
Turk eliga dog'i<sup>5</sup> bahra bo'lg'ay...

Navojy o'z salaflarining yuksak san'atkorigini sharaflaydi, ularning adabiy tajribalaridan ta'lim olganligini e'tirof qiladi. Dostonlarning muqaddima qismida ustozlariga bag'ishlab maxsus boblar yozib, ularni ulug'laydi. Mas'uliyatli bu ishda ularga ruhan suyanadi va «Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lim, Qo'ldasa Xisrov bila Jomiy qo'lim», — deb madad tilaydi. Biroq Navoiy oldingi xamsanavislarni takrorlamaydi yoki ularga ko'r-ko'rona taqlid qilmaydi. O'z oldiga yangi, o'ziga xos "Xamsa" yaratish vazifasini qo'yadi. Buni muallif "Xamsa"ning bir necha o'rnidida ochiq-oydin ta'kidlaydi. Jumladan, u "Farhod va Shirin" dostoni muqaddimasida shunday yozadi: «Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay, Ulusqa mayl beandoza bo'lg'ay. Yo'q ersa nazm qilg'oni xaloyiq Mukarrar aylamak sendin ne loyiq?»

Bu misralari orqali Navoiy "Xamsa" yozishdagi belgilab olgan o'z yo'riqlarini bayon etadi: Shunday asar (nazm) — doston yozginki, o'ziga xos (tarhi toza) bo'lsin, o'qigan odamlarga (ulusqa) yangi, boshqa asarlarga o'xshamas(beandoza)-ligi sezilib tursin. Aks holda (yo'q ersa), asari o'zgalar (xaloyiq) yozgandek bo'lsa,

<sup>1</sup> Nukta — so'z, bu yerda ijod, asarlari ma'nosida qo'llangan. <sup>2</sup> Misraning ma'nosi: Bu (forsiy) til bilan unzim (asar) yaratilsa. <sup>3</sup> Misra ma'nosi: forslargagina fushumlarli edi. <sup>4</sup> Fasona — afsona, bu yerda doston ma'nosida qo'llangan. <sup>5</sup> Dog'i — shuningdek, yana.

bunday takrorlash (mukarrar) senga loyiq emas. Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma'qul. Lekin bu oson ish emas. Buning uchun Yaqin va O'rta Sharq o'lkalarida qalam mislsizligi e'tirof etilgan Nizomiy va Dehlaviy bilan ijodiy bahsga kirishi shi lozim bo'ladi. Bu juda katta bilim va yuksak adabiy didni, iste'dod hamda mashaqqatli mehnatni talab etar edi. Bu haqida "Farhod va Shirin"da yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.  
Kerak sher oldida ham sheri jangi,  
Agar sher o'lmasa, bore palangi.

Haqiqatdan ham Nizomiydek nazm she'ri ila maydonda turmoq oson emas. U bilan bahslashish (panjasiga panja urmoq) uchun sher yoki hech bo'lmasa, yo'llbars (polang) bo'lmoq'i darkor. Navoiy sher bilan tenglashadigan sher bo'ldi. U og'ir va mas'uliyatlari vazifani muvaffaqiyat bilan ado etdi. Niroyat qisqa bir muddat — ikki yil (1483 — 1485) davomida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483-yilda "Hayrat ul-abror" falsafiy-ta'limiy dostonini, 1484-yilda uch asarni: "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" ishq qissalarini, "Sab'ai sayyor" ishqiy-sarguzasht dostonini, 1485-yili esa "Saddi Iskandariy" qahramonlik dostonini yaratdi.

"Xamsa" — Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda millatimiz tafakkur ko'lami hamda ma'naviy qudratining timsoli. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyat tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimiz g'ururi, sha'nu-sharasini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa"<sup>1</sup>. Chunki Navoiyni bilish o'zlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.



## Savol va topshiriqlar

1. Navoiydan bizga qanday asarlar meros bo'lib qolgan? Ularni lirik, epik, liro-epik, ilmiy hamda biografik asarlar tarzida tasniflab, sanab bering.
2. Xamsachilik an'amasи, xamsanavislар to'g'risida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
3. "Xamsa" yozishda Navoiy qanday ijodiy lamoyillarga tayanganligini gapirib bering.

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 47- bet.



## XAMSA

### “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONI

“Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) – falsafiy, axloqiy-ta’limiy asar. Aruzning sari’ bahrida yozilgan. Hajmi 3988 baytni o’z ichiga olgan 63 bob bo’lib, ularning 21 bobi muqaddima, 20 bobi maqolat, 20 bobi hikoyat va masallar hamda oxirgi ikki bobi xotimadan iborat. Doston o’ziga xos qurilishga ega. U falsafiy-ta’limiy doston bo’lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi. Shuningdek, maqolatlar shu dostongagina xos bo’lib, adibning boshqa asarlarida uchramaydi. Har bir maqolatda insonning kundalik hayoti bilan bog’liq diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy biror mavzu bayon etiladi, uning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolat so’ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi. Mazkur hikoya va masallarning bosh qahramoni asosan tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblaridir. Ularda shoir islomiy o’lchovlar hamda umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib, Olam va odam to’g’risidagi o’z mulohazalarini yuksak badiiy shaklda ifoda etadi. Masalan, birinchi maqolat iymon haqida. Maqolatning birinchi baytidanoq shoir iymonning inson hayoti, insoniylik mohiyatida tutgan o’rnini belgilab beradi: «**Kimki jahon ahliida inson erur, Bilki nishoni anga iymon erur**». Ya’ni kim bu dunyoda inson deb atalibdi, insonligining belgisi iymondir. Iymonsizni odam deb atab bo’lmaydi. Inson bilan hayvon orasidagi farqni nutqda — odamni so’zlay bilish qobiliyatidagina deb bilish xatodir. Chunki odamda nutq ham, boshqa maxluq — hayvonlarda bo’lgan bir qator jihatlar ham bor. Shuning uchun asosiy mezon iymondir.

Hukmdorlarga bag’ishlangan “Salotin bobida” nomli uchinchi maqolat adibningadolat haqidagi qarashlarini o’rganishda muhim ahamiyatga ega.

Karam va saxovat haqidagi beshinchi maqolatda Navoiy bu fazilatlarni baxillik bilan yonma-yon qo’yib, ularning mohiyatini yorita boradi.

Keyingi maqolatda odob masalalari yoritilgan.

Maqolatlardan birini Navoiy elga manfaat yetkazish masalalariga bag’ishlaydi. Insonning hayoti jamiyatda, odamlar orasida kechadi. Haqiqiy inson yurt tashvishi bilan, el g’ami bilan yashaydi: «**Odamiy ersang, demagil odami, Oniki yo’q xalq g’amidan g’ami**».

*Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta'rif berar ekan, fikrni go'zal va nafis badiiyat libosiga o'rab, o'quvchiga taqdim qiladi. Uni o'qir ekansiz, ifoda go'zalligi Sizni maftun qiladi, so'zlar jilosidan adibga tahsinlar o'qiyasiz. Quyida so'z ta'rifiga bag'ishlangan bobdan parcha e'tiboringizga havola qilinayotir. Uni o'qing, tahlil qiling, Navoiyning badiiyat olamidan zavqlaning.*

## SO'Z TA'RIFIDA

So'z guharig'a erur oncha sharaf  
Kim, bo'la olmas anga gavhar sadaf.

To'rt sadef gavharining durji<sup>1</sup> ul,  
Yetti falak axtarining<sup>2</sup> burji ul.

Bog'chai dahrki<sup>3</sup> yuz toza gul,  
Topti qayonkim nazar etti ko'ngul.

...Chun bu nasim esti azal tog'idiin<sup>4</sup>,  
Muncha gul ochildi jahon bog'idiin.

Qaysi nasim ulki erur gulfishon<sup>5</sup>,  
Bargi gul-u nastaran<sup>6</sup> andin nishon.

Bu iki yafrog'ni qachon zufunun<sup>7</sup>  
Bir-biriga qo'ysa bo'lur "kof-u nun"<sup>8</sup>.

Dahr muqayyad<sup>9</sup> bila ozodasi,  
Borchu erur "kof" ila "nun" zodasi<sup>10</sup>.

Zodasin zoda<sup>11</sup> bo'lub beadad.  
Zodag'a ham valid<sup>12</sup> o'lib ham valad<sup>13</sup>.

Vasf ne nav bo'lg'ay anga el so'zi,  
Har ne so'z aytilsa erur chun o'zi.

<sup>1</sup> Durj — 1. Qimmatbaho toshlar solinadigan quti. 2. Og'iz. 3. Ko'ngil. <sup>2</sup> Axtar — yulduz. <sup>3</sup> Bog'chai dahr — dunyo bog'i. <sup>4</sup> Azal tog'i — domiylik tog'i, qismal. <sup>5</sup> Gulfishon — gul sochuvchi. <sup>6</sup> Gul-u nastaran — gul va nastarin. <sup>7</sup> Zufunum — hunar, ilmlar egasi, ya'ni Oolloh. <sup>8</sup> Kof-u nun — "kof" va "nun" huflari. Bu ikki harf qo'shilse "Kum", ya'ni "Yaral" so'zi paydo bo'ladi. <sup>9</sup> Muqayyad — bog'langan, qil . usir. <sup>10</sup> Borehu erur "kof" ila "nun" zodasi — Mu'nosi: Olamdag'i barcha narsa "Yaral" so'zidan paydo bo'lqandir. <sup>11</sup> Zoda — Tug'ma, tabuy. <sup>12</sup> Valid — ota. <sup>13</sup> Valad — farzand, bola.

Jon o'lub ul, ruh aning qolib,  
Kim tanida ruh aning tolibi.

Borchha ko'ngul durji aro javhar<sup>1</sup> ul,  
Borchha og'iz huqqasida<sup>2</sup> gavhar ul.

Gar xud erur xanjari po'lod til,  
Sufitidog'i<sup>3</sup> injulari so'zni bil.

Til bu chamanning varaqi lolasi<sup>4</sup>,  
So'z duraridin<sup>5</sup> bo'lubon jolasi<sup>6</sup>.

So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,  
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.

...Tengriki insonni qilib ganji roz<sup>7</sup>,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

...Donai dur so'zini afsona bil,  
So'zni jahon bahrinda durdona bil.

Munchaki sharh etti qalam so'zga hol  
Nasridadur, nazmida bor o'zga hol.

So'z aro yalg'on kibi yo'q napisand,  
Aylar aning nazmini dono pisand.

O'rnida tishlar duri manzum erur,  
Chun sochilur qiymati ma'lum erur.

Vard-u<sup>8</sup> shajar<sup>9</sup> shohid<sup>10</sup> erur bog' aro.  
Lek o'tun silkidadur<sup>11</sup> tog' aro.

Munda parishonlig'i noxush qilib,  
Anda murattablig'i<sup>12</sup> dilkash qilib.

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,  
Nasr qaro yerg'a sochilmog'lig'i.

Bo'Imasa e'joz<sup>13</sup> maqomida nazm,  
Bo'Imas edi tengri kalomida nazm.

<sup>1</sup>Javhar — 1. Asl, mohiyat. 2. Qimmatbaho tosh. <sup>2</sup>Huqqa — quticha. <sup>3</sup>Suft — teslik, teshik qilish.

<sup>4</sup>Varaqi lola — lola yaprog'i. <sup>5</sup>So'z durari — so'z durlari. <sup>6</sup>Jola — 1. Do'l. 2. Shudring, shabnam. 3. Ko'z yoshi. <sup>7</sup>Ganji roz — sirli xazina. <sup>8</sup>Vard — gul, atirgul. <sup>9</sup>Shajar — daraxt, og'och. <sup>10</sup>Shohid — go'zal, chiroylı.

<sup>11</sup>Silk — qator, saf. <sup>12</sup>Murattablig' — tartibiga solinganlik. <sup>13</sup>E'joz — mo'jiza.

Nazmida ham asl anga ma'ni durur,  
Bo'lsun aning surati har ne durur.

Nazmki ma'ni anga marg'ub<sup>1</sup> emas,  
Ahli maoniy<sup>2</sup> qoshida xo'b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,  
Zimmida<sup>3</sup> ma'ni dog'i<sup>4</sup> dilkash<sup>5</sup> anga.

Yorab, ani xalq dilafro'zi<sup>6</sup> et,  
Xasta Navoiyga dog'i ro'zi el.



## Savol va topshiriqlar

1. "Hayrat ul-abror" dostoni va uning boshqa dostonlardan farg'l tom'onlari haqida ma'lumot bering.
2. Dostonda qaysi masalalar yoritilgan?
3. Navoiy jymonning insон hayotida tutgan o'rnnini qanday belgilaydi?
4. "So'z ta'rifida" bobidan keltirilgan parchanening birinchi bayti mazmuniga e'tibor qiling. Shoир niyatini ilg'ab olishga intiling.
5. O'qituvehi bilan birligida "*Borcha erur "kof" ila "nun" zodasi*" misrasi zamiridagi chuqur hayotiy ma'noni topishga urinib ko'ring.
6. Parchadagi: "*Zodasidin zoda bo'lib beedad, Zodag'a ham valid bo'lib ham valad*" satrlari zamiridagi ma'noni anglashga urining. Olloh, olam va odam munosabatlari murakkabligi aks etgan ushbu bayt mag'zini chaqing.
7. "*Jon o'lub ul, ruh aning qolib, Kim tanida ruh — aning tolibi*" misralarida ifodalangan so'z, jon va ruh munosabatlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi fikrni anglab olishga urinib ko'ring.
8. "*So'zdin o'lukning tanida ruhi pok, Ruh dog'i tan aro so'zdin halok*" misralari ma'nosini izohlang. So'zlagi o'lakka jon bag'ishlash va tirik ruhni o'ldirish qudratini izohlang.
9. "*Munchaki shark etdi qalam so'zga hol, Nasridadur, nazmiga bor o'zga hol*" satrlarida she'riy va nasriy so'z o'rtaсидаги farqning ifoda etilganligini anglashga harakat qiling.
10. "*So'z aro yalg'on kibi yo'q napisand, Aylar aning nazmini dono pisand*" baytida ijoddha badiiy loqima va mubolag'ning o'rniiga berilgan bahoni anglatling.
11. Parchadan she'riy ijoddha shaklning beqiyos o'rni haqidagi fikrlarni toping, ularning obrazlilik darajasini aniqlang va izohlang.
12. "*O'rnidida tishlar duri manzum erur, Chun sochilur qiymati ma'lum erur*" misralarida badiiy ijoddha shaklning o'rniiga qanday baho berilganligini sharhlang.

<sup>1</sup> Marg'ub — sevimli, yoqimli, ma'qul. <sup>2</sup> Ahli maoniy — ma'no ahli, fikrlovchi kishilar. <sup>3</sup> Zimm — orn, o'rta. <sup>4</sup> Dog'i — yana, ham. <sup>5</sup> Dilkash — diltortar, yoqimli, jozibali. <sup>6</sup> Dilafro'z — shod qiluvechi, ko'ngil o'chuvechi.



## “FARIHOD VA SHIRIN” DOSTONI

“Xamsa”ning bu ikkinchi dostoni ishqiy-sarguzasht xarakteridadir. Hajmi 5782 bayt. Aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Muallif bu asarni “shavq dostoni” deb ataydi. Sababi unda ishq kuylanadi, talqin qilinadi va ulug’lanadi. Bu shunday ishqki, u insonni poklaydi, ezgulik sari yetaklaydi, unga o’zligini tanitadi, bir so’z bilan aytganda, komillik sifatlarini tarbiyalaydi. Chunki u odamga, olamga, butun borliqqa mehr bilan, muhabbat bilan yo’g’rilgan va oxir borib Yaratganning o’ziga ularшиб ketadigan ishqdir. Dostonda Navoiyning komil inson haqidagi orzu-o’ylari ham ifoda etilgan.

O’ziga xoslikka intilgan adib o’zigacha bo’lgan an’analarga ijodiy yondashadi. Doston Navoiygacha “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Ularda markaziy obraz shoh Xusrav edi. Lekin u — komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-taxtni ustun bilguvchi xudbin shaxs. Shuning uchun Navoiy uni Shirinning muhabbatiga ham, yozilajak dostonidagi bosh obraz darajasiga ham loyiq ko’rmaydi. U Farhodni bosh obraz qilib oldi va bu bilan dostonning qurilishini, mazmunini tamomila o’zgartirdi. Mazkur o’zgarish xamsachilikka shoir kiritgan eng katta yangilik va dostoniga “Farhod va Shirin” nomi berilishiga asos bo’ldi.

Dostonning asosiy voqealari ovozasi olamni tutgan, qudrat-u shavkatda, davlat-u shuhratda yagona Chin xoqonining farzandsizligi va bundan uning so’ngsiz iztiroblarga tushganligi tasviri bilan boshlanadi. Xoqonning birdan-bir orzusi o’g’illik bo’lish edi. Maqsadiga yetish uchun ko’p nazrlar qildi, talay pullar sochdi, o’g’ilsizlarning ko’nglini oldi, otasizlarga otalik qildi. Xayriyatları zoye ketmadi. Olloh iltijolarini ijobat qilib, unga o’g’il ato etdi.

... Shabistonida<sup>1</sup> tug’di<sup>2</sup> bir yangi oy<sup>3</sup>,  
Yangi oy yo’qki, mehri olamoroy<sup>4</sup>.

Ochildi bog’ida bir otashin vard<sup>5</sup>,  
Demaykim vard, balkim shu’layi dard.

... Yuzinda isliq asrori<sup>6</sup> yozilg’an,  
Lehinda dard ta’vizi<sup>7</sup> qozilg’an.

<sup>1</sup> Shabiston — lungi yoloq, xona. <sup>2</sup> Tug’di — tug’ildi. <sup>3</sup> Yangi oy — istioraviy yo’l bilan Farhodni bildiradi, uning tug’ilishi qorong’u kechada yangi oyning paydo bo’lishiga qiyoshangan. <sup>4</sup> Mehri olamoroy — olamni yorituvchi quyosh. <sup>5</sup> Vard — atirgul. <sup>6</sup> Asror — sirlar. <sup>7</sup> Ta’viz — tumor, duo yozilgan vurmaq.



... Ko'zida ashk<sup>1</sup> selidin asarlar,  
Danida<sup>2</sup> oh dudidin xabarlar.

Muhabbat nuri ollinda huvaydo<sup>3</sup>,  
Jamolida vafo tug'rosi<sup>4</sup> paydo.

Falak deb: "Dard elining shohi" oni,  
Malak<sup>5</sup> deb: "Dard o'ti ogohi" oni.

... Vafo haylida g'avg'o shodlig'din,  
Biri birga muborakbodlig'din.

*Tangri taolo tug'ilishidan ruhiga payvasta etgan ishq Farhodga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi. Buning natijasi o'laroq, ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur'oni karimni yod oldi. Navoiy Farhodning bolalik va o'spirinlikdagi fazilatlarini shunday ta'rif etadi:*

Agar bir qatla ko'rди har sabaqni,  
Yana ochninoq yo'q erdi ul varaqni.

Ne so'znikim, o'qub ko'ngliga yozib,  
Dema ko'ngliki, jon lavhiga<sup>6</sup> qozib.

O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,  
Qolib yodida safha-safha bori.

Ko'rub chun ishq-u oshiqlik maqolin,  
Topib oshustga mahzun ko'ngli holin.

Aning sharhini takror aylabon ko'p,  
O'qurda nolayi zor aylabon ko'p.

Bo'lub oshiq g'ami sharhida g'annok<sup>7</sup>,  
Yaqo chokin o'qub, aylab yaqo choc.

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,  
Qilib ul dard anga ko'p-ko'p siroyat<sup>8</sup>.

Kishi ko'nglin bilib, afgor yig'lab,  
Ne ko'zda ashk ko'rgach, zor yig'lab.

<sup>1</sup> Ashk — ko'z yoshi. <sup>2</sup> Dan — nafas. <sup>3</sup> Huvaydo — ayon, ravshan. <sup>4</sup> Tug'ro — davlat ramzi. (gerb) nishona. <sup>5</sup> Malak — farishta. <sup>6</sup> Lavhi — yoyiq narsa, faxta; yozuv taxtasi. So'z bu yerda istiora bo'lib, ko'chma ma'noda kelgan. <sup>7</sup> G'annok — g'angin. <sup>8</sup> Siroyat — ta'sir, ijoba o'tish, yuqish.



...Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,  
Bilib tahqiqini<sup>1</sup> kasb etmagan ilm.

Bo'lub o'n yoshda umurining mururi<sup>2</sup>  
Yigirmi yoshecha qadd-u jism-u zo<sup>3</sup>ri.

Ulum<sup>4</sup> avroqi<sup>5</sup> chun bir-bir yopildi,  
Dilovarliq silohi<sup>6</sup> mayli qildi.

... Hamul ilmi balandovoza birla,  
Bu yanglig<sup>7</sup> zo<sup>8</sup>ri beandoza<sup>9</sup> birla.

O'zin abjad<sup>10</sup> o'qur eldin tutib kam,  
Dema donishki<sup>11</sup>, zo<sup>12</sup>ri dast<sup>13</sup> ila ham,

Bo'lub shahlar eshigintng gadoyi.  
Va lekin ul gadolar xokipoyi.

Anga teng podsholig<sup>14</sup> yo gadolig<sup>15</sup>,  
Gadoliqqa teng etmay podsholig<sup>16</sup>.

Demonkim ko<sup>17</sup>ngli pok-u, ham ko<sup>18</sup>zi pok,  
Tili pok-u, so<sup>19</sup>zi pok-u, o<sup>20</sup>zi pok.

Munungdak tiynati pokiga loyiq.  
Duosin aytibon pok i xaloyiq.

Aning sorisovug<sup>21</sup> yel essa nogohi,  
Chekib Chin mulkining xalqi sovug<sup>22</sup> oh.

Qilib el xonumon oning fidosi.  
Ne xonumonki, jon oning fidosi.

Ato yuzlanmasun deb dard-u ranje,  
Etib har kun boshig'a sadqa ganje.

Vale bir zarra dard o'lg'ach padidor<sup>23</sup>,  
Bo'lub ul ganjlar birla xaridor.

<sup>1</sup>Tahqiq — biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish, haqiqat qilish. <sup>2</sup>Murur — o'tish, yurish.  
<sup>3</sup>Ulum — ilmlar. <sup>4</sup>Avroq — varaqlar. <sup>5</sup>Siloh — quroq-yuroq<sup>6</sup>. <sup>6</sup>Beandoza — cheksiz, chegarasiz. <sup>7</sup>Abjad — qidimgi arabi alifbosida 1 dan 10 gacha bo'lgan birlik, 10 dan 100 gacha bo'lgan o'ndlik va 100 dan 1000 gacha bo'lgan yuzlik raqamdar tartibini bildiradigan horflar majmu'u ni ifodalaydigan 8 yasuma so'zning birinchisi haunda ana shu hisob tizimining umumiyy nomi. "Abjad o'qur el" — bosilang'ich muktabuning birinchisi yilda harf tanish uchun daslab abjad o'rgatilgan. <sup>8</sup>Donish — bilish, bilim. <sup>9</sup>Dast — qo'l. <sup>10</sup>Padidor — paydo bo'lgan, ko'ringau.

Asiri dard ichi yu toshi oning  
Ki, to o'n to'rt bo'ldi yoshi oning.



### Savol va topshiriqlar

1. Navoiy nima uchun "Farhod va Shirin"ni "shavq dostoni" deb ataydi? Unda ulug'langan ishq qanday mohiyatga ega edi?
2. Navoiyning mazkur asari qaysi jihallari bilan xamsachilikdagi yangilik hisoblanar ekan?
3. "*Shabistonida tug'di bir yangi oy, Yangi oy yo'qqi, meg'ri olamoroy*" baytini izohlang. Undagi "shabiston", "yangi oy", "mehri olamoroy" so'z va iboralarning istioraviy ma'nosini tushuntiring.
4. "*Yuzinda ishq asrori yozilg'an, Ichinda dard ta'vizi qozilg'an*" baytlida Farhodga xos bo'lgan qaysi jihatlar ifoda etilgan?
5. "*Muhabbat nuri ollinda huvaydo, Jamolida vafo tug'rosi paydo*" misralarini sharhlang. Ularda chaqaloq siyosida qanday fazilatlar namoyon bo'layolganligini aniqlang.
6. Farhodning tahsil — o'qishga bo'lgan ishtiyoqi qaysi baytlarda ifoda etilgan?
7. "*Bo'lub oshiq g'ami sharhida g'amnok, Yaqo chokin o'qub, aylab yaqo chok*" misrasini sharh qiling.
8. Keltirilgan parchadan Farhodning ma'naviy sifatlari buyon etilgan o'rinnarui topib, izohlang.
9. "*Demonkim ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok, Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok*" baytidan kelib chiqib, bosh qahramonga xos fazilatlarni sanang.
10. Qaysi o'rinnarda xalqning Farhodga munosabati aks etgan?

\* \* \*

*Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin tug'ma ishq ta'sirida doimo g'amgin, alam va dardlar bilan ko'milgan edi. Buning sababini o'zi ham tushuntirib berolmas edi. Otasi uning g'amlarini aritmoq uchun turli tomoshalar, bazmlar, ziyoftlar yusushtirdi. Foydasi bo'lmadi. Shunda xoqon Farhodning ko'nglini olish uchun yilning to'rt fasliga moslab to'rt olyi qasr qurdirish fikriga keldi.*

*Farhodning atobegi, ya'ni tarbiyachi-ustozи Mulkoro bu ishga ma'mur etib tayinlandi. Xitoyning mashhur me'mori Boniy, naqqoshi Moniy hamda tosh yo'nuvchi Qur'an qurilishga jalb etildilar. Farhod qurilish bo'layotgan yerga kelib ustalarining ishlarini ko'rdi. O'z hunarlarini mislsiz san'at darajasiga yetkizgan, toshni ham saryog'dek kesayotgan uch ustod ishidan hayratga tushdi. Ushunchaki kuzatuvchi bo'lib qolmasdan ularning hunarlarini o'rganishga kirishdi. Oxiri bu kasblarni ustozlari darajasida o'zlashtirdi, hatto o'zib ham ketdi.*



...Biravkim zor yig'lar, yig'lab ul zor,  
Topib ko'ngli el ozoridin ozor.

Chiqorib so'zlig' so'z<sup>1</sup> boshidin dud,  
Sovug' oh aylab, ohin otasholud<sup>2</sup>.

Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'annok.  
Yaqo chokin ko'rib, ko'ksin qilib choc.

Biravkim ishqdin qilsa rivoyat,  
So'rub har dan mukarrar<sup>3</sup> ul hikoyal.

Tafalhus aylab<sup>4</sup> andin ko'p nishone,  
Nishonin ko'nglida usrab nihoniy.

Visol iehra zamirin<sup>5</sup> shod topib,  
Alamdin xotirin ozod topib.

Yetishgach hajr sharhi zor yig'lab,  
Iki ko'z aylabon xunbor<sup>6</sup> yig'lab.

*Farhod mamlakat xazinasidagi sirli sandiqni ko'rib qoladi va otasi-ni majburlab sandiqni ochtiradi. Uning ichidan bir vaqtlar Iskandari Rumiy to'rt yuz olimga yasattirgan sirli ko'zgu chiqdi. Oynaning orqasidagi tilsimda yozilishicha, ko'zgu tilsimni ochmoqchi bo'lgan odam xatarli safarga otlanib, Yunonistondagi bir toqqa borishi kerak. Ungacha uch manzil bo'lib, birinchisida ajdahoni, ikkinchisida Ahraman devni, uchinchi manzilda ikkalasidan ham mushkulroq tilsimni yengishi kerak. To'rtinchi manzil — o'sha tog'dagi g'or ichidan donishmand Sugrot topiladi. Farhod bu to'siglarni mardona yengib, Jamshid jomini, Sulaymon uzugini, Iskandar boyligini qo'lga kiritadi. Sugrot uning, otasi va atobegi Mulkoroning taqdiri haqida bashoratlar beradi, ularga nasihatlar qiladi va jon taslim etadi.*

*Yunonistondan qaytishgach, Farhod sandiqdagagi oynaga qaraydi va unda qandaydir bir yurt, tog' kesish bilan mashg'ul odamlar, o'zining ham ariq qaziyotganini hamda Shirinni ko'radi. Qizni ko'radi-yu, hushdan ketadi.*

*Sevgilisini izlab yo'lga chiqqan Farhod uning Arman yurtidan ekanligini safarda topgan do'sti Shopurdan eshitadi. U yerga borishgach, metindek toshlardan iborat tog'ni kesish mashaqqatiga mahkum odamlarni ko'rishadi.*

<sup>1</sup>"So'zlig' so'z" birikmasini ham "yoniq so'z", ham "so'zli yonish" ma'nosida tushumish mumkin. chun-ki o'zbekcha "so'z" "kalima" ma'nosini bersa, forseha "so'z" "kuyish" ma'nosida keladi. <sup>2</sup>Otasholud — yoniq, dardli, otashin. <sup>3</sup> Mukarrar — luktur. <sup>4</sup> Tafalhus aylumuk — tekshirmoq, surishtirmoq, teran o'rGANmoq. <sup>5</sup> Zamir — ko'ngil. <sup>6</sup> Xunbor — qon yig'loveli.



*Ular tog'ni kesib, uning narigi yog'idan suv olib o'tishlari kerak edi. Afsuski, uch yil zahmat cheksalar-da, ishda siljish bo'lman. Bu qurilishni malika Mehinbonu jiyani Shirinning istagiga ko'ra bajartirayotgan edi. Navoiy ishlayotganlar tilidan Shirinning vasfi va toshkesarlar mashshaqatlarini quyidagicha bayon etadi:*

**Harimi ifsat iehra shoh ul ermish,  
Sipehri ismat<sup>1</sup> uzra moh ul ermish.**

**Yuzi gul, kirpigi derlar tikandur,  
Ne bor andoqqi hargiz bor ekandur.**

**Mehinbonu ko'p aylab ehtiromin,  
Yasabdur jon uyi iehra maqomin.**

**...Yuzi birla qilur bazmini gulshan,  
Aning birla ko'rар olamni ravshan.**

**Bu tog'ekim aning vasfidadur tul<sup>2</sup>,  
Ki, bordurbiz ani qozmoqqa mashg'ul.**

**Kelubdur bir boshi sharqi shamoyil<sup>3</sup>,  
Yana bir boshi g'arbi sori moyil.**

**Oqar sharqisida bir chashma holi<sup>4</sup>,  
Suyi ul nav'kim hayvon<sup>5</sup> ziloli.**

**Debon "Ayn ul-hayot"<sup>6</sup> ul chashmani xayl,  
Ki, o'lgan iehsa aylar jon sari mayl.**

**Gahi ul hur bu sori qo'yар gom,  
Pari sarehashmada tutqondek orom.**

**Parilar birla aylab azmi ishrat,  
Tuzarlar anda gohi bazni ishrat.**

**Erur g'arbida ul mahvash makoni  
Ki, holo Armaniya derlar oni.**

**Yeridur nazhat iehra jannaloso,  
Aning yonida tog'i charxfarso<sup>7</sup>.**

<sup>1</sup> Sipehri ismat — poklik osmoni. <sup>2</sup> Tul — ozum, cho'zilgan. <sup>3</sup> Shamoyil — ko'rinish, tuzilish. <sup>4</sup> Holi — ravish.  
<sup>5</sup> Hayvon — tirkilik, hayot. <sup>6</sup>"Ayn ul-hayot" — hayot bulo g'i, hayot suvi. <sup>7</sup> Charxfarso — juda yüksek.

Erur bu nav' ul mahvash xayoli,  
Ki, ul manzilda solg'ay qasri oliv.

Muhayyo boreha rang-u bo'yi oning,  
Vale ustida yo'qtur suyi oning.

Muhandislar nechukkim charxi sayyor,  
Yugurtub chashma suyi sori tayyor.

Topibkim bir arig' qozilsa diljo',  
Yetar ul hur qasri olig'a su(v).

Vale ul chashma to bu qasri ofat,  
Topibdur o'n yig'oeh<sup>1</sup> chog'liq masofat.

Bu jadvalkim, chekibdurlar aroda,  
Ariq qozmoq qilibdurlar iroda...

Bu xoro<sup>2</sup> tesha birla bo'lmas afgor,  
Nechukkim tesha, metin aylamas kor.

Erur uch yilki jon tortib hamesha,  
Usholmay qolmadi metinu tesha.

Mashaqqaldin yigitni el qari der,  
Ki, qozilmish iki-uch yuz qari yer.

Bu yanglig' birla umri Nuh topsak,  
Badanda ko'prak ondin ruh topsak.

Chu mehnatning had-u poyoni yo'qdur,  
Tugannaklik bu ish imkonи yo'qdur...

*Shunda Farhod ularga shunday deydi.*

...Dedi: Bu necha mazlumi sitamkash,  
Falak bedodidin bo'lg'an alamkash.

Ki, vayronlig'larida yuz xalaldur,  
Agar qilsam madad voqe' mahaldur.

<sup>1</sup> Yig'oeh — taxminan (200 metrga yaqin masofa). <sup>2</sup> Xoro — qattiq tosh.

Hunarni asraban netkumdir oxir,  
Olib tufroqqamu ketgundir oxir...

*Bu yerda Farhod malika Mehinbonu mehrini, Shirinning muhabbatini qozonadi.  
Oshiq va ma'shuqaning ilk uchrashuvlari va suhbat shunday tasvirlanadi:*

...Ki: "Ey nodir yigit ofoq ichinda,  
Yagona charxi nili toq ichinda!

Ayon holingda ko'p, ko'p bul'ajabliq.  
Ajabdin ham ajab ranj-u taabliq<sup>1</sup>.

Ne sen o'xshab jahonda bir kishiga,  
Ne qilg'an ishing o'xshar el ishiga.

Bu ishkim, biz demay bunyod etibsen,  
Bag'oyat ko'nglimizni shod etibsen.

Bo'lur erduk husuli iehra ojiz,  
Hunar ermas qo'lung ko'rguzdi mo'jiz.

Agar yuz qarn<sup>2</sup> uzroyin bo'loli,  
Netib bir kunchilik uzring qo'loli.

Ishing uzrida yuz bizdek o'tangay,  
Ne bizdin, Tengridin olingg'a yong'ay"...

*Shirinning bu so'zlarini eshitgan Farhod hayajon bilan shunday dedi:*

...Dedi: "Jonparvar anfosingdin<sup>3</sup> o'ldum,  
Uningdin, umr ranjidin qutuldum.

Ne anglaykim, qayu mahro<sup>4</sup> ekansen,  
Iehim qon aylagan senmu ekansen?!

Meni g'urbat aro bechora etkan,  
Diyor-u mulkin ovora etkan,

Chiqib jomim umungdin bo'lg'ach ogoh,  
Yuzungni ko'rmay o'ldum oh, yuz oh!"

Aningdek oh to'fonin chiqordi,  
Ki, mahwashning niqobi yelga bordi.

<sup>1</sup> Taabliq — qiyinchilik, mashaqqat. <sup>2</sup> Qarn — 30 yilni bildiradigan yil hisobi. Ba'zan keng ma'noda "asr" ma'nosini ham bildiradi. <sup>3</sup> Anfos — nafaslar. <sup>4</sup> Mahro' — oy yuzli.

Ko'rungach ul jamoli olamoro,  
Aning matlubi bo'ldi oslikoro.

Hamul erdiki, maftun bo'l mish erdi,  
Ko'rib ko'zguda majnun bo'l mish erdi.

Birovkim aks ko'rgach hushi ketsa,  
O'zin ko'rgach, netong, jon tarkin etsa.

Birovkim bo'lsa mayning zikridin mast,  
Netong, ichkanda bo'lsa yer uza past.

Chu Farhod ul pari erkanni bildi,  
Chekib o'tluq fig'on andoq yiqlidi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Farhoddagi g'amginlikning sababini qanday izohlaysiz?
2. Ustalar ishidan hayratlanishida, ularning kasblariga ko'ngil berib o'rganishida Farhodning qanday ma'naviy fazilatlari namoyon bo'lmoqda?
3. Bosh qahramonning elparvarligi, oddiy xalqa mushfiqligi qaysi satrlarda o'z ifodasini topgan?
4. Shirinning go'zalligi vaf etilgan o'rirlarni quyta o'qing. Shoir uni qanday tasvirlaganini o'sozlaringiz bilan bayon eting.
5. Tog'du qazishi ishlaringin mashaqqatligi bayon etilgan satrlarni sharhlang.
6. "Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tusroqqamu ketgumdir oxir" bayti orqali inson o'zi egallagan hunarga qanday munosabatda bo'lishi lozimligi to'g'risida tirk yuriting.
7. Shirinning Farhodga murojaatini o'qing. Qizga ta'rif bering.

*Ajam hukmdori Xusrav Mehinbonuga Shirinni so'ratib sovchi yuboradi.  
Mehinbonu Xusravning istagini Shiringa aytganda, u shunday dedi:*

Ki: "Ey na'layning<sup>1</sup> o'rni qiblagohim!  
Harimi nazhating<sup>2</sup> g'aandin panohim!"

Necha yetgay senga mendin malolat,  
Necha kelgay manga ondin xijolat.

Boshimng'a tig'i g'am sursang ne bo'lg'ay?  
Bu so'z deguncha o'llursang ne bo'lg'ay!?

<sup>1</sup> Na'layn — bir juft kovush. <sup>2</sup> Nuzhet — ko'ngil oehish, buzur qilish.

Meni hindudek olatshgahga boshla,  
Uzorim xolidek o't ichra tashla.

Ki, jismim bo'lsa ul o't ichra nobud,  
Sochimdek chiqqay ondin chirmanib dud.

Malolimdin bari olain qutilsin,  
Tanim yuz ming balodin ham qutulsin.

Manga Farhod ishqisi tuhmati<sup>1</sup> bas,  
Ki, chelra ko'rmayin ul zor-u bekas.

Yiqilmoqdur shiori oh tortib,  
Ko'nguldin uolayi jonkoh tortib,

Qulog'i mustami' bo'lmay<sup>2</sup> so'zunga,  
Ko'zi oylar o'tib tushmay yuzumga.

Tog' ichra sel yanglig' oqizib yosh,  
Urub tosh uzra hardam seldek bosh.

Xayolim birla ko'nglin qone' aylab,  
Firoqim ichra umrin zoye' aylab.

Qolib men yiroq ul notavondin,  
Nechukkiu mendin — ul, men dog'i — ondin.

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur!

Agar Bonu iloje bilsa, qilsun,  
O'zimni o'ltururmen yo'qsa, bilsun!"

*Niyatiga yetolmagan Xusrav Arman yurtiga lashkar tortdi. Lekin Farhodning bir o'zi uning lashkariga bas kelib, dushmani shahar qal'asiga yaqinlashtirmadi. Uzoqdan Xusravga tanbeh ham berdi:*

Bu bo'lg'ay dard-u ishq oyimi, vah-vah!  
Vafo-u mehr sharti, ollati-ollah!

Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay!  
G'amidan beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay!

*Raqibini kuch bilan yengolmagan shoh uni hiyla bilan qo'nga tushiradi.  
U o'z qarorgohida Farhod bilan bahs qiladi:*

<sup>1</sup> Tuhmat — ovoragarchilik, tushvish. <sup>2</sup> Mustami' bo'lmoq — qulog solmoq, eshitmoq.

- Dedi: "Qaydinsen, ey majnumi gumarah?!"<sup>1</sup>  
Dedi: "Majnum valandin qayda ogah?"
- Dedi: "Nedur sanga olamda pesha?"<sup>2</sup>  
Dedi: "Ishq ichra majnunluq hamesha".
- Dedi: "Bu ishdin o'lmas kash ro'zil"<sup>3</sup>  
Dedi: "Kash o'lsa basdur ishq so'zi".
- Dedikim: "Ishq o'tidin de fasona!"  
Dedi: "Kuymay kishi topmas nishona".
- Dedikim: "Kuymagingni ayla ma'lum!"  
Dedi: "Andin erur joh ahli<sup>4</sup> mahrum"
- Dedi: "Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?"<sup>5</sup>  
Dedi: "Ruh ermas erdi tang'a payvast".
- Dedi: "Bu ishqdin inkor qilg'il!"<sup>6</sup>  
Dedi: "Bu so'zdin istig'for qilg'il"<sup>7</sup>
- Dedi: "Oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?"  
Dedi: "Furqat<sup>8</sup> kuni ishq balosho'r"<sup>9</sup>
- Dedi: "Ishq ahlining nedur hayoti?"  
Dedi: "Vasl ichra jonon iltifoti".
- Dedikim: "Dilbaringning de sifotin!"  
Dedi: "Til g'ayratidin tutmon otin!".<sup>10</sup>
- Dedikim: "Ishqig'a ko'nglum o'rundur?"  
Dedi: "Ko'nglumda jondek yoshurundur!"
- Dedi: "Vaslig'a borsen orzumand?"  
Dedi: "Bormen xayoli birla xursand".
- Dedi: "No'shi labidin<sup>11</sup> topqay el bahr?"  
Dedi: "Ul no'shidin el qismidur zahr"<sup>12</sup>

<sup>1</sup> Majnumi gumarah — yo'llini yo'qtgan jinni. <sup>2</sup> Pesha — kasb, hunar. <sup>3</sup> Misraning ma'nosi: bu ish bilan kasb kor qilib, tirikeyilik o'tkazib bo'lmaydi-ku! <sup>4</sup>Joh ahli — mansab ahli, podsholar. <sup>5</sup> Bu misrada Farhod ishqining unda tug'ilmasidan burun, ya'nii ruh jonga bog'hummagan paytdayoq paydo bo'lganini aylapti. <sup>6</sup> Inkor qilmoq — qaylmoq. <sup>7</sup>Istig'for qilmoq — lavba qilmoq. <sup>8</sup> Furqat — siroq, ayrliq, judolik, yordan yiroqlik. <sup>9</sup> Balosho'r — balo kelfiruvchi. <sup>10</sup> Misraning ma'nosi: tildan ruslik qilib, (yorimmin) otin tutmaynun. <sup>11</sup> No'shi lab — lab shiriniligi. <sup>12</sup> Misraning ma'nosi: u shirinlikdan elga faqat zahargina tegadi.

- Dedi: "Joningni olsa la'li! yodi?"  
Dedikim: "Ushbudir jonim murodi".
- Dedi: "Ko'ksungni gar chok etsa bebok?"<sup>2</sup>  
Dedi: "Ko'nglum tutay ham ayla deb chok!"<sup>3</sup>
- Dedi: "Ko'nglung fido qilsa jafosi?"  
Dedi: "Jonimni ham aylay fidosi".
- Dedikim: "Ishqdin yo'q juz ziyon bud"<sup>4</sup>  
Dedi: "Bu keldi savdo ahlig'a<sup>5</sup> sud"<sup>5</sup>
- Dedi: "Bu ishq tarki yaxshiroqdur!"  
Dedi: "Bu sheva<sup>6</sup> oshiqdin yiroqdur!"
- Dedi: "Ol ganj-u, qo'y mehrin nihoniyl"  
Dedi: "Tufroqqa berman kimyon!"
- Dedi: "Joningg'a hijron kinakashdur".<sup>7</sup>  
Dedi: "Chun bor vasl ummidi xushdur".
- Dedikimi: "Shahg'a bo'lma shirkatandesh"<sup>8</sup>  
Dedi: "Ishq ichra tengdur shoh-u darveshi"
- Dedi: "Joningg'a bu ishdin alam bor".  
Dedi: "Ishq ichra jondin kimga g'am bor?!"<sup>9</sup>
- Dedi: "Kishvar<sup>10</sup> beray, kech bu havusdin".  
Dedi: "Beehora, kech bu multamasdin!"<sup>10</sup>
- Dedi: "Ishq ichra qatling hukm etgum!"  
Dedi: "Ishqida maqsudung'a yetgum!"
- Dedi: "Bu ishida yo'q sendin yiroq qatl".  
Dedi: "Bu so'zlarining yaxshiroq qatl".



### Savol va topshiriqlar

1. Sovchilar immosabati bilan Shirinning Mehnibonuga bergan rad javobini qayta o'qing. Undagi ayollarga xos nazokat va qat'iyatga diqqat qiling.

<sup>1</sup> La'l — qip-qizil tosh. Bu yerdu so'z istiora tarzida yorning lobini anglatib kelgan. <sup>2</sup> Bebok — beparvo. <sup>3</sup> Bud — borlik, mavjudlik. <sup>4</sup> Savdo ahli — ishq ahli. <sup>5</sup> Sud — soyda. <sup>6</sup> Sheva — odal, ravish, tarz. <sup>7</sup> Kinakash — kek saqloveli, dushmanlik qiluvchi. o'ch oluvechi. <sup>8</sup> Shirkatandesh — sheriklik qiluvchi, sheriklikni fikr qiluvchi. <sup>9</sup> Kishvar — mamlakat, viloyat, yurt. <sup>10</sup> Multamas — iltimos.

- Qizning qaysi so'zlarida ayrılıqdagi Farhodning ruhiy holati buyon etilgan? Uning yor kechimmalarni burchalik teran his etishi sababi nimada deb o'slaysiz?
- "Menga ne yor-u ne oshiq havasdir, Agar men odam o'lsam, ushbu basdir"* baytida ifoda etilgan yüksak ma'naviy dunyosini izohlang.
- Farhodning Xusrayga bergan tanbehiba qo'shilasizmi? Uning so'zlariga munosabat bildiring.
- Farhod va Xusrav dialogidagi har bir aytishuvni o'rtoqlaringiz bilan tahlil qiling. "Majnum", "majnumliq" so'zini qanday izohlaysiz? Ularning sinonimini keltiring.
- "Dedi: Vaslig'a borsen orzumand? Dedi: Bormen xayoli birla xursand"* dialogi orqali ifodalangan ishqda tama' va beg'urazlik, ishqibozlik va oshiqlik ziddiyatini sharhlang.
- Farhodning javoblarini eshitgan Xusravning *"Bu ishq tarki yaxshiroqdir"*, — degan xulosaga kelganligi sababini tushuntiring.
- Xusrav va Farhod dialogini yod oling.

*Farhoddan ishqda tuban, kuchda ojiz Xusrav uni yuzma-yuz olishuvda yengolmagach, makr-hiyla bilan g'olib chiqmoqchi bo'ladi. Bir hiylagar kampirni yollab, Farhodning oldiga yuboradi. Kampir: "Mehinbonu jiyanini Xusravga berishga rozi bo'ldi. Shirin buni eshitib, o'zini o'ldirdi. "Farhod! Farhod! deya jon berdi", — degan yolg'on xabarни yetkazadi. Bu xabar Farhodning bag'riga go'yo o'tkir pichoq urdi. Fig'on tortib yiqildi. Shundan keyin Farhod umri tugab borayorganini bilib, yurtini, ota-onasi-yu yaqinlarini yod etdi:*

Tugangan sahm etib umri baqosin,  
Sovug' oh urdi yod aylab atosim.

Anosi ham ko'zi oldig'a keldi,  
Ko'zidin ikki qonlig' rud<sup>1</sup> ochildi.

Dedi: — "Ne hol erur, hayhot-hayhot,  
Netar jonimni olsang, ey ajal, bot?!"

O'lardin burna<sup>2</sup> yuz o'lmak nedur bu?!

Boshim yuz lig<sup>3</sup> ila bo'lmak nedur bu?!

Kuyuk tang'a yolin<sup>4</sup> urmoq ne erdi?!

Momug<sup>5</sup> uzra choqin urmoq ne erdi?!

<sup>1</sup> Rud — uriq, soy. <sup>2</sup> Burna — burun, ilgari. <sup>3</sup> Yolin — yolqim, alanga. <sup>4</sup> Momug' — chigitsiz paxta, chigitli olingan paxta.

Bular fikri ichimdin urmayin bosh,  
Boshim tufroq aro kirgay edi, kosh.

Buzug'luq, ey salak, ko'rguzdung oxir!  
Buzulg'an xotirimni buzdung oxir!

Bu ne insof edi, ey soqiyi dahr,  
O'lar chog'da qadah tutmoq to'la zahur?!

O'luk boshig'a tig' urmoq ne ya'ni,  
Bir-o'q bas, bedarig', urmoq ne ya'ni?!

Chu bu sho'robag'a yetti nihoyal,  
Dedi achenig'-achenig' yig'lab bag'oyal.

Ki: "Ey bodi sabo<sup>1</sup>, Tengri uchun qo'p,  
Yetib Chin-u Xito mulkiga yer o'p!

Deman, xoqon qoshiha bu o'g'uldin  
Ki, g'urbat iehra o'lgan xasta quldin.

Quyundek sadqa qil avval o'zungui,  
Chu bo'lding sadqa, mundoq de so'zungni:

Kim, ul ovorayi bexonumoning,  
Bag'ir xunobidin bir qatra qoning.

Itib, olamda hirmon<sup>2</sup> birla o'ldi,  
Yuzungni ko'rmay armon birla o'ldi.

Ne qonlar yuqtqi bag'ridim yoshig'a,  
Ne ishlar tushdi gardundin boshig'a.

Bo'lub afsun-u makr-u hiylatangez,  
Anga ne zulmlarkim qildi Parvez.

Agar tuzluk birla topsa hisobin,  
Berur erdi ming andoqning javobin.

Va lekin egrilikni aylab oyin,  
Yasab yuz nav' yolg'on, o'ylikim chin.

<sup>1</sup> Bodи sabo — long shamoli. <sup>2</sup> Hirmon — mahrumlik, bebalralik.

Birovkiň xilqatin qildi qazo rost,  
Qilur bovar<sup>1</sup>, necha so'z bo'lsa norost.

Manga, ne deyki, ul kofir ne qildi,  
Qazodin erdi qildi, har ne qildi.

Budur komimki, Bahromi dilovar  
Ki, bor erdi manga ul yor-u yovar<sup>2</sup>.

Cheriklar jam' aylab bemadoro<sup>3</sup>,  
Bu yon qilsa azimat oshkoro.

Qilichi to'yg'arib Xusravni jondin,  
Tilasa begunah qonimni ondin!

Eshitgach shoh bu o'tlug' fasona,  
Agar boshidin ursa o't zabona.

Yamion alvolima aylab yaqo chok,  
O'zin tufrog'larg'a ursa bebok.

Qo'shub yig'lasa bu ovorasini,  
Qayu ovora, bag'ri porasini.

"Bo'tam!" — deb goh bo'zlab, goh o'kursa,  
Jafo toshin sinuq ko'ksiga ursa.

Meni gar umirdin charx etti navmid,  
Jahon mulkida bo'lsun shoh jovid.

Yiqilsa hujra — bo'lsun qasr obod,  
Qurusu sabza — bo'lsun sarv ozod.

Anomg'a bu xabardin tushsa oshub,  
G'amiindin xora uzra bo'lsa sarko'b<sup>4</sup>.

Jahong'a o't solib g'avg'osi har yon,  
Yetardek bo'lsa vovaylosi har yon.

Bu vaħshiyg'a xitob elsa: "Qo'zum" — deb,  
Bu bekasni sog'unsa: "Yolg'uzum" — deb.

<sup>1</sup> Bovar qilmоq — ishonmoq. <sup>2</sup> Yovar — yordamechi, mudadkor. <sup>3</sup> Bemadoro — unurosusiz, kelishmasdan, tortimmay. <sup>4</sup> Sarko'b — bosh yanchuvchi, uruvehi.

Aningdek bo'lsa sho'r-u iztirobi  
Ki, bo'lsa bartaraf burqa<sup>1</sup> hijobi<sup>2</sup>

Qilibon yod g'amparyardasidin,  
Yugursa — chiqsa to'qquz pardasidin.

Debon: — Ey rishtayi jonimg'a payvand!  
Uzorin aylasa parkand-parkand.

Soehidin bo'lsa yulmoq birla mahjur<sup>3</sup>  
Ki, Chinda bo'lsa mushk o'rnida kofur.

Damimdin dud olib ketgaysen oxir,  
Xaloyiqqa hijob elgaysen oxir!

Degaysen: — Ey yuzung ruhum g'izosi<sup>4</sup>,  
Izing gardi ko'zumming to'tiyosi!

Manga bas erdi bu dardi g'amandud  
Ki, to Tengri vujudim qildi mayjud.

Bukim sen behad erding orzumand  
Ki, bo'lg'ay munising bir turfa farzand.

G'amindim bo'lmaiding bir lahza dilxush,  
Hamisha bor eding zoru mushavvash<sup>5</sup>.

Car atfol<sup>6</sup> etsa mayli sabzavu bog',  
Kichikdin erdi qismim dard ila dog'.

Mening dardim<sup>7</sup> a qolib jismi zoring,  
Mening dog'imdin o'rtanmak shioring.

Tilab yoqut laxti xora<sup>7</sup> topting,  
Tilab xurshid, olash pora<sup>8</sup> topting.

Ulug' bo'lg'on soyi bechora bo'ldum,  
Diyor-u mulkdin ovora bo'ldum.

Manga ovoralig' to charx berdi,  
Firoqimdin ishing o'rtanmak erdi.

<sup>1</sup> Burqa' — yuzga tuttiladigan parda, niqob. <sup>2</sup> Hijob — parda. <sup>3</sup> Mahjur — hajrda qolgan, avriliqda qolgan. <sup>4</sup> G'izo — ovqat, oziq, vegulik. <sup>5</sup> Mushavvash — tashvishli, besaranjon, ko'ngli parison. <sup>6</sup> Atfol — bolalar. <sup>7</sup> Laxti xora — qattiq tosh bo'lagi. <sup>8</sup> Olash pora — olov parchasi.

Bas ermas erdi umre kuymaking bas,  
Kuyub- kuyub, kul o'ldung o'ylakimi xas.

Bu xusron<sup>1</sup> baski, chun g'am rudi tuzdum,  
Sirishktin selidin ka'bamni buzdum.

Bukim men — men, manga o'lmak dag'i hayf,  
Uhus ahvolima kulmak dag'i hayf.

Sen ar<sup>2</sup> dardiindin o'lsang ranjfarsoy,  
Manga ul ranj-u g'amdin voy-u yuz voy!

Meni roziligidin qilma navmid,  
Manga do'zax o'tini solma jovid..."



### Savol va topshiriqlar

1. Farhodning ajalga, falakka, dunyo (dahr)ga murojaati berilgan baytlarga diqqat qarating, ularni tabhlil qiling.
2. Qaysi misralarda vatanga bo'lgan mehr, sog'inch o'z ifodasini topgan?
3. O'lim oldidagi o'g'ilning bodi sabo orqali otasi bilan vidolashuvni Sizda qanday taassurot qoldirdi?
4. Farhod farzandidan ayrılgan onasining holatini qanday tasavvur qiladi?
5. "Meni roziligidin qilma navmid, Manga do'zax o'tini solma jovid" murojaati kimga qaratilgan? Bu o'tinchning ma'nosini tushuntiring.
6. Farhod o'ziga yetgan qazoga ko'ndimi? Taqdiridan rozi bo'ldimi?

### Nazariy ma'lumot

#### KOMIL INSON

Tasavvuf — musulmon olamida keng tarqalgan isloni diniga asoslanuvchi buyuk ta'limot. Tasavvuf orqali insoniyat Islom dinining iehki va tashqi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yeldi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erisligan, yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs komil insondir. Aksariyat adabiyotlarda komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak, ruhni poklash g'oyat muhim. Poklanishning yo'li esa bitta, u nafsmi yengishdir.

Nafs deganda yemoq, ichmoq, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, kibru-havo, dunyoparastlik, zulm, o'g'rilik, tanballik, g'urur, lama,

<sup>1</sup> Xusron — zarar, ziyon. <sup>2</sup> Ar — "agar" so'zining qisqartirilgan shakli.

ko'rolmaslik, baxillik, mansabparastlik, shahvat, ko'ngli torlik, g'azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg'aydigan, uni Ollohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig'indisi tushuniladi.

Qur'oni karimning bir qator oyatlarida ochiq yoki ishora bilan nafsni jilovlash, yengish lozimligi mazmunida hukmilar bor. Shuningdek, payg'ambar Muhonmad alayhissalomning hadislarida ham bu borada ko'rsatmalar talaygina. Misol tariqasida Hazrati Aliga aytgan ushbu nasihatni (hadisi)ni keltirish mumkin: *"Yo Ali, valoyat (avliyolik) maqomiga yetishgan zotlar ko'p-ko'p ibodat qilganlaridan emas, o'z nafslarini yengganliklaridan bunday ulug' darajaga erishganlar".*

Nafs insonning juda qudratli, xavfli dushmani. Unga tobe inson ma'naviy va jismoniy tubanlikka, halokatga mahkum. Shuning uchun Navoiy "Nafs itin gilsang zabun olamda yo'q sendek shujo" deb yozsa, "Qisasi Rabg'uziy"da bir nafsning ishini yetmishe shayton qilolmaydi deb ta'kidlanadi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod olishib yenggan ajdaho, Axraman dev, temir odam shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas, balki Farhodning ichki olamidagi nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarning ramziy timsollaridir. Farhodning oshiqligi uni bu nafs lashkari bilan kurashga ottantirdi, ishq unga kuch, sabot va iroda ato etdi. Ko'rindiki, nafsni yengish quroli — bu ISHQ ekan.

Tasavvusda ishq deganda faqat melhr, sevgi kabi tuyg'ulargina emas, ulardan tashqari yana iroda, sabot, ihm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g'ayrat, kamtarinlik,adolat, saxiylik, baliulik, mardlik, bayo, pokizalik, shirinso'zlik, shafqat, umuman inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohg'a yaqinlashtiradigan barcha ezzuliklar. pokliklar yig'indisi tushuniladi. Ishqning o'rni ko'ngilda bo'ladi. Ko'ngil ishq tufayli poklanadi. Ko'ngil poklansa, ishq yana-da o'tli, nurli bo'ladi, ilohiy mohiyat kasb etadi. Tasavvusga ko'ra ko'ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o'rganiladi. Farhodning ustozlaridan kasb o'rganishini eslang. Ular shunchaki hunarmand ustalar obrazni emasdi.

Bonyi — ko'ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o'rgatgan piri komil. Moniy — Olloh ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz. Qoran — ko'ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parehalash ilmini bildirgan murshid. Shular kabi yana Suhaylo. Suqrotdekk ulug'lardan ishq sirlarini, poklanish ilmini o'zlashtirgan insongina hayotlik davrida o'z botinida dev, ajdaho, urslondek bo'lgan nafsoniy illatlarni yenga biladi, kundalik hayotda dueh keladigan o'z nafsig'a qul Xusrav, Sheruya kabi odam qiyofasidagi shaytonlarga bas kela oladi. Bir so'z bilan aytganda, u insoniy o'zligini yo'qotmay, poklanish yo'lida davom etadi.

Poklanishiga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma'noda Farhod o'zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir.



## “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI

Dunyodagi sevgi qissalarining eng dardlisi bo’lmish “Layli va Majnun” “Xamsa”ning uchinchi dostonidir. Unda oldingi dostonda bo’lgani kabi zaminiy (majoziy) muhabbatning ilohiy (haqiqiy) ishqqa eshligi o’zining go’zal badiiy ifodasini topgan. Navoiy bu asarida, ayniqsa, ruhiyat tasviriga alohida e’tibor qaratadi. U mazkur doston bilan o’zbek adabiyotida bu mavzuni boshlab berdi: “Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu afasonani hikoyat”. Adib asar mazmunini chuqurligini ta’kidlab, afsona faqat libos ekanligiga diqqat qaratadi. «Men xastaki, bu raqamni chektim, Tahriri uchun qalamni chektim. Yozmoqqa bu ishqni jovidona, Maqsudim emas edi afsona».

Qays va Layli bir-birlariga ilohiy ishq bilan bog’langanlar. Lekin Laylining otasi bu ishqqa qarshi. Aslida ular orasida katta tafovut yo’q. Laylining otasi Hay qabilasining boshlig’i bo’lsa, Qays bani Omar qabilasi hukmbardorining o’g’li. Nasabda, mavqe hamda boylikda birining boshqasidan kam, ortiqligi yo’q. Gap shundaki, ishq tufayli Qaysning jununi shu qadar ortganki, ishqdan mahrum omi el uni “Majnun” (telba) deb ataydi. Ota o’z qizini shu malomatga qolgan yigitga berishdan or qiladi. Johillar oshiq-ma’shuqlarni malomat domiga otadilar, davron boshlariga mislsiz musibatlarni soladi, qismat ularni ayovsiz imtihondan o’tkazadi. Faqat o’limgina ularga shafsat qildi. Xuddi Farhod va Shirin taqdirida bo’lgani kabi o’lim ular uchun fojea emas, balki azobli hijronдан qutqarguvchi xaloskor, pirovard maqsadlari bo’lmish Yaratganning vasliga noil qiluvchi vosita edi. Doston so’ngida ularning ana shu baxtga erishganliklari tasvirlanadi.

Qadrli o’quvchi! Quyida dostonidan olingan parcha e’tiboringizga havola qilinmoqda. Unda Qays va Laylining bog’dagi ilk uchrashuvlari tasvirlangan. Bu uchrashuv ularning botinida pinhon bo’lgan ishq cho’g’ini yolqintatib, ulkan olovga aylantirib yuboradi. Siz ana shu ishq yolqinlanishi jarayonini kuzating, oshiqlik holatini tafakkur qiling, Navoiyning mahoratidan bahramand bo’ling.

...Ashobg<sup>1</sup> mayli lolav-u bog<sup>4</sup>,  
Ul ikki<sup>2</sup> ichinda loladek dog<sup>3</sup>.

Ashobg<sup>1</sup> a g’uncha sori ohang,  
Bu ikki nechukki g’uncha diltang.

<sup>1</sup> Ashob — sulibaldoşlar. <sup>2</sup> “Ul ikki” deganda Layli bilan Majnun ko’zda tutilgan.

Ishq ichra necha yetib maloli,  
Mahvash qilur erdi zabit holi.

Bedilg'a<sup>1</sup> bu hifz<sup>2</sup> mushkil erdi.  
Kim, bush ilä aqli zoysi<sup>3</sup> erdi.

El har neki so'rsa, fahm qilmay,  
Fahm etsa, javob derni bilmay.

Ishqin necha aylamay debon fosh,  
Andin ajab amrlar urib bosh.

Gah so'zidin oqib ashik nogoh,  
Gohi chekib ixtiyorsiz oh.

...Boqay desa, dog'i quvvati yo'q,  
Boqmay desa, dog'i toqati yo'q.

Ko'z uehi bila boqib chu gohi,  
Jondin chekib andoq o'tlug' ohi.

Kim, bog' yuzin xazone aylab,  
Ko'k bargini za'farone aylab.

Mahvash qilibon nazora nogah,  
Bo'hmoqqa aning o'tidin ogah.

...Bog' erdi vasi'-vu<sup>4</sup> xalq — soyir',  
Ashjor<sup>5</sup> g'ulusi elga sotir'.

Atfol<sup>6</sup> bo'lub o'yung'a mash'uf<sup>7</sup>,  
Sarvi gul o'lub alarg'a ma'luf<sup>8</sup>.

Sayr ichra yetishti mohi dillxoh<sup>9</sup>,  
Bir gul chamani ichiga nogoh.

Gulbun<sup>12</sup> bila rust to'rt yoni,  
Kirsa kishi kinusa topinay oni.

<sup>1</sup> "Bedil" — "dilsiz", ya'nı hirovgə oshuslu Majnun ko'zla tutilgan. <sup>2</sup> Hifz — saqlash, qo'rqlash.

<sup>3</sup> Zoyil — yo'qoladigan, yo'q bo'luehli. <sup>4</sup> Vasi' — keng. <sup>5</sup> Soyir — sayr etuehli. <sup>6</sup> Ashjor — daraxtlar, og'eohlar. <sup>7</sup> Sotir — Berkituehli, yashiruehli. <sup>8</sup> Atfol — bolalar. <sup>9</sup> Mash'uf — maftun, shod. <sup>10</sup> Ma'luf — ulfat. <sup>11</sup> Dillxoh — dil istovehli, mohi dillxoh — Ko'ngil istagan oy, bu yerda Layli ko'zda tutilgan.

<sup>12</sup> Gulbun — gul butasi.

Kirgach anga ul shugufta<sup>1</sup> gulzor,  
Ko'rdi tikan ichra bulbuli zor.

Kirmish edi anda Qays g'ammok,  
Gul yanglig<sup>2</sup> etib yaqosin chok.

O'z holig'a zor yig'lar erdi,  
Besabr-u qaror yig'lar erdi.

Og'zida taronayi firoqe  
Kim, yor yetishti ittifoqe.

Chun bulbulining guli shugufta,  
Topti bori xalqdin nuhufsta<sup>2</sup>.

Har necha yo'q erdi so'zga tobi,  
Ko'nglida ko'p erdi iztirobi.

Yo'q erdi guziri<sup>3</sup> necha so'zdin.  
Borg'uncha o'lub deguncha o'zdin.

Bunyod etti hijob<sup>4</sup> birla,  
Bal xijlati<sup>5</sup> behisob birla:

“K-ey turfa yigit, ne holating bor?  
Ne nav' g'am-u malolating bor?

Kim, shodlig'ing yo'q o'zgalardek,  
Obodlig'ing yo'q o'zgalardek?

Ashobg'a mayli bog'i gulzor,  
Ham lan sanga resh-u<sup>6</sup> ham ko'ngul zor.

Bu damki esib nasimi navro'z,  
Gul atrini qildi majlisafro'z.

Bu faslda azmi gulshan etgay,  
Bo'ston haramini maskan elgay.

Bor oning uchunki, shod bo'lg'ay,  
Har bandig'a bir kushod bo'lg'ay.

<sup>1</sup> Shugufta — ochilgan. <sup>2</sup> Nuhufsta — yashirin. <sup>3</sup> Guzir — chor, iloj, qutilish. <sup>4</sup> Hijob — pard; ma'jozan yavat, yavalish. <sup>5</sup> Xijlat — xijolatlilik, yavalish. <sup>6</sup> Resh — yara, jarohat; bu yerda hasrat, g'anginlik ma'nosida.

Sen nola qilib, g'amin nedin sen,  
Ashking oqizib, hazin nedin sen?

Ishrat chog'i mehnating ne ya'ni,  
Sho'robayi hasrating ne ya'ni?

Bu g'am sanga qaydin o'ldi hodis,  
Kim bo'ldi bu shiddatingg'a bois?"

Boyisni chu so'rdi ul dilafro'z,  
Bedil chekibon bir ohi jonso'z!.

Shirin so'zidin bo'lub edi lol,  
Qon yosh ila yuzga yozdi ahvol.

Yo'q, yo'qki, zaboni hol birla,  
Sharh ayladi bu maqol birla:

"K-ey jonima hayrat o'ti solg'an,  
Ko'nglumni burun nazarda olg'an".

Avvalki jamolidin sochib barq',  
O't iehr va vujudum aylagan g'arq.

Zulf ochniq ilo olib qarorim,  
Qilg'an qaro ro'z ro'zg'orim.

Avvalki fasona zohir elgan,  
Ko'nglumning ishini oxir elgan.

Qilg'anni yoshyurmog'ing ne erdi?  
Medin yana so'rmog'ing ne erdi?

Sendin yetibon bu shiddat oxir,  
Kimga toqayin bu tuhmamat oxir?!

Ko'nglumning olmishang nihoni,  
Sendin ola olmog'um xud oni.

Jonimniki o'rtading bas erdi,  
Tonmoq bu sifat kerakmas erdi.

<sup>1</sup> Jonso'z — jonkuyar.

<sup>2</sup> Misuning ma'nosi: qarashdayoq olgan, mubtalo qitgan. <sup>3</sup> Barq — chaqmoq.

O't uzra ne erdi quymog'ing yog<sup>1</sup>?  
Kuyganga ne erdi qo'yinog'ing dog<sup>2</sup>?"

Tufroq uza bo'ldi ul sifat past  
Kim, yerdagilarga bo'ldi hamdast.

Qo'ynig'a olib nigor boshin,  
Sochib ko'zidin yuziga yoshin.

Beliushg'a aylab iztirobe,  
Ihardam yuziga urub gulobe.

O'Iturgeniga o'zi yebon g'am,  
Yig'lab tutar erdi bo'yla motam.

Istab ani bir-iki dilorom,  
Ul voqe ichra qo'yidilar gom<sup>3</sup>.

Gar zulf ila mushkbez<sup>2</sup> edilar,  
Ikkisi anga kaniz edilar.

Ko'zlariga dahr o'lub qarong'u,  
Qo'rquq dedilar: "Ne hol erur bu?"

Mahvash ishidin chu pardal qo'pti<sup>4</sup>,  
Ikkisining ollida yer o'pti.

Ul ish neki voqe' o'ldi bexost,  
Bir-bir dedi ul ikisiga rost.

Dahr etti chu sirin oshkora,  
Yig'lab tiladi g'amiga chora.

Bor erdi birisi dardparvard,  
Filhol sanamg'a bo'ldi hamdard.

Dedi: "Yema g'amki, bok emastur  
Kim, ishq o'tidin halok emastur.

Sen qo'pg'il-u, bizga topshur oni,  
Azin ayla qabilag'a ravoni.

<sup>1</sup> Gom — qadam. <sup>2</sup> Mushkbez — Yoqimli mushk lidini sochuvchi. <sup>3</sup> Qo'pmoq — ko'torilmoq, o'rindan turmoq.

To bo'imasun el bu ishdin ogoh,  
Biz fikr etali nechukki dilxoh".

Mahvash ul ikov degandek etti,  
Ko'nglin qo'yub anda evga<sup>1</sup> ketti...



### Savol va topshiriqlar

1. **"Ashobg'a mayli lolavi bog', Ul ikki ichinda loladek dog"** baytida sevishganlar va ularning suhbатdoshlari holatidagi tasovutning sababini tushuntiring.
2. **"Bedilg'a bu hifz mushkil erdi, Kim, hush ila aqli zoil erdi"** va undan keyingi baytlarda Majnun ruhiyatida yuz bergan o'zgarishlar sababini sharhlang.
3. Oshiq ruhidagi o'zgarish uning jismoniy holatiga ta'sir etган o'rirlarni toping. Siz bunday holni qanday izohlaysiz?
4. Laylining Majnum holatiga munosabati tasvirlangan misralarni belgilang. Uning o'zida ham o'zgarish yuz berayotgannimi?
5. Sevishganlar yolg'iz uehrashib, so'zlashgan joyni ta'riflab bering.
6. Qizning yigitga murojaatini qayta ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering. Layli nutqiga xos nazokatni ifodalashdagi Navoiy mahoratini kuzating.
7. **"Avvalki jamolidin sochib barq, O't ichra vujudum aylagan g'arq"** misralaridagi istioraviy ifodani tahlil qiling.
8. Qaysning javobidagi mazmun va ohangni ilg'ashga urining va izohlang.
9. Qaysning behush bo'lishi hamda Laylining unga munosabati tasvirini tahlil qiling.
10. Laylining o'z kanizlari oldida yer o'pishi sababini qanday izohlaysiz?



### "SAB'AI SAYYOR" DOSTONI

Ishqiy — sarguzasht qissa bo'lmish "Sab'ai sayyor" yetti iqlim shahanshoji Bahrom taqdiri mavzusini yoritadi. U qulon (go'r) oviga haddan tashqari ruju qo'yanligi uchun Sharq adabiyotida Bahrom go'r nomi bilan mashhurdir. Jahongashta Moniydan Diloromning daragini eshitadi, u chizgan rasmdan ko'rib, qizga oshiqi beqaror bo'ladi. Xitooning bir yillik xirojini to'lab, go'zalni saroya keltiradi va aysh-ishratga beriladi. Bir kuni ovda kishi aqlini lol qoldiradigan darajada menganlik mahorati va san'atini ko'rsatadi. O'z ishidan xushlangan shoh yori Diloromdan maqtov, olqish kutadi. U esa xotirjam holda: "Bu mahorat mashqning natijasi", — deydi. Kutganidan zid munosabatni ko'rgan Bahrom maslik va g'azab ichida uni o'limga — uzun sochlariiga

<sup>1</sup> Ev — uy.



*oyoq-qo'lini bog'lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi kuni g'azab va mastligi tarqab, yorini izlaydi. Uni topolmagach, izardirogga, tushkunlikka tushadi, uzlatga beriladi. Hakimlar maslahatiga ko'ra yetti rangda yetti qasr quriladi. Shoh haftaning har bir kunini qasrlarning birida o'tkazadi. Har tun bir iqlimdan kelgan musofirdan hikoyalar tinglaydi: shanba kuni qora qasrda Farrux va saxiy Axiy hikoyasini, yakshanba kuni Zayd Zahhob sarguzashtini sariq qasrda, uchinchi hikoya bo'lmish Sa'd jasoratini dushanba kuni yashil qasrda, shoh Jo'na va saxiy Mas'ud hikoyasini seshanba kuni gulgun qasrda, moviy qasrda aytilgan beshinchi Mehr va Suhayl qissasini chorshanba kuni tinglaydi. Nihoyat, juma kuni oq qasrda Xorazmdan kelgan musofirdan yettinchi hikoyani tinglaydi va Diloromning daragini eshitadi. Ular qayta topishadilar. Bahrom Dilorom va saroy ahlini olib ovga chiqadi. Ovda juda ko'p qush va jonivorlar qoni to'kiladi. Natijada, bir vaqlar qurigan botqoq ko'zi qayta ochiladi va hammalarini yer yutadi.*

*Navoiy Bahrom obraziga juda katta ma'no-mazmun yuklagan. Uning timsolida oshiqlik va shohlikning bir tanga sig'masligini ko'rsatgan. Bahrom oshiq bo'lgach, mamlakatni unutdi. Shohga xos maqtov, xushomadni istaganida esa ishq ko'ziga ko'rinnmay qoldi.*

*Navoiy asar voqealarini, hatto hikoyalarini o'z vatani bo'lmish Xuroson, Movarounnahr hayoti bilan bog'lashga harakat qilgan. Shahrisabz, Xorazm haqida maxsus hikoyalar kiritgan. Shuningdek, bu mashhur qissaga turkona ruh berdi. Bahrom munosabati bilan o'z zamonasi masalalarini qo'zg'agan. Quyida dostonidan kichik bir parcha berilmoqda.*

Shahig'akim, bo'lmish erdi oshiq-u mast,  
Bul'ajab<sup>1</sup> iki ish berib edi das<sup>2</sup>.

Shah chu ul lahvy<sup>3</sup> ila bo'lub mash'uf,  
Ishidin topmas erdi hech vuquf<sup>4</sup>.

Mulk<sup>5</sup> ishi zabtu rabtsiz<sup>6</sup> bo'ldi,  
Saltanat amri zabtsiz bo'ldi.

Qilmadi shah chu dodxohni<sup>7</sup> yod,  
El ilik sundi<sup>8</sup> qilg'ali bedod.

Mulk chun shoh adlidin qoldi,  
Qildi har kim nekim qila oldi.

<sup>1</sup> Bu'ljab — eng qiziq, ajoyib. <sup>2</sup> Dasl bermoq — muyassar bo'lmox, erishmoq, hosil bo'lmox. <sup>3</sup> Lahiv — o'yin-kulgi, beforeydin ish. <sup>4</sup> Vuquf — voqiflik, xabarlorlik. <sup>5</sup> Mulk — mamlakat. <sup>6</sup> Zabtu rabt — tartibni mahkam tolish va intizom. <sup>7</sup> Dodxohni — urz-dodga keluvchi. <sup>8</sup> Sunmoq — cho'zmox; ilik sundi — qo'l cho'zli.

Ham qaroqchi uzotti har sori qo'1  
Band bo'ldi ular qo'lidin yo'1.

Chekti g'avg'o baland bodaparast,  
Bo'ldi mu'zin<sup>1</sup> bila imom uni past.

Qurtdek bo'ri birla to'ldi yobon,  
Dema qo'y, balki tu'ma<sup>2</sup> bo'ldi shubon.

Bir necha mahramne tilab xilvat,  
Qildilar arz shahg'a bu holat.

Ki, xaloyiqda qiy-l-u qol<sup>3</sup> nedur,  
Mulk birla ulusqa hol nedur.

Shah chu bildi, taammul etti base,  
Ishga chora taxayyul<sup>4</sup> etti base.

Lek oshiq ishiga ne chora,  
Ishq etar ul elni bechora.

Ne ul oysiz<sup>5</sup> anga qaror erdi,  
Ne iliginda ixtiyor erdi.

Bildikim, mulk ishi xarob o'lmish,  
Mulk ecli holi iztirob o'lmish.

Ishqdin garchi xasta hol erdi,  
Lek ko'nglida bu xayol erdi.

Ki, ne nav' ishga aylagay tadbir  
Ki, bu tavrig<sup>6</sup>a<sup>6</sup> aylagay tag'yir<sup>7</sup>.

Mulqdin yo'q guzir<sup>8</sup> anga hosil,  
Yordin xud guzir erur mushkil.

Lek ko'ngli chu behuzur erdi,  
Anda har lahza bu xutur<sup>9</sup> erdi

Ki: "Agar bo'lsa shohlig' boqi,  
Topilur buyla<sup>10</sup> mahvash<sup>11</sup> soqi<sup>12</sup>.

<sup>1</sup> Mu'zin — muazzin, azon aytuvechi. <sup>2</sup> Tu'ma' — luqma. <sup>3</sup> Qiyl-u qol — gap-so'z. <sup>4</sup> Taxayyul — xayolga keltirish, xayol qilish. <sup>5</sup> U oy — deganda Dilorom ko'zda tutilgan. <sup>6</sup> Tavr — tarz, ravish, yo'sin. <sup>7</sup> Tag'yir — o'zgarish. <sup>8</sup> Guzir — chora, ikoj, tadbir. <sup>9</sup> Xutur — ko'ngilga kelish, xotirga kelish. <sup>10</sup> Buyla — bunday. <sup>11</sup> Mahvash — oydek qiz, bu yerda Dilorom ko'zda tutilgan. <sup>12</sup> Soq — tana, jism.



Buki vaslini topmisham payvast,  
Shahlig' o'lmasa bermas erdi dasi?"

Mulk eli bo'lmasa, ne ul<sup>1</sup> bordur,  
Ne tiriklik uyiga yo'l bordur.

Lek to bo'lg'usidur ul mavjud,  
Ne aning g'ayridur erur nobud.

Ikkisini kim desa qiloyin jam',  
Shusha muzdin<sup>2</sup> degay yasoymen sham'.

Ko'ngli chun mulk ila xizona tilab,  
Ishq etgali bahona tilab.

Ishq ila shohlig<sup>3</sup> muvosiq emas,  
Ishq losida shoh sodiq emas.

Ishq uchun bedili kerak foni<sup>4</sup>,  
O'rtagan shavq shu'lasi oni.

Jon berib yori muddaosi uchun,  
Balki yuz jon aning rizosi uchun.

Vaqf etib<sup>5</sup> dilbarig'a jon mulkin,  
Sadqa aylab iki jahon mulkin.

Shohkim mulk ocharni qilsa nasaq<sup>6</sup>,  
Yuz tuman qon to'kar bari nohaq.

Oshiq o'lg'aniki, kechmagay jondin,  
Ishq behad yiroq durur ondin.

Shoh, alqissa, bu taxayyul ila,  
Aysq aylar edi taammul<sup>7</sup> ila.

Ishi doyim shikor<sup>8</sup> birla edi,  
Chopmog'i o'z qarori birla edi.

<sup>1</sup> "Ul" deganda Dilorom ko'zda tutilgan. <sup>2</sup> G'ayr — boshqa. <sup>3</sup> Shusha muz — shishadek muz, yax.  
<sup>4</sup> Foni(y) — yo'q bo'luechi; busuvvufda so'fiylikning fano maqomiga erishigan kishi; bu dunyodan kechgan odam. <sup>5</sup> Vaqf etmoq — madrasa yu masjidlar uchun belgilab qo'yilgan mol-mulk; bu yerda jon mulkini yoriga vaqf etish haqidagi gap borgani. <sup>6</sup> Nasaq — tartib, intizom, qolda. <sup>7</sup> Taammul — teran o'yash, kamoli diqqat bilan fikrlash. <sup>8</sup> Shikor — ov.

Ichibon yor ilgidin mayi nob<sup>1</sup>,  
Saltanat fikridin vale xunob.

Bir kun ov ichra shoh edi sarkush,  
Yonida erdi ul buti mahvash<sup>2</sup>.

Ko'rdi ra'no g'azoli chobukxez<sup>3</sup>,  
Sur'ati ko'k g'azoli yanglig<sup>4</sup> tez.

Shah o'q olmoqqa o'yla qodir edi,  
Sayd urmoqqa o'yla molhir edi.

Kim, ne nav' o'lsa elga rag'bat-u tav<sup>5</sup>,  
O'lturur erdi saydni ul nav'.

Qay tukin saydning nishona qilib,  
O'qi ul yerni oshyona qilib.

Dedi gulruxqa: “K-ey pari tal'at!  
Bu g'azoleki, ko'rguzur sur'at,

Ne yeriga desang, xadang urayin,  
Ul sisatkim buyursang, o'lturayin”.

Sho'xning tab'ida chu diqqat edi,  
Ramz ila nuktayi daqiq<sup>6</sup> dedi.

Ki: “Burun sol iki qo'lig'a shikol',  
O'ylakim turg'ay o'z yerida g'azol.

So'ngra olmoqqa yaxshi ko'zla ani,  
Ham yiroqtin turub bo'g'uzla ani”.

Shah chu bildi sanam tamannosin<sup>8</sup>,  
Topti filhol aning muammosin.

Demadi nozanin hadisin yo'q,  
Chekti ul sadoqdin<sup>9</sup> inichka o'q.

<sup>1</sup> Nob — тоza, tiniq, sof. <sup>2</sup> Buti mahvash — oy yuzli but, oydek sanam; bu yerda Dilorom ko'zla tutilgan. <sup>3</sup> Chobukxez — tez chopadigan, chaqqon. <sup>4</sup> Tav' — mayl, xohish. <sup>5</sup> Tal'at — yuz, bet, ko'rinish, hushn. <sup>6</sup> Nuktayi daqiq — nozik so'z, chiroyli so'z, ma'noli so'z. <sup>7</sup> Shikol — ot yo tuyu oyog'iga solinadigan band; tushov. <sup>8</sup> Tamanno — orzu, istak, niyat, tilak. <sup>9</sup> Sadoq — o'q-yoy xaltasi, o'qdon.

Sayd sori chekib darang<sup>1</sup> bila,  
Tikti ikki qo'lin xadang bila.

Kim, ul o'q o'tmadi yarosidin,  
Teri birla so'ngak<sup>2</sup> urosidin.

Chunki bo'ldi g'uzol qo'llari band,  
Yoyig'a kaybur<sup>3</sup> ayladi payvand.

Urdi ul nav' bo'g'zig'a oni  
Ki, kesildi-yu oqti ham qoni.

Ne xayoleki aylab erdi moh<sup>4</sup>,  
Borisim<sup>5</sup> bajo keturdi shoh.

Qildi bir ishki kimsa bermas yod,  
Kimsa yo'qkim, sipehri ko'hna nihod<sup>6</sup>.

Shah chu ko'rguzdi ishda bu oyin,  
Tama' etti nigoridin tahsin.

Anga chun husndin bor erdi g'ino<sup>7</sup>,  
Keldi husn iqtizosi<sup>8</sup> istig'no<sup>9</sup>.

Shah duosig'a chekmadi tilini,  
O'pmadi shohi komron<sup>10</sup> alini<sup>11</sup>.

Dedi: "Har kim bir ishni varzish<sup>12</sup> etar,  
Ish kamolini ko'r, ne yerga yetar!"

Demadi shohniki: "Etting xo'b",  
Ishni idmong'a<sup>13</sup> ayladi mansub.

Sho'x bu nukta aylagach taqrir<sup>14</sup>  
Shah mizojig'a topti yo'l tag'yir<sup>15</sup>.

Qoshining yosi uzra soldi girih<sup>16</sup>  
Kim, pari chehradin eshitmadi zih<sup>17</sup>.

<sup>1</sup> Darung — sekinlik. <sup>2</sup> So'ngak — suyak. <sup>3</sup> Kaybur — keng enlik kamon o'qi. <sup>4</sup> Moh — oy; bu yerda Dilorom ko'zla tutilgan. <sup>5</sup> Nihod — tuzilish; sipehri ko'hna nihod — eskidun mayjud osmon (falak). <sup>6</sup> G'ino — boylik. <sup>7</sup> Iqtizo — taqozo. <sup>8</sup> Istig'no — boshqularga muhtoj emaslik; takabburilik. <sup>9</sup> Komron — o'z maqsadiga erishgan; hukmdor. <sup>10</sup> Al — yo'l. <sup>11</sup> Varzish — mashiq, ko'nikma. <sup>12</sup> Idmon — mashiq, bir ishni doimiy tukrorlab turish, bajarish. <sup>13</sup> Taqrir — qaror berish, aytish. <sup>14</sup> Tag'yir — o'zgartirish, o'zgarish. <sup>15</sup> Girih — tugun, chigal. <sup>16</sup> Zih — maqtov, tahsin.

Sho'x ko'rdiki shah itob etti<sup>1</sup>,  
Dedi isloh etay, xarob etti.

Dedikim: "Shahg'a ne itobdurur  
Kün, bu so'zkiim dedim — savobdurur.

Menki, bir nag'masoz qilsam chang.  
Ruh chiqmoq sari qilur ohang.

Yo'q edi bu muloyamat<sup>2</sup> birla.  
Muncha yetti mudovamat<sup>3</sup> birla.

Shohkim, bir kiyikka urdi xadang,  
Desam idmonni, ishga keldi batang<sup>4</sup>.

Shahki ismo'i<sup>5</sup> bu maqol etti,  
G'azabi o'ti ishti'ol<sup>6</sup> etti.

Ikki qattiq hadis eshitti ajab,  
Ixtiyorin ilikdin oldi g'azab.

Shohkim qahri o'lse mustavli<sup>7</sup>,  
Ul diyor ichra bo'lmamoq avli<sup>8</sup>.

Saltanat g'ayrati chu zo'r etti,  
Lutfu ehson ko'zini ko'r etti.

Istadi qatl aylamak oni,  
Kesmok ozod sarvi ra'noni.

Dedi ba'zi: "Bu nav' dilkash emas,  
Zuafo<sup>9</sup> qatli tig' ila xush emas".

Dedikim, necha xorij andesha,  
Qatl alarg'a hunar nekim pesha.

Mahddin oyni chiqordilar<sup>10</sup>.  
Bir biyobong'a elta bordilar.

<sup>1</sup> Itob etmoq — qalir qilmoq, g'azab qilmoq. <sup>2</sup> Muloyamat — muloyimlik, uyg'unlik, muvofiglik.

<sup>3</sup> Mudovamat — davom ettirish, uzlusiz ishlash. <sup>4</sup> Batang — tang, sıqiq, tor. <sup>5</sup> Ismo' — eshitirish, eshitish. <sup>6</sup> Ishti'ol etmoq — shu'lalammoq, alangalammoq. <sup>7</sup> Mustavli — istiol etuvchi, zabit etuvechi.

<sup>8</sup> Avli — avlo, yaxshiroq, eng yaxshi. <sup>9</sup> Zuafo — zaiflar, kuchsizlar, zaifalar (ayollar). <sup>10</sup> Misraning ma'nosi: kajuvadan oyni (Diloromni) chiqardilar.

Har giyohi aning nechukkim o'q,  
Davrida necha kunchilik suv yo'q.

Jonivor umrini qilurg'a taboh,  
Butmay anda bag'ayri zahr giyoh.

Ikki gisusidin<sup>1</sup> kamand aylab,  
Tashlidilar g'ulula<sup>2</sup> band aylab.

Gisusikim, ulusqa erdi kamand,  
Oqibat bo'ldi o'z halokiga band.

Yonibon surdilar vatan sori,  
Keldilar shohi javrsan sori.

Shahki, bu dahshat ayladi ul dam,  
Bexud erdi may-u g'azabdin ham.

Ul kun oqshomg'a tegru<sup>3</sup> ichti may,  
G'azabi ortar erdi paydar-pay<sup>4</sup>.

Subh<sup>5</sup> roh<sup>6</sup> istab etti mayli sabuh,  
Yonidin g'oyib erdi rohati ruh<sup>7</sup>.

So'rdikim: "Mohvash qayon ketmish?"  
Bexabarkim, ne shohkor etmish.

Dedilar qilg'anin necha mahram,  
Tiyra bo'ldi anga yorug' olam.

Quyi solib boshini fikr etti,  
Qilg'ani borchha ko'ngliga yetti.

Bildikim, qahr sarsari<sup>8</sup> esmish,  
O'z qo'li birla o'z boshin kesmish.

Dedi: "Ushbu zamou o'zum borayin,  
Ul biyobonni bir-bir oxtarayin."

Qayda bo'lsa, topay nigorimni,  
Qilayin sadqa joni zorimni.

Tirik o'lsa, bo'lay fidosi aning,  
Beribon jon, topay rizosi aning...

<sup>1</sup> Gisu — soch, <sup>2</sup> G'ulula — o'rab chirmalqan, lo'nda qilib, <sup>3</sup> Tegru — ...gachu, ...ga qadar, <sup>4</sup> Paydar-pay — payo-pay, ketmackel, ustuu-ust, <sup>5</sup> Subh — long payti, <sup>6</sup> Roh — may, <sup>7</sup> Rohati ruh — ruhning rohati; Bu yerda istiora Dilorommu anglatlib kelgan, <sup>8</sup> Sarsari — shamol.



## Savol va topshiriqlar

1. Bahromning tinglagan hikoyalarini suab bering. Ilgari ularning qaysi birlari bilan tanishgansiz?
2. “*Mulk ishi zabtu rabtsiz bo’ldi, Saltanat amri zabtsiz bo’ldi*” baytini izohlang. Nima uchun mamlakatda shunday holat vujudga kelganini tushuntiring.
3. “*Ishq ila shohliq muvofiq emas, Ishq lofida shoh sodiq emas*” hukmi nima munosabat bilan aytiganligini tahsil qiling.
4. Ovda Dilorom Bahromdan ohuni qay tarzda otib berishni so’radi? Bahromning bu vazifani qanday ado etganligi tasvirlangan o’rninlarni topib tahsil qiling.
5. Diloromning Bahromi mernaganligiga munosabatini qanday baholaysiz: bepisandlikmi, mahoratning qadriga yetmaslik yoki o’ylamay gapirishlik?
6. Shohning g’azabiga javoban Diloromning mulohazalariga munosabat bildiring. U to’g’ri ish tutdimi?
7. “*Bildikim, qahr sarsari esmish, O’z qo’li birla o’z boshin kesmish*” baytida gap nima haqida ketyapti? Undagi o’xshatishning ma’nosini tushuntiring.
8. G’azab va mastlikda qilib qo’ygan xatosidan chuoqur qayg’uga tushgan Bahromning ruhiy holati tasvirlangan baytharni tahsil qiling.

## “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI

*“Xamsa”ning yakunlovchi dostoni dunyoning mashhur siymolaridan biri jahongir Iskandarga bag’ishlangan. Barcha xamsanavislardan dunyoning katta qismini zabit etgan Aleksandr Makedonskiyni uning prototipi sifatida olishib, jahongirning sharqqa yurishi bilan bog’liq rivoyat, afsonalarga suyangan holda o’z dostonlarini yaratganlar. Lekin badiiy adabiyotdagi Iskandar tarixiy Aleksandr emas. Tarix fanidan olgan bilimlaringiz orqali Sizga ma’lumki, tarixiy Iskandar dunyoni zabit etish maqsadida ko’p joylarda shafqatsiz urushlar olib borgan, qirg’in, vayronaliklarga sabab bo’lgan. Badiiy adabiyotda esa u butunlay boshqa — adolatparvar, donishmand, buyuk insonparvar shaxs.*

*Sharq rivoyat va afsonalarida bu obraz Iskandar Zulqarnayn deb ham ataladi. “Zulqarnayn”so’zining ikki ma’nosи bor: birinchi ma’nosи shoxli (boshida muguzi bor) bo’lsa, ikkinchi ma’nosи — kun chiqish va kun botish hukmdori degani.*

*“Saddi Iskandariy” dostoni Navoiy “Xamsa”sidagi hajm jihatdan eng katta asardir. U 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Shoир dostoniga qo’l urar ekan, Iskandar tarixini yozishni maqsad qilgan emas, balki Iskandar bilan*

bog'liq voqealar mohiyatini o'z o'quvchisiga ochib berishni niyat qiladi. Asarning nomlanishi ham undagi bir lavha bilan bog'liq. Ko'p mamlakatlarni olib, u yerlarda tinchlik, osoyishtalik, adolat o'rnatgan Iskandar, o'z yo'lida odamlarga musibat yetkazayotgan vahshiyarlarni mahv qilib, qo'shini bilan Qirvon o'lkasiga keladi. O'lka nihoyatda xarob bo'lib, aholi odamxo'r ya juj-ma'jujlardan aziyat chekar ekan. U yerdagi odamlarning iltimosiga ko'ra Iskandar Qof tog'ida yashovchi bu vahshiyrlarning yo'lini to'sib devor qurdiradi. Devor fors tilida "sad" deyiladi. Shuning uchun bu devorni Saddi Iskandariy — Iskandar devori deb ataydilar. Ramziy ma'noda esa u ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi devordir. Uni bino qilishda turli mamlakat xalqlari, jumladan, movarounnahrliklar, rumliklar, forslar, xitoylar, hindular, ruslar, faranglar va boshqalar qatnashadilar. Xalqlar do'stligi va ittifoqligi insoniyatning ashaddiy dushmani timsoli bo'lgan ya juj-ma'jujlarni mahv etadi. Iskandar o'zining odilona va oqilonona siyosati bilan xalqlar do'stligini mustahkamlaydi.

Dostondan olinib, e'tiboringizga havola qilinayotgan parchada Iskandar oqil siyosatchi, odil shoh hamda tanti inson sifatida tasvirlangan.

*Iskandar bila ul gadolig<sup>1</sup> ixtiyor etgan podsho, balki, filhaqiqat, podsholikka yetgan gado hikoyatikim, Iskandar ani mazzallat chohidin<sup>2</sup> chiqarib saltanat koxig'a<sup>3</sup> o'lurtmoq istadi va ul toj tarkin qilib, boshidin tark toji xayolin chiqarmadi.*

Eshittimki, Iskandari nomdor,  
Chu bo'ldi jahon ahlig'a komgor<sup>4</sup>.

Ne kishvarki, bo'ldi musaxxar<sup>5</sup> anga,  
Mute o'ldi doroyi kishvar<sup>6</sup> anga.

Hamul shahni kishvarg'a shoh ayladi,  
Hamul elga kishvarpanoh ayladi.

Shah-u mulkdin ko'ngli ting'ach tamom,  
Yana mulk azmig'a qildi xirom.

Magar fath bo'lg'anда Mag'ribzamin<sup>7</sup>,  
Shahi zohir aylab edi qatl-u kin.

Chu razin o'ti bo'l mish edi bartaraf,  
Shah o'l mish edi razm ichinda talaf<sup>8</sup>.

<sup>1</sup> Mazzallat chohi — xo'rlik (turbanlik) chuquri (qudug'i). <sup>2</sup> Kox — yuksak bino, qasr, saroy.

<sup>3</sup> Komgor — baxtli, qudratli; bu yerda hukmdor ma'nosida. <sup>4</sup> Musaxxar bo'lmoq — bosib olinmoq, qaram bo'lmoq. <sup>5</sup> Kishvar — mamlakat, o'lka. <sup>6</sup> Mag'ribzamin — g'arb mamlakallari. <sup>7</sup> Talaf — nobud, halok.

Skandar chu fahm etti xasmin<sup>1</sup> qatil<sup>2</sup>,  
Anga mulki ichra tilatti adil.

Dedikim: “Bu kishvar salotinidin,  
Xabarliq jahonbonliq oyinidin.

Qolibmu ekin bir aningdek kishi  
Ki, qilsam ruju’ anga bu mulk ishi.

Ani elga shoh aylasami mustaqil  
Ki, mulk o’zgaga bo’lmasa muntaqil<sup>3</sup>”.

Dedilar xaloyiq duo aylabon,  
Hadisig<sup>4</sup>a<sup>5</sup> jonlar fido aylabon.

Ki: “Ofoq aro sarsaroz<sup>6</sup> o’lg’asen,  
Hamisha raiyatnavoz<sup>7</sup> o’lg’asen.

Bu yanglig<sup>8</sup> kishikim qilursen so’rog<sup>9</sup>  
Ki, andin raiyatqa yetgay farog<sup>10</sup>.

Vale xalq ichidin firor aylamish<sup>11</sup>,  
Ajab nav’ ish ixtiyor aylamish:

Tiriklar arosig<sup>12</sup>a qilmas ubur<sup>13</sup>,  
Matof<sup>14</sup> emas, g’ayri — eski qubur<sup>15</sup>.

Hamono tiriklarda ko’rmay vafo,  
Qubur ahlig<sup>16</sup>a aylamish iktifo.

Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,  
Bo’lub tarki toji bila baxtiyor.

Kishi birla yo’q mutlaqo ulfati,  
Bo’lub xalq g’avg’osidin kulfati.

So’z ichra bu taqrrib<sup>17</sup> tartib etar  
Ki, elni fano sori targ’ib etar!”

Skandar eshitgach, dedikim: “Yurung,  
Ani, qayda bo’lsa, topib kelturung!”

<sup>1</sup> Xasm — dushman, raqib, muxolif. <sup>2</sup> Qatil — o’ldirilgan, so’yilgan. <sup>3</sup> Muntaqil — o’tuvechi, ko’chuvchi. <sup>4</sup> Hadis — so’z. <sup>5</sup> Sarsaroz — haland, yuksak, hammadan ustun. <sup>6</sup> Raiyatnavoz — xalqparvar, fuqaroparvar. <sup>7</sup> Firor aylamoq — qochmoq. <sup>8</sup> Ubur — o’tish, yurib o’tish. <sup>9</sup> Matof — tavol (aylanib, ziyyarat) etiladigan yer. <sup>10</sup> Qubur — qabrular, go’rlar. <sup>11</sup> Taqrrib — yaqinlashtirish, yaqinlik, taxmin.

Ravon hukm ila har taraf surdilar,  
Topib, shah bazning'a yetkurdilar.

Yalang erdi boshi, ayog'i — yalang.  
Yaqo chokidin ko'ksi dog'i yalang.

Jahon shug'li gardiga silkib etak,  
Tutub ikki ilgiga ikki so'ngak.

Skandar anga ehtirom ayladi,  
O'z ollinda oliv maqom ayladi.

Dedi: "Bu so'ngaklardin afsona ayl,  
Ne so'rsam, javobin aning yona ayl!"

Dedi: "Go'rlardin qilurda guzar,  
Necha bu so'ngaklarga soldim nazar.

Zamiring'a lekin nihon qoldi bu  
Ki, shalming qayudur, gadoning qayu?

Chu o'lganda birdur bu ikki mato',  
Tiriklikda nevehun qilurlar nizo'?"

Kelib bu kaloni Skandurga xush,  
Dedi: "K-ey zabonovari<sup>1</sup> borkash<sup>2</sup>.

Seni toptim asru biyik nuktalik,  
Agar bor esa himmatning ham biyik.

Seni kishvaringda qilay arjumand<sup>3</sup>,  
Berib shohlig', poyang<sup>4</sup> aylay baland".

Dedi: "Himmat o'linish manga hamnishast<sup>5</sup>,  
Sen istardek ermas, vale asru past.

Ki, tark aylabon faqr sarmoyasin<sup>6</sup>,  
Pisand etgamen shohlig' poyasin?

Emas rub'i maskunga<sup>7</sup> rag'bat manga,  
Tilar to'rt sarmoya himmat manga:

Biri andin o'ldi hayoti abad,  
Ki, yo'qtur aning intihosig'a had.

<sup>1</sup> Zabonovar — gapdon, so'znom, so'zga chechan. <sup>2</sup> Borkash — yuk tashuvchi. <sup>3</sup> Arjumand — uziz, izzatl, obro'li. <sup>4</sup> Poya — oyoq; mortuba. <sup>5</sup> Hammishast — sherik, birga o'tiradigan. <sup>6</sup> Sarmoya — asosiy moyta, mama, asos, boylik. <sup>7</sup> Rub'i maskun — yerning to'rtadan biri; yer yuzining inson yuslavdigiga (obod) maskani.

Yana bir: yigitlikki, topmay xalal,  
Qariliq bila bo'lnag'ay ul badal.

Yana bir: g'inoyi muabbaddurur<sup>1</sup>  
Ki, olinda iflosg'a raddurur.

Yana: shodlig'kim yo'q oning g'ani,  
Adam<sup>2</sup> bo'lg'ay ul surning<sup>3</sup> motamî".

Skandarni layrat zabun aylabon,  
Dedi bosh uyotdin nigun<sup>4</sup> aylabon.

Ki: Bu dayr aro topsang ogohliq,  
Senga faqr berdi, manga shohliq.

Agarehi meni ayladi arjumand,  
Sanga berdi himmatni mendin baland".

Gadoleyki, bo'lg'ay biyik himmati,  
Anga past erur shohlig' rif'ati<sup>5</sup>...




## Savol va topshiriqlar

1. O'tmishdag'i va badiiy adabiyotdag'i Iskandarni solishtirib, tarixiy va badiiy haqiqat to'g'risida fikr yuriting.
2. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan ko'zlagan maqsadi va Iskandar obrazi vositasidagi orzusi nimalardan iborat edi?
3. Mag'ribzaminda xalq taxtga loyiq deb bilgan kishining ajib tabiatи, se'li bayon etilgan satrlarni toping va sharhlang.
4. "Boshi toj tarkin qilib ixtiyor, Bo'lib toj tarki bila baxtiyor" baytini izohlang. Bu misralar tavsiflonayolgan kishining xarakteri va dunyoqarashidagi qaysi qirralarni namoyon qiladi?
5. Tarkidunyo qilgan darvesh shohning oldiga o'zi bilan olib kelgan so'ngaklarni qanday izohladи?
6. Iskandarning darveshga qilgan taklifi va darveshning javobi berilgan baytlarni toping va tabhil qiling. Darveshning shohga qo'ygan to'rt shartini izohlang.
7. Darvesh so'zlarini eshitgan shohning umga javoban aytganlarini tabhil qiling. U darveshni qaysi jihatdan o'zidan ustun bildi? Nima uchun?
8. "Gadoleyki, bo'lg'ay biyik himmati, Anga past erur shohlik rif'ati" baytini matn mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

<sup>1</sup> G'inoyi muabbad — ababiy boylik. <sup>2</sup> Adam — yo'qlik. <sup>3</sup> Sur — shodlik, bazu. <sup>4</sup> Nigun — egilgan. <sup>5</sup> Rif'at — yuksaklik, baland martaba.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483 — 1530)



Bobur dunyoni bayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishunand tarixchi, zakovatli olim va tarjimonidir. Ayni paytda u adabiyotimizning Navoiydan keyingi zabardast vakili hisoblanadi.

**Hayot yo'li.** Bobur 1483- yili Farg'on'a viloyatining poytaxti Andijonda tug'ilgan. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo Amir Temurga to'rtinchi avlod — evara edi. Onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi Yunusxon esa o'n ikki avlod bilan Chingizxonga ulanardi. Ko'rindiki, Bobur insouiyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning eng mashhur shaxslaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayoti o'spirinlikdan to unuring oxirigacha jang-u jadallar, sarson-sargashtalik, zafar va mag'lubiyat, ijod-u bunnyodkorlik ichida kechdi.

1494- yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning o'z akasi — Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo hamda qaynog'asi Toshkent hokimi Mahmudxon o'zaro til biriktirgan holda qo'shin tortib, Farg'onaga yurish qiladilar. Niroyatda qaltis vaziyat vujudga keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat yuz beradi: Andijonning g'arb tomonidagi jar yoqasida bino bo'lgan Aksi qo'rg'onida turgan Umarshayx Mirzo kabutarxonasi bilan jarga qulab, halok bo'ladi. Umarshayxdan uch o'g'il va besh qiz qolgandi. O'g'illarining kattasi — 12 yoshga qadam qo'ygan Bobur taomil bo'yicha taxtga o'tiradi. O'ratega, Xo'jand va Marg'ilonni qo'lga olib Quvaga kirgan Sulton Ahmad qo'shini shaharni kesib o'tuvechi Qorasuv ko'prigida toshqingga uchrab, tuya va ottari botqoq suvg'a cho'kib, ko'pi nobud bo'ladi. Ustiga-ustak o'lat tarqaladi. Qo'shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad sull tuzib ortga qaytadi va yo'lda vasot etadi. Sulton Mahmud ham Axsini bir muddat qamal qilib ololmay, ketishga majbur bo'ladi. Sharoldanib qolmoqchi bo'lgan Koshg'ar va Xo'tan hokimi Abobakr Do'g'latning ham O'zgand yaqinidagi harakatlariga chek qo'yiladi. "Boburnoma"ning aynan shu voqealarga



ishora qilib "Tengri taoloning inoyati..." so'zları bilan boshlanishi bejiz emasdi. Bobur 1497- yili 15 yoshida sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan Samarqand shahrini egallaydi. Lekin moddiy tanqislik, qaltis siyosiy vaziyat tufayli bu shahri azimni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Andijonda xiyonat yuz bergandi. Bobur ishongan beklar taxtga ukasi Jahongir mirzoni o'tqizmoqchi bo'ladilar. Ikki yil sargardonlikdan so'ng katta marshaqqatlar bilan Andijon qeytarib olimadi. 1500-yilda Bobur Samarqandni jangsiz osonlik bilan qo'lga kiritadi. Lekin Shayboniyxon yaqinlashib kelayotganligi uchun kuch toplash maqsadida Shahrisabzga jo'naydi. Shunda Shayboniyxon Sultan Ali mirzonining onasi Zuhrabegimni unga uylanish va'dasi bilan aldab, shaharni egallaydi.

1501- yili Bobur 240 nafar navkari bilan yetti mingga yaqin qo'shini bo'lgan tajribali shoh Shayboniydan Samarqandni tortib olishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p o'tmay Shayboniyxon shaharni qamal qildi va u uzoq davom etdi. Bir tomonidan shahar ichidagi ochlik, ikkinchi tomonidan qarindoshlari bo'lmish boshqa temuriylardan madad kelmagani yosh hukmdorui og'ir bo'lsa-da bir qarorga kelishga undadi. U yana Samarqandni tashlab ketishga, nafaqat Samarqandni, jondan aziz Vatanini ham butunlay turk etishga majbur bo'ldi. Ikki yilga yaqin sarson-sargardonlikdan so'ng 1503- yilda Kobulga yo'l oladi. Kobul va G'aznani jangsiz egallaydi va o'zini shoh deb e'lon qiladi. 1507- yıldan Hindistonni zabit etish harakatiga tushgan Bobur 1526- yili o'z maqsadiga yetadi. Shu yilning 21- aprelida Panipat jangiда Boburning 12 minglik qo'shini hind sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik askari bilan to'qnashadi. Ajodollaridan meros jang sirlari, yillar davomida to'plagan tajribasi hamda taqdirning bergen aqchiliq saboqlari qo'l keldi. Bobur hind yerida Veyropada keyinchalik "Buyuk mo'g'ul imperiyasi" deb atalgan ulkan sultanatga asos soldi. Bobur va boburiylarning hukmdorligi Hindiston tarixida juda katta marshaqqatlar bilan yetti mingga yaqin qo'shini bo'lgan shoirning sog'ligiga salbiy ta'sir qildi.

Bobur Hindistondagi din-mazhab janjallarini oldini olishga, mamlakatda osoyishtalik qaror toptirishga urindi. Adolatlari qonunlar chiqardi, g'ayridinlik solig'i (juz'ya)ni bekor qildi, o'lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yopishni taqiqladi. Mamlakatda obodonchilik ishlarini yo'lga qo'ydi. Kanallar qazdirdi, binolar qurdirdi. Atrofiga olim-u fozillarni to'pladi. Shuningdek, hind yerida hali hech bo'lmagan bog'lar bino qildi. Mavarounnaharning shirin-sharbat mevalarini ekdirdi. Lekin jang-u jadallar, sultanat tashvishlari, ayniqsa, Vatan sog'inechi nozik qalb egasi bo'lgan shoirning sog'ligiga salbiy ta'sir qildi.

Begona bir yurtni zabit etish hech qachon oson kechmagan. 1526- yilning 21- dekabrida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayligina omon qoladi. Biroq bu ahvol yigirma besh-yigirma olti kun davom etadi xolos. Bobur 1530- yilning 26- dekabrida Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvosiq, Kobulga ko'chiriladi.

**Ijodiy merosi.** Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g'oyat iste'dodli farzandi edi. U o'ta notinch, sargardonlikda kechgan umrini zo'r salohiyati tufayli jozibali qila oldi. Uning bayoti faqat jaqlar bilangina emas, ilhomiy onlar bilan ham to'la edi. U yigirma yoshida yangi bir yozuv — “Xatti Boburiy”ni kashf qildi. Unur bo'yи ajoyib she'rlar yozdi, devon tartib qildi. Musiqa bilan shug'ullanib, “Chorgoh” maqomiga “savt”lar bitdi. 1521- yilda she'riy yo'lда soliq ishlarini tartibga soluvchi “Mubayyin al-zakot” (“Zakot bayoni”) asarini yozdi. 1523—1525- yillarda aruz vazni haqida “Muxtasar” nomli risola bitdi. Boburning “Harb ishi”, “Musiqa ilmi” nomli asarlari hozirgacha topilgan emas. U tarjima bilan shug'ullanib, Xo'ja Ahrorning “Validiya” asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga o'giradi.

Uning “Boburnoma” asari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining nodir namunasi sanaladi. Bu memuar (esdalik) asarida Bobur o'n ikki yoshida taxtga chiqishidan boshlab umrining oxirigacha boshidan o'tkazganlarini, ko'rgan-kechirganlari, guyohi bo'lgan voqealarni siyosatchi, davlat arbobi, olim, sayyoh va shoir nigohi bilan ta'ltil etadi. Shuning uchun bu asar tarix, etnografiya, geografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa fanlar uchun birday manba bo'la oladi. “Boburnoma”ning o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir.

**Bobur she'riyati.** Bobur o'zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn shoirdir. U ona tilida yozgan she'rlarini to'plab, 1519- yilda Kobulda, 1528—1529- yillarda Hindistonda devonlar tuzgan. Bu ikki to'plam o'sha joylar nomi bilan “Kobul devoni”, “Hind devoni” deb ataladi. Kobul devoni topilgan emas. Mutaxassislarning fikricha, saqlanib qolgan she'rlarining soni to'rt yuzdan ortiq. Shundan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy. Shuningdek, shoir devonidan tuyuq, fard, masnaviy, qit'a, muammo kabi janrlar ham joy olgan.

Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarining ma'lum guruhi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog'lanadi. Mana, uning “topmadim” radifli g'azalini olaylik. Bu she'rining yozilish tarixi “Boburnona”da ham keltirilgan. 1500—1501- yillarda Bobur Samarcandni ikki bor olib, yana boy beradi. Bir muddat sarsonliklardan so'ng biror viloyat berar degan umidda Toshkentga xon dodasi Yunusxon huzuriga boradi. Bobosi O'rategpani unga berishini ayladi, ammoy bu gaplar va'daligicha qolib ketadi. Sargardonlik, xiyonatlar, yaqinlaridan judo bo'lish, qarindoshlar hamiyatsizligi, Shayboniyxonning tinimsiz ta'qibi shoirning ko'nglimi cho'ktiradi. Buning ustiga Boburning ashaddiy dashmanı Ahmad Tanbal bilan to'qnashgan Yunusxon u bilan murosaga keladi va buni nishonlab ov hamda ziyofat uyuştiradilar. Bu hol Boburni qattiq qiyinaydi. Ko'nglidagi ichtiroblarni: «Jonimdan o'zga yori vadodor topmadim, Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim» mattasi bilan boshlanuvchi g'azalda ifoda etadi. “Yod etmas emish kishini mehnatta kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi

ham shu kunnarda ruhiy ezilishlar natijasi o'laroq yozilgandi. Ba'zan bunday biografik chizgilar oshiqona kayfiyatdag'i satrlar bilan almashinib keladi va nafis badiiyat libosida ko'rsatiladi. Quyidagi g'azalga diqqat qilaylik:

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,  
Yuzungning ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor.

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,  
Nechun holim yamon qildi, men andin bir so'rорim bor.

Avval g'azalning badiiyatiga e'tibor qarataylik. Tanosub<sup>1</sup> san'atidan foydalangan shoir ma'shuqa go'zalligi va oshiqning ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan chizadi. "Qaro", "zulf", "parishon", "ko'z", "yamon" so'zlarini o'zaro qora rang, "yuz", "lab", "qon" so'zlarini qizil rang bilan bog'liq tushuncha birlashtirib, tasvir va ifodada o'ziga xoslikni yuzaga keltirgan. Shuningdek, asosiy qofiya (ro'zgorim — qarorim — so'rорim) bilan birkalikda saj' — ichki qofiya (firoqida — ishtiyoqida; qon — ravon — yamon) hamda radif (qildi; bor)ning qo'llanishi g'azalga mayin musiqiylik baxsh etgan. Oshiqning hayoti (ro'zgori) ma'shuqa zulfi firoqida parishon, yor yuzining ishtiyoqi, lab tamannosi uning sabr-qarorini intihosiga yetkazadi. Sof oshiqona kechinmalar bayoni bilan boshlangan ushbu satrlar keyingi baytlarda hasbi hollik yo'siniga o'ta boshlaydi.

Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,  
Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'angusorim bor.

"Jahondin menga g'am bo'lsa..." Bolalikdanoq hokimiyatning og'ir yuki gardaniga ortilgan, hayotining ko'p qismi urushlar qa'riga kechgan, do'st-u yori necha bor sotgan, alamlardan diydasida ko'z yoshiqli qolgan Boburning hasrati bu.

"Ulusdin gar alam bo'lsa..." Saltanat ishtiyoqida ne yurtlarni kezgan, dushman navkarni tig' bilan kesgan, umr bo'yи janglarda qonlar kechgan va bu bilan ne-ne odanular — ulus qayg'usiga sabab bo'lgan Boburning iqrori bu.

Hasrat va iqrordan so'ng u yorga qarata: "Bu g'am va alamlardan yuz barobar bo'lsa ham, mening g'amim yo'q, chunki sen borsan" deya uning g'angusorligini istaydi. Bu kabi she'rlarni shoir devonidan ko'plab topish mumkin. "Mening ko'nglumki gulning g'unchasidek tah-batah qondur", "Agarchi sensizin sabr aylainak, ey yor, mushkuldur" g'azallarida, "Beqaydman-u xarobi siym ermasmen", "Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi" kabi ruboiylarida, "Bir kecha xotirim mushavvash edi" masnaviysida Boburning ziddiyatga to'la hayoti yuksak badiiy ifoda etilgan.

<sup>1</sup> Tanosub — ma'no va mantiq jihatidan o'zaro aloqador, tushunchalarni keltirish bilan hosil qilinadigan she'riy san'at.



Bobur she'riyatini o'qib bir narsaga amin bo'lasiz: u bayotni sevadi, umrning har daeqiqasini g'animat biladi. Shuning uchun har qanday og'ir kunlarda ham yashashga intildi, izlanishdan to'xtamadi, ijodda davom etdi. Shoirning hayotsevarligi, ayniqsa, "Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbati", "Sendek menga bir yori vasodor topilmas" kabi g'azallarida yaqqol aks etgan. Bobur ijodida mana shunday hayotga qaynoq mehr aks etgan jo'shqim g'azallar ham, afsus-nadomat to'la she'rlar ham bor. Ularni umumiy bir jihat birlashtirib turadi: she'rlarining hammasi benihoya sammimiy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Bobur hayoti to'g'risida yaratilgan badiiy, ilmiy, bujjallli asarlar, filmlardan qaysilarini bilasiz?
2. Adibning sarson-sargardon hayoti va u yaratilgan asarlar ko'lumiga diqqat qiling. Boburning ijodiy salohiyati va iste'dodiga baho bering.
3. Sinfda to'rt guruhga bo'liming. Birinchi guruh Boburning shoirligi, ikkinchi guruh olimligi, uchinchchi guruh shohligi, to'rtinchchi guruh sarkardaligi borasidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, o'zlashtiring.

## LIRIK ASARLARI

### G'AZALLAR

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batali qondur,  
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.

Agar ul qoshi yosiz bog' gashtini orzu qilsam,  
Ko'zinga o'qdurur sarv-u ko'ngulga g'uncha paykondur<sup>1</sup>.

Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning  
Yuzi gul, zulfi sunbul, qonati sarvi xiromondur<sup>2</sup>.

Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor<sup>3</sup>,  
Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur.

Boshidin evrulur<sup>4</sup> armoni birla o'ldum, ey Bobur,  
Mening na'shimni<sup>5</sup> bori ul pari ko'yidin<sup>6</sup> aylondur<sup>7</sup>.

<sup>1</sup> Paykon — kamom uchidagi metall, boshqoq. <sup>2</sup> Xironmon — chiroyli yurish. <sup>3</sup> Dushvor — qiyin.  
<sup>4</sup> Evrulmoq — aylammoq. <sup>5</sup> Na'shumi — tobut. <sup>6</sup> Ko'y — ko'cha, qishloq. <sup>7</sup> Aylondur — aylanfir.



## Savol va topshiriqlar

1. Birinchi baytda qo'llangan she'riy san'atlarning ahamiyatini tushuntiring. Lirik qahramon ko'nglining tah-batah qon bo'lganligini qanday izohlaysiz?
2. Ma'shuqasiz bog' gasht (sayr)ini orzu qilgan oshiq ko'ziga sarvning o'qdek sanchilishi, ko'ngliga g'unchanuing paykondek botishi sababini izohlang.
3. *"Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur"* misralaridagi yor tasvirini sharhlang.
4. *"Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor, Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur"* baytdagi tazdodning fikr va rubiy holat ifodasidagi ahamiyatini tushuntiring.
5. Maqla'ni tahlil qiling. "Boshidan evruhur" iborasi bugungi kunda ham qo'llaniladimi?
6. Qaysi baytlarni shoirning taqdiri bilan bog'liq holda tushunish mumkin?

\* \* \*

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,  
Sening birla chiqishumoqlik dag'i bisyor mushkuldur.

Mizojing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,  
Senga holunni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.

Ne osig<sup>1</sup> nola-u faryod xob olud<sup>2</sup> baxtimdin,  
Bu unlar<sup>3</sup> birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur.

Manga osondurur bo'lsa, agar yuz ming tuman<sup>4</sup> dushman,  
Vale bo'lmaq jahonda, ey ko'ngul, beyor mushkuldur.

Visolinkim tilarsen nozini xush tortqil, Bobur  
Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor' mushkuldur.



## Savol va topshiriqlar

1. Biriuchi baytdagi oshiq-ma'shuqa munosabatlariga taalluqli "mushkul" holatlarni aniqlang.
2. Nima uehun oshiqqa o'z holini izhor qilish mushkul bo'limoqda?
3. *"Ne osig' nola-u faryod xob olud baxtimdin, Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur"* baytini tahlil qiling. Shoir nima uehun o'z baxtini uyquda deb biladi?

<sup>1</sup> Osig' — foysa. <sup>2</sup> Xob olud — uyguldagi. <sup>3</sup> Un — ovoz. <sup>4</sup> Tuman — o'n ming. <sup>5</sup> Bexor — tikansiz.

## **“BOBURNOMA”**

## **ANDIJON TASVIRI**

...Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur<sup>1</sup>. Ma'muraning<sup>2</sup> kanorasida<sup>3</sup> voqe bo'lubtur<sup>4</sup>. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi<sup>5</sup> tog'lar... Muxtasar<sup>6</sup> viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog<sup>7</sup> voqe bo'lubtur. G'arbi tarafikim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog<sup>8</sup> yo'qtur. Ushbu jonibtin<sup>9</sup> o'zga hech jonibtin qishi yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurdur, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar.

Yetti pora qasabasi<sup>10</sup> bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki(si) shinol jonibida. Janubiy tarafidagi qasabalar(dan) biri Andijondurkим, vasatta<sup>11</sup> voqe' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vosir<sup>12</sup>, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun solmoq rasmi emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Mavarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo'lubtur. To'qqiz tarkov suv kirar. Bu ajabturkим, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdogirdi<sup>13</sup> toshi yoki sangrezalik<sup>14</sup> shohroh<sup>15</sup> tushubtur. Qal'aning girdogirdi tamom mahallotdur<sup>16</sup>. Bu mahalla bila qal'ag'a fosila<sup>17</sup> ushbu xandaq yoqosidagi shohrohtur. Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasini lo'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rostlur<sup>18</sup>. Ani uchunkim amir Alisher Navoiyning musannafoti<sup>19</sup> bovujudkim<sup>20</sup>, Hiriда<sup>21</sup> nash'u namo<sup>22</sup> topibtur, bu til biladur.

Elining orasida husn xayli<sup>23</sup> bordur. Yusuf Xojakim musiqiyida mashhurdur. Andijoniydur. Havosining ufunati<sup>24</sup> bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lur.

## **SAMARQAND TASVIRI**

Rub'i maskunda<sup>25</sup> Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Mavarounnahr derlar. Hech yog'iy qabri va g'alabi ila munga dast topmog'on uchun<sup>26</sup> “baldayi mahfuza<sup>27</sup>” derlar.

<sup>1</sup> Qadimda yer yuzi yetti iqlingu bo'lingan. <sup>2</sup> Ma'mura — ekin bitadigan obod yer. <sup>3</sup> Kanora — qirg'oq, chet. <sup>4</sup> Voqe bo'lubtur — joylashgan, o'rneshgan. <sup>5</sup> Sarhad — chegara. <sup>6</sup> Muxtasar — ixchum, kichik. <sup>7</sup> Jonibtin — tarafidan. <sup>8</sup> Qusaba — shaharedu. <sup>9</sup> Vasat — o'rta. <sup>10</sup> Oshlig'i vosir — g'allosi ko'p. <sup>11</sup> Girdogirdi — aylmasi. <sup>12</sup> Sangrezalik — shag'ali. <sup>13</sup> Shohroh — kutta yo'li. <sup>14</sup> Mahallot — mahallalar. <sup>15</sup> Fosila — ajratuvchi. <sup>16</sup> Lafzi qalam bila rost — tili adabiy tilga muvosiqi. <sup>17</sup> Musannafoti — asarlari. <sup>18</sup> Bovujudkim — qaysikim. <sup>19</sup> Hiri — Hirot. <sup>20</sup> Nash'u namo — shuhurat. <sup>21</sup> Husn xayli — mahoratlari kishilar, san'atkolar. <sup>22</sup> Ufunati — sassig'i, dimdigi. <sup>23</sup> Rub'i maskunda — yer yuzining to'rti tarafida. <sup>24</sup> Dast topmog'on uchun — qo'liga kiritilmagan uchun. <sup>25</sup> Baldayi mahfuza — mulhofaza qilingan shahar.



Samarqand amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam Ibn Abbas anda borg'ondir. Qabri Ohanin darvozasining toshidadir. Holo<sup>1</sup> Mazori Shohig'a<sup>2</sup> mashhurdir. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur. Qo'rg'onini fasilning ustidin, buyurdumkim, qadam urdilar, o'n ming olti yuz qadam chiqtı.

Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri<sup>3</sup> ...eldur. Hazrati risolat<sup>4</sup> zamonidin beri ul miqdor aimmai islamkim<sup>5</sup>, Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum erinaskim, muncha paydo bo'linish bo'lg'ay. Shayx Abumansurkim, aimmai kalomindur<sup>6</sup>, Samarqandning Motrid<sup>7</sup> ottiq mahalla-sidindur. Aimmai ka-lom ikki sirqadur: birni motridiya derlar, birni ash'ariya derlar. Motridiya shayx Abumansurga mansubdur. Yana sohibi "Sahihi Buxoriy" Xoja Ismoil Kartang ham Movarohaunnahrdindur. Yana sohibi "Hidoya"kim<sup>8</sup>, imon Abu Hanifa mazhabida "Hidoya" dan mo'tabarroq kitobi fiqh kam bo'lg'oy, Farg'onaning Marg'inon ottiq viloyatidindur, ul ham doxili Movarohaunnahrdur.

Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokal bitirlar. janubi Balx va Tirmiz. Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kurul<sup>9</sup> bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta<sup>10</sup> tushubtur. Ko'hak derlar. Bu rud<sup>11</sup> muning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadur. Darg'am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar'iy<sup>12</sup> bo'lg'oy. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha lumonoti<sup>13</sup> bu suv bila ma'murdir.

Buxoro va Qorako'lqachakim, o'ttuz-qiriq yig'och yo'lg'a yovuqlashur Ko'hak suyi bila ma'mur va mazru'dur<sup>14</sup>. Mundoq ulug' daryo aslo ziroattin va imorat-tin ortmas, balki yozlar uch-to'rt oy Buxoroga suv yetmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami mevasi xo'b bo'lur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdur: sebi<sup>15</sup> Samarqand va sohibiyi<sup>16</sup> Samarqand. Qishi malikain sovuqtur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agarchi Kobuleha yo'qtur.

Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imoroti va bog'oti Samarqand ma-hallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt

<sup>1</sup> Holo — hozir. <sup>2</sup> Mazori Shoh — shoh mozori, ya'nii Shohizinda. <sup>3</sup>Mutasharri — sharialga bo'y sunuvchi. <sup>4</sup> Hazrati risolat — janobi Payg'anbar. <sup>5</sup> Aimmai islam — islam inomlari. <sup>6</sup> Aimmai kulom — huquqshunos, faqili. <sup>7</sup>Xoja Ismoil Kartang — al-Buxoriy ko'zda tutilgan. "Sohibi "Hidoya" — "Hidoya" aseri muallifi Burhoniddin Marg'inoni (1123–1197) ko'zda tutilgan. <sup>8</sup>Kuruh — to'rt ming gaz (0,71 metr)lik uzunlik o'lechovi. <sup>9</sup>Pushta — tepalik, kichik tog'cha, ya'nii Ko'hak hozirgi Cho'ponotu tog'i. <sup>10</sup> Rud — ariq, daryo. <sup>11</sup> Bir shar'iy — 5-6 kilometrga teng masofa o'lechovi. <sup>12</sup> Tumonoti — tumanlari. <sup>13</sup>Mazru' — zirot, ya'nii ekin. <sup>14</sup> Seb — olmn. <sup>15</sup> Sohibiy — uzum turi.

oshyonliq<sup>1</sup>. Ko'ksaroyg'a mavsumi va mashhur<sup>2</sup> va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig'a yovuq qal'aning ichida bir masjidi jum'a solibtur, sangin<sup>3</sup> aksar Hindistondin eltg'an sangtaroshlar anda ish qilibturlar.

Masjidning peshtoqi kitobasida<sup>4</sup> bu oyatni "Va iz yarsau Ibrohimu al-qavida... (ila oxirih)<sup>5</sup>" andoq ulug' xat bila bitibtlarkim, bir kuruh yovuq yerdin o'qusa bo'lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarcandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim, yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Anda Peruza darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari eklurubtut. Dilkushodagi ko'shka Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar.

Yana pushtai Ko'hakning domanasida<sup>6</sup> Konigilning Qorasuyining ustidakim, bu suvni Obirahmat derlar, bir bog' solibtur. Naqshijahonga mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzulub erdi, oti besh qolmaysdur edi<sup>7</sup>. Yana Samarcandning janubida Bog'i Chanordur, qal'aga yovuqtur. Yana Samarcandning quyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Bihishtur. Temurbekning nabirasi, Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton mirzo Samarcandning toshqo'rg'onida—Chaqarda bir qo'rg'on solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarcandta podshohliq qilibtur, alarning qabri ul madrasadadur.

Ulug'bek mirzoning imoratlaridin Samarcand qal'asining ichida madrasa va xonaqoldur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug' gumbazdur, olamda oncha ulug' gumbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohg'a yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammonig'a mashhurdur. Har nav' toshlardin farshlar<sup>8</sup> qilibtur. Xuroson va Samarcandta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, Masjidi Muqatta<sup>9</sup> derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a<sup>10</sup> yig'ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoyi naqshlar solibturlar, tumon devorlari va saqfi<sup>11</sup> ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblesi bilan madrasa qiblasining orasida bisyor tafavuttur. ...Yana bir oliy imorati pushtayi Ko'hak domanasida rasaddurkim, zиж<sup>12</sup> bitmakning olatidur. Uch oshyonlikdur. Ulug'bek mirzo bu rasad bila ...Ziji Ko'ragoniy<sup>13</sup> ni bitibturkim, olamda holo bu zikh musta'maldur<sup>14</sup>. O'zga zиж bila kam amal qilurlar...

Yana pushtai Ko'hakning domanasida g'arb sori bog'e solibtur Bog'i Maydonga mansub. Bu bog'ning o'rtaida bir oliy imorat qilibtur Chilsutun derlar. Du oshyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to'rt burchi-

<sup>1</sup> Oshyonliq — qavatlilik. <sup>2</sup> Ko'ksaroyg'a mavsumi va mashhur — Ko'ksaroy oti bilan ma'lum va mashhur. <sup>3</sup> Sangin — toshdan qurilgan. <sup>4</sup> Kitoba — devor, darvoza, eshib va qabrtoshlariga o'yib yozish san'ati. <sup>5</sup> "Baqara" surasining 126-oyati. "Va mana, Ibrohim uyning asosini ko'tardi (oxiri bor)" ma'nosida. <sup>6</sup> Domanasida — etnigida. <sup>7</sup> Oti besh qolmaysdur edi — oti ham qolmugandi. <sup>8</sup> Farsh — qoplamra. <sup>9</sup> Masjidi Muqatta' — "Parcha parcha machit" ma'nosida. <sup>10</sup> Qit'a-qit'a — parcha-parcha, bo'lak-bo'lak. <sup>11</sup> Saqf — shift. <sup>12</sup> Zij — yulduzlarning ko'kdagi holati va yil davomidagi harakati aks eltg'an jadval. <sup>13</sup> Musta'maldur — amaldadir.

da to'rt manordek burjlar<sup>1</sup> qo'poribturlarkim<sup>2</sup>, yuqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba'zini morpech xiyora<sup>3</sup> qilibturlar. Yuqorig'i oshyonining to'rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O'rtasi chordara<sup>4</sup> uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin pushtai Ko'hak sari domanada yana bir bog'cha solibtur, anda bir ulug' ayvon imorat qilibtur. Ayvonnинг ichida bir ulug' tosh taxl qo'yubtur, to'li<sup>5</sup> taxminan o'n to'rt -o'n besh qari<sup>6</sup> bo'lg'oy, arzi<sup>7</sup> yetti-sekkiz qari, umqi<sup>8</sup> bir qari. Mundoq ulug' toshni xeyli yiroq yerdin kelturubtlar. O'rtaida darz bo'lubtur. Derlarkim, ushbu yerda keltirgandan so'ng bu darz bo'lg'ondur. Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasи<sup>9</sup> tamom chiniy<sup>10</sup> Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib keltirubtur.

Samarqand qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqi derlar. Ul gunbazning o'rtaida yerga tepsalar, tamom gunbazdin laq-laq un<sup>11</sup> kelur, g'arib amredur<sup>12</sup>, hech kim muning sirrini bilmas.

Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shaharda bir xususiyate bor, ki, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har hirsgarning<sup>13</sup> bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut<sup>14</sup> emastur, tavr rasmedur<sup>15</sup>. Xub nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddin chiqar. Juvozi kog'ozlar<sup>16</sup> suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkum, bu qora suvni Obirahmat ham derlar. Samarqandning yana bir matoi qirmizi maxmaldurkum<sup>17</sup>, atrof va javonibqa eltarlar.

Girdogirdida yaxshi o'langlari bor. Bir mashhur o'lang Konigil o'langidur. Samarqand shahridin sharq tarafidur, bir nima shinolg'a moyil, bir shar'iy bo'lg'oy. Qorasuvkim, Obirahmat ham derlar, Konigilning o'rtaсидин oqar, yetti-sekkiz tegirmon suyi bo'lg'oy. Bu suvning atrofi tamom obgirdur<sup>18</sup>. Ba'zi derlarkim, bu o'langning asli oti Koni obgir ekandur, vale tarixlarda Konigil bitirlar, xeyli yaxshi o'langdur.



## Savol va topshiriqlar

- Asarda Farg'ona viloyati tabiatini qanday tasvirlanganini izohlang.
- Audijonga xos xususiyatlar qanday aks ettirilganini aytung.
- Boburning Samarqandga munosabati qandayligini matniga tayanib aytung.

<sup>1</sup> Burj — qal'a va qo'rg'on burchaklariga quriladigan bino. <sup>2</sup> Qo'ormoq — tiklamoq, solmoq. <sup>3</sup> Morpech xiyora — tosh ustunga o'ralgan ilon tasviri. <sup>4</sup> Chordara — to'rt chishikli. <sup>5</sup> To'li — bo'y, uzunligi. <sup>6</sup> Qari — qarich. <sup>7</sup> Arzi — eni, kengligi. <sup>8</sup> Umqi — chuqurligi. <sup>9</sup> Izorasи — uyning yer bilan tokebu orasidagi qisimi. <sup>10</sup> Chiniy — chinnidan qilingan. <sup>11</sup> Un — tovush. <sup>12</sup> G'arib amredur — ajablaularli ishl. <sup>13</sup> Hirsgar — kasb egasi, humarmund. <sup>14</sup> Maxlut — xalaqt, aralash. <sup>15</sup> Tavr rasmedur — yaxshi odadadir. <sup>16</sup> Juvozi kog'oz — juvoz yordamida tayyorlangan qog'oz. <sup>17</sup> Qirmizi maximal — qizil baxmal. <sup>18</sup> Olgir — suvol, hayva.

## *Nazariy ma'lumot*

### **MEMUAR ASAR**

“Memuar” fransuzcha “esdalik” ma nosini anglatadi. Muallifning o’zi qatnashgan yoki ko’zi bilan ko’rgan real voqealar haqida hikoya qilingan asar memuar asar hisoblanadi. Oybekning “Bolalik”, A. Qahhorning “O’tmishdan er-taklar” asarlari menuarning namunalaridir.

Memuar asarlar bayon qilish shakli, zamoniy izchilligi jihatidan kundatiklarga o’xshab ketsa, materialning tabiatini tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniyligi, badiiy to’qimaning yo’qligiga ko’ra ilmiy asarlarga yaqin turadi. Dunyo adabiyoti tajribasida memuarlarning bir necha turi bor. O’zbek adabiyotida esa, bu xil asarlarning tarixiy memuarlar va badiiy memuarlar singari ikki turi ko’proq uchraydi. Ayni vaqtida, tarixiy memuarlarda badiiylik, badiiy memuarlarda esa tarixiylik xususiyatlari uchraydiki, bu ularning seviyasini ko’taradi.

Memuar asarlarga xos asosiy qirra shundaki, unda muallif ishlirokehi yoxud tonig’ (guvoh) sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi. U tarixchisi va adabiyotshunos olindan farq qilib, real voqealarning o’zi bevosita qatnashgan yoinki ko’rgan qisminigina aks ettiradi. Bunda muallif o’z kuzatish va dunyo-qarasligagini tayanadi. Shuning uchun ham memuar asarda yo hikoyachining o’zi yo bo’lmasa, uning nuqtai nazari old o’rinda bo’ladi. Bu holni “Boburnoma” misolida yaqqol ko’rish muunkin.

“Boburnoma” avtobiografik ocherklarni eslatuvchi voqeiy hikoyalardan iborat. Ularda muallif Movarounnahr, Xuroson, Asg’oniston, Hindiston kabi mam-lakatlarda o’zi qatnashgan, ko’rgan yoki eshitgan voqealarni hikoya qiladi. Asarda tarixiy davr va Bobur hayoti sahifalari haqqoniyligi ifoda etilgan. Yozuvchining tasvirlash mahorati yuksakligi sabab u yoki bu shaxs haqidagi ma'lumotlar keltirilganda, ularning tabiatiga xos xususiyatlarni ham ko’rsatishga erishadi. Bobur asarining qiziqarli bo’lishiga diqqat qaratadi. Shuning uchun hatto jug’rosiy ma'lumotni ham kishi e’tiborini tortadigan yo’sinda berishga intiladi. Buni Andijonga lo’qqiz ariq suvning kirishi va bittasining ham chiqib ketmasligi haqidagi tasvirlarda ko’rish muunkin.

Bobur Samarqandning tabiatini tasvirlar ekan, uning obodligiga ulkan hissa qo’shigan Amir Temur va Ulug’bek Mirzo singari hukmdorlar shaxsiyatiga xos yaratuvchilik qirralariga urg’u beradi. Muallif sodda va tushunarli yozadi. Oradan shuncha vaqt o’tganiga qaramay, astoydil qiziqqan kishi uning bitganlarini ortiqcha qiyinchiliksiz tushunadi.

## BOBORAHIM MASHRAB

(1653 — 1711)



Hayot yo'li afsonalarga qorishib ketgan, surati-yu siyrati rivoyatlarda bayon etilgan, xalq orasida halollik, to'g'rilik. Haqqa oshiqlikning timsolı bo'lib gavdalangan Mashrabdek shaxsi va ijodi mashhur zotni topish qiyin. Farhod va Qays seviklilari Shirin-u Layliga intilgani kabi Mashrab ham Yaratganning vasliga beqaror intilgan oshiqi analhaqdir. Kishi uning shaxsini bilgani sayin va ijodini o'rganish mobaynida o'zining ham tozarib borayotganini tuyadi. buyuk Tangriga yaqinlikni his qiladi. Shuning uchun ham uni o'qimoq, uqmoq kerak.

Oldinlari Mashrab 1640- yoki 1647- yillarda tug'ilgan deb hisoblanar va bu ma'lumotlar qator ilmiy manbalarda ko'rsatilgan ham edi. Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron" asarini sinchiklab o'rganish natijasida aniqlangan keyingi ma'lumotlarga ko'ra, Boborahim Valibobo o'g'li Mashrab 1653- yilda Namanganda kosib oilasida tug'ilgan. Yodingizdami, Navoiy "Xamsa"si qahramonlari Farhod va Qays tug'ilmaslaridan ishq dardiga mubtalo bo'lgan edilar. Xuddi shu holat Boborahimda ham yuz beradi.

Shoirning hayol yo'li yoritilgan "Qissai Mashrab" asarida yozilishicha, u bolaligidan majmuntabiat, so'fiysurat, odamovi va xomush qiyofada yuradi. Uning g'ayritabiyy odatlari, gap-so'zları, yurgan yo'lida aytadigan bayt-u g'azallari ota-onasi va xaloyiqni hayron qoldiradi. Onasi ne orzu-havaslar bilan unga yangi liboslar kiygizsa, Mashrab duch kelgan ojiz-bechoralarga kiyinlarini yechib berar, o'zi yalang'ochi yurardi (xuddi "Bo'lib el anduhidin ko'ngli g'annok, Yaqo chokni ko'rib, ko'ksin qilib choc" qilgan Farhoddek). Ota-onasi iztirob bilan buning sababini so'naganlarida, u "Yaratganning huzuridan qanday kelgan bo'lsam, shunday yuraveraman" qabilida javob beradi. O'spirinligida qayerda go'tiston bo'lsa, ziyorat qilib, odamlarning suyaklarini ko'rib: "Ey odamizod, oxir o'lib boshingga tushadurgon ish bu", — deb yig'lab yurardi (Farhod va Qaysning

g'amginliklarini eslang). O'g'illaridagi bunday ilohiy ishq sirlarini tushunmagan ota-onha xavotir va tashvishga tushadilar.

Mashrabni shu hududda katta ulamo. Haq yo'liga boshlovchi tariqat rahnamosi sanalgan Mullo Bozor Oxundga uchrashtiradilar. Mashrab undan zo'r ixlos bilan ta'limi oladi, tarbiya ko'radi. Xuddi bir muallim o'zidagi bilimlarni berib bo'lgach, shogirdini o'zidan ihmiloq boshqa ustozga yo'llaganidek, ma'lum darajada ilohiy sirlardan Mashrabni voqif etgan mullo Bozor oxund uni Koshg'arga — Ofoq xoja huzuriga borishi kerakligini aytadi. Islom dunyosining ulug'laridan biri bo'lmish bu zot yangi muridi qalbidagi ilohiy muhabbat nurlarini ilg'ab, unga Mashrab (ma'nosi — ishq sharobini ichgan) nomini beradi. Mashrab Ofoq xoja huzurida yetti yil talhsilda, xizmatda, riyozatda bo'ldi va Haqqga yaqin avliyo zot bo'lib yetishdi. Farhodga Boniy, Moniy va Qoran o'rgatganlaridek, Bozor oxund va Ofoq xoja ta'limidan Mashrab toshdan metin nafs tog'ini yanechishni, ko'ngilda ishq bimosini qurishni va bu binoga Olloh ishqini naqshlashni o'rgandi. "Xaumsa" dostonlaridan Tangri oshiqlarining taqdiri qanday yakun topishi Sizga ma'lum. Mashrab, ustoz Ofoq xoja bashorat qilganidek, 1711- yilda Balx hokimi Mahmud Qatag'on amri bilan Qunduz shahrida qatl etilgan.

Mashrab o'z asarlarini jamlab, devon tuzgan emas. She'rlari "Devoni Mashrab" qissalarida, turli bayoz va to'plamlar tarkibida tarqoq holda bizgacha yetib kelgan. 1958—1980- yillar oraliq'ida uning she'rlari to'plam holida bir necha marta nashr qilingan. Mashrabning nisbatan mukammal to'plami adabiyot jonkuyari Jaloliddin Yusupov tomonidan 1990- yilda "Mehribonim, qaydasan" nomi bilan nashrqa tayyorlanib, chop etildi. To'plam shoirning g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba' janrlarida yozgan she'rlaridan iborat. Shuningdek, mutaxassislargagina yaxshi tanish bo'lgan "Mabdai nur", "Kunya" kabi badiiy-falsafiy, diniy-axloqiy asarlar ham Mashrab qalamiga mansub deb qaraladi.

Ma'lumki, aksar mumtoz adiblar ijodining mag'zida odamni, olamni, butun borliqni islomiy idrok etish markaziy o'rinn tutadi. Lekin bu shunchaki islomga da'vat, uning yo'l-yo'riqlarini o'rgatish, nasihat emas, balki dunyo hodisotlari, voqeliklari ortida yashiringan Yaratganning xohish-irodasi, likhmalini, jamolini, qudratini bilishga, anglashga, ko'rishga yo'nalgan ilmidir. Bu ilmni tasavvuf deydilar. Oldindi darslerda sizga tasavvuf ta'lomi haqida oz bo'lsa-da tushuncha berildi. Asarlarida tasavvuf g'oyalarini aks ettirgan adiblar mutasavvif ataladi. Mashrab ham tasavvuf adabiyotining mashhur vakilidir. Barcha so'fiy shoirlar kabi u ham nafsni yengish orqali ko'ngilni yuksaltirish, ruhni poklash, o'tkinchi dunyo havaslaridan ustun bo'lishga urinadi, insonga uning moddiy mavqeidan emas, ma'naviy fazilatlaridan kelib chiqib yondashadi.



So'fiy shoirlarni ilohiy ishq kuychilari deyishadi. Lekin ishqni kuylashda har bir shoirning o'z yo'lli, ovozi, o'zgachaligi bor. Ahmad Yassaviy ishqini ilohiyini rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharh etadi. Navoiy ishqni mushohada qiladi, har qanday yonish-kuyishlarda ham o'ychanlik, bosiqlik unga xos. Mashrab esa ko'nglidagi ishq olovi qanday bo'lsa, uni shundayligicha she'rga ko'chiradi. Ollohg'a bo'lgan muhabbatini ochiq izhor etadi. Shuning uchun uning she'rlarini o'qigan kitobxon oshiq shoir ko'nglidagi jununni, befoqatlikni aniq his qilib turadi va bandanining Xudoga bo'lgan haqiqiy ishqini qanday bo'lishini anglaganday bo'ladi. Go'yo u bizga ishqini ilohiydan dars berayotganday. Lekin uning ishqini odamdan, olamdan begona va ayri emas.

Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki Yaratganni sevgan uning ijodi bo'lmish yaratiqlarini ham sevadi-da. Shu bois Mashrab "yuzi qizil-oq, oslidagi tayloqi o'ynoqlab turgan", "asli qalmoq, zoti qirg'iz, lola paypoqli" sahroyi bo'tako'z qizlarni madh etadi, ular chiroyida olam nafosati hamda ilohiy jamol jilvasini tuyadi. Shuningdek, uning valan, onai zorini qo'msab yozgan she'rlari huu xokisor samimiyati-yu bolalarcha sodda tug'yoni bilan ajralib turadi. Ularni o'qib g'oyat ta'sirlanasiz: dilbar va g'arib ishq kuychisining Namangandan kelgan do'st-u yoronlarini ko'rgandagi quvonchi, keksa onasining bag'riga otilib zor-zor yig'lashlari qalbingizda litroq uyg'otadi.

Mashrabning shaxs va shoir sifatidagi o'ziga xosligi shunda ko'rindik, uning Ollohg'a bo'lgan ishqini ham xuddi mana shunday samimiyl va ehtirosli. U Xudoni o'zidan uzoq, mayhum deb bilmaydi. Uni mehribon onasi, "jola kiygan" mahbubasini sevganday sevadi, ko'nglidagi dardlarini, sirlarini unga so'zlaydi, u bilan qo'shilib-qorishib ketadi. Xuddi Mansur Halloj, Ibrohim Adham, Nasimiy kabi Olloh bilan vahdat, ya'ni birlik hosil qiladi. Tasavvusda bunday hol, ta'limot valdat ul-vujud deyiladi. Mashrab she'rlarini o'qishda, tushunishda bu holni, ta'limotni nazardan soqit qilib bo'lmaydi: *«Arshning kungurasin ustiga qo'ydum ayoqim, Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?»*

Lomakon — makondan tashqari degani. Lomakonlik faqat Xudoga xos. Undan boshqa barcha narsalar ma'lumi bir makonda qaror topadi. Ilohiy Arsh kungurasiga oyoq qo'ydim, lomakondan joy oldim deyish shariat nuqtayi nazaridan shirk va kufr. Lekin shoir bu gapni tupoqdan bo'lgan jism harakati va holati sifatida sharh qilinayapti. Bu — shoir ruhining ishqdag'i holati. **U** Yaratganga shunchalik muhabbat qo'yganki, undan boshqa hech narsani mushohada qilmaydi. Bu muhabbat va mushohada natijasida u makonni, ya'ni olamni, hatto o'zini unutadi, u bilan birlikni hosil qiladi. Ishqning ilohiy qudratli bilan makonni, o'zlikni unutgan kishi lomakonga daxlordir. Bunday odamning oyog'i ilohiy Arshda turibdimi, yerda turibdimi — farqi yo'q. Tasavvuf ta'limotini, undagi valdat ul-vujud holatini tushungandagina shoirning: *«Onqadar nurga to'libman*



*osmonga sig'madim, Toqi arsh-u kursi-yu lavh-u jinong'a sig'madim*, yoki «*Ofoqni bir lahza kezdim, na ajabdur, Mino tog'idin akkasifat hakkalab o'ttum*» kabi baytlari ma'nosini to'g'ri anglash mumkin bo'ladi.

Har qanday so'fiy biror tariqatga amal qiladi. Tariqat arabcha so'z bo'lib, *yo'l* ma'nosini anglatadi. Bizning hududlarda qadimdan qodiriylik, yassaviylik, kubroviylik, naqshbandiylik tariqatlar maslahur. Bu tariqatlar bir-birini inkor etmaydi, chunki maqsadlari bir — Bir u bor zot vasliga vosil bo'lish. Shuning uchun ular o'zaro ulug' hurmat, ehtirom munosabatida bo'ladilar. Bir-biridan Ollohga yaqinlashish, yetishish, uning rizoligi va muhabbatini qozonish yo'llari hamda usullari bilan farqlanadilar. Mashrab naqshbandiylik shaxobchasi bo'lmish qalandarlik maslagini tutgan va uni ijodida targ'ib etadi:

Murodingga yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Bu maslakning shiori esa — «*Havas bozorini dur aylagil zinhor boshingdin, Qo'lungni ikki dunyodin uzib, dilni qalandar tut>dir*.

Boshingdan dunyo, nafs havaslarini chiqar, ikki dunyodan ham o'zingga manfaat izlamay, dilingni qalandar tut, deb ko'rsatma beradi Mashrab. Dilni qalandar tutish esa doimo haqiqiy Yor zikri bilan mashg'ul bo'lish va U buyurgan ezgu amallarni o'z hayotining mazmuniga aylantirishdir. Qalandarlarning hayot tarzları ham o'ziga xos. Ular har qanday dunyoviy iskanjadan ozod bo'lish uchun muqim uy-joy, makon tutmaganlar. Shoir ta'biri bilan aylganda, “ko'h ba ko'h, sahro ba sahro kezmoq” bilan, ya'ni qishloq, shaharlarni, dasht-u sahrolarni kezib, odamlarni iyomonga, ezbilikka da'vat qilganlar, ishqilohiyni sharh etganlar:

Riyozatsiz bo'lay desang, tanim ozod yuray desang,  
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Mashrab ham o'z unuri davomida yurtlar kezib, Haqni va haqiqatni tanish, pok e'tiqod, haqiqiy muhabbat targ'iboti bilan mashg'ul bo'ldi. Endilikda bu ishni uylar, qishloqlar, shaharlар, yurtlar kezib, uning ijodi davom ettirmoqda.



## *Savol va topshiriqlar*

1. Xalqimizda qanday hollarga tug'ilajak farzandga “Mashrab” ismi berilishini bilasizmi? Eshitmagan bo'sangiz, kattalardan bilib oling.
2. Mashrabning tasavvuf ta'limotiga, qalandarlik maslagiga munosabati haqida gapiring.

## MASHRAB SHE'RIYATIDAN G'AZALLAR

Ishq vodisidin bir kecha men hay-haylab o'ttum,  
Monandi nayiston<sup>1</sup> guliga o't qalab o'ttum.

Ofoqni<sup>2</sup> bir lahzada kezdim na ajabdur,  
Mino tog'idin akka sifat hakkalab o'ttum.

Ottim fashu dastorini<sup>3</sup> devonalig<sup>4</sup> aylab,  
Parvona sifal jonimi o'tqa qalab o'ttum.

Bildimki, vafosi yo'q ekan ushbu jahonni,  
Mardona bo'lub, balki, etak siltalab o'ttum.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,  
“Borg'il nariga!” — deb ketig'a shattalab o'ttum.

Bildimki, oni dushmani makkorai ayyor,  
“Lo!<sup>5</sup> — tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum.

Mardonii Xudo dediki: “Dunyo mayi achchig<sup>6</sup>”,  
Achchig'ligini bilmak uchun bir yalab o'ttum.

Nafs kofiri birla tunu kun qildim urushni,  
Tanho qilichi birla urub, qiymalab o'ttum.

Xomush pichog'in har dam oning bo'g'zig'a qo'syдум,  
Cho'g' nayzasi birla ko'zini nayzalab o'ttum.

Devonai Mashrab, bu so'zung dardga davodur,  
Oshiq elining ko'nglig'a bir o't qalab o'ttum.



### Savol va topshiriqlar

1. Shoirning olamni bir lahzada kezganligi sababini izohlang.
2. Oshiqning sallani uloqtirishi dahriylikning ko'rinishimi yoki so'fiylikning? Fikringizni isbotlang.
3. Shoirning dunyoga dushmanlarcha qarashi sababini g'azal matniga tayanim, izohlang.

<sup>1</sup> Nayiston — qamishizor. <sup>2</sup> Ofoq — dunyo. <sup>3</sup> Fashi dastor — sallu va pechi. <sup>4</sup> Lo — yo'q.

\* \* \*

Qildi menga bir jilvaye nogoli boqa qoldim,  
Ul jilvasig'a din ila dunyo sota qoldim.

Ma'shuq dediki: "Bovar<sup>1</sup> emas menga bu ishqing",  
G'ayrat tig'i birla yuragimni ocha qoldim.

Arz<sup>2</sup> ustidan ul Arshgacha shalibozini<sup>3</sup> ko'rgach,  
Tan shahrida ul jon qushidek tolpina qoldim.

G'am tog'ida Farhod sisat emganur erdim<sup>4</sup>,  
Boshing'a balo teshasi tegdi, yota qoldim.

Mashrab, yo'lida turfa parishon yurur erdim,  
Ul moh chiqibon burqa' ko'tardi, boqa qoldim.



### Savol va topshiriqlar

1. G'azalning matla'sida tasvirlangan jilvagar shaxsi haqida mulohazangizni aytинг.
2. Oshiqning "G'ayrat tig'i birla yuragimni ocha qol" ishiga sabab bo'lgan holatni anglatинг.
3. G'azaldağı ma'shuqni kim deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

\* \* \*

Agar oshiqlig'im aysam, kuyub jon-u jahon o'rta,  
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi<sup>5</sup> ul xonunion o'rta.

Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon,  
Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rta.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron,  
G'amim boshqa, alami boshqa, yuragimni fig'on o'rta.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dan firoqingda,  
"Nigoro!" deb oting aysamki, shavqingdin zabon o'rta.

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,  
Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rta.

<sup>1</sup> Bovar — ishonarli. <sup>2</sup> Arz — Yer shari. <sup>3</sup> Shahboz — lochin. <sup>4</sup> Emganur erdim — qiyonalardimi. <sup>5</sup> Taqi — lag'in, yana.

Na qattig' kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo'lmoq,  
Mening ohim o'tig'a bul zamin-u osmon o'rta.

Yurakda dard-u g'am qat-qatki, menda qolmadi toqat,  
Agar bir zarrasin bul vaqt desani, ishqil bayon o'rta.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holunni so'rnassan,  
Unum chiqsa yurakdin, bu tan-u jon, ustixon o'rta.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig'a solma,  
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o'rta.

### Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun oshiqlik bayoni jonni kuydirib, jahonni o'rta?
2. Ishq o'tidan yetgan bir zarra odamni qay holga tushirishiga diqqat qiling. Sababini izohlang.
3. "Nechuk toqat qilay, do'stilar, bu dard ila bo'lub hayron, G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rta" baytini tahlil qiling. Oshiqni o'rtaotgan tuyg'ularni sanang.
4. Yorning nomi zikr etilganda zabolni o'rtaydigan shavqni qauday anglaysiz?
5. "Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay, Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rta" baytidagi sharhi hol usulini izohlang. Bu bayt g'azalning ikkinchi va uchinchi baytlari bilan qaysi jihatdan uyg'un?
6. G'azalning qaysi baytlarida saj' ichki qosiyasi qo'llanganini aniqlang va ularning she'r badiiyatida tutgan o'rnnini izohlang.
7. G'azalning oxirgi ikki baytini tahlil qiling. Ularda ifodalangan mazmunni sharhang.

\* \* \*

Murodingga yetay desang, qalandar<sup>1</sup> bo'l, qalandar bo'l,  
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Og'izdin dur sochay desang, sharobi ishq iehay desang,  
Yomonlardin qochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Fasod ahlin<sup>2</sup> quvay desang, (ketiga) bir uray desang,  
Bu dargohdin suray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

<sup>1</sup> Qalandar — bu dunyoning barcha huzur-halovati-yu aysh-ishratidan, orzu-havasidan voz kechib, haqni izlab, kezib yuruvchi so'fiy siyrat darveshlari. <sup>2</sup> Fasod ahli — buzg'inchilar, haq yo'lidan aynigan, imonini yo'qolgan toifa, qolondarga raqib toifalardan.

Riyozatsiz<sup>1</sup> bo'lay desang, Janim ozod yuray desang  
 Jalonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
 Razolat<sup>2</sup> kuyduray desang, zalolat<sup>3</sup> o'duray desang,  
 Hamasin supuray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
 Bu taqvodin<sup>4</sup> kechay desang, xonaqohdin<sup>5</sup> qochay desang,  
 Haqiqatni ochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
 Guharrezlik<sup>6</sup> qilay desang, hammani kulduray desang.  
 Chu Mashrabdek bo'lay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Shoir biremchi satrda qaysi murodga yetish to'g'risida so'zlayapti? Shoir tutgan maslak nuqtai nazaridan kelib chiqib javob bering.
2. Qalandarlarning og'izdan dur sochishi deganda nimani tushuningiz?
3. Fasod ahlini tushuntiring. Ular qanday kishilar?
4. "Razolatni kuyduray desang, zalolat o'duray desang, Hamasin supuray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l" satrlarini tahlil qiling. Sizningcha, bugungi kun razolati va zalolati nimalarda ko'riniadi? Mamlakatda va dunyoda yuz berayotgan voqealardan kelib chiqib, javob bering.
5. Tasavvuf ahlining guharrezligini qanday tushunasiz? Hammani kuldirish o'z ma'nosida qo'llanganmi?
6. G'azalning qosiya va radifini aniqlang. Ularning she'r mazmunini anglatish-dagi ahamiyati haqida fikr yuriting.

\* \* \*

Sanamning ishqida timmay yurub ovvora Mashrabman,  
 Ko'zi yoshlig<sup>7</sup>, qadi xamlig<sup>8</sup>, dili sadpora Mashrabman.

Ko'ngulda zarracha dunyoni mehri bo'lmagay menda,  
 Seni deb ikki olamdin kechib, bezora Mashrabman.

Olib ketsam, lahad ichra so'ngakdin ketmagay dardim,  
 Jahonda topmadim choraki, men — bechora Mashrabman.

Boshinga ming balo kelsa, tilarman vasing, ey zohid,  
 "Tilim kessang, to'yorim yo'q,— degan,— diydora" Mashrabman...

<sup>1</sup> Riyozat — qiyunalish, mashaqqat. <sup>2</sup> Razolat — razilik, pastkashlik, tubanlik. <sup>3</sup> Zalolat — adashish, yo'lldan chiqish, gurmohlik. <sup>4</sup> Taqvo — dindorlik, parbezkorlik; tasavvuf namoyandalarini amalsiz taqvoni riyokorlik hisoblaydilar. So'fi yu qalandarlar riyosiz taqvo tarafdiri bo'lganlur. <sup>5</sup> Xonaqoh — so'styularning ibodal uyi. <sup>6</sup> Guharrezlik — yoqimli, ko'uglochur so'zlar so'zlash.



## Savol va topshiriqlar

1. Sanamning ishqida ovvora Mashrabning nima uchun “*Ko‘zi yoshlig’, qadi xamlig’, dili sadpora*” ekanligini izohlang.
2. Ikkinci misradagi “*bezora*” so‘zi nimaga nisbatan ishlatalgan va nima uchun?
3. O‘lganda ham labadda oshiq suyak(so‘ngak)laridan ketmaydigan dard nima ekan? Nima uchun unga bu dunyoda chora topilmadi?
4. Shoir Mashrabning yana qanday she’r va g‘azallarini bilasiz?

## Nazariy ma'lumotlar

### TASAVVUF VA TASAVVUF ATAMALARI

Tasavvuf ta’limotining maqsadi komil insonni tarbiyalash ekanligini Siz yaxshi bilasiz. Bu ta’limot bo‘yicha inson komillikning shariat, tariqat, haqiqat deb ataladigan bosqichlardan o‘tishi kerak. Shariat barcha musulmonlar uchun xos va majburiy bo‘lib, u islomiy hukmlar, yo‘riqlar majmunidir. Shariatni qabul qilmagan kishi musulmon bo‘lmaydi, binobarin, komillik yo‘liga birinchi qadamni ham qo‘ymagan hisoblanadi. Shariatni haq deb bilgan odam o‘zi xohlab poklanish, komillik yo‘li bo‘lmish tariqatga kirishi mumkin. (Tariqat so‘zining “yo‘l” degan ma’noni anglatishi eslatildi.) Tariqatga kirgan odamni so‘fiy, solik, murid, darvesh deb ataydilar. So‘fiy tariqatda pir (murshid)ga qo‘l beradi (qo‘l berish — bu poklanish uchun ahd) va unga (pirga) inon-ixtiyorini topshiradi, uning ko‘rsatmalariga so‘zsiz bo‘ysunib, poklanish amallarini bajaradi.

Tasavvufdagagi holat, poklanish vositalari, tushunchalarini ifodalash uchun maxsus istiloh (atama)lar qo‘llanudi. Yuqorida kelgan tariqat, pir, so‘fiy kabi so‘zlar ham tasavvufiy istilohlardir. Tasavvuf adabiyotini, xususan, she’riyatini tushunish uchun istilohlar ma’nosini biliш zarur bo‘ladi. Yo‘qsa, asarlar tushunilmaydi yoki yanglish, hatto ko‘zda tutilganiga zid, teskari ma’no uqilishi mumkin.

Tasavvuf adabiyotida ishq markaziy tushunchadir. (Ishqqa oldin berilgan ta’rifni eslang.) Boshqa tushunchalar, obrazlar, vositalarning hammasi undan kelib chiqadi yoki unga bog‘lanadi. Ishq ikki turli bo‘ladi: majoziy ishq — Olloh lomonidan yaratilgan barcha narsaga: insonga va butun borliqqa nisbatan



muhabbat, mehr, ardoq anglashlik tuyg'usi; haqiqiy ishq — boshqa hech narsaga qiyos qilinmaydigan Yaratganni tuyish, anglash va U bilan birlik tuyg'usi. Ishq qo'yilgan ma'shuq tasavvuf adabiyotidagi Yor (mahbub(a), ma'shuq(a), jonon, do'st, rafiq) obrazidir. Majoziy ishqdag'i yor inson bo'lib, payg'ambar Muhammad alayhissalom yoki tariqat peshvisi piri komil nazarda tutiladi. Shuningdek, otaona, surzand, ayniqsa, go'zal ayol yoki ko'rkan yigit ham yor obrazi orqali beriladi.

Haqiqiy ishq nuqtayi nazaridan esa u Ollohdir. Ishq ko'pincha may, sharob istilohlari orqali ifodalananadi. May (ishq) quyiladigan kosa, jom, qadah kabi idishlar ko'ngil (so'fiy qalbi) ramzlaridir. Ko'nglida (idishda) ishq (mavi) to'la oshiq (mast, xumori)lar to'planadigan joy esa pir (murshid) dargohi bo'ladi. Bu yerda ular muridlarini tarbiyalaydi, nafs qulqularidan xalos bo'lish yo'llarini ko'rsatish hamda ilohiy haqiqatlardan ogoh qilish bilan so'fiylar qalbida ilohiy ishq uchqunlarini yolqinlatadilar. Bunday pirlar dargohi tasavvusda mayxona (butxona, xarobot) istilohlari bilan yuritiladi. Ishq may ekan, ishq borlar to'planadigan joyning mayxona atalishi tabiiy. Mayxonada odatda may tarqatuvchi, mayni quyib ulashuvchi shaxs bo'ladi. Tasavvuf mayxonasi (dargohi)da ma'rifat ulashuvchi, ishq sirlarini talqin etuvchi piri komilga soqiy istilohi qo'llangan.

Ishq ahli (oshiq) deganda asosan so'fiylar tushunilsa, vavl ahli deganda komillikka yetishgan, avliyolik styratini kusb etgan zotlar nazarda tutiladi. Lab — (haqiqiy yoki majoziy) yorning kalomi, ko'rsatmalari, purma'nno so'zları; bo'sa — oshiqning (haqiqiy yoki majoziy) yor visolidan bahramandligidir.


Nasroniy diniga mansub kishi ma'nosini bildiruvchi tarso istilohi tasavvusda o'zini Olloh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson ma'nosida qo'llanadi. Xaloyiq (xalq, mardum, el) esa haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko'ngil bergen nafs bandalari. Dunyo esa so'fiylar nazdida nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan vogelik.

Ta'kidlash joizki, tasavvufiy ruhda yozilmagan mumtoz asarlarda ushibu so'zlar yuqoridagidek istilohiy mazmunda emas, o'z lug'aviy ma'nolarida tushunilishi kerak.



## MUHAMMAD RIZO OGAHİY

(1809—1874)



Shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy xalqimiz tarixida o'ziga xos o'rniغا ega bo'lgan serqirra iste'dod sohibidir. U ijodining ko'lami, she'riyatining ko'rkaligi va badiiy salmog'i bilan ajralib turuvchi sermaksul va serqirra shoir hisoblanadi. Ayni paytda xalqimiz o'tmishini haqqoniy aks ettirgan bir necha nodir asarlari bilan tarix ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olim sisatida e'tirof etiladi. Shuningdek, uning juda ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni fors tilidan ona tilimizga o'girib, ularni xalqimizning ma'naviy merosiga aylantirishdagi xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Ogahiy 1809- yili 17- dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang'ich ma'lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siyoshi bo'lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo'ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o'rgandi. 1829- yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o'rniغا Ogahiyni mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinlaydi. Suv tanqis bo'lgan Xorazmda miroblik nihoyalda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uni ishonzchli va halol odam boshqarishi lozim edi.

Shu davrdan Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sisatidagi faoliyatini boshlanadi. U davlat ishlari bilan birga badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to'xtatmadи. Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy 1839- yilda Munis boshlab qo'ygan "Firdavs ul-iqbol" (Iqbol bog'i) asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825- yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatdi. 1844- yilda "Riyoz ud-davla" (Saodal bog'lari) kitobini tamomladi.

1845- yildan Ogahiy hayotidagi og'ir va misibatlari davr boshlanadi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to'shakka bog'lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo'ldoshidan ham ajraladi. 1857- yilda miroblikdan iste'fo berishga

majbur bo'ladı. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadı. Kuchli iroda, hayotni sevishi Ogahiyini ijodga, izlanishga undadi. 1846 yilda "Zubdat ul-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i"), 1847—1855- yillarda esa "Jome ul-voqeoti sultoniy" ("Sultonlik voqealarining yig'indisi") tarixiy asarlarini yozdi. Tarjimalar bilan shug'ullanib, Kaykovusning "Qobusnomá", Nizoniy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Badriddin Hiloliyning "Shoh va gado", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" va boshqa qator asarlarni o'zbekchalaştirdi. XIX asrning 60- yillarida "Gulshani davlat" va "Shohidi iqbol" ("Baxt shohidi") tarixiy asarlarini yozdi. Ogahiy 1874- yili vafot etdi.

Ogahiyning asosiy she'riy merosi ona tilida yozilgan bo'lib, "Ta'viz ul-oshiqin" devonida to'plangan. "Ta'viz ul-oshiqin" — "Oshiqlar tumori" degani. Devon ma'rifatparvar shoh va shoir Feruz — Muhammad Rahimxon Soniy (ikkinchi)ning taklifi va talabi bilan tuzilgan. Bu devon XIX asr o'zbek she'riyatining benazir namunasidir. "Ta'viz ul-oshiqin"da shoirning 20 dan ortiq janrdagi sal kam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ularning 1300 misradan ortig'i fors tilida bitilgan bo'lib, bu Ogahiyning zullisonaynlik ananasini munosib davom ettirganligining yorqin dalilidir. Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she'rlar joy olgan. Lekin ularning aksariyati ishqiy navzudadir.

Shoir ijodida tabiat tasviriga bag'ishlangan bir qator g'azallar bor. Qish va bahor tasviri chizilgan bu she'rlarda Ogahiyning peyzaj ustasi, o'tkir nigoh egasi ekanligi namoyon bo'ladı. Fasl tarovati, go'zalligini berishda shoir tashbih, tashhis (jonlantirish), sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qu'llaydi. "O'yla yetkurdji jahong'a ziynat-u oro bahor" g'azalida o'qiymiz: **«Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon, Qildi sahrog'a tarovat o'zgacha paydo bahor».**

Suvni "obi hayvon" — tirklik suviga o'xshatish qidimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Tashxis (jonlantirish) san'atini mohirona qu'llagan shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatadi. Bahor ana shu suzuk suvi bilan sahroga o'zgacha tarovat bag'ishlagan. Keyingi misralarda bahoriy yel rayhonlarga Masihdek "loza jon" ato qilgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-yu shaydo bo'lganlari, lola soqysi qo'lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar orqali bahor ko'tarinki zavq, hayojonli shavq bilan vasf qilinadi. Bu go'zalliklarni madh etgan shoir uni g'animal bilib, qadrlashga chorlaydi: **«Gulshan ichra bazm etib jomi tarab no'sh aylali Kim, g'animatdurable necha kun, ey qadi ra'no, bahor».**

Shuningdek, "Baland aylab quyosha poya navro'z", "Bahor ayyomni bo'lmish o'ylakim bog'i Eram sahro" g'azallarida ham bu ko'rkan faslning beqiyos nazokatlari kuyylanadi. "Ilohi, har kuning navro'z bo'lsin" g'azalida bu she'r yaratilgandan buyon barchanining diliiga jo bo'lgan ochorli yangi yil tilaklari izhor etilgan:

Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,  
Hamisha tole'ing feruz bo'lsun.

Bo'lub ayyomi navro'zing muborak,  
Zamiring inbisotanduz bo'lsun.

“Ta'viz ul-oshiqin”dagi ishqiy g'azallar nafaqat Ogahiy ijodining, balki butun o'zbek muntoz adabiyotining sara namunalari hisoblanadi. “Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo'lub boshingdin aylansun”, “Mushkin qoshining hay'ati ul chashumi jallod ustina”, “Ey sho'x, ko'zi qoshinga olam gado, man ham gado” g'azallari Ogahiyning yuksak badiiy mahoratini, chinakam san'atkor shoir ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, “Ustuna” radifli g'azali o'zining jozibasi, badiiy kashfiyotlarga boyligi bilan ajralib turadi: *«Mushkin qoshini hay'ati ul chashmi jallod ustina, Qatlim uchun nas keltirur, "nun" eltibon "sod" ustuna»*.

Arab alifbosida “nun” qoshga, “sod” ko'zga o'xshashligidan foydalananib, shoir yor go'zalligining o'ziga xos tasvirini yaratadi. “Nun”ni “sod”ning ustiga qo'yilsa (ya'ni avval “nun”, keyin unga qo'shib “sod” yozilsa), “nas”, ya'ni “hukm” so'zi hosil bo'ladi. Bu hukm (nas)ga ko'ra oshiq qall etilishi kerak. Chunki “nun”ga o'xhash mushk rangli qora qosh bilan “sod”ga o'xhash ko'z o'zlarining yor yuzidagi ko'rinishi (hay'ati) bilan bu hukmni chiqarganlar. Ogahiygacha ko'z-u qoshni mazkur harflarga tashbeh qilish, chashim (ko'z)ni jallod deyish an'anaviy tasvir edi. Lekin harflardan so'z yasab va uni mazmunga, tasvирga tadbiq etish — bu yangilik edi. Shoirning ko'p g'azallarida mana shunday yuksak badiiyatga yo'g'rilgan baytlar uchraydi. E'tiborli jihat shundaki, asosan ishqiy mavzudagi bunday g'azallar bag'riga falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mazmun ham ustalik bilan singdirib yuboriladi. Ba'zan g'azallarda yor timsolri orqali, xususan lirik qahramonning unga murojaatida shohga xos xususiyatlar aks etadi. Masalan: *«Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini, Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina»* yoki “Aylansun” radifli g'azalidagi

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,  
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun.

kabi baytlarda buni kuzatish mumkin. Shuningdek, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari devondagi muxaimmas, musaddas, ruboij, tarji'band va qasidalarida ham u yoki bu darajada o'z aksini topgan. Xususan, “Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, malikam emas” tarji'bandi tasavvufiy mazmunga yo'g'rilgan ijtimoiy-falsafiy ruhidagi asardir. Tarji'bandda dunyo omonat binoga, bo'yi, vafosi yo'q gulshanga, jafokor tuban ayyoraga o'xshatiladi va insonni unga ko'ngil berib. aldanib qolmaslikka chaqiradi.




“Qasidai nasihat” esa Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlari va burch-vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnomadir. Odatda qasidalarda biron-bir voqeа yoki shaxs ulug'lanadi, har tomonlama vasf qilinib, benuqson, ideal qiyofada tasvirlanadi. Ogahiyning qasidasi esa odatdagи maqtovlar tizmasidan iborat bo'lib qolmadi. U mazkur asarni yozishda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan edi. Shunga ko'ra adib qasida vositasida ko'pni ko'rgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida yosh xonga nasihatlar qiladi, davlatni boshqarish san'atidan saboq beradi. “Qasidai nasihat” adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lib goldi.

Ogahiyning kichik she'riy janrlar: ruboyi, tuyuq, ta'rix, fard kabi shakllarda ham benazir ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, musoviyattarafayn (ikki tomonlama teng, bir xil) shakliida yozilgan she'ri adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan hodisalardan deyish mumkin. She'rni ikki xil — odatdagи yon tarafga hamda yuqorida pastga tomon o'qisangiz, bir xil matn hosil bo'laveradi. Bu she'r bilan tanishing.

Ul sho'xki	oehildi	xal-u	ruxsori
Oehildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xal-u	yuzi	besabr-u qarori	man man
Ruxsori	gulnori	man man	zori

Ogahiy salaflari Lutsiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi munloz adabiyotimiz yorqin siymolari an'analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, yangi badiiy kaslifiyotlar bilan boyitdi. Uning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodи uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.



### Savol va topshiriqlar

1. Ogahiyning yetuk inson va iste'dodli adib bo'lib yetishuvida u voyaga yetgan muhitning abaniyali lo'g'risida mulohaza yuriting.
2. Shoirning devoni nima uchun “Ta'viz ul-oshiqin” – “Oshiqlar tumori” deb atalishini izohlang.
3. Ogahiyning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rmini qanday baholaysiz?

## LIRIKA

### G'AZALLAR

Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,  
Hamisha tole'ing feruz bo'lsun.

Bo'lub ayyomi navro'zing muborak,  
Zamiring inbisot anduz<sup>1</sup> bo'lsun.

Qilib partav fikanlik<sup>2</sup> ayni adling  
Quyoshoso jahon afruz<sup>3</sup> bo'lsun.

Sango doyim bo'lub davlat qushi rom,  
Shikor andoz-u<sup>4</sup> dastomuz<sup>5</sup> bo'lsun.

Aduu vahshilarini sayd etarg'a  
O'q-u tig'ing uqob-u<sup>6</sup> yuz bo'lsun.

Kishikun, istasa sarkashlik etmak,  
Boshi yo'lingda oning tuz<sup>7</sup> bo'lsun.

...Ko'rub lutsingni, har tun Ogahiyning  
Nasibi ishrati navro'z bo'lsun.



### Savol va topshiriqlar

1. Shoir "*Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun*", — der ekan, kundalik hayoting faqat bayramlardan iborat bo'lsin degan tilakdan boshqa narsani ham ko'zda tutganimi?
2. "*Qilib partavfikanlik ayni adling Quyoshoso jahon afruz bo'lsun*" misralarini tabhlil qiling. Bayt mazmunidan ushbu so'zlar kimga qarala ayttilayotganini bilishga urining.
3. "*Sango doyim bo'lub davlat qushi rom, Shikor andoz-u dastomuz bo'lsun*" baytidagi tanosub san'atini sharhlang.
4. Hukmdorning dushmanlari haunda umga iloat etmoychilarga bildirilgan tilaklarni o'qing va izohlang.
5. "*Tarabgohing aro xayyoti gardun, Kaniz-u zoli xil'atdo'z bo'lsun*" baytidagi tashbehlarni loping va ularning mazmunini ifodalashidagi o'rnnini baholang.

<sup>1</sup> Inbisot anduz — quvonch larqatuveli. <sup>2</sup> Partav fikan — nur, shu'la laratuveli. <sup>3</sup> Afruz — yorituvchi. <sup>4</sup> Shikor andoz — ov qiluvchi. <sup>5</sup> Dastomuz — qo'llga kiritilgan. <sup>6</sup> Uqob — burgut. <sup>7</sup> Tuz — 1) lo'g'ri, rost; 2) dala.

\* \* \*

Baland aylab quyoshga poya<sup>1</sup> navro'z,  
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.

Kelib fayz-u nishot-u<sup>2</sup> aysh birla,  
Muhayyo qildi elga voya<sup>3</sup> navro'z.

Tarab tiflin<sup>4</sup> tug'urdi dahr zoli<sup>5</sup>,  
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Qilibdur mahliqolarning yuzini  
Latofat mushafiq'a oya navro'z.

Kiyib ahli g'ino<sup>6</sup> yuz rang xil'at,  
To'lo boshdin ayoq peroya<sup>7</sup> navro'z.

Hama o'ynab olib qo'lg'a yumurta<sup>8</sup>,  
Mening ilgimda yoqtur xoya<sup>9</sup> navro'z.

Diramdur<sup>10</sup> moyasi ishrat ulusg'a<sup>11</sup>,  
Vale men bo'lmisham bemoya navro'z.

Janobi shahg'a keldim bu jihatdin,  
Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z.

Ki shoyad o'zgalardek Ogahiyni  
Tarabnok<sup>12</sup> ayladi beg'oya navro'z.

## Savol va topshiriqlar

1. Navro'zning quyosini yuksalirib, soyalarini ko'tarishini qanday tushundingiz?
2. "Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z" satrlarni sharhlang, shoirning tasvir mahoratiga baho bering.
3. Mahliqolar yuzi — oyat, latofat — mushaf (Qur'on). Ushbu favqulodda tashbehqiga munosabal bildiring. Unda Ogahiyan xos qaysi jihat namoyon bo'lmoqda?
4. Shoirning badaylat kishilar (ahli g'ino) tasvirini berishdan maqsadi nima edi? Keyingi misralar mazmunidan kelib chiqib, fikr bildiring.
5. Shoirning o'z nochor ahvolini bayon etishdan muddaosi nima edi?
6. "Janobi shahg'a keldim bu jihatdin, Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z" baytidagi mublag'a san'atining ahamiyatini izohlang.

<sup>1</sup> Poya — qadr, daraja, bosqich. <sup>2</sup> Nishot — shodlik. <sup>3</sup> Voysa — 1) Muqaddima. 2) bahra. 3) kutilgan vug'l. <sup>4</sup> Tifl — go'dak, chiqaloq. <sup>5</sup> Zol — kempir. <sup>6</sup> G'ino — boylik. <sup>7</sup> Peroya — ziynat, bezak. <sup>8</sup> Yumurta — tuxum. <sup>9</sup> Xoya — tuxum. <sup>10</sup> Dirum — dirham. <sup>11</sup> Ulus — xalq. <sup>12</sup> Tarabnok — xursondlik.

\* \* \*

Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish,  
Ki aql-u hisg'a yaksar<sup>1</sup> momi' o'ldi borchha ishdin qish.

Agarchi asradim ojiz tanim qat-qat libos ichra,  
Sovuq yel birla lekin qoltiratdi ko'b qamishdin qish.

Burudat<sup>2</sup> shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,  
Zalif-u notavon-u nozik yetti ham kirishdin qish.

Chiqorg'a har nechakim ko'rguzub ko'b sa'i tish qisdim,  
Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borchha tishdin qish.

Qabob kulbam aro qo'y may chiqorg'a sarsar afvoji<sup>3</sup>,  
Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish.

Manga mushkildurur topmoq ilojinkim, g'ino ahli,  
Iloj aylar sovuqqa qoqim-u sinjob kishdin<sup>4</sup> qish.

Yetishdi, Ogahiy, qish mavsumi, vah, emdi naylarsan,  
Ki, qottig'dur qari-yu ojiz elga borchha ishdin qish.



### Savol va topshiriqlar

1. *"Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish"* misrasida ham qosiya, ham radif bo'lib kelayotgan "qish" so'ziga qanday badiiy vazifa yuklanganligini tushuntiring.
2. Ikkinci baytda qishdag'i nochor odamning holati berilgan tasvirni izohlang.
3. *"Chiqorg'a har nechakim ko'rguzub ko'b sa'i tish qisdim, Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borchha tishdin qish"* baytida shoir qish shiddatini berishda qaysi badiiy tasvir vositasidan foydalangan?
4. Ushbu she'rni yozishdan Ogahiy qanday maqsadni ko'zlagan deb o'ylaysiz?
5. Qosiya va radif bo'lib kelgan so'zlarning tovush tuzilishidagi yaqinlik g'azalda qanday badiiy-ifodaviy ahamiyat kasb etgan?

\* \* \*

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun "nas" kelturur "nun" eltibou "sod" ustina.

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.

<sup>1</sup> Yaksar — bir boshdan. <sup>2</sup> Burudat — sovuqlik. <sup>3</sup> Afvoj — to'dalar. <sup>4</sup> Qoqim-u sinjob kish — silovsin, qunduz terisidan po'stim.



Noz-u adou g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,  
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar,  
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.

Boshing'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,  
Gardun<sup>1</sup> agar ming Besutun<sup>2</sup> yog'dursa Farhod ustina.

Ey shah, karam aylar chog'i teng tul yamon-u yaxshini  
Kunu, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil  
Sayr et Sulaymondek agar taxling qurub bod<sup>3</sup> ustina.

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,  
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.



### Savol va topshiriqlar

1. G'azal matlasida qo'llangan kitobat (harfiy) san'atni sharhlang.
2. *"Qilg'il tamosh qomati zebosi birla orazin, Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin paywand shamshod ustina"* satrlaridagi Ogahiyning badiiy kashfiyatini izohlang.
3. *"Noz-u adou g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina"* baytida oshiqqa nimalar qasd qilayotganini tushuntiring. Shoир nima uchun ularni "muncha ofat" deb ta'riflaydi?
4. *"Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina"* baytida qo'llangan tashbeh, tamosub san'atlarini hamda ularning fikr ifodasidagi ahamiyatini sharhlang.
5. Quyi sinfla o'rganganingiz talmeh san'atini yodga oling. Ushbu g'azalning qaysi baytida bu san'at qo'llanganini aniqlang hamda uning mazmunni berishda tutgan o'rniiga baho bering.
6. G'azalidagi ijtimoiy, falsafiy mazmundagi baytlarni topib, ularni tahtlit qiling.
7. G'azalni yod oling.

\* \* \*

Yuzing ochkin, quyosh sadqang bo'lub, boshingdin aylansun,  
Yangi oy yuz tavozu' ko'rguzub, qoshingdin aylansun.

<sup>1</sup> Gardun — salak, taqdir. <sup>2</sup> Besutun — 1) osmon; 2) Erondagi tog' nomi. <sup>3</sup> Bod — shamil.

Agarchi la'l-u yoqt el zamirig<sup>1</sup> mufarrihdur<sup>2</sup>.  
Hayotafzo<sup>3</sup> iki la'li guharposhingdin<sup>4</sup> aylansun.

Tan-u jonim hadaf<sup>5</sup> aylab, o'q-u tosh otsang, ey chobuk<sup>6</sup>,  
Biri o'qingdin evrulsun, biri toshingdin aylansun.

Raqibing gar erur xasmim<sup>7</sup>, ani yo'ldosh etub kelsang,  
Sanga jon sadqa bo'lsun, jism yo'ldoshingdin aylansun.

Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa<sup>8</sup> jamolingdin  
Ki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdin aylansun.

Boqib ko'z uchidin pinhon' fosh etding tag'ofillar<sup>9</sup>,  
Yo'q-u borim hamul<sup>10</sup> pinhon ila foshingdin aylansun.

Necha qallosh esam ham, ag'niyo<sup>11</sup> ollida bosh egmon,  
G'anlylar himmat ichra ushbu qalloshingdin aylansun.

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,  
Riyo-vu kizb ahli<sup>12</sup> noning-u oshingdin aylansun.

Ul oy ko'nglig'a qildi, Ogahiy, oh-u yoshing ta'sir,  
Bori jon-u jahonim oh ila yoshingdin aylansun.

## Savol va topshiriqlar

- Yor yuziga quyoshning sadqa bo'lishi, qoshiga yangi oyning tavozu ko'tsatishidagi hayotiy hamda badiiy mantiqni asoslang.
- "*Tan-u jonim hadaf aylab, o'q-u tosh otsang, ey chobuk, Biri o'qingdin evrulsun, biri toshingdin aylansun*" baytida yorning o'qidan evrulgan nima edi-yu, toshidan aylangan biri nima?
- Uchinchi baytda oshiqning yorga sadoqati qay tarzda namoyon bo'layotganligiga diqqat qiling.
- Qaysi baytda ma'shuqaning olamlarga latigulik go'zalligi mubolag'ali yo'sinda tasvirlangan?
- "*Boqib ko'z uchidin pinhon' fosh etding tag'ofillar, Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun*" baytidagi tazod san'atini va bu san'atga yuklangan badiiy-isodaviy salmoqni sharhlang.

<sup>1</sup> Zamir — ich, ko'ngil. <sup>2</sup> Mufarrih — shodlik, xursandchilik keltiruvchi. <sup>3</sup> Hayotafzo — hayotni yashnatuvchi. <sup>4</sup> Guharposh — gavhar sochuvchi. <sup>5</sup> Hadaf — nishon. <sup>6</sup> Chobuk — sho'x, o'ynoqi go'zal. <sup>7</sup> Xasm — dusluman. <sup>8</sup> Burqa' — yuz pardasi, hijob. <sup>9</sup> Tag'ofil — beparvolik. <sup>10</sup> Hamul — o'sha, shunday, xuddi o'zi. <sup>11</sup> Ag'niyo, g'aniy — boy, badavlat. <sup>12</sup> Riyo-vu kizb ahli — riyokor va yolg'onchilar.

## TASHXIS

Muntoz she'riyatimizda keng qo'llangan badiiy tasvir vositalardan biri tashxisdir. "Tashxis" arabcha so'z bo'lib, "shaxs" o'zagidan hosil bo'lgan (ta — old qo'shimcha). O'zbek tiliga tarjuma qilsak, "shuxslantirish" degan ma'noni anglatadi. Demakki, tashxis faqat insongagina xos bo'lgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzollar, borliqdagi narsa-buyunlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko'chirish san'atidir. Tashxis orqali shoir tasvirlanayotgan manzara yoki tushunchani o'quvchi tasavvurida qayta jondantirib, she'rdagi timsollar jozibasini oshiradi, ularning hissiy ta'sirini kuchaytiradi.

Ogahiy she'riyatini tablillashi davomida Siz shoirning tashxis san'atidan unumli foydalaniib, o'ziga xos timsol va tasvirlar yaratganligiga guvoh bo'ldingiz. Quyidagi baytda tabiatdagi o'zgarishlarni insonlar hayotidagi voqeliklar orqali tasvirlaydi: «*Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z*».

Ma'nosи: dunyo kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan, navro'z unga doyalik qildi. Biz yashayotgan dunyo juda qadim bo'lganligi uchun kampirga o'xshatilyapti. Ko'klaarning kelishi barchaga shodlik, quvonch keltiradi. Ana shu shodlik chaqalog'ini navro'z doyaligida dunyo kampiri tug'moqda. Shu baytning o'zida uchta tashxis bor: shodlik (tushuncha) tug'ilmoqda; dahr (borliq) zoli tug'moqda; navro'z (tabiat) doyalik qilmoqda: «*Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina!?*». Ma'nosи: Ma'shuqanining nozi, adosi (so'zlari) va g'amzasi navbatma-navbat menga qasd qiladilarki, bir odamning ustiga shunchalar ham ofat bo'ladimi?

Baytdan ko'rindanidiki, insonning o'zidagi holat, xislat va fazilatlar ham tashxis uchun asos bo'lishi mumkin ekan.



---

## ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LlI FURQAT

(1859 — 1909)

---



Zokirjon Xolmuhammad o'g'l'i Furqat o'zining lirik she'riyati bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan, ma'rifatchilik adabiyotining darg'alaridan biri bo'lgan hamda o'zbek publisistikasiga tamal toshlarini qo'yan zabardast ijodkordir. Shoir 1859- yilda Qo'qonda savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi Mulla Xolmuhammad she'riyatga oshmo, badiiy ijodga moyil kishi edi. Bo'lajak shoir dastlabki ta'limni mahallasidagi mактабда oladi. Bir yilga yetmay "Haftiyak" va "Chor kitob" ni o'qib tugatadi. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod oladi, sal o'tib, Navoiy muftolaasiga tutinadi. Kichik yoshidan qalam tutib, she'r mashq qila boshlaydi. Keyinchalik o'zining eslashicha, husnixat ta'limini bolaligidanoq puxta egallagan Zokirjon quyidagi baytni to'qqiz yoshida yozgan ekan: "*Mening mактаб aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim*".

Favqulodda iste'dod egasi, tabiatan tirishqoq va izlanuvchan Zokirjon o'n to'rt yoshida madrasa talabasi bo'ladi. Ruslar istilosini tufayli Qo'qon xonligi tugatilib, madrasalar yopiladi. O'qishi nihoyasiga yetmay qolgan bo'lajak shoir 1879- yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'on)ga do'kondor tog'asi huzuriga boradi. Uning qo'llida bir muddat ishlab, so'ng o'zining mustaqil do'konini ochadi. Shu bilan birga shaxsiy muallimdan dars olib, bilimini takomilga yetkazadi va tez orada o'zi ham boshqalarga dars bera boshlaydi. Husnixat solibi bo'lganligi uchun mirzalik, xattotlik ham qiladi. Lekin eng sevimi mashq'uloti badiiy ijod edi. Mutaxassislar fikricha, Yangi Marg'ilonda ekanligidayoq yozgan she'rlarida u "Furqat" taxallusini qo'yan.

1880- yilda otasining qistrovi bilan Qo'qonga qaytadi va butun iste'dodi, bor kuchini ijodga yo'naltiradi. She'rlari adabiyot ixlosmandlari orasida shuhrat qozonadi. Muqimiydek zabardast shoir uning g'azellariga muxammas bog'lagani



Furqatning ijod ahli orasida ham e'tirof topganligidan darak beradi. Furqat shu davrda "Hammomi xayol" nomli risola yozadi, "Chor darvesh", "Nuh manzar" asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga o'giradi. She'rlarini to'plab, devon tuzadi. Furqat kabi ijodining dastlabki davrida — 21—22 yoshida devon tartib bergen shoir o'zbek adabiyotida juda kam uchraydi.

Furqat 1890—1891- yillarda Toshkentda yashaydi. Bu yerda u Toshkent erlar gimnaziyasi direktori, "Turkiston viloyatining gazeti" muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishadi. Bu tanishuvdan so'ng Furqat shu gazetaga tarjimon bo'lib ishga kiradi va shundan uning jurnalistlik, publitsistik faoliyati ham boshlanadi.

1891- yilning sentabrida Furqat Samarcandga yo'l oladi. Xat orqali tanishgan do'sti savdogar va etnograf olim Mirzo Buxoriy huzurida bo'ladi. Iyul oyida Buxoroga borib, Kogondan poyezdga o'tirib, Marv, Ashxabod, Boku, Botum orqali Istanbulga keladi. Bu yerda bir muddat yashagan shoir butun vujudi bilan ijodga berilgandi. 1892- yilda Iskandariya, Misr, Shom, Makka va Madina bo'ylab sayohatda bo'lgan Furqat sentabr oyida Hindistonning Bombay shahrida edi. 1893- yilning bahorida Kashmir, Tibel va Xo'tan orqali Yorkentga keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Furqat Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo'lib ishlaydi. Ilmi nujumi, tabobat bilan shug'ullanadi. Ra'no ismli ayloga uylanib, farzandlar ko'radi. U to 1906- yilgacha Turkiston bilan, "Turkiston viloyatining gazeti" bilan aloqani uzmaydi. Furqat 1909- yilning kuzida vatandan yiroqda vafot etadi.

Furqatning merosiga nazar tashlasak, adibning serqirra ijod sohibi ekanligiga amin bo'lamiz. Uning ijodi quyidagi asarlarni o'z ichiga oladi: 1) lirkasi; 2) publitsistikasi, nasriy asari; 3) tarjimalari; 4) ilmiy asarlari.

Furqat tarjimon sifatida Sharq adabiyotining mashhur namunalari bo'lmish "Hammomi xayol", "Chor darvesh", "Nuh manzar" asarlarini tarjima qilgan. Ammo ular bizgacha yetib kelmagan.

Adibning turli yillarda "Turkiston viloyati gazeti"ga yozgan qator xabarlar, maqolalari uning publitsistikasini tashkil etadi. 1891- yili "Turkiston viloyatining gazeti"da bosilgan "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning alvoloti. O'zi yozg'oni" deb nomlagan tarjinayı holi uni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi. Adabiyotshunoslikda bu esdaliklar shartli ravishda "Furqatnomá", ba'zan "Sarguzashtnoma" nomlari bilan yuritiladi. Mazkur asar shoir bayot yo'li, dunyoqarashini aniqlash borasida katta ahamiyatga ega.

Furqat ijodiy merosida to'rt iluniy asar uchraydi. Ularning uchtasi etnografik xarakterda bo'lib, "To'y tavsifi", "Gap ta'rifida", "Aza tavsifi" deb ataladi. To'rtinchisi "Ilmi ash'orning qoidai avzoni" (She'r iluning o'lehov qoidalari)

atalib, adabiyot havaskorlari uchun qo'llanma sifatida tuzilgan, unda aruz vaznining qoidalari bayon etilgan.

Furqatning manu shunday keng ko'lamli ijodi bo'lishiga qaramay, xalq uni asosan lirik shoir sifatida e'tirof etadi. Lirikasi g'azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod kabib janrlardan iborat. She'rлarining salmoqli qismi g'azallar bo'lib, ularning soni 200 atrofida. Shoirning yuksak badiiy mahorati, she'riyatining nafosati ham aynan g'azallarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, oshiqona kechinmalar bayonida, ma'shuqa jamoli tasvirida yangi, o'ziga xos tashbehlarni, ifoda vositalarini qo'llaydi. Tilining o'ynoqligi, uslubning ravonligi, ifodaning xalqonaligi shoir g'azallarini xalqqa yaqin va suyumli bo'lishini ta'minladi.

Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,  
G'alatdurd, qonating oldida guldan pirahan nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?  
Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik.

Oshiqqa chamanzorda sarv daraxti bilan yosuman gulini nozik va ko'rkan deyishlari g'alati tuyuladi. chunki yorning qomati sarvdan, ko'ylagi (pirahani) guldan nozik, ya'ni go'zaldir. Ma'shuqasining husnini bashariyat tarixidagi eng go'zal inson bo'lmish misrlik Yusuf (a.s.)dan ustun qo'yadi. Bunga uning asosi bor: mahbubasi fasohatda, sabohatda (xushro'ylikda), bir-bir sanashning hojati yo'qki, har to'g'rida nozik — go'zaldir!

Kalomingdin halovat topmog'i jonlarni ondinkim,  
Dahon nozik, zabon nozik ki lab nozik, suxan nozik.

Baytdagi yor go'zalligi belgilarining sanog'i mazmunni bo'rttiradi, ifodaga musiqiylik bag'ishlaydi. Bunday mubolag'aviy tasvir ostida shoirning har tomonlama mukammal — ham jismonan, ham ma'nani go'zal insonni targ'ib etish maqsadi yotadi. Shuning uchun ham Fuzuliy g'azaliga nazira sifatida yaratilgan "Surmadin ko'zlar qaro" g'azali yoki "Muncha zolim bo'lmish ul xunrez qaro ko'zlar" kabi ko'plab g'azallarida yor go'zalligi, oshiqning unga sadoqati, cheksiz muhabbatni avj pardalarda zavq bilan kuylanadi. "Bir qamar siyoni ko'rdim baldai Kashmirda" g'azalida esa ishqiy kechinmalar, oshiqona savol-javoblar shoir hayoti bilan bog'liq qismat chizgilariga ularshib ketadi: *Aydi: "Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?" Man dedim: "G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda".*

Furqat lirkasida g'urbat va hasrat ohanglari salmoqli o'rin egallaydi. Bu uning hayot yo'lli bilan bevosa bog'liq. 1892-yilda vatandan chiqib ketgan shoir

umrining oxirigacha yurtga qayta olmadi. Shuning uchun vatan ishtiyoqi va g'urbat iztiroblari turli mayzudagi she'rlarda dardli va ta'sirechan ifoda etilgan. Shoирning "Fig'onkim, ul buti siymin zaqandan ayrib qoldim", "Hasrato, kelkel beri, ul sho'xi jonondin gapur" radifli g'azallarining maqta'sida yuqorida eslatilgan "Bir qamar siymoni" g'azalida bo'lgani kabi laqdirning unga bergen sinovi — yurt judoligi bayon qilinadi:

O'z diyoridin adashgan, Furqatiy devonaman,  
Chug'zi har vayronadurnen, baytul ehzondin gapur.

Shoirning Istambulda yozgan "Sabog'a xitob" she'rida vatanni qo'msash, do'stlar sog'inehi Navoiydag'i kabi maktub shaklida ifoda etiladi. U Istambuldag'i "nasimi fayzi rab" bo'lgan Milliy bog'da sayr qilar ekan, undagi xurram "mardum" (odamlar) chehrasini ko'rib, olis Toshkentdag'i yor-u do'stlarini esga oladi:

Alar chun aylagach sayr-u safolar,  
Esing'u tushti yor-u oshnolar...

Ayo bodi sabo, Olloh uchun tur,  
O'zingni Toshkand shahriga yetkur.

Furqatning g'urbat ruhidagi she'rlari sinchiklab o'rganilsa, undagi ayrılıq va judolikning ma'nosi anche kengligiga amin bo'lamiz. "Manam sho'rida bulbul" muxammasida birinchi bandidan shoir o'zini bo'stonidan adashgan sho'rida bulbulga o'xshatadi. Keyingi bandlarda "Nihoni kuydirib hajr o'ti po'st-u ustuxon aylar", "Boshimda hushim yo'q", "Yetim qo'zi kabi nololning'im", "Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida" kabi misralar orqali holini sharh etgach, maqta'da bu bayonlarni umumlashtirib, taxallusiga ham izoh berib o'tadi.

Zamon g'avg'osidan adashish — bu dunyodan qo'l yuvish, tariqat yo'liga kirish, o'zini Ollohga bag'ishlash demakdir. Bu yo'lda kirganlar biladiki, inson bu dunyoda o'zining haqiqiy vatani — ilohiy dargohdan uzoqda, haqiqiy Yor — Ollohdan ayriliqdida. Demak, hayotning o'zi furqat, ya'ni ayriliqdirdi. Vatanga, Yorga yetishish uchun esa riyozat chekish, poklanish zarur. Buning yo'li, aytiganidek, zamon oshubidan yiroq bo'lishdir. Oldin ko'rilib g'azallarda furqat, g'urbat tushunchasi yurtdan judolik mazmunida qo'llangan bo'lsa, shoir bu she'rida o'zining taxallusini tasavvufiy ma'noda izohlamoqda. Keyingi tadqiqotlarda Furqat umrining ma'lum bir pallasida tasavvuf yo'liga moyillik bildirib, o'tkinchi dunyo g'avg'olaridan ko'ngilni forig' tutib yashashga intilgani lo'g'risida fikrlar ayttilmoqda. Uning "bormasmiz" radifli g'azalida so'fiyona kayfiyat, qalandarona baland himmat ruhining yetakchiligi shu holat bilan izohlanadi.



Furqat lirikasida ma'rifalni targ'ib etuvchi she'rlar ham talaygina. Adib 1890- yilning martida Toshkentda ekan, N. Ostromov uni Yangi shahar qismiga tomoshaga olib boradi. Furqatni juda ko'pehilik rus amaldorlari, ruslar xizmatidagi o'zbeklar, hatto general-gubernator bilan tanishtiradi. Shu yurishlar natijasida shoirning "Gimnaziya", "Ilm xosiyati", "Akt majlisi xususida", "Nag'ma bazmi xususida", "Vistavka xususida", "Suvorov" kabi she'rlari yoziladi va "Turkiston viloyatining gazeti"da chop etiladi. Bu she'rlarning barchasi masnaviy yo'lida yozilgan bo'lib, ularda maorifni isloh qilish, ilmga da'vat, fan va madaniyat yangiliklarini targ'ib etish g'oyalari olg'a surilgan.



## Savol va topshiriqlar

1. Furqatning umr yo'lidagi qaysi jihatlar ijodida aks etganligini so'zlang.
2. Shoirning ma'rifatchilik yo'nalishidagi usartari vujudga kelishi omillarini aytling.
3. Furqat she'riyatidagi g'urbat tushunchasi qanday ma'nolarni anglatishi to'g'risida fikrlaringizni bildiring.

## SHE'RLAR

### G'AZALLAR

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,  
Do'stlar, g'animatdур, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,  
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar<sup>1</sup>.

Nastaron<sup>2</sup> yuvib yuzni, yosuman<sup>3</sup> tuzib o'zni,  
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,  
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar<sup>4</sup>.

Qumridar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,  
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,  
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Abri nayson — ko'klam buluti. <sup>2</sup> Nastaron — gul turi. <sup>3</sup> Yosuman (jasmin) — gul turi. <sup>4</sup> Biyobon — dasht, cho'l. <sup>5</sup> Giribon — yog'a.

Kechtilar vafo alli qolmayin tutib savsan<sup>1</sup>,  
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,  
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.



### Savol va topshiriqlar

1. Matla'dagi "zimiston" so'zi qaysi ma'noda qo'llangan va mazkur ma'no uchun nega aynan shu so'z ishlatalgan?
2. Ikkinci va uchinchi baytlarga diqqat qiling. Ifodalagi go'zallik, mayinlik va musiqiylikni yuzaga keltiruvotgan vositalarni aniqlang.
3. "Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a, Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar" baytini tahlil qiling. Qaysi tabiat hodisasi tasvirlanayapti?
4. Qumri va bulbullarning sayrashini shoir nima bilan bog'laydi? Bu qushlar she'riyatda kimlarning ramzi sifatida keladi?
5. "Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin, G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar" misralarini sharhlang. Bu go'zal satrlarda qaysi tabiiy jarayon tasvirlanmoqda?
6. G'azal maqtasida ifodalangan fikrga munosabat bildiring. Fasl go'zalligiga bag'ishlangan she'rning ijtimoiy rubhdagi fikr bilan yakunlanishini qanday izohlaysiz?

\* \* \*

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang,  
G'ozadin<sup>2</sup> yuzlarda tob-u<sup>3</sup>, o'smadin qoshlar tarang.

Za'faroniy ko'yak uzra arg'uvoni<sup>4</sup> kamizihur,  
Ro'y mol og'ushidin peshonaning ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok<sup>5</sup>,  
Qo'l bilakuzukdin muzayyan<sup>6</sup>, nuqradin og'izda chang.

Gavhar osqon halqlar siymin banogo'shinda<sup>7</sup> band,  
Ko'rinxur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G'amiza birla o'lturur, gah jilvalar birla yurur,  
Turfa bir noz, ofarin, purishva tannoz-u satang.

<sup>1</sup> Savsan — gulsafsar, qo'g'agul. <sup>2</sup> G'ozza — qizil rangli elik. <sup>3</sup> Tob — nur, jilo. <sup>4</sup> Arg'uvoni — qizil gulli daraxt. <sup>5</sup> Zebnok — yazangan. <sup>6</sup> Muzayyan — bezangan. <sup>7</sup> Banogo'sh — qulog' teshigi.

Aql-hush eltar agar tursa, paritek silkinib,  
Odamizod ichra ham mundog' bo'lurmi sho'x-u shang<sup>1</sup>.

Yo'q qutulmoqlig' manga, ul ofati jon dastidin,  
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang<sup>2</sup>.

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sog',  
Chunki bordur oramizda gohi sulli-u gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jafojo<sup>3</sup> ayladi,  
Muncha bedod-u sitam<sup>4</sup> qilmas musulmung'a farang<sup>5</sup>.



### Savol va topshiriqlar

1. G'azal matla'sini sharhlang. Ayollarning milliy oroyish ashiyolariga diqqat qiling va bugungi kundagi chiroy berish vositalariga taqqoslang. Siz qaysi birini afsal bilasiz?
2. "Za'faroniy ko'yak uzra arg'uvoni kamzihur, Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang" baytidagi tasvirdan kelinchakning qanday kiyunguligini izohlang.
3. "Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok, Qo'l bilakuzukdin muzayyan, nuqradin og'izda chang" baytiga suyanib, o'zbek kelinchagini nafosati lo'g'risida fikr yuriting.
4. G'azaldan olgan tasavvurlaringiz asosida kelinchukni o'z so'zlaringiz bilan tasvirlab bering. Uni albatta yod oling.
5. "O'zbek kelinchagi Furqat tasvirida" deb nomlangan quyidagi jadvalning har bir xonasini g'azaldag'i ularning mazmuniga mos keladigan so'z va birikinlar bilan to'kliring.

Milliy oroyish ashiyolari va zeb-ziynatlar	Tashqi ko'rinishi va kiyimlari	Ma'naviyati va xarakter xususiyatlari
Surma.... oltun uzuk....	Ko'zlar qaro.... za'faroniy ko'yak...	Nuqradin og'zida chang... g'amza birla o'lliturur...

### MUSADDAS

Saying qo'yaber sayyod, sayyora ekan mendek,  
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,  
O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,  
Iqboli nighun, baxti ham qora ekan mendek,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek,

<sup>1</sup> Shang — o'ynoqi. <sup>2</sup> Xadang — o'q. <sup>3</sup> Jafojo' — Jato qiluvechi. <sup>4</sup> Sitam — zulm. <sup>5</sup> Farang — yevropali ko'zda tutiladi.

Kes rishtanikim: qilsun chappaklab otub jasta<sup>1</sup>,  
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta.  
Tog'larg'a eliqib bo'lsun yori bilan payvasta,  
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta<sup>2</sup>,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom<sup>3</sup> etsun,  
Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,  
Yomg'ur suvi to'lganda, tog' lolani jom etsun,  
Haqingg'a duo aylab, umirini tamom etsun.  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Sarg'ashta bu vodiyida bir boshig'a rahm etgil,  
Yo'q toqati bandingga, bardoshiga rahm etgil,  
Rahm etmasang o'ziga, yo'ldoshiga rahm **etgil**,  
Yig'lab senga termulur, ko'z yoshig'a rahm etgil,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo'l, bo'ynini bog'labsan,  
Har sori chekib-sudrab, o'durgali chog'labsan,  
Ko'ksini jafo birla lola kabi dog'labsan,  
Sot menga, agar qasding olg'uvchi so'rog'labsan.  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Yo'q hushii, pari tekkan devonaga o'xshaydur,  
Ko'z yoshi yana to'lgan paymonag'a o'xshaydur,  
G'am seli bilan ko'ngli vayronag'a o'xshaydur,  
Furqatda bu Sa'dullo<sup>4</sup> hayronag'a o'xshaydur.  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Musaddasning to'la malmini o'qib, unda ifodalangan voqeа mazmunini so'zlab bering. Unda qanday rub, keyfiyat yetakchilik qiladi?
2. She'rda qaysi obrazlar ishtirok etmoqda? Ularga ta'rif bering.

<sup>1</sup> Jasta — sarkash. <sup>2</sup> Pobusta — oyog'i bog'li. <sup>3</sup> Xirom — bu yerda davru davron surish ma'nosida. <sup>4</sup> Sa'dullo — Furqatning san'atkori do'stlaridan.

3. “O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek” misrasini sharhlang. Nima uchun shoir sayd — ohuni o‘ziga o‘xshatayapti?
4. Sayd obrazi faqat oylangan ohuni ifodalaydilmi yoki ramziy ma’nosibormi?
5. Sayyod obraziga munosabat bildiring. U kimlarning timsolini gavdalantiradi?
6. Lirik qahramon Sizda qanday taassurot qoldirdi? Ohuga munosabatiga ko‘ra uni o‘zingizga yaqin seziyapsizni?

### *Nazariy ma’lumot*

## **G‘AZAL VA MUSAMMAN**

**G‘azal** arabcha so‘z bo‘lib, oshiqona so‘z, ayollarga xushomad kabi ma’nolarni anglatadi. Bu janr Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hamda eng ko‘p qo’llangan she’r shakli bo‘lib, o’tminishda g‘azal yozmagan ijodkor bo‘limgan. G‘azal dastlab arab she’riyatida paydo bo’lgan. Islom dini tarqalishi bilan bog’liq holda boshqa hududlar, jumladan. O’rta Osiyo xalqlari adabiyotiga o’tgan. Turkiy adabiyotdagi ilk g‘azal “Qisas ar-Rabg’uziy” asarida uchiraydi. Rabg’uziy bilan deyarli bir vaqtida yashagan Xorazmiyning “Muhabbatnomा”sida ham g‘azalning g‘oyat go‘zal va nafis naimunalari bor. Mana, yetti asr o‘tdiki, g‘azal adabiyotimizdan mustahkam joy olib, xalqimiz uchun qadrli va suyukli she’r shakli bo‘lib kelmoqda.

Ishqiy kechinmalar ifodasi sifatida vujudga kelgan g‘azalning mavzu doirasi asrlar o‘tishi bilan kengayib bordi. Shoirlar o‘zlarining ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa qarashlarini, tabiatga munosabatini bu ko‘lna janrda ifodaladilar.

G‘azal baytlardan tashkil topadi. Bayt arabcha “uy” deganidir. Bayt ikki misradan iborat bo‘ladi. G‘azalning birinchi bayti matla’ (arabcha “boshilmanma”), oxirgi bayt maqta’ (arabcha “tugallanma”) deyiladi. G‘azal o‘ziga xos qosiyalanish tartibiga ega. Birinchi bayt — matla’dagi misralar bir-biri bilan o‘zaro qosiyalangan bo‘ladi (shartli ravishda a-a deb belgilanadi). Qolgan baytlarning toq misralari ochiq qolib, just misralari matla’ga qosiyadosh bo‘lib keladi (v-a, d-a, e-a...). An'anaga ko‘ra, maqta’da shoirning taxallusi keltirilgan. Ilmiy adabiyotlarda g‘azalning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha bo‘lishi qayd etiladi.

**Musamman** ham Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida qo’llanib kelayotgan she’riy janrlardan biri. Bu alama arabcha so‘z bo‘lib, sakkizlik degan ma’noni anglatadi. Musammanning har bir bandi sakkiz misradan iborat bo‘ladi. Dastlabki banddagisi misralar o‘zaro qosiyalanadi (a-a-a-a-a-a-a), keyingi bandlarning avvalgi yetti misrasi bir-biri bilan qosiyalanadi, oxirgi misrasi esa birinchi band — matla’ga qosiyadosh bo‘ladi (b-b-b-b-b-b-a; d-d-d-d-d-d-a...). Musammandan kechinmalar tasviri, fikr va holatlar bayoni boshqa janrlarga qaraganda kengroq, batafsilroq ifodalananadi.

### ABDULLA QODIRIY

(1894—1938)



**Hayot va ijod yo'li.** 1894- yil 10- aprelida Toshkent shahrida bog'bon oila-sida dunyoga kelgan Abdulla Qodiriy o'z davrining maktab va madrasalarida o'qiganligi, ilmiga chanqoqligi va ulkan iste'dodi tufayli zamonasining eng bilim-don kishilaridan biriga aylandi.

Oildagi yo'qchilik tufayli mahalladagi maktabga kechikibroq borgan Abdulla ikki-uch yil ichida tuzukkina savodxon bo'ldi. Lekin muhtojlik o'z ishini qildi: o'n ikki yashar o'smirni bir boyga yugurdaklikka berishga majbur bo'ldilar. Tijoratchilik tufayli ruslar bilan ham savdo aloqalari qiladigan bu boy rus tilini biladigan, shu tilda ish yurita oladigan xizmatchiga multoj edi. Shu sabab zehnli va tirishqoq Abdullani u rus-tuzem maktabiga berdi.

1912- yilda muvaffaqiyatli tugallangan rus-tuzem maktabi bo'lajak adib estetik qarashlari va ijodiy qiyofasi shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Negaki, Abdulla bu yerda rus tili va u orqali dunyo adabiyotini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgandi.

Ikki yildan oshiqroq vaqt mobaynida oilaga yordam berish uchun tirikehlilik yo'lidida urinib yurgan bo'lajak yozuvehi 1914- yilda Abulqosim madrasasiga o'qishga kirdi. Madrasada u shariat ilmi, islom falsafasi, arab va fors tillarini o'rgandi. Bu hol ko'p o'qiydigan, Kunchiqish(Sharq) adabiyoti bilan chuqur tanishi bo'lgan Abdullaga islomiy-turkiy estetikaning nazariy asoslarini ham egallash imkonini berdi. Nullas, Abdulla Qodiriy 1917- yillarda ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni puxta egallagan, olam hodisalarini teran idrok etadigan ziyoli sifatida shakllangan edi.

Bo'lajak yozuvchi rus-tuzem maktabini tugatib, tirkchilik ko'yida yurgan kezlarida Rasulmuhammad oqliq savdogar boy qo'lida ishboshqaruvechilik qildi. Savdogar insofli, ochiq fikrli, intiluvchan kishularni hurnatlaydigan odam edi. Abdulla uning do'konlarida ishilab yurib, zamonasining bir qator ilg'or fikrli kishilar bilan tanishi, suhbatlar qurdi. 1914- yilda boyning Rahbaroy ismli qiziga uylanib, Nasiza, Habibulla, Adiba, Anisa, Ma'sud ismili sarzandlar ko'rdi.

Qodiriyning ijodiy faoliyati ham shu yillarda boshlandi. "Shu miyonalarda bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadirk'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913- yilda o'zbekcha "Sadoyi Turkiston", "Samarkand", "Oina" gazetalarini chiqsa boshlag'oech, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi", — deb yozadi adib keyinchalik. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914- yil 1- aprel sonida Abdulla Qodiriy deb imzo chekig'an "Yangi masjid va muktab" sarlavhali xabar bosilgan. Qodiriy yozuvechilik faoliyatiga birinchi qadamni shu tarzda qo'yan. Oradan ko'p o'lmay, "Millatinga", "Ahvolimiz" she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi chiqdi. Jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilib, jumiyat a'zolarini ma'rifatli, o'qimishli va ilg'or fikrli qilishga qaratilgan bu asarlar badiiy jihaldan puxta bo'lmasa-da, zamonni uchun dolzarb edi.

Yosh yozuvchi bu asarlarida davrning muhim masalalarini ko'taradi, millatning ahvolini yaxshilashni astoydil istashini ko'rsatadi. Lekin niyat bilan badiiy ifodalaning orasida hali ancha masosa bor edi. Qodiriy ilk asarlarida fikrlarini ochiq aytish, g'oyani yalang'ochi ifodalash yo'lidan bordi.

Millat buxti uchun kuyib-yongan Qodiriy Oktabr o'zgarishlaridan keyin qator sho'ro idoralarida xizmat qildi. Jumladan, 1918- yilda Eski shahar oziq komiteti sarkotibi etib tayinlandi. Jurnalistlika bilan faol shug'ullandi. Bu hol unga yangi hayotni ichdan bilish, uning og'riqli, sog'lom aqlga to'g'ri kelmaydigan, xalqimiz manfaatlariga zid keladigan jihatlarini bevosita ko'rish imkonini berdi.

Har qanday ishdə bo'lgani singari asarlarini yozishga ham g'oyat puxta tayyorgarlik ko'radigan yozuvchi 1917—1918- yillardan boshlab asosiy asari bo'lmish "O'tkan kunlar" romanini uchun material yig'ishga kirishdi. U xalqning hayoti, ahvoli-ruhiyatini yirik badiiy asarda tasvirlash zaruriyatini his etardi. O'zbekning qanday xalq ekanligini ko'rsatib beradigan katta hajmi asarga ulkan ehtiyoj borligini sezardi. Adib romanini 1919- yildan yoza boshladi. 1922- yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etildi. 1925- yilda romanning bo'limlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1926- yilda esa "O'tkan kunlar" yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi.

1928- yilda adibning ikkinchi romanı "Mehrobdan chayon" nashr etildi. 1934- yilda kolxozlashtirish tufayli o'zbeklar hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni aks ettiradigan "Obid ketmon" qissasini yozdi. Bulardan tashqari, adib necha o'nlab publisistik maqolalar, badiiy saviyasi baland hikoyalar ham yaratdi.

Qodiriy "Amir Umarxonning kanizagi", "Namoz o'g'ri", "Dahshat" singari romanlar yozmoqchi bo'lib, materiallar to'plagan. Ammo qonsiragan sho'rolar tuzumi adibning bu rejalarini amalga oshishiga to'sqinlik qildi.

Haq gapni hayiqmay aytadigan, millatiga o'zini tanitayotgan, uning g'ururini uyg'otayotgan yozuvchi o'l kamizni egallab olgan bosqinchilar va ularning mahalliy yugurdaklariga yoqmasligi tayin edi. Shu bois qisqagina umri mobaynida A. Qodiriyga bir necha bor chovut solishdi. 1926-yilda yozuvchi "Mushtum" jurnalining uchinchini sonida boshilgan "Yig'indi gaplar" maqolasini uchun adib "...aksil inqilobiy maqsadda sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obro'sizlantirdi" degan ayb bilan qamoqqa olindi. Qodiriy o'ziga qo'yilayotgan ayblar asossiz va uydurma ekanligini, maqolasida xolis tanqid va samimiy hazil qilganligini kuchli mantiq bilan isbotladi. Qamoqdag'i adolatsizlikka qarshi ochlik e'lon qildi. Uzoq cho'zilgan tergovda ham, sud jarayonida ham pastkash soxta guvohlarni, hukmron siyosalga til tekkizganligi bilan cho'chitmoqchi bo'lgan yuzsiz kimsalarni ayanay fosh etdi. O'z qarashlari dan qaytmay, ijodkorlik va insonlik sha'nini mardonha himoya qildi. Uning: "Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa, "ih" deydirgan yigit emasman". — degan gapi adib shaxsiyatiga xos xususiyatlarni to'liq aks ettiradi. O'sha vaqtidagi Respublika Oliy sudi yetarli asos bo'lmasa ham Abdulla Qodiriyni ikki yil ozodlikdan malzum etish haqida hukm chiqardi. Lekin dalillarning uydirmaligi ko'rinish turgani uchun ham o'zbekning eng maslahur adibini qamoqqa tifishga jurat etishmadidi. Bu sud orqali sho'rolar yozuvchini o'ziga xos yo'sinda "ogohlantirdi". Lekin adib bu ogohlantirishdan "to'g'ri" xulosa chiqarmadi, ya'ni haqiqatga xiyonal qilmadi.

O'z asarlari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun Turkiston xalqlari ma'naviyati ravnaqiga hissa qo'shgan adibni 1937-yilning 31-dekabrida yangi yil kechasi ikkinchi bor olib ketishdi. Bu davrda Stalin boshqarib turgan qatalg'on mashinasi shitob bilan ishlar va uning to'xtamay yurmog'i uchun yangidan-yangi qurbanlar zorur edi. Adolatning ko'chasidan ham o'tmagan hukumatning uchlik sudi 1938-yilning 5-oktabrida XX asr o'zbek nasrining eng yirik vakilini, asrimizdagi o'zbeklarning eng fidoyilaridan birini o'limga hukm qildi. Dahshatli jihat shundaki, hukm 4-oktabrda, ya'ni hukm chiqishidan bir kun oldin ijro etilgan edi. Qotillar xalqimizning chin iste'dodlarini yo'qotishga shoshilishgandi.

## O'TKAN KUNLAR

(romandan boblar)

## KIROYI KUYAVING SHUNDOG' BO'LSA

...Haylining kun chiqarida kun botishga qaratib soling'an, uncha maxtarliq bo'lmasa ham ammo zamonasining olding'i binolaridan hisoblang'an bir ayvon bi-

lan bir uyg'a ko'z tushadir. Sahn va binolar kishi zotidan bo'shi, shuning uchun bu havli oilaning tashqarig'i qismi — mehmonxonaning ekanligi ongashilur.

Endi biz tashqari havlini qo'yib, mehmonxonaning yonidan ichkariga kiramiz. Ichkari havlining yo'lagi ham narigisidek usti va bag'ri yopiq — qorong'u, yo'lakning nihoyatiga borib o'ngga yurilsa axlatxonaga, chapka yurilsa, birinchi martaba kirganimizdek ulug' bir havliga chiqarmiz. Havlining to'rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to'rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o'ralg'an bo'lib, shu ikki uyning orasiga o'llurgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko'zga chalinadrig'an ortiqliqlaridandir. Shu chorxari ayvonnинг o'rta bir yerida, ustiga atlas ko'rpalar yopilg'an tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi o'lluradir. Bu kishi... — Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bularidan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan xon atlas guppi kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'lluz besh yoshlardan chamaliq go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimliq, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari toinib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyimi, ikkinchisi yetuishilardan o'tkan bir kampir. Oftob oyimning onasi — Oysha bibi. O'choq boshida qo'polg'ina, qirq besh yoshlardan chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho'risi — To'ybeqa.

Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib, ayvonnинг chap tarafidagi daricha orqaliq uyg'a kiramiz, ham uyning to'riga soling'an atlas ko'rpa, par yosliq quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanni uyg'oq yolqan bir qizni ko'ramiz. Uning zulfi par yosliqning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprik ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o'llurdi. Sariq rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi biroz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'llurgach boshini bir silkitdi-da, ijrg'anib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib jonso'z' bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi.

Kumushbibi bir necha kundan beri sovuq havo tegdirib, bosh og'rig'i va ko'zinishka o'xshash og'riqlardan shikoyat qilib yurar, shuning uchun onasi "tinch uxlasin, ortiq urinmasin" deb bu kun namozga ham uyg'oldirmagan edi...

Jonso'z — juu o'rtovedi, azob beruvchi..

\* \* \*

Qish kunlari bir tutam, "ha deguncha" kech bo'ladir. Bu kun ham "ha deguncha"ga ham qolmay kech bo'lg'an, mehmonlarning kelishkaniga yarim soatlاب vaqt o'tkan edi. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyoſat quyuq-suyuqlari bilan to'la-to'kis davom etar edi. To'ybeku ichkari bilan lashqarig'a<sup>1</sup> yugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi. Xizmat tugala yozg'andan keyin To'ybeku o'ziningsovub qolg'an oshini yemak uchun Ostob oyimlar yonig'a o'llurdy.

So'zdan so'z chiqib Ostob oyim To'ybekadan so'radi:

— Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingga?

— Nax siz yosh mehmonni ko'rmabsiz, dunyog'a kelmabsiz, — dedi To'ybeku o'ng-u ters osh chaynab, — bir chiroylik, bir aqllik, tag'in o'zi hammadan yuqorida o'lluradir; hali yigirmaga ham bormag'andir, mo'ylabi ham endigina chiqaboshlag'an... Nax bizga kuyav bo'lading'an yigit ekan, — dedi va Kumushka qarab kulib qo'ydi. Bu so'zdan Ostob oyim ham kulinisirab qizig'a qaradi:

— Ana Kumush, sen eshitdingmi, opangning so'zini. To'ybeku senga er topqan, sen bo'lsang boshim og'riydir, deb yotasan.

Kumushbibining sezilar-sezilmas kulinisirashidan yoquldek irinlari ostidagi sadasdek oq fishlari ko'rinishi ketdi ersada, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa alishindi.

— Qolg'an xizmatlariningzning bittasi endi menga er topish edi.

To'ybeku Kumushning tundlanishini elamadi:

— Ey... singlim, hali sen bilmaysan, — dedi, — u yigitni bir ko'rgin-da, hu, deb ketabergin... sen tugil, shu yoshim bilan menim ham unga tekkim ketdi, — dedi va xaxolab yubordi.

Kumushbibi chirt etib yuzini To'ybekadan o'girdi.

— Tezroq legib qoling.

— Koshki edi tegalsam, — dedi To'ybeku, — men uning bir tukiga ham ar-zimayman. Amno sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. "Teng-tengi bilan, tezak qopib bilan" xe-xa-xa!..

To'ybekaning shuningdek hangamalari boshqa vaqtarda Kumushni yaxshigina kuldirsa ham hozir unga yotishib kelinadi shekillik, acheinig'langan ko'yiyotish uchun uyiga kirib ketdi. Ostob oyim "bachcha-machchadir" deb o'ylag'an edi. Shuning uchun bu to'g'rida so'z oetmadi.

\* \* \*

Qutidor mehmonlarni jo'natib yotish uchun yeshinar ekan, Ostob oyim so'radi:

<sup>1</sup> Cho'ri xotinlarda kishidan qochish rasmi yo'q edi (munt.).

- Chiroylik yigit, aqllik yigit, deb maxtiy-maxtiy To'zbekaning ichagi uzildi, u kim edi?
- Mehmionimiz o'sha edi, — dedi qutidor, — toshkandlik Yusufbek hoji otlig<sup>1</sup> yaqin oshnamning o'g'li.
- To'zbekaning maxtag'anicha bormi, o'zi?
- Bor, — dedi qutidor va g'italandi<sup>2</sup>, — xudo kishiga o'g'il bersa shundayini bersin-da.

Oftob oyim kula-kula To'zbekaning Otabel to'g'risida so'zlagan gaplarini va Kumush bilan bo'lg'an mojarosini so'zlab chiqdi. Qutidor ham kulgidan o'zini to'xtatolmas ekan:

- Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog` bo'lsa, — dedi.

## OTA-ONA ORZUSI

O'zbek oyim elliq besh yoshlar chamlaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo'lsa ham, ammuno eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz erigagina emas, Toshkand xotinlariga ham om<sup>3</sup> edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib, to'ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig'inlaridag'i uylarining to'rini O'zbek oyining'a atag'an edilar.

O'zbek oyim uncha-muncha to'y-u azalarga: "Kavshim ko'chada qolq'an emas", — deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o'z to'ylarini O'zbek oyimi ishtiroti bilan o'tkazib olsalar, o'zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab, "maning to'yimni bek oyim o'z qo'llari bilan o'tkazdilar", — degan jumlanı majlislarda iftixor o'rniда so'zlab yurar edilar. O'zbek oyimning obro'si yolg'iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o'rda xonimlari ham ehtirom qilib o'zlarining "onaxonlari" deb bilar edilar. Shunga ko'ra qaysi bir vaqtlarda o'rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko'ndalang qilib, "o'rda begi oyim buyurdilar" deb O'zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tonon bilan qaysi bir majislarda O'zbek oyin xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: "Kecha o'rda bekoyimdan menga arava kelgan ekan, se'lim aynab turg'an edi bormay aravani bo'sh qaytardim... Bo xudo, o'rda bekachi bo'lsa o'ziga, dedim". — der edi. Ikkinchil vaqtida: "O'tkan kun o'rdaga borg'an edim; xonimlar yotib qolasiz deb qo'ymadilar, noiloj bir kecha yotib keldim", — deb so'z orasiga qistirib ketar edi. Bu so'zlarni eshitkuchi xotinlar o'zlarining qandog' bir xotinning suhabatiga noil bo'lg'anlarini o'ylab, O'zbek oyimning ehtiromini tag'in ham kuchaytirar edilar.

Ul o'z uyida o'lurg'anida ham ustidagi atlas ko'ynak bilan adresas mursakni, oq shohi dakanu bilan kahrabो tasbilini qo'ymay, qish kunlari tanchada par

<sup>1</sup> G'italanmoq — jondanmoq. <sup>2</sup> Om — ommaviy, yoppasiga.

yostiqqa suyalib, yoz kunlari ayvonning to'riga yoslanib Hasanalining xotini bo'lg'an Oybodoqqa, cho'ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoqch oldirmasliqni tambihlabkina o'llurar edi.

Otabekning Marg'ilondan uylanib qo'yishi otasi uchun uucha rizosizlik mu-jib<sup>1</sup> bo'lmasa ham, amma uning o'g'ul to'yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-usl qilib, "Buning qizi yaxshi bo'lsa ham, uy-joylari yaramas ekan, buning uy-joylari tuzik bo'lsa ham, qizi ko'rksiz ekan; buning qizi-da uy joylari-da tuzik, biroq zoli pas ekan" deb qiz, quda, uy, joy, nasl va nasab tekshirib yurg'uchi O'zbek oyimning Otabekni uylandirib, buning orqasidan ko'raturgan orzu-havas, to'y-u tomoshalarini shartta kesib qo'yg'an bu uylanishka nima deyishi va qanday qarashi albatta ma'lum edi.

Bu xabarni Hasanalidan eshitkan kunlari ul bul ishka chidab turolmadi: "Endi menga mundog' o'g'il kerak emas... Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim... Endi Toshkandga kelmasin ul o'zboshimicha betiyiq!"— deb baqirib-chaqirib, yig'lab-sixtab, dard-u hasratni boshiga kiyib oldi. Oradan o'n besh kun o'tar-o'tmas Marg'ilondan Otabek keldi. Uchi oytab ko'rmagan o'g'lini quchog'iga olib ko'rishmak o'rniga undan yuzini o'gurib, san kimsan, keldingmi, deb so'ramadi va salomiga alik ham olmadi. Go'yo uxlamoqchi bo'lgan tovugdek hurpayib oldi. Otabek onasining araziga allaqachon tushungan, ham shu holni Marg'ilondayoq kutkan edi. Bir-ikki qayta uzr aytib ko'rgandan so'ng O'zbek oyimning epaqag'a kelishiga ishonmay qoldi va shuning uchun ul ham go'yo bit-magan, tushunmagan kishidek yuri berdi.

Turg'an gap, Otabekning Marg'ilong'a uzoq bornmay turishi mumkin emas edi. O'rtadan ikki hafta o'tar-o'tmas otasig'a allaqanday bahona ko'rsatib, Marg'ilon jo'naydir. O'zbek oyim o'g'lining "o'lganning ustiga chiqib tepish" qabilida bo'lg'an bu harakatidan tutuni ko'kka chiqib, borliq qahr-u g'azabini eri ustiga to'kdir: "Siz qarib esingizni yeb qolibsiz, o'g'lingizni marg'ilonliqqa topshirib qo'yib, yana el ichida boshlingizni ko'tarib yurmakehi bo'lasizmi?"— deydir.

Yusufbek hojining qiziq bir tabiatি bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lsin uzoq so'zlashib o'llurmeydir. Otabekni, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so'zlarи va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga quramasdan so'zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekkingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'zig'a tikiltirib o'llurg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'b" deydir, gapku tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, nomal'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga nomal'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalaniib, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytса ham uch-to'rt kali-madan nariga oshmaydir. **Uy** ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklari-

<sup>1</sup> Muhib — subub.

dan ko'pincha bir og'iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabel bilan birar to'g'rida so'zlashmakchi bo'lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir. O'zbek oyim yuqoridag'i o'zining itob<sup>1</sup> va xitobiga eridan bir iljayib qo'yish javobini olib dami ichiga tushadir va chor-nochor o'ttuz kunlab bir zamonnini o'zicha marg'ilonliqni qarg'ash bilan kechiradir. Otabel Toshkandga qaytib kelib, "endi araz bitkandir" degan o'ya onasig'a salom beradir. Araz bitish qayerda, O'zbek oyimning o'g'lig'a qarshi kinasi tag'in bir necha qat ortqan, ammo bu gal salom berguchiga bir qaraydir-da, "O'g'lim, menga salom berib nimma qilasan, marg'ilonliq onangning duosini ol!" — deb yuzini chetka o'guradir. Ul onasining bu kinoyasini kulgulik bilan kechirib, yana eskieha arazda qolaberadirlar. Otabel yana o'n besh kunni o'tkazib, tag'in bir nozik sababni o'tlag'a tashlab onasining ruxsatsiz Marg'ilong'a jo'nab soladir. Tag'in O'zbek oyimning rangi o'chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho'michni piyolaga urib dod-u faryod: "Siz otamisiz, nimasiz axir, o'g'lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? O'g'lingizning bu ishi bechiz emas; marg'ilonliq sehr qildimi, jodu qildimi, haytovur siz shu yo'sunda yuriy bersangiz, erta-indin o'g'uldan ajralasiz. Bu kalvak<sup>2</sup> o'g'lingiz marg'ilonliqning es-hrigida qui bo'lib yotib oladir..." Ammo Yusufbek hoji xotinining so'zini bu gal ham elamaydir, faqat: "Qo'yaber, xotin, o'zi sog' bo'lsa, bir kun esimi topar", — deb qo'yadir. Bir yurim oylar vaqtini Marg'ilonda o'tkazib, tag'in Otabel Toshkandga keladir. Tag'in ona-bola oralarida kina-kudurat... Tag'in araz... O'n besh kun o'tmasdan yana Andijon safari, yana O'zbek oyimning sig'oni falakka...

... Bir oylab kechikkandan so'ng Otabel qaytib keldi va bu kelishining vijdon azobi va tilamagan bir taklifni eshitish uchungina emas, balki qabul qilish uchun bo'lg'anlig'ini payqadi. Ul bu gapni onasining ilgarigi achimsiq so'zlarini va arazlarini tugalganidan va o'rniiga chuchuk so'zlar, silliq muonatalalar bitib "eson-sog' keldingmi, bolam"laridan oq sezgan edi. Bunday bo'lmaq'ur taklifni eshitmas uchun o'zini chetka olib, otasi, ayniqsa, onasig'a yo'liqishdan qochib yurishka majbur bo'ldi. Ikki oradag'i bu qochish-quvish ishi uzoqqa cho'zilmay, bir kech mehmonxonada ota-o'g'ul so'zlashib o'lurganning ustiga O'zbek oyim kelib kiradi va o'lurmashdanoq hojiga imlab qo'ydi. Bu imqo'jni Otabel payqamag'an bo'lsa ham, lekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishig'a ko'zi yetib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi. O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi. O'zbek oyimdepsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagini so'zsiz o'lurg'andan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi.

— O'g'lim, hali san eshitdinguni, yo'qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

<sup>1</sup> Itob — qahr, g'azab. <sup>2</sup> Kalvak — landlaur, gor.

Otabek, ma'lumki, ularning "qilib qo'yg'an yoki qilmoquechi bo'lg'an ishlarini" albatta bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmuganga solindi:

— Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas, — dedi.

Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinig'a qarab oldi. Yana orag'a jimpitlik kirdi. Bu so'zsizlik ma'nosig'a O'zbek oyim tushuna olmag'an edi. Biroz qarab o'turg'ach, yuragi qaynab ketkandek bo'ldi:

— Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig'a unashib qo'ydiq... Endi san bilan to'y maslahatini qilishmoqchi edik...

Otabek onasig'n bir og'iz so'z demay, ma'nolik qilib otasig'a qarab oldi. Hoji uyatlaksumon "shundog'" deb qo'ydi.

— Sizlarni ranjitiq bo'lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

— San uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji.

— Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o'turib oldi:

— Bu ranjishdan emas, hojatdan, o'g'linn.

— Nima hojat?

— Hasanalining so'ziga qarag'anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan. O'gil o'sdirib katta qilg'an onangning bo'lsa oldig'a kelin qayg'usi keladir...

Otabek onasig'a qaradi:

— Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lardi-ku, — dedi.

O'zbek oyim marg'ilonliq tomonidan sihrlangan o'g'lig'a qarshi qizishib ketdi. Bir yillardan beri ichiga yig'ib kelgan kinasini lo'kib berdi:

— Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag'an edim. San bizning naslimizni ko'tarish o'rniiga, yerga urib bulg'ading. Biz sani Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingui o'ylamag'an edik, adabsiz... o'zingga qolsa shu marg'ilonliqni xoting'a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek ham qizishdi:

— Xotin bo'lmasa nima, axir?!

— Qoshliq, ko'zlik bir andi!

— Andi deganingiz nima o'zi?

Yusufbek hoji o'g'lini bosish o'rniiga javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotiniga qaradi. O'zbek oyim "andi" ma'nosini bildirib, andilarning sihrlini rad qilish uchun biroz tutiliqib qiyndaldi:

— Andi... andi... o'zi xitoymi, nima balo... o'zi qalmoqdan tarqag'an bo'ladir. Tushunmagan bo'lsang, lo'lilarning bir toyifasi...

Bu javobga Yusufbek hoji o'zini xaxolab kulishdan to'xtata olmag'anidek, Otabek ham kulib yubordi. Xotinining tirnoq ostidan kir izlab va da'vosining isboti uchun g'o'ldirashidan ortiqcha kulib kayflangan Yusufbek hoji ko'ziga chiqq'an yoshlarni artar ekan, jiddiyat bilan o'g'lig'a dedi:

— O'g'lim, san onangning gapiga achchig'lamma. Ul har narsa desa fuqat Marg'ilondan uylanganingga qarshilig'idan aytadir. Ammo mendan so'rasang, Marg'ilondagi na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajhi bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo'lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o'g'lim, deyman. Ammo bizning hozirgi ba'zi bir ra'yalarimiz sanga yotishib kelmas ekan, bunga haqq-qing ham bor, lekin ikkinchi tarafdan bizni ham haqsiz tashlab qo'yma. O'g'lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo'q. Dunyoda ko'rib o'taturg'an barcha orzumiz, havasimiz faqat sangagina qarab qolg'an. Biz xudoi taolog'a minglab shukur aytanizkim, san boshqalarning farzandidek eslik-hushlik bo'lding; kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat chekmasisizga ishondik. Ayniqsa, onangning saning tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib bordi. Bu kun onang saning oldingg'a tiz cho'kib va onang ko'ngli uchun men ham orag'a tushib sandan so'raymiz: san o'z xohishing yo'lida uylangan ekansan, rafiqang sanga muborak bo'lsin. Eslilik da'vosida yurgan ota-onang tilagi, albatta, shundan boshqa bo'lmas. Shu bilan birga saning sababi vujuding bo'lg'an bir kishi o'z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakehi... Uning bu orzusig'a haq berasanmi, yo'qni yana ixtiyor o'zingda...

Hojining bu so'zi O'zbek oyimg'a neehog'liq yoqqan bo'lsa, Otabekni shu qadar yerga qaratqan edi. Hoji o'zidan oshirib so'zlag'an bu so'zlarini shu gap bilan tamomladi:

— Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib, deganlaridek, onangning aytmakchi bo'lg'an so'zi faqat shu edi. Boyag'i gaplari bo'lsa o'z haqqini himoya yo'lida uning popisalarigina bo'lib, mendan ham ko'ra onangning fe'lini o'zing yaxshi bilasani...

Otabek hamon sukutda, O'zbek oyim bo'lsa boshi bilan "shundog'" ishora-sini berar edi. Ota-onha orzusini ifo etishdan<sup>1</sup> bir soniya ham o'zining ko'z o'ngidan xayoli ketmagan anuv ilohiy muhabbat uchun hech bir turlik kamchilik kelmasiga ishonsa ham hozir uning yuragini boshqa bir haqiqat lirnay boshlag'an va vijdonini faqat shu masalagina o'rab olg'an edi. Otabekheha, eng nozik sanalg'an bu masala qarshidag'i javob kutib o'llurg'uchilarni niroyat zeriktirdi.

— Bizni kutdirma, o'g'lim.

Otabek mag'hub bir boqish bilan bu so'zni aytkuchi otasig'a qaradi va yalinchaoq bir ohangda javob berdi:

<sup>1</sup> Ifo etish — ado etmoq, bajarmoq.



— Men sizlarding orzularingizni bajarishka — agar xursandehilig'ingiz shu bilan bo'lса — har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko'ra-bila turib jabr ham xiyonat...

Hoji o'g'lining maqsadig'a darrov tushuna olmadi va so'radi:

— Kimga, xotiningg'ami?

— Yo'q, sizning oladirg'an keliningizga. O'g'lingizning vujudi bilan orzuin-gizni qondirish oson bo'lса ham keliningiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz.

Yusufbek hoji yalt etib xotinig'a qaradi. O'zbek oyimning bo'lса oladirg'an keliniga e'timodi yuqorilig'idan o'ylab-netib turmadni:

— Mayli, bolam, buyoqni hozir san o'ylamay qo'y, — dedi.

Otabek bir og'iz so'z aytmay sukut qildi. Yusufbek hojining esa o'g'lining so'zini to'g'rilig'ig'a, keyindan yuz ko'rsalaturg'an ko'ngilsiz ishlarga aqli yetsa ham, ammo bir mulohaza yuzasidan istiqbolning qorong'i ishlarini hozir uncha mulohaza qilib ko'rmadi:

— Juda to'g'ri aylasan, o'g'lim, biroq onangning bir mulohazasizligiga boshdayoq men labimni tishiab qolg'an edim. Hozirda ham shu holda qol-moqqa majburnaman, — dedi va: — Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang biravni ishondirib qo'ygan, bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma'qul ko'rinnmaydir.

Otabek ota-onha orzusig'a o'z ta'biriha jonsiz haykal bo'lib rizoliq berdi. Ammo o'z rizolig'inining sharti qilib to'ydan ilgari Marg'ilon borib kelishni va bir daraja ularga aytib o'tishni, shundan so'ng to'y boshlashni ahd qildi. Ishning yengil ko'chishiga so'yingan ona Otabekning bu shartiga lom demasdan ko'ndi va orzuliq to'yni tez boshlash uchun o'g'lini Marg'ilon ketmakka qistay boshladи...

*Ona orzusiga ko'ra Toshkentdan ham uylanishga majbur bo'lgan Otabek Kumushni qo'lga kiritishga astoydil ahd qilgan yovuz Homidning hiylalari tufayli suyuklisining uyidagilar tomonidan quviladi. Ammo aybi nimada ekanini bilolmaydi. Nihoyat, tortgan barcha azoblarining sababchisi Homid ekanligini bilgach, yolg'iz o'zi dushmanlariga qarshi omonsiz kurashadi va uch nafar jinoyatchini o'ldiradi.*

## DUSHANBA KUN KECHASI

Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamol masalalarini o'zining qora quchog'iga olg'an qorong'i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so'ng soatlari yetkanligi shu qorong'i tun kabi qorong'i edi. Otabek bu ikki holdan tabiiy birisini bu soat o'zining ko'z o'ngida ko'rар va shunga hozirlanar edi esa-da, ammo Homidning xayoli faqat gulgina iskar, gul sayriga oshiqinlar edi...

Olti qarich kenglikda uzundan-uzoq tor ko'cha, tor ko'cha boshida kichkinagina bir eshikcha bor edi. Shom bilan xuftan o'rtasida bu ko'cha boshig'a bir yigit kelib to'xtadi-da, tevaragiga kishi bilmas qilib razm soldi. Kichkina eshikcha yonig'a yetkanda tag'in haligidek orqasig'a qarab qo'ydi. Biroz o'ylab to'xtag'ach, eshikning o'ng tomonidag'i devorning buzuq yeridan sekingina ko'tarilib maydonga mo'raladi. Eshikning quff va zanjiri bo'lmay yuziga yopiq holda turg'an bo'lsa ham ul eshikka taqilmadi, mashaqqallanib devorga mindi. Oy shom yeb yaxshig'ina qorong'i tushkan bo'lsa ham maydon ichining daraxtsizligi uchun tikkaygan cho'b ham ajraturliq edi. Maydonni kishidan holi bilgach, sekingina devordan o'zini maydonga oldi.

Maydon ikki tanob kenglikda bo'lib, janubi qutidor va qo'shnisining imoratlari orqasidan va boshqa uch jihatni ham shunga o'xhash binolardan iborat edi. Maydonga yozda nimadir ekilgan, chuqur-chuqur jo'yaklar tortilg'an va yer yomg'ur bilan ivib, bo'kib oyoq ko'tarib bosishga imkon bermas, har bir oyoq uzg'anda uch chorak loy barobar ko'tarilur edi. Qiyntala-qiyntala maydonning janubiga o'tdi. Uning chap qo'li tomonida bir uyning orqa devori bir bo'yra eni kesib tushirilgan bo'lib qorayib ko'rinar edi. Ul bu kesilgan o'rinni o'tkan kun kechasi kelib ko'rib ketkani uchun qaytadan qarab turmadni esa-da, lekin uning bu binog'a iltisotsiz qarashi mumkin emas edi. Bu tegi kesilgan bino Kumushning o'z uyi bo'lib, bu uy ichida Otabekning saodatlik kunlarining shirin xotiralari saqlanalar va shu daqiqada ham uning hayot tiragi bo'lg'an Kumushbibi o'latur edi. Otabek ko'zini to'ldirib binog'a qaradi, go'yo bu qarashda ul dunyo malaki bilan vidolashar edi. Uzoqqina binog'a qarab olg'ach, qo'ynig'a qo'l solib bir qog'oz oldi, xayol ichida qog'ozning taxlarini tuzikladi-da, qaytarib yana qo'ynig'a tiqqi. Shundan so'ng binog'a yana bir ko'z tashlag'ach, maydonning kunbotarig'a yurib, o'n besh adinulab haligi joydan yiroqlashdi. Tom shuvog'ig'a loy olingan zovur shekillik o'rinni kechagi kelishida biqinish uchun belgulab ketkan edi, kelib shunga tushdi-da, qo'lini chakkasiga qo'yib yoni bilan yotib oldi. Garchi osti kesilgan bino bilan Otabek tushib yotqan loyxona bir-birisiga ro'baro' edi, anuno imoratlarning ko'lagasi va kechuning o'tacha qorong'ilig'i orqasida loyxonada kishi bo'lg'anlig'ini payqash qiyin edi.

\* \* \*

Tun yarim bo'lib, olding'i uxlag'anlar endi bir uyquni olg'an edilar. Maydon eshigi ochildi. Biri orqasidan biri yurib ikki ko'laga maydonga kirdi. Buni payqag'an Otabek xanjarini qinidan chiqarib qo'lig'a ushlag'ach, yuz tuban yerga uzandi... Ikki ko'laga so'zsizgina osti kesilgan bino yonig'a kelib to'xtadilar. Kelguchilarning biri Sodiq va ikkinchisi Mutal edi. Tumshug'ini yerga tirab yotqan mushukdek bo'lib Otabek ularni kuzatar edi.



To'xtag'ach, shivirlab Sodiq so'radi:

- Teshilayozg'anmikin?
- Ozg'ina qolg'andir, deb o'ylayman, negaki, paxsaning enidan bir gaz chamasi joy ochilg'an!

Mutal tovshini baralla qo'yib so'zlar edi, shuning uchun Sodiq dedi:

— Tovshingni sekinroq chiqarsang-chi!

Mutal belidan teshasini olar ekan, unga javob berdi:

- Hali shuudan ham qo'rqaSANMI, balki hali ashulamni ham ayтиb yuborarman!

— Jinnilig'ingni qo'y, Mutal aka! Men ham yoningda turaynu?

— Turasanmi, yo'qmi ixtiyor o'zingda!

Mutal kovakka kirib kovlashka tutindi.

— Teshani qattig' solma, — dedi Sodiq.

— Menga o'rgatma, o'zim bilaman.

Sodiq Mutualning ehtiyojsizligidan qo'rqli, shekillik, biroz Mutualning ishiga qarab turg'ach dedi:

— Bo'lmasa, men eshik yonig'a borib turay, teshildi deguncha hushtak ber.

— Tuzik, hali Homid kuyaving qayog'da qoldi?

— Ko'chaning boshida poylab o'lurgandir. Hushtagining eshitkach, uni ham chaqiraymi?

— Chaqir, — dedi Mutual va shitir-shitir kesak tushira berdi.

Sodiq eshikdan chiqg'an ham edi, Otabek sekingina boshini ko'tardi-da, Mutual sari shuviy<sup>1</sup> boshladi. Mutual esa yemirilib tushkan kesaklarni tashqarig'a surish bilan ovora edi... Shu vaqt uning qo'llug'i ostidan uzatilg'an qo'l hiqildog'idan ombir kabi siqib oldi... Mutual kuchlik edi, ammo Otabek undan ham kuchlik edi. Saphehib hiqildog'ini ajratish uchun bo'lg'an Mutualning birinchi harakati bo'shka ketdi-da, chap biqinig'a o'tkir xanjar g'archeha botirildi... Ammo ul hamon bo'shalishg'a kuchlanar edi va kuchlik qo'l battarroq uni siqar edi. Uch daqiqalig' kurashdan so'ng Mutual bo'shashdi, ilgarigi kuchlanishlaridan qoldi va bir-ikki daf'a to'lg'anib jingina jon berdi. Otabek eshik tomondan ko'zini uzmag'ani holda Mutualni sudrab o'zi biqing'an loyxonag'a olib bordi va qo'rqbining hiqildaqdan qo'lini oldi. Mutualning boshi shilq etib loyxonag'a tushdi-da, mangulik uyqug'a ketkanligi ma'lum bo'ldi... Otabek bitta-bitta teshilgan bino yonig'a kelib eshik tomong'a hushtak berdi, javob hushtagi eshitilgach, teshuk ichiga kirib o'lurdi. Teshukning yuqorisidan biroz tuynuk ochilg'an bo'lg'an uchun ichkaridan quloxqqa yengilcha pishillash eshitilar edi... Sodiq yaqin yetkan edi, kesmadan uzoqroqda turib shivirladi:

<sup>1</sup> Shuviy — emaklab.

- Teshdingmi, Mutal?
- Teshdim, beri kel.

Sodiq kesma yonig'a kelib engashidi. Engashgani hamono qo'l hiqildoqqa to'g'ri kelgan edi va xanjar qornig'a botirilg'an edi... Sodiq qo'lidaq'i xanjarni bir-ikki qayta solib ko'rsa ham tegdirish uchun kesmaning tubanlig'i halal berdi, lekin o'zi teluk edi. Otabek sapehib kesmadan chiqdi va bor kuchi bilan Sodiqni bosib tushdi... Bosib tushishi hamono allaqaysi yeri achishkandek sezildi... So'l qo'l Sodiqning hiqildog'ida, xanjarlik qo'l Sodiqning xanjarlik qo'lida edi... Biroz kuchini yig'ib olg'ach, hiqildoqni bor kuchi bilan siqa boshladi. Sodiq xirillar, shunday bo'lsa ham qo'lidaq'i xanjarni bo'shatmas edi. Eshik tomondan Homid ham ko'rinish qoldi... Vaqt tang kelgan edi... Sodiqdan ko'kragini qochirib xanjarlik qo'lini bo'shatdi va Sodiqning xanjari bir-ikki qayta uning orqasiga kuchsiz-kuchsiz kelib tekkan edi. Xanjarini ikkinchi urishda Sodiq bo'shashdi va qo'lidan xanjari tushdi.

— Homid akangga juda ham mehribon ekansan, Sodiq! — dedi bosib yotqan joyidan Otabek. — Joningni ham unga qurban qilding!

Sodiq ingranib qo'ydi.

- Kim xirillaydir? — dedi yaqinlashib kelgan Homid.
- Tezroq keling, Homid aka, Otabekni o'ldirdirk! — dedi shoshib Otabek.
- Ah! — deb yurib keldi Homid.

Otabek Sodiqni qoldirib, Homidning xanjarlik qo'lini ushlab oldi.

— Mutal o'ldi. Sodiq ham o'lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldiq!

Homid qo'lini bo'shatishqa tirishar ekan, Otabek salmoqqina qilib dedi:

— Ortigcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarlik qo'lingizni bo'shataman hozir, amuno shungaacha ikki og'iz so'zim bor!

Homid hanuz qo'lini bo'shatishg'a kuchanar edi.

— Kuchanmangiz, Homidboy!

— Mard yigit bo'lsang, qo'limni qo'y!

— Oshiqma, qo'yaman, — dedi Otabek. Shu choqda oyoq ostida yotgan Sodiq ko'tarilib-ko'tarilib o'zini otmoqda edi. Otabek Sodiqdan nariroqqa Homidni boshladi. Homid tig'izlik bilan surildi. Xanjarlik qo'li bilan tuynukka ishorat qilib, Otabek so'z boshladi:

— Siz mendan ham yaxshi bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqallarg'a solg'an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va hisobsiz tillalar to'kdirgan, niyoyat shu daqiqag'a keltirib to'xtatqan birav uxlaydir. Agarda sizning manim tilimdan yozib bergen taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlag'uchi manim halol rafiqam bo'lib, ikki yildan beri man ham uning ko'yida sargardonman. Demak, siz bilan manim oramizda shu birav uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha manim



ustimdan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qora choponchi, deb dor ostilarig'acha olib bordingiz, Musulmonqul qo'lig'a topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqg'ach, ismimdan taloqnomha yozib, ikki yillab rafiqamidan ayirib turishka muvaffaq bo'ldingiz, bu orada gunohsiz bir yigitni ham o'lordingiz. Niroyat o'g'riliq yo'lig'a tushib, ikki yigitingizni manim qo'llinda halok qildingiz... Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliqlaringizda haqlimi edingiz?

— Haqli edim! — dedi Homid va siltab xanjarlik qo'llini bo'shatib, chalqancha yiqildi. Ul qo'llini bo'shatqan choqdayoq Otabelk ishini to'g'rilaq'an, ya'ni Homidning qornini shir etdirib, yorib yuborg'an edi. Homid holsizlanib yotar ekan, uni besh qadam naridan kuzatib tek turg'uchi Otabelk zaharxanda ichida: "Haqlimi eding?" — deb so'radi. Kuchanib: "Haqli edim!" — dedi Homid va qo'lidaq'i xanjarni Otabekka otdi, xanjar Otabekning yonig'a kelib tushdi...

Otabek kushxonasi o'rnidan eshikka qarab qo'zg'alg'an edi, Homiddan besholti qadam narida yotqan Sodiqning "hmmm" degan toyshi eshitildi. Otabekning ko'ngli allanuchuklangani holda maydondan chiqdi...



## Savol va topshiriqlar

1. O'zbek oyimning tabiatiga xos jihatlarga e'tibor qiling.
2. Asar matnidan uning "dumbul"ligini anglatuvchi o'rinalarni aniqlab, sharhlang.
3. O'zbek oyimning Otabelk bilan munosabati tasviriga tayanib, uning shaxsiyati haqidu to'xtaling.
4. Romandagi: "*Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas, — dedi. Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishi bilmay goldi*" tasviridagi ota holati sababini izohlang.
5. Ikkinechi marta uylanish haqidagi talabga ko'nishga majbur bo'lgan Otabekning rubiy holatini izohlashga urinnig.
6. Yusufbek hojining: "*Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang biravni ishondirib qo'ygan: bizning oiladan lafzsilik chiqishi menga ma'qul ko'rinxmaydir*", — degan mulohazasini sharhlang.
7. Asarda qonli voqeja ro'y bergan kecha qanday tasvirlanganiga asoslanib, yozuvchi mahoratiga to'xtaling.
8. Asardagi: "...uning bu binog'a iltifotsiz qarashi mumkin emas edi" tasvirini izohlang.
9. "*Otabek ko'zini to'ldirib binog'a qaradi, go'yo bu qarashda ul dunyo malaki bilan vi'dolashar edi*" so'zlar qahramonning qanday holatini ifodalayotir?
10. Mutual bilan Sodiqning subbatti tasviriga asoslanib, ularning shaxsiyatini taysiflang.
11. Roman matniga tayanib, Homidning fe'liga xos xususiyatlarni izohlang.

\* \* \*

*Shaxsiy hayoti yo'lga tushmagan Otabek yurting notinchligi, elning abgorligini ko'rib, yana azob chekadi. Shunday kunlarning birida Toshkentda qipchoqlar avovsiz qirg'in qilinganini ko'radi va bu ishga o'rdaga yaqin kishilardan bo'lmish Yusubbek hoji ham qatnashgan deb o'ylab otasidan ranjiydi. Buni sezgan donish-mand ota mamlakatning ayanchli buguni va tahlikali ertasi to'g'risida o'g'li bilan sikrlashadi...*

... Yusubbek hoji ertalab choyni Otabek bilan birga ichish uchun mehmonxonag'a chiqdi. Otabek tersaygancha kelib choyg'a o'llturdi, otasiga salom bermadi. Chunki ul o'z otasini qipchoq qirg'inining bosh omillaridan deb qaror qo'yg'an edi. Choy yarimlay yozdi. Oradan churq etkan so'z chiqmadni.

Nihoyat, o'g'lig'a yengillik berish niyatida hoji tilga keldi:

— Xafa bo'lma, o'g'lim.

— Sizlarga o'xshab, — dedi istehzolanib, — quvonaymi?

Hoji o'g'lining qandog' fikrda va nima uchun tersayganini bildi.

— Yanglishasan, o'g'lim.

— Rajabbeknikidagi majlisda, — dedi zaharxanda bilan, — bu yirtiqchlarning rejachisi kim edi?

Hoji entikdi va:

— Rajabbeknikida bo'lg'an majlisni sen bilasanmi?.. — deb so'radi.

— Bilaman.

— Bilsang, — dedi hoji, — manim ustimga mundog' tuhumat orttirishdan uyal, bola!

— Rajabbeknikida bu kengash bo'linag'anmidni?

— Bo'lg'an edi.

— Bo'lg'an bo'lsa, tag'in nega o'zingizni quruqqa olasiz? Yusubbek hoji boladan kulgandek qilib iljaydi.

— Ba'zi yengil muhokamalaring onangnikidan qolishmaydir, Otabek! — dedi. — Majlisdan xabaring bo'lg'an bo'lsa, kim qaysi fikrda qolg'anini ham bilarsan?

— Yo'q.

— Majlisda nimadan bahs qiling'anini-chi?

— Majlisda nima inuzkarasi bo'lg'anini ham bilmayman va lekin o'sha majlis faqat qipchoqlarga qatli om uchun yig'ilgan ekan, deb kecha ishondim. Majlisningiz a'zolarining sizdan boshqasi nega yigil to'plab, Qo'qong'a ketdilar va ular Qo'qong'a yetmaslaridanog' nega bu valshat boshlandi?

— Bu muhokamang to'g'ri, ammo otangni ham shu jonivorlar orasiga qo'shib o'llirishing qisqalig'ingdir, — dedi. Ko'ziga yosh oldi. — O'zing o'ylab

ko'r o'g'lim, o'z qo'limiz bilan o'zimiznikini kesishimizdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirot qilg'an bo'lsa, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo'shilishqan bo'laman? Agarda manim yurt so'ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo'lsa, boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limg'a — senga ma'lum bo'lmasmudi? Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolq'anda oqsaydir. Nega yong'an yurakimga yana sen ham zahur sochasan?!

Titralib va to'lqunlanib aytilgan bu so'zlar Otabekni o'kintirdi, o'lganning ustiga chiqib tepish qabilidan bo'lg'an o'z hujumining haqsiz ekaniga tushundi.

Yusufbek hoji bitta-bitta yotig'i bilan majlis haqida bayon qilib, o'zining qarshi tushkanini va ularga uqdira olmag'andan keyin, majlisni tashlab chiqib ketkanini so'zladi...

...Otabek o'zining o'rinsiz gapidan uyalg'annamo yerga qaradi va bir muncha vaqt fikrga ketib o'llurg'andan so'ng so'radi:

— Virtqichlarning bu qirg'indan qanday muddaolari hosil bo'larkin?

Maqsadlari juda ochiq, — dedi hoji, — bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o'rning'a minnakechi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmonqulg'a bo'lg'an adovatini qip-choqni qirib alamdan chiqmoqchi. Menga qolsa o'rtada shundan boshqa hech gap yo'q, o'g'lim, — dedi va biroz to'xtab davom etdi: — Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilomadiim. Ittifoqni ne el ekanini biliuagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast multohamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lismizg'a aqlim yetinay qoldi. Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning legimizga suv quyadirk'an bo'lsaq, yaqindirki, o'russ istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'yning'a o'russ bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz.

## ОY ETAK BILAN YOPILMAS

Choy tugalgan edi. Otabek fotiha o'qub, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi.

— Turma!

Yusufbek hoji tarafidan berilgan amirona bu buyruq Otabekni qaytadan o'llturub qolishig'a majbur etdi va otasig'a "nima xizmalingiz bor?" degandek qilib qaradi. Yusufbek hoji bir so'z demasdan sallasini olib tizzasiga qo'ydi, bosh qashinib yana sallasini kiydi. Dadasingning sulla olib, bosh qashinishi keyinidan ko'pincha o'zini bir tergav ostida ko'rар edi. Shuning uchun yana bir martaba dadasiga qarab qo'ydi.

Chini bilan ham hojining tusidagi boyag'i hasrat va qayg'u alomatlari yo'qolib, ularning joyini sharq otalig'i vaziyati oldi.

— Marg'ilonda nima ishlar qilding?

Kutilmagan bu savolga Otabek nima deb aytishni bilmay qoldi. Javob o'rnig'a havli tomonq'a qarandi.

— Sendan so'rayapman, Otabek.

— Sizga xabar berguvchi nima ishlar qilg'animni ham aytkandir...

— Jo'n odamlar qatorida odam o'ldirib yurdim, degin?

Otabekning yuzida kulimsirash bilindi.

— Jo'n odamlar qatorida emas, — dedi, — majburlar qatorida, zo'rlang'anlar qatorida...

Hoji davom etdi:

— Kishining boshig'a bir ish tushikanda, darrav biravdan kengash va yordam so'raydir. Halto, ota-onasidan ham sir saqlag'an bir yigitni o'z o'g'lim bo'lib chiqg'ani menga qiziq ko'rindir. Qayin otang nienga bir xat yozibdir, o'qib-o'qib mazmunig'a tushunolmay hayron bo'laman. Oy sayin Marg'ilon horib turar edi-ku, deb o'layman. Xatni ikki-uch qayta o'qib chiqg'andan keyin, bilsam haqiqat shul emish... Mirzakarimning yozg'anig'a qarag'anda bir muncha yang'lishliq undan ham o'tkan ko'rindir va lekin sening bolatig'ing oldida uniki holvadir... Yaxshiki, bu aqslizlig'ing boshqalarning boshig'a ko'ringan... O'zing ayl, agar menga shu kasalingni bir og'iz bildirsang, men qayin otangg'a xat yozmasni edim. Hasanalinu yuborib, haqiqatni ochmasmidim va bu taqdirda odam o'ldirib yurishlarga qanday hojat qolar edi?

Otabekning boshig'a bu gaplarning bir harfi bo'lsin o'rnashmas va o'zi kutkan natijaga borib yetish uchungina qiynalar edi.

— Shuncha ishlarni qilib, nega oxirda qayin otangg'a yo'liqmay kelding?

— Shunga majbur edim.

— Marg'ilong'a endi qachon borasan?

Otabek o'ylanib qoldi. Chunki bu "qachon borish" masalasini yaxshilab yeshmak kerak edi va uni yeshmak ham qiyin edi. Uzoq o'ylag'andan keyin:

— Ma'lum emas, — dedi.

Garchi, bekning yuragi hozir bo'lsa ham Marg'ilonga qarab uchishka tayyor edi. Biroq uning yuragidan ham kuchlik bo'lg'an yonna bir narsa bu "borish" masalasini chuvaltirib "ma'lum emas" bir holg'a qo'yg'an edi.

— Qayin otang kelin bolani olib shu hasta ielti yo'lg'a chiqmoqchi ekan, — dedi hoji, — tarixiga qaraganda xatning yozilg'anig'a o'n kunlab bor, ehtimolki, erta-indin kelib qolsalar. To'rdagi uyni bo'shatdirib, polos yozish kerak edi...

Ul bu gapni eshitar ekan, borliq-yo'qliq — ishqilib, allaqandog' qiziq bir holat kechirdi. Issig' bir narsa badaniga tegib ketgandek, hurkinib qo'ydi va

“nihoyat endimi?” degandek entikdi. Ko’z o’ngidan biravning surati o’tib sarxushlandi va til bilan onglatib bo’lmasliq bir sog’inish chidamsizligi ichida bu ivir-jivir holatdan gangib ko’z ochidi. Ko’z ochdi, biroq o’ziga “nima deysan” deb qarab *turg’uchi* otasig'a muvosiq bir javob berishni bilmadi. Yusufbek hoji esa o’g’lining bu sustlikka o’xshab ko’ringan holini yomong'a yo’ydi. Marg’ilon degan shahardan katta o’zini kichik olib qizi ila kelayolg'an Mirzakarim akaga o’g’lining xo’tliq keltirishidan cho’chidi. Shunga binoan Otabekni epaqag'a olish uchun unga kulki tuyulgan bir qancha nasihatlarni chizdi:

— O’g’lim, — dedi, — siylag’anni siylash kerak, endi senga qadrsizlang’au bo’lsalar, ammio bizning qoshimizda ularning qadr-qiymatlari yuqori, qutidor bo’lsa ko’z ohib ko’rgan qudamiz, xotining bo’lsa bosh kelinimiz. Agar sen meni otam deydirgan bo’lsang, shularning ko’nglini olmoqqa tirish. Qayin otaugdan meni quvladi, deb ko’ngling olimmasin, chunki u bechora ham bir shaytonning vasvasasi bilan bu xatoga tushgan. Har holda hurmattarini bajo keltir, Marg’ilon degan shahardan sening yuzingni, deb keladirlar.

Otasining bu so’zlari uning istiqboli uchun yaxshi ta’minotlar berar, go’yo majburiyat ostida ota nasihatini qulogq'a oladirg'andek bo’yin egib o’lturar edi.

— Agar ularning kelish kunlarini aniq bilsak, — dedi hoji, — sen yo’ldan qarshilab kirar eding.

Otabek javob bermadi.

— Har holda o’ttasi<sup>1</sup> kun mo’ljal, sen chiqmasang ham Hasanali chiqsin yo’lg'a.

— Mayli, chiqsin, — dedi Otabek.

## MAKTUB

Hoji shu javobdan keyin o’g’lidan bir daraja qamoatlandi va choyga fotiha o’qub, o’rnidan turar chog’ida yonidan bir xat chiqarib uzatdi:

— Xatning ichidan chiqdi. Kelindan senga bo’lsa kerak, — dedi.

Otabek maktubni olib otasining ketishini kutib qoldi. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg'an va Otabekka atalg'an edi. Otasining uzoqlashishini kular ekan, yuragi yomonlag'an otdek tipirchilar edi. Tikilgan ipaklarni so’kdi va maktubni ohib oeh ko’zini ishka qo’ydi:

“Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidin, Majnun ishqida yig’lag'an Layli oti-dan sizga boshimdag'i sochlaramning tuklaricha behad salom. Menden hadd-u hisobsiz gunoh, sizdan—kechirish. O’tgan ishga salovot. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni eska olish manim uchun o’sha kunlarni qaytadan boshdan kechirish-

<sup>1</sup> O’ttasi — erindan keyin, indiu.

lik singari, ul kunlarni siz unutning, unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so'zimni o'zimning oxirgi, ham chin baxti islari hidlagan tariximdan boshlayman.

Siz — qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo'lib qochqansiz, ikki yil bo'yи Marg'ilon kelib yurishlariningizni men o'zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlariningiz — dushmanlariningizdan o'ch olish uchun bo'lg'onini ongladim. Yo'qsa, meni ko'rар edingiz, ko'rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko'rар edilar, to'yar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g'ovg'asi ko'b sizni zeriktirib, jondan to'ydirg'an bo'lsa, ajab emaski, qocha boshlag'ansiz... Qochsangiz qochib ko'ringiz, ammo men bu kundan boshlab birovlarini quvishqa bel bog'ladim: otam bilan onam rafoqatlarda' xizmatingizg'a-cho'riliq'ingizg'a erta-indin yuraman, suyganingiz kundashim oldida qadru-qiyamatning nima bo'lishini ham bilaman... Siz oljanobsiz: eski qadrdonliq xurmatiga ko'ngil uchun kulib boqarsiz... Loaqal shugina bilan ham baxtsizni mas'uda qilarsiz, ammo... suyganingiz — kenjangizning jekirishlaridan, qarg'anishlaridan behad qo'rqaman, o'zimda yo'q qo'rqaman. Shu yaqin oradagi uning bilan bo'ladirg'an mas'ud daqiqalariningizda xudo yo'liga va'da olingiz-meni og'ritmasin, raqibam keldi deb o'yamasin. Nihoyati maqsadim ikki do'sika bir cho'rilik va shu munosabat bilan birovlarini ko'rib yurish...

Xatim oxirida shuni ham aytib qo'yay: o'ch qaytib, men ham ko'chadan haydalmasam edi, degan hayf hamisha ko'nglimda. Agar Xudo yarlaqab eshikingizda o'rinalashib olsam, uyoq'ini o'zim bilar edim...

*Erta-indin ko'zimga yo'l ko'rinur,  
Yo'l bosishliq ko'ngilga bir umr ko'rinur...*

### 3-nechi hamal, Marg'ilon Kumushingiz yozdim”

Otabek Kumush aytgandek kundash, ya'ni Zaynabdan uncha qo'rmasa ham, amino dardning eng da'vosizi bo'lg'an onasi to'g'risida yuragi titrardi. Uniring eng qiymatlik kunlarini og'ulag'an, ikki yil bo'yи da'vosiz dardga mubtalo qilg'an, yaramas va ishonechsiz yo'llarda sanqishiga sabab bo'lg'an o'z onasi emasmidi? Va raqiblarga, dushmanlarga yo'l ochib bergen shu onaning orzusi emasmidi?

Butun shaharni alg'oq-dalg'oq qilib ko'hlik qiz qidirg'an, nihoyat chiroyllikda tanho, aqlilikda yakto topib, to'ylar, tomoshalar, orzu va xavaslar bilan o'g'lig'a: “Xotin bu bo'libdir!”— degan iftixor va mag'ruriyat ila taqdim qilg'an suyukli kelini ustiga go'yo o'chakishgandek keladirg'an Marg'ilon parisiga nima va qanday muomala qilar edi.

\* Rafoqat — hamrohlik, yo'ldoshlik, eshlilik.



Kumush kundashining jerkirishidangina cho'chig'an bo'lsa, Otabek bu cho'chishni o'zining ko'lagasida qoldiraturg'an onasi to'g'risida tamom aqlini yo'qotib qo'ydi.



## Savol va topshiriqlar

1. Otabekning otasiga sovuq muonulasi sababini izohlang.
2. Yusubbek hoji aylgan gaplarga tayanib, uning shaxsiga tavsif bering.
3. Romanda Turkistonning ayanchli ahvoli qanday aks ettirilganini izohlang.
4. Yurtimizdan o'tgan daholarga Yusubbek hoji munosabati ifodasiga lo'xtaling.
5. Otabekning: "*men bu jonivorliqni xoh-noxoh ishlashka majbur bo'ldim*" tarzidagi iqrorni tushuntiring.
6. Ota-bolaning savol-juvobiga asoslanib, ularning shaxslarini tavsiflang.
7. Otabekning "...natijani tezroq eshitib olish uchun uning yuragi qaynag'an oshdek shopirilar edi" holati sababini toping.
8. Kumushning maktubiga tayanib, uning shaxsiyatiga xos xususiyatlarni ko'rsating.

## “O'TKAN KUNLAR” ROMANI TO'G'RISIDA

“O'tkan kunlar” Abdulla Qodiriyning bosh asaridir. Yozuvchi asar mavzusini bekorga o'tgan kunnardan olmagan. Chunki buguni mustahkam, ertasi poydon bo'lishini istagan har bir xalq o'tmishini yaxshi bilishi kerak. Adib millat tarixining “eng kirlik, qora kunlari”ni tasvirlash asnosida xalqning asl ma'naviy qiyoqasini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Yozuvchi asarda tarixning eng chirkin paytalarida ham millat hayotida yuksak ma'naviyatli yorqin shaxslar va yorug' jihatlar bo'lganligini aks ettiradi. Lekin u romanda xalq va uning o'tmishini quruq ulug'lash yo'lidan bormaydi. Balki millat tabiatidagi qolqolik va tanaz-zulga sabab bo'lgan illatlarni ham shafqatsiz xolislik bilan ko'rsatib beradi. Millat o'zining yuksak va tuban jihatlari bilan to'la aks ettirilgani uchun ham asar xalq orasida keng tarqalib ketdi.

O'z davrida “O'tkan kunlar” romanini o'qish uchun navbat kutib turganlarning sanog'iga yetib bo'lmas, asarni to'la yoddab olgan kitobxonlar ham bor edi.

Asarda xalqning baxtsizligi, millat rahnamolerining kaltabinligi, hukmdorlarning ma'rifsatsizligi, ommaning johilligi singari holatlar bot-bot tilga olin-gan. Romanning bosh qahramonlari novdaligidayoq xazon etilgan, aser ulkan fojia bilan tugagan bo'lsa-da, unda qandaydir bir yorug' ruh hukmronlik qiladi.



Kitobxon g'am bolqog'iga botib ketmaydi. Chunki adib odamlarimiz, xalqimiz tiynatidagi murli jihatlarni sezgirlik bilan ilg'ab olib, tasvirlay biladi. Shu bois barcha umidlari kesilgan taqdirlar tasviri bilan tanishgan kishida ham umidsizlik keyfiyati paydo bo'lmaydi.

Chinakam iste'dod xususiy holat misolida hodisaga tegishli umumiy belgilarni ko'ra olish qudratiga ega bo'ladi. "O'tkan kunlar"da Qodiriy iste'dodining shu jihatlari namoyon bo'lgan.

O'zbek xalqining go'zal odobi, cheksiz andishasi, katta-kichik, uzoq-yaqin kishilarning o'zaro muomala-munosabatlardagi yuksak madaniyat, millat turmush yo'sinidagi o'xhashi yo'q tartiblar yozuvchining san'atkorligi tufayli jonli badiiy lavhalarda shu qadar mahorat bilan ko'rsatilganki, o'quvchi bu xilda-gi tirikchilik yo'rig'iga ega xalq va uning yetuk vakillarini yaxshi ko'rib qoladi. Qizig'i shundaki, yozuvchi biror o'rinda bo'lsin xalqni maqtamaydi, atay uning fazilatlarini ko'rsatishga urinnmaydi, tashviq qilmaydi. Lekin qahramonlar tutumini shunday tasvirlaydi, odamlarning o'zaro munosaballarini shunday ko'rsatadiki, o'zbeklar haqida ijobjiy fikrga o'z-o'zidan kelinaveradi. Bu jihatdan, ayniqsa, Otabek, Kumush, Yusubek hoji, Alim, Hasanali, Mirzakarim qutidor, Ostob oyim, Normuhamed singari personajlar tasviri xarakterlidir. Asarda bu timsollarning taqdir sinovlaridan o'tishdagи sisatlarini tasvirlash asnosida xalqning fazilatlari namoyon qilingan.

### *Nazariy ma'lumot*

## BADIY ASARDA MILLIY RUH IFODASI

Bu dunyoda odamlar millatlarga bo'linib yashashadi. Har bir millat o'z makonida o'ziga xos tartibga amal qilib yashagani uchun boshqa millatlardan qaysidir bir jihatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, har bir odam, katta-kichikligidan qat'iy nazar, bolaligidan o'zining biror millatga tegishli ekanligini bilib o'sadi. Oila va maktabdagи tarbiya tufayli odamda: "Men — o'zbekman" yoki "Men — qozoqman", — degan tuyg'u bo'ladi. Xuddi shu tuyg'u milliy ruhdir. Millatning o'ziga xosligini tayin etadigan eng katta va asosiy belgi esa tildir. Tilini unutgan odamda millat tuyg'usi bo'lmaydi.

Milliylik — tashqi belgi emas. U ichki holatdir. Biror millatning vakili o'zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg'usi shakllangan bo'ladi. Kimki bunga besfarq qarasa, uning tashqi ko'rinishi, kiyimi, qosh-u ko'zi, hujjatiga nimra deb yozilganidan qat'iy nazar milliy tuyg'udan



mahrum kishidir. Millatini tanimaslik va u bilan faxrlanmaslik ulkan baxtsizlikdir. Bu ota-onadan yuz o'girishga o'xshaydi.

Ota-onani tanlab bo'limganidek, millatni ham tanlamaydilar. Uni boricha qabul qilish, avaylash, uning har jihatdan yuksalishiga hissa qo'shish lozim. Ayni shu holatlarning badiiy adabiyotda aks etishi badiiy asarning milliyligi bo'ladi. Adabiyotda milliylik bu — asarda xalq, millat turnushi manzaralarini, milliy urf-odatlarni, millat vakillariga xos xususiyatlarni ko'rsatishdangina iborat emas. Biror asl badiiy asar o'zbek tilida yaratilganining o'zi bilan milliydir. Agar unda faqat til emas, balki qahramonlarning tabiatini tasvirlash yo'sini ham o'zbekcha bo'lsa, u chinakam milliy asardir.

"O'tkan kunlar" romanini milliy ruh juda bo'rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. Otabekning ota-onasi bilan, qutidor va Ostob oyimlarning qudalari hamda kuyovlari bilan munosabatlari tasvirlangan o'rnlarda faqat o'zbekkagina xos fikrlesh va ta'sirlanish yo'sini juda go'zal ko'rsatilgan. Romanda milliy rulinning ifodasi milliy urf-odatlar aks etgan manzaralar tasviridagini emas, balki qahramonlarning sezinulari, o'y-xayollari aks ettirilgan o'rnlarda ham bor bo'y bilan namoyon bo'lgan. Otabek o'ziga muthaqo yoqmaydigan qaror qabul qilgan onasiga qo'pollik qilmaydi, yuziga tik qaramaydi. Shuningdek, o'g'il biror o'rinda o'zining Kumushni yaxshi ko'rishini ota-onasiga ochiq aytmaydi. Otabek bunday harakatlardan andisha qiladi, o'ziga nomunosib hisoblaydi.


Kumush Otabekni nikoh kechasiда ko'rganda "Siz o'shami?" deb entikkanda, er-xotin uzoq judolikdan keyin diydor ko'rishgach. Kumush "Siz qochoqsiz" deb Otabekning yuziga sekkingina shappatilab, erkaganida milliy ruh yorqin namoyon bo'ladi.

Asarning milliyligi odamdag'i ayni shunday nozik, ko'zga tashlanavermaydigan jihatlarni topib tasvirlashda namoyon bo'ladi. Milliy ruh yaqqol aks etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlari, o'ylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiligu mansub ekanligi o'z-o'zidan anglashilib turadi.



## CHO'LPOН

(1897—1938)



**Hayot va ijod yo'lli.** Shoир, dramaturg, nosir — Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897- yili Andijonda tug'ildi. Professor Naim Karimov, ayrim xotiralarga tayanib, Cho'lponni 1898- yilda dunyoga kelgan deb hisoblaydi. Otasi Sulaymonqul Muhammad Yunus o'g'li ma'rifatli, bilimli ziyolilardan bo'lib, asli savdo bilan shug'ullansa-da, she'rlar ham yozib turgan. Onasi Oyshabibi maxsus tahsil ko'rniagan, ammo ko'ngli ochiq, suhbati yoqimli, ertag-u qo'shiqlarni ko'p biladigan ayol bo'lgan.

Cho'lpon dastlabki ta'limni o'z mahallasidagi mакtabda olib, saboq-doshlaridan o'tkir xotirasi bilan ajralib turgan. U qisqa fursatda savod chiqarib, Qur'oni Karimni yod oladi. Zamon talabiga ko'ra, o'g'lining rus tili va madaniyatidan ham xabardor bo'lishini istagan otasi Abdulhamidni Andijondagi rus-tuzem mакtabiga o'qishga bergan. Bo'lajak shoирga rus-tuzem mакtabida Botish(C'arb) adabiyoti bilan tanishish imkonи tug'ildi. Bu mакtab saboqlari bit-gach, mulla Sulaymonqul iste'dodli o'g'lini mudrasaga topshirib, yetuk mudarris qilmoqchi bo'ldi. Abdulhamid madrasada fors va arab tillarini o'rgangan. Lekin bu davrda buyuk boshqird olimi Zaki Validiy va yosh o'zbek adibi Fitrat asarları ta'sirida turkehilik g'oyalari, jadid qarashlari bilan tanishgan Cho'lpon mudarris emas. "O'zbek milliy yozuvchisi" bo'lishga ahd qiladi. Uydagilardan ruxsat olmay, Toshkentga ketib, ijod bilan shug'ullanadi. U turk, rus, fors tillari vositasida dunyo adabiyoti durdonalarini o'qidi.

Bolaligidan she'rlar yozib yurgan Cho'lpon o'z yozmalarini "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Turkiston viloyati gazeti" kabi nashrlarda "Qalandar", "Mirza qalandar", "Q.", "Andijonlik", "Cho'lpon" taxalluslari bilan chop ettirgan. Keyinchalik "Cho'lpon" uning asosiy taxallusiga aylanib goldi. 1914- yilning 18- aprelida "Sadoyi Turkiston" gazetasida Cho'lponning

“Turkistonli qarindoshlarimizga” degan she’ri bosildi. Oradan o’n bir kun o’tib, shu yerda uning “Qurbanji jaholat” hikoyasi chop etildi. Shu yili yosh qalamkash o’z ijodining mohiyatini ifodalab bergan “Adabiyot nadur?” maqolasini e’lon qildi. Sal o’tib, “Do’xtur Muhammadiyor” hikoyasi bosildi. Nullas, qisqa fursalda Cho’lpon yangi adabiyotning yorqin yulduzi sifatida tanildi.

Aziz o’quvechi! Cho’lpon deyarli sizning yosningizda yozgan “Adabiyot nadur?” maqolasida millat bayoti, vatan ravnaqida adabiyotning o’rnı haqida o’ta jiddiy o’ylaydigan bilimdon o’spirin ekanligini namoyon etadi. Uning: “Ha, to’xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo’lsa, maishat yo’lida har xil qora kirlar birlan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar”, — degan so’zlari uning qanchalik kalta aql va ulkan bilim egasi ekanligini ko’rsatadi.

Cho’lpon adabiyotni tashviqot quroli, ma’rifat tarqatish vositasi, aqlni o’stirish yo’ligina deb bilmaydi. Badiiy adabiyot kishining ongigagima emas, balki tuyg’ulariga ham ta’sir qilishi, uni muvozanatdan chiqarishi, hislarini jumbushiga keltirishi lozimligini hisobga oladi: “Adabiyot chin ma’nosи ilа o’lgan, so’ngan, ...o’chgan, majruh, yarador ko’ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalayduran, o’tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma’rifat suvi, ...chang va tuproqlar to’lgan ko’zlarimizni artub, tozalaydurgan buloq suvi bo’lganlikdan bizga g’oyat kerakdur”. Bu so’zlar hali o’spirin Cho’lpouning naqadar uzoqni ko’ra oladigan, ko’p o’qigan, masala mohiyatiga chiqur kira biladigan kishi ekanligini anglatadi.

Rossiyadagi siyosiy to’ntarishlar davrida u bir muddat Orenburgda yashab, boshqird hukumati malkamasida kotib lavozimida ishladi. So’ng Toshkentga qaytib, 1920- yilga qadar TurkROSTA<sup>1</sup> muxbir bo’ldi.

Bu yillarda ziyolilar uchun o’z yo’lini izlash davri edi. Cho’lpon ham Fitrat boshchiligidagi “Chig’atoj gurungi” to’garagi majlislarida qatnashib, millat va vatanga yaxshiroq xizmat qilish yo’llarini izladi.

1920- yili Bokuda o’tkazilgan Sharq xalqlarining qurultoyi Cho’lpon qarashlarining rivojida mulhim abhamiyat kasb etdi. U aynan shu yerda vatan ravnaqiga jon tikkan millatchi shoirlilik yo’lini qut’iy tanlab oldi.

O’rni kelganda aytish kerakki, “millatchi” so’zi, turkiy tillarda o’z millatin sevgan, butun harakatini uni yuksaltirishga qaratgan kishilarga nisbatan ishlataladi. Sho’ro zamonda uning ma’nosи atay “boshqa millat vakillarini yomon ko’radigan kishi” tarzida buzib talqin etildi. Ayniqsa bu so’z Cho’lponga nisbatan xuddi tamg’adek «yopishtirildi». Aslida tug’ilib o’sgan yurtini, yonma-

<sup>1</sup> TurkROSTA — Turkiston Rossiya telegraf agentligi

yon o'sib ulg'aygan vatandoshlarini sevgan, ular taqdiriga besarq qaramagan Cho'lpon bunday noo'rin kamshitishlardan juda yuksak edi.

Cho'lpon o'zga millatlarga, zinhor, yomon nazar bilan qaramagan. Faqat u o'zbeklarni ham dunyoning baxlli xalqlari qatorida ko'rishni istagan. Istaganda ham astoydil, jon kuydirib, bayotini baxshida qilib...

Bokudan qaytgach, Cho'lpon Fitratning taklifiga ko'ra Buxoroga bordi va 1921—1922- yillarda o'zbek tilidagi "Buxoro axbori" gazetasini boshqardi. Bu davrda gazeta o'zbek tilini rasmiy til sisatida yoyish, buxorolik mehnatkashlarni siyosiy hayotga jalb etish, adabiyot va san'atni rivojlantirish bo'yicha yetakechi nashr mavqeiga erishdi.

1922- yilda shoir Toshkeniga qaytib keladi. U "Inqilob" jurnali bilan hamkorlik qiladi, endigina dunyoga kelayotgan o'zbek professional teatrini shakllantirish, uni badiiy barkamol asarlar bilan ta'minlashda ishtirok etadi.

1923- yilda Cho'lpon Andijonda yangi chiqqa boshlagan "Darxon" gazetasiga ishga yuboriladi. Bir yildan so'ng gazeta yopilgach, u Toshkentga qaytib keladi. Shu vaqtida milliy professional teatrni shakllantirish uchun yigirma to'rt nafar iste'dodli o'zbek yoshlari Moskvaga o'qishga yuboriladi. Rus tili va adabiyotini chuqur biladigan Cho'lpon 1924- yilda Moskvaga ketadi va shu dramstudiyanда tarjunion va dramaturg bo'lib ishlaydi. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida B. Qosimov tomonidan Z. Validiyuning "Bugungi turk eli va uning yaqin tarixi" kitobiga tayanib bergen ma'lumotlarga qaraganda, Cho'lpon bu yillarda V. Bryusov nomidagi adabiyot institutda saboq olgan<sup>1</sup>. Moskva adabiy muhiti Cho'lponga jiddiy ta'sir qiladi. U eng keyingi estetik yangiliklardan bevosita xabardor bo'ladi. Rus ijodkorlari bilan yaqinlashadi.

20- yillar Cho'lpon uchun samarali ijod davri bo'ldi. 20- yillarning birinchi yarmida Turkistonda chiqib turgan deyarli barcha gazeta-jurnallarda Cho'lpon she'rlari bosilar va ular turkistonliklarni o'zlarini anglashiga undardi. Uning she'rlari "O'zbek yosh shoirlari" (1923), "Go'zal yozg'ichlar" (1925), "Adabiyot parchalari" (1926) singari to'plam va majmualardan o'rinn olgan, maktablarga kirib borgan edi. Shu yillarda uning "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) singari she'riy to'plamlari bosildi. Uning adabiyot-shunoslik, publisistika borasidagi ishlari ham juda ko'p edi. Bu yillarda Cho'lpon "Yorqinoy" (1921), "Halil farang" (1921), "Cho'rining isyoni" (1926), "Yana uylanaman" (1926), "O'rtoq Qarshiboyev" (1928), "Hujum" (1928) singari asarlar yaratib, milliy dramaturgiyani rivojlantirdi.

1926- yilda Toshkentga qaytgan Cho'lpon sho'ro hukumatiga yuvindixonlar bo'lgan iste'dodlari kimsalarining qattiq hujumiga duchi keldi. Uni "millatchi va

<sup>1</sup> Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: "Munaviyat", 2004, 431- let.

badbin shoir". — deya aylbsitdilar. Respublika matbuotida Cho'lpon ijodi bo'yicha ur-surdan ihorat munozara bo'lib o'tdi. Badiiy so'z ma'nosini teran anglaydigan Qodiriy, Filrat singari adiblar shoirni turli yo'sinda qo'llaganliklariga. Oybek singari yosh talantlar Cho'lpon ijodiga yondashishning sog'lom yo'llarini taklif etganliklariga qaramay, shoir kommunistik mafkura yugurdaklari tomonidan ur kallak qilindi. Nihoyal, mudaniyat xodimlarining 1927- yilning oktabrida bo'lib o'tgan II qurultoyida Cho'lpon ijodi "...g'oyaviy tuturuqsiz" ekanligi Akmal Ikromov tomonidan ta'kidlangach, shoir deyarli yakkalanib qoladi.

O'tgan asrnинг 30- yillariga kelib, Cho'lponga nisbatan siyosiy-mafkuraviy zug'um yanada kuchaydi. Natijada, shoir 1932- yilda Moskvaga ko'chib ketadi. U yerda Gogolning "Tergovchi", I. Frankoning "Feruza", Andreevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi" asarlarni o'zbekchalashtiradi. 1935- yilgacha u yerda yashab, yana Toshkentga qaytib keladi va teatrda adabiy emakdoshi bo'lib ishlaydi. Bu yillarda unga qaratilgan hujumlar yanada zo'raydi, adib asarlari o'zbek matbuotida bosilmay qo'yildi.

Shundan so'ng u, ko'proq badiiy tarjima bilan shug'ullanadi. Shekspirning "Hamlet", Pushkinning "Boris Godunov", "Dubrovskiy", Gorkiyning "Ona" singari asarlarni rus tilidan o'zbekchaga ag'daradi. Shu tahlikali yillarda Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanı, "Soz" she'rlar to'plamini yaratadi.

Millat baxti uchun jonimi tikkан jasur inson, buyuk iste'dod egasi bo'lgan adib 1937- yilning 14- iyulida qamoqqa olinadi. Davrining bir guruh asl farzandlari qatori 1938- yilning 4- oktabrida otib tashlanadi.

## SHE'RLAR

### QALANDAR ISHQI

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qoldim-ku,  
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qoldim-ku.

Karashuma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,  
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta oldim-ku.

Ajab dunyo ekan bu ishq dumyosi, ayo do'starlar,  
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim ku.

Uning gulzorida bulbul o'qib qon ayladi bag'rim.  
Ko'zimidan yoshni jo<sup>+</sup> aylab alamlar ichra boldim-ku.

<sup>+</sup> Jo<sup>+</sup> — ariq.

Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni  
Yana kulbamga qayg'ular, alamlar birla qaytdim-ku.

Muhabbat osimonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,  
Quyoshning nuriga loqal qilolmay yerga boldim-ku.

Boku, 1920- y.



### Savol va topshiriqlar

1. Muhabbatning keng saroyida yo'lini yo'qolg'an oshiq holati ifodusini shurhlang.
2. Karashma dengizining nozli to'qintari sari o'ylamay quloch otgan oshiq tuyg'ularini anglatishga urining.
3. She'runing uchinchi baytidagi "u" va "bu" dunyolar ma'nosini izohlang.
4. So'nggi misra mazmunini sharhlang, "quyosh" timсоли ma'nosini topishga urining.

## KO'NGIL

Ko'ngil, sen munchalar nega  
Kishanlar birla do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor,  
Nechun **sen** muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'ritmas,  
Tubanlik mang'i ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?

Tiriksan, o'Imagansan,  
Sen-da odam, sen-da insosen,  
Kishan **kiyma**, bo'yin egima,  
Ki, sen ham hur tug'ilg'ansan!

Toshkent, 1922- y.



### Savol va topshiriqlar

1. Ko'ngilning kishanlar bilan do'stlashishi sizningha nimani anglatadi?
2. Ko'ngilga qarata: "**Na faryoding, na doding bor**". — deyilishi sababini tushuntiring.
3. Cho'lpon zulm-zo'ravonlikning omonatligini qanday tasvir elgan?
4. Ko'ngilga atalgan she'rda: "**Sen-da odam, sen-da insosen**" deyilishini izohlang.
5. She'rni yod oling.

## KISHAN

Kishan, gavdamdag'i izlar bukun ham bitgani yo'qdir!  
Temir barnoqlaringning dog'i butkul kelgani yo'qdir!


Na mudhish, na sovuq-manxus<sup>1</sup>, na qizg'anmas quchog'ing bor!  
Bashar tarixining har sahfasida<sup>2</sup> qonli dog'ing bor!

Yumilmas ko'zlarining har biri bir elni qahr aylar,  
Faqat bir borlig'ingdirkim, butun borliqni zahr aylar!

Qulf bilan sening erkingda ko'p yillar qolib ketdim...  
Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.

Kishan, gavdamdag'i dog'ing hanuz ham bitgani yo'qdir.  
Faqat butkul qutulmoqqa umidiim endi ortiqdir!..

Toshkent, 1922- y.



### Savol va topshiriqlar

1. She'r qanday kishanga qaratilgan deb o'ylaysiz?
2. Shoirning: "*Bashar tarixining har sahfasida qonli dog'ing bor!*" ta'kidini izohlang.
3. She'rdagi: "*Yumilmas ko'zlarining har biri bir elni qahr aylar*" misrasini ma'nosini loping va badiiy vazifasini tushuntiring.
4. Shoirning: "*Faqat bir borlig'ingdirkim, butun borliqni zahr aylar!*" tarzidagi yozg'irishi sababini izohlang.
5. G'azalning so'nggi misrasida aks etgan ishoneh sababini izohlang.

## YONG'IN

*Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q,*

*Go'daklar nayza boshida...*

(Xabar)

Nega menim qulog'imda tun va kun  
Boyqushlarning shumli toyshi baqirar?  
Nega menim borlig'imga har o'yun  
Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?

<sup>1</sup> Manxus — naxs bosgan. <sup>2</sup> "D"ni "id" (i)ga aylantirib, qatfigroq cho'zib o'qimoq lozim ("sahfasida" kabi), yo'qsa, aruz o'rinda yozilgan bu parchaning vazni beziladir. Bu parchada shunga o'xshagan joylar yana bir muncha bor, umuman aruz vaznidagi yozilgan parchalarda shu qoida kuzatilmog'i kerak. (Cho'lpox izoli)

Ko'nglim kabi yiqiq<sup>1</sup> uylar, qishloqlar,  
Boyqushlarga buzuq ko'ksin ochganmi?  
Ota-onas, tanish-bilish, o'rtoqlar  
Yurtni tashlab, tog' va toshga qochganmi?

Shunday katta bir o'lkada yonmagan,  
Yiqilmagan, talaanmagan uy yo'qmi?  
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,  
Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?

Podalarning yaylovida bo'rilar  
Qonga to'ygach, uvlaylarni ko'plashib,  
Yiqiqlardan<sup>2</sup> o'liliklarni to'plashib,  
O'tmi qo'yar alvastilar, parilar?

Tabiatning butun yomon tomoni  
Shu o'lkega saqat jilva qildimi?  
Mo'minlarning oq vijdoni, imoni  
Sham so'nganday tinsizgina so'udimi?

Qilichlarning tillarida qizil qon,  
Buloqlarning suvi yanglig' toshdimi?  
Yalang bola, yalang go'dak —ma'sum jon  
Nayzalarning boshlaridan oshdimi?

Keng yaylovga o'tni ketdi, yondimi?  
“Madaniyat” istagiga qondimi?

1921- y.



### Savol va topshiriqlar

1. “*Ko'nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar, Boyqushlarga buzuq ko'ksin ochganmi?*” misralarini sharhlang.
2. “*Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?*” satridagi “butun ko'ngil”ning “siniq”ligi sababini izohlang.
3. She'rnинг то'ртнини бандида ifoda qilingan mazmun va aks elgan sezimlarni anglatishga urining.
4. Mo'minlarning vijdoni va imoni so'nishi tasvirini izohlang.
5. Go'daklarning nayzadan oshirilgani tasvirining badiiy ta'sir darajasiga to'xtaling.

<sup>1</sup> Yiqiq — yiqitilgan, vayrona, vayron qilingan. <sup>2</sup> Yiqiqlar — yiqitilganlar, vayron qilinganlar.

## VIJDON ERKI

Ay tutqinlar, ay ezilgan,  
Ay qiyngan, yo'qsil ellar,  
Ay umidsiz, ay chizilgan  
Dor oldiga... oppoq dillar!

Ay bevalar, becholarlar,  
Ay bog'langan kishanlarga.  
Ay erk uchun ovoralar,  
Ko'p yalinmang siz ularga!

Bo'rillardan omon kutmak  
Tentaklarning ishidir ul.  
Har mone<sup>1</sup> hatlab o'tmak —  
Tur mushda eng to'g'ri bir yo'll

Zulm oldida har bir narsa,  
Ehtimolki bo'yin egar.  
Agar zulm avjga kelsa,  
Ko'k boshi-da yerga tegar.

Hayvonlarga, insonlarga  
Zolim ega bo'lmay qolmas.  
Faqat erkin vijdonlarga  
Ega bo'lmoq — mumkin emas!

Samarqand, 1922- y.



### Savol va topshiriqlar

1. She'rnинг сарлавхаси бақиду о'йлаб ко'ring, уни шарҳланг.
2. Dastlabki misralarda ачиниш, аяш tuyg'usi qандай акс етганигини изоҳланг.
3. She'rdagi: "Ko'p yalinmang, siz ularga!" xitobi nimani anglatadi?
4. Bo'ri obrazini izohlang.
5. "Agar zulm avjga kelsa, Ko'k boshi-da yerga tegar" turzidagi iqror bilan erkin vijdonlarning daxlsizligi baqidagi to'xtam zid emasni?

<sup>1</sup> Mone' — то'siq, qarshilik.

## CHO'LTON SHE'RLARI TO'G'RISIDA

Cho'lpon, garchi, roman va hikoyalari, esdaliklar, safar xotiralari, tanqidiy maqolalar, dramalar yozgan, tarjimalar qilgan bo'lsa-da, tabiatiga ko'ta, avvalo, shoir edi. Uning she'rlari shoirning ilhomni hamisha buloqday qaynab turganini, o'z tuyg'ularini ifodalash uchun so'z izlab qiyalnaganligini ko'rsatadi. Cho'lpon she'rlarida shoirning yoniq yuragi, olovli shaxsiyati, ta'sirchan ko'ngli, isyonkor tabiatini yaqqol ko'rinish turadi. Shaxsiyati bilan she'riyatni bir bo'lgan ijodkor edi. O'zbek adabiyoti tarixida biror bir ijodkor Cho'lpon singari qalits vaziyatda yashab turib, o'z millati sha'ni, ozodligi, tengligi uchun bu qadar dadil kurashmagan.

Siz 7- sinfda o'qigan vaqtinida shoirning "Buzilgan o'lkaga", "Go'zal", "Binafsha" she'rlari bilan tanishgansiz. Ularda yurt ozodligi, inson erki va kamoloti, hurlikni toptovchi kuchlarga otushin nafrati qanday ifodalanganligi haqida muayyan tasavvuringiz bor.

Bu jihatdan Cho'lponning "Ko'ngil" she'ri diqqatga sazovordir. Shoir qullik tananing kishanlanishidan emas, balki ruhning zanjirbandligidan boshlanishini biladi. Shuning uchun ham u she'rda odamga, jamoaga, millatga emas, balki ko'ngilga murojaat qiladi. Chunki u biladiki, ko'ngli hur odamni qul qilib bo'lmaydi. Uni bog'lash, qamash, boringki, o'ldirish mumkin, lekin qul qilish mumkin emas. Cho'lpon ko'ngli siniq odamning shaxsi butun bo'lmasligini anglagani uchun ham haqoratdan dili og'rimaydigan kimsalarga so'z foydasiz ekanini tuyadi.

Cho'lponning poetik mahorati eng zarur ma'nolarni tashiydigan so'zlarni kerakli tarzda misralarga joylashida to'la namoyon bo'lgan. She'rda biror voqe'a, esda qoladigan holat yo'q. Lekin bezovta ruhning, kishandan qutulmoq istagi-dagi ko'ngilning manzarasi bor. Shoirning siz tanishgan boshqa she'rlarida ham uning o'ziga xos ruhiyati bilan millat dardi ifodasi yonma-yon keladi va o'quvchi ko'ngliga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

### *Nazariy ma'lumot*

## IJTIMOIY VA INTIM LIRIKA

Har qanday she'riyat shoirning qalb kechinmalarini ifoda etadi. Ammo ijod tajribasida she'rlar intim va ijtimoiy yo'nalişdag'i bitiklarga bo'linadi. Intim so'zi lotincha bo'lib, "eng ichki", "yashirin" degan ma'nolarni bildiradi. Nomiga yarasha bu xil she'rlarda shoir bevosita o'ziga tegishli sezim, tuyg'u holatni tas-



virlaydi. Cho'lpionning "Qalandar ishqisi" she'ri intim lirikaning yorqin namunasidir. Unda shoir o'z ko'ngil tovlanişlarini boshqalarga ham ta'sir qiladigan darajada aks ettirgan. Har bir odamda o'zgalarning holatini tuyish, boshqalarning sezinularini his etish zaruriyati bo'ladi. Ayni shu ehtiyoj intim yo'nalişdagi she'rlarning boshqalar tomonidan ham o'qilishiga sabab bo'lgan omildir. Sof yoki intim lirikada tuyg'ular shaxsiy bo'lsa-da, uning tasviri go'zal va ta'sirchan bo'lgani uchun boshqalarga ham yuqadi.

Lirk turdag'i asarda borliq emas, balki muallifning vogelik haqidagi o'ylari, tuyg'ulari birlamechi ahamiyat kasb etadi. Bunda subjekt bilan ob'ekt bir shaxsda namoyon bo'ladi. Halto vogelikda mavjud muayyan manzara yoki hodisa tasvirlanganda ham u aslida bo'lganiday emas, balki shoirga tuyulganiday aks ettiriladi. Shuning uchun ham shoir: "Yig'lar yuragimda vatanim" yoki "Men g'olibman, Buyuk lashkarman, Bosib oldim sevgi yurtini", — deya oladi.

Ayni vaqtida, ijtimoiy hodisalarining muallif tuyg'ularini bezovta qilishi, uni muvozanatdan chiqarishi natijasida ham she'riy asarlar dunyoga keladi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik ilmida ijtimoiy she'riyat yoki ijtimoiy lirika namunalari deb ataladi.

Ijtimoiy she'riyatda shoirning fikri va hissiyoti hayot hodisalari, odamlararo munosabatlar tusayli junbusiga kelgan bo'ladi va muallif ularni o'z yuragidan o'tkazgan holda ifoda etadi. Jamiyatdagiadolatsizlik, zo'ravonlik, bosqimchilik, odamlarning beburdligi, riyokorlik, sotqinlik va boshqa ijtimoiy illatlar oqibatida tug'yonga kelgan sezimlar ifodasi ijtimoiy lirikani yuzaga keltiradi. Cho'lpionning siz yaqindagina o'rgangan she'rlari ayni shu xil xususiyatga ega. "Ko'ngil", "Buzilgan o'lkaza", "Yong'in" singari she'rlarda Vatan, xalq, ozodlik va erk uchun kurashni hayot mazmuni deb bilgan, yurt ozodligi yo'liga jonini tikkан jo'mard shoir kechinmalari o'z ifodasini topgan. Bunday she'rlarda da'vatkor, chaqiruvchi, undovchi rub yetakehi bo'ladi. Ularda bayon qilingan fikrlar va ifoda etilgan tuyg'ular chin va samimiyligidan tashqari, boshqalarga ham tegishli bo'lgani uchun o'zgalargada yuqadi.

## KECHA VA KUNDUZ

*(romandan parcha)*

...Sultonxonning o'rmini Zebixon egalladi. Mingboshi Zebixonning uyiga butunlay kapa tikib oldi. U uydan goh yosh kelinning quvnoq va bolalarecha kulishi, goh qari kuyovning xursand qiyqirishlari, goh bo'lsa yangi qayliqning

yo'rg'a zarbli dutori bilan shirin va shiralik ovozi, goli bo'lsa yangi keltirilgan gramosonda Netayxonning qichiq yallalari eshitiladi... Ana tur mush! Ana kuyov-qayliq! Poshshaxon bilan Sultanxon qayliq bo'libdimi? Zebixonga elchi qo'yib yurilgan vaqtllarda mingboshi bir so'z degan emasimdi: "Shuni qo'lga keltirsam, bor-yo'g'imni tutaman. Bor-yo'g'im shuniki bo'ladi. Bittagina bola tug'ib bersa merosxo'rim bo'ladi. Boshqalarga hech narsa yo'ql!" Yaqinda ham Hakimjon ga aytgan emish: "Men endi topdim baxtimni. Hammayog'im shuniki. Boshqalarga besh-to'rt tanob yerni tirikligimda o'tkazib berib, qolgan davlatimni batamom shunga qoldiraman"...

Poshshaxonning jahliga tekkan yana bir narsa — Sultanxonning beparvoligi! Shu beparvolik, shu o'ynab-kulib yurishlar Poshshaxonni sil qiladi, sil!

"Nima bo'ldi bu juvonga? Ertadan-kechgacha kundoshlari bilan o'pishadi, gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, gochadi, quvlaydi, quvlashadi. Qor yoqqanidan beri qishloqning yarim xotin-qizlari bilan qor otishib chiqdi... Uchtasi bilan "qorxat" o'ynab yutdi... Nima balo bo'ldi bu juvonga! Kech kirsa, xuflondayoq o'z uyiga chekilib, eshikni ichkaridan berkitib oladi: tong otguncha dom-daraksiz yo'q bo'lib singib ketadi... Eng ashaddiy dushmani Zebixon edi: eng yaqin o'rtoq'i Zebixon bo'lib qoldi. Ikkalasi sirdosh, mahram..."

Bir zamон Sultanxonning boshidan o'tgan uyqusiz kechalar endi Poshshaxonning ko'zini yundirmaydi. Har kuni shomidan tortib, azongacha yotgan joyida uyoq-buyoqqa ag'anab o'y o'laydi. Ko'p o'ylash natijasida, ...Poshshaxon ham, o'zining qo'rqnich qarorini berdi va ishga bosbladi. "Endi bir o'q bilan ikki qushni ag'darish kerak".

Poshshaxonning qarori qanday qo'rqnich bo'lsa, uning bajarilishi shu qadar tez va oson bo'ldi: baqqoldan yashirinchcha oldirilgan kuchala kichkinagini dekchada ertadan-kechgacha qaynadi: ertalab unning suvi bir choynakka solinib, Zebining uyiga olib kirilishga mo'ljallandi... Bu vaqtida mingboshining qolgan uchala xotini Dadaboy baqqolning katta qizinikiga ziyosatga chiqib ketgan edilar. Mingboshi esa shoshilinch sur'atda shaharga chaqirilgan, yashirib bo'lmaslik darujada besaranjomlik va talvasa ko'rsatgan holda ertalab shaharga jo'nab ketgan edi. Poshshaxonning uyida allaqanday bir qarindoshi o'tirganligidan kundoshlari uni qistamadiar. Hadichaxon kelib, uni tashqariga chaqirib olgan va "mehmoningizni jo'natgandan keyin chiqing. Kechgacha o'ynashib o'tiramiz". — degan edi.

Shunday qilib, o'zi yolg'iz qolgan Poshshaxon bema'lol Zebining uyiga kirdi... Tokchada bir kichkina choynakda "tabarruk" suv bor edi, u suvgaga Razzoq so'fining iltimosi bilan eshonning o'zi duo o'qib dami solgan, uni ichgandan so'ng tez fursatda Zebi homilador bo'lib, bola tug'ishi kerak edi. Choynakdag'i "tabar-

ruk” suvni ho'l obrezga to'kib tashlab, o'rniqa o'z choynagidagi suvni to'ldirdi. Tamom. “Zebi kechqurun chiqib suvdan ichadi-da, til tortmay o'ladi. To'rtinchи xotinning uchinchidan boshqa kundoshi bo'ladimi? Muni yosh bola ham biladi...”

Uydan to'ppa-to'g'ri baqqolning qizinikiga chiqdi. Anchugacha kundoshlari va o'rloqlari bilan gaplashib, o'ynashib, kulishib o'tirdi. O'zi zahar berayolgan kundoshini bir quchoqlab o'pti... Zebining o'pishlari issiq va astoydil bo'lsa ham. Poshshaxon negadir halitdan uni o'likning sovugan lablaridan olganday bo'lar va nishab suvgaga legib turgan maysa uchiday yengilgina qaltirardi. Qahqahalar bilan dunyoni boshiga ko'targan vaqtlarida ham o'z qo'lining beixtiyor ko'kragini borib qolganini payqar. allaqanday sovuq bir tuman parchasining ko'kragida ivirsib, u yer-bu yerga qadalib yurganini sezardi. Shu qadalgan narsani chiqarib yubormoq, uchun o'zini zo'tlab bo'lsa ham, bir-ikki marla qattiq-qattiq yo'taldi. Faqat bu yo'tal uning og'zidan emas, allaqanday yetti yet begonalarning og'zidan chiqdi. bu yo'tal ovozidagi oriyat shu qadar ochiq ediki, yo'taldan so'ng Poshshaxon yana ko'ksini g'ijunlashga majbur bo'ldi.

— Nima bo'ldi, jonim, sizga? Shamollab-netib qoldingizmi? — deb so'radi Zebi.

Zebining bu mehribon shu sodda, shu bolalarcha ma'sum ko'zlarida samimiyatdan boshqa hech qanday ma'nio bo'lmasa-da, Poshshaxon unda quyidagi so'zlarni o'qidi: “Bir meni o'ldirganing bilan maqsadingga yetolarmiding? Bekor mening yosh jonimni juvonmarg qilganing qoladi”.

Shundan keyin haligi tuman parchasi ko'krak tegrasida ot qo'yib chopqillab boshladi. Butun a'zoi-badanidan yalmog'iz kampirning muzdek sovuq qo'llari o'rnatlaganday bo'lardi. Yosh juvonning rangi o'chdi.

Kundoshlari uning tegrasini oldilar:

- Nima bo'ldi, Poshshaxon, sizga?
- Sovuq, oldiribman, shekilli...
- Chiqib yoting, bo'lmasa.

Ovqatga ham qaramasdan uyg'a chiqib ketdi. Shu bo'yicha ertasi kuni ham boshini ko'tarolmadidi...

\* \* \*

— Akbarali, sen shunday bir ish qilbsan, — dedi noyib to'ra, — endi mun-dan nari men seni himoya qilolmasman.

Mingboshi nima deyishni bilmasdan yerga qarab jimgina o'lirardi.

Noyib to'ra davom etdi:

— Ikkala boy bir bo'lib eng yaxshi advokatga ikki qulochi ariza yozdirishib, to'ppa-to'g'ri hokim to'raga tutibdilar. Hokim to'ra telefon berdi, mendan biroz



koyidi. Arizani ko'rdim. Yomon narsalar bor unda... Seni endi hech kim himoya qilmas deb qo'rqaman...

Mingboshi beixtiyor boshini ko'tarib noyib to'raga qaradi, so'ngra yana burungidan ko'ra pastroq engashib, amirkon etigining bukilgan boldirlariga tikildi.

Noyib davom etdi:

— Hozir, sen kelmasdan bir oz burun bir odamni Qumariqqa yubordim. Uchastka pristavi ham o'sha yerda. Machitda ikki boyga qarshi mushi ko'tarib chiqqanlarning hammasini qamoqqa oladi. Boshqa chora yo'q. Imam domlega bizning nominizdan rahmat aytishga buyurdim. Juda yaxshi so'z qilgan deydilar.

Mingboshi chidayolmadı:

— Taqsir to'ra, men hayronman: haligi qamoqqa olinadiganlarda zarraча gunoh yo'q-ku. Bu qanday bo'ladi? Agar o'zingiz o'sha yerda bo'lsangiz ikkala boyni otardingiz...

— Bilaman, — dedi noyib, — juda yaxshi bilaman. Unaqa mingta arizadan sening bir og'iz so'zingga ko'proq e'tibor qilaman. Boylarning quturgani rost, surishtirib ko'rdim. Ular o'z qilmishlarining jazosini tortganlar...

Mingboshi dandillandi:

— Unday bo'lsa, munday adolatlik podsho vaqtida ochiqdan-ochiq nolaglik qilishga qanday yo'l qo'yiladi?

Noyib kuldii:

— Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurtning obro'ylik odaunlari ni himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi, muni bilasan. Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o'zboshincha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi. Sen xomsan siyosatga...

— Men bir omi odamman, — dedi mingboshi, — siyosatingizni bilmayman. Qo'limdan kelganicha podsholikka xizmat qilib keldim. Shuncha zamon qilgan xizmatimni nazarga olmasmikin?

— Men ham shuni o'ylayman. Akbar, sen hozircha boraver. Men hokim to'raning oldida seni oz bo'lsa ham himoya qilib ko'raman. Bo'lmasa, sening o'rningga boshqa odam qo'yarmiz. Davlating katta, yeb yota berasan. O'zing ham qarib qolding.

— Mayli, taqsir, — dedi mingboshi bir oz yengil tortib, — amaldan tushiringiz, mayli. Qarigan vaqtimda so'roq berib yurishiga nafsim qo'yimaydi...

— Menga qolsa senga tegmas edim, Akbar. Ish hokim to'rada. Hokim to'rani yo'lga solish qiyin bo'ladi, unga bir narsa degani qo'rqaman... Chunki, ish juda xunuk. Xayr, boraver, iloji bo'lsa o'sha ikkala ko'ppak bilan o'zing bitish. Balki,

arizaning beoqibat qoldirilishini so'rab, ariza berarlar. Miryoqub bo'lsaydi, senga oson bo'lardi...

— Nimasini aytasiz, to'ra, boshim qotib qoldi.

Shu bilan mingboshi ko'ngli buzilib mahkamadan chiqdi. Mingboshilikdan bekor qilsaler uncha qayg'urmas edi: muniga o'z nafsin bir ish qilib ko'ndira olardi. Lekin "Akbarali mingboshi amalidan bekor bo'libdi", — degan xunuk gapni haligi ikki boy bilan Abdisamat kaptarlarining qanotiga ilib, shamolning qo'llig'iga qistirib, yomg'irning tomichisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchi-radi, har bir uchgan qarg'a shuni aytib qag'illaydi, shu bilan ikki kun ichida u shumli xabar yer yuzini aylanib Makkatillogacha yetib boradi.

...Zunnun bilan birga noyib to'raning uyi oldidagi pastgina skameykaga o'tirdilar.

— Men ham eshitdim, ota, xunuk gap bo'libdi, — dedi Zunnun.

— Yomon bo'ldi bu ish, shu sababdan sening yoningga keldim. Yaqinda Miryoqub akangdan xal kelib edi, "ba'zi bir nozik ishlarni Zunnun bilan gaplashinglar, u o'zi noyib to'raning bekasiga aytib to'g'irlaydi", — degan ekan. Shunga kelib edim.

— Jonim bilan, ota! Miryoqub akam aytmasa ham qilib beraman. Bemalol buyura bering.

— Hamma gap hokim to'rada, deydi hayronman. Beka bilan gaplashgin-chi, nima maslahat berar ekan.

— Siz eski shaharga tushib, kechgacha bir aylanib keling. Men beka bilan gaplashib qo'yaman. Kech paytida javobini aytaman. Shunga qarab ish qilasiz.

Mingboshi o'sha kunni zo'rg'a o'tkazdi. Namozgar bo'lmasdan turib Zunnunning oldida edi.

— Katta pul kerak emish, — dedi Zunnun birdaniga.

Mingboshi ham ustidan tog' tushiganday yengil nafas oldi.

— Puł bilan bitadigan bo'lsa, mayli. Pul topiladi.

Mingboshining yengil nafas olganini ko'rib, Zunnun ham ochila tushdi, uning ko'zlarida burungi andisha qolmagan edi.

— Bekamiz bunday dedilar: hokim to'raning xotini bilan o'zim gaplashib ko'raman, ish qaltis, bir narsa chiqadimi, yo'qmi oldindan aytolmayman. Har qalay, bir ming, bir yarim ming pul kerak, deydilar. O'zimga bo'lsa, Akbarali qadrdon odam, ish eplanadigan bo'lsa, keyincha bir narsa qilar, deydi. Ammo, deydi ish juda nozik, bir narsa chiqarib bo'larmikin, yo'qmikin — hayronman, deydi. Pulni olib kela bersin: "Yotib qolguncha otib qolaylik", — deydi. Ammo menga ishonib o'zi harakatsiz yurmasin, deydi.

— Qulluq, Zunnun, qulluq senga. Bu ish tuzalmaydiganga o'xshaydi. Xayr,

mayli, erta-indin pulni eplab olib kelayin. Bir urinib ko'raylik. Chiqsa-chiqar, chiqmasa otasining go'riga...

- Ichkariga kiraylik, ota. Bitta-yarimta choy qilay.
- Yo'q, Zunnun, tomog'imdan hech narsa o'tmaydi.

Mingboshi Zunnun bilan xayrlashunasdanoq o'rnidan turib ketdi. U yerdan chiqib, oddiy bir mayxonaga kirdi. Bir shisha aroqni jindek kabob bilan ichib oldi. So'ngra miyasi xamirday ko'pchib, ot ustida qiyshaya-qiyshaya orqasida ikki yigiti bilan qishloqqa jo'nadi...

\* \* \*

Uyidagilar allaqachon yotgan edilar. Dovdiragancha qoqilib-yiqilib Zebining uyiga kirib bordi. Miyasi hech narsa anglamasdi, shunday bo'lsa ham ertaga yo'ningda bir ish qilib loaql uch ming so'm pul topishga jazm qildi. Muning uchun hech qanday tadbirdan chekinmaysajak edi.

- Tur, hay! — dedi Zebiga.
- Zebi yotgan joyidan turib, fonarni balandlatdi.
- Dasturxonni yoz! Yegulik narsang bormi?
- Ha, kosada osh bor.
- Ber buyoqqa.

Zebi erining mast ekanligini bilsa-da, uning ovozidagi bu g'ayritabiyy qo'rslik va qattiqlikka hayron bo'ldi, boshini ko'tarib unga tikildi, "o'zimi, boshqami?" deganday!...

- Nimaga menga qaraysan? Yo mastmisan, sintaloq? — dedi mingboshi.
- Zebi indamdasdan dasturxonni yoyib oshni qo'ydi.
- Och muni! — mingboshi yonidan bir shisha aroq olib uzatdi.
- Men ochishni bilmayman, — dedi Zebi, ko'z yoshlari qovog'iga kelib tizilgan edi.

— Mening xotinim bo'lib aroq ochishni bilmaysanmi? — dedi mingboshi, xoxolab kuldii. — O'rgan! Mana, qarab tur! — Shishaning tagiga yo'g'on shapalog'i bilan ikki marta urdi, po'kak sachrab chiqib shiftga tegdi, so'ngra u yerdan sachrab tokchadagi katta jomga kelib tushdi, "jarrang" etdi jom.

- Ha-ha-a! — dedi mingboshi. — Jonlaringni jaranglatdim, sintaloq!
- Birin-ketin ikki piyolani to'latib ichdi, yengi bilan og'zini artdi. So'ngra bir piyolani ...Zebiga uzalди:

- Ma, ich! Odam bo'lasan!
- Voy o'laqolay! Aroq ichamanimi? Qo'ying, gapirmang!
- Odam bo'lasan, deyman! Oll O-ol!!!
- Zebi orqasiga chekinib yig'lab yubordi.
- Qo'y, mayli, ichmasang ichma, — dedi mingboshi.— O'zim ichaman!

Bir shishani tamom qilib yuvuqsiz qo'l bilan oshga chang soldi. Oshning yarmi barmoqlari orasidan dasturxonga, ko'rpa-to'shakka, o'zining liboslari ga to'kilardi. Zebi devorga suyanib bu qo'rqinch kuyovni tomosha qilardi... Mingboshi, og'zida to'la osh bilan: "Netayxon aylanay yodimga tushdi-e..." deb xirgoyi qildi. Oshli og'iz bilan boshlangan xirgoyi tomoqqa tijildi, mingboshi qalqib ketdi va og'zidagi oshni kosaga purkab yana oshga qo'l uzatdi.

Mingboshi yana bitta shishuni ochib piyolaga to'ldirayotgan edi... Zebi tashqariga chiqib, toza qor bilan qo'lini yuvdi, toza qorni yuzlariga surkadi, jindak yedi. Ancha shamollab va yengillab kirgan vaqtida, mingboshi dasturxon yonida ag'nab uchib qolgan edi. Uni qo'zg'atib o'tirmasdan, dasturxonni sekin-gina yig'ishtirib oldi-da, bir chekkaga bir yostiqni tashladi ustiga bir to'shakchani yopindi, sonarni pastladi, shu bilan uyquga yoldi. Orada qancha uxlagandir, o'zi ham bilmaydi, besaranjom bir qiehqiriq bilan uyg'ondi:

— Suv, suv, — deb qiehqirardi mingboshi.

Zebi uyqusirab kelib, sonarni balandlatdi. Ungacha mingboshining qo'rqinch ovozi yuna ko'turila tushdi:

— Sintaloqdi qizi, suv deyman! Suv! Yuragim kuyib ketdi... Yonib ketdi!... Suv! suv!!!

Zebi shoshib qoldi, tez borib choynakdagagi tabarruk suvni qo'liga oldi va hech narsa o'ylashga fursat yo'q, — darhol mingboshiga uzatdi...

Mingboshi choynakdagagi suvni bir shimirishda tamom qildi. Zebi endi uning tinchib uyquga ketishini kutardi. Yoniga yumshoq, bolishlardan ikkitasini qo'ydi. Ustiga kichkinagina bir to'shakni yoydi. Mingboshi ham tinchib qolgandalay bo'ldi.

Zebining kipriklari endi bir-biriga tekkanda mingboshi birdaniga dahshatli bir tovush chiqardi. O'rnidan turib, kamarlarini, to'nlarini apil-tapil yechishga boshladи. Zebi butun bu harakatlarni boyagi singari mastlik asarlari deb o'yadi. Uning kamar va to'nlarini bir-bir olib qoziqqa ildi, ikkalasi uchun solingan joyini tuzaldi, erini sekingina olib borib yotqizmoqchi bo'lardi...

Mingboshining ko'zlari chanog'idan chiqib keta boshladи. U endi ko'yaklarini yirtib ko'ksini, tomoqlarini timtalay boshladи... Bor kuchi bilan zo'r berib nafas olishga tirishardi. So'ng'u buzuq ovoz bilan zo'rg'a-zo'rg'a: — Bo'g'ma, bo'g'ma meni! — deb qiehqirardi.

Bir-ikkita qadam bosib devordagi javonga suyandi, bir nafas tinch qolgach, yana bo'g'ziga qo'l uzatib etlarini cho'zdi. Ko'ksiga mushtladi. Undan keyin bir qo'lini yuqoriga ko'tarib boshiga qo'ydi. Ko'zida ikki-uch tomchi yirik-yirik yosh ko'ringan edi. G'alati, yuvosh, muloyim, beozor va ayanchi nazar bilan Zebiga qaradi va ikkala qo'lini qo'yib yuborib, boshini bir tomonga shilq etib



tashladi-da, o'zi ham devorga suykana-suykana sekingina yerga o'tirdi, bir nafas o'tirgandan keyin bir tarasga qiyshayib ohistagini yonginasiga yiqildi va shu bo'yicha qimirlamay qoldi...

Nafasi ichiga tushgani holda devorga orqasini berib butun bu fojeani kuza-tayotgan Zebi bo'lgan ishni angladimi, yo'qmi, harholda, qish kumida, yugurgani-chi ko'yakchan tashqariga chiqdi va ixtiyorsiz faryod soldi.

Kundoshlari ham birin-birin uyg'onib chiqdilar va mingboshining keng ichkarisida azonga yaqin to'rt xotinning azani bildirgan yig'i ovozi ko'tarildi.

Ular orasida o'q otib mo'ljaliga tegizolmagan Poshshaxon ham bor edi...



## Savol va topshiriqlar

1. Zebi timsoliga tavsif bering.
2. Zebining Akbaraliga ko'nishi sababini izohlang.
3. Poshshaxonning qotillikka qo'l urishi asarda yetarli dalillanganini? Fikringizni usar matniga tayanib asoslang.
4. Noibning "Soddasan, Akbarali. Podsholik hammavaqt yurtning obro'ylik odamlarini himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi, muni bilasan. Undan keyin, qishloq, odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariiga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi. Sen xomsan siyosatga..." deb aytgan so'zlariga munosabat bildiring. Unda istilochilarning o'lkada yuritgan siyosati to'g'risida fikr yuriting.
5. Noib to'ra va uning xotini sizda qanday taassurot qoldirdi? Ularning asl maqsadi nima edi?
6. Akbarali mingboshi to'g'risidagi mulohazalariningizni bildiring.
7. Zebiga zahar bergen Poshshaxon ruhiyatida kechgan jarayonlar tasviriga to'xtaling.

\* \* \*

*Akbarali mingboshi zaharlanib o'lгach, chor hukumati ma'murlari "to'rt chaqaga arzimagan bu qurbanzi zamonni" yangi fath etilgan "vahshiy" xalq orasidan yetishgan ziyrak, yetuk, toj-u taxiga sadoqatli siyosat arbobi sifatida ko'rsatmoq istaydilar. Bunga zo'r siyosiy tus berib, boshqalarga dars bo'lishi uchun qotilni topib jazolashga bel bog'laydilar. Bu jazo mashinasiga hech gunohsiz Zebi aybdor sifatida ro'baro' bo'ladi.*

Sud majlisi bo'ladigan keng zalda shamollar uchib, o'ynardi. Qator-qator chizilgan Vena kursilari haftalik uyqularidan hali ham uyg'onmagan edilar. Eng oldingi qatorda hokim, noyib, garnizon boshlig'i, politsiya boshlig'i, pop; uchinchi

qatordagi eng chekka kursida oppoq va zo'r sallali chol — jome masjidning ingichka ovozli imomi o'tirardi. Bir tomonda zakunchi, bir to-monda tilmoeh: boshqa hech kim yo'q.

Zebi ikki konvoyning yalang'och qilichi o'rlasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi-kavush bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi. Bu omonsiz suddan va bu yaltiragan yalang'och qilichlardan ko'ra uning o'sha qora qiyofusi qo'rqiinch edi; o'rta asrlardagi Ispaniya inkvizitsiya mahlkamalarining qora aboli va sirli kardinallariga o'xshardi... Pop qaradi, boshini chayqadi: domla qaradi, "astofurullo" o'qib, soqolini silkitdi.

Sud raisi niroyat tilmoehga yuzlandi:

— Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.

Tilmoeh bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.

— Voy o'la qolay! Shuncha nomahramming oldida yuzimni ochamanmi? Undan ko'ra o'lganim yaxshi emasmi?

Bu so'z tarjima qilib berilgach, pastdagilarning deyarli hammasi, sud hay'atidan bir necha kishi yengilgina kulib oldilar. Ulardan ikki kishi ayrıldi: birinchisi — niroyatda semiz va yo'g'on gavdali garnizon boshlig'i; bu odam to-vuqning qa-qalashiga yaqin bir tovush bilan ovozi boricha va birdaniga qah-qah soldi. Hamma unga tomon o'girildi. Sud raisi chinqiroq chaldi. Garnizon boshlig'i yonidagi ro'molehasini olib, yuz-ko'zlarini arta boshladi... Ikkinchisi — imom-domla; bu kishi o'zlarining ingichka, xushtak singari ovozlari bilan ixtiyorosiz: "mashaollo!" — deb yubordilar. Hamma u kishiga tomon evrilgach, qip-qizarib va ham... qo'rqiib, boshlarini quiyi soldilar.

— Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz; yuzini ochmasa bo'lmaydi. Sudning qoidasi shu. Paranji ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun biz uning yuzini ochdirishga majburmiz. Aytingiz, qarshilikdan foyda yo'q!

Zebi xuddi o'yinda sherigiga acheniq qilgan boladay teskari burilib oldi. Undamay turganligidan sud raisi yana so'z oldi:

— Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa, sud majlisini olib borolmayman.

— Olib bormasa mayliga... — dedi Zebi. — Bilganini qilsin!

Tilmoeh o'zi kulib, qip-qizarib turib, tarjima qildi.

Sud raisi ovozini ko'tara tushdi:

— Harbiy sud masxarami bu kishiga? Aytingiz, yaxshilik bilan ochsinlar. Bo'lmasa, kuch bilan ochdiramiz?

— Voy sho'rim! Shuncha erkak o'tirsya-ya! O'lganim ming marta yaxshiroq! So'ngra ovozini pasaytiribroq tirkadi:

— Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?..

Sud raisi endi bu safar muloyimi gapirdi:

— Aytingiz, sud tomonga qarab, domlaga orqasini o'girib tursin!

Zebi yana indamadi. Domla o'tirgan joyidan bir oz ko'tarila tushib.

— Hechqisi yo'q, qizim! — dedi. — Men qaramayman!

— Mana bular-chi? — dedi Zebi, sud hay'atini ko'rsatdi.

Endi bu safar domla o'rnidan turib, tilmoehga yuzlandi.

— Eshoni mirzo! Menga ijozat berilsa, shu ayolga ikki og'iz nasihat qilsam.

— Marhamat, taqsir!

Domla Zebining yoniga borib, nasihatga boshladi. Zebi borgan sari susayib bo'lsa-da, domlaning har bir so'ziga javob qaytarardi. Oxirida domla o'z dindoshlari o'rtasida mashhur bo'lgan bir e'tiqod masalasini ochdi:

— Kofir bilan itning farqi yo'q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo'lsa, kofir dan ham qochmasangiz bo'ladi. Bu joiz?

Domla shunday joyda bu xil gaplarni gapirishdan juda qo'rqardi. Shuning uchun boshda-boshqa so'zlar bilan Zebiga ta'sir qilishga urindi. U urinishlardan tezroq bir natija chiqmagandan keyin majlis ahlini mahtal qilib qo'ymaslik uchun bu masalani ochishiga majbur bo'ldi. Majbur!.. Shu uchun so'nggi so'zlarni juda past ovoz bilan aytgan edi.

Zebi unadi.

— Bo'lmasa, sal o'zingiz nariroqqa borib o'tiring!

— Xo'p, qizim, xo'p, — dedi domla. To'rt-besh qator orqaga borib o'tirdi.

Hammanning ko'zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi va sudga tonon evrilgan holda bir qo'llini yana yuziga parda qildi.

— Mana, qilaql so'rog'ingnil!

Hozir bo'lganlar o'rtasida "bu sodda musulmon qizini uyaltirmaslik uchun" ko'zini boshqa tomonga burib o'tirganlar bilan birga ikki ko'zini undan uzmagan va allanimalar deb o'zicha so'zlashib, lablarini tez-tez qimirlatganlar ham bor edi.

Aybdorning kimligi surishtirilgach, sud darhol o'rnidan turib, aybnomani o'qidi. Undan keyin yana kalta savol-javoblar ketdi. Bu daf'a ularning adadi orta tushdi:

— Aybnomani eshitdingizmi?

— Ha...

— Mingboshi suvni o'zi so'radiani?

— Ha o'zi so'radi...

— Mastmidi?

— Ko'p aroq ichib edi.



- Suvni kim berdi?
- Men berdim.
- Choynakdamidi?
- Ha...
- Mana bu choynakmi?
- Ha...
- Kimming choynagi bu?
- Meniki.
- Siznikimi?
- Ha, meniki.
- Ichida qanday suv borligini bilarmidtigiz?
- Bilardim.
- Qanaqa suvidi?
- Irim suvidi.
- Kimga qilingan irim?
- Menga...
- Nima uchun irim qildirardingiz?
- Farzand bo'lsin deb...

Pastda o'tirganlarning domladan boshqalari, so'ngru sud hay'atidan bir-ikki kishi, zakunchi va tilmoch yengilgina kulib qo'ydilar.

- Nega u suvni mingboshiga berdingiz?
  - Juda tashna bo'lib so'ragan edi, shundoqqa tokehadan olib uzatdim.
  - Choynakda zahar borligini bilarmidtigiz?
- Zebi kuddi.
- Qiziq ekansan (o'russni sizlab bo'lmaydi), men qayerdan bilay?
  - Demak, eringizni o'zingiz o'ldirdingiz?
- Zebi qattiqroq va cho'zibroq javob berdi:
- Yo'-o'-ql... O'libmanni o'z erimni o'ldirib.

Uning bu so'nggi javobidan qiz bolaning o'z o'rtog'iga o'zini oqlab gapiradigan sodda gaplaridagi gunohsiz ohang boridi: "Voy o'laqoling, men shunaqa dermidum?"

Zebi sud raisining bola emasligini qaydan bilsin? Shu yerda o'tirgan shuncha erkakning oyday ravshan bir narsani anglamasliklarini qaydan bilsin? "O'russ-musulmon bo'lib shuncha odam o'tiribdi, axir. Mingboshini o'ldirgan Zebi emasligini hammasi biladi. Bilib turib yana qaytalab so'ray bergani qiziq! Yo'smoqchilab so'rarmikin?"

Sud raisi gapirmoqchi bo'lib o'rnidan turgan vaqtida Zebi — "ana, so'roq tamom bo'ldi. Endi uyimni qandoq qilib topib boraman?" — deb o'yladi.

- O'tiring, — dedi sud raisi Zebiga.

Sekingina va ehtiyyot bilangina o'tirdi. Sud raisi so'z oldi:

— Voqeal shu qadar ochiq, masala shu qadar ravshanki, meningcha, majlisni davom ettirishga ham hojat yo'q. Aybdor o'zi har bir savolga bergen javobi bilan jinoyatini iqrar qildi. Shunday bo'lgach, biz hukm chiqarish uchun ichkariga kira bersak, deyman.

Sud majlisida faqat aybdorga berilgan savollar, so'ngra tergov protokoli bilan hukmnomaning eng kerak joylari tarjima qilinlar; boshqa so'zlar o'russcha ketardi. Shu uchun til bilmagan Zebi o'tirgan joyida gapirgan to'raning yuz harakatlarini tomosha qila boshladi.

Sud raisi prokurorga qaradi:

— Siz nima deysiz, zoti muhtaram?

Prokuror o'rnidan turib, ikki qo'lini stolga qo'ydi-da, yarim engashib turib dedi:

— Men bu taklifga qarshi emasman. Albatta, mening bu masalada boshqa inulohazalarim bor. Men urush vaqtining nozik paytlarida bo'lgan bu o'ldirishga oddiy o'ldirish kabi qarayolmayman. O'ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqati bilan tanilgan odam edi. Uni "yosh sart" maxfiylari, ayniqsa, ularning dushmanimiz bo'lgan Turkiya bilan fikran bog'lanishgan unsurlari yomon ko'rardilar. Men bu "sodda" va "gunohsiz" sart ayolining shunday unsurlar qo'lida o'yinchoq bo'limganidan amin emasman...

Biz sart xalqga allanechlik heparvolik bilan qarab o'rgangaumiz: "Qo'yday yuvosh, ular!" — deymiz. Albatta, ularning manulakatlarini qon to'kib olgan fotihlar sifatida bu qarashimiz bir nav to'g'ri ham bo'la biladi. Faqat bizga endi bu noto'g'ri qarashni tashlash kerak! Durust, sart xalqining ko'pchiligi muazzam davlatimizga, sevimli podsholimizga sodiq... Eslik, tajriba ko'rgan katta savdogarlar, qishloqning obro'yli boylari; ayniqsa, ulamo loftasi "yosh sartlar" ning nufuzini qirqish uchun zo'r bermoqdalar; bularni bilaman. Lekin haddan lashqari ehtiyoj bilan, sergaklik bilan ish olib bormasak bir kun emas, bir kun haligi ko'pchilikning "yosh sartlar" bayrog'i ostida bosh ko'tarishi juda mumkin narsa. Muni bilish kerak! Kechagina bo'lib o'tgan tog' voqealari, Qumariq hodisalari nazarimizdan qochmasin, taqsirlar!

Mana shu nuqlalardan qarab, men bu "soddadil", "yuvosh" va "gunohsiz" sart qiziga eng oliy jazo talab qilmoqchi bo'laman. Modomiki, masala o'zi bu qadar ravshan va aybdorning o'zi o'z og'zi bilan iqrar qilib turibdi, mayli, mu-zokara oolib o'tirmasak ham bo'ladi. Men o'z fikrimni muhtaram sud hay'atiga arz qilib, masalaning bu lomoniga ham diqqat qilinmog'ini so'rayman.

Zakunchi sud raisining murojaatini kutmasdanoq, o'rnidan turgan edi:

— Men ham so'z aytishdan voz kechaman! — dedi u, yana darhol joyiga o'tirdi.

Sud hay'ati o'midan turib ichkariga chekildi.

“Ana, — deb o'yaldi Zebi. — o'zim aytgan. Hamma gap oyday ravshan... Endi uyimni topib ketalarnikanman?”

Chorak soat o'tmasdan hukmmomani eshitdirdilar. Unda bu ishning asosan siyosiy bir rangdan xoli emasligi iqror qilinmoq bilan birga, bu so'roqqa to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'Imaganligi, ishning u jibatini alohida tekshirib, lozim ko'rilmanni taqdirda, qaytadan ish qo'zg'atmoq tegishli mahkamalarning vazifasi ekanligi, endi bu o'ldirish hodisasi to'g'risiga kelganda, masalaning juda aniq anglashilganligi, aybdorning o'zi tomonidan necha martalar iqror qilingani, shu uchun guvoh jalbiga va muzokaraga lozim ko'rilmaganligi aytildi.

Undan keyin: “Aybdorning qilgan gunolni og'ir bo'lib, hozirgi urush vaqtida va nozik sharoitlar ichida davlat odamiga qasd qilgani uchun falon moddalar, bo'yicha oliy jazoga hukm qilish kerak bo'lsa-da, bovujud O'lka harbiy sudining sayyor hay'ati aybdorning madaniyatsiz yerli xalq ayoli ekanini, o'zining yosh va turmushda tajribasizligini va ham hamma gunohlarini nomus bilan iqror qilib, bo'yniga oiganini nazarda tutib, falon-falon moddalar bo'yicha yetti yil surgunga hukm qildi. Bu hukm ustidan tegishli joylarga shikoyat qilish mumkin”, deyladi.

Tilmoch hukmmomani to'rt og'izgina qilib eshitirdi:

— Aybdor Zebinisa Razzoq so'fi qizi, Harbiy sudning hukmi bilan yetti yil Sibir qilindingiz. Norozi bo'lib ariza bersangiz mumkin.

Hukmmoma o'qilib bitar-bitmas, zaldagilar chiqqa boshlagan edilar. O'qilib tamom bo'lg'ach, sud raisining ishorati bilan qilich yalang'ochlagan konvoylar yana boyagi taxlitda Zebini olib chiqib ketishdi. Shundan keyin sud hay'ati ham chiqib ketdi. Zalda faqat tilmoch, zakunchi, undan keyin nima uchun o'zining bu yerga chaqirilganini bilmagan imom domla qolgan edi. Tilmoch domla imomning yoniga keldi:

— Taqsir, siz jindak sabr qiling. Men hozir kelaman, undan keyin gaplashamiz.

Domla yuragini qo'liga olib rangi o'chgan, lablari biroz qaltiragani holda... sud zalida qoldi. Zakunchi tilmochini olib tashqariga, Zebining yoniga chiqdi. Zebi chummat ostida ho'ngur-ho'ngur yig'lamoqda edi.

Zakunchi so'radi:

— Nima deysiz? Ariza yozib beraymi?

Zebi xo'rsingan ovoz bilan yig'lab turib, uzuq-uzuq javob qildi.

— Kimga?

— Yuqoriga.

— Unda... nima bo'ladi?

— Nima bo'lardi: ehtimol, yana so'roq bo'ladi; ishlari qaytadan ko'rardilar.



— Kinn... ko'radi? Shular... ko'radimi?  
— Boshqa sud ko'radi.  
— Bari bir... op-ochiq turgan narsani... bular tushunmaydi-yu, ular tushu-narmidi?

— Ariza yozib beraynni?

— Qo'yaqol!.. Men uchun... ovora bo'lib o'tirma...

Zakunchi kulumusirab, tilmochiga qaradi, u yelkasini qoqdi. Zakunchi boqcha darvozasidan chiqib ketnuk uchun o'sha tomonga qarab yurdi.

— Hay, shoshma, — dedi Zebi. — Shaharda... Shaharda... ota-onam.. bor... ko'rsatarmikin?

— Avaxtaga olib borgandan keyin ko'rsatadi.

Zakunchi darvozaga qarab ketdi. Tilmoch u bilan xayrlashgach, yana dom-laning yoniga kirdi.

— Eshoni mirza, — dedi domla-imom uni besaranjomlik bilan qarshi olib,  
— meni nimaga chaqirgan ekanlar?

Tilmoch kuldil:

— Sizni, taqsir, sud sadri chaqirtirgan edi. Basharti qasam berish lozim bo'lib qolsa, musulmon shariatiga muvosiq qasam berish uchun.

— Qasam bermadilar-ku?

— Lozim bo'lindi, taqsir. Ayol o'zi iqror...

Domla anglayolmadи shekilli, mirzaning so'nggi so'zini savol shaklida qay-tardi:

— O'zi iqror?

Tilmoch yana kuldil:

— Ha, o'zi iqror... Eshitmadingizmi?

— O'zi iqror enmas, inkor qildi, shekilli-ku?

— Damningizni chiqarmang, taqsir. Bu nozik masala...

— Ha, albatta, albatta.

— Endi, taqsir, sud raisining sizdan iltimosi bor: o'zingiz eshitdingiz, bu ayol Razzoq so'fi degan odamning qizi, o'z eriga zahar bergen. Eri xizmati sing-gan mingboshilardan ekan. Prokuror otib o'ldirilsin degan edi, sud qabul qilmas-dan, yetti yilga Sibirga kesdi. Ertaga jumadan keyin machitda ikki og'iz gapirib qo'ysangiz deydilar.

— Nima to'g'rida, mirza?

— Ya'ni oqpodshoning sodiq odamlariga kim qo'l ko'tarsa, oqibati mana shunday bo'ladi, degan mazinunda...

— Xo'p, eshon'i mirza, xo'p. Albatta, aytaman, albatta. Endi menga ruxsat-mikin?

Domlaning bu savolida xuddi gunoh qilgan odamning ochiq bezovtaligi sezi-



lardi: "Meni qamamasimikin?" — deganday... Tilmoch muni payqadi shekilli, quruq va sovuq javob berdi:

— Bora bering.

Domla maktabidan "ozod" bo'lgan eski maktab bolalari singari o'zini eshikka urdi va o'sha onda ko'zdan yo'q bo'ldi. Tilmoch kului: "immon yo'q taqsirim-da", dedi o'z-o'ziga.



### Savol va topshiriqlar

1. Asardagi "zakunchi" timsolini sharhlashga, xatti-harakatlarining asosini to'pishga urining.
2. Parchadagi tilmoch obrazini tavsiflang.
3. Prokurorning nutqini qayta o'qing. Shunga tayanib, uning shaxsini tavsiflang.
4. Sud jarayonidagi shoshqaloqlik, e'tiborsizlik sababini izohlang.
5. Taqdiri hal bo'layotgan mash'um damlarda o'z shahridagi uyiga qanday yetib olishni o'ylab o'tirgan Zebi shaxsiyatiga to'xtaling.
6. Nodonligi turqi, gaplari va qiliqlaridan bilinib turgan Akbaralining o'ligiga chor amaldorlari tomonidan berilgan e'tibor sababini izohlang.

## "KECHA VA KUNDUZ" ROMANI TO'G'RISIDA

She'riyat, hikoyachilik va dramaturgiyada tajriba orttirgan, rus va jahon adabiyotining muntoz namunalarini bilan tanishib, ayrimlarini maliorat bilan tarjima qilgan Cho'lpon 1934- yilda "Kecha va kunduz" romanini yozib, o'zining buyuk nosirlik iqtidorini ko'rsatdi. Roman "Kecha" va "Kunduz" singari ikki kitobdan iborat bo'lishi ko'zda tutilgan edi. "Kecha" kitobining birinchi bobi 1935- yilda "Sovet adabiyoti" jurnalida boshilgan, 1936- yilda roman to'liq chop etilgan. Cho'lponning ayrim zamondoshlari ikkinchi kitob ham yozib tugallanganligini aytishadi. Eltimol, Cho'lpon qatag'onga uchiragan vaqtida kitob qo'lyozmasi yo'q qilingandir. Lekin asarning birinchi kitobiyoq eng yetuk o'zbek romanlaridan biri sifatida adabiyot tarixida qoldi.

Yozuvchi kechagi kunni tasvirlar ekan, "mustamlaka tuzumi yomon" qabilidagi gapni yalang'och aytishday jo'n yo'ldan bormaydi. Balki, zulmzo'ravonlik ustuvor ekan, mamlakatda qanday tuzum hukumronligi haqida yetti uxlab tushiga kirmaydigan, oddiy kishi ham uning qabohatidan chetda qolmasligini hayotdan olingen jonli timsollar taqdirini tasvirlash asnosida ishonatli

ko'rsatadi. Tuzum o'z-o'zieha adolatli ham, adolatsiz ham emas, balki unda yashayotgan va uni boshqarayotgan kishilar darajasida bo'lishi g'oyal nozik tasvirlangan. Adib o'lka ahli hayotidagi unchalik ko'zga tashlanavermaydigan jihatlarning mohiyatini teran anglagani uchun ham "Kecha va kunduz" roman qahramonlar boshidan o'tgan qiziqarli voqealarni naql etuvchi sarguzasht emas, balki Turkiston va turkistonliklarning tarixiy taqdiririni butun chigalliklari bilan aks ettirgan badiiy asar darajasiga ko'tarilgan.

Asarda Cho'lpon olamga hayrat ko'zi bilan qaraydigan sodda, samuniy Zebi, umri to'rt devor orasida o'tayotgan, na firikchilikdan, na erdan yolehigan Quryonbibi, dunyoda faqat eshonning so'zinigina haqiqat deb biladigan johil Razzoq so'fi, dumbul va savodsiz Akbarali mingboshi, ayyor noib to'ra, uning makkor xotini singari ko'plab timsollar haqqoniy va jonli tasvirlangan. Cho'lponning mahorati shundaki, asarda unchalik katta o'rin tutmaydigan epi-zodik personajlarni ham g'oyat puxta tasvirlaydi.

Romanda Zebi ishtirokidagi voqealar tasviriga ko'p o'rin berilgan, asardagi ko'pehilik personajlar shu timsolga daxldor tarzda chizilgan bo'lsa-da, u asarning bosh qahramoni emas. Negaki, u asar voqealari rivojini boshqarmaydi, balki ix-tiyorsiz tarzda, qayoqqa borayotganini, nima bo'larini bilmagan holda hayot oqimida suzadi. U biron-bir holatning kelib chiqishiga ongli tarzda, bilib turib sabab bo'lmaydi. Uning boshqalar hayatiga ta'sir ko'rsatgan xatti-harakatlari ham o'zining ixtiyoridan tashqarida sodir bo'ladi.

Adibning mahorati tufayli mul'e, hech qanday ijtimoiy salmog'i yo'q Zebi o'z soddaligi, husni, odobi, issati, noyob iste'dodi bilan o'quvehilar mehrini qozonadi. Cho'lpon qizni o'z tabiatni mantig'iga muvosiq harakatlantiradi. U quvlik-shumlikni bilmaydi, taqdirga tadbir qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Zebi — tom ma'noda o'zini "muhitning erki"ga bergan o'zbek qizi. Yozuvechi uni boricha ko'rsatadi. Qizig'i shundaki, adabiy qahramonlarga qo'yiladigan talablarning bir dunyosiga javob berolmaydigan bu qiz iusoniyligi beg'uborligi, o'zbekcha soddaligi bilan kishini o'ziga rom etadi.

Sotsialistik realizm talabiga ko'ra, adabiy qahramonlar hayatida dinamika bo'lishi, ya'ni ular asar davomida bir qadar bo'lsa-da, o'sishi kerak. Zebi esa, shuncha sinovlardan so'ng ham romanga qanday kirib kelgan bo'lsa, shu holicha qoladi. Faqat baxtsizligi miqdori ko'payadi, azoblari darjasasi ortadi, aybsiz aybdor bo'ladi, xolos. Lekin bu hol uning jozibasiga soya tashlamaydi.

Zebinisa — o'zbek ayoli timsoli. U vaziyatga ta'sir ko'rsatishni, nobop hayatga qarshi isyon qilishni xayoliga keltirmaydi. Boshqa qizlarga xos quvlik qilishni ham bilmaydi. Zebi — go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirlarga to'la hayat uni sig'dirmaydi. Shudringday toza va chechakday pokiza

bo'lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo'y havosi qizni darrov so'ldiradi. So'ldiribgina qolmaydi, balki unga jinoyatchi qotil yorlig'ini yopishtiradi. Chunki kirlik va jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, ezbilikning yashashiga imkon bermaslikka urinadi.

Zebi — hurkak ohu singari go'zal va ilojsiz. U eng yaqin kishisi bo'l mish otasidan yovdan qo'rqqanday qo'rqaadi. Ammo uni yomon ko'rmaydi. Otasi qatori, ammo undanda johil, undanda xunuk kimsaga xotin bo'ladi va bu qismatga ko'nikadi. U mingboshining o'zga ayollari singari na merosga ega bo'lishni, na boylik orttirishni, na o'ynash topib ishlrat qilishni o'laydi. U taqdirliga tan beradi, xolos. Lekin taqdiring adolatsiz o'yinini qarangki, Akbarali ayni shu begunoh qiz qo'li bilan o'ldiriladi.

Zebining suddagi holati, ro'y bergan hodisani mustaqlo tushunib yetmagani, o'zidan nima so'rashayotgani, nima talab qilishayotganini anglamaganligi, Sibirga surgun qilingani haqidagi hukimni eshitgandan so'ng ham qismatini emas, balki uya qanday yetib olishini o'ylashi kabi o'rindarda Cho'lpionning tasvir qudrati bor bo'yi bilan namoyon bo'lgan. Shunday manzaralar tasviri o'quvchini qizga taqdirdosh, qismaldosh, dardosh qilib qo'yadi, uning har bir nafasini xavotir bilan kuzatishga majbur qiladi.

Cho'lpion o'ligi tirigidan qimmaliga tushgan Akbarali timsolini ham g'oyat pishiqliq ishlagan. U tavakkalchiligi, orqa oldiga qaramasligi sabab bo'lib, kattalar nazariga tushib qolgan va ular aynau unga o'xshash og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadigan amaldorlar kerakligidan hamda pora berishda qo'li ochiqligidan mingboshini "qadrlashadi". Akbaraliga o'xshagan amaldorlar buyruqni bajarish-nigina bilsingani, uning mohiyati, odamlarga foyda-zarari bilan qiziqmaganlari uchun bosqinchilarga kerak. Bundaylar millatdoshlarini o'ylamaydi, ularga achinmaydi. Odamiylik haqidagi "ortiqcha" injqliklardan xoli va shu bois kattalarning zanjirdagi itiday gap. Uning shaxsiy hayoti ham fe'liga yarasha: na mazmun va na tartib bor.

Romanda Zebi taqdiri mantiqiy yakuniga yetmaganday ko'rinadi. Chunki hayotning yakuni yo'q. Unda qancha tasodif-u nomalumliklar turgani yolg'iz Yaratganga ayonki, asardagi tugallanmaganlik ana shunga qilingan ishoradir. Ko'rinadiki, "Kecha va kunduz" kishini o'yga toldiradigan, kecha, bugun va erta haqida, inson umriming mazmuni to'g'risida fikrashga undaydigan asar bo'lib, yoshlarning milliy ma'naviyatini shakllantirishida muhim o'rinn tutadi.



## ОYBEK

(1905 — 1968)



**Hayot va ijod yo'li.** Muso Toshmuhammadi o'g'li Oybek 1905- yilning 10- yanvarida Toshkentning Gavkush mahallasida, hunarmand to'quvchi oilasida tug'ildi. Ota-onasi uni yoshligida eski maktabga o'qishga berishgan. Oybekning so'zga bo'lgan muhabbati onasi Shahodatbonu yordamida kuchaydi. Muso o'n to'rt yoshta to'lganda "Namuna" nomli yangi usuldagagi boshlang'ich sho'to maktabida o'qishtini davom ettiradi. U o'n olti yoshta yetganda, Navoiy nomidagi ta'lum-tarbiya texnikumiga o'qishga kirdi.

Texnikumdagi talisil uning mun佐oz adabiyotga muhabbatini yanada teran-lashdirishdan tashqari, qiziquvchan o'spirinni rus adabiyoti bilan yaqinlashтиrdi. Oybek o'z xotiralarida: "Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin-o'qtin o'zimeha mashq qilib, bitta-yariintla she'r yozib ham qo'yardim. Xotiramda bor, ilk she'rim texnikumning "Tong yulduzi" nomli devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o'zin mas'ul muharrir bo'ldim. Sekin-sekin respublika gazetalarda she'rlarim bosila boshladti" deya ta'kidlaydi. Shu tariqa Oybek adabiyot olamiga kirib keladi.

Shu texnikum talabasi, Oybekning bo'lajak rafiqasi Zarifa Saidnosirova o'z xotiralarida shunday yozadi: "Oybek oriq va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir... qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi. Yirik qora ko'zlari shogirdlik davridayoq teran ma'noli va xayolchan edi... Oybek "Tong yulduzi" devoriy gazetamizning muharriri edi. U ba'zan yo'llimni to'sar, gazetaga biror narsa yozib berishimi yoki rasm solishimni so'rар edi. U bir kuni she'rغا liq to'la, qalingina, sariq muqovali daftarni qo'limga tutqazdi-da, she'rlarning boshi va oxiriga kichik-kichik rasmlar chizib berishimni so'radi. Yo'q deya olmadim va eng nozik mo'yqalam va akvarel bo'yoqlar ila rasmlar chizzdim...".

1925- yilda texnikumni tugatgan Oybek O'rta Osiyo davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti iqtisod bo'limiga o'qishga kirdi. Oybek o'qishini 1927- yilda Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomidagi xalq xo'jaligi institutiga ko'chirdi. Namxush va zax Peterburgda talisil bilan o'tgan ikki yil shoirning salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatdi va u 1930- yilda o'zi o'qigan universitetga qaytib keldi. O'qishni tugatgach, besh yil davomida o'sha yerda siyosiy iqtisoddan ma'ruzalar o'qidi.

Adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan, Cho'lpon hamda rus simvolistlari ning ta'sirida bo'lgan Oybek tez orada o'ziga xos ovozga ega ijodkor ekanligini ko'rsatdi. 30- yillarda u "Dilbar davr qizi", "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Navoiy" singari o'nga yaqin doston yaratdi. U hikoyachilikda ham o'zini sinab ko'rdi.

1937- yilgi qatag'on shamoli Oybekni ham chetlab o'tmadi. U til va adabiyot institutidagi ishidan haydaldi. Yozuvchilar uyusimasi safidan chiqarildi. Mahalliy matbuot eshiklari uning uchun yopildi. Lekin shoir umidsizlikka tushmadni, o'zining butun kuchini ijodga bag'ishladi. Tinmay yozdi. "Qutlug' qon" romanı qonga bolgan 1938- yilda yozilgan.

Oybek urush yillarida ham samarali ijod qildi. Uning mashhur "Navoiy" romanı 1942- yilda yozildi. Shu yillarda adib "Mahmud Torobiy" tarixiy dramasini ham yaratdi. 1943- yilda O'zbekistonda Fanlar akademiyasi tashkil etilishi bilanoq, Oybek Gafur Gulom bilan birga uning huqiqiy a'zosi qilib saylandi va o'sha kunlardan to 1951- yilga qadar akademianing gumanitar bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi.

Ikkinci jahon urushi tugagach, Oybek O'zbekiston yozuvchilar uyusimasi raisligiga saylandi va 1949- yilgacha shu lavozimida ham mehnat qildi. Shu yillarda adib "Oltin vodiyan shabadalar" romanini yozdi. Oybek 1951- yilda og'ir xastalikka chalindi. Gapirolmay qolgani, harakatlari cheklangani, xotirası susayganiga qaramay, u umrining keyingi yillarida "Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l" romanlari, "Nur qidirib", "Bolalik", "Bola Alisher" qissalarini yaratdi. Talaygina she'r va dostonlar bitdi.

Mashhur ximik olima, Oybekning turnush o'rlog'i Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: "1968- yilning 1- iyulida, oltmisht uch yoshida Oybek vasfot etdi. Men hayotimning birdan-bir ma'nosi bo'lgan ulug' insondan judo bo'ldim. Men hozir Oybekning o'limoldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qo'llim qaltirab, nafasim tijilib qolmoqda. Qulog'imda hali ham: "Men o'lyapman, Zarifa, rozi bo'll!" — degan so'zlari jaranglab turibdi". Oybek faqat uydagilarga emas, balki o'zi bilan aloqada bo'lgan har qanday odamga yaxshilik qilishga urinadigan shaxs edi. Shundan bilinadiki, u ijodkor



sifatidagina emas, balki, odam sifatida ham atrofisidagilarning mehr-u hurmatini qozongan, ularning yuragidan chuiqur joy olgan shaxs edi.

Siz quyida Oybekning sof lirik she'rlaridan ayrim namunalar va mashhur "Qutlug' qon" romanidan olingan parcha bilan tanishasiz.

## LIRIKA

### NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Yuksakda, shamolning belanchagida.  
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o'shshaygan qoya labida  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,  
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.  
So'ninaydi yuzida yorqin tabassum,  
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum.  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...  
Shamol injularni separ chashmadak,  
Boshida bir savat oq yulduz —chechak,  
Nozik salomlari naqdalar ma'sum!

Tog'lar havosining feruzasidan  
Mayin tovlanadi butun niholi.  
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:  
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,  
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!



### Savol va topshiriqlar

1. “*Shamolning belanchagida nafis chayqalgan*” bir tup na'matak holatidan ta'sirlangan shoir tuyg'ularini izohlashga urining.
2. Quyoshga bir savat oq gul ko'targan qoyaning “*viqor-la o'shshayishi*” sabnibini anglashga harakat qiling.

3. Shoirning: “*Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil*” ? — tarzidagi iqrori sababini tushuntiring.
4. She'ruiting qaysi satrlarida go'zallikning ezbilik yaratish xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi?
5. “Kumush qor”ning na'matak poyida “yum-yum yig'lashi” sababini aytинг.
6. Tengsiz go'zallik namunasi bo'lmish nafis chechakninig “*Vahshiy qoyalarning ajib ijodi*” ekaniga e'tibor qiling.
7. She'rni yod oling.

## TOG‘ SAYRI

Axlarib topganimda o'n ikki buloq,  
Qalbimda o'n ikki she'r bordan jo'sh urdi.  
Hammasi shivirlaydi sizdek shan, inoq,  
Ko'ksimga naq o'n ikki bahor yugurdi.

Porloq va shan o'n ikki ko'zning ishqida  
Ko'zlarim xiyla zamon adashib qoldi.  
Sevinch qaynar, jildirar sof kumushida,  
O'n ikki qiz izidan xayol yo'l soldi.

Nurlardan halqachalar oqar, jimirlar,  
Toshlarda sinar mayin tabassumlari.  
Oltin ipga chizilar jonli injular,  
Bo'sadan ham shirindir, ich, yutumlari!

O'n ikki piyolaning yaltiroq mavji  
To'qingan lablarimda qolar bir umr.  
Ko'zları seni o'pgan biron yo'lovechi  
Balki bir chog' sevginuni hikoya qilur!

...Har tomchisida butun quyosh bekingan,  
Gullar nafis boshlarin egmish ta'zimkor.  
Barglarini varaqlab, shamol timmasdan  
Shivirlar chashimalarga... muhabbat izhor.

Cho'milgan yaproqlarning sassiz chapagi  
Qo'ynida qubba-qubba yong'oq yumalar.  
Ko'kning feruzasidan sirpanib chopar  
O'n ikki ko'z qa'ridan quvnoq nash'asi!



## Savol va topshiriqlar

1. O'n ikki buloqni axtarib **topgan** shoir holati aks etgan misralarni shartlang.
2. Shoir ko'zlarininig "**adashib qolishi**"ga sabab bo'lgan "**o'n ikki ko'z**" qayer dan kelib qolganini izohlang.
3. She'rdagi "**Sevinch qaynar, jildirar sof kumushida**" misrasi nimani anglatadi? Nimaning "kumushi"da?
4. "**Toshlarda sinar mayin tabassumlari**" satrini tushuntirib bering.
5. She'r matnidan buloqlarga "**muhabbat izhor**" qilgan narsa tasvirini topib, shartlang.

## "QUTLUG' QON"

(romandan lavhalar)

*Kasal otasini qaratish maqsadida olingen qarzlardan qutulish uchun u vafot etgach, yerlarini sotishga majbur bo'lgan Yo'lchi tog'asi Mirzakarimboyni qora tortib, Xo'jakentdan Toshkentiga keladi. Ammo boy tog'a Yo'lchingning kuchidan soy-dalanib, haqini to'lashga kelganda, so'zida turmay, jiyanни aldaydi. Boy qarindoshlar bilan Yo'lchi o'rtaсидаги munosabat dushmanlikka aylanadi. Ular mag'rur yigitning sha'nini toptashadi. Yo'lchi boynikidan chiqib ketadi. Buning ustiga, keksa Mirzakarimboyning Yo'lchi ko'ngil qo'ygan qiz Gulnorga uylanib olishi oradagi yovlikni yanada kuchaytirib yuboradi. Onasining o'limidan keyin, Yo'lchi yolg'iz qolgan singlisi Unsinni boy tog'anikiga olib kelishga majbur bo'ladi. Ularning qarashlari, tutumlari va taqdirlaridagi keyingi o'zgarishlar quyidagi parchada aks ettirilgan.*

\* \* \*

Gulnor o'z uyida ota-onaning tergovi ostida uch kun qamalgandan so'ng, Mirzakarimboya uzatilganiga bir oyga yaqin bo'ldi. Kelin ichki-tashqi dang'illama hovlida, saroyday hashamatli, boy bezakli uylarda uni hech narsa qiziqtirmas, bu xonodonning odamlari ham, narsalari ham dushman, yot, sovuq ko'rinar edi. Yo'lchi bilan bir kecha-kunduz birga yashagan u hujra, Shoqosimning uvadalari bilan to'la, qorong'i tor hujra Gulnor uchun, garchi u yerda ming tahlika, qo'rquv ostida qamalib o'tirishga, niroyat, tutilishga to'g'ri kelgan bo'lsa ham, go'zal, shirin tuyular, u yerda Yo'lchi bilan kechirgan soallar umrining eng mas'ud, eng unutilmas, eng yorqin damlari, umr tunida porlagan nodir yulduzlar edi.



Bu dardli hayotda Gulnorga yagona baxt — Yo'leching singlisi Unsin bo'ldi. Bu o'n besh-o'n olti orasida bo'lgan, qoramtil, lekin toza, sog'lom yuzli, ko'zlar bo'lalarcha o'ynoq — sho'x, jingalak sochli, bo'yehan, qishloqcha sodda, samimiy bir qiz edi. Gulnor uning burnini, peshanasini va ba'zi harakatlarini Yo'leliga o'xshatdi. Oldi-keti bolalar bilan to'lgan Tursunoy, Sharofatxon Unsinni cho'riga aylantirdilar. Qiz ularning bolalarini boqadi, kirlarini yuvadi, uy-joylarini yig'ishtiradi va har qanday yumushni so'zsiz bajaradi. Unsinning xo'rланishi, og'ir yumushlarni bajarsihi Gulnorga qattiq ta'sir qildi. Kelinlarning achchiqlanganini sezsa ham, har vaqt Unsimni chaqirib, o'z yonida uzoq olib o'tirishga tirishadi. Gulnor qiz bilan gaplashganda uning qishlog'i, uy-joy, tirikchiliklari, onasi — u bechora xotinning vafoti va shuning singari narsalar to'g'risida so'z ochar edi. Yo'lehi to'g'risidagi qizning so'zlarini chuqur diqqat bilan, yurak to'lpini bilan tinglar, ixtiyorsiz quyulib kelgan qaynoq ko'z yoshlарini, ba'zan zo'rg'a yashirar, ba'zan yashirishdan ojiz qolar edi.

Hech nimadan xabarsiz Unsin, ba'zi vaqt: "Nega akamni ko'rmayman, tog'um qayoqqa yuborgan?" — deb Gulnordan so'ruydi. Gulnor esa titraydi, qanday javob berishini bilmay, boshqa gapga chalg'itadi.

...Mirzakarimboy dargoltidan tamom chekilgan Yo'lehi bir oy har yerda darbadar kezib, bu kun singlisini ko'rgali kelgan edi.

Unsin xizmatkorxona eshigida mag'rur, lekin g'amli, o'yehan holda turgan akasini ko'rish bilan yugurib borib, uni quchoqladi. Yigit singlisining boshini silab, dardli tabassum bilan termildi.

— Aka, nimaga jin bo'lib ketdingiz? Tobingiz yo'qmi? Ozibsiz-a... Man sizni juda sog'indim. Har kun lushimda ko'raman... — dedi qiz.

Yo'lehi singlisini xizmatkorxonaga olib kirdi. Ikkisi ham namatchaga o'tirishdi. Bir necha minut so'zlashgandan so'ng Yo'lehi so'radi:

— Unsin, bu oila qalay? Ketasanmi, yo bu yerda qola turasannu?

Unsin javob bermadi, bir lahma o'ylagandan so'ng o'zi savol qildi:

— Siz-chi?

— Man bu yerdan ketdim. — ko'zimi yerga tikdi Yo'lehi. Unsin onasidan yodgor qolgan va yagona ziynati bo'lgan yupqagina eski kumush bilaguzukni ay lantirib gapirdi:

— Man ham qolmayman, aka. Yumushlari og'irdir, deb o'ylamang, yumush mayli, o'zim xohlamayman.

— Niinaga?

Unsin akasining ko'zlariga g'amgin, lekin chuqur mehribonlik bilan boqdi va ko'zlariga to'lgan tomchilarni bazo'r tutib javob berdi:

— Bu yerdagilar sizni xafa qilmagan bo'lalar, siz birdan ketib qolarmi dingiz? Siz xafasiz, yashirmang, aka. — Unsin biroz to'xtab, so'ng yana davom etdi: — Man bu uyla Gulnor opam uchun sochim oqarguncha xizmat qilish-

ni istar edim. U mani tug'ishgan opadan afzal sevadi, shunday yaxshi juvon bo'ladimi? Mani naq' kichkina qizday quchoqlaydi, ovinadi, yonimdan ayrilgusi kelmaydi, Bari bir, man bu uyda turmayman. Gulnor opani unulmayman sira, uni ko'rgali tez-tez kelib turaman...

— Nimaga xohlamaysan, yolg'iz man ketganim uchunmi? Xo'jayinda menning haqim turibdi hali, san bu yerda tekin ovqat yemaysan, singlim.

— Qo'rqaman bu yerda, — Unsin boshini egib, qo'li bilan ko'zlarini yashirdi.

— Kimdan? Nimmadan? — sergaklanib so'radi Yo'lehi.

— Salim akadan. Yolg'iz ko'rsa, tegishaveradi. Yomon gaplar gapiradi..., — Unsin boshini yerdan uzmadi va yuzi bir lahzada olovlandi.

Yo'lehi tishini qisib, indamasdan o'rnidan turdi. Unsinning qo'lidan ushlab turg'izdi. Uni erkalab boshimi, yelkasini siladi:

— Jonim, — ichkariga kirib tayyorlan. Chaqirganda chiqasen, ketamiz, o'ksima, — dedi-da, Yo'lehi ichidagi og'riqning zARBIGA chidolmaganidan, tishini tishiga bosib qisirlatib, ko'chaga chiqdi. Boyning darvozasi oldida to'xtadi.

Qor kuchli yog'ardi. Ko'chalar, tomilar, devorlar, daraxtlar oppoq. Sokin, g'arib qish oqshoni. Qor kapalaklari Yo'lechinining qoshlariga, kipriklariga qo'nadi, yuzlariga yopishib tomchilanadi.

Mana ko'chaning boshida Salimboyvachcha ko'rindi. U olifta tikilgan qora movut chakmonga o'ralib, bir qo'lida zontik ushlab, hech qayoqqa nazar tashlamay, gerdayib keladi.

— Qay go'rga yo'qolding, yalinamizni? Senga-ya! — yomon qarash bilan Yo'lechinining oldidan o'tdi.

— Boyvachcha! — g'azab bilan qichqirdi Yo'lehi. Salimboyvachcha qonsiz yuzini asabiy burushtirib, darvoza yonida birdan qoldi.

— Baqirma, ablah! Qulog'im bor... — boyvachcha zontigini yopib, Yo'lehiiga o'qraydi.

— San ablah! Ko'zingni olaytirma, — boyvachchaning tumshug'iga kelib qichqirdi Yo'lehi va uning bilagidan malikam siqdi. — Shoshuma...

Salimboyvachchaning ko'zlar ola-kula bo'lib, yuzidagi go'shtlar pirilladi, bu qanday gap? Bir xizmatkor unga qichqirsin, "san" desin, "ablah" desin! Xizmatkorlardan qullarcha mutelikni, har qanday og'ir haqoratga "lom-mim" demaslikni, talab qilgan boyvachcha bunga chiday olmadi. Yo'lechinining yuziga urmoq uchun zontikni ko'tardi. Yo'lehi u qo'lini ham ushlab, siltadi. Zontik yerga tushdi.

— Uyatsiz! Yosh qizga tikkau ko'zlariningi o'yib olaman!

Salimboyvachcha labini tirjyatirib, zaharxanda qildi.

— Qo'limni qo'y, baqirish shungani! Singling kim? Podsholi qizimi? Juda oltin bo'lsa ham... Yo'q, tuzim, nonim sani quturtirgan, it! — o'dag'ayladi Salim.

Yo'lehi tishini qayrab, boyvachchaning ko'kragiga zarb bilan bir musht tushirdi. Boyvachcha gandiraklab uch-to'rt qadam narida qorga yiqildi. Yo'lehi etigi bilan uning dumbasiga yana bir tepdi. Faqat, shu onda Yormalt yugurib chiqdi: "Hoy, Yo'lehi, esingni yedingmi? Uyat!" — deb yigitga tirmashdi. Namozdan kelayotgan odamlar ham yugurishdi. Yo'lehinini quchoqlashib bazo'r chetga surishi, har kim o'z bilganicha nasihat qila boshladi. Boyvachcha ko'kragini ushlab, enkayib qalt-qalt titrasi, so'kishni ayamasa ham, Yo'lehiga yaqinlashuvga bolina olmadi. Yormalt uning kiyimini qoqib, qo'llitig'iga kirib, uyga yetaklar ekan, u tahdid qildi:

— Shoshma hali, peshanangdan otib, yerga cho'ziltirmasam, odam bolasi emasman.

— Chiyillama! — dedi hayqirib Yo'lehi. — Olib chiq o'sha temir sopqoningni!

Yo'lehining javobiga odamlar sekkingina kulishib, "ajab qildi" degandey, bir-birlariga ma'noli qarashib olishdi...

\* \* \*

Atrofni qorong'ilik bosdi. Yo'lehi jumjit ko'chada tanho aylanib yurib, boyniga qaytdi. Odatda Mirzakarimboy o'tiradigan melmonxonanining derazasida chiroq yarqirar edi. Yo'lehi uy eshigini ochishi bilan ko'zlar boyning o'qraygan ko'zlariga uchrashdi. Lekin u loqaydlik bilan tiz cho'kdi. Ular bir-ikki minut sukul qilib, bir-birlarining g'azabli ko'zlaridan ma'no qidirishdi. Mirzakarimboy yonboshidagi katta par yostiqni bir tononga itarib, tasbehni sandalga qo'ydi.

— Qayerdasan, haromi? Bu yoqda shuncha ishni buvingga tashladiningmi? Senday yigitni asragandan ko'ppak asragan yaxshi!..

— Baqirmang, — dedi xo'mirayib Yo'lehi, — shu vaqtga davr eshitdim, chidadim, endichi? Yo'q!

Mirzakarimboining ko'zlarida zahar yonib ketdi:

— Sanga bu tilni qaysi qiztaloo berdi!

— Zulmingiz berdi!

— Zulm? — boy yelkasini qisdi va quturib baqirdi, — san nonko'rsan, man sani tuqqanim, jigarim, dedim. Ovqat berdim, kiyim berdim, bu — zulm emish! Juvonnarg bo'l, nodon!

— Bekorgani? — Yo'lehi Mirzakarimboya lomon gavdasini cho'zib qichqirdi:— Sizda ikki yarim yil ishlab yelkam yang'ir bo'ldi. Soqolingizda bitta qora tuk yo'qku, yolg'on gapirasiz, uyat! Kiyim deysiz, qanaqa kiyim? Etik, chopon va boshqalarni qo'yaveray, bironqa yangi do'ppi kiyaganim yo'q bu ostonada! Mana

ust-boshim... Ovqat deysiz, qanaqa ovqat u? Moyli qozonni o'zingiz qaynatgansiz, bizlarniki ma'lum, ovqat ham emas, yuvindi ham emas. So'zni cho'zinayman: men sizdan ketdim, Haqimni bersangiz bas!

Mirzakarimboy o'siq qoshtalarini chimirib, sukul qildi. Yo'lehidagi bu keskin o'zgarish uning avvalgi fikrini ta'kidladi: u Yo'lehinining qishloqdan qaytib, birdan g'oyib bo'llishi bilan o'zining Gulnorga uylanishi o'rtaida bir bog'lanish borligiga qanoat hosil etgan edi. Chunki Yo'lehinining Gulnorni sevishini bilar edi. Lekin, u bunga abhamiyat bermay, "arazi ko'pga cho'zilmas, yana qaytib xizmatimni bajarar" deb o'ylagan edi. Amuno hozir ish o'ylagancha chiqmadi. Yo'lehinining qarori qat'iy ko'rindi. Uning mehnatidan rozi bo'lgani uchun, bunday "azamat qulni" qo'ldan chiqarishga achinsa-da, yangi va'dalar, avrash-aldashlar bilan uni olib qolish mumkin emasligini sezdi, itni haydagan kabi, qo'lini silkib baqirdi: "Ket!"

— Man o'zini ketganman, haqimni bering! — dedi cho'ng sovuqqonlik bilan Yo'lechi.

— Qanaqa haq? — ko'zlarini olaytirdi boy.

— Rosa ikki yarim yil ishladim. Shu muddatda, hammasi bo'lib qirq so'imga yaqin pul oldim. Haqim shumi? Va'dangiz qalay edi?

— Va'da... Ilm. Nodon. Xo'jayin degan xizmatkorni qiziqtilish uchun va'da qilaveradi-da, har qanday va'daga ishonaveradimi odam!

— Xo'p, manga ortiqcha to'lamang, taomilda qancha bo'lsa, shuncha to'lang.

— Qirq so'iu pul emasmi? San nonko'rga bir tiyin bermayman. Da'vo qil kuching yetsa agar, — dedi-da, boy yostiqqa yaslanib oldi.

Mirzakarimboyning bunday muomalasi Yo'lehiga tahqirli bo'lsa ham, ammo kutilmagan bir hodisa emas edi. Shuning uchun u tomirlarini to'ldirgan g'azabini yenga oldi. Faqat o'zining soddadilligiga, aldanganligiga chuqur afsuslandi. ...Yo'lehida o'z kuchiga ishongan, qadr-qimmatini baland tutgan kambag'al yigitning, odamlilikning g'ururi kuchli edi. ...Hozir uning nazarida olanda eng past va razil ko'ringan Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan... yoqa bo'g'ishni o'ziga or bildi. Sachrab o'rnidan turib, boyning oldiga bordi. Masxara va kinoyaning zah-rini ko'zlarida yondirib qichqirdi:

— Bundan ko'ra go'ng litiganing yaxshii emasmi, keksa tovuq!

Boy vaziyatini o'zgartmadidi. Lekin, yuzi allaqanday yomon burushib, qizarib ketdi. Yo'lehi eslikni qattiq yopib, tashqariga chiqdi.

\* \* \*

Hakimboyvachcha Farg'onadan qaytgan kuniyoq, bir yumush buyurishga Yo'lehini so'radi. ...Hakimboyvachcha uchun Yo'lehi sinalgan, azamat bir malay

va bir chekkasi qarindosh edi ham. Shuning uchun bu ishlari surishtira boshladi. Bu to'g'rida nima eshitganligini xotinidan so'radi. U qishloqdan singlisini keltirib, o'zi birdan g'oyib bo'lganligini, keyin to'satdan paydo bo'lib, Salimboyvachchani odamlar orasida urganligini va hokazolarni so'zlab berdi. Boyvacheha achchiqlandi. Lekin umuman ayollarning so'ziga inonmagani uchun, Salimboyvachchaning o'ziga murojaat qilishni lozim topdi. Salim ham butun ayni Yo'leliga ag'darib, o'zini quruqqa tortdi. Uning "axloqsizligi" to'g'risida birmuncha gaplar to'qidi va dadasisini haqorat qilganligi, haqimni yeb keldi boy, deb ko'cha-ko'yda boyni qoralab yurganligini aytди.

Hakimboyvachchha ilonday to'lg'andi. Bu qanday sharmandagarchilik? Uning ukasiga... bir xizmatkor musht ko'tarsin! Mirzakarimboyni qoralasin!.. "U ilga saboq berish uchun biron chora ko'rnaganligidan" ukasini koyidi. Chunki Hakimboyvachchha "or-nomus"ni biladigan va uni qo'riqlaydigan kishi. U o'zining va oila a'zolarining ustiga chang qo'ndirishni istamas, oilasi bilan hech qanday oilani tenglashtirmas edi.

Bundan bir qancha yil burun, Hakimboyvachchaning yaqin do'stlaridan bir kishi, qandaydir bir o'tirishda Mirzakarimboya orgavaroldan til tegizganini eshitib, u bilan uzoq zamон olishgan, sudlarga qatnagan, uning boshiga ko'p kulfatlar keltirib, niyoyat, ko'pchilik orasida uzr aytishga uni majbur qilgandi!

Hakimboyvachchha Yo'leliga jazo berishga qaror qildi. Ikkinci kum peshindan keyin ellikkoshini chaqirtirdi. Mehmonxonada qabul qilib, bir katta xitoy laganda uyilgan qirq'ovul, kaklik go'shti qovurmasi bilan ziyofer qildi. Taom ishtaha bilan yeyilgandan so'ng, rang-barang qimmatbaho mevalar, qaymoqqa qorilgan nonlar bilan to'la dasturxon yozib, achchiq choyni quyu boshladi. Naq Olimxon ellikkoshi ning ko'nglidagi day ziyofer: jihozlarga boy, go'zal, naqshkor mehmonxonada o'tiradi, yana nodir taom, nodir mevalar, achchiq, xushbo'y choy, donglor boyvacheha bilan suhabat! Olimxon yashnab ketdi. Boyvacheha o'zining farg'onalik do'stlari bilan bo'lgan o'tirishlaridan, har turli ziyoftlardan so'zladi... Keyin so'z jahon urushiga ko'chdi. Urushda oqpodshohning qo'li baland emasligidan boyvachehaning ko'ngli xim bo'ldi. Ammo, ellikkoshi urush niyoyatida oqpodshoh g'olib kelishini isbot qilishga tirishdi.

Hakimboyvachchha... suhabatni o'z maqsadi tomon burdi. Bu zamonda yomonlarning ko'paygani... haqidagi shikoyat qildi. Misol uchun Yo'lechini oldi. Ukasi Salimga u "nonko'r"ning musht ko'targanini eshitib... unga bir jazo berishga jazm qilganini so'zladi.

— U beg'ubor yigit emas, — ayyorchha tabassum qilib, ko'zlaridagi ma'noni yashirish uchun yerga tikildi ellikkoshi. — Mahalladagi yigitlarning bari manga ma'lum. Yurish-turishi, ko'kragidagi dardi, diliga tukkan ginasi — oynaday

ravshan. Bilish mening ishim-da. Birovning moli yo'qolsa, o'g'risi bu yoqda qolib, to'g'risini yoqalaymanu<sup>1</sup>? Ba'zi ellikkoshilar bo'ladi, yolg'iz nomi ellikkoshi, ular mahallani tanimaydi...

— Olimxon aka, sizga hamnamiz qoyilmiz, — dedi boyvachcha, — asli risoladagi ellikkoshi — siz.

...Ellikkoshi kuldil va so'zini davom ettirdi:

— Fuqaroda norozilik zo'raydi, boyvachham. Faqirlikka bo'ysunmaydi, qimmatchilikni ollordan ko'rmaydi. Bir ko'pi boylardan ko'radi. O'g'ri, muttaham, daydilarning soni yo'q. Yaxshiki, o'ris to'ralari, politsiyalar — ishbilarmon, hokimlikka usta odamlar. Ular goh qamchin bilan, goh qilich, goh to'pponcha va miltiqni ayamay ishlatib, xalqni bosib turishibdi. Bo'lmasa, xudo ko'rsatmasin, xalq allaqachon bosh ko'targan bo'lardi... Anov haromi Yo'lechini nima qilmoqchisiz?

— Ha, aytganday, — peshanasini qashib gapirdi boyvachcha, — nima qilamiz, hayronman. Durust odam bo'saydi u, sudga berurdim, yo o'zini chaqirib, o'xshatib so'kardim. Bu narsalarga u arzimaydi. Shuning uchun qamatsak, deyman. Qalay?

— Bo'ladi. Ko'zdan yo'qolgani yaxshi, — dedi ellikkoshi.

— Olimxon aka, oling shu ishlini.

Ellikkoshi... og'ir masala qarshisida qolganday, bir vaziyat oldi, yuziga mashaqqat ifodasini kiydi va taraddud bilan so'zlay boshladi:

— Boyvachhami, bu juda mushkul ish. Durust, Yo'lechi yomon bola. Ammo, biz uni orqasida qopil bilan, qo'lida tuguni bilan yoqalaganimiz yo'q, piehog'ida hali qon ko'rmadik. Mahkamadagi o'ris to'ralarini qo'lga olish, Yo'lechini biron narsada ayblash kerak bo'ladi. Bu narsa hazil emas! Lekin kamina sizning iltimosingizni yerda qoldirishdan ko'ra, har qanday mashaqqatni o'z zimmasisiga olishni a'lo ko'radi...



## 21 Savol va topshiriqlar

1. Boy xonadonga kelin bo'lib tushgan Guliorning kayfiyatiga tasviriga qarab, uming tabiatini taysiflang.
2. Salimning yaramas qiliqlari haqida gapirganda "...boshini yerdan uzma"ga'ligi "...va yuzi bir lahzada olovlan"ga'ligi tasviriga tayanib Unsin ma'naviyatiga baho bering.
3. "Boyvachcha ko'kragini ushlab, enkayib qalt-qalt titradi, so'kishni aymasa ham, Yo'lechiga yaqinlashuvga botina olmadi" ifodasiga tayanib, Salimboyvachcha shaxsini taysiflang.

<sup>1</sup> Yoqalumog' — tutmoq, ushlumog'.

- Parchadan Yo'lechingning bozirjavob, so'zga chechan yigit ekani aks etgan o'rinnarni topib, shaxhlang.
- Gulnor bilan Yo'lechingning mumosabatini bilgani holda yosh qizga uylangan boy shaxsiyatini sharhlang.
- "Va'da... Hm. Nodon. Xo'jayin degan xizmatkorni qiziqtirish uchun va'da qilaveradi-da, har qanday va'daga ishonaveradimi odam!" so'zlari Mirzakarim shaxsining qaysi jihatlarini ko'rsatadi?
- Yo'lechingning tog'asiga qaratda aytgau: "Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, keksa tovuq!" haqoratini baho郎ang.
- Ellikkoshining: "Yaxshiki, o'ris to'ralari, politsiyalar — ishbilarmon, hokimlikka usta odamlar. Ular goh qamchin bilan, goh qilich, goh to'pponcha va militiqni ayamay ishlatib, xalqni bosib turishibdi" turzidagi qoniqishini izohlang.

*Tuhmat bilan qamalgan Yo'lechida nafaqat Mirzakarimboy, balki umuman mulkdorlarga nafrat tuyg'usi kuchayadi. Bu orada farzand ko'rib, otalarining mulki-ga sherik bo'lishidan xavotirlangan boy bolalari Gulnorni zaharlab o'ldirishadi. Oldinlari Yo'leching zo'ravonlardan noroziligi ko'nglidan joy olgan bo'lsa, endilikda amaliga ham ko'chadi. Quyida uning urushga mardikor olishga qarshi xalq harakatida qatnashganligi tasvirlanadi.*

So'fi minoradan namozasrga chaqirdi. Odamlar birin-sirin targala boshlar-kan, Yo'lehi baland toyush bilan ularga murojaat qilib, to'xtatdi, hammasi begona yigitga tikildi.

— Xaloyiq! — dedi Yo'lehi hayajonlanib. — Bo'sh kelhanglar, oyoqni tirash kerak, mushtni ko'rsatish kerak. Jamiki kambag'al xalq qo'lui qo'lga berib, yaktan bo'lib tursa, kimning huddi bor mardikor olishga!? Boylar, amaldorlar o'z podshohiga yon bosadi, podshoh ularga yon bosadi. Boylarning podshohparast bo'lishi bekorga emas. Yer ularniki, suv ularniki, qozixona, dumaxona, jamiki mulkkamalar ularniki. Qayerga borsalar, ularning so'zi ma'qul, kambag'alning arzi dodi uch pul! — Yo'lehi bir nafas to'xtab, uning so'zini diqqat bilan tinglashgan odamlarga qaradi, yana kuchli hayajonlanib, davom etdi:— Urush boylarning hamyonini to'ldirdimi? Bas, ular borsin! Birodarlar, o'ylab qaranglar, shu ham tirikehilikmi? Axir, bu bir zindon emasmi? Tokaygacha qon yutamiz, tokaygacha yerga cho'kkalaymiz? Ovozimizni baland qo'yaylik, yo haq, yo o'llim!. Bunday to'polonlar yolg'iz bu mahallada emas, ko'p mahallalarda bo'lib turibdi. Eshitgan bo'lsangiz kerak, hozir ko'p shaharlarda, kent, qishloqlarda kaubag'al xalq o'z haqini da'vo qilish uchun shaylannoqda. ...Gap shu, birodarlar, zulm-jabrga qarshi jang qilish uchun tayyorlanish kerak. Boylarning so'ziga sira uchish keruk emas. Ularning bari aldoqchi, bari yurtimizni zaharlaydi, bari iflos! Man ularni juda yaxshi bilib olganman...

Yo'lehi so'zini bitirib, hansirab, devorga suyaldi. Gapimi ma'qulmi, deganday odamlarga bir-bir qarab qo'ydi. Uch-to'rt kishining ko'zi yerga qadalgan. Bir necha yigitlar uning yoniga kelib, ham maroqlanib, ham tortinib u bilan so'zlasha boshladi. Xotinlarning ba'zilari qiziqqanlaridan chachvonlarini qiya oolib. Yo'lehiga yeshirineha mo'ralashdi. Kiindir birov: "Otash zabon yigit ekan", — deb qo'ydi. Bir necha yigitlar Yo'lehbining atrofini qurshadi. Yo'lehi ular bilan sodda va ochiq ko'ngil bilan so'zlashib, birpasma apoq-chapoq o'rtoqlashib qoldi...

\* \* \*

Oddiy yoz tongi... Quyosh Kalkovuz suvi bo'ylab o'sgan qalim tollarning uchida o'ynaydi.

Yo'lehi kun qizimasdan bir necha yuz xom g'isht quyib olish uchun oshiqardi, yuqori mahalla tomonidan kelayolgan eski-tuski paranjili besh-o'lita ayolni, hayajonli ravishda tevarakka alanglab, iiddam yugurgan bir necha yigitni ko'rdi, yuragi birdan allaneelmek to'lqinlanib, keluvechilarga temuilgan holda, to'xtab qoldi.

Ayollar ko'priq boshida chapak chalib, tizzalarini urib chinchirishdi: "Dod zoliniarning dastidan! Oq podshohning taxti kuysin! Qorasi o'chsins!" Yigitlardan biri — uvada kiyimli, chorpaxil va yuzi oftobda kuygan korandamu, chorakormi, ko'zlarini chaqchaytirib, og'zini katta oolib, yo'g'on lovush bilan atrosga bong urdi: "Yuraver, yigitlar, yuraver! Maydonga ro'yi-rost chiqib, haqimizni dov qila-miz!"

Hayajondan Yo'lehbining yuragi, sandonga tushgan og'ir bolg'aday, ko'krakni "gurs-gurs" urmoqda edi. ...Alamli va yarali ko'ngillardan ro'yi-rost otilib, havoni yangratgan haqiqat ovozi uning butun vujudini titratdi, mazlumlarning, haqoratlanganlarning, tepkilanganlarning ulug', azamat kuni tug'ilganiga shubha qolmadi. Qanday kun? Zoliniarning, zamon zo'ravonlarining yoqalarini tutib, loptalgan luquqlarini dovlash, qonxo'r oq podshohning qora dovrug'ini, uning mazlum xalqlar boshida jil panglagan ilon qamechinini sindirish kuni! Yo'lehi ko'pdan kutgan va sevgisi qadar chuqur, ma'noli bir kun! U ko'p yillardan buyon bu kunga intizor emasmidi? Ko'p yillardan buyon bu kunning dardi va sevgisi bilan yashamasmidi? Ayniqsa, keyingi vaqtarda bu ulug' kunning ruhini o'z yuragi bilan chuqur sezib, har yerda: mahallada, choyxonada, bozorda o'zi kabi ezilganlar, alamdiyalarning ko'kragini bu ruhning otashi bilan yondirishga intilmagannmidi?

Yo'lehbining butun borlig'ida siqilib yotgan kuchi olov kabi bir onda lov yonib keldi...

Odam ancha qalnlashdi, xitoblar, qarg'ishlar, ayol yig'ilari kuchaydi. Shu chog'da, qayerdandir kelib qolgan oppoq, ko'rkan soqolli bir keksa, odamlarga qarab, duo qilgan kabi, qo'l yozib, baland qichqirdi:

— Azamatlar, shaylaninglar, g'azot, g'azot! Choyxonadan ikki chapani yigit yugurib chiqib, qo'l qovushtirib, cholga ta'zim qildi. Chol fotiha bergach, ular belbog'tariga osilgan qinlarni salmoqlab ko'rib, odamlarga g'urur bilan tikilishdi. Yo'lehi qo'lini ko'ksiga qo'yib, mo'ysafiddan so'radi:

- Ota, g'azotning chin ma'nosi nima?
- Tushunmaysamni? Musulmon farzandi-ya, — salmoqlanib so'radi chol.
- Jilla aniq emas.
- Bo'tam, din islomda g'azot — musulmonlarning kofirlarga qarshi jang qilishidir. O'lsang shahid, o'ldirsang g'oziy! Kitoblardagi asli urush mana shu bo'ladi! — deb tushuntirdi chol.

— Yo'q, ota, to'g'ri emas? — sabrsizlanib dedi Yo'lehi. — Bizniki boshqacha jang bo'ladi. Hamma musulmonlar bab-baravar deb o'ylaysizmi? Musulmonlar o'rtaida bo'rilar yo'qmi? Mayli, kofirmi, musulmonmi, biz bo'rilarning jazosini beramiz. Ular kofirda ham bor, musulmuonda ham bor... Biznikilarning tishlari boshqalarниidan qolishmaydi. To'g'rimi, xaloyiq? Bizning urushimiz ozodlik urushi bo'ladi, ota. Biz hamma bo'rilarni, hamma qonxo'rlnarni, zolimlarni yanchib tashlaymiz!

- Nafsilarnda, haqiqat gap shu! — dedi birov odamlar orasidan qichqirib.
- Yo'leching so'zlariga hayrallanib, chol yoqasini ushladi:

— Astag'firullo!

...Erkak, ayol, hammasi o'n choqli odamni boshlab, Yo'lehi mahalladan guzarga chiqdi. Daladan changga botib kelayotgan bir necha xotinlarga qo'shilishib, Xadra tarasga jo'nadi. Oyoqlar ildam, ko'kraklar baland, boshlar mag'rur... Faqat xotinlargina zolim podsholni qarg'ab chinqirishar, yig'lashar edi...

Xalq dadil boradi. Ayniqsa, xotinlar-onalar jasur. Ular Nikolaydan tortib ellikboshilarga qadar hammani qarg'ashadi. Unda-bunda mirshablar uchraydi. Xalq endi ularni nazar-pisand qilmaydi. Go'dakka ham, keksaga ham zulm qiluchi, qamechi o'ynatishga, shapaloqqa mohir mal'unlarning nafasi ichiga tushgan, yolg'iz ko'zlaridagina zahar yonadi...

Yo'lehi hech kimdan, hech nimadan tap tortmasdan, har qadamda odamlarni jalb etib, "Balandmachit"ga yetganda, har tomonдан — Shayhantovur va boshqa mahallalardan kehuveli xalqning "Olmazor"ga, politsiya mahkamasiga burilishini ko'rib, muyulishda to'xtadi. **U** olomon bilan yangi shaharga chiqib, bosh hokim mahkaması oldida qo'zg'olonni avjantirishni o'yagan edi. Lekin qo'zg'olonchi xalq politsiya mahkaması tomon yuguraverdi. Xalq ko'zida bu —

eng qora, eng mudhish, eng zolim mahkama edi, bu — uning bag'riga sanchilgan zaharli xanjar edi.

Yo'lehi o'z ichida: "Yaxshi, o'tni shu yerdan qo'yamiz, zulm qayerda uebra-sa, shu yerda yondirish kerak", — deb o'yładi-da, so'zi, harakati bilan odamlarni ruhlantirib, "Olmazor"ga yugurdi...

"Olmazor"da, politsiya mahkamasining hovlisi oldida xalq qalın to'plangan edi. Yana tevarakdan odamlar to'xtovsiz ravishda bu yerga oqmoqda edi.

Politsiya eshigi berk; yashil moy bilan sirlangan yog'och panjaralar oldida tutaqqañ xalq qaynaydi. Yigitlar, xotinlar panjaraga tirmashadi. Yo'lehi o'z she-riklari bilan birga panjaralarni buzishiga kirishib qoldi. Butun xalq, erkak-ayol, birdan yopirilib, panjaralarni qasir-qusur bilan sindirib tushladi. To'lqin politsiya hovlisining keng salmiga otildi. Shovqin kuchaydi. Odamlar bir-birini itarib, qoqlib, zo'r suron bilan oldinga yugurdi; hovlining to'ridagi oq uylarga kelib taqaldi. Uylarning eshiklari, derazalari taqa-taq yopiq. Derazalar orqali pogonli ko'ppaklarning g'azabdan, qo'rquvdan bujmaygan tunishuqlari ko'rindi.

Xalq tovushi tinimsiz guvillaydi: "Bu yoqqa chiq, itlar!", "Qorinlaringni yoramiz, cho'chqalar!", "Bitsin, zolim podshoh!"

Bir rus va bir necha "sart" mirshablar — zulm malaylari ichkaridan yugurib chiqib, so'kib, quturib, olomonni itarishga, orqaga surishga urinisharkan. Yo'lehi: "Ur!" — deb hayqirdi-da, oviga chang solgan arslondek, mirshablar ustiga tashlandi. Birpasda ikki mirshabni g'isht ustiga ag'darib tashladi. Xalq ham zo'r suron bilan boshqa mirshablarga otildi. Yuzlareha erkak-ayol mushitlari ostida bandalari dabdala bo'lgan bu ko'ppaklar ichkaridan xalq ustiga yog'ilgan o'qlarning yordami bilan bazo'r qoqhib, mahkama ichiga yashirina bildilar. Xalq mahkama ichlarini, zinani va derazalarni qurshab oldi... Eshik ochilib, shop moylov, go'shtor yuzidan zahar tomehilagan Machalov bilan birga, uning kabi pogonli, yarog'-aslaliali ikki to'ra zinada qaqqaydi. Ularning ranglari o'chigan, lablari qiyshaygan; ko'zlarida qo'rpuv ravshan sezilsa ham, lekin "ojiz, yuvosh sartlar" oldida o'zlarini dadil tutishga, zulm bilan gerdayishga tirishib, qo'llarining keskin harakati bilan xalqqa tinchlanishni buyurishdi.

Ulardan biri oq podshohning "oliy irodasi"ni tushuntirish uchun titroq lablari bilan so'zlashga urindi. Ammo ezilgan xalq bu yerga so'z tinglash uchun kelmagan edi. Kinli shovqin yana kuchaydi, odamlar har tomondan toshlar, g'ishtlarni yana yog'dira boshladи. Achchig'i olovlangan bir ayol u to'ralardan biriga yopishib, zinadan pastga siltab tortdi. Olomon uni yerga ag'darib, xalq ichiga sudrab ketdi. Bosh yalang, ko'kragi ochiq, ko'zlarini ajoyib chaqchaygan bir yigiteha chaqqonlik bilan uning qilichini qinidan sug'urdi.

Naq shu onda, Machalov buyrug'i bilan zinadan, deraza orqalaridan xalq boshiga o'q yog'ila boshiladi. Mana birin-ketin xotinlar yerga yiqildilar. Biri jim-

gina qotib qoldi. Biri to'lg'onib, ozg'in qo'llari bilan paranji-chachvonini mijg'alab tortib, g'isht ustida yumalandi. Sersogol, o'rta yashar, juda juldur kiyimli bir kishi o'ng qo'li bilan chap yelkasini mahkam qisib, og'riqdan ko'zlarini yumib, sekingina yerga cho'kkaladi: uning barmoqlari orasidan qon tonchilarini anor suvi-day silqib oqdi... Olomon bir zungina cho'chib orqagi tislandi.

Yo'lehi, quloloqlari ostida o'q uzilib turarkan, tonirlarida jo'shqin kuch, yuragida yuksak hislarning, orzularning bo'ronini sezdi. Kurash zavqi nash'asiga to'lgan ko'zlar bilan xalqga qaradi. U odamlarning ko'zlarida g'azab yashininining yana kuchliroq yonganini, otuvetilarga qarshti dahshatli adeval mayjunganini yaqqol ko'rdi. Qoratoyning, yana bir ko'p yigitlarning qo'llarida pichoqlar sovuq yiltiraydi: ayollarning tosh tutgan qo'llari havoga g'olibona ko'tarilgan. Ular boshlaridan chachvonlarini yulib: "Ot, o'ldir! Bola bermaymiz qonxo'r podsholtga! Yer yutsin u zolimni!" — deb qiehqirishadi.

Yo'lehi oldingi qatordagi erkak va ayollar bilan birga hayqirib, yana mahkama sari bosib bordi. Bir nafasgina qotgan xalq to'lqini yana kuchliroq tazyiq va matonat bilan olg'a sapchidi. Navkarlardan biri labzada majaqlanib tashlanildi.

Politsiyalar, mirshablar yana uylarga qamalishdi. Xalq qaynaydi, derazalar orqali ichkariga bosib kirishni ko'zlasa ham, lekin quroq yo'qligidan ikkilanib qoldi. Yo'lehi o'z do'stlarini chaqirib, ichkariga bosqin yasash, floji bo'lsa, quroq topish uchun tevarakka ko'z yugurtdi. Yo'lehi ertalab mahalladan o'zi boshlab kelgan yigitlarni ko'rib, sabrsizlik bilan ularga yondashishga tirishti. Lekin olmon o'rasisda, ixtiyorsiz ravishda, bir minut to'xtab qoldi. Hisobsiz xotinlar ichida, tijilinchda ko'zi bir qizga tushdi. U bundagi boshqa ayollar kabi, dam chachvonini butunlay ko'tarib, dam tushirib turadi, bo'yinini cho'zib, to'rt tononga joydiraydi. Ko'zlaridan oqjan tonchilar quyosha injuday yonadi. Bu yerda kurashgan sanoqsiz onalar, buvilar orasida yagona qiz ehtimol, u edi.

Yo'lehi **birinchi** boqishdayoq u qizning chehrasida Gulnoring ruhini ko'rdi: yuz biehimi, ayniqsa ko'zlarining ichki ma'nosi va jilvasi Gulnorni yodlatdi. Yigit bir on tikildi-da, ko'zlarini yumi: yuragini o'tkir bir nima chuqur tilib ketdi, go'yo uning butun o'zligini Gulnor xayoli quehdidi.

Ko'ksida Gulnor qayg'usi og'riq-alam bilan to'lqinlandi: "Qani Gulnor? Qani u jononi? Oh, u yo'q, bunday yigit to'yida, xalqning to'yida yo'q. U yer bag'rida! Bu bir begona qiz, yo yolg'iz akasini, yo mehribon onasini qidirib kelgan. Qani mening mehribonim?" Yo'lehi o'z ichida o'ylarkan, har yoqdan qizg'in, kesik tovushlar eshitdi: "Ana polismeystr! Cho'chqa Kolesnikov! Ana askarlar... Bo'sh kelmanglar, yigitlar, uraveringlar, shovvozlar!"

Xalqda harakat, hujayon kuchaydi. Yo'lehi suqila-suqila oldinga intildi.



## Savol va topshiriqlar

1. Yo'leining xaloyiqqa qarata: "*Tokaygacha qon yutamiz... Ovozimizni baland qo'yaylik, yo haq, yo o'lim!..*" so'zlarini sharhlang.
2. Qo'zg'algan olomonga baqqolning munosabati ifodalangan o'rinnarni sharhlang.
3. Olomonganing: "*Oyoqlar ildam, ko'kraklar baland, boshlar mag'rur...*" ekanligi sababini tushuntirishga urining.
4. Odamlar to'dasining politsiya mahkamasiga qarab yurganligi sababini izohlashga urining.
5. Yo'leining qo'zg'olondagi ishtiroki tasodifiymu? Yoki isyonkorlik uning tabiatida azaldan bornadi?
6. Yigitning mahkamaga hujum vaqtidagi faolligi sababini izohlang.
7. Zulunga qarshi ko'tarilgan xalq ruhiyati asurda qanday tasvirlangan? Ayollar tabiati ifolasiga e'tibor qiling.

\* \* \*

O'lgan, yarador bo'lganlarga qaramay, qo'zg'olonchilar katta suron bilan ilgari otilib, "tosh bo'ron"ni kuchaytirdi. Lehkariga bosib kirishga hujum qildi. Bir xotin naq zinaga chiqqan paytda, o'q uni yerga uchirdi. Yo'lehi hayqirib, hansirab kazak askarlariga sapchidi. Sersoqol, dov askar bilan olishib ikki mush bilan uni garanglatdi-da, chapdastlik bilan qilichini sug'urib oldi. Bir onda u o'z kuchining o'lehovsiz darajada o'sganini sezdi. Dushman qo'lidan o'ja olin-gan qilichni, quyoshda oq olov singari yongan qurolni havoga baland ko'tardi. Lehkariga qochayotgan polismeystrning boshini majaqlash uchun shaxdam yugurdi. Faqt deraza orqasidan uzilgan o'q bilan, u tomiri tortishgan, yoki garanglangan odam kabi, bir lajza qotib qoldi, so'ng, qilichni mahkam ushlab, bukchayib, ohistagini yerga yiqildi. Bir nafasdan so'ng, ko'zlarini sekin oehdi. Tiniq zangori samo, azamat quyosh uning ko'zlariga kirdi. Qarshidagi daraxtga tirmashib, telefon simini qirquvchi qora choponli bir yigitni — do'sti O'rozni ko'rди... Butun vujudini zirqiratgan dahshatli og'riqdan tishlarini mahkam qisdi. Anno o'lim bilan kurasharkan so'nggi zarba uchun butun g'azabini, kuchini, irodasini to'pladi-da, bir qo'llini yerga tirab, boshini yerdan uzdi: qaddini rostlar ekan, ko'z oldi qorong'lashdi, yana sekingga yerga yiqildi...

Kindir uni quechoqlab, peshanasini silab qiebqirdi:

— Yo'lehiboy! Og'ang o'lsin! Voy qadrdonim, jigarim.

Yo'lehi ko'zini bazo'r oehib Quratoyni ko'rди. Uning yosh qaynagan ko'zlariga chuqur do'stlik sevgisi bilan boqib, "yig'lamang" degan kabi imo qildi.

Qoratoy bilan O'roz yigitni avaylab ko'tarib, ushlanib qolmaslik uchun, jo'rtilga xalq ichiga sho'ng'ishdi. Odamlarni kuch bilan, hayqiriq bilan surib, itarib, ko'chaga chiqishdi. Idamlilik bilan "Balandmachit" tomonga yugurishdi. "Devonbegi" mahallasiga qayrilib, bu yerda bir tashlandiq hovliga kirishdi. Bir tomoni bosib qolgan kubbag'a Yo'lechini ohista yotqizishdi: "Inim, qalaysan, suv beraymi?" Qoraloyning savoliga hech qanday javob ishorasi bo'lmadidi. Yo'lechi o'lgan edi...

Xufton vaqtida O'roz bir tanish aravakashning aravasiga bir necha bog' poxol ortib keltirdi. Qorong'ida Yo'lechini aravaga yotqizib, ustiga poxol tashlab, qo'rqinich, tahtika ostida Saodat kampirnikiga jo'nashdi.

Yurtda katta qo'zg'olon, otish-tutish bo'lganini eshitgan Unsin, akasidan xavflanib, kechiga yaqin temirchining bir o'g'li bilan birga Taxtapulga kelgan edi. Boshqa ayollar singari qo'zg'olonga ancha dadil qatnashiib, soat bir-ikkida uyga qaytgan kampir, qizga ko'rigan voqealarini so'zlab-so'zlab bitirolmash edi. Yo'lechining shu vaqtgacha qaytmaganiga ular tashvishlansalar ham, fojiadan xabarlar yo'q va bunday baxtsizlikni esga ham olmagan edilar.

Qoratoy yugurib kirib, shaq-shaq titragan holda: "Zinhor, bazinhor ovoz chiqarmaysanlar", — deb yana eshikka yugurgach, Unsin ham, kampir ham harekatsiz, tilsiz qotib qolishdi. Faqat Yo'lechini olib kirib, ko'rpa ustiga yotqizishgach, ular dahshatlî haqiqatni anglab, o'zlarini yigit ustiga tashladilar.

Qoratoy O'rozni darrov Shokir otaga yubordi. O'zi ayollar oldidan qimirla-may ularning toyushini o'chirib turdi.

O'roz Shokir otani boshlab kelgach, Qoratoy cholni uyda qoldirib. O'roz bilan birga mozorga, go'rkovga jo'nadi. Agar go'rkov hozir qazishni istamasa, qabrni o'zlar qazish uchun ehtiyotdan bir ketmon ham olishdi.

Shokir ota Yo'lechining boshiga cho'kka tushiib, o'zining og'ir dardli, chuqur yarali qalbi bilan uzoq yig'ladi. So'ng, Unsinni chetga tortib, boshini silab, butun otalik samimiyati bilan taskin berishga tirishdi.

— Qizim, jonioq qizim, — yig'i aralash gapirdi chol, — san ko'p o'rтanma. Man so'zlay, sun aqlli qizsan, hammasini tushunasan. Yo'lechining o'limi ancha-muncha o'lim emas. Bu juda katta o'lim. Akang, Yo'lechi o'g'lim nima uchun, kim uchun qon to'kdi? O'zi uchun emas, xalq uchun, yurt uchun, jamiki alamzada-lar, alamduydalar uchun qon to'kdi. Bu qon eng qutlug', eng inuborak, eng sof qon... Bunga gumanim yo'q. Qizimi, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi. **U** zulm ildiziga bolta urdi. Inshoollo, zulm daraxti quriydi. Yo'lechining qoni behuda ketmaydi, sira behuda ketmaydi. Bu hikmalli qon, qutlug' qon. Unda sir ko'p. Keyin tushunasan, qizim. Man o'lib ketsam, bir vaqt o'zing: "Ha, Shokir otam shunday degan edi", — deb yodlasan. Yo'lechi o'g'limning qoni qutlug', uni yuzga, ko'zga surish kerak... — chuqur



xo'rsinib davom etdi chol, — kuyma, qizim. Mana, man otang, ana kampir onang, qishloqda akang bor, yana Qoratoydek mard og'ang bor... Hammamiz sanga mehribonmiz. Durust, Yo'lehiboy er o'g'li — er edi, u boshqa olamdan edi. Lekin o'limi ham ulug' bo'ldi. Buni yaxshi tushun, qizim!

Unsin bir vaqtlar Gulnor bergan uzukni akasiga hali topshiruvagan edi. Uni cho'ntagidan chiqarib, o'pa-o'pa Yo'lechinining jumjilog'iga laqdi. Uzuk barmoqning yarmiga ilindi. Qiz bardosh qila olmadi, o'zini verga oldi.

Qoq yarim kechada Yo'lehitini tobutga solib, hovlida uch kishi — Shokir ota, Qoratoy. O'roz — janoga o'qishdi. Boshqa odani yo'qligidan va kechasi mahalladan yigillarni chaqirish ancha xavfli bo'lganidan, Qoratoy bilan O'roz o'z kuchlariga ishonib, tobutni ko'tardilar. Saodat kampirni zo'r bilan uyda qoldirishdi. Tobut orqasidan Shokir ota va Unsin ketdi...

Og'ir qorong'ilik, chuqur va ezuvchi jumjilikda ikki do'st uchinchini do'stini qabrga qo'ydi, so'ng zolimlardan albatta qasos olish uchun ont ichib, tuproqni qucha-qucha yig'lashdi. Keyin chol va Unsin bilan xayrlashib, vaqtincha yashirinish uchun, qayoqqadir jo'nab ketishdi.

Unsin qabr tuprog'iga goh boshini, goh ko'ksini qo'yib, o'lechovsiz, nihoyasiz qayg'u bilan uzoq yig'ladı. Yulduzlar xiralanib, jimgina so'narkan, Shokir ota uning qo'lidan tutib, kuch bilan sudrab yetakladi.

Ular juda sekin yurishdi. Yo'lning yarmidan o'lganda, usqlarga qon kabi toza, qizil shu'lalar yugurdi. Chiqayotgan quyoshini salomlab, yashil daraxtlarda qushlar sayray boshladi...



## Savol va topshiriqlar

1. Ommanning o'qqa tutilishi lavhasini diqqat bilan o'qing. Unda olmoni psixologiyasi qanday aks etganiga lo'xtaling.
2. Yo'lechinining o'q yeganadagi holati nega "*Tiniq zangori samo, azamat quyosh uning ko'zlariga kirdi*" shaklida tasvirlangan?
3. Yo'lechinining o'lim bilan olishayotgandagi holati tasviriga tayanib, uning shaxsiyatini taysiflang.
4. Yo'lechinining do'stlari ayollarning ovoz chiqarishlariga yo'l qo'ymanliklari sababini izohlang.
5. Akasining jasadi tepasidagi Unsin holati tasviriga e'tibor qiling.
6. Asardagi: "*Unsinning o'z umri Yo'lechinining bir daqiqalik umriga nisbatan "hech" edi*" tasviri Unsin ruhiyatini to'la aks eltiradimi?
7. Shokir otaning Yo'lehi to'kkani qon qutlug' qon ekani haqidagi gaplari ifodasini qayta o'qib, izohlang.
8. "Erk yo'lida to'kilgan qon" mavzusida insho yozing.

## “QUTLUG‘ QON” ROMANI TO‘G‘RISIDA

Oybek yetuk prozaik edi. Uning qator romanlari, ko‘plab qissalari o‘zbek nasri rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Yozuvchining nasriy asarlari millat vazillari ruhiyatini aks ettirish jihatidan katta o‘rin tutadi. Oybekning prozaik asarlari orasida “Qutlug‘ qon” romani alohida badiiy ahamiyatga egadir. Adib bu asarni yozishga qatag‘on avj olgan mash‘um 1937- yillarda kirishgan edi. Zarifaxonim shunday xotirlaydi: “Biz har kuni ertalab hali u. hali bu tanishimizning qamalganini eshitamiz. Kunlar niroyatda betineh. Hamma ziyolilar “xalq dushmani” deb e‘lon qilinib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda — uyquda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo‘rg‘onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog‘ning chetiga ko‘chirdik. (Go‘yo bizni bog‘dan topisholmaydiganday)…

Oybek... butun yoz ichi bog‘dan chiqmay ijod qildi. Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o‘ta tahlikali va fojiali kunlarda, g‘urbat yutib kechirilgan bayotda “Qutlug‘ qon”day go‘zal va o‘lmas bir asarni yaratdi”.

Tahlikali vaziyatda bo‘lishiga qaramay, roman ilhom og‘ushida shiddat bilan yozilgan. Bu haqda adibning sinfdoshi, adabiyotshunos olim Homil Yoqubov keyinchalik: “Oybek shu qadar qizg‘in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongingin munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatidan yuksak asar “Qutlug‘ qon”ni yozib bitirdi”, — deb eslaydi. Ehtimol, adib hayotdagiadolatsizlikni, zulm-zo‘rlikni ko‘rmaslik, undan o‘zini chalg‘itish uchun butun e‘tiborini romanga qaratgandir. Yozuvchi bunga qadar nasrda bor-yo‘g‘i bir necha likoyagini yaratgan edi xolos. Lekin hayotni sinchiklab kuzatgan, dunyo adabiy tajribalaridan atroficha xabardor, atrofida ro‘y berayotgan hodisalardan kuchli ta sirlanadigan qalb egasi Oybek yirik nasriy asar yozishga ruhan tayyor edi.

Yozuvchi qo‘lyozma ustida jiddiy ishlab. 1939- yilda asarni yozuvchilar uyushmasida muhokama qildirdi. Muhokama chog‘ida ayrim kishilar adibni asarga inqilobchi kuchlarni, rus proletariati vakillarini kiritmaganlikda aybladilar. So‘ng yozuvechi romanda shu jihatni kuchaytirishga, unga revolyutsioner Petrov timisolini kiritishiga majbur bo‘ldi.

“Qutlug‘ qon” tarixiy romanida o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishda rus bosqinchilari va mahalliy amaldorlar tomonidan ezilganligi, xalqning o‘z ahvolini anglab, ezuvchilarga qarshi qo‘zg‘olishi badiiy ifodasini topgan. Roman asosida 1916- yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘oloni yotadi. O‘scha vaqtida o‘n bir yoshli o‘smir bo‘lgan Oybek bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bo‘lajak yozuvchi u paytda ko‘rganlarining asl mohiyatini anglamagan bo‘lsa-da, milliy ozodlik yo‘lidagi qo‘zg‘olon o‘sminning ta’sirchan ko‘nglidan chuqur o‘rin olgandi.

Nazardan qo'chirmaslik kerakki, Oybek uchun qo'zg'olon va uning sabablari ni ko'rsatish asosiy maqsad emasdi. Qo'zg'olon to'g'risida birorta ilmiy-tarixiy yo'nalishda maqola yozishi ham mumkin edi. Adib bu davr kishilarini ruhiyatini, ularning ko'nglidagi ezzulik va yomonlikka munosabatni, yangilanib borayolgan davr va unda yashashi lozim bo'lgan odamlar tabiatini o'rtaqidagi muvosiqlik kabi jihatlarni aks ettirmoqeji edi. Shuning uchun ham asar markazida qo'zg'olon emas, balki Yo'lehi, Gulnor, Shokir ota, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvacheha singari kishilar taqdiri turadi.

Romanning bosh qahramoni Yo'lehi — mard, halol, oqko'ngil, oljanob yigit. Ma'lumki, inson o'zi qanday bo'lsa, o'zgalar haqida ham shunday o'yaydi. Shuning uchun ham Yo'lehi shahardagi qarindoshlardan mehr-u muruvvat kutadi. U o'ziga qilinadigan yaxshiliklar evaziga halol mehnati bilan badal to'lay oladi. Buni siz romanda yigitning mehnatdan qo'rmasligi, ishning ko'zini bilishi tasvirlangan o'rnlardan payqab olasiz. Yo'lehi kunda kovlash, beda o'rish singari kuch talab etiladigan og'ir ishdan ham, mehmونlurga xizmat qilishday yengil yushmanlardan ham og'rinnmaydi.

Yo'lehining tabiatini roman bilan chuqurroq tanishilgani sari yorqinlashib, yuksalib boraveradi. O'zi qanchalik og'ir sharoitda yashayotgan bo'lishiga qaramay, Shokir otaga yordam berishga urinishi, Shogosim, O'roz, Qoratoy singari nochorlarga qayishib turishi kabi jihatlar uning tabiatidagi oljanoblik, insonga mehr ustuvorligini anglatadi. Yo'lehi qiyinchiliklardan qo'rmasligani, og'irliklardan cho'chimaganini uchun ham tubanlikka bornaydi. U qynalmay yashshi yashash emas, balki halol va to'g'ri hayot kechirish multim deb bilgani sabab lozim ko'rmaslikka o'zida kuch topadi.

Oybek asl inson qanday tabaqadan chiqqan bo'lishiga qaramay, uni yengib bo'lmasligini aks ettiradi. Shuning uchun ham na Mirzakarimboy, na Tantiboyvacheha, na o'ris to'ralar Yo'lechini o'zi to'g'ri deb bilgan yo'ldan qaytara oladi. Chunki yigit puli, mavqeい, mansab-u martabasi bo'lmasa ham o'zini ulardan past hisoblamaydi. Ular ko'rsatgan yo'ldan yurishni esa, pastkashlik sanaydi.

Romanda Yo'lehi og'ir-bosiq, sabr-bardoshli, kechirimli yigit sifatida tasvirlanadi. Lekin u faqt chidabgina qolmay, harakat qilish, kurashish ham lozimligini biladi. Shu bois Gulnorning boshiga ish tushgunda, qo'l qovushtirib o'tirmaydi. Pichoqing tig'iga tik horib bo'lsa-da, sevgilisini qutqaradi. Yigitning rus mirshabboshisi bilan janjalida ham, tog'asiga: "Bundan ko'ra go'ng tilganing yaxshi emasmi, keksa tovuq". — deyishida ham oriyatlari, o'z haq-huquqi uchun kurasha oladigan erkak ekani sezilib turadi.

Yo'lehining zulmga, zo'rlikka qarshi qo'zg'algan xalqqa qo'shilishi ham, tadsodidan bu to'danining yetakehisiga aylanib qolishi ham uning tabiatidagi kurash-

chanlik va adolatga tashmalik tuyg'usidan. Muhimi shundaki, adolatga intilgan odam kuchli bo'ladi. Hazrati Temurning: "Kuch — adolatda", — degan hikmati bejiz emas. Chunki adolat yo'lini tutgan odam Haq o'zi tomonda ekanini biladi, haq hamisha adolatning qaror topishiga yordam qilishiga ishonadi. To'g'ri, Yo'lehi maqsadiga erisholmadi, u bosh qo'shgan kurash g'alaba bilan tugamadi. Chunki zulmni, adolatsizlikni, yovuzlikni yengish hech qachon oson bo'limgan. Lekin u haq yo'ldan qaytmagani, vijdoniga, imoniga xiyonat qilmagani, ezguliklarga ishonib, ularni qaror loptirishga intilib yashagani bilan tirikdir.

### *Nazariy ma'lumot*

#### **ROMAN JANRI HAQIDA**

Ko'pincha, biror milliy adabiyotning darajasi unda romanchilik qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi. Abdulla Qodiriy tomonidan boshlab berilgan o'zbek romanchiligi ham o'sishning katta yo'lini bosib o'tdi. Aslida roman atamasи fransuzchada "roman" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, roman guruhiiga mansub tillarda bitilgan nasriy asarlarni anglatgan.

Roman deganda personajlarning boshqalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos jihatlarini biror voqeа-hodisa asosida ko'rsatib beradigan katta hajmli asar tushuniladi. Garchi, atama sifatida roman guruhiiga mansub tillardan birida yozilgan asarni lotin tilida yaratilganlardan farqlash maqsadida o'rta asrlarda qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, ilk romanlar bundan ikki yarim ming yillar oldin yuzaga kelgan va faqat sochma yo'lida qora so'z bilan bitilgan. Keyinchalik she'riy romanlar ham yaratildi. Shu tarqa, romanlarni nasriy va she'riy tarzida ikki turga bo'lish mumkin.

Shuningdek, adabiyotshunoslik ilmida romanlar mavzu yo'nalishiga qarab tarixiy, falsafiy, siyosiy, maishiy, biografik, fantastik, detektiv kabi xillarga ham ajratiladi. Jumladan, siz yuqorida tanishgan "Qutlug' qon" asari tarixiy roman hisoblanadi. Chunki unda alohtiда odamlarning alohida taqdirlarini aks ettirish bilun birgalikda butun boshli o'zbek xalqining bayotida muhim bosqichi bo'lgan voqealar tasvirga olingan.

Roman janriga mansub asarlar necha kitobdan iborat ekaniga qarab ham tasniflanadi. Chunonchi ikki kitobdan iborat roman **dilogiya**, uch kitobdan iborat roman **trilogiya**, to'rt kitobdan iborat roman **tetralogiya**, besh kitobdan iborat roman **pentalogiya** deb yuritiladi.



## ODIL YOQUBOV

(1926—2009)

**Hayot va ijod yo'li.** Odil Yoqubov o'zbek adabiyotining yetakechi yozuvchisi edi. U — tabiatan faol, jamoatchi shaxs bo'lgan. O. Yoqubov — jamiyat ishiga hayotini tikib, shu yo'lida qurbon bo'lgan kishining farzandidir.

Hujjatlarga ko'ra, Odil Yoqubov 1926- yilning 20- oktabrida Janubiy Qozog'iston viloyatining Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan. Otasi — ishchan tashkilotchi, tadbirdor va o'qimishli ziyoli Egamberdi Yoqubov o'z vaqtida sho'rolar hukumatining ishongan kishilaridan bo'lib, Qozog'istonda mas'ul lavozimlarda ishlagan. Keyinroq shaxsga sig'inish avj olgan davrda avval amalidan paslatilgan, so'ng 1937- yilda qatag'onga yo'liqib, qamoqqa olinganicha, qaytib kelmagan. Bo'lajak adib 1944- yilda o'rta maktabni bitiradi. 1945-yilda asli 1927- yilda tug'ilgan bo'lishiga qaramay, o'zini 1926- yilda tug'ilgan va o'n sakkizga to'lgan qilib ko'rsatib, ko'ngilli ravishda Ikkinci jahon urushiga jo'naydi.

U avval Uzoq Sharqda xizmat qilgan, so'ng Mo'g'ilistonning cheksiz Gobi sahrosini piyoda bosib o'tib, Yaponiyaga qarshi olib borilgan urushda qatnashgan. Insoniyat erki uchun bo'lgan janglarda shaxsan qatnashishni or-nomus masalasi hisoblab jangga kirgan romantik yigit urush lugagandan so'ng ham yurtga tezda qayta olmaysdi. Uni 1950- yilga kelibgina uyga jo'natishadi.

Odil Yoqubov 1951—1956- yillarda SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetining rus tili va adabiyoti bo'limida o'qiydi. O'qishni lugalgandan keyin 1959- yilgacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushumasida maslahatchi bo'lib ishlaydi. Bolalikdan rus adabiyoti bilan tanish bo'lgan, besh yillik harbiy xizmatda bu tilni mukammal o'rgangan O. Yoqubov 1959—1963 va 1967—1970- yillarda sobiq ittifoq miqyosida tarqaladigan "Literaturnaya gazeta"ning O'zbekistondagi muxbirasi sisatida faoliyat ko'rsatadi. 1970—1982- yil-

lar orasida “O’zbekfilm” kinostudiyasida, Respublika kinematografiya qo’mitasida bosh muharrir, G’afur G’ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o’rinbosari lavozimlarida mehnat qiladi. 1982- yildan 1989- yilgacha “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligining bosh muharriri bo’ladi.

1989—1996- yillarda esa O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining rassi sifatida faoliyat ko’rsatadi. Bu davrda adib shaxsiyatiga xos kengfelliik to’la namoyon bo’ldi. U o’zbek yozuvchilariga tegishli sharoit yaratish, ularga ijod erkinligi berish borasida katta ishlarni amalga oshiradi. O. Yoqubov 1996—2004- yillarda Atamashumoslik qo’mitasi raisi, 2005- yilgacha Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining vitse prezidenti vazifalarini ado etgan.

Adibning ilk asari “Tengdoshlar” qissasi harbiy xizmatda ekanida yozilgan va 1951- yilda “Sharq yulduzi” jurnalida bosilib chiqqan. Keyinroq adib “Chin imuhabbat”, “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim” (1956), “Yurak yonnog’i kerak” (1957), “Olma gullaganda” (1960) kabi qator dramatik asarlar yaratgan. Uning bu asarları Hamza nomidagi Respublika akademik drama teatri (hозири O’zbek milliy akademik drama teatri)da ijro etilgan. 1956- yilda “Ikki muhabbat” nomi bilan nasriy asarlar kitobi bosildi. Keyin birin-ketin “Muqaddas” (1960), “Bir seleton qissasi” (1961), “Tilla uzuk”, “Larza”, “Qanol juft bo’ladi” (1969), “Billur qandillar” (1975), “Izlayman”, “Matluba” qissalari chop etildi.

Adib dramaturgiya, hikoya va qissachilikda qalamini charxlagach, roman janrida ham bir qator asarlar yaratdi. Uning “Er boshiga ish tushsa” (1969), “Ulug’bek xazinasi” (1974), “Diyonat” (1973), “Ko’lna dunyo” (1983), “Oqqushlar, oppoq qushlar” (1988), “Adolat manzili” (1997) kabi romanlarida turli davrlarda yashagan turfa odamlarning ruhiy olami, ma’naviy dunyosi, iztirob-u quvонchilari mahorat bilan aks ettirilgan.

## ULUG’BEK XAZINASI

(romandan parchalar)

Mirzo Ulug’bek qirmizi poyandoz to’shalgan xiyobondan ohista yurib orqaga qaytarkan, darvozaning yoniда oq ko’pikka cho’milgan bir necha otlarni ko’rdi. Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qo’lida maktub ushlagan shayxulislom Burhoniddin shosha-pisha unga tomon yurishdi.

“Tag’in noxush xabar!” — xayolida dedi Mirzo Ulug’bek.

— Qayda yuribsiz, hazratim? — dedi shayxulislom hansirab. — Amir Iskandar barlosdan chopar kelibdur.

— Tag’in ne mujda? — Mirzo Ulug’bek to’xtab nomaga qo’t cho’zdi. Bir

parcha sariq qog'ozga palapartish yozilgan nomada amir Iskandar shahzoda Abdullatifning hirovul<sup>1</sup> qo'shinlari pistirmadan chiqib, uning qalb<sup>2</sup> qo'shinlariga hamla qilganini yozgan edi. Amirning xabar berishicha, shahzodaning qo'shinida fillar ham bor. Bu fillar uning suvoriylariga dahshat solgani boisidan u dorussaltana tomon chekinmoqni lozim ko'rgan...

Mirzo Ulug'bek ko'zlarini nomadan uzib, o'g'li bilan shayxulislomga qaradi. U endigina koshona yonida turgan bir guruh saroy mahramlariga ko'zi tushdi. Mahramlar orasida jiyamlari: shahzoda Abdulla bilan Abu Said Mirzo ham turar, zarbof to'n ichidan suvoriy sovut, boshlariga tilla hoshiyali dubulg'a kiygan bu ikki shahzodaning ham ko'zlarida taraddud, harakatlarida toqatsizlik sezilib turardi.

Mirzo Ulug'bek jo'rttaga ovozini ko'tarib:

— Shahzoda lashkari yurish boshlabdur, — dedi. — Lashkarlarida fillar bor ermish.

Shayxulislom Burhoniddin rangi o'chib, boshini sarak-sarak qiddi,

— Davlatpanoh ne farmon bergaylar?

Mirzo Ulug'bek miyig'ida kulinsiradi.

— Ollo taolo peshonaga neni yozgan bo'lса, shu bo'ladi. taqsir.

— Inshoolloh, peshonangiz yorug' bo'lg'ay. Va illo...

— Jang-jadal qilmoq!..

Shayxulislom cho'qqi soqolini ushlab, bosh chayqadi va go'yo saroy ahli eshitishini istamaganday:

— Dorussaltanaga qaytmoq darkor, onhazratim! — dedi sekin. — Qal'a mustahkam...

Mirzo Ulug'bek asabiy harakat qilib:

— Hayhot! — dedi. — Shahzodada tosh otg'uvchi arrodalar<sup>3</sup> bordur, taqsir! Butkul shahar zer-zabar bo'ladi! Butkul shahar!

Chol yana asabiylashib boshini sarak-sarak qiddi.

— Vallohi a'lau bissavob! Va lekin shaharni ololmas, sultonim! Jamiki masjidlarga xutba o'qiturni. Barcha fuqaro oyoqqa turadur, davlatpanoh!..

— O'ylab ko'rmoq darkor, taqsir! — Mirzo Ulug'bek qovog'ini uygancha koshona tomon yurdi. Yo'lda turgan shahzodalar shosha-pisha yo'l berishdi. Koshonaning ikkinchi oshyonidagi devordari firuzarang sopol parchinlar bilan bezatilgan kalta xonaga shohi ko'rpachalar to'shalib, xontaxtalar qo'yilgan, xontaxtalar yog'liq patirlar, meva-cheva, qovurilgan g'oz va kaboblarga to'la edi.

Mirzo Ulug'bek ichida kulib qo'ydi: "O'llim oldidan bezmi jamshid!"

<sup>1</sup> Hirovul — qo'shining old tomoni. <sup>2</sup> Qalb — qo'shin markazi. <sup>3</sup> Arroda — tosh otur quroq, manjanlig.

U to'rga, bir mahallar bobosi Amir Temur o'tirgan joyga o'tirarkan, poygakda ta'zim qilib turgan bakovulga yuzlanib:

— Boda keltir! — deb buyurdi. Lekin bodani ichish nasib etmadı.

Bakovul chiqib, Mirzo Ulug'bek joylashibroq o'tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi chopar keltingan nomani tutdi. Bu noma suyukli navkari Bobo Husayndan bo'lib, birinehisidan ham vahimali edi. Shahzodaning o'ng va chap qanot lashkari yurishni jadallatib, amir Sulton Jondor bilan amir Iskandar barlos qo'shinlarini qopqonga tushirmoq harakatida ekan. Lekin eng yomoni — amir Sulton Jondor qayoqdadir qoengan, qo'shinda yolg'iz amir Iskandar barlos qolgan emish! Bobo Husayn buni xabar qilib, Mirzo Ulug'bekka Samarcandga chekinishni maslahat bergen, o'zi esa amir Iskandar barlos bilan Dimishq atrofida jang qilib, shahzoda lashkarlarini to'xtatib turish niyatida ekanini yozgan edi.

Nomaga qaraganda, shahzoda qo'shinlari ikki-uch farsali joyga kelib qolgan, Mirzo Ulug'bek qanday qarorga kelmasin. bu qarorni darhol qabul qilmog'i lozim edi! U esa... U hamon jang qilish, shahzoda bilan yuzma-yuz kelish istagi bilan yonar edi. Lekin Bobo Husayn yo'llagan nomani o'qirkan, xayoliga bir fikr keldi: dorussaltanaga qaytib va uning darvozalarini berkitib olib, shahzoda bilan sulh-saloh tuzsa ne qiladi? Yo'q, shahzoda uning taxtda qolishiga ko'ninas. Lekin Mirzo Ulug'bekka minba'd toj-u taxt kerak ertmas! Shahzoda uning rasadxonasiy-u madrasalariga tegmasa, ma'rifat yo'lidagi ishlarini man ertmasa, u linchigina ilm-u idrok bilan mashq'ul bo'lsa — bas! Unga shundan boshqa ne kerak?

Lekin shahzodani bu shartlarga ko'ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo'lsa xam, mudofaaga o'tmoq darkor.

Mirzo Ulug'bek barcha ikkilanishlarga chek qo'yib, to'rda churq etmay o'tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi.

— Siz Dimishqda qolib, Iskandar barlos suvoriylariga ko'mak bergaysiz, amir! Boshingiz kelsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to'xtalgaysiz. Farmoni olyi ayonimi?

— Ayon, davlatpanoh! — Amir Idris tarxon to'n ichidan kiygan soyutining halqachalarini shing'irlatib, ta'zim qildi.

Mirzo Ulug'bek uyqusizlikdan qisilgan ko'zlari yonib, o'g'li Abdulazizga qaradi.

— Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chogaysen. Dorug'a Mironshohga amri olyini yetkazgaysen: barcha a'yon-u boyonlar darhol Ko'ksaroyma yig'ilsin. Mashvarat qilurmen.

Mirzo Ulug'bek shitob bilan o'rnidan turdi. Boda to'la kosasini bir sipharişda bo'shatdi-da, hech kimga qaramay koshonadan chiqdi.

Qorong'i tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulug'bek otiga qanchi urdi. Shu payt oldinda, Qohira bog'lariqa kiraverishda, ol tuyoqlarining dupuri eshitilib, allaqanday g'alayon ko'tarildi, ilgarilab ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi. So'ng bir guruh suvoriyalar ot choptirib kelib, Mirzo Ulug'bekka yetmay to'xtadi. Mirzo Ulug'bek qilichini qinidan sug'urib oldi.

— Bu kim?

— A'lolahazratlari afs etsinlar! Biz dorussaltanaga borib qaytdik!..

Ketma-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdul'aziz bilan tund yuzli satoybon arg'umog'ini niqtab oldinga o'tdi.

— Davlatpanoh...

— So'zla!

— Darvozalar yopilgan. Salohidorlar darvozalarni ochnmoqdin bosh tortadur, hazratim...

— Yolg'on! — Mirzo Ulug'bek xayolida baqirib yuborganday bo'ldi, lekin uning ovozi xirillab eshitildi-yu, bir zum og'ir jumlilik cho'kdi. Qorong'ida shayxulislom Burhoniddinning: "Yo parvardigori.." — deb pichirlagani va Mirzo Ulug'bekning hansirab nafas olgani eshitildi.

— Dorug'a Mironshoh qayda? Darvozada bormu?

— Yo'q, onhazratim! Dorug'a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi.

— Bo'shat yo'ni! — Mirzo Ulug'bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achehiq qamchiga o'rgannagan arabiy arg'umog osmonga sakradi-yu, shamolday uchib keldi...

Uning tuyoqlari ostidan otilib chiqqan tosh va kesaklar har tomon vizillab otilar, osmonda uchgan xazonlar ayovsiz savalar, lekin u hech narsani sezmas, qalbida tug'yon urgan alam og'riqni bosib ketgan edi. Xayolan u hamon ko'kka tavollo qilar, osiy bandangni kechirgaysen, qarigan chog'imda bu xo'rlikni ravo ko'rmagaysen, deb iltijo etardi.

Bog'lar chekinib, atrof xiyol yorishdi. Sal o'tmay, oldinda osmon bilan tutashgan dorussaltana qo'rg'oni ko'zga chalindi. Qorong'ida qo'rg'onning kungurador devori shunday yuksak va mustahkam ko'rinar ediki, uni hech bir kuch zabit etolmaydiganday tuyulardи.

Suvi ko'klamdayoq qurib qolgan chuqur xandaq yonida Mirzo Ulug'bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi. Ular orasida shahzoda Abdul'aziz bilan jivanlari Abdulla va Abu Said Mirzo ham bor edi. Uchala shahzoda ham asabiy holatda u yoqdan-bu yoqqa ot o'yнатиб yurishar edi. Mirzo Ulug'bek shahzoda larga e'tibor bermay, chuqur xandaqdan ot choptirib o'tib, do'nglikdagи darvoza oldida to'xtadi.



Saroybon otini niqtab borib, qılıchi bilan darvozani “shaq-shaq” uşgan edi, tepadagi minoradan:

- Bu kim? — degan ovoz eshitildi.
- Bu men! — dedi Mirzo Ulug’bek, yana qoni qaynab. — Sohibi toj Mirzo Ulug’bek Ko’ragoniy!
- “Darvozai ohanin” namozi asrdan so’ng shoh-u gado — barchaga yopiqdir!

— Och darvozani, mal’un!

Mirzo Ulug’bek go’yo darvozani ag’dara oladigandek, ot soldirib bordi, asov oq bedov osmonga sapchib, oldingi oyoqlari bilan temir darvozani qarsillatib urdi-yu, orqaga lisarildi. Yuqorida bir daqqa jumlilik cho’kkach:

- A’lo hazratlari afy etsinlar! — dedi boyagi ovoz. — Dorug’u Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!

— Sohibi sultanat men bo’lurmen. Barcha farmonlarim amri vojib erurla.. Darvozani och yo dorug’ani chaqir, yoxud boshing ketadi, salohdor!

Mirzo Ulug’bek gapini tugatmagan ham edi ki, devor tepe sidagi minoradan qiqirlab bo’g’iq ovoz eshitildi:

- Salohdorning boshini olishga qo’ling kaltalik qiladur! Buning boshi emas, o’z boshingga ehtiyyot bo’lg’il, Muhammad Tarag’ay!

Mirzo Ulug’bek bir daqqa tili kalimaga kelmay garang bo’lib qoldi. Bu ingichka xirilloq ovozning egasi, har bir so’zidan zahar tomchilab tungan bu odam... amir Sulton Jondor edi...

Vojajabo! Bu mal’un lashkarni tashlab qochganda... dorussaltanaga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo’ldan o’tib keldi? Unga darvozani kim, neclun ochdi?.. Bu beimon kazzoblar qachon til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amir-u umarolar, arkoni harb va arkoni davatlardan hazar, allazar! Qayga bor mang, hammayoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!

Mirzo Ulug’bek oyoqlarini uzangiga tirab, qaddini rostladi, vujud-vujudini larzaga solgan tug’yonni zo’rg’u bosib:

- Amir Sulton Jondori! — dedi. — Hunno qushi kimning boshiga qo’nur, buni yolg’iz haq taolo biladur. Hunno qushi meni tark etsa — sening baxting! Va lekin falakning gardishi bilan toj-u taxt qo’limda qolsa... esingda bo’lsin: oyog’ingdan dorga osib, ostingdan o’t qo’yame! — Mirzo Ulug’bek shunday dedi-da, amir Jondorning javobini kutmasdan, otining boshini orqaga burdi.

Mirzo Ulug’bek handaqdan ot choptirib o’tishi bilan uni shahzodalar o’rab olishdi. Xayoli alg’ov-dalg’ov bo’lib kelgan Mirzo Ulug’bek shahzodalarining hayajonli so’zlaridan faqat bir narsani, “Shohruhiya qal’asi”, — degan so’zni tushundi-yu, “mayli!” deb, qo’l siltadi. U qayqqoja, nima maqsadda ketayotganini bilmas, xayolini faqat bir fikr — insonlarning riyokorligi, mansurlik va kazzobligi

band etgan edi. Sal o'tmay. Shohruhiya qal'asiga ot choptirib ketgan shahzoda Abdul'aziz qaytib keldi. U og'ir hansirar, g'uldirab allanimalarни aytar, lekin gapini tushunish qiyin edi.

Mirzo Ulug'bek Shohruhiya qal'asi ham yopilganini, qal'a boshlig'i turkman begi Ibrohim Po'lat o'g'li ham sotqinlik qilganini uning g'uldirashlaridan arang ilg'ab oldi. Aqli bilan emas, allaqanday icerki tuyg'u bilan ilg'ab oldi yu, labini qattiq tishlaganicha o'ylanib qoldi. U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniyagina olishdi, so'ng, arg'umog'ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z surriyotidan ko'rishga ahd qildi.



### Savol va topshiriqlar

1. Shahzoda Abdulla va Abu Said Mirzoning ko'zlaridagi taraddud, harakatlari-dagi toqatsizlik nimadan darak deb o'ylaysiz?
2. Ulug'bekning Abdullatif bilan yuzma-yuz kelishga intilishi uning shaxsiyatining qay jihatini ko'rsatadi?
3. Mirzo Ulug'bekning boda to'la kosani bir sifqarishda bo'shatgani uning ruhiyatidagi qaysi qirrani namoyon etadi?
4. Ulug'bekning suylig'ini chaynab yulqingan oq bedovni Samargand tomon choptirmaganligi sababini izohlang.
5. Ulug'bekning ruhiy holati tasvirini o'qib, tahlit qiling.
6. Yuragi lug'yonga kelgan hukmadorning Samargand qal'asini ko'rgach birdan bo'shashib qolgani sababini topishga urining.
7. Amir Jondorning andishasiz gapidan so'ng Ulug'bek Mirzoning tili bir zum kalimaga kelmay qolgani sababini aytинг.
8. "U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniyagina olishdi, so'ng, arg'umog'ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z surriyotidan ko'rishga ahd qildi". Mirzo Ulug'bek taqdirini hal qilgan bu harakat sababini anglating.

\* \* \*

Mana ikki kun o'tdi. Mirzo Ulug'bek Ko'ksaroyning chekkasidagi bir xonada o'z yog'iga o'zi qovrilib yetibdi. Eshikdagi yasovul hatto tahoratga ham chiqarmaydi, ta-horat suvini ichkariga beradi. Mirzo Ulug'bek Ko'ksaroysda yarim asr istiqomat qilib, bu xonani ko'rmagan ekan. Xona sovuq va nimqorong'i. Faqat shiftdagi tuynukchadan bir hovuchgina nur tushadi. Xonada gilam-u bir-ikkita ko'rpacha. O'rtadagi xontax-tada sovib qolgan kabob va meva-cheva. Bejirim chinni ko'zachada — boda. Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug'bek hanuz tuz totgani yo'q. Faqat qumg'ondag'i suvdan bir-ikki qultum ichdi, xolos. Mana endi ochlik va uyqusizlikdan xayoli chu-valib, shiftdagi tuynukka tikilib yetibdi.

U kecha shahzodaga ikkita maktub yo'llab suhbatga chaqirishni so'radi. U loj-u taxtdan o'z idroki va ixtiyoril bilan voz kechmoqqa azm qilganini shahzodaga aytmoqchi va undan yolg'iz bir narsani — qolgan besh kunlik umrini ilm-ma'rifatga bag'ishlashiga imkon berishini so'ramoqchi edi. Keyin, agar shahzoda qulqoq solsa, otalik nasihatini bermoqchi, insof va adolatga chaqirmoqchi edi. Yo'q. Har ikkala maktub javobsiz qoldi. Bu oqpadar o'g'ilning muddaosini ne? Yana qanday shumlikni boshlamoqchi? Taxt azmida hech narsadan tap tortmagan bu ko'rnamak o'z padarining joniga qasd qilmoq niyatida emasnu? Yo'q, Mirzo Ulug'bek o'limdan qo'rqlaydi! O'lim haq, parvardigori olam! Va lekin yomon bo'lسا-da, o'z pushtikamaridan yaralgan bu johil farzandining taqdiri ne bo'ladi? O'z qiblagohining joniga qasd qilib, padarkush degan mash'um nom olib, abadul-abad badnom bo'lmasmu? Xonaga birov kirdimi yo eshik g'ichirladimi? Mirzo Ulug'bek ko'zini ochdi. Ostona paydo bo'lgan yasovul orqaga chekinib, tanish semiz bakovulga yo'l berdi. Bakovulning qo'lidagi og'ir barkashda qip-qizil pishgan ikkita patir, bir tovoq osh va bir choynak choy hor edi. Bakovul bosh egib, ta'zim qildi-da, barkashni xontaxtaga qo'ydi. Shoshilmay sovib qolgan kaboblarini yig'ib oldi, so'ng, indamay orqasiga tisarilarkan, patirga imo qilib ko'zini qisdi. Mirzo Ulug'bek uning imosiga tushunolmay bir patirga, bir bakovulga qaradi. Lekin bakovul indamadi, "ayg'oqli ber", degan ma'noda eshikkha imladi-da, yana patirga ishora qilib chiqib ketdi.

Mirzo Ulug'bek patirni olib ushatdi, ushatdi-yu, bayron bo'lib qoldi. Patirning orasidan naycha qilib o'ralgan bir qog'oz chiqdi. Mirzo Ulug'bek yuragi "shig'" etib, qog'ozni ochdi. Iuizo chekilniagan. Noma'lum kimsa unga haq taolodan inoyat tilab, dorussaltanada bo'layotgan hodisalardan voqif qilgan va bir maslahatni o'rta ga tashlagan edi.

Uning yozishicha, shahzodai valiahd dorussultanuni zabl etib, Ko'ksaroyga kirishi bilan qiyomat-qoyim boshtagangan, kecha masjidi jomedan xutba o'qilib, Mirzo Ulug'bek Movarounnahr g'animi, deb atalgan va loj-u taxtdan judo qilingan. Xutbada Movarounnahr sulton deb, shahzodaning ismi zikr qilingan va uning nomida pul zarb etilmoqqa fatvo berilgan. Shahzoda bu kunnarda ko'p zoti shariflarni, Mirzo Ulug'bekning ko'p navkarları va sarkardalarini hibsga olgan. Qarshilik qilganlar esa qatl etilgan. Shahzoda uni, Mirzo Ulug'bekni, Makkayi mukarramaga hajga yubornuoqqa jazm qilgan. Lekin xutbada Sayid Abbas degan bir kimsa xonga yukunib, a'lolahazratlaridan xun dovlagan. Zero, Ulug'bek hazratlari uning padari buzrukvorini begunoh qatl qildirgan emish. Bu diyonatsiz kimsanining soxta dovini qoziyul quzzot Xoja Miskin janoblaridan boshqa bir kimsa, hatto shahzodaning o'zi ham rad qilmagan. Alqissa, uning hayoti qil ustida turibdi, shu bois, noma'lum kimsa unga qochmoqni maslahat qilgan. Basharti onhazratlari bu maslahatni maqbul topsa, bakovulga ishora qilmog'i

lozim. Bakovul posbonni dori bilan uxlatib, Mirzo Ulug'bekni Ko'ksaroy tagidagi lahimidan olib chiqadi.

Mirzo Ulug'bek maktubni o'qib tugaftasidanoq o'rnidan turib ketdi. Uning ko'ngliga kelgan birinchi fikr "tuzoq" bo'ldi. Shahzoda, yo'q, amirlar qo'ygan azozil tuzog'il.. Mirzo Ulug'bek hayajon ichida xonani bir aylanib chiqdi. Banogoh ko'zi ushatilgan patirga tushib, ko'nglidan yana o'sha fikr o'tdi: "Og'u"...

— Ha, bu ovqat, non, chinni ko'zuchadagi boda — hammasi zaharlangan! Hammasisiga og'u solingan! Niyatları uni zaharlab o'ldirmoq! — dedi Mirzo Ulug'bek, dedi-yu, xayoliga yana bir fikr kelib ma'yus jilmaydi:

"Alhol unga baribir emasnu? Kindik qoni to'kilgan suyukli yurtidan judo bo'lib, yet ellarda, olis musofir yurtida darbadar kezganidan yoxud boshini Sayid Abbas qilichi kesganidan og'u ichib o'lgani maqbul emasnu?"

Mirzo Ulug'bek bir piyola bodani to'ldirib ko'tarib yubordi-da, bir burda non chaynab, xonani sekin aylana boshladi...

Mirzo Ulug'bek qalbini chulg'ab olgan alamli duddan bo'g'ilib, xonaning o'rlasida lo'xtadi. U endigina xonaga qorong'i lushganini, shiftdagi tuynukchadan quyilib turgan bir hovuchgina nur so'nib, kaftdekkina osmonda milt-milt yulduzlar yonganini ko'rdi.

— Yulduzlar!.. — Mirzo Ulug'bek ko'ngli bir xil bo'lib osmonqa tikildi. Yo tavba! U yulduzlarni yaxshi tanimadi. Qorong'i tuynukda milt-milt etgan qaysi sitora? Dubbi akbaruni yoki boshqa yulduzmi?.. Osmondag'i har bir yulduzni nomna-nom biladigan munajjim... unga ne bo'ddi? Ko'zining nuri so'nib goldimu yo zehni xiralashdimu? — Mirzo Ulug'bek xayoli chuvilib ketayotganimi sezib, joyiga borib yonboshladi. Yonboshlashi bilan eshik ochilib, boshlarida dubulg'a, qo'llarida yalang'och qilich, ikki sipoh kirib keldi. Ikkovi ham ot yuzli, o'ng qulqlariga isirg'a taqjan balxiy sipohlardan edi. Sipohlardan keyin surmarang salsa o'ragan zanjiday qop-qora notanish yasovul kirib ta'zim qildi va jingina eshikka imladi. Mirzo Ulug'bek zanjisifat yasovulning betakalluf harakati uyg'otgan g'azabni ichiga yutib, egniga suvsar po'stinini tashladi...

Salomxoncha charog'on edi. Gir aylantirib qo'yilgan baland kursilarda hammasi birday movut-u zarbof to'n ustidan oq shoyi rido kiygan, boshlariga simobiyl oq salsa o'ragan ulamo o'tirardi. Eshikda Mirzo Ulug'bek ko'ringanda ulamolardan ba'zilari shosha-pisha o'rinalidan turishdi, lekin to'rda, boshqalardan balandroq kursida tasbeh o'girib o'tirganlar, qilich taqqan amirlar hazrat Xonushning qahri nigohi ostida qayta joylariga cho'kdilar.

Mirzo Ulug'bekning xayolidan "Shayxulislom Burhoniddin qayda? Dorussaltana qoziyul-quzzoti Xoja Miskin janoblari-chi?" — degan fikr o'tdi.

Hazrat uzun, nozik barmoqlari bilan go'yo har bir tolasiga jilo berganday yaltillagan oppoq soqolini silab:

— Bandai ojiz Muhammad Tarag'ay, — dedi, “onhazratlari” so'zini qo'shimay. — Dorussaltana ulamo va amirlarining bu dargoluga yig'ilmoq idin murodi olloning inoyati bilan Movarounnahrga sulton salotin bo'lgan shahzodai valiahdning amri oliylari va ulamolarning fatvolarini...

Mirzo Ulug'bek kinoyali kulmoqchi bo'ldi, lekin kulolmadı, yuragini larzaga solgan ichki tug'yon uning irodasidan ustun kelib, yuzi burishib ketdi.

— Ha, hazratim. Fatvo mubohara qilmoq uchun ilmdan ogoh bo'lmoq dar-kor. Nadomatlar bo'lg'aykim, bu murofaa (hukmronlik da've qilish)ga aqli zukko ulamolar emas, ilm-u ma'rifatdan yiroq johillar yig'ilibdu... Zerokim, o'g'il bilan ota o'tasiga nisoq solib, farzandni o'z padariga qayrash... Gunohi kabir emasnu, hazratim?

Rangi o'chgan, allaqanday ichki bir g'ururdan ko'zları chaqnab ketgan Mirzo Ulug'bek oldini to'sgan ulamolarni yorib o'tib, to'rdagi eshikka tomon yurdi. Dag'-dag' qaltiragan a'lohzatlarining vajohati shunday qo'rinchli ediki, eshik oldida turgan ulamolar beixtiyor chekinib, unga yo'l berishdi.

Mirzo Ulug'bek ularning yonidan o'tib, chetlariga tilla tasma qoqligan o'yinakor eshikni shitob bilan o'ziga tortdi. Eshikning o'ng tavaqasi sharaqlab ochildi-yu, devorga tegib yana yopildi. Mirzo Ulug'bek qayta yulqib oolib, ichkariga kirdi. Shiftdag'i oltin qandilga terilgan o'narcha shamlar shu'lasida shahzodaning so'nik yuzi go'yo ganchidan yasalgan niqboday sovuq tuyular, chuqur botgan ko'zları bejo charaqlar, qo'shi-qo'shi tilla uzuk taqilgan ingichka goramtir barmoqlari asabiy titrardi.

Mirzo Ulug'bek allaqanday yengil tortib, taxt yonidagi oq kursiga borib o'tirdi... Mirzo Ulug'bek ko'zini undan uzib shiftga, sham terilgan chambarak tilla qandilga tikdi. “Yo tavba! Bu toj-u taxtida ne sehr, ne sir-asror bor ekan-ki, unga o'llirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi?.. Nainki shahzoda, bu taxt hattokim... Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushummaydi? Ana, go'yo bobosi Amir Temurday gerdayib o'lliribdi! Bilmaydikim... Yo'q, to'xta, Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiyisen? Bu vafosiz toj-u taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq lazzati o'zingni ham aqli hushingdan ayirnagan edimu? Shahzoda yaxshi bo'lsun, yomon bo'lsun — o'z farzanding, o'z pushtikamarining dan bo'lg'an surriyoting emasnu?.. Ot tepkisini ot ko'taradur. Uni qarg'ab, yomonlik tilagandan yaxshi so'zingni so'zlab, nasihatingni qilganing maqbil emasnu, ey osiy banda?”

Mirzo Ulug'bek ko'ngli yumshab, shahzodaga yuzlandi, dilidagi iztirob aralash g'ururni bosib:

— Shahzodai juvonbaxt! — dedi sekin. — Taxtimning valiahdi sen eding. Ollo taolo faqirni o'z rahmatiga chorlasa, bu taxtga sen o'llirar eding. Olloning inoyati bilan ko'zim tirigidä bu taxt senga nasib bo'libdi, men bunga rozimen...



Shahzoda qo'llarini oltin taxtning suyanchiqlariga tirab, sovuq kulimsiradi:

— Balli sizga, qiblagoh! Va lekin men bu taxtni sizning ixtiyorингиз bilan emas, birlamchi, haq taolonining inoyati, ikkilamehi, o'z kuch-qudratim ila qo'lga kiridim!

Mirzo Ulug'bek lablarini qattiq qintib:

“Burgut! — dedi ichida. — Qora burgut!” Uning ko'ngliga yopirilib kelgan mehr izg'irin tekkan shamday so'nib, yuragi yana muzladi.

U avvalo shahzodani o'g'lim deb, qolaversa, egilgan boshni qilich kesmas deb, hamiyatini bukib kelgan edi, bu quzg'un esa... Mirzo Ulug'bek jismini qaqshatgan alamlı tug'yonni arang bosib:

— Kuch-qudratingga inonib, — dedi. — Movarounnahr sarhadiga qadam qo'ymay qiyomat-qoyim qilasenmu?

Shahzodaning rangi o'chib, bejo ko'zlarini tungi alangaday yaltillab ketdi.

— Nechun qadam qo'ymanamen? Movarounnahr ulusi oyog'im ostidadir!

— Esingda bo'lgay, bu tuproqni oyoq osti qildim, degan ne-ne fotihlar, ne-ne jahongirlar o'tgandur. Ularning xoki qayda tirik banda bilmaydi va lekin bu el, bu tuproq abadulabed turajakdurdur!

Mirzo Abdullatifning yupqa lablariga kinoyali tabassum yugurdi... ...o'rnidan turib ketdi, lekin taxtdan tushgisi kelmay, joyiga qayta o'tirdi.

— Suhbatdan muddaongiz shu bo'lsa, men bunday nasihatlarga muhtoj emasmen! — dedi u past, lekin tahdidli ovoz bilan. — Boshqa kalomingiz bo'lsa aytинг, yo'qsa...

“Yo'q, bundan shafqat tilab bo'lmas. Bundan shafqat tilamoq, ajlahodan jon tilamoq bilan barobar!..”

— Yo'qsa...

— To'xta! — dedi Mirzo Ulug'bek uning so'zini bo'lib. — Senga aytadurg'on yolg'iz tilagim bor. So'nggi tilagimdur bu... O'z padaringni Movarounnahr sarhadidan haydamoqni niyat qilbsen... Meni bu maskandan haydagandin qatl qilganing a'lodur! Qatl!



## Savol va topshiriqlar

1. Salkam qirq yil toj egasi bo'lgani holda nafaqat baxtli bo'lmagan, balki rohat ham ko'rmagan haqida Ulug'bek armonini sharhlang.
2. Ulug'bekning o'g'li qo'lida o'lishdan emas, balki farzandining “padarkush” bo'lishidan qo'rishi aks etg'an tasvirlarga munosabat bildiring.
3. Hozirgi bolatidan ko'ra zaharlanishni afzal ko'rgan Ulug'bekning tuyg'ulari haqida mulohaza yuriting.
4. Bir umr yulduzlar bilan shug'ullanigan kishining tuyukdan ko'ringan yulduzlarni tanimasligini izohlang.

5. Mirzo Ulug'bekning ma'naviy qudrati aks etgan tasvirlarni shaxhlang.
6. Shahzoda Abdullatif chizgilari berilgan tasvirlarni o'qib, uni taysiflang.
7. Ulug'bekning o'g'li bilan bahsi tasviridan ularning shaxsiga xos belgilarni ko'rsating.
8. Ulug'bekning so'nggi so'zlarini izohlang.
9. Shahzoda fojiasining tub ildizini topishga harakat qiling.

\* \* \*

"Bog'i maydon"ni bir sayr qilib kelish niyatida chiqqan Mirzo Abdullatif, bog'ni ko'rgach, Ko'ksaroya qaylgisi kelmay qoldi.

Abu Said Mirzo qoelganidan keyin yana vasvasa bosib, uyqu ko'rmay iztirobda yurgan shahzoda go'yo ko'nglidagi barcha tashvish va g'am-anduhllardan soqit bo'lqanday yengil tortdi. Mayin qizil qum sepilgan, behad katta bog'ning eng xiyvat joylarigacha olib boradigan xiyobonlarni, hilol va yulduzlar shaklida yasalib, bo'lakelha bir mehr bilan paryarish qilingan mo'jaz gulzorlarni aylanarkau, shahzoda bolalik va o'smirlik chog'larida bu gulgun maskanda o'tgan ma'rakalar, dabbabali to'ylar, xushovoz xonandalar, tovusdek raqqosalar ishtirokida berilgan bazni jamshidlar esiga tushib, nechundir ko'ziga yosh keldi. ...Koshkiydi, o'sha beg'ubor o'spirinlik yillari bir daqiqagini qaytib kelsa?..

Shahzodaning xayolini saroybonning jur'alsiz ovozi bo'ldi: — Davlatpanoh afy elgaylor. Qaytnoq darkor. Tezda dorussaltana darvozalari berkiladur...

"Darvoza berkiladur?.. Yo'q, u Ko'ksaroya qaytmaydi. U bukun shu bog'da, shu koshonada tunaydi. Shoyad bu bog'da tunab, yuragini ezgan mudhish vasvasadan qutulsa, shoyad!..."

— Musallas bormu? — dedi shahzoda ko'zlarini yuksak tog'lardan uzmay.

— Bor, davlatpanoh..., — Saroybon oyoq uchida yurib, mehnmonxonaga kirib ketdi-da, darhol qaytib chiqdi. Shahzoda unga qaramasa ham, ko'zachadan quyilayotgan sharobning mayin qultillashini eshitdi.

— Marhamat qilgaysiz, davlatpanoh...

Shahzoda guldar xiloy kosasida qip-qizil yonib turgan quyuq mayni bir ko'tarishda sipqarib, "tag'in" deb imo qildi. Ikkinchchi qadalini ham bo'shatib, saroybonga qaytarib berarkan:

— Bukun shu joyda tunaymen, — dedi. — Bakovullar bormu?

— Xizmatingizga muntazirdur, davlatpanohim...

— Ayt, bedana kabob pishirsinlar!

— Bosh ustiga...

— To'xta! — shahzoda kulimsiraganicha saroybonning qo'lidagi guldar chinni idishni olib xontaxtaga qo'ydi. Uning dilida qandaydir yangi bir tilak, sho'xlik, safo istagi tug'ilgan edi.



— Ko'ksaroyga chopar yubor! Haram bekasiga aytsin: besh-oltita yosh kanizlar bilan xonandalarni olib, darhol yetib kelsin... Uqdingmu? — shahzoda yana kulimsirab, saroybonga ko'z qisdi:

— Bukun birga aysh qilamiz. Kanizlar orasidan ko'nglingga yoqqanini tanlab olasen!..

— Tasanno, davlatpanohim! — Saroybon kulimsirab, orqasi bilan yurib chiqiq ketdi.

Shahzoda munaqqash chinni idishdan yana bir piyola may quyib ichdi-da, xontaxtagi noz-ne'matlardan bir-ikki cho'qilab, ipak ko'rpa chaga yon-boshladi...

Shahzoda tush ko'rdi. Go'yo u Ko'ksaroyda, harumxonaga yondosh o'rdaday keng, muhtasham xonada katta bazni jamshid qurayotgan emish. Baznga barcha amirlar va nufuzli beklar, devon va saroy mahramlari, shahzodaning eng yaqin muqarrablaril yig'ilgan emish. Bakovullar oltin barkashlarda taom ustiga taom tortishar, may daryo bo'lib oqar emish. Poygakda o'tirgan mashhur sozandalar jon oluvchi dilrabo kuylar chalarmish, xonaning to'ridagi harir parda orqasida esa yarim yalang'och nozaninlar zeb-ziynatlarini yoqimli jaranglatib, noz-u karashunlar bilan ming maqonda xiromon qilarmish... To'saldan eshikda amir Sulton Jondor tarxon kirib, sajdaga bosh egarmish. Shahzoda amir Jondorni ko'rib, o'midan turib ketarmish:

— Ushlanglar bu fitnachini! — deb baqirarmish. — Bu kazzob dorussal-tanada yashirinib, bizga choh qazib yurgandur!

To'rda o'tirgan bir necha amirlar o'rinalardan sakrab turib, qilibclarini yalang'ochlar emish. Lekin amir Jondor bunga parvo qilmay, shahzodaga yuzlanib yana ta'zim qilarmish.

— Pushtipanohim! Faqir fitna-fasoddan yiroq sadoqati zohir qilingizdurmen! — dermish.

— Sodiq qulim bo'lsang qaylarda yuribsen, battol? — deb baqirar emish shahzoda.

— Sadoqati zohir qilingiz sizday valine'mat pushtipanohinga kiyik ovlab, tog'larda yurgan edim. Bukun bir kiyikning boshini keltirdim! Uni yesangiz barcha g'urbat, barcha xastalikdan forig' bo'lib, qushday yengil tortasiz, davlatpanoh! — Amir Jondor shunday deb, eshikdan kimnidir indab chaqirarmish. Xonaga dasturxon yopilgan katta oltin barkash ko'tarib, notanish bir navkar kirib kelarmish. Amir Jondor uning qo'lidan barkashni olib, shahzodaga uza-tarmish:

— Barcha dardingizga davo bo'ladur, tatib ko'ring, davlatpanoh!

Muqarrab — yaqin, do'st.

Shahzoda barkashni olib, dasturxonni ocharmish. Oltin barkashda... qonga bo'yalgan uning o'z boshi tirjayib yotarmish!.. Barkash qo'lidan tushib, qonga bo'yalgan boshi yerga yumalab kelarmish...

Shaxzoda dod solib qichqirganicha... uyg'onib ketdi. U tushidagina emas, o'ngida ham dod solib baqirib yubordi chamasi, chang va setor ovozi kelayotgan yondosh xonadan balxlik saroybon bilan yana bir mahram yugurib chiqdi. Ular chiqqanda shahzoda o'ng qo'lida yalang'och qilich, chap qo'li bilan ayvonnинг ustunini quchoqlaganicha sarmast odamiday chayqalib turar, uning bu turishi, olazarak ko'zları, butun vajohati shunday mudhish ediki, yugurib chiqqan saroybon bilan mahram yaqin kelolmай bo'sag'ada to'xtab qolishdi.

— Siz... sizga ne bo'ldi, davlatpanoh? Balxlik saroyboning tanish ovozi shahzodani xiyol hushiga keltirdi. U hozir ko'rgulari tush ekanini endigina tushumib, bo'shashib ko'zini yundi. Lekin ko'zini yumiishi bilan nigohl oldiga yana oltin barkashda tirjayib yotgan o'z boshi kelib, bir irg'ib tushdiyu, qilich yalang'ochlaganicha qarshisida turgan saroybon tomon yurdi. Saroybon bilan uning orqasiga yashirinib olgan mahram, sarosima ichida, o'zlarini chetga olishdi. Boshidagi tojdar telpagi bir tomonga og'ib ketgan, ko'zları qinidan chiqayozgan shahzoda gandiraklay-gandiraklay charog'on xonaga kirdi. Poygakda quti o'chib turgan bir necha mashshoq va xonandalar uni ko'rib, o'zlarni zinadan pastga oldilar, to'rda, ipak parda orqasida bir-birlarining pinjlariga kirib olgan kanizaklardan biri dodlab yubordi.

— Yo'qol! — baqirdi shahzoda poygakda to'xtab. — Yo'qol bu dargohdin!

Yarim yalang'och kanizlar, go'yo hurkkau kiyiklarday, bir-birlarini turtib-surishib, marmar zinalardan pastga otishdi.

Shahzoda ularning dirkillagan oppoq tanlaridan ko'zini olib qocharkan: "U yerda ham yalang'och kanizlar, bu yerda ham yalang'och kanizlar, — degan fikr xayolidan o'tdi. — Ey darig! Tushimmi bu o'ngimmi? Boshimda yana ne savdolar bor, xalloqi olam!"

Charog'on xona uni xiyol o'ziga keltirdi. U qilichini qiniga solib, xonaning o'rtasida to'xtadi. Lekin yuragi hamon gurs-gurs urar, nafasi yetmay hansirar edi... "Olloga shukurkim, tush ekan. Tush! Lekin qonga bo'yalgan o'z boshi!.. Ey, darig! Osiy bandang boshiga tag'in ne savdolar solasen? Taqdir neni ravo ko'radur?"

"Taqdir" so'zi shahzodaga negadir mavlono Ali Qushchini eslatdi.

"Filhaqiqat, ul jomiul ulum<sup>1</sup> zojicha ko'rib, shahzodaning taqdirini so'zlab bermog'i lozim edi!" — Shahzoda ko'zları bejo yonib, eshikda qotib turgan zanjisifal saroybonga qaradi.

<sup>1</sup> Jomiul ulum — barcha ilmlar egasi.



— Darhol Ko'ksaroyga chopar yo'lla! Mavlono Ali Qushehini olib qaytsin!

— Davlatpanoh! — Ayvon eshigida turgau saroybon jur'atsizgina odimlab, ichkariga kirdi. — Tun yarmidan oshimish. Dorussaltana darvozalari yopilgandur!

Shahzoda qaltiliq bosib, unga tomon yurdi.

— Choparning ilkiga yorliq bitib, muhr bosib ber! Yoxud o'zing birga bor! Bas! Mavlononi yer ostidan bo'lsa-da, darhol topib kelasen. Uqdingmu?

Saroybon jingana bosh egganicha pastga tushib ketdi.

Shahzoda nigohi oldidagi sovuq manzarani quvish umidida ko'k charm jildiga zarhal bezak solingen qatlin kitobni oldi: Nizomiy Ganjaviy!..

Shahzoda yoshligida, madrasada ta'lrim olib yurgan chog'lurida Nizomiyning misiqaday tiniq she'larini, purhikmat rivoyatlari va dostonlarini ko'p mutolaa qilgan edi. Shu sababdanmi, shaxzodaning dilida umidga o'xshash qandaydir bir narsa "milt" etdi. Go'yo xayolini chulg'ab olgan mudhish jumboqqa Nizomiy Ganjaviydan javob topadiganday shosha-pisha kitobni oshib, birinchi misralariga ko'z yogurtirdi, yogurtirdi-yu, xuddi boshiga og'ir gurzi tushganday chayqalib ketdi. Ko'z oldi qorong'lashib, ko'k charm jildlik og'ir kitob, xuddi tushida ko'rgan oltin barkashday, qo'lidan sirpanib tushib, yirtiq varaqlari gilamga sochilib ketdi...

Yorab! Hozir kitobni ochganda daf'atan ko'zi tushgan ilk misralar... tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi... Shahzoda yuragini changallaganicha ko'zini yundi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko'z oldidan ketmay, olovday lovillab turardi. Shahzoda ditiga dahsat solgan bu ikki baytni oxirigacha o'qidimi, yo'qmi, o'zi ham bilmas edi. Lekin undagi "Padarkush, toj-u taxt, olti oy..." degan so'zlar xuddi qizdirilgan temir bilan o'yib yozilganday miyasini jaz-jaz kuydirib, nigohi oldida yal-yal yonib turardi. "Padarkush... toj-u taxt... olti oydan oshmaydur..."



### *Savol va topshiriqlar*

1. Abdullatifning ko'ngliga ozgu tuyg'ular solgan vaziyat tasvirini izohlang.
2. "Oltin barkashda... qonga bo'yalgan uning o'z boshi tirjayib yotarmish!.. Barkash qo'lidan tushib, qonga bo'yalgan boshi yerga yumalab ketarmish..." tasvirining tasirini aytинг.
3. Abdullatif ruhiyatidagi tiyiqsiz o'zgarishlarga tuyanib, inson tuyg'ularining omonatligi lo'g'risida lo'xtaling.
4. Yozuvchining xolis tasvirlash mahorati haqida o'ylang. U biror o'rinda biror timsolini o'zi tavsiflamay, buni Sizga qo'yanligi sababini anglatling.

## *Nazariy ma'lumot*


### **BADIY ADABIYOTDA RUHIYAT TAHLLILI**

Ma'lumki, ruh o'ta murakkab tushuncha. Uni sezgi muchalarinting birortasi bilan his qilish mumkin emas. Ruhiyatga daxldor narsalarni ko'ngil bilan tuyish mumkin xolos. Demak, ruh odamning ko'ngliga tegishli narsa ekan. Inson aqli rulni to'la tushunishga ojizlik qiladi. Quroni Karimda ham ruhning izohini odam tushunolmasligi tu'kidlangan. Lekin har bir odam o'zida aqldan tashqari yana qandaydir bir qudrat ham borligini biladi. Shuning uchun ba'zan odam aqliga ma'qul kelmasa-da, ko'ngliga o'tirishgan ishni qilgisi keladi. Ayni shu holat badiiy asarlarining qahramonlarida ham o'z aksini topishi kerak. Ya'nii adabiy qahramonlarning xatti-harukatlarigina emas, balki ko'ngil kechimmalari ham ularning tabiatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Qachondir qilingan ish, aytigan fikr, so'zlangan so'z eskirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskiruwydi. Shuning uchun ham badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e'tibor qaratiliedi. Siz badiiy asarlarda inson ruhiyatining tushuntirib berish qiyin bo'lgan jihatlari tasviriga ko'p marta duch kelgansiz. Chunonehi, raqibini yiqitilmagan Alpomishga qarata Oybarchin tomonidan aytigelan: "*Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi*" so'zlar yigit ruhiyatini oslim-ustun qilib yuborgani va shu vaqlgacha eplolmagan dushmanini ko'kka olgani sizga ma'lum. Yoki bitrovga qo'pol gapirishni bilmaydigan Otabekning uch yovuz dushmaniga qarshi yolg'iz jangga kirishi ham uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlarga mos.

Siz hozirgina tanishgan "Ulug'bek xazinasi" romanidagi har bir personajning qilgan ishi, aytgan gapi uning ruhiy holatiga mos keladi. Qanchalar yovuz va shuhratparast bo'lmasin, otasiga tig' ko'tarish Abdullatif uchun ham oson kechmaydi. Asarda o'g'liga qarshi kurashishi lozim otaming ham, ota halokatiga sabab bo'lgan bolanining ham ruhiyati juda ta'sirli va ishonarli ko'rsatilgan. Yozuvchi o'tmishda nima bo'lganini aytibgina qo'ymaydi, balki otmishdagи yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr ko'rganlar qanday sezimlarni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli ko'rsatib beradi. Ayni shu holat bu romanning ta'sirchanligini ta'minlagan. Negaki, gap voqeada emas. Sababi, bo'lar ish bo'lgan, voqealar eskirgan, lekin qahramonlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlardagi kishilarga ta'sir qilaveradi.

Badiiy ijodda ruhiy tahvilning o'rni katta. U yoki bu badiiy asar insonning ruhiyatini qanchalik teran va ishonarli aks ettirishiga qarab baholanadi.



## ABDULLA ORIPOV (1941)

**Hayoti va ijodi.** Abdulla Ori波ov 1941- yilning 21- martida, ya'ni Yilboshi bayrami kuni Qashqадарёйи viloyati Koson tumaniдagi Neko'z qishlog'ida tug'ildi. Qishloq Qo'ng'irtov etagiga оrnashgan bo'lib, oqar suv taqchil bo'lса-da, seryomg'ir kelgan yillarda ko'kal-u maysularga ko'milib qoladigan kengish joy edi. Bu haqda shoirning o'zi: *"Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerlarga yog'in ko'p tushar, Qo'ng'irtov etaklari ming xil o't-o'lan, chuchmoma-yu qizg'aldoqlar bilan, quyonto'pig'-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo'zigullar bilan qoplanar, atrof-tevarak jannatiy bir manzara kash etardi. Sel suvlari to'planib qolgan kichik-kichik ko'llarni "qoq" deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-bagra chuchmomay-u ismaloq, zamburug' terib, Qo'ng'irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi".* — deb yozadi.

Ana shunday go'zal maskanda tug'ilib o'sgan bo'lajak shoirning otasi Orisboy Ubaydulla o'g'li ishbilarmon dehqonlardan bo'lib, jamoa xo'jaligi raisi edi. Onasi Turdixon momo ko'pchilik o'zbek ayollari singari sarishta, mehnatkash, mehribon, g'oyalat ta'sirchan va eзgulikka tashna ayol bo'lgan. Oilada to'rt o'g'il, to'rt qiz bo'lib, Abdulla o'g'illarning kenjasи edi.

Bolaligi qishloqdagи boshqa tengloshlariniki qatori o'tdi: qo'y boqdi, suv tashidi, piehan o'rdi, yantoq chopdi, somon to'pladi. Ayni vaqtда, u boshqacharoq ham edi: qandaydir xayolechan, serta'sir, o'ychil, kitobga haddan tashqari ko'ngil qo'yan. Abdulla hali maktabga bormay turib, qandaydir so'zlarni bir-biriga uyqash qilib aytib yurishni xush ko'rар, so'zning mazmunidan ham ko'ra ohangi uni rom etardi. Buni shoir keyinchalik shunday eslaydi: "...birinchi she'rlar yoza boshlaganimga nima turki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofsiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q".

Abdulla o‘z qishlog‘idagi yetti yillik maktabda o‘qiy boshladi.

1958- yilda qo‘sini Tayzan ovulidagi o‘rtा maktabni oltin medal bilan bitirgan yigit Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) “O‘zbek filologiyasi” fakulteti jurnalistikа bo‘limiga o‘qishga kirib, uni 1963- yilda imtiyozli diplom bilan bitirdi. A. Oripov oliy maktabni tugatgach, Toshkentdagи sobiq “Yosh gvardiya” nashriyotiga muharrir bo‘lib ishga kirndi. Bu yerda to‘rt yil ishlaga ch, 1967—1974- yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda muharrir, katta muharrir bo‘lib xizmat qiladi. 1974—1976- yillarda “Sharq yulduzi” jurnalida bo‘lim boshlig‘i bo‘ladi.

Olovli she’riyati bilan muxlislarining mehrini qozongan shoir 1976—1982-yillar orasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi sifatida adabiyotga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorlarga rahnamolik qildi. 1982—1983- yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo‘limida mas‘ul kotib bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi. 1983- yilda shoir o‘quvchilarning jurnali “Gulxan”ning bosh muharriri bo‘ldi va u yerda 1985- yilgacha, ya’ni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi lavozimiga o‘tguncha ishladi. Uyushmaning kotibi sifatida uch yil ishlagan A. Oripov 1988- yilda O‘zbekiston Respublikasi mualliflik huquqini himoya qilish qo‘mitasi raisi vazifasiga o‘tkazildi. 1996- yilning mart oyidan 2009 yilga qadar shoir O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida mehnat qildi.

Abdulla Oripov 1983- yilda Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Shu yili unga “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi. 1994- yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga loyiq ko‘rildi. 1998- yilda esa shoir “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. A.Oripov O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasiining muallifidir.

Birinchi marta respublika matbuotida “Qusheha” deb atalgan she’ri chiqqan paytda A. Oripov talaba edi. Shoirning birinchi she’rlar to‘plami “Mitti yulduz” esa 1965- yilda chop etilgan. Undan keyin “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O‘zbekiston”, “Qasida” (1972), “Xotirol” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Jannatga yo‘l” (1978), “Hayrat” (1979), “Hakim va ajal” (1980), “Najot qal‘asi” (1981), “Yillar armoni” (1983), “Haj daftari” (1992), “Saylanma” (1996), “Sohibqiron” (1996), to‘rt tonlik “Tanlangan asarlar” (2000—2001) singari qator kitoblari bosilib chiqdi.

A. Oripov xalqimizni dunyo adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish borasida ham talya ishlarni amalga oshirgan. Dantening “Hohiy komediya” asarini, L. Ukrainka, T. Shevchenko, N. Nekrasov, Q. Quliev, R. Hamzatov singari shoirlarning she’rlarini mahorat bilan o‘zbekchaga o‘girgan.

## SHE'RLAR

\* \* \*

Bahor kunlarida kuzning havosi.  
Tanianni junjitar oqshomgi shamol.  
Nega muncha g'amgin nayning navosi.  
Nega qalbim to'la o'kinch va malol?

Barglar orasiga timmasdan sira  
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.  
Bilmayman, qiy Naydi qaysi xotira,  
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.

Mag'lub bahodirning nayzasi misol  
Ma'yus egiladi terak uchlari,  
Barglar soyasida o'ynaydi behol  
Uyqudag'i qizning bedor tushlari.

Atrofimda yotar g'arib bir viqor,  
Bilmayman, nega o'chdi qalbim safosi.  
Nina ham qillardim, na ilojim bor.  
Bahor kunlarida kuzning havosi.



### Savol va topshiriqlar

1. Bahor kunlarini kuzning havosiday his etayolgan shoir kayfiyatini izohlang.
2. Shoirning: "*Titroq yulduz kabi muzlagan shuur*" shaklida ifodalangan iztirobin tushunishga urining.
3. "*Atrofimda yotar g'arib bir viqor*" satrini izohlang.
4. To'rtinchchi bandda ifoda etilgan sezimlarga to'xtaling.

## KUZ MANZARALARI

Yana dalalarga boshlaydi havas,  
Bog'larda xazonlar yonadi lov-lov.  
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,  
Mening yuragimdan to'kilgan olov.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,  
Poyida shivirlar mening kuylarim.  
Do'stlarim, bular hain mezonmas sira,  
Bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.

Quyosh ham falakda bamishi ro'yo.  
U endi yondirmas, yaltirar saqat.  
Do'stlar, u ham endi quyoshmas aslo.  
U olis yoshlilikda qolgan muhabbat.

1967- y.

### Savol va topshiriqlar

1. Kuzgi yaproqlar bilan shoir qalbidan to'kilgari olov o'rjasida qanday bog'liqlik bor deb o'ylaysiz?
2. "Shoxlarda mezonlar yaltirar xira, Poyida shivirlar mening kuylarim" satrlari ma'ninosini sharhlang. Shoxlar poyidagi kuy nima?
3. Shoirning mezonlar haqida: "Bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim", — deyishining hayotiy va badiiy asosini toping.
4. She'rnini yod oling.

## GENETIKA

Men ham yashayapman o'z zamонимда,  
Davrindan qayga ham tushardim yiroq.  
Va lekin bilmadim, mening qонимда  
Qaysi bir bobomning xislati ko'proq.

Barchaga barobar meros bu bashar,  
Otadan qosh-ko'zni olgan o'g'ildek.  
Bilmadim, qонимда qay ajdod yashar,  
Balki Bobo Kayfiy, balki Ulug'bek.

Tunlar qulog'imga chalinar elas,  
Tulporlar kishnashi, ottar gurrosi.  
Balki Muqanna bu — tinib-tinchimas,  
Balki Panipatda Bobur urhosи.

Balki tanglayimni ko'tarib kettan,  
Darbadar bir oshiq va yo sарbador.  
Balki biror boboni shahanshoh o'tgan,  
Balki vujudimda darvish qoni bor.

Men yuxshi anglayman, moziy ne demak.  
Tarixda har kimning bor o'z zamoni.  
Lekin tanimizda kezar-ku beshak  
Olis bobolarning ming yillik qoni.

...Ohu bolasi bu — ohuday boqqan,  
Shervachchada esa sherning shiddati.  
Avlodlar qonida ming yillab oqqan  
Buyuk bobolarning turfa xislati.

Singdi ruhimizga, mangu barhayot  
Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti.  
Singdi ruhimizga g'olib hissiyot —  
Jasur bobolarning tengsiz saboti.

Singdi qonimizga shu otash dunyo.  
Singdi qonimizga muhabbat, g'azab.  
Yiroq avlodlarga bizlardan, ammo  
Qay bir xislatimiz qolarkan, ajab?

Nima qolar ekan? Qay egzu tilak,  
Qay his, yuraklarda topolgan kamol?  
Yiroq avlodlarga bizlardan beshak  
Qolar kurashlarda toblangan xayol.

Shu yovqur asrda yashadik ro'y-rost,  
Ranj-u balolardan hayiqmay taqir.  
Viroq avlodlarga bizlardan meros.  
Buyuk bardoshimiz qolgusi axir.

Yashadik shu rangin dunyoda mas'ul,  
To ellar ko'z yoshi bo'lmasin chashma.  
O'zni bag'ishladik kurashga butkul.  
Demakki, yashadik oromga tashma.

Tashna yashadik biz mehrga mutloq,  
Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz.  
Goh esa quyosidek porloq va yiroq  
Haqqqa, haqiqatga tashna o'tdik biz.

Tashna yashadik biz nurga, ziyoga,  
Qayon ketmoqdasan, ey uchqur zanon?!  
Oqibat bel bog'lab keldi dunyoga  
Bizning asrimizda vallomat inson.

To'fon, qasirg'alar kechar-ku hali,  
Kechadi avlodlar qator, galma-gal.  
Balki oro topib bashar sayqali,  
Tug'ilalar eng oliv inson, mukammal.

U o'zin tanigay shunda daf'atan,  
To'fon, qasirg'alar bosiriq bir tush!  
Shu buyuk sayyora — yagona Vatan.  
Inson o'z baxtidan o'zi ham sarxush.

Munis nigohini qadab quyoshga  
Turar u nurday pok, ishqday bezavol.  
Kechmish kamolotin ko'tarib boshga.  
Yiroq asrlarga ko'z tikib xushhol.

Turar u go'dakday beg'ubor kulib,  
Balki kulgusi ham bizdan meros bu.  
Rishtai jonida bir zarra bo'lib,  
Bizning ham qonimiz gupurgay, rost bu.

Bobolar dunyodan o'ldilar shundoq,  
Biz ham yetuklikka bo'lmadik timsol.  
Lekin sen bo'larsan bokira mutloq,  
Lekin sen yasharsan farishta misol.

Qahkashon<sup>1</sup> sayrida hur quyoshi bilan  
Kezarsan to'abad shodumon, xurram.  
Labda labassum-u ko'zda yosh bilan  
Senga talpinaman, buyuk nabiram...

1973- y.



## Savol va topshiriqlar

1. She'rnинг биринчи бандида ifoda etilgун shoир tuyg'ularini anglashga urining. Sizda ham ba'zan shunday o'ylar paydo bo'ladimi?
2. Shoирning bobolarga daxldorlik borasiдagi qarashlari aks etgan bandlarni sinchiklab o'qing, ularni izohlashga urining.
3. She'rnинг avlodlar orasıдagi davomiylik aks etgan bandlarini sharhlang.
4. "Ohu bolasi bu — ohuday boggan, Shervachchada esa sherning shiddati" satrlari ma'nosi chuqurligi va ifoda tarzining go'zalligini izohlang.

<sup>1</sup> Qahkashon — galaktika, falak.

5. She'rdagi bobolardan bizga nimalar qolgani haqidagi o'yillardan bolalarga bizdan nimalar qolajagi to'g'risidagi xayollarga o'tish izchilligiga e'ttibor qiling.
6. Kelajak avlodga "Buyuk bardoshimiz qolgusi". — degan bashoratga munosabat bildiring.
7. Tug'ilajak avlodning "mukammal", "nurday pok, ishqday bezavol" bo'lajagi horasidagi orzuni sharhlang.

## ABDULLA ORIPOV SHE'RİYATI TO'G'RISIDA

A. Oripov lirikasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining suvratlari, ruhiy ichtiroblar manzarasi, armonga aylangan orzular inson sezinularida qoldigan iz tasviri kirtib keldi. Bu she'riyat yuzaga kelgan davrda shaldiroq so'zlarni qofiyaga solish, baxtiyorlik haqida ko'tarinki satrlar tizish odat edi. Mavzuni she'r emas, balki she'rni mavzu nuukarram qiladi deb hisoblanar, shuning uchun she'rning qanday yozilishidan ko'ra, uning nima haqda ekanligi muhimroq sanalardi. Abdulla Oripov tuyg'ulari o'zbek she'riyatiga o'yinchil g'am va g'aninchil o'y olib kirdi. Shoир alohida bir odam va uning dardlari haqida o'ya boldi, qalam surdi. Bu odam shoирning o'zi edi. Binobarin, bir odam to'g'risida hayqirish noqulay bo'lardi, u haqda pichirlab she'r o'qish lozim edi. Chunki shovqin, baland tovush odamni o'zga odamlardan yiroqlashtiradi, samimiyligidan mahrum etadi.

O'lgan asrning 60—70- yillarda Abdulla Oripov she'riyati o'zbek millatining sof tuyg'ularini saqlab qoldi. Shuning uchun ham shoирni o'zbek she'riyatida o'z davrini u yaratdi, devish mumkin. Chunki chinakam iste'dodgina davrning to'siqlari, cheklovlarini yengib o'ta oladi. Har qanday zamon va har qanday sharoitda ham asl iste'dod davridan marhamat kutmaydi, balki unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Abdulla Oripov she'rlaridagi beedad saininiyat, tuyg'ular chintligi kishini beixtiyor o'ziga asir qiladi. Shoир she'rlari kayfiyat va hissiyotning yaxlit obrazlari. U inson tuyg'ularini, hissiyotini shu qadar chuqur bilgani va ifoda eta olganidan ayrim misralarining o'ziyoq she'rxonda muayyan kayfiyat hosil qiladi. Masalan, shoир odamlarning zilzila paytidagi ruhiy holatini: "*Asablar tuproqqa cho'kkан edi tiz*" tarzida beradi. O'zining pokizə yoshlik davrini esa "*Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun Turnalar tovushin tinglardim faqat*". — deya ifodalaydi. O'zbek xalqining yig'ma obrazi: "*Sonsiz egatlarga sochilmish, ana, Mening orzularim, mening o'ylarim*" tarzida umumlashtiriladi. Shoирning: "*qaro sochlaringda oppoq alanga*" degan tashbihni aniqligi bilan ham, ta'sirchanligi bilan ham ko'ngilni rom etadi. Uning she'riyatida vatan timsolining chizilganiga e'tibor qiling: "*Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida, Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar, Quyoshning erinchak yog'dularida, Nafis yaltiraydi bargi xazonlar*".

Abdulla Oripov she'riyatini millat ruhining timsoliga aylantirgan sifatlardan

yana biri undagi obrazlarning terau xalqchil tomirlurga egaligida. Eng murakkab holatlarni ham g'oyat ulkan nazokat va yuksak madaniyat bilan ta'sirli qilib o'zbekcha ifodalay bilish shoir she'rlarining qimmatini oshiradi. Shoir deyarli hamisha she'riy ifodaning aniq va tuyg'ularga ta'sir ko'rsata oladigan bo'lisligha erishadi. Uning: “*Oyoqlangan qo'ziday dovdirar yelda maysa, Ko'm-ko'k moviy osmonda kezib yurar oq bulut*” kabi satrlarida qo'llanilgan tashbihlar hayotiy asosi chuqur hamda hissiy qudrati tengsizligi bilan kishini hayratga soladi. Yelda silkinayotgan ko'klam ko'katining dovdirab, yiqilib-surinib endigina oyoqqa turayotgan qo'zichoqqa o'xshatilishi shoirning xalq turmushini bilibgina qolmay, uni ichdan tuyishini ham ko'rsatadi. Shu joyning o'zida ko'klam osmonini ham esda qoladigan qilib suratlantira olish uchun ulkan iste'dod talab etiladi. A. Oripov ko'z oldiga keltirish mushkul, ifodalash undan-da og'ir bo'lgan sezimlarni, mavhum tuyg'ularni tuyimli qilib chizish borasida tengsiz mahoratga egadir: “*Yorilmagan yaraday sevgi!*” — deydi u. O'ta mavhum tuyg'uni bundan ortiq aniq tasvirlashi mumkin emas.

A. Oripovning san'atkorigi shundaki, u hodisalarning boshqalar ko'rmaqan yoki ko'rgan bo'lsa-da, payqamagan jihatlarini o'ziga xos tarzda aks ettira ola-di. Shoirning iste'dodi nazarining o'tkirligi, tuyg'ularining nozikligi, hissiyotining teranligida ko'rinadi. Ko'klamida o'rik g'o'ralarini hamma ko'rgan, ammo faqat chin shoirgina unda hayotni davom ettirish nishonasi borligini ko'ra biladi: “*Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu, Zardoli shoxiga tashlar ko'z qirin*”. Sal e'tibor qilgan o'quveli yoshi kelinchaklarning ko'pinchasi o'rik dovuchehasiga boshqorong'i bo'lislini esiga tushiradi. Har qanday hayotiy lavhada chin saui alga xos belgini ko'ra olish asl shoirlikning belgisidir.

Shoirning mahorati shundaki, u ko'pincha aytib o'tirmay, ishora qilish bilan ko'rsatadi. Tasvirning bunday usuli sizni fikrashiga, she'rnинг zamiridagi chiroyli ma'nolarni mustaqil kashf etishga undaydi. Ma'lumki, g'am haqida ko'p she'rlar yozilgan. Lekin g'amni kishining ko'z oldiga yaqqol keltirib qo'yish hamma shoirga ham nasib etavermagan. Quvonch to'g'risida ham kam yozishunagan, biroq uni tuyimli qilish oz kishiga nasib etgan. Abdulla Oripov: “*Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am, Toshqintar kiradi qalbimga manim*” satrlarida og'irdan-og'ir ana shu ikki ishlmi birvarakayiga uddalagan. G'amni ko'z oldiga keltirib bo'lmaydi dedik, lekin qizg'aldoqning harir gulbargini har birimiz bilamiz. Uni yengil bir harakat uchirib yuborishi mumkin. Shoir qalbidan “qizg'aldoq bargidek uch”gan g'am o'rniqa toshqin kirmoqda. Toshqin nimaligini ham barcha biladi. She'riy misrlarda quvonch tilga ham olingani yo'q, lekin insonga ulkan shodlik yor bo'lqanda ko'ngliga toshqin kirishi sezimli. Chinakam san'atkorgina buni boshqalar ham his qiladigan tarzda bera oladi. Shoirning she'rlari kishining rulhiyatini poklaydi, tuyg'ularini baland qiladi va ma'naviy jihatdan yuksalishiga sabub bo'ladi.

## Nazariy ma'lumot

### LIRIK QAHRAMON

Lirik asarda tuyg' u va o'ylari tasvirlangan shaxs obrazi lirik qahramondir. U, ko'pincha, shoirning o'zini anglatadi. Chunki lirik asarda ishtirok etadigan asosiy timsol shoirning o'zi bo'lib, she'rda uning o'ylari, sezimlari, tuyg'ulari, kayfiyatni namoyon bo'ladi. To'g'ri, lirik asarlarda ba'zan shoirdan boshqa qahramonlар ham ishtirok etadi.

Jumladan, Abdulla Oripovning "Bahor" nomli she'ridan olingan: "*Ravon yo'llar qarshingizda turibdi mushtoq*". — *Derti bizga harf o'rgatgan yosh bir muallim*" misralaridagi muallim timsoli fikrimizga dalildir. Lekin lirik asarlarda shoirdan o'ziga personajlarning o'y-xayol va kechinmalarini batatsil tasvirlash imkoniy yo'qligi uchun ham lirikadagi "raqib", "rind", "soqiy", "ag'yor" va yana boshqa timsollar lirik qahramon darajasiga ko'tarila olmaydi.

Chinakam lirik asarning qahramoni o'ziga xos tabiat, fe'l, kayfiyat, taqdir egasi sifatida namoyon bo'lishi, uning sezim va kechinmulari she'rxonni loqayd qoldirmasligi kerak. Lirik qahramonining quyonchi, g'umi, iztirob-u o'ylari o'zgalarga ta'sir ko'rsata olsagina, u badiiy qiymalga ega bo'ladi. Lirik qahramoni befarrq qoldirgani she'r o'quvehining ongiga ham, tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu jihatdan qaratadigan bo'lsa, Abdulla Oripovning siz tanishib chiqqan barcha she'rlaridagi lirik qahramonning tuyg'ulari kishiga kuehlis ta'sir qilganini ko'rish mumkin. Shoir she'rlarida o'z shaxsiyatining turli qirralarini namoyon etadi. Ularda aks etgan kechinma va sezimlar chin, ifoda go'zal, badiiy til jozibali bo'lgani uchun lirik qahramon o'quvehini o'ziga tuyg'udosh qilib qo'yadi. Shundan kelib chiqib, kechinma va o'ylari lirik asarda ifoda etilgan va she'rxonni o'ziga tuyg'udosh qila oladigan shaxs timsolini lirik qahramon deyish mumkin.

Lirik qahramon ko'ngil holatini ifodalagani, bevosita "men" nomidan so'zlashgani, o'zining eng iehkin, muqaddas tuyg'ularini she'rxon bilan o'rtoqlashgani uchun o'quvehiga yaqn va tuyg'udosh bo'lib qoladi.

Adabiyotshunoslikda lirik qahramon tushunchasi 1921-yilda rus olimi Y. N. Tinyanov tomonidan kiritilgan. Shoir shaxsi qanchalik yirik, serqirra, uning tuyg'ulari qanchalar samimiyl bo'lsa, lirik qahramon tasviri ham shunchalik joni va serjilo bo'ladi. Shuning uchun ham Abdulla Oripov she'rlarining lirik qahramoni kishi ko'nglini butunlay zabit etadi, o'z holati samimiyl va chinligiga o'quvhini to'la ishontiradi.

## SOHIBQIRON

(dramatik doston)

### II SAHNA

*Ulug' Amir Temur tengsiz kurashlar, o'tkir aql va tadbirkorlik bilan tiklagan saltanatni adolat bilan boshqarish hamda imkon boricha ezgu ishlar qilishga hamisha intiladi.*

**Temur.**

...Bolalarim, unutmangki, davlat ishidá  
Har qanday yumushning ham o'z o'rni bordir.  
Minglab xufya xizmat qilar bizga, masalan,  
Anuno ular tanishunagay bir-birlarini.  
Xabarlarni shoshilmasdan tinglab, o'rganib,  
Barchasidan chiqargaymiz zarur xulosa.  
Yurish qilish lozim bo'lsa yiroq ellarga  
Tadorigin ko'rmoq kerak uch to'rt yil avval.  
Siz, chunonchi, sarhadlarda yaylov tayyorlang.  
Yilqilarni ko'paytiring o'sha joylarda.  
Toki sizning horg'in otlar yetib borgan payt  
Tulpor bo'lib, kishnab tursin minglab toychoqlar.  
Yov qo'shinin tahlikaga solnoqlik uchun  
Tunda uning atrofida gulxunlar yoqing.  
Necha yuzlab miltillagan cho'g'larni ko'rgach.  
Yog'iy sizning lashkarlarni ko'p deb o'ylagay.  
Shabxon deya ataladi tungi bujumlar.  
To'rtta otning biqiniga shox-shabbalardan  
Oddiygina supurgini bog'lab qo'ysangiz —  
Chunon to'zon ko'lariqay, deysiz qiyomat!  
O'rui kelsa to'rt suvoriy to'rt ming olliqning  
Vahimasin yaratadi qiyqiriq bilan.  
Bayrog'ingiz egilmasın maydonda sira,  
Jangda yolg'iz qolsangiz ham bayroq tik bo'lsin.  
Hujum qilish arafasi: "Allahu akbar!" - deb  
Nido aylang. Parvardigor kuch ato elgay.  
"Suring!" — degan na'ra esa bosqinga da'vat,  
Bizning oddiy: "Ur-ho-ur" dan yov juda qo'rqrar.  
Endi jahon yaxshi bilar qudratimizni,  
Pinhon joyi qolmagandir hiylalarning ham,



Biroq Temur firiblarin adog'i yo'qdir!  
Endi ruxsat, mashvaratning mehnonorlari...

*Bir qism ishtirokchilar chiqib ketadilar.*

Eshikbon.  
Temur.  
Olampanoh, kutib turar ikkita chopar.  
Kirsin ular!

*Ikkita chopar oldinma-keyin kira dilar.*

**Ikkinci chopar.** A'lloha zrat, men Rumodan yetib kelmishman,  
Qaysarimiz Boyazidning elchisidurman.  
Sulton Shabli erur mening ismi sharifum.  
**Temur.** Ko'pdan seni kutmoqdaman, xabar ber, elehi.  
O'z-o'ziga qanday hukm chiqarmish Sulton?

*Chopar maktubni uzatadi. Temur uni o'qiy boshlaydi.*

"Urush bilan hal bo'lajak bu mojarolar".  
"Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur,  
Bilib qo'yki, xotinlar ing uch taloq bo'lgay.  
Agar seni yenga olmay chekinsam ortga  
Unda mening xotinlarim bo'lsin uch taloq".  
O'h, Boyazid, maqsadningni aytibsan, ammu  
Shart edimi xotinlarni qimorga tikkmoq.  
O'z ismini yozmishi Sulton oltin hal bilan,  
Bizning ism quyiroqda, oddiy siyohda...  
Tag'in Sulton emish bu zot. Bachkana qiliq.  
Amir Temur irodamiz, farmon shul erur:  
Rum Sultoni chorlabdими jang maydoniga  
Borajakmiz! Bu shumoyoq choparni esa  
Eson-onon kuzatingiz kelgan yo'liga.

*Barchangizga ruxsat. Meni yolg'iz qoldiring.*

*Hamma chiqib ketadi. Temur orqadagi parda tarafga qarab...*  
Buqalamun, sen qaydasan, bu yoqqa kel-chi.

*Parda ortidan ... Buqalamun — Temurning xufyasi chiqib keladi.*

**Buqalamun.** Olampanoh, hozir bo'ldim, ne buyurgaysiz?  
**Temur.** Yana yummush topshiranman senga ishonib,  
Zero, har ne mushkulni ham epi lab kelgansan.  
Xufyalarim orasida epchili o'zing,  
Xohlasang gar o'zgaradi butkul qiyofang.  
O'zgaradi va hattoki ko'zingning rangi,  
Sen bilmagan til ham yo'qdir yetti iqlimda.  
**Buqalamun.** Olampanoh, shu sababdan laqabimni ham



- Juda topib qo'ygandingiz, Buqalamun deb.  
Asl ismim bir zamonalr Itolmas bo'lgan.
- Temur.** Endi mag'rib kishisiga aylangaydirlsan.  
Mutakabbir va hiylakor farangiyarlari  
O'rgangaysan, og'izlarin hidlab ko'rgaysan.  
Shohlarining maqsadlarin obdan anglagach.  
Elehilarin chodiringa boshlab kelgaysan.
- Buqalamun.** Samarcandga, shu yergami?
- Temur.** Yo'q, Buqalamun! Nasib etsa Angoraning atroflarida,  
Olis Rumo mamlakatin qoq yurugida  
Tug' ko'tarib, g'olibona chodir tikkayman.
- Buqalamun.** Olampanoh, shu daqiqa, shu soniyadan  
Meni farang deb hisoblang!
- Temur.** Javobing tuzuk.
- Buqalamun g'oyib bo'ladi. Temur eshikbonni qars urib chorlaydi.*  
Taklit eting malikani — Bibixonimmi.  
Bibixonim! Agarda u bo'lmasa edi  
Kurashlarning va janglarning dolg'alarida,  
Qayroq toshga aylanardi balki bu yurak...  
*Bibixonim kiradi.*
- Bibixonim.** Chorlamishsiz, olampanoh...
- Temur.** Bibixon, bibi...
- Bibixonim.** Kengash bilan band bo'libman...
- Temur.** Olampanoh, yana yurish, yana safarmi?  
Hisoblashmas qismat bizning istaklar bilan,  
Bamisol quyosh botgach, oy chiqqantidek,  
Hodisalar silsilasi oqar bardavon...  
Turkiylardan cho'chib farang mamlakatlari  
Rumo bilan ikkimizni gijgijlab qo'ydi.  
Bu nayrangni tushunmaydi, afsus, Boyazid,  
Boz ustiga kimki qochsa bizning g'azabdan,  
Boyazidning saroyidan topmoqda panoh.
- Bibixonim.** Uning asl maqsadi ne? Murodi nina?
- Temur.** Sulton bizning sultanalga bepisand boqib,  
Hasadini bildirmoqda yosh bola kabi.  
Endi jangga chorlabdi u oshkorra, ochiq.  
Men — Temurman! Oriyat ham bor-ku dunyoda.  
Yelar, endi! Kuno'g'longa egar urgayman,  
Rum tarafsga yuzlanadi tulporim jadal.



**Bibixonim.** ...Sizga zafar tilamoqdan boshqa choram yuq.  
Balki men ham yoningizda bo'lay, amiriim.

**Temur.** Yo'q, azizam, Samarqandning sultanatida  
O'zingizu nabiramiz Muhammad Sulton  
Hukmsfarno bo'lib turing. Yunnishlar talay.  
Qurilishlar, bog'i rog'lar, bola-baqralar...

*Parda*

### III SAHNA

*Angora yaqinidagi tepalikda Temur chodiri. Tashqaridan g'ovur-g'uvur, oilar kishnashi, fillar na'rsi eshitilib turadi. Chodir ichida taxtida Amir Temur. Uning atrofida shahzodalar, amirlar, lashkarboshilar.*

**Shayxulislom.** Olampanoh, izn bering.

**Temur.** Gapiring, hazrat.

**Shayxulislom.** Kechta tunda munajjimlar — axtarshunoslar  
Yulduzlarning holatiga obdan boqishib,  
Xosiyatlari topishibdi bugungi kunni.

**Temur.** Qutlug' ta'bir. Ammo bugun Boyazid bilan  
Amir Temur jangga kirar. Munajjimlarmas.  
Shayxulislom, bilib qo'ying hasratimni Siz,

U ham muslim, men ham muslim. Bu ne ko'rgulik?  
...U ham turkiy, men ham turkiy. Bu ne gustohlik?

Samarqanddan yetib kelgan mening lashkarim  
Ol suradi akasi yo ukasi tomon.

Yuragimni o'rtar bu hol, lekin majburman.

Har qandayin mulhoraba oldidan doim  
Allohimdan maddad so'rab, yolboraman men.

Shayxulislom, zafar tilab tilovat qiling.

*(Shayxulislom tilovat qila boshlaydi. Shahzodalar, amirlarga)*

Shunqorlarim, ulug' jangga kirayotirsiz.

O'ng qanolni topshirgayman senga, Mironshoh,

So'l qanotni boshqarasan Shohruh Mirzo, Sen!

...Obong'orni faqat o'zim nazorat qilgum.

Hozirgacha ma'lum bo'lgan xabarga ko'ra

Jangga chiqnish yov tarafidan to'rt yuz ming lashkar.

**Shahzodalar,** Olampanoh, Allohdanu Sizzdan kuch olib,

**amirlar.** Har qandayin yog'yni ham tor-mor etgaymiz.

**Temur.**

Bolalarim, bu og'ir jang. Biling, bu jangda  
Rumoning o'z lashkarlari himoyadadir.  
Ular axir o'z yurtlarin qotriqlagaylar.  
...Ammo Rumo yerida men o'zga emasman,  
Men musulmon amiriman! Nasabim turkiyl  
Adolat va dini Islom posbonidirman.  
Farmoninga qulqoq tuting:  
Bizkim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz.  
Bizkim, millatlarning eng qadimi va eng ulug'i  
Turkning bosh bo'g'inimiz.  
Alloh Sizga madad berib, zafar yor bo'lsin!  
Naqoralar chalinsin, to yero osmonni  
Bizning lashkar suronlari chulg'ab olsinlar.  
Yog'iylarni tahlilikaga solsin bu surou.  
...Yasovullar har daqqa menga paydar-pay  
Yetkazishib turadilar jang tafsilotin.  
Sarkardalar, Sizga ruxsat  
Allahu akbar!

*Amirlar, sarkardalar chiqadilar.*

**Temur (Eshikbon-yasovulga).**

Endi esa chorlang buyon Aloviddinni.  
U betimsol bir iste'dod, shatranj ustasi.  
Samarqanddan atay uni olib kelganman.

*Aloviddin kiradi.*

**Aloviddin.**

Olampanoh, chorlamishsiz...

**Temur.**

Ha, Aloviddin,  
Sen bilan biz necha yilki shatranj suramiz.  
Ammo bilki, bu galgisi boshqacha o'yin,  
Bu — boshqa jang! Donalarni ter, Aloviddin.

*Aloviddin shatranj donalarini teradi. Temurda oq donalar.*

Eshitgansan, Aloviddin. Yoshlik chog'indan  
Men shatranjga ishqibozman. U nozik o'yin.  
Uni tengsiz san'at deya ta'rif etarlar.

Biroq shatranj o'xshar ko'proq jang san'atiga.

Qani, yuring, olampanoh.

Yurdi, sipohim.

Qani olg'a, piyodalar, zafar yor bo'lsin.

*Chodir tashqarisidan jang sadolari baralla eshitila boshlaydi.*



- Aloviddin.** Shoh sipohin bizga qarshi yo'naltirdingiz.  
Kaminaning sipohi ham anoyi emas.
- Temur.** Hozir nechuk jang qilmoqda piyodalarim,  
...Juda og'ir jang ketmoqda chodir ortida.  
Inshoolloh, yengajakman! Sen — Aloviddin,  
Faqat shatranj sohasida jahongirdirsan.  
Bizning esa chekimizga boshqa yuk tushgan.  
Bizning uchun ulkan zamin shatranj taxlasi...
- Aloviddin.** Sizning buyuk iste'dodga taraf yo'q aslo,  
Shatranjda ham betimsolsiz. Iqrorman, Hazrat,  
Ammo menga, izn bering, bir savolim bor.  
...Sizning g'olib bo'lmoq'ingiz garchi muqarrar.  
Lekin, Hazrat, Siz men bilan chodir ichida  
Shatranj o'ynab, jang maqomin kuzatmoqlasiz.  
Bir qarashda beparvodek, hatto sovuqqon.  
Men bilaman, Aloviddin, o'z qudratimni.  
Raqibimni dovdiratar bu usulim ham.  
...Odamlarim allaqachon Rum sultoniga  
Mening shatranj o'ynay turib jang qilishimni  
Yetkazdilar! Boyazidni tahlika bosdi!  
Dushmaningni bundan ortiq kamshitib bo'lmas.
- Yasovul (Kiradi)** A'lohzrat, piyodalar nobud bo'lmoqda.
- Temur.** Attang, attang, o'z kuchiga ortiq ishonsa,  
G'aflat bosib qolgusidir hatto filni ham.
- (Ham Yasovulga, ham Aloviddingga)
- To'lq'amo deb atalguvchi bir yo'llimiz bor,  
Yetkazingiz o'ng qanotu ham so'l qanolqa.  
Mironshohu Shohrux Mirzo ikki tarasdan  
Yog'tylarni o'rabi olsin! Obong'orda men!  
Aloviddin, shohga qarshi hujum boshladim.
- Yasovul (yana kiradi).** Olampanoh! Yov lashkari
- Temur.** To'p-to'p bo'lishib, biz tomonga o'tayotir.  
Shoyon yaxshi gap!
- Aloviddin.** Ular asl muslimondir, ziyon yetkazmang.  
A'lohzrat, har ikkala maydon ichra ham  
G'oyat qizg'in tus olmoqda jangovar san'at.
- Temur.** Lashkarlarim urho-ur deb jang maydonida  
Nayza bilan, qilich bilan va kamion bilan

Yov saflarin qirib horar hozir ayovsiz.  
Men ham hozir ular bilan ruhan birkaman,  
Shu gap haqqi. Sizga qarshi tashlayman ruxni.  
...Eshitingiz, rux huqiqat qilichidek keskir, beomon.  
Men rux bilan jang qilishni sevaman juda.  
**Aloviddin.** Ruxingizning na'rasiga javobim shu-da.  
**Yasovul.** Olampanoh, orqadagi yov o'rda-sini  
Halqa kabi o'rab oldi bizning lashkarlar,  
Biroq o'rda ustuvordir!

**Temur.** Bizning qo'lda naftandoz deb atalguvetli bir  
Ajdahodek o't purkagich yarog'imiz bor.  
Bamisol osmondan tushgandek quyun.  
U o't-oloy purkay boshlar zamin ustiga.  
O'rda tomon yo'naltiring naftandozlarni.  
O'rda chilim sarxonusi kabi yonsinu  
Tamatikidek tutab ketsin tubida yog'iy.

*(Aloviddinga)*

Aloviddin, qay yo'sinda yo'lumni to'sma.  
Mana endi ishga tushar sarkardam farzin  
Va ortidan ikkinchi rux chiqar maydonga.  
Endi qayga qo'chib borgay sho'rlik qorushoh?  
Endi kimdan madad kutsin yo kimga arzin  
Bayon etsin?

**Aloviddin.** Chiroyli mot! Mol!  
**Temur.** Bu — ruxning ishi...  
**Yasovul.** Shoyad ruhlar menga mudom bo'lgay madadkor.  
A'lohzrat, a'lohzrat, yaxshi xabar bor!  
Shu asnoda Rum sultonni asir olimnish!

**Temur (yasovulga).** Isming nedur?  
**Yasovul.** A'lohzrat, ismim Qosimbek.  
**Temur.** Qayerdansan? Nasabing kim?  
**Yasovul.** Men shahri Keshdan. Otam sizga sarboz bo'lgan.  
Dehlji jangida shahid ketgan,  
Bugun mening o'zim sarbozman!  
**Temur.** Bizning uchun g'oyal qutlug' mujda keltirding,  
O'g'lim, seni siylagayman bu mujda uchun.  
Inshoollohi, Samarqandga qaytib borgan chog'  
Nikohingga berajakman bir nabiramni.

<b>Yasovul.</b>	Olampanoh, o'lgunimcha Sizga sodiqman.
<b>Aloviddin.</b>	O, Allohnning marhamati burchalar kengdir, Bir bandasin daqiquda ko'kkka ko'tardi.
<b>Temur.</b>	Shukr, deyman, yaratgunga — Parvardigorga, Biroq, zafar nashidasin lotmasdan burun Ruhiyatim amri bilan bir gap aytaman: Hech bir shohning boshiga bu kulfat tushmasin. Olib kiring Boyazidni!
	<i>Boyazidni oyoq-qo'li bog'liq holda olib kirishadi.</i>
<i>(Boyazidga)</i>	Evoi, bu ne hol? Oyoq-qo'lin yeching darhol, U, axir, shoh ku! Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin, Buzilgaydir o'rmonning ham qonuniyati.
<b>Boyazid.</b>	Men taassuf bildiraman, tushungin, sulton. Asir bo'lib tursam hamki qoshingda, Temur Zor emasman iltifoting, taassufingga.
<b>Temur.</b>	Oddiyginni bir voqeа yuz berdi, axir, Sen yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq Cho'ng temirga urildingu chilparchin bo'lding...



## Savol va topshiriqlar

1. Temurning biror yurtga qilinadigan yurishga uch-to'rt yil oldin tayyorgarlik ko'rish kerakligi borasidagi o'gitini sharhlang.
2. Asardan Amir Temurning harbiy biylalar borasidagi ustaligi aks etgan or'iniqlari topib, sharhlang.
3. Sohibqironning: "*O'z-o'ziga qanday hukm chiqarmish Sultan?*" — degan so'rog'i tagidagi ma'noni anglatang.
4. Boyazidning xati Amir Temurga qanday tasir qilganini tushuntiring.
5. "*Men — Temurman! Oriyat ham bor-ku dunyoda. Yetar, endi!..*" tarzidagi qaroriga asoslanib, jahongir shaxsiyatiga baho bering.
6. Temurbekning yuondarini insof sari "kaltak bilan haydash" haqidagi to'xtamiga munosabat bildiring.
7. Amir Temurning: "*Bizning uchun ulkan zamin shatranj taxtasi*", — degan iqrorida sizningicha afsus ko'pmi, istixor?
8. Sohibqironning shaxmal taxtasidagi *oyin* va maydonidagi jangni birday boshqara olgani sababini izohlashga urining.
9. "*Ruhiyatim amri bilan bir gap aytaman: Hech bir shohning boshiga bu kulfat tushmasin*", — degan Temur shaxsini taysiflang.

## “SOHIBQIRON” ASARI TO‘G‘RISIDA

“Sohibqiron” dramasida Amir Temur janglarda emas, balki ko‘proq o‘ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiatini uning Amir Husayn, sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatini ko‘rsatish mobaynida yorqin aks elgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o‘ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni: “Mo‘l xazina, yagona shoh, yengimas lashkar”. — deya belgilaydi. A. Oripov Temurni o‘z yo‘lining to‘g‘ri-noto‘g‘riliгини aniqlashga timmay urinadigan, bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan kishi sifatida ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Temurning: “Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun”. — degan so‘zlari o‘quvchiga qahramon fikrlash tarzining mantiqiy hosilasiday ta’sir qiladi.


Asarda Amir Temurning o‘z dushmanlari gunohlarini ham kechira oladigan shaxs ekani sulton Boyazid, haddidan oshgan kimsani jazosiz qoldirmasligi Amir Husayn, ezgu amallli kishilarni taqdirlashi Hofiz Sheroyi va Qosimbek timsol-lari orqali ishonarli aks ettirilgan. Dostonda Boyazidning Amir Temurga yozgan xatidagi haqorathlar uni urushga kirishishga majbur etishi ishonarli tasvirlangan: *“Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur bilib qo‘yki, xotunlaring uch taloq bo‘lgay. Agar seni yenga olmay chekinsam ortga Unda mening xotunlarim bo‘lsin uch taloq”*. Muallif hech bir musulmon chidashi mumkin bo‘lmagan bunday odob-sizlikka Temurning jang bilan javob berishi tabiiyligini tarixiy haqiqatga ham mos holda ko‘rsatadi.

A. Oripov asar bosh qahramonini o‘ylar og‘ushida aks ettiradi. Temur xato qilib, birovlarning umriga zounin bo‘lishdan qo‘rqadi. Ammo o‘zini buyuk bir tarixiy missiyaning ijrochisi deb biladi: *“Nega ko‘pdir nayrangboz-u kazzob kim-salar? Nega bosgan yer yuzini buncha ko‘p illat? Men zaminni tozalashim kerak ulardan”*. Jahongir jangovor yurishlarida doim biror xalqqa qarshi emas, balki yovuz hukmdorga qarshi qo‘sish tortadi.

Amir Temurning Ahmad Yassaviy bilan uehrashuvi asarning eng ta’sirli lavhalaridan biridir. Bu o‘rninda Amir Temur o‘z xatti-harakatlariga ma’naviy asos qidirayotganligi aks etadi. Hazratning: “Aytehi, Temur, sen besubab qon to‘kkannisan?” — degan so‘rog‘iga javob berish jahongirga oson kechmaydi. Sohibqiron islamiy tartiblar o‘rnatish, adolatni qaror topdirish uchun qon to‘kkani haqida o‘laydi. Asar muallifi o‘z nuqtai nazarini Yassaviy qarashlari orqali beradi. Dunyoda banda tomonidan kuch bilan adolat o‘rnatilishi shubbali ekanligi buyuk so‘fiyning: “Niyat qancha jozibali bo‘lsa ham, Temur, qilich bilan murod hosil bo‘lmog‘i guman”, — degan so‘zlarida ifoda etiladi. Olamni kuch bilan bosib olgandan, odamlar dilini haq so‘z bilan zabt etish to‘g‘riroqligi haqidagi fikr Yassaviy hazratlarining shaxsiyatini ifoda etadi. Xuras, asarda Amir Temur timsoli o‘zi va eli haqida timimisiz o‘yladigan shaxs sifatida puxta tasvirlangan.

### VILYAM SHEKSPIR

(1564 — 1616)



**Adibning hayot va ijod yo'li.** Ingliz shoiri, dramaturgi, aktyori Vilyam Shekspir 1564- yilning 23- aprelida Yorkshir grafligidagi Stratford shahrida tug'ildi. Otasi — Jon Shekspir shaharning ancha mashhur kishilaridan bo'lib, shahar boshqaruvinining turli lavozimlarida ishlagan edi. Onasi — Meri shu yerlik qadimiylari, amma kambag'allashgan dvoryanlardan Robert Ardenning qizi edi. O'smir Vilyam Shekspir Stratforddagi shaharliklarning o'g'illari bepul tahlisil ko'radian hamda asosan til va adabiyot o'tgatiladigan grammatik maktabda ta'lim olgan bo'lishi kerak. Bo'sajak adib cho'qintirilgani haqida cherkov daftaridagi qayddan so'ng uning hayoti haqida deyarli hech qanday rasmiy ma'lumot uchramaydi. Cherkov daftarida uning 1582- yilning 27- noyabrida stratfordlik Enn Xetuey ismli qizga uylanganligi hamda to'ng'ich farzandlari Syuzen 1583- yining 26- mayida, Hamlet va Judit ismli egizaklar 1585- yilning 2- fevralida cho'qintirilgani bitilgan.

Taxminlarga ko'ra, Shekspir 1592- yilda Londonga boradi va teatrda aktyorlik qiladi. Shekspir 1593- yilda "Venera va Adonis" deb nomlangan dostonini chop ettiradi. Adabiyotning homiysi bo'lmish yosh gersog Sautgemptonaga bag'ishlangan bu asar o'sha vaqtarda urs bo'lgan erotik yo'nalishda bo'lib, kutilmaganda katta muvaffaqiyat qozondi va ketma-ket sakkiz marta nashr qilindi. 1594- yilda birinchi asariga izma-iz "Lukretsiya" nomli katta dostoni e'lon qilinadi. Shu yilning 28- dekabrida "Greyz Inn" teatrida Shekspirning "Xatolar komediyasи" asari o'ynaldi. 1595- yilning martida Shekspir yozgan va sahna-

lashtirgan pyesalari uchun kattagina mablag' oldi. Teatrda Sautgemon toniyligidagi faoliyat Shekspirga ham shuhrat, ham boylik keltirdi. Bunga otasi Jon Shekspiring bir necha yillik urinishlardan keyin 1596-yilda Geraldik palatadan "jentehnen"lik martabasini beradigan gerbni sotib olganligi birinchil dalil bo'lsa, Shekspiring 1597-yilda Stratforddan bog'i bor katta uy olganligi ikkinchi dalildir. Adib London sahnalarini tark etgach, bu uyga ayoli va qizlari bilan (o'g'li 1596-yilda vafot etgandi) ko'chib keladi.

1598-yilda londonlik tanqidchi F. Meres tononidan chiqarilgan "Aql xazinas" kitobining "Ingliz shoirlari haqida mulohazalar" qismida shunday fikr bittil gan: "Plavt va Seneka rimliklar uchun komediya va tragediya borasida tengsiz bo'lgani singari Shekspir inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir". 1597—1598-yillarda Shekspir ijodi ancha kotta shuhrat qozondi. Bu davrgacha uning "Tit Andronik" nomli birlgina pyesasi muqovasida muallifning nomi ko'rsatilmagan holda nashr etilgan edi. Aytilgan davrda esa adibning asarlariga bo'lgan talabni qondirish uchun uning besh pyesasi chop etildi. Tadbirkor noshir U. Jaggard Shekspir asarlarini nashr etish hisobiga boylik orttirmoqchi bo'ldi. U 1599-yilda turli shoirlarning bitiklaridan iborat to'plamga Shekspiring haun to'rt sonetini kiritib, "Otashin ziyoratchi" nomli kitob chiqardi va undagi asarlarni Shekspir qalamiga mansub deb e'lon qildi. Bu Shekspir ijodini qalbakilash-tirib foyda topish yo'lidagi birinchil urinish edi.

1598-yilda aka-uka Berbejilar Londonning shinoliy chetidagi eski teatrni buzib, uning uskunalaridan Temza daryosining janubiy qirg'og'ida "Globus" teatrini tikladilar. Shekspir ham yangi teatrning hissadorlaridan biri, ham o'z ijodiy guruhiiga ega aktyor edi. 1608-yilda u katta foyda keltiradigan "Bleksfrayerz" teatrining ham hissadorlaridan biriga aylandi. 1603-yilda **qirol** Yakov Shekspir truppasini o'z himoyatiga oldi. Guruh a'zolari "Qirol hazrattalarining xizmatkorlari" deb atalib, kamerdinerlar<sup>1</sup> singari saroy xodimlari hisoblanishardi. Truppa saroyda tez-tez tomoshalar ko'rsatib turar, saroy ayonlari va aslzodalar aktyorlarni yaxshigina siylardilar. Shekspiring moddiy ahvoli yaxshilanib, Londondan ham, Stratforddan ham bir qancha mulk sotib oldi. Shu tariqa mashhur aktyor asta-sekin adabiy ijoddan chetlashdi, teatrдан uzoqlashdi va 1612-yilda ota shahriga butunlay ko'chib keladi.

1616-yilning 23-aprelida buyuk dramaturg, iste'dodli shoir, tengsiz aktyor Shekspir olamidan o'tdi. Uning jasadini o'z qavmi cherkoviga ko'mishdi. O'shandan buyon uning qabrini har yili minglab odamlar ziyorat qilishadi.

Shekspiring ijodiy taqdiri juda g'alati. Qanchalik mashhur bo'lmasin, bironata pyesasi hayotlik chog'ida risoladagiday nashr qilinmagan edi. Ularning aksariyati 1623-yilga kelib, adib o'limidan yetti yil o'tgach, dunyo yuzini ko'rди. Shekspiring

<sup>1</sup> Kamerdinerlar — uy xizmatchisi.

aktyorlik faoliyati bo'yicha ham juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Aktyor si-fatida ko'proq qirollarning rollarini o'ynaganligi qayd etilgan. "Hamlet"da Arvo, "Sizga bu yoqadimi?" spektaklida Odam rollarini ijro elgani ba'zi hujjatlar orqali yetib kelgan. Ben Jonsonning "O'ziga yetguncha", "Seyan" pyesalarida Shekspir o'zining so'nggi rollarini o'ynagan. Eltimol, aynan aktyorlik tajribasi buyuk adibga dramatik asarlarida sahna imkoniyallarini to'g'ri hisobga olish, obrazlarning tabiatini yorqin namoyon etadigan jihatlarni bexato ko'rish va tasvirlashda juda qo'l kelgan bo'lishi mumkin.

1592- yoldayoq Londonga kelib, tez orada teatr ahli orasida aktyor va dramaturg sifatida bir qadar tanilib qolgan Shekspirning dastlabki pyesalari qachon yaratilganini aniq aytib bo'lmaydi. To'g'ri, zamondoshlari ingлиз-fransuz urushi haqida Shekspir tomonidan 1592- yilning martida yozilgan va katta muvaffaqiyat bilan o'ynalgan bir pyesa bo'lganligini qayd etishgan. Lekin bu asarning katta qismi o'zgalar tomonidan yaratilib, Shekspir ularni sahnaga moslab qayta ishlaganligi keyinchalik aniqlandi. Asar 1594- yilda qisqartirilgan va buzilgan holatda alohida kitob sifatida ham chop etilgan. Ijodiy umri mobaynida V. Shekspir o'tiz olti dramatik asar, 154 sonet va bir necha doston yozgan. Lekin bulardan biror-tasi ham muallif hayotlik chog'ida ochiqchasiغا chop etilmagan.

"Qirol Lir", "Romeo va Julietta" (1594—1595), "Hamlet" (1601), "Otello" (1604), "Makbet" (1606) singari tragediyalar, "Yoz kechasi dagi tush", "Venetsiya savdogari", "O'n ikkinchi kecha" kabi komediylar deyarli to'rt yuz yildan buyon dunyodagi eng dovrugli teatrlar shuhratiga shuhrat qo'shib kelmoq-da. Jahon dramaturgiyasining bu yetuk namunalari badiiy mahorat choqqilaridir. Shekspir asarlari inson tuyg'ularining murakkab, chigal va qarama-qarshi qirralarini ta'sirehan aks ettirishi bilan ajralib turadi.

G'arb mamlakatlari mutaxassislari orasida Vilyam Shekspir degan yozuvchi haqiqatda bo'lmagan va dunyoning eng zo'r dramalari ham u tomonidan yaratilmagan, degan taxminlar yuradi. Negaki, V. Shekspirning tug'ilgan joyi, otasi, onasi, oilasi haqida anchagina ma'lumotlar bo'lgani holda uning biror o'quv muassasasida muntazam tahsil olgani, aktyorlik qilgani, badiiy ijod bilan shug'ullangani haqida kishini qoniqtirishi mumkin bo'lgan dalillar qolmagan. Buning ustiga, Vilyam Shekspir o'z qo'l bilan yozgan vasiyatnomasi uslubiga ko'ra muallifining u qader ham savodli bo'lmagan ijoratchi ekanligini anglatar ekan.

Ayrim adabiyotshunoslar orasida o'z asarlarini Shekspir nomidan e'lon qilgan kishi 1550- yilda Eyfon Stratfordi shahrida tug'ilib (Buyuk Britaniyada kattaroq Stratford va chog'roq Eyfon Stratfordi singari ikki "adash" shahar bor). 1604- yilda vafot etgan lord Eduard de Ver bo'ladi, degan fikr ham bor. U qirol saroyiga yaqin aslzoda oilalardan birining farzandi bo'lib, atroflicha bilim ol-gan, ammu o'sha vaqtarda aslzodalarining badiiy ijod bilan shug'ullanishi ayb

sanalgani uchun ham o'z bitiklarini Vilyam Shekspir nomidan e'lon qilgan degan qarashilar yuradi.

Bunday qarashlardan qat'i nazar, Shekspir nomidan e'lon qilingan misliz asarlar bor va ularni o'qish, o'rganish har qanday inson ma'naviyati shakllanishiha muhim ahamiyat kasb etishi aniq. Inson aqli va hislarining eng nozik, chigal jihatlari yuksak san'atkorlik bilan tasvirlangan "Otello" (1604) fojasi haqidagi alohida to'xtalish joiz.



### Savol va topshiriqlar

1. Shekspiring bayot yo'lli, oilasi, olgan tarbiysi, ijoddagi yutuqlari haqida to'xtaling.
2. Shekspir shaxsiyati va uning nomidan taqdim etilayotgan asarlar atrofidagi shubhalarga munosabat bildiring.
3. Adibning dramaturgiyasi haqida to'xtaling. Ular orasidan muallif nomini dunyoga maslahur qilgan asarlarini aniqlang.
4. Shekspir ijodida "Otello" asari egallagan mavqe haqida gapirib bering.

## OTELLO

(Venetsiyalik mavr<sup>1</sup>)

QATNASHUVCHILAR<sup>2</sup>:

**Brabansio** — senator.

**Gratsiano** — Brabansioning ukasi.

**Lodoviko** — Brabausinoning qarindoshi.

**Otello** — aslzoda arab, Venetsiya davlatining amaldori.

**Kassio** — uning leytenant.

**Yago** — Otelloning mulozimi.

**Rodrigo** — venetsiyalik boy yigit.

**Montano** — Qibrisning oldingi hokimi.

**Dezdemona** — Brabansioning qizi, Otelloning xotini.

**Emiliya** — Yagoning xotini.

Umrini janglarda o'tkazgan oqil va halol arab general Otello o'ziga jasur Kassioni leytenant qilib oladi. Uning xizmatkori Yago shu o'ringa o'tishni mo'ljalab yurar edi. Shuningdek, Venetsiya senatori Brabansioning go'zal qizi Dezdemona venetsiyalik boy yigit Rodrigoni rad qilib, qora va qariroq bo'lishiga qaramay,

<sup>1</sup>Mavr — arab. <sup>2</sup> Asurni G'afur G'ulom o'zbekchaga o'girgan.

*Otelloni sevib qoladi va unga tegadi. Ikki alamzada: Yago va Rodrigo birlashib, Otello bilan Kassiodan o'ch olishga bel bog'lashadi. Generalga xotini Dezdemona unga xiyonat qilib, kelishgan leytenant Kassio bilan yurishini aytishadi. O'zi rostgo'y bo'lgani uchun hammani chin gapiradi deb o'ylaydigan Otello ularning gapiga ishonadi. Fojiadagi voqealar davomini quyidagi parchadan o'qib olasiz.*

\* \* \*

*General Otello ichib olib janjallashgani uchun leytenant Kassioni vaqtincha o'zidan uzoqlashtiradi. Otelloga qattiq mehr qo'ygan Kassio Dezdemona dan eri bilan yarashtirib qo'yishni so'raydi.*

**Yago.** Buning boshiqa iloji yo'q Dezdemona dan,  
Baxtingizga ana o'zi. Ro'para bo'ling.

**Dezdemona.** Tezroq bo'ling, darrov unga iltimos qiling.  
**Kassio.** Nima xabarlar bor, aziz Kassio?

Ey malikam, yana o'sha arz bilan keldim,  
... Butun qalbim bilan sevgan va hurmatlagan  
Bir kishining muhabbatli, mehribonligi  
Panohida qayta boshdan yashash menga baxt.  
Istamasdim men bu ishni kechiktirishni.  
Agar unga qilganim bu xunuk tahrirni,  
O'tgan ishim va hozirgi o'kinish bilan,  
Yo bo'lmasa endigi ish va'dasi bilan  
Uning eski muhabbatin qaytlara olsam,  
Shuni bilay, shuni bilsam sevinaman-ku.  
Choru nochor taqdiriniga bo'yin egaman,  
Tole sinab boshim oqqan yoqqa ketaman.

**Dezdemona.** Aziz Kassio.  
Tamom bekor bo'ldi mening tashabbuslari,.  
Mening erim tamom boshiqa er bo'lib qoldi,  
Agar uning se'li kabi yuzi ham shuncha  
O'zgarganda, men uni hech tanimas edim.  
Sizning uchun unga qilgan iltimosimday,  
Rost so'z bilan istar edin minglab farishta  
Men to'g'rida unga qilsin bu kun iltimos.  
Garchand uning g'azabini qo'zg'atmadim hech.

Sabr qiling, men o'zinga qilmaganni ham  
Sizning uchun qilajakuan. Xursand bo'lasiz.  
Nima, nima, uning jahli chiqdi, deysizmi?  
U shu topda chiqib ketdi, bilmadim qanday,  
Rostin aytsam, juda qiziq vasvasa bilan.

*Qasrda yotoq uyi. Dezdemona yotoqda uxlaydi. Tepasida sham yonmoqda.  
Otello kirib keladi.*

**Otello.**

Sababi bor, sababi bor, sababi, jonim!  
Men ularni aytolmayman, tiniq yulduzlar.  
Biroq kuchli sababi bor. Men qon to'kinayman.  
Qordan ham oq, qabrdagi marmardan silliq  
Bu badanni tirnamayman, yaralamayman.  
Tirik qolsa boshqalarini yana aldaydi.  
Shuning uchun u mutlaqo o'lishi kerak.  
Shamni puflay... Shamni puflay... Xo'sh, undan keyin,  
Ana boring, o'chirdim ham. Porloq chirog'ini —  
O'chirsamu undan keyin bo'lsam pushaymon,  
Sening xuddi shu o'tingni yoqa olaman...  
Biroq sening o'ting o'chsa, ey go'zal malak,  
Tabiatning husni uchun o'rnak bo'lgan tan,  
Billolmayman — masl'aliningni yoqishlik uchun  
Qaydan topay abadiyat alangasini?  
Gulni uzib o'z shohidan, unga qnytadan  
Ko'karishlik hosiyatim bera olmayman.  
U so'ladi. O'z shohida bir iskab olay.

*(Dezdemona o'padi.)*

O'h, qanchalik shirim nafas va bu nafaslar  
Adolatning qilichini buka oladi.  
Yana, yana! O'h. Shunday qol o'liminggacha.  
O'ldiraman, ammo seni yana sevaman.  
Yana o'pay, yana o'pay, so'nggi martaba!  
O'tim oldi bo'salari qanchalik shirim.  
Yig'layapman. Biroq bu yosh yo'qlik yig'isi.  
Ishqim uchun osmon menga bermoqda jazo.  
Ana o'zi ko'zin oehdi, uyg'onib qoldi.

**Dezdemona.**

Kim? Otello, bu siznisiz?

**Otello.**

Ila, Dezdemona.

**Dezdemona.**

Yotmaysizmi, aziz Otello?

**Otello.**

Kechasilik ibodatni qilganmidingiz?

**Dezdemona.**

Qilgan edim.

**Otello.**

Xudoyimning marhamati kecholmayturgan

Biror gunoh yodingizga tushmayaptimi?

Shu to'g'rida vaqt o'tkazmay ibodat qiling.

- Dezdemona.** Xo'sh, azizim, bu so'z bilan ne demoqchisiz?  
**Otello.** Tez tavba qil, cho'zilmasin. Chetda turaman.  
     Hali ruhing o'lim uchun tayyor bo'lmasdan,  
     Gunoh bilan o'ldirmayman, xudo saqlasın.  
**Dezdemona.** O'ldiraman... dedingizmi?  
**Otello.** Ha, o'ldiraman.  
**Dezdemona.** Tangrim, menga rahming kelsin!  
**Otello.** Jon bilan, omini!  
**Dezdemona.** O'ldirmaysiz, shunday so'zni aytgandan keyin.  
**Otello.** Jim!  
**Dezdemona.** Ammu juda qo'rqayapman shunday bo'lsa ham  
     Ko'zlarining olayarkan, ko'p dahshatlisiz.  
     Qo'rqayapman... Begunohdan-begunoh bu ish.  
     Shunday, ammu qo'rqayapman.  
**Otello.** Gunohingni yodingga tushir.  
**Dezdemona.** Bir gunohim u ham sizga ishqimdir, xolos.  
**Otello.** Bali, xuddi shu ishq uchun hozir o'lsan.  
**Dezdemona.** Ishqqa o'lim - tabiatning qonuniga zid.  
     Voy, nimaga labingizni tishlamoqdasiz?  
     Va gonli hirs sizni bunday qaqratmoqda.  
     Bu barchasi g'alatidir, shunday bo'lsa ham,  
     Ishonaman, menga zarra aloqasi yo'q.  
**Otello.** Jim bo't, sekin.  
**Dezdemona.** Juda yaxshi, o'zi nima gap?  
**Otello.** O'zim sevib, senga hadya qilgan ro'molni  
     Kassioga olib borib berding.  
**Dezdemona.** Bu yolg'on.  
     Jonim bilan qasam ichay, o'zidan so'rang.  
**Otello.** Uh, jonginam, tilingni tiy yolg'on qasamdan,  
     Chunki o'lim to'shagida yotibsan axir.  
**Dezdemona.** Durust, axir shu topdayoq o'la qolmasman?  
**Otello.** Xuddi shu topda.  
     Shuning uchun gunohingdan tezroq tavba qil.  
     Biroq, mayli, qasam ichib bo'yin tovlading.  
     Lekin qaror qo'zg'almaydi, tebratolmaysan.  
     Garchand bundan ho'ngrayapman. Lekin o'lasan.  
**Dezdemona.** O'zing menga rahm qilgil, xudoyo!  
**Otello.** Omini!  
**Dezdemona.** Siz ham biroz rahm qiling. Axir hech qachon  
     Qitday bo'lsin qilganim yo'q sizni haqorat.



- Kassioni sevar edim, osmon buyurgan  
Hamminga xos sevgi bilan, sovg'a bermadim.  
**Otello.** Ont ichaman, ro'molehamni qo'lida ko'rdim,  
Yuragimni tosh qilding sen, qasanixo'r xotin.  
Men, qurban, deb bu qilmogchi bo'lganim ishni  
Sen qall deb atamoqqa majbur qilasan.  
Ro'molehamni axir ko'rdim.
- Dezdemona.** Demak, topibdi...  
Men ro'molecha bergenim yo'q. Odam yuboring,  
O'zi kelib chinini aytsin.
- Otello.** U aytib bo'ldi.  
**Dezdemona.** Nima deydi?  
**Otello.** Sening bilan aloqasi borligini-da.  
**Dezdemona.** Qanday, ya'ni qonunsizmi?  
**Otello.** Bali, qonunsiz.  
**Dezdemona.** U bu gapni hech aytmaydi.  
**Otello.** Og'zin yopdilar.  
Sodiq Yago chorasini chakki ko'rmadi.  
**Dezdemona.** O'h, dalishat, nienga ortiq hamma ish ayon.  
Qanday, axir, o'ldimi?
- Otello.** Bir tirik jon bo'lsa edi har tola mo'yli,  
To'ydirardi bu intiqom barchasini ham.
- Dezdemona.** Voy, bechora, aldanibdi, men xarob bo'ldim!  
**Otello.** Ko'z oldimda uning uchun yig'layapsanmi?  
Yo'qol, fohisha!
- Dezdemona.** O'h, o'ldirmang, mayli, meni quylab yuboring!  
**Otello.** O'lim fohishaga!
- Dezdemona.** Shu kecha ham yashay qolay, erta o'ldiring.  
**Otello.** Qarshilik ham ko'rsatmoqchi bo'lasanmi, a?
- Dezdemona.** Yarim soatga axir!
- Otello.** Muhlat berilmas.
- Dezdemona.** Duo o'qiy hech bo'lmasa!
- Otello.** Vaqt o'tdi, kech. (*Uni bo'g'adi.*)  
**Emiliya.** (*Sahna orqasidan*)  
Hoy afandim, afandimi, hoy, janob oliv!  
**Otello.** Nima? Shovqin! O'ldimi, yo o'lgani yo'qmi?  
Qattiqko'llik bilan shafqatim ham bor —  
Islamayman bundan ortiq qiynalishingni.  
**Emiliya.** (*sahna orsasidan*)  
Afandim, hoy afandimi, ...deymen axir!



- Otello.** Kim o'zi?  
**Emiliya.** (sahna orqasidan)  
Sizga axir bitta og'iz so'zim bor, xolos.  
**Otello.** Emiliya? Mana hozir. Bu ortiq o'ldi,  
U Kassioning o'lganini aytgani kelgan.  
Shovqin juda katta. Ortiq qimirlamaydi.  
Qabrday jim. Kirgizaymi, qanday bo'larkin?  
A, a, nima? Tebrandimi? Yo'q. nima qildi?  
Agar kirsa so'yplashadi xotinim bilan.  
Mening xotinim bilan! Xotinim?  
Mening ortiq xotinim yo'q!  
Chidab bo'lmas darajada. Oh, og'ir soat!  
Taxminimeha, quyoshni ham, oyni ham bu kun  
Ulug' zulmat qoplamish-da, yerimiz qo'rqib,  
Bu o'rtada tentiraklab kezar sargardon.  
**Emiliya.** Uh, afandim, yalniman, zarur gapim bor.  
**Otello.** Seni esdan chiqaribman, kir, Emiliya.  
Hozir, biroz shoshilmay tur, pardani tortay.  
Qayoqda sen? (Eshikni ochadi.) Xo'sh, shu topda senga ne kerak?  
**Emiliya.** Uh, afandim, o'ldirdilar, mudhish o'ldirish.  
**Otello.** Shu topdami?  
**Emiliya.** Ha, ha, hozir, xuddi shu topda.  
**Otello.** Odatdag'i o'z yo'lidan chalg'ib, oy balki  
Yerimizga yana ko'proq yaqinlashgan-da,  
Hammani ham tentak qilgan.  
**Emiliya.** Unda Kassio venetsiyalik Rodrigoni o'ldirib qo'ydi.  
**Otello.** Nima, nima? Rodrigoni o'ldirdilarimi?  
Kassio-chi uni ham o'ldirdilarimi?  
**Emiliya.** Yo'q, Kassio o'ldirilgan emas.  
**Otello.** Ha, ha, tirikmi?  
Demak, ancha dovdirabdi, bunda qatl ishi,  
Intiqoming tovushi esa hali xirillar.  
**Dezdemona.** O'h, begunoh o'ldirildim.  
**Emiliya.** Voy o'lay, bu kimning ovozi?  
**Otello.** Mana bu kimning ovozimi?  
**Emiliya.** Voy, bu ovoz malikamning ovozlari-ku.  
Yordam bering! Oh, malikam, biror so'z ayting.  
**Dezdemona.** Dezdemona, mening ma'likam!  
**Emiliya.** Men gunohsiz o'lmoqdaman.  
O'ldiruvchi kim?

- Dezdemona.** Hech kim emas. Yolg'iz o'zim. Xayr, ortiq xayr.  
Marhamatli Otelloga salom, alvido. (*O'ladi*)
- Otello.** Uni, axir, o'ldirgan kim bo'lishi mumkin?  
**Emiliya.** Voy tavba-yey, kim bilar edi?
- Otello.** O'zi aytdi, men emasman, siz eshitdingiz.  
**Emiliya.** To'g'ri, aytdi. Guvohlikka o'tishim mumkin.
- Otello.** U yolg'onchi jahannamning qa'riga ketdi.  
Men o'ldirdim.
- Emiliya.** Shunday esa, bu bir malak, siz qora shayton.  
**Otello.** Tuzuk yo'ldan chetga chiqib, folishia bo'ldi.  
**Emiliya.** Unga bo'lton qilmogdasiz, mal'un, yaramas.
- Otello.** Oqin suvday u aldamechi, riyokor edi.  
**Emiliya.** Sen tezlikda alangasan, u — ko'kday toza.  
**Otello.** Yashirinchha yotar edi Kassio bilan,  
Ishonmasang borib ering Yagodan so'ra.  
O'h, agarda kuchli sabab bo'lmasdanoq, men  
Shunday qat'iy chegaraga kelolgan bo'lsam,  
Mayli, meni yutsin edi tubsiz jahannam.  
Hamnia ishni ering juda yaxshi biladi.
- Emiliya.** Mening erimmi?  
**Otello.** Sening ering!  
**Emiliya.** Malikamning nikoh hukmin buzganini-ya?  
**Otello.** Kassioga o'ynashligini yaxshi biladi.  
Agarda u sodiq bo'lsa, pokiza bo'lsa,  
Osmon menga zabarjaddan dunyo qursa ham,  
Alishmasdim bu olamga bitta tukini.
- Emiliya.** Mening erim??  
**Otello.** To'g'ri, ering kelib aytdi menga eng avval,  
U juda ham sodiq kishi va yoqtirmaydi.  
Bunday uyat balg'anmlarni, iflos ishlarni.
- Emiliya.** Mening erim-a?  
**Otello.** Nega muncha ta'kidlaysan? Aytdim-ku, ering!  
**Emiliya.** O' muhabbat, haqoralga bo'lmish masxara!  
Mening erim uni: "Yo'ldan chiqqan", — dedimi?
- Otello.** Ha, ha, o'zi, sening ering, tushunasanim?  
Sadoqatli do'stim, ering va sodiq Yago.  
**Emiliya.** Shunday degan bo'lsa, uning zararli qalbi  
Har kuniga zig'irchaday ezilib oqsin.  
U yolg'on so'z ishlatibdi. Ammo malikam  
O'z irganchik taqdirini ko'p sevar edi.

<b>Otello.</b>	A!
<b>Emiliya.</b>	Sen bundan ham yomonroq ish qilaver, mayli! Unga qancha sen munosib bo'lmaganingday, Bu qilganing ish ham ko'kka shunday noloyiq. Tovushingizni o'chirsangiz — xo'b bo'lar edi. Mendagi bu sabr-chidam shuncha mustahkam, Yarmisini qo'rqtolmas har qancha dalishat. Altmoq! So'tak! Irganch, palid! Nima ish qilding?.. Bir bor enas, yigirma bor o'lqirdsang, mayli. Qilichingdan men qo'rqlmayman, ohib tashlayman. Hoy, kelinglar! Qora arab xolinini o'ldirib qo'ydi. Hoy, kelinglar! Voydod, odamlar!
<b>Otello.</b>	<i>Montano, Grasiano, Yago va boshqalar kiradilar.</i>
<b>Emiliya.</b>	Xo'sh, bu yerda nima o'zi? Nima gap, general? Keldingizmi, Yago? Yaxshi, juda yaxshi. Odam so'yib, sizga gunoh to'nkamoqdalar. Xo'sh, ayting-ehi, nima gap bor? Nima hodisa? Erkak bo'lsang, sharmanda qil bu vijdonsizni, Aytadiki, xotinini ayblab ekansan. Men bilaman, sen qilmaysan, tuban emassan, Ayt, bo'lmasa yurak qindan chiqib ketadi. Men fikringa kelgunini so'yladim, xolos, Ishonilsa bo'ladi, deb hisobladi bu.
<b>Gratsiano.</b>	Notinini, yo'ldan chiqqan, deganmidingiz?
<b>Emiliya.</b>	Ha, degan edim.
<b>Yago.</b>	Yolg'onlaysiz, tubau yolg'on va siz ham mal'un. Ont ichaman, yolg'onlaysiz, dahshatli yolg'on! O'ynashibdi, debmidingiz, Kassio bilan?
<b>Emiliya.</b>	Ha, Kassio bilan, dedim, tilingni tiy-chi. Yo'q, tilimi tiyolmuyman, so'ylashim kerak. Mana bunda sinyoram o'lib yotibdi.
<b>Hamma. (Birdan)</b>	Rahmu qilgil, ey parvardigor!
<b>Emiliya.</b>	Sizning yolg'on bo'ltuningiz o'lim keltirmish. Ey, janoblar, hayron qolmang, barchasi ham rost. Vahshiy haqiqat!
<b>Otello.</b>	Mudhish qilgulik.
<b>Gratsiano.</b>	O'li, razillik! Bu to'g'rida men o'ylaynanki, Sezmoqdaman razolatning sassiq hidini... Shunday bo'lar, deb o'ylardim... Men o'z-o'zimni Bu qayg'udan o'ldiraman, razolat, pastlik!
<b>Montano.</b>	
<b>Emiliya.</b>	



- Yago.** Tentak bo'lib qoldingmi sen? Bor, uyg'a jo'na.  
**Emiliya.** Izni bering, so'ylab olay, janob oliylar,  
Unga doim muleman-ku, shu topda emas.  
Balki, Yago, men uyg'a hech qaytmasman ham.
- Otello.** (Karavotga yiqilib)  
O! O!  
**Emiliya.** Bo'kira ber, karavotga yotib olgancha,  
Sen osmonga ma'sumgina termilib turgan  
Shunday shirin pokdomonni o'ldirding.  
**Otello.** U gunohkor edi, axir. (*Turadi. Grasianogo qarab*)  
Afz eting, amaki.  
Sizni yaxshi tanimasdim. Mana shu qo'llar  
Singlingizni xuddi shunda bo'g'ib o'ldirdi.  
Juda dalishat ko'rinati bu ishi, albatta.  
**Gratsiano.** O'h, hechora Dezdemona, sho'rlik jyanim,  
Yaxshi hamki otang o'lmish buni bilmasdan.  
Avval sening bu nikohing bo'lib unga g'am,  
Keksa umrin iplarini uzmishdi alam.  
Tirik bo'lsa dahshat bilan mukkacha ketib,  
Xudodan ham qaytar edi, mal'un bo'lardi.  
**Otello.** Bu ishlarning barchasi ham qayg'uli.  
Ammo yuz karra yuz marta uning Kassio bilan  
Qilgan yomon istilarini Yago bilardi.  
Iqror bo'lgan bu ishlarga Kassio o'zi.  
Bu sevgining mehnatini mukofotlabdi.  
Unga mening muhabbatim garovi bo'lgan  
Eng birindii hadyamni eltib beribdi.  
Kassioda ko'rdim uni o'z ko'zim bilan —  
Ro'mol edi, padarimdan onanga yodgor.  
**Emiliya.** Ey, osmonning qudratlari!  
**Yago.** Jim bo'ling, deyman.  
**Emiliya.** Jim bo'lmayman. Bari sirtiga tepib ketmoqda,  
Shamol kabi so'z aytishda saxiy bo'lauan.  
Mayli, meni osmon, shayton, butun odamlar  
Uyaltirsin, to'xtatmayman — so'zlay beraman.  
**Yago.** Uyingizga tezroq ketsangiz-chi!  
**Emiliya.** Qaytmayman.  
**Yago.** Emiliyani qilich bilan chopmoqchi bo'ladi.  
**Gratsiano.** Uyat, uyat! Qilich bilan xotin kishiga!  
**Emiliya.** Hoy, ahmoq mavr, ro'molingizni men tasodifan



- Topib olib, o'z erimga topshirgan edim.  
U dam-badam arzimagan shu ro'mokchani  
Qistab-qistab o'g'irlashni so'rardi mendan.  
**Yago.**  
**Emiliya.**
- Iflos folisha!  
Xotiningni, sovg'a qilgan, deyapsanmi? Yo'q.  
Men topganman, topshirganman, mana, erimga.  
**Yago.**  
**Emiliya.**
- Yolg'on so'ylab, aldama murdar!  
Ont ichaman, yolg'on emas, janob oliylar.  
Tentak qonxo'r! Shunday yaxshi bir xotin bilan  
Bunday ahmoq ne qiladi, bu qanday taqdir?  
**Otello.**
- Ko'kning shuncha guldurosi, ayt-chi, ey iflos,  
Bitta momaqaldoqning o'zi uchunmi?  
(*Yagoga tashlanadi.*) *Yago Emiliyaning yelkasiga qilich suqib qochadi.*  
**Gratsiano.** Xotimini o'ldirdi-u. Galdirayapti.  
**Emiliya.** Uh, meni ham malikamga qator yotqizing...  
**Gratsiano.** Xotimini o'ldirdiyu qoehganeba keldi.  
**Montano.** U juda noyob mal'un. Men bu arabdan  
Tortib olgan shu qilichni qo'lga tutingiz.  
Eshiklarni qorovullang, chiqara ko'rmang,  
Unnab qolsa o'ldiringiz, mayli. Men esa  
U mal'un it, yaramasning izidan ketdim.  
*Otello bilan Emiliyadan boshqa hamma ketadi.*  
**Otello.** Menda endi ozgina ham jur'at qo'magan,  
Qilichimni ololadi tirnoqcha bola.  
Sharafmikin shu sharfsiz umrni yashash?  
Hammasi ham nobud bo'lsin, yo'qolsin, mayli.  
**Emiliya.** Nozaninim, qaysi qo'shiq senga yqardii?  
Tinglaysanmi? Aziz jonim? A, Dezdemona?  
Oqqush bo'lib o'ynaymanmi so'ng qo'shiq aytib,  
Bu dunyodan bir uuurga ko'zni yumaman. (*Kuylaydi.*)  
«Oh, majnuntol, majnuntolning qo'shig'ini kuylaymiz».  
Toza edi, sevar edi, marhamatsiz mavr.  
Imon bilan barisiga qasam ichaman.  
**Otello.** Bu gaplar haq... Mana, o'laman. (*O'ladi.*)  
Yana bitta yarog'im bor bu yerda mening,  
Muzli suvda tob berilgan ispan shamshiri.  
Mana! Amaki, tashqariga chiqmoq islayman.  
**Gratsiano** (*Sahna orqasidan*).  
Qimirlading, bilib qo'yki, boshing ketadi,  
Yarog'ing yo'q, itoatga majbursan, arab.



**Otello.** Gaplarim bor, bu yoqqa kir o'zing bo'lmasa,  
Xo'p, demasang, qurolsiz ham bujum qilaman.  
*Grasiano kiradi.*

**Gratsiano.** Nima deysan, nima gaping bor?  
**Otello.** Mana, boshqa yarog'imi bor. Bunday shamshirlar  
Hech bir soldat yonboshini bezay olmagan.  
Bir vaqtlar qisqa qo'lning g'ayrati bilan  
Shu qilib-chi qatorlarni yorib o'tganman,  
Unda to'siq siznikidan qiyinroq edi.  
Biroq hozir u mag'rurlik o'rinsiz — bekor.  
Kim, ayting-chi, taqdirini o'zgartoladi?  
Zarracha ham qo'rqnang mendan — xotirjam bo'ling.  
Tilak, yo'llim, armonlarim shu yerdagi tamom.  
Mening kemam suzmas ortiq, langar tashlagan.  
Siz orqaga chekinyapsiz? O'rinsiz qo'rquv?  
Otelloning ko'krngiga o'q bilan emas,  
Qamish bilan turtangiz ham tisariladi:  
Ayting-chi, u qayerga bora oladi?  
O'h, bechora tolesizim! Bo'z kabi oppoq!  
Uchrashamiz mahshar kuni —adolatlilikun.  
Shunda agar meunga bir gal tashlasang nazar.  
Ruhim ko'kdani qulab ketar, uni iblislar  
Tutib olib, zulmatlarga uloqtirajak.  
Sovibsan, ey aziz malak, xuddi o'zingning  
Tozaliging kabi. O'h, mal'un ko'ppak!  
Haydang meni bu ilohiy vujud ustidan,  
Haydang meni. Ey, shaytonlar,  
Quyunlarda aylantiring, girdobga oting  
Va qovuring oltingugurt eritmasida,  
Cho'miltiring olovlardan, jahannamlarda.  
O'h, Dezdemona. Sen o'lding, oh, Oh-oh!

*Lodoviko, Montano kiradilar. Kassio zambilda. Ofitserlar qo'liga olingen Yago bilan.*

**Lodoviko.** Esin yutgan, badbaxt yigit qayerga ketdi?  
**Otello.** Avvaldagi Otellomi? Men bu yerdaman.  
**Lodoviko.** Ilon qani? Bu mal'unni beri keltiring.  
**Otello.** Shayton degan echki oyoq bo'lguvchi edi.  
Oyog'iga qaruyapman — afsona ekan.  
O'ldiraman, deb o'yayman. Shayton bo'lsang ham.  
*(Yagoni yaralaydi.)*

**Lodoviko.** Qilibini tortib oling.

- Yago.** Yaralandim, qon oqmoqda, tirikman ammo.  
**Otello.** Men ham shunday bo'lishini istayman; yana Bilamanki, o'lim senga tole bo'ladi.  
**Lodoviko.** O'h, Otello, sen ilgari sharaflı eding.  
 Kelib endi shu past qulning makriga uchding,  
 Ayt-chi o'zing, endi seni nima deb atay?  
**Otello.** Qaysi nomda atasangiz — ixtiyorningiz.  
 Mayli, meni nomusli bir qotil deysizmi,  
 Axir, ortiq men bunchalik og'ir ishlarni  
 Nomus uchun qildim, ammo g'azabdan emas.  
**Lodoviko.** Ma'l'un qilgan bu yaramas qiliqlarining,  
 Deyish mumkin, hammasiga iqror ham bo'ldi.  
 Kassioni o'ldirmoqchi bo'lganmidingiz?  
**Otello.** Bali.  
**Kassio.** Bu jazoga men sazovor emasdim, general!  
**Otello.** Ishonaman, kechirasiz, meni asfv eting.  
 So'rар edim, bilingiz-chi, bu yarim shayton  
 Nima uchun o'tga soldi jonu tanimni?  
**Yago.** O'sha bilgan, bilgанинг qola beradi.  
 Bundan keyin churq etib ham og'iz oehmayman.  
**Lodoviko.** O'lar ekan imonni ham o'girmaysamni?  
**Gratsiano.** Qiynog'imiz dahaningni oshib qo'yadi.  
**Otello.** Shunday, shunday! Juda to'g'ri!  
**Lodoviko.** Afandim, siz bu yerdagи ishdan bexabar,  
 Tag-tomirin anglamaysiz. Xat topib oldik...  
 O'ldirilgan Rodrigoning o'z chontagidan  
 Mana tag'in bir boshqasi. Bu xatda esa  
 Kassioni o'ldirishning maslahati bor,  
 Buni o'lgan venetsiyalik ustiga olgan.  
**Otello.** O'h, mal'un, iflos!  
**Kassio.** Qanday razil, qanday irganch makru xiyonat.  
**Lodoviko.** Rodrigoning chontagidan chiqqan boshqa xat  
 Boshdan-oyoq zarda, piching bilan yozilgan.  
 Yago uchun yubormoqchi bo'lgan-u, ammo  
 Ulgurolmay, shu onda bu iflos kelib.  
 Uning ishin tamom qilgan.  
**Otello.** O'h, qo'rqinch, g'addor.  
 Xo'sh, ayting-chi, xotinimning ro'molchasi  
 Qo'lingizga qanday qilib tushdi, Kassio?  
**Kassio.** O'z uyimdan topib oldim. Bu iqror bo'ldi.

Shu yaramas maqsadiga yetmoqlik uchun  
Ataylabdan olib borib tashlagan ekan.  
Maqsadiga yetdi, afsus.

**Otello.** O'h, men tentakman!  
**Kassio.** Bu maktubda men qorovul turgan kechasi  
Rodrigoni menga qarshi ancha gijgijlab  
Yuborganchun, u Yagoga piching qiladi,  
Vazifadan bo'shashimning mana sababi.  
Hati hozir yaralangan Rodrigo o'zi  
Hushiga kelib so'yladiki: «Shuncha ishlarga  
Meni Yago qutquladi», — dedi, so'ng Yago  
O'zi kelib qilich bilan uni o'lirdi.

**Lodoviko.** Siz bu uyni bo'shatasiz, shu bilan birga  
Ainaldan ham bo'shadengiz. Endi Kassio  
Hukmroni bo'lib qolur Qibris orolin.  
Bu qulni-chi? Topilarmi shunday bop jazo?  
Uzoq muddat qyinoqlarda umri cho'zilsin,  
Xuddi shunday bir jazoni unga beramiz.  
Qilganingiz jinoyatni to Respublika  
Bilgunicha siz qamoqda tura turasiz.  
Qani, buni chetlatinglar.

**Otello.** Ozgina to'xtang.  
Ketar ekan ikki og'iz so'zim bor, xolos.  
Venetsiyaga xizmat qildim— hamma biladi.  
Bu lo'g'rida shu kifoya, sizzan so'rayman,  
Bu qayg'uli ish ustida axbor yozarkan.  
Kimligimni aniq yozing, zarra bo'shatmang,  
G'azab bilan oshirmang ham va aytингizки,  
U tentakcha sevar edi, biroq ko'p kuchli  
Rashk qilishga uncha moyil emasdi, ammo  
Portladi-yu chegaraga borb taqaldi.  
Podsholikdan qummatbaho marvaridini  
Bitta ahmoq hindu kabi uloqtirdi, deng.  
Shuning uchun endi uning mute ko'zidan,  
Garchand bunday nozik g'anga yot edi, ammo  
Arabiston daraxtidan oqqan shiraday  
Ko'p shisobaxsh yoshlar oqar. Barisin aytling...  
(O'ziga o'zi xanjar uradi.)

**Lodoviko.** Qonli xotima!



**Gratsiano.**

Butun gaplar bekorga ketdi.

**Otello.**

O'pib turib qilgan edim men seni halok.

Eng oxiri o'pib turib jon beraman pok.

(*Dezdemonaning karavotiga yiqilib, o'ladi.*)

**Kassio.**

Ana shundan qo'rqrar edim. Lekin men uni

Qurolsiz deb o'ylagandim. O'zi ham lekin

Katta qalbga ega edi.

**Lodoviko (Yagoga).** Sparta iti!

Ochliklardan, og'irliklardan dengiz mudhishi —

Shu yoloqning g'uissa to'la yukiga qara.

Bu barchasi sening ishing — qarash ham jirkanch.

Tezdan ustlarini yoping. Gratsiano,

Siz hozirecha bunda qolib, uyni saqlangiz.

Mol-ashiyoni tartib bilan qabul qilingiz.

Arabga siz voris, axir. (*Kassioga qarab*)

Bu jahannam g'addirorini, janob hukmidor,

Sud qilingiz, qyinoq uchun vaqt belgilang,

Hlech ayamang. Men-chi, endi, g'amgin bir chopar,

Qaytlaman Venetsiyaga — suzib ketaman,

Bu dahshatning oqibatin xabar etaman.

*Chiqib ketadilar.*



## Savol va topshiriqlar

1. Dezdemonani o'ldirish uchun uning yotog'iga kirgan Otello nega: "*Gulni uzib o'z shoxidan, unga qaytadan Ko'karishlik xosiyatin bera olmayman*". — deganligini izohlang.
2. Mavrning: "*O'ldiraman, ammo seni yana sevaman*", — degandagi holatini sharhlang.
3. Otelloning ayolini o'lim oldidan ibodat qilishga undashi sababini anglashga urining.
4. Emiliya bilan suhbatda Otello Dezdemonani kim o'ldirganini nega so'rudi?
5. Mavrning: "*U yolg'onchi jahannamning qa'riga ketdi. Men o'ldirdim*", — tarzidagi iqroriga asosan uning shaxsini sharhlang.
6. Emiliya Otelloning qotilligini bilguncha va bilgach, o'zini qanday tutdi? Matnga tayanib, bu hol sababini izohlang.
7. Emiliyaning bu ishda Yagoning qo'li borligidan hayratga tushgani sababini tushunishga urining.

8. Ayolning: “*O‘, muhabbat, haqoratga bo‘lmish masxara!*” — degan xitobini izohlang.
9. Emiliyaning Yagoga aylgan: “*Erkak bo‘lsang, sharmanda qil bu vijdonsizni*”, — gapidan uning tabiatiga xos belgilarni toping.
10. Yagoning kelma-ket savol yog‘dirayotgan ayoliga munosabatiga qarab uning shaxsiyatini tavsiflang.
11. “*Jim bo‘lmayman. Bari sirtga tepib ketmoqda*”, — degan hayqiriqda Emiliya tabiatining qay jihatlari ko‘rinadi?
12. Otello aylgan: “*Ko‘kning shuncha guldurosi, ayt-chi, ey iflos, Bitta momaqaldiroqning o‘zi uchunmi?*” — tarzidagi xitobning ma’nosi nima va u kimga qaratilgan?
13. Otelloning: “*Mening kemam suzmas ortiq, langar tashlagan*”, — degan so‘zlarini sharhlang.
14. Mavrning: “*Uchrashamiz mahshar kuni — adolatli kun. Shunda agar menga bir gal tashlasang nazar, Ruhim ko‘kdan qulab ketar...*”, — deb bildirgan anduhbini izohlang.
15. Otelloning o‘z qilmishi haqidagi: “*Nomus uchun qildim, ammo g‘azabdan emas*”, — degan igrorini sharhlang.
16. Fojia qahramonining o‘zi haqidagi: “*U tentakcha sevar edi, biroq ko‘p kuchli Rashk qilishga uncha moyil emasdi*”, — degan gapiga intimosabat biling.

## “OTELLO” FOJIASI TO‘G‘RISIDA

“Otello” fojiasida insoniyat paydo bo‘lgandan beri yonna-yon kelayotgan ezgulik va yovuzlik, xiyonal va sadoqlat, jinoyat va ishoneh, oljanoblik va past-kashlik singari sifatlar o‘rtasidagi kurash tasvirlangan. O‘scha davrning barcha gumanistlari singari Shekspir ham insonni har jihatdau yetuk, kamchiliklardan xoli, odam degan mukarram nonga munosib ko‘rishni istaydi. Asarda ana shunga intilgan zotlar va o‘tkinchi manfaat, hokimiyatga erishish yo‘lida qabihlik qilgan kimsalar taqdirining o‘zaro kesishgan nuqtalari tasvir etilgan.

Manfaatparastlik, hasadgo‘ylik shunday illatki, unga yo‘liqqa kimsa o‘ziga ham, o‘zgalarga ham zug‘um qilmasligi, zarar yetkazmasligi mumkin emas. General Otelloning mulozimi bo‘lmish munofiq va hasadgo‘y Yago o‘rinbosarlikka uni emas, jasur Kassioni tanlagani uchun ham xo‘jayinidan, ham leytenantdan o‘ch olishiga tutinadi. Buning uchun eng tuban yo‘ldan borib, generalning xotinini buzuqlikda ayblaydi. O‘zining arzimas manfaati uchun ulug‘ kishilarni ham, yuksak qadriyatlarni ham oyoqosti qilishga tayyor Yago Otelloning ishonuvehan va oqko‘ngilligidan ustalik bilan foydalananadi.

Bunda unga boy va yosh bo'lishiga qaramay, Dezdemonaning muhabbatini gozonolmagan alamizada Rodrigo ham yordam beradi. Asarda lo'g'ri odamlarning ishonuvchan, sodda bo'lishi, o'zgalardan yomonlik, xiyonat kutmasligi Otello, Kassio, Dezdemona, Emiliya timsollari orqali ta'sirli ko'rsatilgan.

Otello — ishonuvchan, lekin laqma ham, almoq ham emas. U inson degan zot o'z nomiga yurasha mard, lo'g'riso'z va ochiqko'ngil bo'ladi, deb hisoblaydi. Chunki o'zi bir umr shunday yashaydi. U xotinini birovdan rashk qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Negaki, unga o'ziga ishonganday ishonadi. U hech kimdan, ayniqsa, suyumli yoridan xiyonat kutmaydi. Shuning uchun u xiyonatni kechirmaydi ham.

Asarda shuncha ezgu sifatlari odamlarning o'limi bir fojia bo'lsa, ularning arzimas bir odamning mayda manfaatlari yo'lida halok bo'lganligi fojianing dara-jasini yanada oshiradi.

Yovuzlik o'rgimechakning lo'ri kabidir. O'rgimechakning lo'riga pashsha ham, pashshani quylab kelgan ari ham ilinib qolaverGANI singari yovuzlik lo'ri unga tushgan mazlumni qanday maliv etsa, uni yoygan zolimni ham shunday komiga tortishi mumkin. Yomonlik hech qachon yolg'iz yurnaydi. Biri boshqasini keltirib chiqaradi, biri ikkinchisini boshlab keladi. Suning uchun ham Yagoning hasadgo'yligi birgina Otello va Dezdemonani emas, Yagoning o'zini ham xotini Emiliya bilan birgalikda komiga tortib ketadi.

Asarning bosh qahramoni Otello gumonlar, iztiroblar girdobida tasvirlanadi. Xato qilishdan cho'chiydigan, xiyonatni kechirmaydigan, nohaq qon to'kilishini istamaydigan general har bir qadamini o'lehab bosadi, har bir gapini o'ylab gapiradi. Lekin yomonlar tufayli baribir xato qiladi.

Otello — samimi odam. U turlanishni, kishilar ko'ziga o'zini boshqacha ko'rsatishni istamaydi. Oriyallli bo'lgani uchun ham xotining xiyonati haqidagi xabarni juda og'ir kechiradi, yo'qotish dalishatidan qutulolmaydi, hamisha shuning ta'sirida yuradi. Lekin u dardini bozorga solmaydi, odamlarga tomosha ko'rsatishni istamaydi. Otello — inson hayoti, umr mazmuni haqida ko'p o'ylaydigan va uni to'g'ri baholashga urinadigan o'ychil odam. Hamma insoqli odamlar singari o'ziga nisbatan talabchan.

Otello o'zini tinimsiz taftish qiladi. Xatti-harakatlari, o'ylari, tuyg'ulariga baho beradi. U har qanday oriyallli odam singari xiyonatchi ayolni tezroq jazo-lagisi keladi. Lekin insof kishisi, ko'ngil odami bo'lgani uchun ham tavakkaliga ishl tutmaydi. Adolatsizlikdan qo'rqaqidan odamning o'zi bilmagani, o'zgalarga ishongani uchun adolatsizlik qilishi fojia ko'laminu yanada oshirgan.

## TRAGIK OBRAZLAR VA HAYOT HAQIQATI

Mana, siz dunyo adabiyotidagi shoh fojia(tragediya)laridan biri bilan tanishib chiqdingiz. Shu asnoda sizga tragediya timsollarining boshqa janrlardagi asar qahramonlaridan bir qadar farq qilishi sezilib qolgan bo'lsa kerak. Chunki kundalik hayotning mayda-chuydalaridan baland turadigan, turmush tashvishlarini hal qilish te'g'risida emas, balki umr ma'nosini anglash haqida o'ylaydigan boshqacharoq odamlar fojianing qahramoni yoki qurboni bo'la oladi. Yuksak orzular, baland axloqiy muammolar quchog'ida yashamaydigan, hanuma qatori kun ko'radigan kishilar hayotida ham achchiq ko'rguliklar, dahshatli falokatlar bo'lishi mumkin. Iekin ularga fojia deb emas, balki baxtsizlik deb qaraladi.

Fojia buyuk odamlarning buyuk maqsadlar yo'lidagi omonsiz kurashlari va halokatlaridangina tug'iladi. E'tibor bering: Otello hech qachon ezzgulikka xiyonat qilmagan buyuk va qudratlil inson, lekin o'zi bilmagan holda kechirilmas jinoyal qilgan sho'rlik odam! To'g'riso'zligi, odamlarga ishonishi, tinimsiz ravishda haqiqatga intilishi uning fojiasini kuchaytiradi. Boshqa jo'nroq odam Dezdemona haqidagi gaplarning tugiga yetish uchun tekshirishlar o'tkazgan, odamlardan so'rabsurishtirgan bo'lardi. Otello bunday maydalikni o'ziga ep ko'rmaydi. Chunki u Yagoning yolg'on gapisiz mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. Otello ulug' inson bo'lgani uchun ham haqiqatning tagign yetgach, o'ziga o'zi eng og'ir jazo belgilaydi va uni ijro etadi.

Otello hamisha o'ylanib, qiynalib yashaydi. O'zi yuksak ma'naviyat egasi bo'lgani uchun boshqalardan, hech bo'lmasa, o'z yaqinlaridan poklik, tozalik kutadi. Lekin Yagoning gapiga ko'ra, ayoli ham, ishongan o'rinososari Kassio ham unga xiyonat qiladi. Otello qasoskor emas, balki nomusli odam. **U** odamlarning bu qadar tubanligi va olamning bunchalar buzuqligidan hayratga tushadi, qiynalib ketadi.

Fojaviy timsollardagi shu xil boshqachalik ularning xatti-harakatları ham, gap-so'zları ham o'zgacharoq bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham tragediyalarda, ayniqsa, yirik tragik timsollar tasvirida hayot haqiqatiga to'la amal qilinmasligi, shartlilikka yo'l qo'yilishi mumkin.

Tragik timsollar duch kelgan nohaqlikning ko'lami yirik bo'lgani uchun bunday obrazlarning halokati tusayli tug'iladigan fojia ham dahshatli bo'ladi.

---

## HAYNRIX HAYNE

(1797 – 1856)

---



XIX asr nemis adabiyotining yirik vakili, samimiy ko'ngil she'riyatiga siyosiy hajviy tanqidni ustalik bilan qo'sha olgan haqiqiy shoir Haynrix Hayne 1797-yilning 13-dekabrida Germaniyaning Dusseldorf shahrida savdogar yahudiy oиласida tug'ildi. Bo'lajak shoirning tarbiyasi bilan, asosan, onasi Betti shug'ullandi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan xabardor bu ayol o'g'lida so'zga muhabbat, uning qudratidan hayrat tuyg'usi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Otasi Samson Hayne Yevropadagi zamonaviy fikrlovchi ko'pehilik singari o'g'lining napoleonchi harbiy bo'lismeni orzu qiladi. Napoleonning mag'lubiyatidan so'ng ota-onasi Haynrixning savdo bilan shug'ullanishini ma'qul deb hisoblashdi. Lekin uning ham o'zlarini singari kichik savdogar emas, balki Hamburgdagagi amakiysi Solomon kabi yirik tijoratchi bo'lismeni istashadi.

Shu maqsadda maktabni bitkazgan yigitchani Hamburgga amakisiniķiga jo'natishadi. Lekin ta'sirehan, to'g'riso'z va mag'rur Haynrix savdo ishlari ga mutlaqo qiziqmas, u kecha-kunduz kitob bilan oshnochilik qilar, ko'p vaqtini she'rlar yozib o'tkozar edi. Faqat iqlisodiy foyda keltiradigan yumushtlar bilan shug'ullanishnigina tan oladigan amakisiga uning bu ishlari yoqmasdi. Buning ustiga, Haynrix amakisining suluv qizi Amaliyani shaydolarcha sevib qoladi. Lekin qiz uning tuyg'ularini rad etadi. Xuras, amakisiniķida o'tkazilgan samarasiz uch yıldan so'ng yigit uyiga qaytadi va astloydil o'qishga tutinadi.

Haynrix Hayne 1819-yildan e'tiboran Bonn, Hettingen va Berlin universitetlerida o'qiydi. Yevropaliklar tasakkuriga jiddiy ta'sir o'tkazgan mashhur faylasuf Gegeldan ma'ruzalar tinglab, bilimini oshiradi. Yigit huquqshunoslik fakultetini juda yaxshi baholar bilan bitirib, diplom olgan bo'lsa-da, bu sohada biror kun ishlamaydi.

1827- yili Hamburg shahrida o'ttiz yoshli Haynening "Qo'shiqlar kitobi" nomli lirik she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Bu kitobga kirgan she'rlarida yosh shoir dunyoning tushunarsiz, hayotning murakkab va odamlar orasidagi munosabatlarning chigalligini o'ta ta'sirchan yo'sinda tasvirlagan.

U she'rlaridan birida odamlar haqida:

*"Ba'zisi do'st, kelar qoshimga,  
Ba'zilari dushmanidan battar",*

— deb yozadi. Haynening anglamsiz tuyg'ular huqidagi she'rlari xalq qo'shiqlariga yaqinligi, tushunarli va musiqiy ekani bilan o'quvchilarni o'ziga mat-tun etardi. Yosh shoir she'rlarida og'zaki ijodda bo'lganidek, lirik qahramonning ichki dunyosini uning kechinmalari va tabiatning tasviri orgali oshib beradi.

1830- yilda Haynrix Haynening "Yo'l lavhalari" nomli ikkinchi kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobda u mamlakat va xalqning ahvolini mardonalik bilan xolis taftish qila oladigan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Kitob yo'l ocherklardan iborat bo'lib, Germaniyaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy darajasini huqqoniyligini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. H. Haynening o'tkir nigozi hanuz-gacha o'ttizta davlatchaga bo'linib yashayotgan yagona millatning g'arib ahvoli, qoloslik botqog'iga botganligini ko'radi va afsus-nadomatga to'la achchiq tili bilan uning aybdorlarini fosh etadi.

Umrimi nemis xalqining hayotini farovonroq qilish uchun kurashga tikkan Haynening tutumlari o'z manfaatidan boshqa narsani o'ylamaydigan hukmdorlarga yoqmasdi. Shuning uchun ham 1830- yilda u Fransiyaga ketishiga majbur bo'ldi. O'sha yilning iyulida sodir bo'lgan inqilobdan keyingi Parijdagi siyosiy va adabiy hayotda faol ishtirok etadi. Nafaqat nemislarning, balki butun insoniyatning baxthli yashashini istagan shoir bu yerda o'ziga ko'plab xayrixohlar, hamfikrlar topdi va umrining oxiriga qadar qizg'in ijod qo'ynida yashaydi.

Haynrix Hayne 1843- yilda insoniyatning hayotini tunomila o'zgartirib yuborish da'vesi bilan chiqqan Karl Marks bilan tanishadi. Marksning ommani baxthli qilishiga doir yuqumli xomxayollari ta'siriga berilgan shoir dastlabki vaqt-larda uning g'oyalariga tarafdar bo'lib yuradi. Lekin kommunistik qurashlarda kishining erkiga zo'rlik o'tkazish ustuvorligini payqab qolgach. Marksdan ham, uning g'oyalaridan ham uzoqlashadi. Yevropadagi qaynoq ijtimoiy-siyosiy hodisalar ta'sirida shoirning poetik iqtidori o'sha yillarda ko'proq siyosiy yo'nalishdagi she'rlarida namoyon bo'ldi. Haynening "Sileziya to'quvchilari" she'ri, "Germaniya. Qish ertagi" dostoni, "Qullar kemasi" balladasi yuksak badiiy kuchidan tashqari, ijtimoiy yo'nalgaanligi bilan ham o'sha davr o'quvchilarining e'tiborini tortadi.

Shoirning "Sileziya to'quvchilari" she'rida achchiq hayotiy haqiqat butun shafqatsizligi bilan aks ettirilgan. Shoир she'rdagi voqealarni ko'rsatishiga emas,

millat ruhiyati tovlanishlarini tasvirlashga ko'proq e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham she'rdagi: "*La'natlar bu yurtga, yolg'on vatanga, Unda baxt ko'radi tubanlik, xo'rlik*" misralarida vatanda turib, vatansiz yurgan xalq sezimlari bori-chu ko'rsatilgan. Shoир vatanga ega bo'lishi lozim kishilar vatan tomonidan ezilgani uchun ularning vakillari bo'lmishi to'quvhilarda: "Germaniya, to'qiyimiz biz kafaningga" tarzidagi tuyg'ular paydo bo'lganini mardona shafqatsizlik bilan aks ettiradi. She'rd'a shoир kafan vatanı Germaniyaga emas, balki uning ayanchli o'tmishiga to'qilayotganini aks ettiradi.

Shoirning chet eldaligida yozilgan asarlari orasida 1832- yilda yaratilgan "Fransuz ishlari" asari fransuz siyosiy hayotining o'ziga xos yilnomasi sifatida e'tirof etilgan. 1842- yilda bitilgan "Atta Troll" majoziy dostoni alohida e'tiborga molik bo'lib, unda hayvonlar timsolli vositasida tepsa-tebrannas, yurt ravnaqi uchun biror narsa qilishga qodir bo'lmagan kimsalar ayovsiz hajv ettiladi. Haynening 1854- yilda yaratgan "Lyutetsiya" asari ham fransuz hayatini aks ettilishga bag'ishlangan. Haynrix Haynenning ijodiy taqdirdida uning "Romansero" (1851), "E'tirof" (1854) she'riy kitoblari alohida ahamiyatga egadir. Bu asarlar nafaqat shoир ijodi, balki nemis millati she'riy tasakkuri taraqqiyotida jiddiy voqeа bo'ldi.

O'n uch yil davomida vatandan yiroqda, sarsonlikda yurgan otashin yurtsevar shoир uni millatga mehrsizlikda ayblagan kishilarga qarata "Germaniya. Qish ertagi" (1844) kitobiga yozgan so'zboshisida: "*Men vatanni sizlardan kam sevmayman. Shu sevgim tufayli men o'n uch yil quvg'inda bo'ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-voh qilmasdan, iztirobdan yuzimni bujmaytirmasdan, yana, ehtimol, butun umrga quvg'in joyimga qaytmoqdamon*". — deb yozganda bashorat qilgan edi. U yaqinlari bilan uehrashgach, shu yili yana Fransiyaga qaytib ketdi. Haynrix Hayne 1856- yilning 17- fevralida Parijda vafot etdi.

Haynening buloq suviday tiniq va jarangli she'riyati o'zbek kitobxonlarini ko'pdan buyon qiziqtirib keladi. Shuning uchun ham uning asarlari turli davrlarda Cho'lpox, Oybek, Mirtemir, Abdulla Sher, Xayriddin Sulton kabi ijodkorlar tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan.



## Savol va topshiriqlar

1. Bo'lajak shoирning bolalik va yoshlik yillari kechgan muhit haqidagi ma'lumotga e'tibor qiling.
2. Hayne she'riyatiga xos xususiyatlarni gapirib bering.
3. Shoир hayatida Fransiya tutgan o'rini to'g'risida to'xtaling.
4. Hayne ijodida ijtimoiy-siyosiy yo'nalish ustuvorligi sababini anglatung.

## SHE'RLAR<sup>1</sup>

\* \* \*

Bo'sh xayollar chekinmish olis,  
Dilda yana sevgi havasi.  
Yana hokim nozik ezgu his,  
Simiraman bahor havosin.

Yana tongdan to kechki sout  
Xiyobonda kezaman bulun.  
Shlyapaning ostidan shoyad  
Ko'rinsa deb chehrasi gulgun.

Ko'priq uzra vaqt o'tkazaman,  
Yashil daryo ustida turib.  
O'tib qolar balki yonimdan  
Meni asta ko'zdan kechirib.

Shalolaning raqsidan yana  
Eshitaman oh bilan nola.  
Mening uyg'oq qalbimga ayon  
Ne xususda kuylar shatola.

Mavhum orzu-o'yga g'arq bo'llib  
Surunaman yaqin-yiroqda.  
Telba oshiq holdan kulib  
Yana qushlar sayraydi bog'da.



### Savol va topshiriqlar

1. Yigitdag'i "bo'sh xayollar"ning olisga chekinishi sababini izohlashga urining.
2. Uning ruhiyatidagi ishonech, intilish kabi ijobjiy o'zgarishlarning sababi nimada?
3. She'rdagi: "*Mening uyg'oq qalbimga ayon Ne xususda kuylar shatola*" satrlarini izohlang.
4. Oshiquing: "*Mavhum orzu-o'yga g'arq bo'llib*" surunishi sababini anglateng.

<sup>1</sup> She'rlarni Xayriddin Sultanov o'zbekhalashтирган.

\* \* \*

O, sen qo'rqma, chekmagin tashvish  
Dil sirini qilsam oshkora.  
Va sha ningga majozu tashbih  
Bag'ishlasam sening ming bora!

Gullar aro erib ketar u  
Esganida o'rmon salqini.  
Kuydirguvchi pinhon otash bu,  
Yuragimning sirli yolqini.

Yo'q, hisobga o'tmaydi aslo  
Uchqun sochsa checliaklar porlab!  
Alangaga ishonmay dunyo  
Turar elni she'r bilan chorlab.



## Savol va topshiriqlar

1. Sho'irning: "*O, sen qo'rqma, chekmagin tashvish Dil sirini qilsam oshkora*" tarzidagi xitobi kimga qaratilgan va nimani anglatadi?
2. "*Gullar aro erib ketar u*" deyilganda nima ko'zda tutilgan deb o'ylaysiz?
3. Sho'irning: "*Kuydirguvchi pinhon otash bu, Yuragimning sirli yolqini*" iqorida nima ko'zda tutilganini tushuntiring.
4. She'rnинг so'nggi bandini izohlang. Undan qanday ijtimoiy ma'no chiqarish munukinligiga e'tibor qaratting.
5. She'rnii yod oling.

\* \* \*

Suvdan boshin chiqarib asta  
Nilufar gul boqadi mas'um.  
Yonib ishqil alangasida  
Oy qiladi unga tabassum.

Ibo bilan suv oynasiga  
Sekin boshin egdi nilufar.  
Oy bo'lsa-chi uning poyida  
Dir-dir titrar, shu'lasin separ.



## Savol va topshiriqlar

1. Manzara she'rnинг биринчи бандини шарҳланг. Undagi образлarning бадиий вазифасига то'xtalинг.
2. She'rdagi: "*Ibo bilan sur oynasiga Sekin bosin egdi nilufar*" тасвiri бадииятни изоҳланг. Айни хотатнинг хайоти усосини ко'rsating.
3. Oyning "*dir-dir*" litragани holda "*shu'la sep*"ishi sababini izoҳланг.
4. She'rnı yod олинг.

\* \* \*

O'tkir bo'lsa ko'zlarинг agar,  
Kуylaringa nigoh otib boq.  
Unda yashar ajoyib dilbar,  
Suluvlardan ko'ra suluvroq.

Qulog'ing soz eshitsa agar,  
Nozik sasga bir dam qulоq os.  
Isyon to'la qalbingda yashar,  
Qo'shiq, navo, kulgu, ehtiros.

Menga o'xshab qo'shiq, nigohlar  
Selri seni o'ziga bog'lar.  
Qizg'in osliq bo'lib, armonda  
Surunarsan tog'u o'rmonlar.




## Savol va topshiriqlar

1. O'ylab ko'ring: shoirning куylarida yashayotgan "*suluvlardan ko'ra suluvroq*" kim yoki nima?
2. She'rnинг иккинчи бандини дигъат билан o'qing. "*Isyon to'la qalbingda yashar, Qo'shiq, navo, kulgu, ehtiros*" misralarini шарҳланг.
3. So'nggi bandda shoirga o'xhashi mumkinligi taxmin qilingan subbatdoshning kimligini anglab olishga urining.
4. Lirik qahramon qismati haqida o'ylab ko'ring. Unga o'xshagingiz keladimi?
5. She'r kimga bag'ishlangan deb o'ylaysiz?

## ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN

(1799 — 1837)



Umr bo'yi g'oyat notinch va tartibsiz yashagan tengsiz rus shoiri Aleksandr Sergeyevich Pushkin hayotining so'nggi yillari fojiali bo'ldi va halokatli yakun topdi. U 1799- yilning 6- iyunida Moskva shahrining Nemislar ko'chasiida yashovchi qadimiy dvoryanlardan bo'lmish iste'fodagi mayor Sergey Pushkin oиласида tug'ildi. Bo'lajak shoirning onasi Nadejda Pyotr 1 ning tutingan o'g'li habash Ibrahim Hannibalning nevarasi edi. Pushkinlar o'qimishli, adabiyotga qiziqadi-gan, ijod ahli bilan bordi-keldi qiladigan kishilar edi. Shu bois bu uyning bolalari ijodiy muhitda ulg'aydi. Oiladagi bolalar ma'naviyati shakllanishiga ularning enagalari Arina Radionovna Yakovleva kuchli ta'sir ko'rsatdi. Xalqning urf-odallari, rutiliyati, og'zaki ijodi va tilini juda yaxshi biladigan oqila va mehribon bu ayol bo'lajak shoir, uning ukasi va singlisi tarbiyasida katta o'rinn tutdi.

Shunga qaramay, Aleksandr Pushkinning hayotidagi hal qiluvchi voqeа uning 1811- yilning 19- oktabrida Rossiya poytaxti Sankt-Peterburg yaqinidagi Sarskoye selo imperatorlik litseyiga qabul etilganligi bo'ldi. Bu yerda bo'lajak shoir ijodkorlik muhiti va erkin fikr bilan tanishdi hamda Ivan Pushkin, Anton Delvig, Vilgelm Kyuxelbeker singari bir umrlik chin do'stlar orttirdi. Ular keyinchalik ham shoirning hayotida muhim o'rinn tutishdi. Bunga alohida urg'u berilayotganiga sabab shuki, Aleksandr Pushkin g'oyat lezob, qaysar, izzattalab bo'lgani uchun uning do'stlari ko'p emasdi.

Pushkinning she'riy ijodi o'qiyotgan paytda boshlandi. Yosh shoirning dastlabki she'ri 1814- yilda litseyda chiqadigan "Yevropa xabarları" jurnalida chop etildi. Litseyda o'qib yurganidayoq Pushkinning tengsiz iste'dod egasi ekanligi ayon bo'lgandi. O'limidan ikki yil oldin litseydagagi imtihonlarning birida qatnashgan keksa Derjavin Pushkinning she'rimi eshitgachi, uning buyuk shoir bo'lajagini bashorat qiladi.



Litseydan keyingi dastlabki yillardayoq, Pushkin ijodiy cho'qqilarini birin ketin zabt eta boshladi. 1817- yilda mashhur "Erkinlik" she'ri yozildi. 1820- yilda "Ruslan va Ludmila", "Mis chavandoz" dostonlari dunyoga keldi. "Ruslan va Ludmila"ning qo'lyozmasi bilan tannishgan mashhur shoir Jukovskiy Pushkinga: "G'olib shogirdga mag'lub ustozdan". — degan yozuv bilan o'z portretini sovg'a qildi. Bu Aleksandr Sergeyevich Pushkinning ulkan g'alabasi, uning shoir si fatidagi chinakam tan olinishi edi.

Badiiy ijodda Pushkin o'zini cheklashni istamasdi. Unimani yozishda ham, qanday yozishda ham hech kim bilan hisoblashmasdi. Chunki vulqonday qaynab turgan iste'dod o'zgalarning irodasiga bo'yusuna olmasdi. Shuning uchun ham uning bitganlari orasida hukmron tartiblarga yoqmaydigan anchagini jihatlar bo'lishi tabiiy hol edi. Nihoyat, 1820- yilga kelib, har qanday talantli kishida bo'lganidek, Pushkinning ham hasadchilari paydo bo'ldi va shoirning siyosatga mos kelmaydigan dadil she'rlari haqida chaquv uyushtirildi. Natijada, shoir im perianing janubiga **surgun** qilindi. Quvg'in to'rt yildan ortiqroq davom etdi.

1824—1826- yillarda esa Pushkin davlat xizmatidan bo'shatilib, olasiga tegishli mulk bo'lmish Mixaylovskoye qishlog'iga surgun qilindi. Bu yerda shoir yolg'izlik va madaniy muhitdan olsida juda qynaldi. Lekin rus xalqiga xos milliy belgilari to'la saqlangan bu qishloqda bo'lish shoirga xalq og'zaki ijodi bilan ya qindan tanishish imkoniyatini berdi. U aholidan folklor namunalarini yozib oldi.

1830- yilga kelib, o'n yildan beri yozilayotgan "Yevgeniy Onegin" she'riy romaniga nuqta qo'yildi. 30- yillarda Pushkinning "Belkin qissalari", "Toppon xonim", "Dubrovskiy" singari nasriy asarlari chiqdi. Bu davrda jamiyatning qarashlari o'zgarib, didlar yangilanayotgani uchun ham bu asarlar katta shuhrat topmagan bo'lsa-da, badiiy quvvati hamda yozuvchi mahorati nuqtai nazaridan diqqatga molik bitiklar edi.

1836- yilda Pushkinning mashhur "Kapitan qizi" asari tugallandi. Bu asarda turli personajlar taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo'lmasligi, u har daqiqada kulilmagan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligi g'oyat ta'sirli aks ettirilgan.

Poytaxtga qaytgach, Pushkinning **ijodi** gullab yashnadi-yu, ammo uning shaxsiy turmushi tobora chigallashib borardi. Mashhur shoir yaxshigina pul topardi-yu, qo'li ochiqligidan, uni yetkazolmas va hamisha qarz bo'lib yashardi. Shuningdek, poytaxtda Pushkinning tengsiz iste'dodi, qaynoq ijodini ko'rolmaydigan hasadgo'ylar ko'p bo'lib, ular turli yo'llar bilan shoirga ozor yetkazish, uning hayotini azobga aylantirishga urinardilar. Usiz ham ta'sirchan shoir borgan sari asabiy, izzattalab, tajang bo'lib borar, bu hol uning dusmanlari safi kengayishiga olib kelardi. Dushmanlar turli mish-mishlar tarqatib, Gollandiya elehisining tutingan o'g'li Dantes bilan Pushkinning ora-





simi butunlay buzadilar. Natijada, 1837- yilning 25- yanvarida Pushkin Dantesga haqoratomuz xat yozib, uni duelga chorlaydi. 27- yanvar kuni duel bo'lib o'tadi va buyuk shoir qattiq jarohatlanadi. Ikki kun azoblanib yotgan A. S. Pushkin 1837- yilning 29- yanvarida olamdan o'tadi.

Pushkin ijodi o'zbek o'quvchilariga juda yaxshi tanish. XX asr boshidan buyon buyuk rus shoirining asosiy asarlari Cho'lpon, G'.G'ulom, Oybek, Mirteinir, E. Vohidov, A. Oripov, Muhammad Ali, A. Suyun, H. Xudoyberdiyeva, U. Azim, M. Kenjabeck singari ijodkorlar tomonidan qayta-qayta o'zbekchalashtirilgan.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Pushkining tabiatiga xos betakror jihatlarini ko'rsating.
2. Shoirning tabiatini bilan ijodidagi uyg'uni va nomuvofiq jihatlar haqida mulo-haza yuruting.
3. Buyuk shoir qismatidagi chigalliklar sababiga lo'xtaling.

## YEVGENIY ONEGIN

(she'riy romanidan parchalar)<sup>1</sup>

*Vafot etib ketgan aslzoda Larinning jiddiy, o'ychan va oqila qizi Tatyana qishloqqa amakisining mulkiga egalik qilish uchun Peterburgdan kelgan o'qimishli va aqlli Yevgeniyni ko'rib, astoydil sevib qoladi. Uyatchan qiz o'z tuyg'ularini atrofidaqilardan yashirishga urinadi. Ko'p ikkilanishlardan keyin qiz sevgisini izhor qilib, yigitga xat yozadi.*

## UCHINCHI FASL

### TATYANANING ONEGINGA MAKTUBI

"Xat yozurman sizga, ne chora?  
Yana ne ham ayta olurman?  
Men bilaman, endi bir bora  
Qahringizga balki qolurman.  
Lekin qaro baxtinga zora  
Ko'rib zarra shafqatni ravo,  
Ketmagaysiz tashlab benavo.

<sup>1</sup> M. Kenjabeck tarjimasi.

Sukut qilmoq bo'lgandim avval.  
Ishoningiz, uyalganim — siz  
Sira bilmas edingiz, esiz.  
Gar umidim bo'lsa edi sal,  
Haftada bir bo'lsa ham yakka,  
Bu qishloqda sizni ko'rmakka.  
Eshitolsam guftoringizni,  
Bir so'z desam, keyin beloqat  
Kecha kunduz o'ylasam faqat.  
Faqat yana diydoringizni.  
Odamovi emishsiz ammu,  
Taskin bermas qishloqjoy sizga,  
Bizlar... jozib emasmiz aslo,  
Lekin shodmiz tashrifingizga.

Biz yoqlarga keldingiz nechun?  
Kimsa bilmas qishloq, ovloqlar,  
Bunda sizni bilmasdim butun,  
Bilmasdim — ne achchiq qyinoqlar,  
Balki, murg'ak jonda titroqlar  
Qaydam bir kun bosilib yana  
Bir do'st topib o'zinga loyiq,  
Bo'larmidim vafodor qayliq  
Va mehribon, mushfiq bir ona.

Boshqasi!.. Yo'q, hech kim dunyoda  
Ololmasdi ko'nglimni mening.  
Hukm o'qilgan arshi a'loda,  
Falak amri: men — sening, sening.  
Butun umrim sen bilan go'yo  
Uchrashuvning tanho garovi.  
Bildim — seni yuborgan xudo,  
O'lqumuncha o'zing panohim...  
Ko'riningdagi go'l tushlarinda,  
Sen g'oyibdan bo'lding qadrdon,  
O't nigohing o'rtadi yomon,  
Qalbin aro tovushlaring-da  
Yang'or edi... Yo'q, tush emas bu!  
Ko'rindingu tanidim-qoldim,

Behol bo'ldim, lovullab yondim  
Va xayolan dedim: mana shu!  
Chin emasmi, men qulq soldim:  
Biz gaplashdik sukut damida,  
Men gadoga in'om bergen chog',  
Ibdat-la orom bergen chog'  
Hayajonli dilim g'amiga!

Xuddi o'shal tahlzada, oyo,  
Sen emasmi, ey, aziz ro'yo,  
Qorong'uda chaqnab ko'ringan,  
Bolishinga egilgan asta?  
Sen emasmi, mehru havasda  
Labda umid so'zi uringan?  
Kimsan axir, panohimmisan,  
Va yo bir shum berahmmisan?  
Yozgil shubha-gumonlarimni.  
Yoki bular bari beqaror  
Murg'ak qalbim yolg'onlarimi?  
Yo boshqa gap peshonamda bor?..

Bo'lsa-bo'lsin! Bugundan boshlab  
Taqdirimni senga topshirdim  
Va qoshingda ko'zlarim yoshlab,  
Himoyangni so'rab bosh urdim...  
Tasavvur qil: men bunda yakka,  
Hech kim meni tushunmay qoldi,  
Hatto aqlu xushim ham toldi,  
Mahkumdirman jumjit o'lmakka.  
Men kutaman, bir nazar bilan  
Umidimni qalbda tirlgizgil,  
Yoki og'ir tushimni buzgil  
Evoh, haqli bir g'azab bilan!

Bitdi! Qayta o'qiymen — dahshat...  
Nonus, qo'rjinchi ichra muzlar dil...  
Imoningiz — menga kafolat,  
Topshiraman o'zimni dadil..."

### XXXII

Goh tinar qiz, goh ohlar urur,  
Titranadi maktub qo'lida.  
Pushti konvert yopishar, qurir,  
Yallig'langan qaqrqoq tilida.  
Boshginasin solar mung'ayib,  
Tungi ko'ylik tushar sirg'alib  
Uning nozik yelkalaridan...  
Nur qochar oy halqalaridan.  
Yorishadi vodiy — tumanzor.  
Kumushlanar soy shalolası.  
Cho'pon chalgan qo'biz nolasi  
Qishloq ahlin aylaydi bedor.  
Tong: uyg'onnish yaqinu yiroq,  
Talyanaga farqi yo'q biroq.

### XXXIII

Tong nurlarin payqamas hatto,  
Boshin bukib o'llirar ma'yus.  
Maktubiga chekmaydi imzo —  
O'yma mulrin urmaydi hanuz.  
Astagina eshik oshib lek  
Oqsoch Filipevna kirar tek —  
**U**palnida keltiradi choy.  
«Dildorginam, turgil endi... Voi,  
O'zing ham shay, uyg'oq ekansan!  
O, tong qushi, salarxez qushim!  
Kecha rosa uehdii-ku xushim!  
Shukr, tetik ham sog' ekansan!  
G'aandan nishon qolmabdi, qizim  
Ikki yuzing anordek qizil».

### XXXIV

— Oh, bibijon, bir iltifot qil. —  
«Izningdaman, buyurgil, jonim».  
— Lekin-chi... bad guman qilma... Kel,  
Yo'q demagil, oh bibijonim! —  
«Xudo kafil, qizginam, lekin».

— Nabirangdan shu xatni sekin  
Berib yubor O... ga, anovga...  
Qo'shnimizga... Lekin birovga  
Biron og'iz gapirmasın, bas,  
Aytmasın ham mening otimni... —  
«Kimga bersin, joniń, xatingni?  
Endi esim joyida emas,  
Tevarakda qo'shni ko'p, qaydam,  
Hammasini eslayin qaydan?»

### XXXV

— Befahmisan, buncha ham, ena! —  
Jonu dilim, qariman, axir.  
Qariganda es ketar, Tanya,  
Eh, yoshlikda ziyrak edim bir,  
So'z aytdimi ulug'lar, unda...»  
— Bas, bibijon, cho'zding-ku juda!  
Esing menga ne kerak, ajab?  
Ko'ryapsan-ku, xatdan borar gap —  
Atalgandır Onegin uchun. —  
«Gap — gap-u, sen qizishna, qo'zim,  
Bilasan-ku, essizman o'zim...  
Ranging yana oqardi nechun?»  
— Qo'y, hech gapmas, sen bora qolgin,  
Nabirangni yubora qolgin.

## TO'RTINCHI FASL

### IX

...Bo'lgandi ilk yoshlik zamoni  
U shiddatlì xatoyu qizg'in  
Va betizgin hislar qurbanbi.  
Hayot tarzi erkalab faqat,  
U biriga maktun muvaqqat.  
Boshqasidan uzadi ko'ngul,  
Istaklardan bezadi so'ng ul,  
Yengil zafar toldirdi tag'in,  
Tinglab showqin va jimlik aro

O'z qalbidan mangu bir nido,  
Kulgu bilan bosur esnog'in.  
Umrining gul faslidan fuzun'  
Sakkiz yili so'lди shu yo'sin.

## XI

Biroq olgach Tatyana xatin,  
Bir o't tushdi yigit joniga.  
Ma'sum orzularning suhbati  
O'ylar qo'shdi hayajoniga.  
Ma'yusgina, so'lg'in, parishon  
Tatyananasi esladи shu on.  
Bir shirin o'y, pokiza xayol  
Yuragini chulg'adi darhol.  
O'tgan hislar o'ti — balosi  
Balki, bir zum qo'zg'oldi shu choq.  
Istamadi aldashni, biroq.  
Bokira qalb ishonch, ixlosin.  
Endi bizlar uchaylik boqqa —  
Qiz u bilan ko'rishgan yoqqa.

## XII

Avval bir oz turdilar kutib,  
Yaqin kelib Onegin shunda  
Shivirladi: "Yozilsiz maktub,  
Tonmangiz, men o'qidim unda  
Soddagina dil izhorini,  
Pokiza bir sevgi zorini.  
Samimiyat — men uchun aziz,  
Bu his qo'zg'ub qo'ydi, shubhasiz,  
So'nib ketgan tuyg'ularimni.  
Anuno sizni maqtamay ortiq,  
Sizga shundoq etaman tortiq  
Men ham dilda yo'g'u borimni...

<sup>1</sup> Fuzuni — uzuni, davouli

### XIII

Men hayotni faqal dunyoda  
Uy ichi deb bilsaydim agar,  
Xush qismatim er yoki ota  
Baxtin hukm qilsaydi agar,  
Oilaviy tur mushga o'zim  
Mehr qo'ysam, hech yo'qsa, bir zum,  
Izlamasdim unda, haqiqat,  
Sizdan bo'lak biron rafiqo.  
Aytay madhu sanolarsiz rost:  
Bo'lsaydi ilk xayolu havas,  
Jami go'zalliklarga evaz —  
Faqat sizni tanlardimi, xolos.  
Siz g'aminga yor bo'lib ul vaqt,  
Men... bearmon bo'lardim xushibaxt!

### XIV

Ammo baxtga mening qalbin yot;  
Yaralmabman halovat uchun.  
Behudadir sizning kamolot —  
Arzimayman men unga butun.  
Siz ishoning, vijdonim kafil,  
Tur mush bizga g'am bo'lur, axir.  
Sizni qaneha sevmayin o'zim,  
Ko'nikdimmi — soviyman shu zum.  
Yig'layapsiz, ko'zyoshlar nechun?  
Yo'q, yuragim hech ta sirlanmas...

### XV

...Men shundayman. Yozib nomani  
Siz pokiza, yoniq dil bilan.  
Bu kamolot, bu aql bilan  
Istaganmi edingiz mani?  
Nahot, taqdir — berahim samo  
Sizga shuni ko'ribdi ravo?..."



## Savol va topshiriqlar

- Qizning yigitga yozgan maktubida: "*Hukm o'qilgan arshi a'loda, Falak amri: men — sening, sening*". — degan iqrori uning yengiltakligini anglatmaydimi?
- Tatyana sevgisining ko'lami uning: "*Butun umrim sen bilan go'yo Uchrashuvning tanho garovi*" shaklidagi iqrorida qanday aks elgan?
- Tortinchoq qishloq qizining yigitga qarata: "*Sen g'oyibdan bo'lding qadrdon*" tarzidagi iqrori sababini anglating.
- Tatyananing: "...*Bugundan boshlab Taqdirimni senga topshirdim*" shaklidagi qarorini izohlang.
- Yevgeniyga yozayolgan xatini lugalgan qiz holatining "*Bitdi! Qayta o'qiymen — dahshat... Nomus, qo'rqinch ichra muzlar dil...*" tarzida tasvirlanishi sababini tushuntiring.
- Qizning: "*Imoningiz — menga kafolat, Topshiraman o'zimni dadil...*", — degan qarorga kelishi sababini sharhlang.
- Tatyananing xizmatchi kampirga: "...*Lekin birovga Biron og'iz gapirmsasin, bas, Aytmasin ham mening otimni*", — deyishi sababini anglating.
- Umuman, qizlarga, ayniqsa, ularning sevgisiga ishonmaydigan, qizlarni aldashdan zayqlanadigan Yevgeniyning Tatyani aldashni istamaganligi sababi haqida o'slang.
- Yigitning: "*Samimiyat — men uchun aziz, Bu his qo'zg'ab qo'ydi, shubhasiz, So'nib ketgan tuyg'ularimni*" shaklidagi iqrori sharhlang.
- Yevgeniyning: "*Bo'lsaydi ilk xayolu havas, ...Faqat sizni tanlardim, xolos*". — degan ta'kidini sharhlang.

## SAKKIZINCHI FASL

### XIV

...Chayqaladi daf'atan salon<sup>1</sup>,  
Shivir-shivir ketar bir mahal...  
Beka sari kelar bir juvon,  
Orqasida mag'rur general.  
Bu xonim jim, andishali zab,  
Istarali, kamisuqum, kaangap.  
Ko'zlarida go'zal bir hayo,  
Hech zafarga unda yo'q da'vo.  
Yo'qdir biron soxta jilvasi,  
Yo'q taqlidiy biron ifoda,  
Bonu tamom sokin va sodda...

<sup>1</sup> Salon — bazmxona.

## XVII

«Nahotki, — deb o'ylar Onegin, —  
Nahot o'sha? Xuddi o'zi... Yo'q...  
Olis qishloq bag'ridan, lekin,  
Qandoq keldi?...» Yigit ko'zi lo'q —  
Qo'shoynakdan boqar dam-badam.  
Yodga solar orazi shu dam  
Unutilgan bir qizni elas.  
«Bilurmisan, ayt menga, knyaz,  
Movut bo'rqli anov xonim kim —  
Turur ispan elchisi birlan?»  
Oneginga qarar u birdan.  
— Ha, sen ko'pdan yo'q eding, do'stim.  
To'xta, hozir aytaman, inim.  
— «Kim u, axir?» — Mening xotinim. —

## XVIII

«Uylandim de! Bilmabunun buni!  
Qancha bo'lди?» — Qariyb ikki yil.  
— «Kim?» — Larina. — «Tatyana bonu?»  
— Taniysanmi? — «Qo'shnisiman, bil».  
— O, yo'qsa, yur. — Knyaz qo'zg'olib,  
Qarindoshi, do'stini olib,  
Rafiqasi tomon boshlaydi.  
Begoyim bir nigoh tashlaydi...  
Yuragiga tushsa ham g'uluv,  
Qolsa hamki zo'r hayrat ichra,  
Hayajomu xijolat ichra,  
O'zgarmaydi zarracha suluv.  
O'sha raftor, fe'l unda hokim,  
O'sha-o'sha — salomi sokin.

## XIX

Xudo haqi, nainki titrab  
Qizarmadi, rangi o'chunadi,  
Juvon hatto tishlamadi lab,  
Qosh chimirib, hayrat sochmadidi.  
Tikilsa ham berilib, yolu,  
Yo'q, avvalgi Tatyana dan u  
Topolmadi biron nishona.

So'zlashmoqni istadi, yuna  
Epolmadi. So'radi juvon  
Kelganligin qaydan, qachondan,  
Balki, dedi, yurtim tonondan?..  
Erga horg'in nigoh tashlabon  
Keyin asta bo'ldi u g'oyib...  
Bu tosh qotib qoldi mung'ayib.

## XX

Nahotki, bu o'sha Tatyana?..  
Dostonimiz boshlarida, o,  
Olis, jinjit makonda, ya'ni  
Xilvatgina o'sha bog' aro  
Xush xulqini ko'rguzib yigit,  
Bergan edi unga pand-o'git.  
Hanuz asrar o'shal maktubin,  
Unda ko'ngul aytur mathubin.  
Rozi — ravon, erkin va ravshan.  
O, Bu o'sha qizchami, ro'yo?..  
Bu sargardon umrida, oyo.  
Qilgayamidi dardini pisand?!  
Nahot, unga nisbatan shu dam  
Ayol shuncha beparvo, o'ktam?

## XXI

Kechar gavjum majlisdan allol,  
O'nga botib uyga jo'nar u;  
Goh g'aanginu goh go'zul xayol  
Endi sira bermaydi uyqu.  
Turgach, bir xat berishar unga:  
Qulhuq qilib, knyaz N uyga  
Taklif etmish oqshom. «O' xudo!  
Uning uyi... Borgum, borgum, ol»  
Hurmat-la tez qaytarur javob.  
Nima bo'ldi? Ko'rar nechuk tush?  
Sovuq, tanbal yuragining, xo'sh,  
Tubida ne g'imirlar shu tob?  
O'kinchuni bu, puch o'yimi, hasrat,  
Yoki yoshlik dardi — muhabbat?

## XXII

Soat sanar Onegin, yonar,  
Sabri yetmas kechgacha yana.  
Oxir o'nga bong urar, jo'nar —  
Uchib borar. Mana, oslona.  
Kirar titroq tushib yurakka,  
Tatyana ni uchratar yakka;  
So'ng bir necha lahza yonma-yon  
O'ltilishar. Onegin hamon  
So'z topolmas. O'ng'aysiz, qo'pol,  
Ma'yus. Ayol so'ziga shu tob  
Zo'rg'a-zo'rg'a qaytarar javob.  
Ezar uni o'jar bir xayol.  
Yigit tajang boqar; begoyim  
O'ltiladi erkin, muloyim.

## XXVIII

...O'zgarmishdir qancha Tatyana!  
Nechog' topmish o'z qiyofasin!  
Oliy mansab singari yana  
Egallamish usullar darsin!  
Davraning zo'r malikasidan.  
Bu mo'tabar, chin bekasidan  
Kim topur ul nozik qizchani?  
Asir etmish Onegin ani,  
Shu yigit deb qaro kechalar  
Kelman turib uyqu xudosi,  
Qiz qayg'urib, yutib nidosin,  
Oyga nigohl tikkan nechalar  
Va umrini u bilan xushhol  
Kechirmoqni aylagan xayol!

## XXX

Yosh boladek Yevgeniy, beshak,  
Tatyana ga qo'ymish muhabbat.  
Kun va tunni o'tkazur halak,  
Ishq dardida o'rtanib faqat.  
Hech sadoni aqli tinglamas.  
**U**bosh urib eshigiga, bas,  
Har kun borur oynavand uyga,  
Soya kabi ergashar unga...

## XXXII

...Tatyana-chi, hamon beparvo.  
Ayol zoli shunaqadir, bas,  
Yigit — qaysar, qaytnoq istamas.  
Umid qilar, urinar, biroq,  
O'zi betob, sog'dan dadilroq  
Begoyimga xal yozur yoniq.  
Garchi kamdir maktubda ma'no,  
Befoyda deb o'ylar-u, ammo,  
Ammo ko'ngil dardiga, aniq  
Endi unda qolmadi toqat.  
Mana sizga, ayni o'sha xat.

## ONEGINNING TATYANAGA MAKTUBI

"Men bilaman, tahqirlar sizni  
Ushbu munqlug\* sirlar bayoni.  
Beomon bir g'azab to'fon  
Chulg'ar mag'rur nigohingizni!  
Ne istarman? Ne maqsad bilan  
Dil ochurman sizga bemalol?  
Achehiq, zahar kulguga, bilmam,  
Men yo'l berib qo'ydim, ehtimol.  
Nogoh sizni uchratib bir kez,  
Mehr nurin payqadim-u, tez.  
Ishonmoqqa chog'lannmadim hech.  
Xush odatim yo'li berkildi,  
Men o'zimning dilgir erkinni  
Yo'qotmoqni xohlamadim hech.  
...Dilga yaqin har nimaki bor,  
Shundan keyin ko'nglimni uzdim.  
Men yotsirab yurdim. Azob bu.  
O'yladimki erk, orom — tanho  
Baxtga evaz bo'lur. O, xudo!  
Qanday xalo, bu qanday jazo!..  
Yo'q, yo'q, sizni ko'rmoq safosi,  
Izingizdan qolnay quvlamoq.  
Lab kulgusin, ko'zlar imosin  
Oshiq ko'zlar ila ovlamoq.  
Xo'b termulmoq sizning jussaga,

Dildan tuymoq — ne kamolot bu,  
Qarshingizda qotmoq g'ussada,  
Bo'zarmoq va so'nmoq..., rohat bu!  
Men shundan ham mahruman, faqat  
Sudralaman aylab tavakkal.  
Kun — g'animat, soat — g'animat,  
Men-chi isrof etaman malital,  
Taqdir sanab bergan kunlarni.  
...Men bilaman, unurinda bor had,  
Lekin uni cho'zib turmoqqa  
Tongda amin bo'lmoqligim shart  
Kunduz kuni sizni ko'rmoqqqa...  
...Bilsaydingiz, naqadar dahshat  
Muhabbatga zorlik jahonda.  
Yonmoq aql ila har soat,  
Tug'yonlarni so'ndirmoq qonda.  
...Vahki, soxta sopolik bilan  
Qurollammish nulqu nigohim;  
...O'zimga zid bormog'im og'ir,  
Nochordirman ushbu kezda man.  
Qarorim shul, izmingizdaman,  
Men tan berdim taqdirliga oxir".



### Savol va topshiriqlar

1. Qishloqi oyimqiz Tatyananing qisqa vaqt orasida "*Yo'qdir biron soxta jilvasi, Yo'q taqlidiy biron ifoda, Bonu tamom sokin va sodda*" darajadagi aylonga aylanishi sababi haqida o'ylab ko'ring.
2. Tortinchoq qiz Talyana tabiatidagi "*Yuragiga tushsa ham g'uluv, Qolsa hamki zo'r hayrat ichra, Hayajonu xijolat ichra, O'zgarmaydi zarracha suluv*" shaklidagi o'zgarishlar sababini ayting.
3. Asarda ikki yildan so'ng uchrashishganda qiz holatining "*Keyin asta bo'ldi u g'oyib...*" Yigit hissiyotining: "*Bu tosh qotib qoldi mung'ayib*" tarzida berilishini izohlang.
4. "*Soat sanar Onegin, yonar, Sabri yetmas kechgacha...*" tasvirida oshiq holati qanday aks etgan?
5. Gapga usta, haminaga lepadan qaruydigan Oneginning "...hamon So'z topolmas. O'ng'aysiz, qo'pol, Ma'yus" ekani tasviri ishonarlimi?
6. Yevgeniyning xatidagi: "*Qarshingizda qotmoq g'ussada, Bo'zarmoq va so'nmoq... rohat bu!*" ta'kidi nimani anglatadi va u samimiymi?

7. Yevgeniyning: “O‘yladimki erk, orom — tanho Baxtga evaz bo‘lur. O, xudo! Qanday xato, bu qanday jazo!..” shaklidagi afsusini izohlang.
8. Parchanning so‘nggi to‘rt qatorida Yevgeniy rubiy holati qanday tasvirlangan?

\* \* \*

*Yigit xatiga javob kutadi. Xuddi bir vaqtlar Tatyananing xatiga javob kelmagani singari Onegin ham javob ololmaydi.*

### XXXIII

Javob yo‘qdir. Boz maktub yozur,  
Ikkinchchi xat, uchinchchi xati —  
Javobsiz. Bir majlisga bazo‘r  
Borar edi, kirgan zahoti...  
U duch keldi. Qanday beomon!  
Buni ko‘rmas, so‘z deimas biron!  
Yolu, yana oshibdir qalri —  
Borlig‘ida — chillaning zahri!  
Tag‘in uning o‘jar lablari  
Yashirmoqchi bo‘lar jahlini!  
Sinchkov boqdi Onegin: qani.  
Qani uning tug‘yon, dardlari?!  
Qani ko‘zyoshi dog‘lari?.. Abas!  
Chehrasida g‘azab izi, bas...

### XXXIX

Kunlar o‘ldi: iliq havoda  
Qishning umri tugadi, to‘zdi.  
Shoir bo‘ldi na u dunyoda,  
Na o‘ldi, na aqldan ozdi.  
Bahor unga baxsh etdi hayot,  
Bir tiniq tong tark etdi u bot.  
Sug‘ur kabi qishlagan o‘sba  
Qo‘sish darchali, kimsasiz go‘sba —  
Maskanimi lushladi ilk bor.  
Neva bo‘ylab yelar chanada.  
Ko‘k va kesik muzda yonadi  
Kun nurlari. Uyum-uyum qor  
Chirkin bo‘lib eriydi yomon.  
Bu yo‘llardan borar u qayon?

## XL

Qayon yelar Onegin? Ayon,  
Siz topdingiz maqsadim — tag'in.  
Tag'in borar Tatyana lomon  
Son kirmagan mening tentagim.  
Kirar xuddi murda misoli.  
Hech kimsa yo'q yo'lakda, xoli.  
Zalga kirar. Yuradi, alhol  
Eshikni ham ochar. Bu ne hol?  
Nadir uni qoldirgan hayron?  
Beka... Beka o'llirar yolg'iz,  
Besaranjom, chehrasi qonsiz,  
Kaftin tirab yuziga, vayron,  
Bir maktubni o'qir besado.  
Yoshlar to'kur panjalar aro.

## XLII

Uning unsiz iztirobin, bas,  
Kim shu lahma uqolmas, e voh!  
Kim begoyim aksida ko'rmas  
Eski munuglug' Tatyanani, oh!  
Yigit — o'kinch, dard ichra majnun.  
Oyog'iga yiqildi zabun.  
Beka cho'chib, jim qoldi nogoh,  
Oneginga tashladi nigoh —  
Beg'azab va butkul behayrat...  
Uning xasta hain so'nik yuzi,  
Unsiz ta'na, iltijo so'zi  
Ayon edi bonuga. Faqat  
Sodda, ma'yus qiz qalbi, nochor,  
Uyg'ongandi ko'ksida takror.  
Oneginga, turing, deyolmas.  
Uzolmas ham undan ko'zini.  
Qaqroq o'shal labdan ololmas  
Beka shu zum jonsiz qo'lini...  
Endi neni aylar u xayol?  
Ular uzoq jim qolar. Ayol  
Asta kirar, nihoyat, so'zga:  
«Bas, turingiz endi, men sizga  
Aytmog'im shart barini oshkor.

Yodingizda bormi, Onegin,  
...O'sha bog'u xiyobon? Nochor  
Sizdan saboq tinglagan edim.  
Tinglang, endi mening navbatim.

#### XLI

Onegin, men u mahal yoshroq,  
Ham suluvroq edim, chamanda.  
Sizni suydim, suydin-u, biroq  
Qalbingizdan ne topdim g'amda?  
Javob topdim beshafqat, xolos.  
Yuvosh qizning muhabbatি, rost,  
Bildim, sizga yangilik emas!  
Endi esa, yo rab, o'sha va'z,  
O'sha sovuq nigohni nuqul  
Esladimmi, muzlab ketar qon...  
Ayblanayman, ammu, u zamon  
Tutgandingiz oljanob yo'l,  
Haq edingiz, qilsam andisha,  
Minnatdorman sizdan hamisha...

#### XLIV

O'sha paytlar, shov-shuvdan yiroq  
Ovloqlarda yurgan kezimda  
Men yoqmagan edim-ku... Biroq  
Ne bor endi mening izimda?  
Endi sizga nishonman nechun?  
Balki, balki yurganim uchun  
Bukun kibor olamda masrur?  
Yo o'qlar yeb janglarda erim,  
Siylagani uchununi saroy?  
Istagingiz budir, hoynahoy,  
Jamiyatda ochilsin sirim,  
Men sharmsor bo'layin, faqat  
Bu gap sizga keltirsin shubrat?!

#### XLV

Men yig'larman... Tatyanganizni  
Umutnigan bo'lsangiz hamon,  
Bilib qo'ying, ul ta'nangizni,  
Sovuq, piching so'zlarni bu on,  
Bo'lsa edi menda ixtiyor.

Alamlaru maktublaru bor  
Ko'zyoshlardan ko'rardim afzal...  
O'sha ma'sum orzularga sal  
Qilsaydingiz zorracha shafqat,  
Etsaydingiz yoshni ehtirom...  
Endi qay his, qaysi illizom!  
Tiz cho'ktirdi sizni oqibat?!  
Shunday aqlu yurak-la, kim ul  
Bo'lur mayda tuyg'ularga qul?

#### XLVI

O', Onegin, bu dabdaba, shukuh,  
Manfur hayot ziynati nadir  
Kibor olam domida beruh  
Zafarlarim, davlatim nadir?  
Hashamador uy, ziyofat, g'avg'o,  
Nadir menga bu bo'g'iq havo?..  
O'sha yangi ham yovvoyi bog',  
O'sha faqir maskanim — qishloq,  
O'sha sizni, Onegin, ilk bor  
Ko'rganim ul joylarga, zolan,  
Bukun sho'rlik enagam yotgan  
Xoch, soyalar ostidagi zor  
O'sha mozor, o'sha xilqatga  
Barchasini qillardim sadqa...



#### Savol va topshiriglar

1. Asardagi "**U** *duch keldi. Qanday beomon! Buni ko'rmas, so'z demas biron!*" tasviri kim haqdida? Va nega shunday?
2. "*Qani uning tug'yon, dardlari?! Qani ko'zyosh dog'tari?.. Abas! Chehrasida g'azab izi...*" tasvirida Onegin Talyanada qanday o'zgarishlar bo'lishini kula-yolgani angladilingiz?
3. "*Shoir bo'ldi na u dunyoda, Na o'ldi, na aqldan ozdi*" misralaridan Onegin tabiatini tanidingizmi?
4. Qish bo'yisi yolg'iz bo'lgan Oneginni Neva bo'yulariga qanday kuch olib chiqdi deb o'ylaysiz?
5. Begoyinning yolg'iz, g'amga botib o'tirgan holati tasvirlangan bobni qayta o'qing va sharhlang.

<sup>1</sup> Illizom — zaruriyat, ehtiyyot.

- 
6. *Kim begoyim aksida ko'rmas, Eski munslug' Tatyana...*" satrlarini izohlang.
  7. *"Oneginga tashladi nigoh — Beg'azab va butkul behayrat..."* satrlarida iloda-langan ayol ruliyatini tushuntirning.

## *Nazariy ma'lumot*


### SHE'RIY ROMAN

A. S. Pushkining "Yevgeniy Onegin" asari rus adabiyotidagi birinchi she'riy romanidir. Pushkin bu asarni yaratishda buyuk ingliz shoiri Bayronning "Don Juan" she'riy romanidan ta'sirlangan. Dastlabki she'riy romanlar jamiyat axloqining buzilishi sababli ma'naviyati nuqsonli, baxti kentik bo'lib qolgan iste'dodli shaxslar taqdirini ko'rsatishga bag'ishlangan. "Yevgeniy Onegin" romanining bosh qahramoni kelishgan, aqlii, o'ziga yarasha o'qimishli, farosatli yigit. Lekin u o'z axloqini kibor jamiyat talabiga moslashtirishga nujbur bo'lgani uchun hamminaga begona. Munofiqlik va yolg'oni axloq darajasiga ko'targani uchun ham olyi tabaqa vakillari o'rtasidagi munosabatlarda samimiylilik yo'q. Samimiylilik bo'limgan joyda muhabbatga ham o'rinn yo'q. Shu bois qizning eng munosib umr yo'ldoshi bo'lishi mungkinligini yaxshi bilgani holda Yevgeniy Tatyananining sevgisini rad etadi. U o'zining qizga loyiq emasligini sezadi.

Onegin yengiltak ham, xotinboz ham emas. Lekin kiborlar ko'ziga shunday ko'rinish, ular orasida shuhurat orttirish uchun ayollarni yo'ldan urishga urinadi. Yevgeniy janjalkash, qonxo'r odam emas, ammuno kiborlarda duelga chiqishdan qo'rqi degan fikr uyg'otmaslik uchun, o'zi istamagani holda sodda shoir yigit Lenskiyni otib o'ldiradi. Romanada kuchi, g'ayrati, aqlini sarflashi mumkin bo'lgan ezgu mo'ljalning yo'qligi tusayli qiyonalayotgan yigit iztiroblari aks etган.

She'riy roman ham odatdagagi romanlar kabi tafsilotlarni bayon qilishga asoslangan janr bo'lib, unda epik va lirk xususiyatlar aralash keladi. She'riy romanda epik jihatlar: sujetning ko'ptarmoqli, bayonning xolis ekanida ko'rinsa, lirk belgilari tasvirga muallifning bemaol aralashuvni, uning o'z tuyg'ularini erkin ifoda etaverishida ko'rindi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, "Yevgeniy Onegin" asarida qahramon hayotidagi sarguzashtlar bilan birga, asardagi personajlarning xatti-harakatiga shoir munosabati ham yaqqol ifoda etilgan.

Keyingi vaqtida o'zbek adabiyotida ham bir necha she'riy roman yaratildi. Birinchi o'zbek she'riy romanı "Ziyod va Adiba" Mirmuhsin qalamiga mansub edi. Keyinehalik, Muhammad Alining "Boqiy dunyo", II. Sharipovaling "Bir savol" singari she'riy romanlari dunyoga keldi.



## CHINGIZ AYTMATOV

(1928—2008)

Butun turkiy xalqlarning iftixori bo'lmish yozuvchisi Chingiz Aytmatov hozirgi zamон dunyo adabiyotining yorqin namoyandasidir. Uning qissa va romanlari jahonning deyarli barcha asosiy tillariga tarjima qilingan.

Chingiz Aytmatov 1928- yilning 12- dekabrida Qирг'изistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug'ilgan, bolaligidanoq hayot mashaqqatlarini tatigan. Bobosi Aytmat qo'li gul hunarmand va ajoyib qo'bizechi bo'lgan. Otasi To'raqul Aytmatov rus-tuzem maktabida tahsil ko'rgan, o'qimishli, fikri tiniq odam edi. Respublika miqyosidagi katta lavozimlarda turib, Qирг'izistonda savodsizlikni tugatish, yurtga zamонaviy madaniyatni olib kirish yo'lida astoydil nehnat qiladi. 1937- yilda sho'ro hukumati tomonidan qamalib ketgach, oila boshiga ko'p og'ir savdolar tushadi. Bo'lajak adibning onasi Naima Aytmatova ham o'qimishli, yuksak madaniyatli, oqila ayol bo'lgan.

Oilaning to'ng'ich farzandi Chingiz avvaliga rus mакtabida o'qidi. Otasi qamalib, qishloqqa qaytishga majbur bo'lishgach, qирг'iz maktabida ta'lim oldi. U o'smir yoshidan ikkinchi jahon urushi yillari front ortida xilma-xil yumushlarni bajaradi. Erkaklarning deyarli barchasi urushiga ketgani sababli qishloqdagi eng savodli erkak sifatida 1942- yilda — o'n to'rt yoshida qishloq kengashi kotibi qilib tayinlandi. So'ng soliq yig'uvechi, traktorchilar brigadasida hisobchi bo'lib ishladi.

Chingiz hayot mashaqqatlariga qaramay, yaxshi ta'lim oladi. Rus va qирг'iz tillaridagi adabiyollarni o'qishdan charchamaydigan yigit mакtab davridayoq juda bilimdon kishiga aylangandi. Shakar qishlog'idagi buvisi, ammalari uni milliy odad va unutilmas an'analardan bahramand elganlar, onasi Naima zamонaviy madaniyat bilan oshno qilgan.

Eslashlaricha, Ch. Aytmatov yoshi bolaligida haydovechi bo'lishni orzu qilgan. Amma turmush uni o'zga yo'llardan yurishga majbur qildi. O'rta maktabni bitirgan yigitcha 1945- yilda zooveterinariya texnikumiga kirib, uni 1948- yilda bitirdi. So'ng qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirib, uni 1953- yilda tugatdi. Tajriba fermasida zootexnik bo'lib ishladi ham. O'spirin yoshidan unda yozishga havas bor edi. U texnikum va institutda o'qib yurganida ham badiiy adabiyotdan uzoqlashmadidi. Timmsiz o'qir, qirg'iz adiblarining asarlarini ruschaga, rus yozuvchilarining bitganlarini qirg'izchaga ag'darar, o'z sohasiga doir voqealar haqida maqola va ocherklar yozardi.

Adabiyotga ishtiyoq tufayli bora-bora u kasbini o'zgartirishga majbur bo'ldi. 1956—1958- yillarda Moskvadu Oliy adabiyot kursida tahsil ko'rdi. Bu yerda chinakam adabiy jarayon bilan yuzlashdi. Badiiy adabiyot, adabiy qahramon haqida tushunmeha paydo bo'ldi. Oldin ham o'qigan asl adabiyot namunalariga ijodkor ko'zi bilan qaraydigan bo'ldi. Keyinchalik u: "Agar men bu yerda o'qinaganimda o'z qissalarimni yoza olmagan bo'lardim",— deb uytadi. 1957-yilda "Yuzma-yuz", 1958- yilda "Jamila" qissalari chop etildi.

Ch. Aytmatov 1958—1960- yillarda "Literaturniy Kirgizstan" jurnalida muharrir, 1961- yilda "Pravda" gazetasining O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'yicha maxsus muxxbiri bo'lib ishladi. 1962- yilda Qirg'iziston kinematografiya kengashi raisi bo'ldi. 1988—1990- yillarda "Inostrannaya literatura" jurnalining Bosh muhariri bo'ldi. 1991- yildan boshlab, Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasining Lyuksemburg va Belgiyadagi elehisi bo'lib ishladi. Ulug' yozuvchi 2008- yilning 10- iyunida og'ir kasallikdan vafot etdi.

Yozuvchining "Birimchi muallim", "Yuzma-yuz", "Jamila", "Alvido, Gulsari", "Oq kema" singari asarlari uning nomini jahonga tanitdi. Adibning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", "Kassandra tamg'asi", "Tog'lar qulaganda (Mangu kelinchak)" romanlarida nafaqat bir millat va mamlakatga, balki bütün insoniyatga daxldor ma'naviy-axloqiy muammolar aks ettirildi. Shuning uchun ham Chingiz Aytmatov asarlari jahoning 165 tiliga o'girilib, 67.2 million nusxada chop etilgan. Albatta, bu raqamular to'xtovsiz ko'payib boraverdi.

Ch. Aytmatovning deyarli barcha badiiy asarlari o'zbekchaga tarjima qilin-gan. Chunki uning qalamiga mansub obrazlar millatidan qal'i nazar har bir kishiga yaqin va tushunarli. Siz quyida tanishadigan "Asrga tatigulik kun" romanidan olingan parcha ham har birimizga bevosita tegishli ruhiy holatlarni aks ettirganligi bilan e'tiborga loyiqidir.

*Hurmatli o'quvchi! Mana, Siz dunyoga mashhur yozuvchining hayot yo'li bilan tanishdingiz. Quyida Siz o'qiydigan asarda inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng dahshatli azob — o'zligini unutish, ildizini bilmaslik ekani aks ettirtilgan.*

## ASRGA TATIGULIK KUN<sup>1</sup>

(romandan parcha)

Temiryo‘ning ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik — Sario‘zak, o‘rtacho‘l yasanib yotadi.

Bo‘ronli bekatidan to Naymandagi xesh-ajdodlar qabristoni Ona Bayitgacha temiryo‘ldan hisoblaganda, kamida o‘ttiz chaqirim keladi. Sario‘zak dashtligi orqali to‘ppa-to‘g‘ri kesib chiqilganda ham shuncha masofa. Mabodo, cho‘lda adashib qolmayinu, yaxshisi, temiryo‘l bo‘ylab boraveray, degan odam qabristonga hali ancha uzoq yurishi kerak. Shunday qilganda, Qiyshiqsoy jarligidan o‘tib, Ona Bayitga borguncha ancha-muncha aylanishga to‘g‘ri keladi. Boshqa yo‘l yo‘q edi. Shunday qilib, eng yaqin yo‘ldan yurilganda ham borishi-yu kelishi oltminish chaqirim kelardi.

Bari bir Edigey o‘z gapida turib oldi:

— Qo‘ysalaring-chi, yigitning sha’niga to‘g‘ri kelnaydigan gaplarni, — deb tinchlantirdi u yoshlarni. — Bunday odamni ajdodlari yolgan joyga, Ona Bayitga qo‘yishimiz kerak. Rahmatli o‘zi shunday vasiyat qilgan. Kelinglar, gap solib o‘tirmay ishga o‘taylik, dafnga tayyorlanaylik. Yo‘limiz olis. Ertaga azonlab yo‘lga tushamiz...

Edigeyning aytgani aytgan, buni hamma tushunardi. Shuning uchun ham hammalari rozi bo‘lishdi. To‘g‘ri, Sobitjon biroz tixirlik qildi. U shu kuni yuk poyezdida (passajir poyezdlari bu yerda to‘xtamay o‘tib ketadi) yetib keldi. Sobitjon bu yoqqa kelayotganida otasining tirikligini ham, o‘lganini ham bilmasdi. Shunga qaramay, dafn marosimiga yetib kelgani Edigeyning ko‘nglini yumshatib, quvontirib yubordi. Boshlariga tushgan og‘ir musibatdan ikkalasi bir lahma quchoqlashib, yig‘i-sig‘i qilib olishdi. Edigey keyinroq o‘zining nega bunday qilganiga ajablandi. Ikkalasi hovli sahnida — Kazangapning egasiz qolgan paxsa devorli kulbasi eshigi oldida uzoq yig‘lab turishdi.

Edigey nimadandir qattiq ta sirlanganday bo‘ldi. Sobitjonning yosblik chog‘lari esiga tushdi: u mushtday bola edi, otasining suyanchig‘i edi. Temiryo‘chilarining bolalari uchun Quimbelda ochilgan maktab-internatga olib borib joylashtirganlari yodida. Qo‘llari bo‘sadi deguncha, goh yo‘lovchi poyezdda, goh tuyada ko‘rgani borishardi. Sobitjon yotoqda qanday yashayapti, birov xafa qilmadimikin, o‘zi biror nojo‘ya ish qilib qo‘ymadimikin, o‘qishlari qalay ekan, o‘qituvchilari u haqda nima derkin, deb xavotirlanib borishardi. Ta’til tugagan paytlari o‘qishga kechikib qolmasin, deb ayozli kunda necha martalab po’stinlarga o‘rab, tuyada qalin qor bosgan Sario‘zak dashtligi orqali olib borib qo‘yishardi.

<sup>1</sup> Asil Rashidov tarjimasi.

Ko'zyoshi qilib olishgach, hol-ahvol so'rashga o'tishdi, ishdan gap ochishdi. Shu lahzada ma'lum bo'lib qoldiki, arzanda, bilag'on o'g'il olasini izzat-ikrom bilan ko'ngildagidek dafn etishga emas, balki qarzdan qutilish uchun naridan beri ustiga tuproq tortib, tezroq qaytib ketishga kelgan ekan. U g'alati g'alati gaplarni ayta boshladi: marhumni uzundan-uzoq Ona Bayitga olib borib nima qilamiz, shunday ulkan Sario'zak cho'lida bir qabriga joy topilmadimi? Ostonadan boshlab dunyoning narigi chekkasigacha joy degan narsa to'lib-toshib yotgan bo'lsa? Qabrni shu yaqin o'rtadan, o'zi unir bo'yи ishlab kelgan temiryo'l bo'yidagi bivor do'nglikdan qazish kerak. Marhum o'tgan-ketgan poyezdlarning taraqa-turuqini eshitib yotadi...

Sobitjon hatto shu xususda aytildigan qadimiy maqolni ham eslab qo'ydi: o'ladigan odamning o'lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi. Munchalik cho'zib, bosh qotirib o'tirishning kimga keragi bor? O'Igan odamiga qayerga ko'milishining nima ahamiyati bor? Bunday mahalda ish qancha tez bitirilsa, shuncha yaxshi!

...Edigey, qariganinda ham ahmoq ekanman, deb o'zini koyiy boshladi ichida. Mana shu laqma bilan sal avval quchoqlashib, ho'ngrab yig'lab yuborganidan nomus qilib, afsuslandi. Kazangapning o'g'li bo'lsa ham ablak ekan. Edigey o'rnidan turdi. Devor tagiga o'rindiq qilib yog'och shpal qo'yilgan bo'lib, o'rindiqda besh kishi maslahatga yig'ilishgan edi. Edigey ko'pchilikning oldida bir nima deb yubormaslik uchun o'zini arang tiyib turardi. Shunday qayg'uli bir kunda odamlar ichida haqorat gap aytса, yaxshi bo'lmasdi. Kazangapning xotirasini hurmatini qildi. Shuning uchun u yotig'i bilan tushuntirdi:

— Atrofda yer ko'p, albatta, istaganiningcha topiladi. Faqat odamlar nimagadir yaqinlarini duch kelgan yerga ko'mib ketaverishmaydi. Harholda, bejiz bo'lmasa kerak. Axir, o'llikka yer qahatni? — U jimb qoldi, Bo'ronli ahlı ham uning gaplarini jingina tinglashdi. — O'zlarining hal qilinglar, o'ylab ko'ringlar, men u yoqda nima bo'layotganini bilib kelayin-chi.

Edigey avzoyi buzilib rangi-quti o'chgancha, nariga odinulab keldi, gunohdan uzoqroq bo'layin, deb o'yladi, shekilli. Qoshlari chimirilib, qansharidagi ajini bo'rtib chiqdi. Tabiatan qo'rsraq, qiziqkonroq edi u — shuning uchun ham uni "Bo'ron" deb atashadi-da. Mana, bozir ham odamlar bo'limganida Sobitjonning hayosiz ko'zlariga tikilib turib, aytadiganini aytib olardi-ya. Unur bo'yи esidan chiqmaydigan qilardi.

Edigey Sobitjon bilan bo'lgan suhbatdan so'ng ta'bi xira tortib, Qoranor oldiga bordi. Shunday bo'lishini u oldindan sezgan edi. Sobitjon olasining o'limga kelganini minnat qilayotgan bo'lsa, jini qo'zinay nima ham qilsin. Unga otaning o'lumi ortiqcha yukday, bu yukdan tezroq qutulishga harakat qilardi. Edigey ortiqcha gapirishini lozim ko'rmadi, bari bir hamma og'irlik o'zining gardaniga

tushardi. Harholda, qo'ni-qo'shni ham o'zlarini chetga olishmadidi. Ko'pehilikning sadag'asi ketsang arziydi. Temiryo'lda zarur ishi bo'lmagan kishilarning hammasi shu yerda, ertangi dafn marosimiga va ma'raka oshiga tayyorgarlik ko'rish uchun yordamga tutinishdi. Xotin-xalaj uyma-uy yurib idish-tovoq yig'ishdi, samovarlarni lozalashdi, xamir qorib, non yopa boshlashdi. Erkaklar suv tashib keltirishi, ishdan chiqqan eski shpallarni arralab, o'tin tayyorlashdi. Dashtda o'tin-cho'p xuddi suvday aziz.

Bu ishlarga faqat Sobitjongina halal berardi. Oblastda kim qaysi vazifada ishlaydi, kimni ishdan olib, kimning amalini oshirishgani to'g'risida gap sotib, odamlarni ishdan chalg'itardi. Qaynotasining o'limiga kelin bola kelmaganidan u zarracha ham hijolat tortmasdi.

Ajabo, deya yoqasini ushlardi Edigey, emishki, kelin allaqanday konferensiyyada qatnasharmish, ana shu yig'inga qandaydir chet elliq mehmonlar tashrif buyurarmish. Cholning neveralarini olib kelish to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Ular o'zlashtirish va davomat uchun kurashar ekanlar, institutga kirmogchi bo'lgan odamning attestati toza bo'lishi kerak ekan. "Odamlarga nima bo'lgan o'zi? — deya xunob bo'ldi Edigey.

— Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim! — Bu fikr Edigeyning ich-etini tirnardi. — Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?"

Qoranor Bo'ronga jabduq urib bo'lgach, Edigey o'rnidan turg'azdi va kelbatini ko'rib mainnun bo'ldi. Hatto o'z ishidan g'ururlanib ham qo'ydi. Ustiga rango-rang gajimli yopiq tashlangan, o'rkachlari o'rtasiga qoyilmaqom qilib egar urilgan Qoranor salobatli va mahobatli ko'rinardi. Ha, yoshlar ko'rib havas qilihsin, ayniqsa Sobitjon ko'rib qo'ysin: munosib yashab o'tgan odamning o'limi ham hech kimga malol kelmaydi, lashvishi tushmaydi, aksincha, qayg'uli voqeа bo'lsa-da, juda katta voqeа ekanini, shu boisdan ham so'nggi manziliga izzat-hurmat bilan uzatilayotganini bilib qo'yishsin. Ba'zi xalqlarda dafn marosimida muzika chalishadi, bayroq ko'tarib borishadi, ba'zi xalqlarda osmonga o'q uzhadi, boshqa xalqlarda esa gulchambarlar qo'yib, marhumni gulga burkashadi...

Edigey Bo'ron bo'lsa, ertaga tongdayoq popukli yopiq tashlangan Qoranorda Kazangapni so'nggi abadiy manziliga — Ona Bayit mozoriga olib boradi... Poyonsiz, hayotiday Sario'zak dashtini kesib o'tishar ekan, u yo'l bo'yи faqat Kazangapni o'ylab boradi. Xesh-ajdodlar qabristonida do'stini tuproqqa uzatayotganida ham xayoli faqat marhumunda bo'ladi. Ha, shart shundoq bo'lgan. Yo'lning uzoqligi yoki yaqinligidan qat'i nazar, hech kim, hatto marhumning o'z o'g'li ham uning so'nggi xohish-irodasini bajarishdan bo'yin tovlay olmaydi...

Edigey jabduq ishlari bilan ovora bo'lib turgan vaqtida Edilboy daroz, payt topib, Sobitjonni bir chekkaga chaqirib oldi:

— Qani, bu yoqqa soyaga kel, gaplashib olaylik.

Gap uzoqqa cho'zilmadi. Edilboy ortiqcha tushuntirib o'tirmay, gapning po'stkallasini aytdi-qo'ydi:

— Xudoga ming qatla shukr qilgin, yaxshiyamki olamda otangning Edigey Bo'ron degan do'sti bor ekan. Rasmi-rusinini o'rniqa qo'yib, dafn etishga sen halal berma. Shoshilayotgan bo'lsang, ushlab turganimiz yo'q. Men sening o'rningga bir hovuchi tuproq tashlab qo'ya qolaman!

— Mening olam, nima qilsam o'zim... — deb Sobitjon chaynala boshlagan edi, Edilboy gapini shartta kesdi:

— Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingniki bo'lmay qolibsan.

— Ja, unchalik emas, — Sobitjon biroz yon berganday bo'ldi. — Bo'pti, shunday kunda janjal chiqarmaylik. Ona Bayit bo'lsa bo'laqolsin, menga nima, faqat uzoqlik qilarminkin, deb o'yLAGAN edim...

Gapga nuqta qo'yildi. Edigey Quranorni hammagaga ko'z ko'z qilib keltirib qo'yib, bo'ronliliklarga qarata: "Qo'ysanglar-chi, erkak kishining gapini qilaylik, bunday odamni Ona Bayit mozoriga qo'yamiz", deganida hech kim e'tin oz bildirmadi, hamma jimgina rozi bo'ldi...



## Savol va topshiriqlar

1. *Ona Bayit qabristoniga borish yo'lini bo'ronliliklardan faqat Edigeygina biliishi sababi haqida o'ylab ko'ring.*
2. Sobitjonning ota jasadini shu yerning o'ziga ko'mib qo'yaqolishga urinishi sababini izohlang. Uning ota vasiyatiga beparvoligi nimadan deb o'ylaysiz?
3. Edigeyning jasadini Ona Bayit mozoriga qo'yishga astoydil urinishi zamirida quanday ma'naviy-axloqiy asoslar bor deb o'ylaysiz?
4. Sobitjon bilan ko'rishib yig'lagan Edigeyning keyinroq o'zini ahmoq deb yozg'irishi sababini izohlang.
5. Edigeyning: "*Modomiki, ularga o'llim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?*" — degan o'yłari xususida mulohaza yuriting.
6. Edilboy bilan Sobitjon suhbatini qayta o'qib, izohlang. Suhbatdoshlar ma'naviyatini baholang.
7. Ko'mish marosiminda ayoli va bolalarining qatnashmayotganidan Sobitjon nega xijolat bo'lmayapti deb o'ylaysiz?
8. Odatda tili acheniq Edigeyning Sobitjonga qattiq gapirib yubormagani sababi haqida o'ylab ko'ring.
9. Bekat abolisining mehru oqibati tasvirlangan o'rnlarni izohlang.

\* \* \*

*Bu voqeal jangjalar Sario'zak dashtlarini egallab olish va aholini qullikka solish maqsadida tub xalqlar bilan tinimsiz urush olib borgan zamonlarda yuz bergan edi. O'z yerlaridan ayrilishni istamagan mahalliy qabilalar tinimsiz kurash olib borishar, katta-kichik janglar orasida tinch damlar ham bo'lardi. Nayman ona fajiasi ayni shunday tinch kunlarning birida boshlandi...*

Osoyishta damlarning birida naymanliklarning yurtiga karvonda mol ortib kelib qolgan savdogarlar choy ichib, gurunglashib o'tirarkan, o'zлari ko'rib shohidi bo'lgan bir voqeani gapirib berishadi. Aytishlaricha, Sario'zak dashtining jungjanglar tomonidagi quduqlar yonidan bamaqloxitir o'tib borayotganlarida yo'lda kattakon tuyalar podasini o'tlatib yurgan bir navqiron cho'ponga ko'zлari tushib qoladi. Savdogarlar u bilan gaplashmoqchi bo'lib og'iz ochganlarida cho'ponning manqurt ekanini payqab qoladilar. Sirtdan qaruganda, cho'pon sog'lom yigitga o'xshar, boshidan nimalar kechgani hech kimning xayoliga kelmas edi. Balki u ham qachonlardir boshqalar singari esli-hushli, so'zamol bo'lgaundir. O'n gulidan bir guli ochilmagan, mo'ylabi endigina sabza ura boshlagan, kelbati kelishgan, ammo ikki og'iz gaplashmoqchi bo'lsang, xuddi kecha tug'ilganga o'xshaydi, boyaqish na o'zining, na ota-onasining ismini biladi: jungjanglar uni qanday ko'yga solishganini, urug'-aynoqlari kimligini ham unutib yuborgan. Biron narsa so'rmasang lom-mim demaydi, faqat "ha" yoki "yo'q" degan javobni beradi, doim boshiga bostirib kiyilgan telpagidan qo'lini tushirmaydi. Gunoh ekanini bilishsada, jismoniy mayib-majruhlarni ham odamlar mazax qilishadi. Shunday manqurtlar ham bo'lar emishki, ularning boshiga kiydirilgan tuya terisi ba'zan bosh terisi bilan birga qo'shilib o'sar emish va h.k., h.k. xususida so'z yuritib kulishadi. Bunday manqurlarni, kel, boshingni bug'lab yumshatamiz, deb qo'rqtishsa, go'yo bundan ortiq jazo yo'qdek, ko'zлari qinidan chiqb ketar ekan. Asov ot singari depsinib, birovning qo'lini boshiga yaqinlashtirmas ekan. Bu xil manqurtlar kun-u tun, hatto uxlaganda ham telpagini yechmas ekan... Ammo-lekin, suhabatni davom ettirishardi mehmonlar, manqurt g'irt almoq bo'lsa ham, ishiga puxta ekan - toki biz uning tuyalaridan uzab ketmaganimizcha ko'z-quloq bo'lib turdi.

Gurung payti o'tovda savdogarlarga choy quyib o'tirgan bir ayol ham bor edi. Bu Nayman ona edi. Sario'zak afsonasida u shunday nom bilan qoldi.

Nayman ona yo'lovchi mehmonlarga sir boy bermadi. Bu xabarni eshitib, nogoh dahshatga tushiganini, rangi-ro'yi o'zgarib ketganini hech kim sezmadni. U savdogarlardan yosh manqurt to'g'risida yana nimularnidir so'rab-surishtirgisi kelar, ammo xuddi mana shu narsa — yana ham ko'proq narsani bilishdan va himaga tushardi. Nayman ona tilini tiydi. Yaratangan qushning chinqirog'i singari qalb tug'yonini ichiga yutdi...



Savdogarlarning karvoni ko'p o'tmay o'z yo'lliga ravona bo'ldi. O'sha kecha tong olgunga qadar turli o'y-xayollar og'ushiga cho'mgan Nayman ona Sario'zak dashtidagi o'sha manqurt-cho'ponni topib, uning o'g'lini, yo'qmi ekaniga ishoneh hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligini anglatdi. Ona ko'nglini allaqachonlardan beri jang maydonida qolgan o'g'lining bedarak ketgani g'ash qilib kelar edi, endi o'sha sezgi, o'sha gumon qayta qo'zg'alib, uni dahshatga sola boshladidi... Bunday qyinoqlar-u azob-uqubatlardan bir umr g'am chekib, gumonsirab, havotirlanib yurgandan ko'ra, albatta, o'g'lini bir emas, ikki bor ko'mgani yaxshi emasmi?

*Nayman onaning o'g'li bir yil oldin halok etilgan otasining o'chini olish uchun jangga otlanib, Sario'zakda jungjanglar bilan bo'lgan omonsiz olishuvda yarador bo'ladi. Jang suronidan cho'chigan ot ustidagi chalajon yigitni cho'l ichkarisi — yov tomonga sudrab ketadi. Jang qizg'in tus olganidan hech kim buni payqamaydi... Jangdan so'ng naymanlar uni necha kunlab izlashadi. Jangchining o'ligi bo'lsa-da, yov qo'lida qolmasligi kerak edi...*

Biroq na jasad, na oti, na tushirib qoldirgan qurol-yarog'ini, na boshqa biron belgi-alomatni topa oldilar. Uning halok bo'lgani hech kimda shubha qoldirmagan edi. Boringki, yarador bo'lgan taqdirda ham oradan o'tgan kunlar orasida cho'lida suvsizlikdan yoki bo'lmasa, qon ketishidan halok bo'lishi muqarrar. Yosh birodarlarining kimsasiz Sario'zak cho'lida dafn etilmay qolib ketgani alamidan hasrat-nadomat chekdilar. Bu hammaga isnod edi. Nayman ona o'tovida ovoz chiqarib yig'lashgan xotin-xalajlar erlari va og'a-inilari sha'niga la'na toshlarini yog'dirdilar:

— Uning ko'zlarini quzg'unlar cho'qidi, shoqollar go'shtini burdalab ketdi, endi sizlar qaysi yuz bilan el orasida bosh ko'tarib yurasizlar?!

O'sha kundan boshlab Nayman ona uchun yer-u ko'k huvillab qoldi. To'g'ri, urush qurbonsiz bo'lmaydi, buni ona ham yaxshi tushunadi, biroq o'g'lining jasa-di ko'milmasdan jang maydonida qolib ketgani unga sira ham tinchlik beruasdi. Achchiq qayg'u, poyoni yo'q o'y-xayollar ona qalbini poralar edi...

O'y-xayollar girdobida onaning fikri chuvalgani chuvalgan. Axir, jungjanglar Sario'zak dashtining biron yerida holdan toygan otni ushlab olgan bo'lislari mumkin. Yaxshigina egar-jabduqli, yana buning ustiga o'z oyog'i bilan kelgan tulpor naqd o'lja-ku. Unday bo'lsa uzangida oyog'i ilinib kelgan o'g'lining jasa-dini g'animir nima qilishdi — yerga ko'mishdimi yo cho'l darrandalariga yemish bo'ldimi u? Bordi-yu hali o'lmagan, falakning gardishi bilan tirik qolgan bo'lsa-chi? Chala o'lik yigitni ular urib halok qilishgan yoinki yaydoq dalaga quruq jasadini tashlab ketishgan bo'lishsa-chi? Yo... agar...

Gumon-shubhalarning cheki yo'q edi. Sayyoh savdogarlar choy ichishib o'tirishganda, Sario'zakda uchragan yosh manqurt haqida gap oshib Nayman onaning o'rtaqan yuragini battar o'rtab, yarasiga tuz sepishganini o'zlar ham payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib keldi. O'sha manqurt mening o'g'lim bo'lib chiqsa-ya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aql-u hushini, butun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchliroq chirmab ola boshladi. O'sha manqurtni izlab topib, o'z ko'zi bilan ko'rib, uning o'z pushti-kamaridan bo'lgan o'g'li emasligiga ishonch losil qilmaguncha ko'ngli tinehui masligiga ko'zi yetgan edi.

Nayman ona kecha oqshondayoq safar jabduqlarini but qildi. Yegulik va ichguligini g'amladi. Ayniqsa, suvni mo'lroq oldi. Sario'zakning cho'lida quduq topilmay qolguday bo'lsa deganday, har ehtimolga qarshi, ikki meshni to'ldirdi... Kecha oqshondayoq urg'ochi tuyu Oqmoyani shay qilib, qoziqqa bog'lab qo'ygan edi. Umidi-ishonchi ham, birdan-bir hamrohi ham o'sha. Oqmoyaning kuch-quvvatiga-yu yo'rg'asiga ishommaganda Sario'zakdek soqov cho'lga yo'l olishga jur'at eta olarmidi?! Oqmoya ikki bor bolalagandan so'ng o'sha yili qisir qolib obdan dam olgan. Uning ayni avji kuchga to'lib, minishga qo'l kelib turgan kezları edi. Ozg'in, chayir oyoqlari uzundan kelgan, tovonları yumshoqqina, qarilig-u og'ir yurdan hali toliqmagan, qo'sh o'rkachlì, kamondek egilib kelgan baqvavat bo'yni-yu boshi kelishimli, kapalakning qo'sh qanotiday dirillab, yengil yelib, yo'l-yo'lakay havoni sipqarib borayotgan Oqmoya bebaho tuya bo'lib, uning bir o'ziga butun bir uyurni alishlrsa arzir edi.

Nayman ona erta tongda o'tovdan chiqdi. "Ashhadu alla ilaha illalahu", — deb pichirlagancha kalima qaytardi. So'ng tuyasi tomon shaxdam odimlab borib, uni cho'ktirdi. Oqmoya jahli chiqqanidan emas, balki shunchaki, odatga ko'ra sekin baqirib qo'ysi-da, bemalol ko'kragini yerga berib cho'kdi. Tuya u yon-bu yon qo'zg'alib tura boshlaganda Nayman ona go'yo qanot bog'lab zamindan uchib ketganday bo'ldi. Uzoq safarga yo'l olayotganlarini Oqmoya endi tushundi...

\* \* \*

...Oqmoya necha kundan beri buyuk Sario'zak dashtining qir-adirlariyu soyliklari bo'y lab pishqirganicha, bir maromda yo'rtib borardi. ular yo'lda duch kelib qolgan birorta quduq boshida kechalargina to'xtashardi. Tong otishi bilan yana oyoqqa turib qat-qat yastanib ketgan Sario'zak adirlarini kezib, katta tuyalar to'dasini izlashardi. Haligi savdogarlarning aytishlariga qaraganda, ular tuyachi manqurtni Sario'zak cho'lining xuddi mana shu qismida — olis-olislarga cho'zilib ketgan Malaqundiehop jarligi etagida ko'rishgan. Nayman ona xuddi

mana shu manqurtni izlayolgan edi. Mana ikki kundirki, ona jungjanglarga yo'liqib qolishdan qo'rqiб, atrofga olazarak bo'lib qarab. Malaqundichop jarligining u yoq-bu yog'ini aylanib yurar, ammu u qayoqqa ko'z yugurtmasin, qayerni izlamasin, faqat cheksiz dashti-biyobonlarga, aldoqchi sarooblarga duch kelardi, xolos.

Vaqt o'tgan sari Nayman ona xavotirlana boshladи, uyurni boshqa tomonlarga haydab ketishmagannikin, yoki jungjanglar bu tuyalarni ko'tarasiga so-tish uchun Xiva yoki Buxoro bozorlariga haydab ketishmagannikin? Agar ular shunchalik olis yerga ketishgan bo'lsa, haligi tuyachi yana qaytib kelarnikin yoinki tuya bilan qo'sha solilib nom-nishonsiz ketarmikin?..

O'g'limni tirik ko'rsam, manqurt bo'lsa ham, aqdan ozib hech nimani eslay olmaydigan merov bo'lib qolgan bo'lsa ham mayli, o'sha cho'pon o'g'lim ishqilib joni omon bo'lsa, bas... Shunga ham ming qatla shukr — sog'inch-u gumonlardan joni bo'g'ziga kelgan onaning ovuldan chiqish oldidagi bирgina umidi shu edi. Biroq ona Sario'zak sari ichkarilab, haligi karvon tortgan savdogarlar biz tuyachi manqurtning shu yerda ko'rdik, degan mo'ljalga yaqinlashib borar ekan, o'g'limning o'rniga ovsar va majruh bir kimsaga duch kelib qolsam, holim ne ke-chadi, deb dili xushton bo'laverdi. Slunda u yana xudodan yolvorib so'radiki, agar unday bo'lsa, o'sha manqurtning o'g'lin bo'b chiqmasdan boshqa bir baxliqaro guniroh bo'b chiqqani ma'qil, o'shanda men ham: "O'g'lim endi yo'q, u o'lgan ekan", — deb taqdirga tan bergen bo'lardimi.

Mana shunday ming xil o'y-xayollar va shubhalar og'ushida borarkan, ona yassi **qum** tepaliklaridan oshayotib nogaljon ko'p sonli tuyalar uyurini ko'rib qoldi: qo'ng'ir tusga kirib, semirib kelgan yuzlab tuyalar mayda butalar-u yan-toqlarning uchlarni kemirib, keng maydona bemalol o'tlab yurishardi. Nayman ona Oqmoyasiga qamchi bosib, choptirib ketdi. Uyurni izlab topganidan quvon-chi ichiga sig'may nafasi bo'g'ziga liqildi. Ammu shu zahotiyoq manqurt qilib qo'yilgan o'g'lini ko'rishni eslab, qo'rqqanidan a'zoyi badani muzlab ketdi. So'ng yuragi yana quvonchga to'ldi va shu bilan ne ahvolga tushganini o'zi ham angla-may qoldi. Mana, tuyalar o'tlab yuribdi, ammu tuyachi qayerda ekan? Harholda, shu atrofda yurgandir. Shu payt yaylovning narigi chekkasida odamning qorasini ko'rindi. Olisdan uning kimligini tanib bo'lmasdi. Tuyachi uzun tayog'iga suyan-gan holda ortidagi yuk ortilgan tuyasining fizginini ushlab, qosh ustiga bostirib kiygan telpagi ostidan onaning yaqinlashib kelayolganini bamaylixotir kuzatib turdi.

Nayman ona tuyachiga yaqin kelib uni tanidi-yu tuyasidan qanday tushganini bilmay qoldi. Yiqilib tushdimi, surilib tushdimi — shu topda onaga buning ahamiyati yo'q edi!



— O'g'ilginam, qarog'im! Seni izlamagan joyim qolmadil — deya o'g'li tomon talpindi. — Men sening onanginan!

Biroq onaning kelgani unga go'yo har doim yonida yurganday, zarracha ta'sir qilmadi. U hatto onadan kimsan, nega yig'layapsan, deb so'ramadi ham. Ma'lum lahzalardan so'ng tuyachi onaning qo'lini yelkasidan surib tashlab, ustida yuk bor tuyasini yetaklagancha odimlab ketdi: u sho'xlik qilib bir-birlari bilan o'ynashayotgan bo'taloqlar uyurdan uzoqlashib ajralib ketmasin, deb tuyalar to'dasining narigi chekkasi tomon yo'l olgan edi.

Nayman ona bukchayib o'tirib qoldi, xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi va shu o'tirishda yuzini changallagancha bosh ko'tarmay uzoq qolib ketdi. So'ng bor kuchini to'plab, o'zini xotirjam ko'rsatishga urinib, o'g'li tomon yura boshladi. Manqurt o'g'il hech nimani ko'rмагандай-bilmagандай, pinagini buzmasdan, bostirib kiyib olgan telpagi ostidan ma'nosiz va loqaydlik bilan qarab turardi. Cho'l shamolida qorayib, dag'allashib ketgan yuzida xiyol jilmayish paydo bo'ldi. Ammo ko'zları dunyoni tark etgan kishining ko'zlariday loqeyd bogardi.

— O'tir, gaplashamiz. — dedi og'ir xo'rsinib Nayman ona. Ular yerga cho'kdilar.

— Meni taniyapsanmi? — so'radi ona.

Manqurt yo'q deganday bosh chayqadi.

— Oting nima?

— Manqurt, — dedi u.

— Seni hozir shunday deb atashadi. Avvalgi oting esingdami? Asli ismingni eslab ko'r-chi.

Manqurt jim qoldi. U haqiqiy ismini eslashga harakat qilayotgani, qiy-nalganidan qanshari ustida munchoqdek ter tomchilari paydo bo'lib, ko'z o'ngini tuman qoplaganini ona ko'rib turdi. Ammo qarshisida qandaydir to'siq paydo bo'ldi-yu uni yengib o'tishiga qurbi yetmadi...

— Otangning otini bilasanmi? O'zing kimsan? Eli-yurting qayerda? Qayerda tug'ilganining bilarsan, axir?

Yo'q, manqurt hech nimani tushunmasdi, hech narsani eslay olmasdi.

— Hali, shunchalik alvolga solishdimi seni! — deya pichirladi ona.

U najotsizlikdan lablari titrab, g'am-g'ussa-yu qahr-g'azabdan o'zini tuta olmay yana qaytadan o'ksinib-o'ksinib yig'ladi, tinchlanishga behuda urinar edi, xolos. Onaning ohu-fig'oniga manqurt pinagini ham buzmadi.

— Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish ham mumkin, — derdi ona o'z-o'zicha gapirib, — biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o'ylab topdi ekan, bunga kimning qo'li bordi ekan?! Yo rabbiy, agar olamda bor bo'lsang, banda-

laringga bu yovuzlikni qanday ravvo ko'rding. Yer yuzida usiz ham yovuzlik kamidi?

Shunda Nayman ona so'rab-surishtirishlar bilan emas, balki aqlini kovlash, qitiqlash bilan es-hushini o'ziga keltirmoqchi bo'ldi.

— Sening otting Jo'lomon. Eshitdingmi? Sen Jo'lomonsan, olangning oti — Do'naboy. Otangni eslay olmaysanmi? Axir, u seni bolalik chog'ingdan kamon otishga o'rgalgan. Men sening onangman. Sen esa mening o'g'limsan. Sen nayman urug'idansan, tushundingmi? Sen naymansan...

Onasining hamma gaplarini o'g'il avvalgiday mutlaqo loqaydlik bilan eshitdi. Ona go'yo devorga gapi rayolganday edi. Onaning so'zlari karning qulog'iga azon aytganday gap edi. Nayman ona manqurt o'g'ildan so'radi:

— Bu yerga kelganingga qadar nimalar bo'ldi?

— Hech narsa bo'lgani yo'q, — dedi o'g'il.

— Kim bilan gaplashging keladi?

— Oy bilan. Biroq, bir-birimizning gapimizni eshitmaymiz. U yerda kimdir o'tiribdi.

— Yana nimani istaging keladi?

— Xo'jayinimning boshidagi singari kokil qo'yishni.

— Qani, beri kel-chi, boshingni bir ko'rib qo'yay, ular nima qilib qo'yishganini — deb ona unga tomon talpindi.

Manqurt shartta tisarilib, o'zini olib qochdi, boshidagi telpagini chan-gallagan bo'yicha qaytib onaga boqmadi. Bosh haqida hech qachon so'z ochish mumkin emasligini ona endi tushundi.

Shu payt olisdan tuya mingan kishining qorasi ko'rindi. U shu yoqqa tomon kelayotgan edi.

— Bu kelayotgan kim? — so'radi ona.

— U menka ovqat olib kelyapti, — dedi o'g'il.

Nayman ona tashvishga tushdi. Bevaqt paydo bo'lib qolgan bu jungjangning ko'ziga chalinmaslik uchun tezroq g'oyib bo'lish kerak edi. U tuyasini cho'ktirib, darhol minib oldi.

— Sen unga hech narsa aytunagin. Men tezda qaytib kelaman, — dedi Nayman ona.

O'g'li lom-mim demadi. Uning parvoyi palak edi. O'tlab yurgan tuyalar orasidan qochib borayotgan Nayman ona xato ish qilib qo'yanini tushundi. Biroq vaqt o'tgan edi. Oq tuyaga minib borayotgan onani jungjang ko'rib qolishi mumkin edi. Oqmoyasini yetaklab, o'tlab yurgan tuyalar orasidan berkinib yayov jo'nagan ma'qul edi.

Yaylovdan xiyla olislab ketgach, Nayman ona chetlarida erman-shuvoqlar

o'sib yotgan chuqur jarlikka kirib bordi-da. Oqmoyani cho'ktirib kuzata boshladi. Guman ni to'g'ri chiqdi, payqab qolgan ekan.

Jungjang u yoq-bu yoqqa zir yugurib hech nimani uchratmagandan so'ng tezda ortga, tuyalar to'dasi tomon qaytdi.

Nayman ona bu tunni tanho o'zi bechora manqurt o'g'li yaqinida — dashtda tunab o'tkazdi. O'g'lining yoniga borishga cho'chidi, haligi xavfsirab qolgan jungjang kechasi uyur oldida qolishi ham mumkin.

O'g'lini qullikda tashlab ketmay, bir amallab birga olib ketishiga qaror qildi ona. O'g'li manqurt bo'lsa ham, mayli, hech nimani tushunib, anglab yetnasa ham mayli, kimsasiz cho'lda, jungjanglarning tuyasini boqib xor bo'lib yurgandan ko'ra o'z uyida, o'z odamlari orasida yashagani yaxshi emasmi? Ona qalbi shuni istardi. Boshqalar taqdirda tan berib ketishi mumkin bo'lgan holga ona sira ham ko'na olmasdi. U o'z qoni va jonini, ko'z qorachig'ini qullikda qoldirib ketishni sira-sira istamasdi. Balki bolasi o'z yerida hushiga kelib, bolalik kezlarini eslab, barcha ko'rgan-kechirganlarini qayta tiklab olar, deya umid qilardi.

Ertasiga ertalab Nayman ona Oqmoyaga minib yana yo'lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyojkorona o'tib, uzoq yo'l bosdi. Tuyalarni ko'rgandan keyin ham jungjanglardan birontasi ko'rinish qolmasin, deb uzoq vaqt kuzatib turdi. Hech kunning yo'qligiga ko'zi yetgach, o'g'lining otini aytib chaqirdi.

— Jo'lomon! Jo'lomon! Omonmisan?

O'g'li burilib qaragan edi, ona quvonechidan baqirib yubordi, ammo shu zahotivoq, o'g'li shunchaki, ovoz chiqqan tomonqa qaraganini payqab qoldi.

Nayman ona o'g'lining xotirasini tiklashga yana urinib ko'rdi.

— Oting nima, eslab ko'r-chi! — deb yalinib-yolborib inontirishga harakat qilardi u. — Otangning oli Do'nанboy, bilmaysanmi uni? Sening isming manqurt emas, Jo'lomon. Naymanlarning yayloviga ko'chib borayotganimizda yo'lda tug'ilgansan. Shuning uchun otingni Jo'lomon qo'yganmiz. Sen tug'ilganingda biz o'sha yerda qolib uch kecha-kunduz lo'y-tomosha qilganmiz.

Bu gaplar manqurt o'g'ilga zarracha tasir etmayotganini bilsa ham, bari bir ona uning so'ngan xotirasida nimadir yilt etib ko'rinish qolar, degan umidda behuda urinardi. Ammo u devorga gapisayotganday edi. Shunga qaramay, o'tgan kelganlardan gapirib, hadeb o'zinikini takrorlayverdi:

— Oting nima, eslab ko'r! Otangning oti Do'nанboy!

So'ng ona o'zi bilan olib kelgan taomlaridan yedirib-ichirib bo'lgandan so'ng, alla ayta boshladi. Alla manqurtga ma'qul kelganday bo'ldi shekilli, qulqol solib tinglab o'tirdi. Qorayib, uniqib ketgan yuziga qandaydir ilqlik yugurganday bo'ldi. Shunda ona o'g'lini bu yerdan — jungjanglarning izmida o'z tug'ilib

o'sgan qadrdon yeriga birga olib ketishga ko'ndirishga kirishdi. Manqurt esa tuyalarni qoldirib, qayoqqadir bosh olib ketishni miyasiga singdira olmadidi: yo'q, xo'jayinim tuyalardan bir qadam ham jilmaysan deb buyurgan, shuning uchun uyurni tashlab biron yoqqa ketmayman...

Chiqmagan jordan umid deganlariday, Nayman ona barbod etilgan xotira eshigini o'chib kirishga qayta-qayta harakat qilardi:

— Eslab ko'r-chi, kimning o'g'lisan? Oting nima? Otangning oti Do'naboy!

O'g'lini hushiga keltirish uchun behuda urinayotgan ona oradan qancha vaqt o'tganini ham payqamay qoldi, shu mahalluyur chekkasidan yana o'sha jungjang tuya minib kelayotganini ko'rib esi chiqib ketdi. Bu safar jungjang juda yaqin kelib qolgandi, yurishi ham juda ildam. Nayman ona tezda Oqmoyaga mina solib, qo'chib qoldi. Biroq, yaylovnинг narigi tomonidan yana bir jungjang tuya yo'rttirib onaning yo'lini kesib chiqdi, shunda Nayman ona tuyasida ularning o'rtasiga qarab soldi. Bedov tuya olg'a tomon yelday uchib ketdi, ortdan taqib ostiga olgan jungjanglar baqirishib-qiyqirishib, nayzalarini siltab, dag'dag'a qilgancha uni quylab borishardi. Biroq Oqmoyaga yetmoq qayoqda?

G'azablangan jungjanglar qaytib kelgandan so'ng manqurtini rosa do'pposalshganini ona bilmasdi. Ammo do'pposalshgani bilan manqurt nimani ham bilardi. U hadeb bir gapni takrorlardi:

— U sening onang bo'laman, deb aytayapti.

— Hech qanaqa onang emas u! Senda ona yo'q! Bu yoqqa nima uchun kelganini bilasanmi? Bilasanmi?! Telpagingni sidirib olib, boshingni qaynoq suvg'a solgani kelgan! — deb battar qo'rqa boslashdi jungjanglar sho'rlik manqurtini.

Bu so'zlarni eshitib, manqurtning qoramtilr yuzlari bo'zday oqarib-ko'karib ketdi, qo'llari bilan telpagini changallab, bo'ynini yelkalari orasiga qisib, xuddi yirtqiehday ola-kula atrosga qaray boshladi.

— Sen qo'rquinag! Mana buni ushla! — deb jungjangning kattasi manqurtga o'q-yoy tutqazdi.

— Qani, mo'ljalga ol-chi! — kichik jungjang qalpog'ini osmonga oldi. O'q qalpoqui teshib o'ldi.

— O'h-o', — ajablandi qalpoq egasi. — Qo'lida xotira saqlanib qolibdi!

Uyasidek ch'ochitib uchirib yuborilgan qush kabi Nayman ona Saro'zak cho'llarida oyog'i kuygan tovuqday yelib-yugurardi. Endi nima qilarini, nimaga umid bog'lashni bilmasdi. Jungjanglar endi nima qilisharkin? O'tovdag'i tuyalarni, manqurl o'g'lini ona yetib bora olmaydigan boshqa yerlarga, o'zlarining katta o'rdalariga yaqin joyga haydar ketisharmikin yoki uni qo'lga tushirish uchun payt poylab yotisharmikin? Ming xil xayollarga g'arq bo'lgan ona boshi

qotib, pastqam yo'llardan o'tib borib, yaylovnin sinchkovlik bilan kuzatarkan, haligi ikkita jungjang uyurni tashlab ketib borayotganini ko'rdi-da, quvonib ketdi. Ular o'ng-u so'liga qaramasdan yonma-yon ketib borishardi. Nayman ona uzoq vaqt ko'z uzmay turdi, qachonki ularning qorasi ko'rinnmay qolgach, o'g'li tomon yo'l solib qanday bo'lmasin, uni o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'ldi. **U** kim bo'lsa ham mayli, taqdir boshiga shunday qora kunlarni solib, dushmanlar shunchalik taliqir etgan ekan, bu — uning aybi emas. Mayli, ovsar bo'lsa ham o'g'lini qullikda, asoratda qoldirib ketmaydi. Bosqinchilar tutqun etilgan farzandalarimizni mayib-majrul qilganlarini, xo'rlab, aqdan ozdirib, notavon bir ahvolga solib qo'yanlarini naymanlar ko'rib qo'ysin-da, g'azabdan, or-nomusdan qo'lga qurol-yarog' olsin. Gap bosib olingan yerda emas. Yer hammaga yetib ortadi. Ammu-lekin, jungjanglarning yovuzligini sira ham kechirib bo'lmaydi, ularning xiyonatkorligi yetti yetti qo'shni bo'lib ham yashash mumkin emasligini ko'rsatib turibdi...

Ona o'g'li tomon borar ekan, shu kechasiyoq bu yerdan ketish zarurligini unga qanday qilib tushuntirsam ekan, deb yo'l-yo'lakay o'ylar edi.

Qosh qoraya boshladidi. Qanchalab o'tgan va o'tishi lozim bo'lgan son-sanoqsiz tunlar singari lojuvard-qizg'ish shu'laga chulg'angan tag'in bir tun soyliklar-u vodiylar uzra buyuk Sario'zak sahrosini bosib kela boshladidi. Oqmoya katta uyur tomon bekasini yeldirib borardi. Botayotgan quyosh shu'lalari qo'sh o'rka ch o'rtasida o'tirib olgan ona qiyofasini baralla ko'rsatardi. U jiddiy tusda, yuzlarning qoni qoehgan holda hushyor tortib, xavotirlanib o'tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g'am-g'ussali ko'zlariga esa Sario'zak xuftoni singari g'am-tashvish cho'kkani edi... Mana, u uyurga ham yetib borib, o'tlab yurgan tuyalar orasidan o'tib kuzata boshladidi, biroq o'g'li ko'rinnmasdi. Tuyasi esa tizginini chuvalantirib sudraganicha bemalol o'tlab yurardi... Nima bo'ldi ekan unga?

— Jo'lomon! Qulunim Jo'lomon, qanisan? — deb chaqira boshladidi Nayman ona.

Qilt elgan jon ko'rinnmadi, hech qanday ovoz eshitilmadi.

— Jo'lomon! Qayerdasan? Bu men, onang bo'laman! Qayerdasan?

Ona tashvish ichida atrofga olazarak boqar ekan, manqurt o'g'li tuyasining soyasiga berkinib, tizzalab o'tirganicha kamonni tarang tortib mo'ljalga oluyotganini payqamay qoldi. Faqat u quyoshi nuri ko'zini qamashtirayotgani sababli qulay vaziyatni kutayotgan edi.

— Jo'lomon! Bolaginam! — deb chaqirdi ona o'g'lini, biron hodisa yuz bermadimikan deb tashvishlanib. So'ng egarda o'tirganicha o'girilib qaragan edi, o'zini mo'ljalga olib turgan o'g'liga ko'zi tushib qoldi. Shu zahotiyoy Oqmoyni



burib chap bermoqchi bo'lgan ham ediki, vizillab kelgan o'q uning chap qo'lting'ining ostiga sanchildi. Ona: "Otma!" deyishga ulgurdi, xolos.

Bu o'lim zarbasi edi. Nayman ona ikki bukildi va Oqmoyaning bo'yninga yopishgancha shilq etib tushdi. Lekin undan oldinroq boshidan oq ro'mol uchib ketib, havoda qushga aylanib chirqiray boshladi: "Kimming farzandisan, eslab ko'r! Oting nima? Otangning oti Do'nанboy! Do'nанboy! Do'nанboy!..."

O'shandan beri Sario'zak dashti tepasida har kuni kechasi Do'nанboy degan qush uchib yuradi, deyishadi. O'sha qush yo'lovchiga duch kelib qolsa: "Kimming farzandisan, eslab ko'r! Es lab ko'r! Oting nima? Otangning oti Do'nанboy, Do'nанboy, Do'nанboy!..." deb sado chiqarar ekan.

Shundan beri Nayman ona dasin etilgan o'sha joy Sario'zak muzofotida Ona Bayit qabristoni — Onaizor makoni deb ataladi...

Oqmoya tuyasidan ko'p nasllar qoldi. Urg'ochilar o'ziga tortib, oq-bosh tug'ilib, nayman eliga ma'lum va mashhur, norlari esa, aksinchu, hozirgi Quranor Bo'ron singari qoradan kelgan, juda baquvvat bo'ladi.

Rahmatli Kuzangap Quranor bo'ron oddiy tuyalardan emas, balki Nayman ona o'lgandan so'ng Sario'zak dashtida qolgan mashhur Oqmoyaning neslidan tarqagan, deb har doim gapirib yurardi va buni doimo isbotlab berardi. Mana, endi uning jasadini Ona Bayit qabristoniga olib borishyapti.



## Savol va topshiriqlar

1. Jangchining o'ligini ham yog'iy qo'lida qoldirmaslik odutlariga qarab, naymanlar ma'naviyatiga baho bering.
2. Nayman ayollarining o'z erlari va o'g'illarini koyishlariga asoslanib, ularning ruhiy olamini tasavvur qilishga urining.
3. Nayman onaning o'g'lini o'ylab chekkan iztiroblari tasvirini sinchiklab o'qing. Bag'ri qon ona tuyg'ularini ilg'ashga intiling.
4. "*U savdogarlardan yosh manqurt to'g'risida yana nimalarnidir so'rab-surishtir-gisi kelar, ammo xuddi mana shu narsa — yana ham ko'proq narsani bilishdan vahimaga tushardi*" tasviri asosida onaning murakkab ruhiy holatini sharhlangu.
5. Ona o'g'lining manqurt bo'lgancha, o'lgani ma'qil deb o'ylagani holda uni topgisi kelaverGANINI tushunishga urining.
6. O'tmishini eslamogchi bo'lgan manqurt holati tasvirini izohlang.
7. O'g'lining xotirasini tiklash yo'lidagi barcha urinishlari bekor ketgan ona holatini anglatishga harakat qiling.
8. Yovuz jungjanglardan birining: "*O'h-o! Qo'lida xotira saqlanib qolibdi!*"— degan gapi mazmunini tushuntiring.

9. Matndan manqurt o'g'il oldiga qaytayotgan ona tasviri berilgan o'rinnlarni o'qing. Ona ruhiy holati, kechinmalarini izohlang.
10. Mana, parchani oqib chiqdingiz. Asardan chiqargan asosiy xulsangizni ayting.

## “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANI TO‘G‘RISIDA

Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani 1980- yilda yozilgan. Asar chop etilishi bilan o’quvchilar tafakkuri va ruhiyatini larzaga keltirdi. Chunki unda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko’rsatkichlar: o’zlikni anglash, o’zgani tushunish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ekanligi ko’rsatilgandi. Asarda bu masalalar konkret odamlar taqdiri misolida badiiy ifoda etilgan edi. Holbuki, bunday xususiyat sho’ro adabiyoti uchun tamomila begona hisoblanardi.

Ch. Aytmatov ulkan san’atkorgina emas, jasur inson ham bo’lgani uchun ana shunday vaqtida odamiylik odamlikdan baland ekanligini, kechagi kunini eslamaydigan, bobolarning udumlari bilan faxrlanmaydigan, ularga amal qilmaydigan kiomsalar na oti va na zotini biladigan manqurtdan farq qilmasligini Jo’lomon va Sobiljon tiomsollari misolida juda ta’sirli aks ettirdi.

Ko’nglining eng tubidagi yuksak ezgu tuyg’ular ifoda etilgan bu romanga X asrda yashab o’tgan arman yozuvchisi Grigor Narikatsining “Musibatnomा” kitobidan “Bu kitob jism-u fig’onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening” satrlarining epigraf qilib olinishida ham teran ma’no bor. Ch. Aytmatov uchun ham bu roman “jon-u jahon”ning o’zi edi. Asar chindan-da jahonga mashhur yozuvchining dilidagi oh-u fig’oni, jonini o’rtagan dardlari, alamlari bayonidir. Kitobda odam degan yaratiqning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tildan, g’ururidan mahrumi qilish joniga qasd etishidan ham dahshatli jinoyat ekani yovqur Nayman onaning tengsiz sojiasi tasviri asosida aks ettirilgan.

Ch. Aytmatovning buyuk yozuvchiligi shundaki, siyosatdan tamomila chetda turuvechi, siyosiy muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umir kechiruvchi kam targina odam ham aslida siyosatning ta’siridan xoli bo’lomasligini Bo’ronli Edigey taqdiri misolida juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o’zida kuch topa oladigan chin insondir. Uning ezgu insoniy sifatlari qiyinchiliklarga qaramay marhum Kazangapning vasiyatini bajarishga o’zida kuch topganida, qanchalik g’azablannasin, o’lik bor joyda janjallashmaslikka qudrati yetganida, Sobitjonning gap-so’zlariga munosabatida yaqqol ko’rinadi.



Ezgu insoniy tuyg'ulardan mahrum, odamning ko'nglini his etmaydigan, bobolar qo'llagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kunidan uzilgan, ammo o'zini ilg'or fikrli ziyoli hisoblaydigan Sobiitjon Manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda ta'siri ko'rsatilgan.

Kazangapni dafn etish jarayonida, marhum bilan vidolashuv onlarida, Allahga munejot qilgan o'rinnari tasvirida Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar namoyon bo'lgan. Xullas, bu roman odamning odamligini ta'minlab turadigan asosiy qadriyatlar haqidagi dard bilan bitilgan o'lmas asardir.

### *Nazariy ma'lumot*

## BADIY ASAR PAFOSI HAQIDA

Pafos yunoncha "ehtiros", "hissiyot", "iztirob" ma'nolarini anglatuvchi "pathos" so'zidan olingan. Adabiy alama sifatida esa **asarga** singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo'nalishini belgilab beradigan jo'shqin tuyg'u va ko'tarinki ruhni anglatadi. Bu tuyg'u va ruh ijobjiy xarakterda bo'lib, xavrixohlikni, salbiy tabiatga ega bo'lib, inkorni bildirishi ham mumkin. Pafos bilan yozilgan asarda adib o'z nuqlayi nazari va qarashlarini berkitmaydi. Aksincha, o'zi ilgari surgan va o'tkazmoqchi bo'lgan hayotiy-estetik fikrn kuchli hayajon haunda jo'shqin ehtiros bilan yoqlaydi. Shu tariqa, pafos bilan yozilgan asarning o'quvchisi ko'pincha yozuvchi qarashlarining tarafdoriga aylanadi. Chunki asarning pafosi uni xolis kuzatuvchi emas, balki astoydil tarafdir bo'lishga undaydi.

Pafos badiiy asarning ifoda tarzinigina emas, balki uning ma'no-mohiyatini ham belgilab beradi. Chunonchi, "Asrga tatigulik kun" romanida oddiy temiryo'lehi Edigeyning o'ylari, so'zları, qilgan ishlari kuchli pafos bilan tasvirlangani uchun ham kitobxonni o'ziga rom etadi. Ayni paytda, Sobitjonning xatti-harakatlari, gaplari, tulumi adib tononidan jo'shqinlik bilan inkor eltgani uchun o'quvchi bu timsoli yomon ko'rib qoladi. Shu tariqa asarning pafosi uning o'quvchisiga o'z nuqtai nazarini aniq belgilab olishda yordam beradi.

Asar pafosi, ayniqsa. Nayman ona timsoli tasvirida yaqqol bo'y ko'rsatgan. Manqurt haqidagi afsonada insomning asosiy belgisi bo'lnish o'zlikdan ayirish, odamni xotirasidan mahrum qilish cheksiz nafrat bilan tasvirlanganki, o'quvchi bu asarga beixtiyor qayta-qayta murojaat qilishni istayveradi.



## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI

O'tgan asrning 90- yillaridan e'tiboran o'zbek xalqi o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi. Va millat holatining estetik ifodasi o'laroq istiqlol adabiyoti deb atalinish badiiy hodisa yuzaga keldi. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan badiiy-estetik hodisadir.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Mustaqillik tufayli millat ahli o'z ma'naviyatining asosi bo'lmish Qur'oni Karim bilan o'zbek tilida tanishish imkoniga ega bo'ldi. Bu hol millatning tafakkuri sog'lomlashuviga olib keldi. Bu muqaddas kitobning o'zbekchaga ag'darilishi millatning e'tiqodi, dunyoqarashi va ma'naviyatida o'ziga xos inqilob yasadi. Tabiiyki, dunyoqarashi tozargan millatning adabiyoti ham yangilanadi. Shu tariqa, hukmron masakra tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash samarasi sifatida istiqlol adabiyoti dunyoga keldi.

Mustaqillik davri milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o'laroq tug'ildi. U yagona hukmron masakra tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo'sinlarini, muayyan shaxs ruhiyatni manzaralarini sifiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz ham tasvirlash natijasi bo'lib yaratildi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tafakkur oinlari o'zgacha ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o'laroq bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bu davr adabiyoti hukmron masakra tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo'lgan adabiyoldir. Bu davrda olamning mavjudlik yo'simini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol milliy adabiyotimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Ilmiy-estetik qarashlar xilma-xilligini yuzaga keltira boshladи.

Ikkinchidan, mustaqil o'zbek davlati badiiy adabiyotni sho'ro zamonida bo'lgani kabi o'z monopoliyasiga aylantirishga urinmadi. Shu bois ijod erkinligiga ob'yektiv sharoit yaratildi. Adabiyot ijodkorning ko'ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Bugun badiiy ijod bilan shug'ullanayotganlar shaxs sifatida ham, ijodkor sifatida ham tamomila o'ziga xos, xilma-xil kishilaridir. Istiqloldan keyingi davrda baqiqiy adabiyot o'z ko'ngliga qarshi bormaydigan, uning royishlariga zug'um o'tkazmaydigan kishilar tomonidan yaratilayotganligi quvonarlidir. Adabiy tanqid, o'quvchilar ommasi nima desa ham bu ijodkorlar o'z bilganlaricha yozishdan qaytmaydilar. Ular ijodini o'zlariga emas, aksincha, o'zlarini ijodiga bo'ysundirgan kishilaridir. Shu yo'sinda juda yaqin o'tmishda ham ijtimoiy-siyosiy hodisa sanalib kelgan badiiy adabiyot milliy-estetik aklga evrildi.

Uchinchidan, istiqlol davri adabiyoti odamga ishechi kuchi, ishlab chiqaruvehi, melumatlash sifatida yondashish tarzidan qutuldi. Milliy adabiyot millat vakillarining mehnatinigina emas, balki ularning shaxsiyatiga daxldor jihatlar: ruhiyati, hissiyoti, ko'nglini tasvirlashiga kirishdi. Bu adabiyot uchun insonning o'zi asosiy qadriyatga aylana boshladi. Shu tariqa, milliy adabiyotning qahramonlari jug'rofiyasi kengaydi, miqyosi ko'lam kasb etdi. Odam biror ijtimoiy qatlarning vakili tarzida emas, murakkab va anglash mushkul bo'lган inson sifatida badiiy tadqiq etiladigan bo'ldi.

To'rtinchidan, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko'rsatish, siyosiy tizimlarni takomillashtirishga emas, alohida inson shaxsining ma'naviyatini mukammallashtirishga yo'naltirildi. Bu hol badiiy qahramonlarni turli rakurslardan turib, eng ichkin va yashirin jihatlarigacha tadqiq etish imkoniyatini berdi. Shu sababdan ham istiqlol davri adabiyoti "aholisi" sezilarli darajada nozik, ingichka, o'ziga xos, betakror bo'lib bormoqda. Bu davr adabiyotida tipik obrazlarni emas, badiiy tiplarni tasvirlashiga ko'proq intilinayotganligining sababi ham shunda. Shu yo'sin, bu davr adabiyoti ommani ko'rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishiga yo'naltirildi.

Beshinchidan, bu adabiyot inson, insonlararo munosabatlar g'oyal murakkab, chigal va izohlash mushkul ekanligi chuqur anglagan va ularni butun murakkabliklari bilan aks ettirishga harakat qilayotgan adabiyotdir. Sho'rolar zamonida har bir adabiy qahramonning xatti-harakati ijtimoiy jihatdan asoslangan, iqli sodiyot qonunlaridan kelib chiqadigan bo'lishi shart deb qaralardi. Natijada usalar sxematik talablarga bo'ysundirilardi. Holbuki, bir odamning xatti-harakatlari sababini adiblar tugul o'sha kishining o'zi ham to'la tushuntirib bera olmaydi. Ana shu holatning milliy badiiyatimizga ko'chiganligi insonga sirla xilqat tarzida yondashish, uning taqdiridagi chigalliklarni tushunishga intilishni keltirib chiqarmoqda. Shu tariqa adabiyotdagi odam hayotdagি odamga qaraganda chuqurroq, murakkabroq, o'ychilroq, ingichkarroq bo'lib bormoqda.

Oltinchidan, bu davr adabiyoti mavzu dolzarblik, hozirjavoblik, zamonaviylik singari sirtqi belgilardan baland turishga va lahzalik holatlarning mangulikka suratlanishiga yo'naltirilmogda. Shu yo'l bilan adabiyot hayotdan nusxa

olishdan, ya'ni ko'chirmachilikdan qutulib bormoqda. U ijtimoiy hodisalar bilan andarmon bo'lish, ularning ortidan ergashish zaruriyatidan xalos bo'ldi. Mazkur holat badiiy tasvirning chuqurlashuviga, odam ruhiyati qatlamlarini nozikroq idrok etishga imkon yaratadi.

Yettinchidan, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyotga aylandi. Unda tajriba qilish, sinab ko'rish, ochilmagan yo'llardan yurish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol birovga o'xshamaydigan, o'zgalarni takrorlashga intilmaydigan, o'ziga xos iste'dodlarning ko'payishiga imkon yaratadi. Xilma-xil badiiy asarlarning vujudga kelishi tufayli xilma-xil o'quvchilar paydo bo'ladi. Badiiy didi yuksak, so'zni nozik his etadigan, sezimlardagi yengil tebranishlarni ham ilg'ay oладиган kitobxon shakllanishiga turtki bo'ladi. Ommaviylik badiiy adabiyot uchun asosiy maqsad, yuqori ko'rsatkich emasligi anglab yetildi.

Sakkizinchidan, yuqorida sanab o'tilgan omillar tufayli bu davr adabiyoti jo'nlikdan, anchayinlikdan, to'porilikdan qutildi va uning asl namunalarini haunisha ham izohlash, tushuntirish, mantiqiy qoliplarga solish muunkin bo'lmay qoldi. Badiiy adabiyot mantiq va axlodan ham teranroq sezimlar bilan ish ko'rishi, eng murakkab mavhumlikni moddiylashtirishga da'vat etilgan hodisa ekanligi tan olindi.

To'qqizinchidan, ijod erkinligi, xilma-xil fikrlash imkoniyati, badiiy so'zga davlat miqqosida xo'jayinlik qilishning barham topganligi o'rtamiyona asarlarning ham yaratilishi hamda chop etilishiga imkon tug'dirdi.

O'ninchidan, bozor munosabatlari badiiy ijod solasida ham namoyon bo'la boshladi. Natijada xaridorgir, ommanning o'tkinchi talablariga mos keladigan asarlar yaratishga harakat kuchaydi. Shuning oqibati o'laroq o'zbek adabiyotida erotik tasvirlar, sarguzasht yo'nalishidagi oldi-qochdi bitiklar ko'paydi.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Natijada, inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi.

**She'riyat** bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning yetakechi turi bo'lib qolmoqda. Abdulla Oripov, Rauf Parsi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro'z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Ro'zimulhammad, Rauf Subhon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirza, Tursun Ali, Ulug'bek Hamdam, Xosiyat Rustamova singari shoirlarning she'rlarida olumni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi.

Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, o'quvchiga aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkub manzaralarini aks ettrishga e'tibor kuchaydi. Odam sezimlarining qatlamlarini tadqiq qilish, tuyg'uning boy va rangin qiralarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Bu davr she'riyati shakliy izlanishlarga boyligi bilan xarakterlanadi. Endilikda o'zbek she'riyati bilan tanishish uchun



o'quvchining qulog'i va ko'zигина emas, tafakkuri va tuyg'ularи ham bir qadar zo'riqishi, she'rdan zavq olish, lazzat tuyish uchun mehnat qilishi lozim bo'lib qoldi.

Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi.

R. Parfining "Adashgan ruh", "Qora devor", "Munojot", "Sensiz", Sh. Rahmonning "Turkiylar", "Iqrор", A. Suyunning "Istig'for", "Oq va qora", A. Qutbiddinning "Izohsiz lug'at", A. Saidning "Tush", "Yo'l", Faxriyorning "Ayolg'u", "Bo'g'zimdan sirqirar tovush - qon...", "Oyloq kecha..." she'riy asarlari o'zbek nazmining yetuk namunalaridan hisoblanadi. Bu davr she'riyati shakliy izlanishlarga boyligi, Chiqish nazmidan ham, Botish adabiyotidan ham samarali o'rganishga intilish kuchayganligi bilan xarakterlanadi.

Endilikda she'rxonlik ko'ngil ochar mashg'ulot bo'lmay qoldi. She'r bilan tillashadigan o'quvchining tafakkuri ham, qulog'i ham, ko'zi ham, hatto tuyg'ularи ham bir qadar zo'riqishi, she'r o'qiyotganda faqat zavq va lazzat tuyibgina qolmay, mehnat qilishi ham lozim bo'lib qoldi. Rauf Parfining:

Yerga botgan osmonlarni kuzatdim,  
Chopilgan oyog'im bilan chopdim men.  
Kesilgan qo'llimni sizga uzatdim,  
Bu dunyo gullarga to'ldi. Qoldim men.

yoki:

Shaftolirang olam nayza uchinda,  
Dunyolari yolg'on, men o'ldim chindan

singari badiiy qanoatlarini qabul qilish uchun muayyan ruhiy-intellektual hozirlik zarur bo'lishi tayin. O'ziga xos shoirlardan biri Faxriyorning mavjud imlo qoidaligiga rioya etmay bitilgan:

qobirg'alar qabarar suyaklarim qadoqdir  
qabqlarim o'q tugab bo'shab qolgan sadoqdir  
kuyib kuyib kul bo'lgan nafratlarim adoqdir  
chuchmomalar ko'k kiygan  
namozshomgul gul gulim  
hey tulugim hey tulum  
hey tulugim hey tulum

satrlari orqali ifodalananoytgan badiiy ma'noni ilg'ash oson kechmeydi.

Milliy poyceziyamiz tarixida ikkigina so'zdan iborat she'r hech qachon bo'lмаган. Faxriyor shunday she'r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu ikki so'z yor-

damida atama yasalmagan yoki axborot berilmagan, balki o'ziga xos musiqaga ega, muayan kayfiyat ifodalay oladigan, o'qiganga o'zgacha ruhiyat baxshida qiladigan tugal she'r yaratilgandir:

oy  
bolta

She'r bosh harf bilan yozilmaganligi, unda hech qunday tinish belgisi ishlatalmaganligi muallifning olifstaligi yoxud injiqitligidan emas. E'tibor qiling, ajdodlarimiz minglab yillar davomida tinimsiz she'rlar bitib kelishgan. Ular o'quvchiga ishonishgan. O'tmishdag'i shoirlar zarur o'rinni belgilash, alohida e'tibor qilinadigan joyni topish ixtiyorini she'rxonning o'ziga qoldirishgan. Faxriyorning she'ridagi ikki so'z, tabiiy ravishda, o'quvchining e'tiborini tortadi, uni bu so'zlar ustida o'ylab ko'rishiga, unga turli aspektlarda yondashishga undaydi. Birov oyni boltaga, boshqa birov boltani oyga mengzaydi. Sehrli bu so'zlar sabab kimdir siqilganlikni, ruhini oyning boltasi qiymalaganini, boshqasi esa sokinlikni oy bolta ruhiyatiga qo'riqchi bo'lganini tuyadi.

B. Ro'zimuhammadning bir she'rida shunday misralar bor:

...bitta so'z qoldirigm keladi  
ruh yerto'lasidan o'g'irlangan so'z  
osmon hidi keladigan so'z  
dunyoning o'zi qadar  
anglab bo'lmas sir qadar

misralardan suratlanayotgan hissiy holat tugallanmaganligini, shoir hamma gapini aytishga urinmaganligini payqash mumkin. Shu shoirning:

ko'zdan ichkarida yo'l yo'q  
so'zdan ichkarida yo'l yo'q  
ammo xo'roz qichqirig'i ortiga  
shafaqrang qishlog'im bekimib olgan

satrlarida musiqiylik odatladi she'rlarniki kabi sezilarli emas. Anuno unda ijodkorning chigel kayfiyatি bor. Xo'roz qichqirig'i tongning belgisi. Xo'roz qichqirsa, shafaqrang qishloq namoyon bo'ladi. Qishloqning shafaqrangligi ham beziz emas. Ehtimol, qishloq endigina ko'tarilayotgan quyosh nuriga ko'milganligi uchun ham shunday ta'riflanadi.

Shoir she'riyatning odatiy tartibini inkor qiladigan uslubga murojaat etgan. Uni oddiy mantiqning qoliplari bilan izohlab bo'lmaydi. Ushbu she'r faqat

shu ijodkorgagina taalluqli bo'lgan badiiy mantiq qonuniga muvosiq yaratilgan. Odatda, chinakam badiiy hodisa o'ziga xos olam va u o'zining qoidalarigagina muvosiq keladi. Shu bois asl badiiy hodisa bir bor yaraladi, unda takror yo'q. Qonuniyat esa takrorni taqozo qiladi. Yuqoridagi parchada shoirning alohida rulni, o'zigagina xos nuqlai nazari sezilib turadi. Ayni vaqtida she'r o'quvchini jalg etadi, uning e'tiborini tortadi, o'yga toldiradi. Uning tafakkuriga-da nimadir yangilik yetkazadi, ko'ngliga-da qandaydir yengillik bag'ishlaydi. Dunyoni shu tarzda ko'rgan, olam ranglarini shu taxlit tuygan shoirga e'tiroz qilib, tayyor qoliplarni tiqishtirib bo'lmaydi. Bahrom Ro'zimuhammad boshqa bir she'rda bejiz yozmagan:

men qanday yashashim lozim  
qanday bo'lsam sizga yoqaman  
qaysi usulda yozsam she'rlarimni o'qiysiz  
aruzdamni barmoqdamni sarbastdamni yo

Mazkur misralarni darak, so'roq yoki undov ohangida o'qish she'rxonga havola etilgan. Ularning ohangini belgilash izni ham o'quvchining o'zida. O'zbek o'quvchisi shoirni, she'riy so'zni boricha qabul etishga odatlanib bormoqdaki, bu hol milliy she'rxonlik saviyasi sezilarli yuksalayotganidan dalolatdir.

Poyeziyaning o'z asl manbasiga qaytganligi, ko'ngil rozlarini, ruhiy tovaniishlarni nozik ishoralar, nazokatli obrazli ifodalar orqali tasvirlashga o'tilganligi istiqlol davri o'zbek she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan bo'ldi deyish mumkin. Bu davr milliy she'riyatida ommaviylikdan, hamimaboplikdan qochishga urinish kuchaydi. She'riyal hamuna uchun, omma uchun emas, balki, avvalo, muallifning o'zi uchun, qolaversa, ijodkorga tuyg'udosh shaxslar uchun yaratiladigan bo'ldi. Shu bois, she'rxonlarning poetik so'zni, obrazli ifodani anglash darajasi ortdi. Chunki baland she'riyat yuksak didli she'rxonni talab qiladi va uni shakllantiradi. Mustaqillik davrida o'zbek poyeziysi o'quvchi darajasiga tushish bosqichini inkor etib, she'rxonni o'z darajasiga ko'tarish pallasiga kirdi. Shu tariqa azaldan she'rparast bo'lgan millatning badiiy zavqi ingichkalashib, so'z jozibasini anglash qudrati sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbek she'rxonlarida birorta tinish belgisi ishlatilmagan tizmadan ham, murakkab mavlumi obrazlilikka to'la she'riyatdan ham, tasavvufiy ilhom samarasi o'laroq dunyoga kelgan munojotlardan ham, poetik mim deyish mumkin bo'lgan ramziy ifodalardan ham, meditativ nazm (hissiyot jilvalari aks etgan she'riyat) namunalardan ham ta'sirlanish, ularni baholay olish ko'nikmasi shakllanib bormoqdaki, bundan bir qadar qanoat tuyish mumkin.

**Nasr** bugungi adabiy jarayonning salmoqli va og'irkarvon turidir. Hozirgi adabiy jarayonda Shukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshinov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Tohir Malik, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Asad Dilnurod, Xayriddin Sultonov, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Normurod Norqobilov, Ulug'bek Abdulvahob, Luqmon Bo'rixon, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam lebratib, milliy nasr taraqqiyotini ta'minladilar.

Ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'sinlarini qo'llash, badiiy ifodaning tutilmagan, yangi tamoyillaridan foydalanish o'zbek nasrinining bu bosqichi uchun yetakchi xususiyatlardir. Omon Muxtorning tamomila yangicha ifoda usullarida yaratilgan "Ming bir qiyosa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdag'i xaroba", "Ffu", "Ayollar sultanati va mamlakati", "Maydon" romanlari. Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg'or tajribalari asosida sof milliy obrazlar yarata olgan "Qora kitob" qissasi, "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tobut shahar", "Quyun" hikoyalari, Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar". Salomat Vafoning "Tilsim sultanati" romanlari insonga yondashuvning yangichaligi, tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko'ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar bo'ldi.

N. Eshonqul — milliy istiqlol davri o'zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari, ohangning o'zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. Shu vaqtga qadar bu taxlit ko'p qatlami, zalvorli, hikoya maroniining o'zi bilan badiiy kayfiyat hosil qila biladigan nasr namunasi milliy adabiyotimizda yo'q edi hisob. N. Eshonqul nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o'zbek millatiga xos bo'lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir. *"Qishloqdoshlari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko'chib chiqishar va yer shudgorlar, har kim o'z tashvishiga berilib ketardi. Qishloqda qolgan Bayna momo esa bu paytda yolg'izlik dashtini shudgorlar, u yerga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib, eri va o'g'lini otib tashlagan oqshomni ekar va so'ng yolg'iz o'zi hosilini ham yig'ib olardi. Bayna momo har kecha ko'z yoshlari bilan to'lgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan o'g'lining ilma-teshik bo'lgan murdasasi va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan qonli halqob bilan to'lgan ayvong'a suzib borar, ertalablari ho'l bo'lib ketgan yostig'ini xuddi qadim ajdodlarning unut bo'lgan yaloviday... baland tolga osib ostobda quritardi".*



Ifodadagi zalvor, serqatlam estetik bosim, ruhiy holat manzaralarini tasvirining ayni shu tarzda zanjirsimon va boloxonador qilib berilishimинг o'zi hikoyada o'ziga xos ohang paydo qilgan. Bu ohang momoning yolg'izligi va baxtsizligi miqyoslarini tuyish va tushinish imkonini bergan.

Ulug'bek Abdulvahobning "Yolg'izlik" qissasi, qator hikoyalari qahramonlar ruhiy olamini tadqiq etish ko'lami va yo'sinlari jihatidan adabiyotimiz uchun tamomila yangilik bo'ldi. Ularda bayon, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash singari badiiy usullar bir narsaga — tadqiqqa o'z o'rnnini bo'shatib bergan deyish mumkin. Yozuvchi uchun qahramonlarining hatti-harakatlarini ko'rsatish emas, balki sezimlaridagi, o'ylaridagi toyvanishlarni aks ettirish muhim. Arastu zamonalardan buyon adabiyotning mohiyati hayotdagi xaosni badiiyatning kosmosiga aylantirishdan iborat deb tushunib kelingan. Voqelikdagи "tartibsizlik"lar muayyan muntazamlik kasb etishi, tartibga tushirilishi bilan badiiy asar yuzaga keladi deb qaralgan.

"Yolg'izlik" qissasida esa aynan shu tartibsizlikning o'zi, bo'lganda ham, voqelikdagи emas, inson xayolotidagi, kechinmalaridagi tartibsizlik tasvir ob'yektiga aylangan. Qissa da muallif qahramon o'yu xayollarini uning xarakterini ochish vositasiga aylantirmaydi. Bil aks, o'y-xayollarning tartibsiz va noizehil oqimini berishning o'zi uning badiiy maqsadiga aylanadi. Ma'lumki, inson xayolotida izchillik, muntazamlik bo'lmaydi. Ko'p hollarda, odam xayolni emas, xayol odamni yetaklaydi. Shu tariqa milliy adabiyotimizda, sirdan qaraganda, badiiy maqsadga bo'y sunmaganday taassurot qoldiruvchi, aslida esa, o'y chil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralarini namoyon etuvchi asar dunyoga kelgan.

Risoladagi har qanday odam singari qissa qahramonining o'ylarida ham tizzin yo'q, muallif bu xayollarini saralamaydi. O'ydan o'yga, xayoldan xayolga ko'chish jarayoni tasvirining o'zi qahramon tabiatiga xos xususiyatlarni saralangan badiiy muntazamlikdan ko'ra yorqinroq namoyon etadi. Odamning ichi bilan sirti, tili bilan dili bir bo'lgan holatlari nihoyatda kam. U faqat o'ylaridagina o'zi bo'la oladi. Odam tizzinsiz o'y oqinlari bilan yolg'iz qolgandagini o'ziga qaytadi. Shunday holatni aks ettiruvchi usuldagina odamni bir qadar to'laroq ilg'ash mumkin bo'ladi. Ulug'bek Abdulvahobning asarlari milliy nasrning personajlar psixologiyasini chuqur taftish etishga qaratilgan dastlabki namunalaridir.

Shukur Xolmirzayev "Olabo'ji", "Dinozavr" romanlari, "Bulut to'sgan oy", "Ozodlik", "Navro'z, navro'z" hikoyalari, Norimurod Norqobilov "Oqbo'yin", "Qoyalar ham yig'laydi", "Tog' odami" qissalari, "Oriyat", "Quvonchli kun" hikoyalari, Shoyim Bo'tayev "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasi, "Darvesh" hikoyasida, Tog'ay Murod "Otandan qolgan dalalar" romanida nasrning

an anaviy tasvir yo'sinidan mahorat bilan foydalana bildilar. Bu asarlarda millat vakillarining g'oyat o'ziga xos hamda jonli badiiy timsolları yaratildi. Ularda an anaviy tasvir yo'naliishi o'ziga xos badiiy izlanishlar hamda dunyo adabiyotidagi eng so'nggi ifoda usullarini dadil qo'llash bilan uyg'unlashib ketgan. Mustaqillik davri o'zbek nasrida inson shaxsini xilma-xil rakurslarda aks ettirish, uning xatti-harakatlari va o'y-xayollari ruhiy asosini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, nasrda tasvirlanayotgan qahramonlarning geografiyasi kengayib bormoqda. Zamnaviy nasrda millatdoshlarimizni pasportiga qarab emas, balki fikr tarzi, axloqiy qanoatlariga qarab payqab olish mumkin.

Milliy adabiyotimiz aholisi qisqagina vaqt orasida Bayna momo, Ultom, Gulsara, Tavakkal, Husan polvon, Ernazar polvon, Zulra, O'sar, Ko'klam singari yirik, o'ziga xos, boshqa adabiy qahramonlar orasida yo'qolib ketmaydigan qabariq obrazlar hisobiga boyidi.

Milliy tafakkurda yalpi yangilanish boshlangandan beri ko'pchilik tomonidan anglab yetilgan va tan olingan haqiqatlardan biri shu bo'ldiki, odamning eng kichigi, eng ko'rimsizi, eng zabuni, eng noshudi ham odamdir. Yaratganning xalifasidir va shu bois mukarrandir. Binobarin, badiiy adabiyot kichik odamning katta va chigat ichki dunyosidagi behudud poyonsizlikni, turfalikni tadqiq etishi lozin. Bir qator asarlarda sirtdan qaraganda, ko'zga tashlanib turadigan jihat yo'q, hamma qatori, ammo botinida ulken iztiroqlar, ruhiy po'rtanalar mavjud bo'lган "kichik" odamlarning ichki dunyosi ham mahorat bilan aks ettirilgan.

Nosirlarimizda ma'naviy dunyosi quruqshagan, risoladagi odamlarday fikr-lash va o'zgalarni tuyish saodatidan mahrum bo'lgan ma'naviyatsiz kimsalarni tasvirlash mahorati shakllanayotganligi ham quvonarli holdir. Sh. Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar", qissasi, A. Yo'ldoshevning "So'qir" hikoyasida ayni shu xildagi qahramonlar tasvir etilgan.

Bu asarlarda ma'naviyatdan mahrum, shaxsligi sindirilgan, shu bois o'zligi yitgan kishilarning g'aroyib qismali aks ettirilgan. Ular hamisha ham ojiz, notavon, noshud emaslar. Ba'zan juda ishehan, olg'ir, uddaburron bo'lislari ham mumkin. Lekin bunday kimsalarning umumiy jihat olami kabir — ichki olamning omonatligi, quruqshaganligidadir. Yevropaning Peter Biksel, Maks Frish, Karl Maksi singari adiblari ham bugungi kunda "kichik" odamlarning katta hissiyotlarini aks ettirishlari bilan mashhur bo'lganlar.

O'zbek nasri qahramonlar tasvirida sxematizmdan qutulib bormoqda. Badiiy asarda odamga ijobiy-salbiy yoki tipik-notipik singari qoliqlar orgali emas, balki mavjudligining o'zi bilan adadsiz siru sinoatlarga to'la tirik inson tarzida yondashish qaror topib borayotganligi bu davr nasrining umid tug'diradigan jihatlari-

dandir. Bu fazilatlar barcha ijodkorlar uchun ham yoppasiga xos deb bo'lmaydi, albatta. Lekin odamga yondashishda jo'nlikdan, qolidan voz kechilganligining o'ziyoq nasrimiz taraqqiyotida sog'lom tamoyillar qaror topayotganligidan beligidir.

O'zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlar bugungi **dramaturgiya** taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", Erkin Samandarning "Arabmuhhammad Bahodirxon", Ilhom Hasanning "Bir kam dunyo", Abdulla A'zamining "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng", O. Yoqubovning "Bir koshona sirlari" kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi.

"Bir qadam yo'l" dramasida inson ko'ngli mayllariga e'tiborsizlik, vaqtida odamni qadrlamaslik singari jihatlar keksa kishining murakkab taqdiri misolda aks ettirilgan. Samarqandni ko'rish, uni ziyorat etishni bir umr orzu qilib yashagan, amma vaqtida o'z qo'lining kaltaligi, keyinchalik turmush tashvishlari bilan ovora farzandlarining e'tiborsizligi sabab yonginasidagi shaharni ko'rmay o'tib ketgan qariya va uning atrofidagilar ruhiyatini asarda katta mahorat bilan ko'rsatilgan.

Dramaturgiyada shakliy izlanishlar qilish, ijodiy tajribalar o'tkazish yo'nalishidagi izlanishlar to'xtagan emas. U. Azim va A. A'zam qalamiga mansub dramalar sahna asarlari yaratishdagi dadil tajribalarning mahsulidir. Dramaturglar hayotiy holatlar son-sanoqsiz bo'lishi mumkinligi va undagi o'zgarishlar ana shu vaziyatda harakat qilayotgan qahramonlar tabiatida ham jiddiy evrilishlar yasashi mumkinligini nozik his etgan holda drama-versiya, drama-vaziyat singari ifoda shakllarni o'ylab topganlarki, bu hol asarlarning bir qadar muvaffaqiyatlchi qishini ta'minlagan.

E. Samandarning "Arabmuhhammad Bahodirxon" tragediyasida esa, insoniyat paydo bo'lgandan beri hal bo'lmay kelayotgan yaxshilik va yovuzlik, nafs va qanoat, hokimiylar va farzandlik burchi singari qarama-qarshi qadriyallar o'rtasidagi lo'qnashuv bobolariniz taqdirlari misolda ta'sirli tasvilab berilgan. Harbiy qudrati bo'lishiga qaramay, o'zining yovuz farzandlariga qarshi qo'shin tortishni istamagan Arabmuhhammadxon shaxsiyatidagi yuksak sifatlar va o'z otalaringin ko'zlariga mil tortish darujasida yirtqich bo'lgan Habash va Elbars tim-sollaridagi tubanliklar asarda juda ta'sirli yo'sinda ko'rsatib berilgan.

Ayni vaqtida milliy dramaturgiyaning tilga olishga loyiq badiiy yutuqlar qo'liga kiritilishi og'ir kechayotgan soha bo'lib qolayotganligini ta'kidlash kerak. Dramaturgiya bozor iqtisodi talablariga eng ko'p berilgan adabiy tur bo'ldi. Bu hol sahna asarlарining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi, albatta. Aytish

kerakki, miqdor jihatidan dramachilik taraqqiyotiga e'tiroz bildirib bo'lmaydi. Keyingi yillarda dunyoga kelgan dramalar uchdan biri turli yubileylar munosabati bilan yozilganligi aniqlandi. Komediya degan nomga da'vogar sahna asarlari ning esa deyarli barchasi teatrлarning buyurtmasi bilan yaratilgan.

Albatta, ijtimoiy buyurtma yo'li bilan ham yetuk badiiy asarlar dunyoga kelishi mumkin. Bunga milliy va jahon adabiyoti tajribasidan istagancha misollar topsa bo'ladi. Ammo butun boshli milliy dramaturgiyani faqat buyurtma yo'li bilan taraqqiy ettirishga urinishni badiiyat nuqtai nazaridan sog'lom hol deb bo'lmaydi.

Komediyalarning saviyasi kishida haqli e'tiroz va jiddiy xavotir uyg'otadi. Negaki, o'zbek komediya chiligining dastlabki qadamlariyoq juda zalvorli va esda qolarli bo'lган. Hamza, Qahhor, Sh. Boshbekovlarning teran ma'noli kulgi asarlarini eslashming o'zi da'vemizning nechog'liq haq ekanligini ko'rsatadi. Bugungi komediyalarning badiiyati na ijrochilarga, na tomoshabinlarga va na o'quvchilarga biror estetik ozuqa bera oladigan darajada nochordir. Sahnaviy ijodning komediya deb atalmish bir turiga ko'cha so'zları, hissiyoti, tiyiqsiz chuchmallik, pardasizlik o'ta surlik bilan kirib kelmoqda.

Mualliflar to'qnashuvlar tarangligi haqida emas, so'zlarining pardasizligi haqida ko'proq bosh qotirishmoqda. Bu xildagi bitiklar to'xtovsiz sahnalashtirilayotganligi, boz ustiga, ko'plab tomoshabinlarga ega bo'layotganligi esa jiddiy estetik xavfdir. Chunki millatning badiiy didi shakllanishiga to'g'ri yo'nalish bermay turib, uning ma'naviyatini yuksaltirish, komil shaxsni tarbiyalash haqida gapirish behudadir.

Davr ahli ruhiyatidagi oshkoraliq, sezimlar nozikligi, munosabatlar dramatizmidagi taranglik hali-hanuz pyesalarga ko'chganicha, sahna realligiga aylan-ganicha yo'q. Ehtimol, milliy tafakkurdagi to'xtamlarning, estetik qarashlardagi qanoatlarning qat'iy lashmaganligi, hozirgi voqelikning ijodkorlardan yetarlicha uzoqlashmaganligi, shu hayot tufayli yuzaga kelgan hissiyotlar junbushining tiniq-maganligi, ijtimoiy to'qinishlar ruhiyatlarda bergen aks-sadoni sahnabop shakkda moddiylashtirish qiyinligi bunday holning ro'y berishiga sababdir. Holbuki, har qanday keskin ijtimoiy o'zgarish va yangicha hayotiy vaziyat dramatik turdag'i asarlar yaratilishi uchun mo'l-ko'l material bera oladi.

Ma'lumki, milliy adabiyotimiz uchun haq gapni aytish badiiy ijodning unchalar muhim bo'lмаган oddiy talabiga aylandi. Milliy dramaturgiyamiz esa hanuzgacha zarur gapni keskinroq yo'sinda aytishni fazilat sanab kelmoqda.

Har bir alohida odamda bo'lgani kabi har bir millatning va har bir davrning ham o'z mo'ljallari, egallanishi orzu etiladigan marralari bo'ladi. Mustaqillikka erishilganidan keyingi davr o'zbek adabiyoti uchun inson ma'naviyati qirralarini



tekshirish, odam ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etishga erishish ana shunday baland marradirki, milliy adabiyotimiz uni egallash sari og'ishimay boyayotir.

Xullas, mustaqillik davri adabiyoti sog'lom tamoyillar asosida rivojlannioqda. Hozir yaratilayotgan turli janrlardagi asarlarda zamondoshlar ruhiyatini tasvirlashning eng ta'sirchan usullarini kashf etishga jiddiy e'tibor berilyapti.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Hozirgi adabiy jarayonga xos xususiyatlarni ko'rsating.
2. Bugungi o'zbek she'riyatining yetakechi xususiyatlariiga to'xtaling.
3. Bugungi o'zbek romanachiligining asosiy belgilarini aytинг.
4. Zamoniaviy o'zbek qissachiligidagi yetakechi yo'nalishlarni sharhlang.
5. Zamoniaviy o'zbek hikoyachiligining tarbiqiyot tamoyillarini ko'rsating.
6. Bugungi o'zbek dramaturgiyasining xususiyatlarini sharhlang.



## MUNDARIJA

Ruhiy kamolot vositali . . . . . 3

### XALQ OG'ZAKI IJODI

"Algomish" dostoni . . . . . 6  
Xalq dostonlari va ularning turlari . . . . . 27

### O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

Nosiruddin Rabg'uziy . . . . .	29
Qisasi Rabg'uziy . . . . .	32
Alisher Navoiy . . . . .	37
Xamsa. "Hayrat ul-abror" dostoni . . . . .	40
"Farhod va Shirin" dostoni . . . . .	44
Komil inson . . . . .	60
"Layli va Majnum" dostoni . . . . .	62
"Sab ai sayyor" dostoni . . . . .	67
"Saddi Iskandariy" dostoni . . . . .	75
Zahiriddin Muhammad Bobur . . . . .	80
Lirik asarlari . . . . .	84
"Boburnoma" . . . . .	86
Menuar usar . . . . .	90
Boborahim Mashrab . . . . .	91
Mashrab she'riyatidan . . . . .	95
Tasavvuf va tasavvuf alamalari . . . . .	99
Muhammad Rizo Ogahiy . . . . .	101
Lirika . . . . .	105
Tashxis . . . . .	110
Zokirjon Holmuhammad o'g'li Furqat . . . . .	111
She'rlar . . . . .	115
G'azal va musamman . . . . .	119

### YANGI O'ZBEK ADABIYOTI

Abdulla Qodiriy . . . . .	120
O'tkan kunlar . . . . .	122
"O'tkan kunlar" romanii to'g'risida . . . . .	140
Badiiy asarda milliy rub ifodasi . . . . .	141
Cho'lpion . . . . .	143
She'rlar . . . . .	146

Cho'lpox she'rlari to'g'risida . . . . .	151
Ijtimoiy va intim lirika . . . . .	151
Kecha va kunduz . . . . .	152
"Kecha va kunduz" romanı to'g'risida . . . . .	166
<b>Oybek</b> . . . . .	169
Lirika . . . . .	171
Qutlug' qon . . . . .	173
"Qutlug' qon" romanı to'g'risida . . . . .	188
Roman janri haqida . . . . .	190
<b>Odil Yoqubov</b> . . . . .	191
Ulug'bek xazinasi . . . . .	192
Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili . . . . .	206
<b>Abdulla Oripov</b> . . . . .	207
She'rlar . . . . .	209
Abdulla Oripov she'rlari to'g'risida . . . . .	213
Lirik qahramon . . . . .	215
Sohibqiron . . . . .	216
«Sohibqiron» asari to'g'risida . . . . .	224
 JAHON ADABIYOTI	
<b>Vilyam Shekspir</b> . . . . .	225
Otello . . . . .	228
"Otello" fojiasi to'g'risida . . . . .	242
Tragik obrazlar va hayot haqiqati . . . . .	244
<b>Haynrix Hayne</b> . . . . .	245
She'rlar . . . . .	248
<b>Aleksandr Sergeyevich Pushkin</b> . . . . .	251
Yevgeniy Onegin . . . . .	253
She'riy roman . . . . .	270
<b>Chingiz Aytmatov</b> . . . . .	271
Asrga fatigulik kun . . . . .	273
"Asrga fatigulik kun" romanı to'g'risida . . . . .	287
Badiiy asar pafosi haqida . . . . .	288
<b>MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTTI</b> . . . . .	289

QOZOQBOY YO'LDOSHEV, VALLJON QODIROV,  
JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV

## **ADABIYOT**

Umumiy o'rta ta'limi maktablarining 9- sinfi uchun darslik

*(O'zbek tilida)*

Ijodiy guruh rahbari — Akbar Mirzo

<i>Muharrir</i>	<b>Rauf Subhon</b>
<i>Rassom</i>	<b>Shamsiddin Ahmedov</b>
<i>Texnik muharrir</i>	<b>J. Bekiyeva, U. Kim</b>
<i>Musahhiha</i>	<b>E'tibor Nurmatova</b>
<i>Sahifalovchi</i>	<b>Shuhrat Hasanov</b>

Bosishga ruxsat etildi 02. 05. 2010. Bichimi 70 x 90%.

Kegli 11. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli b.t. 22,04. Nashr b.t. 19,0. Nusxasi 478 678 dona.

Buyurtma № 54.

Shartnomalar № 34.

Darslikning original-maketi «Mitti Yulduz» MCHJ da qayta nashrga tayyorlandi.  
Navoiy ko'chasi, 30.

«YANGIYO'L POLIGRAFI SERVICE» MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval.

	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chiziligan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi

*бух*  
Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



ISBN 978-9943-361-53-9

A standard one-dimensional barcode used for book identification.

9 789943 361539

**POLIGRAPH  
SERVICE**

